

B. E. MAMARAXIMOV

90^{*yil*}
TDIU

GLOBAL IQTISODIY RIVOJLANISH



B.E.MAMARAXIMOV

GLOBAL IQTISODIY RIVOJLANISH

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan**

TOSHKENT – 2021

UO‘K: 339.9

KBK 65.5

M 56

B.E.Mamaraximov. Global iqtisodiy rivojlanish. Darslik. – T.: «INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021, 364 bet.

ISBN 978-9943-7395-2-9

Ushbu darslikda “Global iqtisodiy rivojlanish” faniga kirish, jahon iqtisodiyotining globallashuvi konsepsiyalari, globallashuv va xalqaro savdoning rivojlanish tendensiyalari, globallashuv sharoitida ishchi kuchi migratsiyasi, transmilliy korporatsiyalarning milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta’minlash muammolari ochib berilgan. Darslik magistraturaning 5A230101 – Iqtisodiy nazariya mutahassisligi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etiladi.

Учебник знакомит с предметом «Глобальное экономическое развитие», концепциями глобализации мировой экономики, тенденциями глобализации и международной торговли, трудовой миграцией в условиях глобализации, проблемами транснациональных корпораций по обеспечению конкурентоспособности национальной экономики. Учебник рекомендован в качестве учебного пособия для магистрантов специальности 5A230101 - Экономическая теория.

This textbook introduces the subject of "Global Economic Development", the concepts of globalization of the world economy, the trends of globalization and international trade, labor migration in the context of globalization, the problems of transnational corporations to ensure the competitiveness of the national economy. The textbook is recommended as a textbook for master's students majoring in 5A230101 - Economic Theory.

UO‘K: 339.9

KBK 65.5

Taqrizchilar: A.F.Rasulev – i.f.d., prof.,

D.Sh.Bababekova – i.f.n., dots..

ISBN 978-9943-7395-2-9

© «INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021.

KIRISH

Hozirgi davrda jahon iqtisodiyotida ikki tendensiya amal qilmoqda. Bir tomondan, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi, xalqaro savdoning erkinlashuvi, kommunikatsiya va axborot zamonaviy tizimi, texnik jihatdan jahon andozalari va me'yorlarining yaratilishi natijasida jahon xo'jaligining yaxlitligi, uning globallasuvi kuchaymoqda. Ayniqsa, bu jarayon transmilliy korporatsiyalarning faoliyatlari orqali aniq namoyon bo'lmoqda. Boshqa tomondan, mintaqaviy darajada mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan yaqinlashuvi va o'zaro aloqadorligi ro'y berib, jahon xo'jaligining nisbatan mustaqil markazlarini tashkil etish yo'nalishida rivojlanayotgan yirik mintaqaviy integratsion tuzilmalar shakllanmoqda.

Shunga ko'ra, ushbu bobda xalqaro integratsiyaning mohiyati, maqsad va shakllari bayon etiladi. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning turlicha nazariyalari tahlil etilib, jahondagi asosiy integratsion guruhlar, shuningdek, O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga kirib borishi va tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari ochib beriladi.

So'nggi yillarda respublika iqtisodiyotida davlatning roli va ishtirokini qisqartirish, iqtisodiyot tarmoqlarini boshqarishga bozor prinsiplari va mexanizmlarini keng joriy qilish, shuningdek, aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi" PF-4749 sonli Farmonini O'zbekistonni global iqtisodiy rivojlanishi uchun shu davrning kichik konstitutsiyasi deb qabul qilish lozim.

O'zbekiston Respublikasining o'rta muddatli investitsiya siyosati strategiyasi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish Konsepsiyasi, hududlar va tarmoqlarni rivojlantirish konsepsiyalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tasdiqlangan dastur va qarorlar asosida shakllantirilishi lozim bo'lgan muhim vazifalar kiritilgan.

“Global iqtisodiy rivojlanish” fani bo‘yicha tayyorlangan darslikda fanning ishchi dasturiga asosan barcha mavzular yoritilgan.

Darslikda fanning mavzulari bo‘yicha oxirgi yangiliklar, fan bo‘yicha testlar, glossariylar bayon etilgan.

Darslikdan talabalar va magistrlar, ilmiy izlanuvchilar va shu fanga qiziquvchilar foydalanishi mumkin.

Mualliflar darslikning tuzulishi, mazmuni, muammolarni bayon qilinish tartibi va uslubi bo‘yicha bildirilgan xar qanday taklif muloxazalarni minnaddorchilik bilan qabul qiladi hamda keyingi ilmiy faoliyat jarayonida hisobga oladi.

I BOB. “GLOBAL IQTISODIY RIVOJLANISH” FANIGA KIRISH

1.1. “Global iqtisodiy rivojlanish” fanining predmeti, maqsadi, vazifalari

Mamlakatimizda ishlab chiqilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li konsepsiyasiga amal qilib iqtisodiyotda tub institutsional va tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda, ishlab chiqarishni qayta tashkil etish va davlat tasarrufidagi korxonani xususiylashtirish asosida mulkchilik munosabatlari qayta ko‘rilmoqda, yangi bozor mexanizmlari va bozor infratuzilmasi shakllantirilmoqda. Shu bilan birga respublikaning XXI asrga qadam qo‘yishi milliy tizimlarga yuksak talablar qo‘yuvchi iqtisodiy integratsiya asosida globallashtirishning jahon tendensiyalari kuchaygan bir sharoitga to‘g‘ri keldi.

Globallashuv davlatlarning iqtisodiy siyosat sohasidagi ustamonlik bilan harakat qilishlarini cheklaydi, lekin hech ham uni bekor qilmaydi. Hukumatlar davlatdagi investitsiya iqlimini investorlar uchun qiziqish uyg‘otishini quyidagi tadbirlar orqali farqini belgilaydilar:

- infrastrukturani rivojlantirish;
- maorifni, kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimini qo‘llab-quvvatlash;
- ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish bilan birga xizmat ko‘rsatish sohasidagi narxlarni pasaytirish;
- erkin raqobat uchun sharoit yaratish yoki normalarni tartibga solishni o‘zgartirish;
- ishchi kuchi bozorining ishini takomillashtirish.

Boz ustiga, bir yo‘nalishda hukumat bevosita o‘z ta‘sirini yo‘qotmaydi. Qochqinlar va immigrantlar muammosi o‘z dolzarbligini yo‘qotmasa hali, immigratsion nazorat va aholini ro‘yxatdan o‘tkazish tizimi shunga olib keladi-ki, ommaviy ko‘chishlar iqtisodiyotning ko‘rsatkichi bo‘lib qolmaydi. Fuqarolik va yashash huquqini berish ustidan borilayotgan qattiqqo‘l nazorat davlat tomonidan an’anaviy chegaralar va hududlarni saqlab qoluvchi yagona sohaga aylanadi.

Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotining sovrindori,
Kolumbiya universitetining professori Jozef Stiglts

- Globallashuv - insonlar hayotini yaxshilashning eng yaxshi potensialidir, shu jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi hayoti yaxshilanmoqda. Uning ayrim yo'nalishlari hozirning o'zida, masalan, ilmning globallashuvi sog'liqni saqlash, insonlarning umrini uzaytirishga olib kelmoqda"

Kaliforniya universiteti professori M.Kastels

- Globallashuv jarayonini "yangi kapitalistik iqtisod", unda axborot, bilim va informatsion texnologiyalar ishlab chiqarish va raqobatbardoshlik o'sishning asosiy manbasi.

1.1-rasm. Globallashuv haqida iqtisodchi olimlarning fikrlari¹

Globallashuvning tahlili davlatlarni global dunyodagi funktsiyalarni oydinlashtirib beradi, negaki ayrim sohalarida globallashuvning ta'siri uncha katta ahamiyatga ega emas. Har qanday chegaradan yuqori turgan global jihatdan qanchalik uzoqdaligimizni anglasak ham, bir necha yo'nalishlar bo'yicha davlatlarning roli o'zgargan. Davlatlar kapitalni jalb qilish va ushlab qolish va mustaqil iqtisodiy siyosatini o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lsa ham, ularning roli nazoratda emas, balki iqtisodiyotni tartibga solishdan iborat.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning o'tgan 20 yilida jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining eng e'tiborli jihati xalqaro iqtisodiy munosabatlarning global ravishda rivojlanib borishi bo'ldi. Jahon xo'jaligi tizimida davlatlarning ayrim guruhlarini, xalqaro iqtisodiy guruhlar, alohida kompaniya va tashkilotlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tobora kengayib bormoqda. Bu jarayonlar xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va baynalmilallashuvida, ularning bir-biriga bog'liqligi va yaqinlashuvida, mintaqaviy xalqaro tuzilmalar va ayrim davlatlar guruhlarining rivojlanishi va munosabatlari mustahkamlanishida namoyon bo'lmoqda.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, hamkorlik va globallashuv jarayonlari qarama-qarshi dialektik xarakterga ega. Globallashuv

¹ Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Barkamol fayz-media» nashriyoti, 2017.

munosabatlarining dialektikasi shundaki, ayrim mamlakatlar va iqtisodiy guruhlarining iqtisodiy mustaqillikka hamda iqtisodiyotini mustahkamlashga intilishi global iqtisodiyotning yanada integratsiyalashuvi, jahon iqtisodiy munosabatlarining kengayishi va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuviga olib keladi.

Global iqtisodiy munosabatlarning predmetini ikki asosiy qism – global iqtisodiy munosabatlarning o‘zi va uni amalga oshirish mexanizmi tashkil qiladi.

Global iqtisodiy munosabatlar alohida mamlakatlar, ularning mintaqaviy birlashmalari, shuningdek, bugungi kunda jahon iqtisodiyotida muhim o‘rin egallovchi alohida korxonalar (transmilliy, ko‘pmilliy va xalqaro korporatsiyalar)ning global iqtisodiy tizimdagi o‘zaro qarama-qarshi bo‘lgan iqtisodiy munosabatlari majmuini o‘z ichiga oladi.

Global iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish mexanizmi esa huquqiy me‘yorlar va ularni amalga oshirish vositalari (xalqaro iqtisodiy shartnomalar, kelishuvlar, «kodekslar», xartiyalar va boshqalar), global iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadi yo‘naltirilgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatini o‘z ichiga oladi.

Global iqtisodiy munosabatlar tizimiga quyidagilar kiradi:

1. Xalqaro mehnat taqsimoti.
2. Xalqaro tovar va xizmatlar savdosi.
3. Xalqaro kapital va investitsiyalar harakati.
4. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi.
5. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari.
6. Global iqtisodiy integratsiya.

Global iqtisodiy munosabatlar XX asrning 90-yillarigacha bo‘lgan davrda jahon xo‘jaligi ko‘rinishida o‘rganilgan va bu munosabatlar mintaqaviy xarakterga ega bo‘lgan. Jahon iqtisodiyotining global iqtisodiyot darajasiga o‘zgarishi bilan bu munosabatlar kengayib va chuqurlashib, global xarakterga ega bo‘ldi.

«Global iqtisodiy rivojlanish» fani turli milliy iqtisodiyotlarning o‘zaro ta’sirlashuv qonuniyatlarini, tovar va xizmatlar oqimlarining harakati va jahon hamjamiyati ichidagi to‘lovlarni, ushbu tovar va xizmatlar oqimini belgilab beruvchi hamda muvofiqlashtirib turuvchi iqtisodiy siyosatni, ularning jamiyat farovonligiga ta’sirini o‘rganadi.

«Global iqtisodiy rivojlanish» fanining predmeti mikro va makroiqtisodiy fanlar predmetidan farq qiladi. Ushbu fanning o‘rganish

predmeti turli mustaqil davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlari va ular o'rtasida yuzaga keladigan aloqalar tizimi hisoblanadi.

Global iqtisodiyot, odatda, tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillari oqimiga qarshi mamlakatlar o'z chegaralarida o'rnatadigan ma'lum bir ichki cheklovlarning mavjud emasligi bilan xarakterlanadi.

Alohida mamlakatlar yoki hamkor guruhlar iqtisodiyoti bilan global iqtisodiyot o'rtasidagi qator farqlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Birinchidan, har qanday korxonada iqtisodiyotida ichki bozorda ishlab chiqarilgan har qanday foydali buyum yoki xizmat tovar sifatida tan olinadi. Makroiqtisodiy yondashuv esa joriy mehnat orqali ishlab chiqarilgan bunday tovarlarni yalpi ichki mahsulot va milliy daromad tarkibiga kiritiladi.

U yoki bu milliy iqtisodiyotda kerakli buyum sifatida ishlab chiqarilgan yoki sotilgan tovar xalqaro savdoda tovar sifatida tan olinmasligi ham mumkin. Xalqaro savdo sohasida tovarlar savdo qilinadigan (tradable goods) va savdo qilinmaydigan (nontradable goods) tovarlarga ajratiladi. Faqat ichki iste'mol uchun ishlab chiqariladigan tovarlar savdo qilinmaydigan tovarlar sanaladi. Ular sirasiga qurilish mahsulotlarining katta qismi, shuningdek, ta'lim, sog'liqni saqlash, kommunal xizmatlar va boshqalar kiradi.

Bundan tashqari, raqobatbardoshligining pastligi oqibatida savdo qilinadigan tovarlarning hammasi ham tashqi bozorlarda ayirbosh qilinmasligi mumkin. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, dunyoda hech bir mamlakat ishlab chiqariladigan barcha turdagi tovarlar bo'yicha doimiy raqobat ustunligiga erisha olmaydi.

Ikkinchidan, har bir milliy iqtisodiyotda mehnat va kapitalning nisbatan erkin ko'chib yurishi kuzatiladi, bunga muvofiq, mamlakatda tegishli bozorlar shakllanadi va faoliyat ko'rsatadi. Bunda hududlardagi ish haqi miqdorida bir oz farq kuzatilsa-da, ishchi kuchining erkin ko'chib yurishi mazkur farqni nisbatan kamaytiradi.

Global iqtisodiyotda esa nisbatan boshqacha holat kuzatiladi. Immigratsiya qonunlari, ishchilarning mamlakatdan mamlakatga ko'chib o'tishi bilan bog'liq xarajatlar va boshqa to'siqlar turli mamlakatlarda beriladigan ish haqlari o'rtasidagi farqlarni tenglashtirishga monelik qiladi. Ishchi kuchi oqimiga qaraganda kapitalning xalqaro oqimida to'siqlar nisbatan kam uchraydi. Bunday farqlar, o'z nav-

batida, tovarlar oqimining harakati va ichki savdo operatsiyalarining samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchi, korxonalar iqtisodiyoti mamlakat ichida erkin savdo qiladigan va davlat ko'magidan foydalanmaydigan firmalar faoliyatini o'rgansa, xalqaro savdo nazariyasi esa tashqi savdo yo'liga qo'yiladigan turli cheklovlar va ularning savdo oqimiga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganadi.

To'rtinchi, makroiqtisodiyot fani mamlakatning barcha hududlarida amal qiladigan tadbirkorlik muhitini o'rganadi. Davlat tomonidan qo'llaniladigan fiskal va pul-kredit siyosati milliy chegaralar doirasidagina amal qiladi. Biroq davlat tomonidan amalga oshiriladigan ushbu siyosatlarning bir-biridan tubdan farq qilishi tovarlar oqimi va xalqaro shartnomalarning amal qilishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Beshinchi, odatda, har bir mamlakat o'z valyutasiga ega bo'lib, uning taklif qilinish darajasi Federalbank tomonidan nazorat qilinadi. Makroiqtisodiyot fani ana shunday yagona valyutaning amal qilishi va uning real vaziyatlarga ta'sirini o'rganadi. Global iqtisodiyotda esa jahon xo'jaligi aloqalarida qatnashuvchi mamlakatlar valyutalari o'rtasidagi munosabatni yuzaga keltiradigan valyuta bozorlari, almashuv kurslari va unga davlatlarning aralashuvi natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlar tadqiqot obyekti sifatida qaraladi².

Savdo va savdo siyosati nazariyalari, shuningdek ishlab chiqarish omillarining bir mamlakatdan ikkinchisiga ko'chib yurishi global iqtisodiyotning mikro darajasida o'rganiladi. Global iqtisodiyotda mamlakatlar yoki mamlakatlarning iqtisodiy guruhlarini mikroiqtisodiyot fanidagi uy xo'jaligi yoki firmalar singari qaraladi.

U yoki bu mamlakatning to'lov balansi jami to'lovlar va tushumlarga uzviy bog'liqdir. Uni muvofiqlashtirish siyosati esa milliy daromad va baholar umumiy holatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ular bilan bog'liq muammolar esa global iqtisodiyotning makroiqtisodiyot qismida o'rganiladi. Bunda ochiq iqtisodiyot modeli, fiskal, pul-kredit siyosati va uning samaradorligi, xalqaro moliyaning makroiqtisodiy tahlili tadqiqot predmetini tashkil etadi.

² Ishmuxamedov A.E., Yusupov A.S. Milliy va jahon iqtisodiyoti. Darslik. – T.: 2010 y. – 16-18 betlar.

Uslubiy jihatdan, umumiy holda olib qaraganda, global iqtisodiyot mikro va makroiqtisodiy tamoyillarning alohida davlatlar yoki ularning iqtisodiy birlashmalari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlari sohasida qo'llanilishini ifoda etadi.

Globallashuv predmetini globallashuv jarayonini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi hamda oldinga harakatlantiruvchi tashkilotlar va siyosiy tuzilmalar faoliyatida yuzaga keluvchi munosabatlar sifatida tushunish lozim. Bunday holatda bu harakatning asosli yoki asossiz ravishda sodir etilishining ahamiyati yo'q. Agar biz rivojlanishning iqtisodiy yoki ijtimoiy mantig'iga amal qilsak, davlatni iqtisodiy shaxs sifatida faoliyat ko'rsatadigan, milliy iqtisodiyotni yoki uning alohida tuzilmalarini xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro iqtisodiy integratsiya tizimiga kiritishga hissa qo'shishi nuqtai nazaridan globallashuv predmeti sifatida tan olamiz.

Globallashuv subyektlari ham davlatlararo iqtisodiy-harbiy bloklar va ittifoqlardan iboratdir. Bu tashkilotlarning jahon savdosi, pul-kredit va moliya munosabatlaridagi o'rni masalalari iqtisodiyot nazariyasi kursining tegishli mavzularida muhokama qilinadi. Shu bilan birga mahalliy sivilizatsiyalar tarixi va globallashuvning paydo bo'lishi o'rtasidagi bog'liqliklar tahlil qilinadi. Mahalliy sivilizatsiyalar va zamonaviy transmilliy korporatsiyalar ham globallashuvning asosiy subyektlari sanaladi.

Globallashuv obykti deganda subyektning nimalar bilan o'zaro aloqada bo'lishi, globallashuv muammolarini bartaraf etishda nimalarga e'tibor qaratish va qanday choralar ko'rishni tushunishimiz mumkin.

«Obyekt» so'zi lotincha «*objectum*» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, narsa degan ma'noni bildiradi va lotinchadan «*objicio*» - oldinga tashlamoq, qarshi chiqmoq ma'nosini bildiradi. Falsafiy nuqtai nazardan obyekt – predmetga qarshi turgan narsani o'z predmeti – amaliy va bilish faoliyatini ifodalovchi kategoriyadir. Demak, globallashuv obykti subyektlarning dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyoti qonuniyatlariga bo'ysinuvchi, yaratuvchi yoki o'zgartiruvchi obyektiv voqelikdir. Bunga xalqaro mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, xalqaro savdo, global integratsiya va hamkorlik, kapitalni eksport qilish, mehnat migratsiyasi, ilmiy-texnik hamkorlik, narx siyosati, xalqaro infratuzilma, axborot texnologiyalari, kosmik

tadqiqotlar, okeanlar va dengizlar, yerning ichki qismini o'rganish, sayyoralararo reyslar va boshqalar kiradi.

Yaqin davrlargacha global muammolarni hal qilishning asosiy vositasi harbiy kuch-qudrat va harakatlar bo'lib kelgan. Asta-sekin urush siyosiy maqsadlarga erishish vositasi sifatida o'z ma'nosini yo'qota bordi. Endilikda davlatlar o'rtasidagi muammolarni mintaqaviy qutblar hal qilmoqda, ammo global muammolar haligacha yetakchi davlatlar tomonidan hal qilinadi.

Mahalliy sivilizatsiya ma'naviy (madaniy, ahloqiy, diniy) va tarixiy qadriyatlar, iqtisodiy va geosiyosiy manfaatlarni ifodalovchi bir guruh xalqlar (etnik guruhlar, davlatlar)ni o'z ichiga olgan dunyodagi fuqarolik makonining bir qismini anglatadi.

Insoniyat tarixida bugungi kungacha sivilizatsiyalar harakatining to'rt avlodi mavjud.

Sivilizatsiyalarning birinchi avlodi miloddan avvalgi IV-II ming yillikda faoliyat ko'rsatib, Yer sharining nisbatan tor sohilini – 25° dan 60° shimoliy kenglikkacha egallab, uning chegarasi taxminan O'rta yer dengizi va Boltiq dengizining Janubiy qirg'og'idan Oxota va Sariq dengizigacha cho'zilgan.

Sivilizatsiyalarning ikkinchi avlodi Yevroosiyo, Afrika va Okeaniyani qamrab olgan. Insoniyat turlicha tabiiy iqlim sharoitlariga moslashgan bo'lib, aholining tez o'sishi qo'shimcha tabiiy resurslarni qidirish va ularni hayot jarayoniga jalb qilishni taqozo etadi.

Uchinchi avlod sivilizatsiyasi dunyoning rivojlangan, aholi yashaydigan qismini qamrab olgan. Bu bosqichda barcha mamlakatlarni ekologik va demografik dinamikani, jamiyat va tabiatning birgalikdagi evolyutsiyasini uyg'unlashtirish yo'llarini izlashga majbur qilgan global ekologik muammolar yuzaga keldi. Ekologik dunyoqarashni shakllantirish, tabiat va jamiyatning o'zaro mutanosibliigi to'g'risidagi qarashlarni ilgari surish zarurati tug'ildi.

Hozirgi kunda sivilizatsiyaning to'rtinchi avlodi shakllanmoqda. Bu avlodning o'ziga xos xususiyatlari, birinchidan, ilgari mavjud bo'lgan odamlar jamoalari – kapitalizm va sotsializm asosida sifat jihatidan yangi sivilizatsiya ekanligi bo'lsa, ikkinchidan, ilgari inson industrial, siyosiy va mafkuraviy mashinaning bir qismi bo'lgan bo'lsa, bu davrda u o'zining ijodiy salohiyati, ma'naviy qadriyatlari va bilimlari bilan birinchi o'ringa qo'yiladi. Bu xususiyatlar dunyo

sivilizatsiyasi makonini bo‘lish mezonlarining asosini tashkil etadi. Uchinchidan, globallashuv va integratsiya tabaqalashuv (differentsiatsiya) bilan qarama-qarshilikda bo‘ladi. So‘nggi bosqichda sivilizatsiya markazi Yevropa va Shimoliy Amerikadan Sharqqa o‘tib bormoqda³.

Bu esa globallashuvga qarshi harakatning tarqalishidan dalolat beradi, bu harakatning miqyosi kengayadi, lekin globallashuv jarayonini to‘xtatishning imkoni yo‘q. Ushbu jarayondagi asosiy vazifa – globallashuv jarayonini jahon hamjamiyati nazorati ostida olib borish, uni tartibga solishda umume’tirofga va hurmatga sazovor eng ilg‘or qoidalarni joriy etish, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti va madaniyatini oshirish uchun globallashuvning afzallik jihatlaridan unumli foydalanish, boy va kambag‘al mamlakatlar hamda xalqlar o‘rtasidagi tafovutni kamaytirishdir. Mahalliy sivilizatsiyalardan tashqari xalqaro tashkilotlar ham globallashuvning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. BMT o‘z muassasalari — bosh Assambleya, xavfsizlik Kengashi, iqtisodiy va ijtimoiy Kengash, aholi xizmatlari, statistika, YUNESKO va boshqalar bilan butun insoniyat manfaatlarini ifodalash va himoya qilishga mo‘ljallangan. Bundan tashqari globallashuvning yirik subyektlari hisoblanuvchi tashqi iqtisodiy aloqalarning ayrim sohalarini tartibga soluvchi Xalqaro valyuta fondi, Jahon savdo tashkiloti, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar, Yevropa hamkorlik va xavfsizlik tashkiloti, OPEK, MDH kabi xalqaro institutlar shakllangan.

1.2. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining kelib chiqish sabablari va shart- sharoitlari

Jahon iqtisodiyotida XX-XXI asrlarda globallashuv tushunchasi tobora keng qo‘llanilmoqda. Globallashuv muammolari tarixchilar, iqtisodchilar, texnologlar, faylasuflar va ko‘plab mamlakatlarning siyosatchilari tomonidan muhokama qilinmoqda.

Ayni paytda globallashuv tarafdorlari bilan unga qarshi bo‘lgan qarashlarning vujudga kelishi, asosan, ushbu tushunchaning turlicha talqin qilinishi bilan bog‘liq bo‘lmoqda.

³ http://www.intereconomic.ru/str_21.php

Globallashuv jarayoni tarafdorlarining fikricha, globallashuv iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, aholi farovonligini oshiradi, yangi ish o'rinlari yaratilishiga imkon beradi.

Bu jarayonga qarshi bo'lganlar esa, globallashuv rivojlanayotgan mamlakatlarda savdo ekspansiyasining kuchayishi, iqtisodiy jinoyatlarning ortishi (qalbaki mahsulotlar ishlab chiqarish, noqonuniy reeksport, narkotik moddalar savdosining ortishi va h.k.), atrof-muhit ifloslanishi, texnika xavfsizligiga amal qilmaslik, bolalar mehnatidan foydalanish va boshqa noxush hodisalar bilan bog'liq muammolar kuchayishiga olib keladi, deb hisoblaydilar. Biroq qanchalar xavotirli bo'lgani bilan globallashuv jarayonini baribir to'xtatib bo'lmaydi. Tahlilchilar globallashuv jahon iqtisodiy rivojlanishining u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va ekologik tendensiyalarga qanday ta'sir ko'rsatishini chuqur o'rganishlari lozim bo'ladi.

XX asrning oxirgi choragi jahon iqtisodiyoti o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga, ya'ni global darajaga o'tishni boshlanganligi bilan tavsiflanadi. Iqtisodiy rivojlanishning bu yangi bosqichi oldingilaridan tubdan farq qiladi.

Mutaxassislar tomonidan uzoq muddatli tamoyillarni belgilash va kelajakdagi iqtisodiy strategiyani aniqlashga intilgan holda tuzilmaning eng xarakterli belgilarini muhokama qilish davom etayotgan bo'lsa-da, hozirgi kunda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning zamona-viy tuzilmasining quyidagi xususiyatlari o'z- o'zidan namoyon bo'lib turibdi:

a) samarali, yuqori texnologik hamda resurslarni tejoychi ijtimoiy ishlab chiqarish bilan tavsiflanuvchi axborotlar iqtisodiyotini shakllantirish;

b) konveyer, keng xalq ommasi iste'moliga asoslangan industrial tizimni davlat, aralash va ayniqsa, xususiy sektorning kreativ (ijodiy) alohida yo'naltirilgan xo'jalik faoliyatiga o'zgartirish;

v) milliy iqtisodiyotlarni ochiq lashtirish tamoyillarining hududiy miqyosdagi yopiq iqtisodiy bloklarni shakllantirish tamoyili bilan qo'shib ketishi;

g) xalqaro korporatsiyalar ahamiyatining ortib borishi sharoitida davlatning tartibga solish rolining kuchayishi;

d) hal etilishi jihatidan jahondagi barcha mamlakatlarning jamoaviy harakatlarini talab qiluvchi, sivilizatsiyaning global muam-

molari deb atalmish ekologik, xomashyo, demografik muammolar yechimining dolzarblashuvi.

Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarning eng muhim belgilarini sanab o'tgan holda, kasbiy faoliyati xo'jalik sohasi bilan bog'liq har bir mutaxassis uchun o'z faoliyatida u bank, zavod yoki savdo kompaniyasi bo'lishidan qat'iy nazar, alohida korxonada doirasidagi jarayonlarga jahon bozorining ta'sir qilish omillarini bilishi va hisobga olishi kerak bo'ladi. Shuning uchun xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy ko'rinishlari globallashtirishni o'rganish, ularni model-lashtirish usullari ko'p omillarga asoslangan tahlil va statistikaning qo'llanishiga qarab turli-tuman bo'lishiga qaramasdan, mikro va makro darajada jahon va milliy xo'jalik kon'yunkturasidan maqsadli xabardorlikning zaruriy shart-sharoitlari hisoblanadi.

Globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyotining turli sohalarini qamrab oladi. Bu sohalar tarkibiga asosan quyidagilar kiradi:

- tashqi, xalqaro, jahon miqyosidagi tovarlar, xizmatlar, texnologiyalar, intellektual mulk obyektlari savdosi;

- ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati (ishchi kuchi, kapital, axborot);

- xalqaro moliya-kredit va valyuta operatsiyalari (beg'araz moliyalashtirish va yordam, iqtisodiy munosabatlar subyektlarining kredit va qarzlari, qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar, maxsus moliyaviy mexanizmlar va vositalar, valyuta operatsiyalari);

- ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy, texnologik, injiniring va axborot sohasidagi hamkorlik.

Zamonaviy jahon iqtisodiyotining globallashtirish jarayonlarida namoyon bo'ladi:

- ishlab chiqarish baynalmilallashtirishning chuqurlashuvi, ya'ni iste'mol uchun yaratiladigan mahsulotni tayyorlashda jahonning turli davlatlari ishlab chiqaruvchilari qatnashishi.

- kapital baynalmilallashtirishning chuqurlashuvi, ya'ni davlatlararo xalqaro kapital harakatining o'sishi, ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ko'rinishidagi fond bozorlarining baynalmilallashtirish;

- ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy, texnologik bilimlar vositalari almashinuvi, shuningdek, xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv, xalqaro miqyosda ishlab chiqarish resurslarining joylashuvi natijasida ishlab chiqarish kuchlarining globallashtirish;

- xalqaro hamkorlikni amalga oshirishni ta'minlovchi global miqyosdagi material, axborot, tashkiliy-iqtisodiy infratuzilmaning shakllanishi;

- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi natijasida ayirboshlash baynalmilallashuvining kuchayishi, bunda xalqaro xizmatlar sohasi hamkorlikning ishlab chiqarish sohasiga nisbatan asosiy yo'nalishlardan biriga aylanadi;

- xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining o'sishi, bunda rivojlangan davlatlarda kambag'al davlatlardan kelgan ishchi kuchlarini malaka talab qilmaydigan yoki past malaka talab qiladigan ishga jalb etilishi;

- ishlab chiqarish va iste'molning baynalmilallashuvini atrof-muhitga ta'sirining ortishi, bu esa zamonaviy global muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan xalqaro hamkorlikka bo'lgan ehtiyojning ortishi.

Globallashuv jarayoni quyidagilarga o'z ta'sirini o'tkazadi:

- mintaqaviy integratsion jarayonlarni jadallashtirish;

- hozirgi paytda xo'jalik yuritishni to'liq erkinlashtirmagan davlatlar iqtisodiyoti ochiqligini ta'minlash;

- barcha bozorlardagi ishtirokchilarning munosabatlarda to'siqlarsiz qatnashuvini ta'minlash;

- moliyaviy va savdo operatsiyalarning qoida va chegaralarini universallashtirish;

- bozorlarni tartibga solish va nazorat qilishni unifikatsiyalash;

- kapitalni joylashtirish, investitsiya jarayonlari va umumjahon to'lov-hisob tizimini standartlashtirish.

Makroiqtisodiy darajadagi globallashuv davlatlar va integratsion uyushmalarning iqtisodiy faollikka intilishi, savdo va investitsion to'siqlarni olib tashlash, erkin savdo hududlarini tashkil qilish asosida paydo bo'ladi. Shu bilan birga globallashuv jarayoni davlatlararo xo'jalik yuritish uchun iqtisodiy, huquqiy, axborot va siyosiy miqyosdagi o'zaro kelishuvlarni ham qamrab oladi.

Mikroiqtisodiy darajadagi globallashuv kompaniyalar faoliyatining ichki bozordan tashqarida kengayishi natijasida paydo bo'ladi. Ko'pgina yirik transmilliy korporatsiyalar (TMK) global miqyosda harakat qiladi: ular chegarasi va milliy mansubligidan qat'iy nazar, birinchi navbatda iste'molchilarning talabini qondirishi kerak. TMK uchun ichki bozorga nisbatan ko'pincha tashqi iqtisodiy faoliyat muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, ular

globallashuv jarayonining subyekti bo‘ladi. TMK – bu globallashuvning asosi, uni harakatga keltiruvchi asosiy kuchdir⁴.

Globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi bir nechta muhim iqtisodiy jarayonlar bilan bog‘liq holda yuz beradi. Ushbu jarayonlarga xalqaro kapital migratsiyasi, erkin savdo, tashqi savdo siyosati kabi jarayonlarni kiritish mumkin.

So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsion texnologiyalar taraqqiy etishi bilan birgalikda xorijiy investitsiyalar, portfelli investitsiyalar va bank ssudalaridan iborat kapitallarning xalqaro harakatining kuchayishi globallashuvning diqqatga sazovor xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy mablag‘lar xalqaro oqimining o‘shish sur‘atlari xalqaro savdo hajmining o‘shish sur‘atlarini sezilarli darajada ortda qoldirmoqda. Ayniqsa, bevosita xorijiy investitsiyalar oqimining o‘shib borayotgani diqqatga sazovordir.

Xalqaro kapital harakati uning barcha ishtirokchilariga daromad keltiradi. Xorijiy investorlar xalqaro miqyosdagi bozorlarga kirish orqali tavakkalchilikni diversifikatsiyalanishiga erishib, jahon miqyosida daromad olish imkoniyatini qo‘lga kiritmoqdalar. Odatda, investitsiya qabul qiluvchi davlatlarda foyda hajmi yuqori bo‘lib, bu investorlarning yuqori foydani ko‘zlagan holda o‘z kapitallarini ma‘lum hududlarga yo‘naltirishiga turtki bo‘ladi.

O‘tish davridagi iqtisodiyotga ega mamlakatlarda milliy xo‘jalik tizimini rivojlantirish, shuningdek, diversifikatsiyaga erishish maqsadida ishlab chiqarish va eksportning mavjud tarmoqlarni rivojlantirish va yangilarini yaratishga ehtiyoj yuqori hisoblanadi. Shu vaqtning o‘zida, bunday iqtisodiyotga ega aksariyat mamlakatlar ushbu maqsadlarga erishishda ichki resurslarning cheklanganligi bilan bog‘liq turli muam-molarga duch kelmoqdalar. Bunday sharoitda jahonning ulkan kapital resurslari bozoriga kirish ushbu mamlakatlar uchun jamg‘arishdan ko‘ra ko‘proq investitsiyalarni amalga oshirish, iqtisodiyotni isloh qilish va o‘shish sur‘atlarini jadallashtirish, moliyaviy tizimni barqarorlashtirish hamda milliy valyuta va bank tizimini mustahkamlash kabi

⁴ Nazarova G.G., Salixova N.M. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi. /prof. N.X. Jumayev tahriri ostida (o‘quv qo‘llanma), TDIU, 2011 y. 316 bet.

masalalarni hal qilishda jahon moliya bozorlari afzalliklaridan foydalanish imkoniyatini beradi⁵.

Tovar va xizmatlarning erkin savdosi globallashuvning o'ziga xos xususiyatidir. Ma'lumki, iqtisodiyotning nisbiy afzalliklarga ega tarmoqlari ixtisoslashuvi va xalqaro savdoda ishtirok etishi aholi daromadlari va farovonligi oshishining qo'shimcha manbai bo'lib hisoblanadi. Xalqaro savdo bu kabi yutuqlarga boshqa yo'llar orqali ham erishishi mumkin. Xalqaro savdo orqali fan-texnika yutuqlaridan foydalanish natijalari boshqa mamlakatlarga bilvosita va bevosita tarqaladi. Bevosita tarqalish fan-texnika yutuqlarini o'zida mujassam etgan texnologiyalarning jahon bozorida sotilishida va boshqa mamlakatlar ularni xarid qilishi orqali ham sodir bo'ladi. Bilvosita tarqalish esa, odatda, yangi texnika va texnologiya ishlab chiqilgan mamlakat eksport tarmoqlari samaradorligi oshishida va tovarlar sifatining yaxshilanishi orqali ro'y beradi.

Erkin savdo milliy ishlab chiqaruvchilar tovar va xizmatlari sifatining yaxshilanishi orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarining oshishi, import orqali ishlab chiqaruvchilar soni kam bo'lgan yoki xorijiy tovar sifati darajasiga yetmagan iqtisodiyot tarmoqlarida raqobatni vujudga keltirib, tovar tannarxining pasayishini ta'minlaydi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning kuchli raqobat mavjud bo'lgan jahon bozorlariga chiqishi tovar hamda xizmatlar sifatining oshishi bilan birga tannarx pasayishining muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Globallashuv jarayonlari va raqobat kuchaysa, ishchi resurslarining ma'lumoti va malakasi, ishlab chiqarishni tashkil etish va uni boshqarish tizimi, ilmiy-texnik ustuvorlik hamda sifatli infratuzilmaga talab oshadi. Ishlab chiqarish omillari sifatini oshirish, ishlab chiqarishni tashkil etish, faol axborot almashinuvini ta'minlash, infratuzilmani rivojlantirish hamda iqtisodiy strategiyalarni o'z vaqtida tuzatib borish orqali mavjud ustuvorliklarni asrab qolish, ularni rivojlantirish va pirovard natijada mamlakatning iqtisodiy o'sishiga erishish mumkin.

Globallashuv jarayonlari inson salohiyatini oshirishga ham zarurat tug'dirmoqda. U iqtisodiyotning muhim innovatsion omili sifatida izlanish va tadqiqotlar, ta'lim va tajriba sohasida xalqaro malaka

⁵ «Национальный семинар по наращиванию потенциала в Центральной Азии для регулирования процесса глобализации» ЭСКАТО, Центр экономических исследований Республики Узбекистан, 2003.

oshirish, qo'shma korxonalar va xorijda tajriba almashinishning jadallashuvi orqali namoyon bo'lmoqda. Internet va axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi xo'jalik subyektlarining faoliyat doirasini kengaytirmoqda. Xo'jalik yurituvchilar uning yordamida nisbatan kam xarajatlar evaziga zarur axborotlarga ega bo'lmoqdalar. Shuningdek, boshqaruv jarayonida yangi sifat darajalariga erishish, xo'jalik yuritish salohiyatining oshishi, talab va taklif o'zgarishlariga xos qarorlarni o'z vaqtida qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Erkin savdo va proteksionizm yaxlit holda samarasiz ekani shubhasizdir. Globallashuvning kutilmagan o'zgarishlari mamlakat tashqi savdosi shartlariga o'tkazadigan ijobiy ta'sirlarini imkon qadar oshirishi, salbiy ta'sir tahdidlarini kamaytirishda iqtisodiyotning boshqa sohalari kabi tashqi savdoda olib boriladigan islohotlar ham muhim ahamiyatga ega. Chunki valyuta bozorini erkinlashtirish orqali eksport-import operatsiyalarini rag'batlantirish, erkin raqobat muhitida ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali tashqi savdoning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini oshirish imkoni qo'lga kiritiladi. Bundan tashqari sanoat siyosatini olib borish orqali iqtisodiyotning strategik muhim eksport tovarlari jahon bozori kon'yukturasining o'zgarishlariga bog'liqlik darajasini kamaytirishga erishish mumkin.

Pol Roberts uchta savdo blokini taklif etadi. Bloklar mos ravishda Uchinchi, Ikkinchi va Birinchi olam mamlakatlari uchun tashkil etilib, mamlakatlar yashash tarzining o'sishiga muvofiq holda bir blokdan ikkinchisiga o'tadi. Bu kabi yondashuvning sababi, birinchidan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning savdodan oladigan salmoqli nafni kamaytirishi hisobiga umumiy boyliklarning qisqarishidir. Ikkinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlar iste'molchilarining xarid qobiliyati pastligi hisobiga savdoda salmoqli naf ko'ra olmasligi bilan bog'liq muammo tufayli ularda na iqtisodiy o'sish va na aholi farovonligida sezilarli darajada yaxshilanish ro'y beradi⁶.

Ikkinchi variant – odil savdo nazariyasi. Uning mazmun-mohiyati turli mamlakatlarda savdodan olinadigan nafning birmuncha tekis taqsimlanishi hamda ijtimoiy va ekologik standartlarning tenglashtirilishi maqsadida xalqaro tashkilotlar yordamida rivojlanayotgan

⁶ Г.Лещ, <http://www.contr-tv/discuss/353>

mamlakatlar mahsulotlariga qiyosiy narxlar oʻrnatishdan iborat. Bu nazariyani Laura Tayson qoʻllab - quvvatlaydi. Ammo mazkur nazariyaning kamchiligi shundaki, bu kabi narx mexanizmiga aralashuv bozor munosabatlari qonuniyatlariga ziddir. Bundan tashqari unda koʻzda tutilgan jarayonlar qimmatga tushib, uzoq kelajakda koʻzlangan maqsadga erishilmaydi va iqtisodiyot faoliyatida samaradorlik pasayadi.

1.3. Globallashuv tushunchasining mohiyati va rivojlanish evolyutsiyasi

XX asrning oxiri va XXI asr boshida jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy jarayonlaridan biri progressiv globallashuv, yaʼni iqtisodiy hayotning baynalmilallashuv jarayonidagi sifat jihatidan yangi bosqichdir.

Globallashuv jarayonlarining oqibatlari toʻgʻrisidagi turli nuqtai nazarlar mavjud boʻlib, ularning ayrimlari jahon iqtisodiy tizimiga jiddiy tahdid solmoqda, boshqalari esa keyingi iqtisodiy taraqqiyot uchun vosita boʻlmoqda. Globallashuvning oqibatlari ijobiy yoki salbiy boʻlishi noaniq, ammo, vaziyat shundayki, uning muqobili yoʻq. Shuning uchun asosiy eʼtiborni ushbu jarayonlar keltiradigan xavf-xatarlar (tahdidlar) hamda globallashuv jarayonida yuzaga keladigan imkoniyatlar va foydalarni oʻrganishga qaratish zarur. Sababi globallashuv bir jihatdan katta xavf-xatar boʻlishi bilan birga ikkinchi tarafdin keng imkoniyatlar hamdir. Muhimi toʻgʻri harakatlanish orqali jarayonni oʻz foydasiga hal qilishdir.

Buning uchun eng avvalo, “globallashuv”, “iqtisodiy hayotning baynalmilallashuvi”, “xalqaro iqtisodiy hamkorlik”, “xalqaro iqtisodiy integratsiya” tushunchalari oʻrtasidagi munosabatlarni aniqlash zarur. Globallashuv jarayonining mohiyati, uning shart-sharoitlari, oʻziga xos koʻrinishlari, uning ijobiy hamda salbiy oqibatlariga aniqlik kiritish muammolarini hal qilish toʻgʻri yondashuvni shakllantirishga asos boʻladi.

Xalqaro ishlab chiqarish hamkorligi, umuman, xalqaro mehnat taqsimoti, tashqi savdo va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi natijasida milliy iqtisodiyotlarning bir-biri bilan oʻzaro bogʻliqligi ortib boradi. Sababi tashqi omillarni hisobga olmasdan

iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin emas. Bu hodisa iqtisodiy hayotning baynalmilallashuvi deb ataladi. Bu tushunchaning umumiy ta’rifi quyidagicha: “Xo‘jalik faoliyatining baynalmilallashuvi alohida mamlakatlar iqtisodiyotidagi munosabatlar va o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning milliy iqtisodiyotlarga ta’siri va mamlakatlarning jahon iqtisodiyotida ishtirok etish darajasi va holatidir”.

Globalashuv jarayoni o‘zi rivojlanish taraqqiyotida bir necha bosqichlarni bosib o‘tdi. Dastlab u xalqaro iqtisodiy hamkorlik sifatida qaralgan: u, birinchi navbatda, muomala madaniyati sohasiga ta’sir ko‘rsatdi. Bu esa xalqaro savdoning paydo bo‘lishi (XVIII asr oxiri – XX asr boshlari) bilan bog‘liq edi. XIX asr oxiriga kelib kapitalning xalqaro harakati yanada mustahkamlanib bordi, munosabatlar kengayib, iqtisodiy hamkorlik avj oldi.

Xalqaro iqtisodiy hamkorlik mamlakatlar va xalqlar o‘rtasida barqaror iqtisodiy aloqalar o‘rnatish, reproduktiv jarayonni milliy chegaralardan tashqarida ham rivojlantirish demakdir.

Keyingi bosqich xalqaro iqtisodiy integratsiya bo‘lib, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, kapitalning baynalmilallashuvi, ilmiy-texnologik taraqqiyotning globalashuvi va milliy iqtisodiyotlarning ochiqligi va savdo erkinligining oshishi bilan uzviy bog‘langan. Shu o‘rinda integratsiya so‘ziga izoh berib o‘tadigan bo‘lsak, integratsiya (lotincha *integratio*) – alohida qismlarning umumiy, bir butun, bir butunlikka bog‘lanishini bildiradi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya milliy iqtisodiyotlarning yaqinlashuvi va o‘zaro moslashuvi, ularning xalqaro miqyosda takror ishlab chiqarish jarayoniga qo‘shilishidir. Xalqaro iqtisodiy integratsiyani alohida milliy iqtisodiyotlar o‘rtasidagi mehnat taqsimotiga asoslangan iqtisodiy birlashuvi jarayoni, chuqur va barqaror munosabatlarni rivojlantirish orqali turli shakl va darajadagi o‘z iqtisodiyotlarini boshqalarga nisbatan baholashlari deb ta’riflash mumkin.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jahon xo‘jaligi rivojida ancha yuqori, samarali va istiqbolli bosqich, iqtisodiy munosabatlarni baynalmilallashtirishda sifat jihatidan yangi va murakkab bosqich hisoblanadi. Bu bosqich nafaqat milliy iqtisodiyotlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, balki iqtisodiy muammolarni birgalikda hal etishni ham ko‘zda tutadi. Binobarin, iqtisodiy integratsiyani mamlakatlar o‘rtasidagi

o‘zaro iqtisodiy munosabatlar jarayoni sifatida baholash mumkin. U iqtisodiy mexanizmlarning yaqinlashishiga olib keladi, davlatlararo bitimlar maqomini oladi, uning shartlari davlatlararo tashkilotlar tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Iqtisodiy integratsiya quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

- turli mamlakatlar milliy xo‘jaliklari o‘rtasidagi hamkorlik (ularni to‘liq yoki qisman birlashtirish);

- Dunyo mamlakatlari o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, kapital va mehnat harakati sohasida mavjud to‘siqlarni bartaraf etish;


- yagona umumiy bozorni shakllantirish uchun alohida mamlakatlarning har biri bozorlarining yaqinlashuvini ta‘minlash;

- hamkorlikka kirishgan agentlar o‘rtasidagi farqlarning yiriklashishi;

- milliy iqtisodiyotlarning har birida xorijiy hamkorlarga nisbatan hech qanday kamsitish shaklining yo‘qligi va boshqalar.

Iqtisodiy integratsiya jarayonlari ikki tomonlama – mintaqaviy yoki global asosda kechadi. Hozirgi davrda integratsion birlashmalarning xarakterli xususiyati ularning mintaqaviy darajada rivojlanganligidir: umumiy va davlatlararo boshqaruv tizimlariga ega bo‘lgan integral mintaqaviy iqtisodiy majmualarga endilikda asos solinmoqda.

Hozirgi bosqichda barcha xalqaro munosabatlar tizimida chuqur o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu esa globallashuvning muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, iqtisodiy integratsiya va globallashuvga olib keluvchi o‘zaro bog‘langan jarayonlar zanjirini quyidagicha ifodalash mumkin (1.2-rasm).



1.2-rasm. Xo‘jalik faoliyatini baynalmilallashtirish bosqichlari

Globalashuv zamonaviy jahon boshqaruv tizimining eng muhim xususiyatiga – sayyoramizning rivojlanish yo‘lini belgilab beruvchi eng nufuzli kuchlardan biriga aylandi. Globalashuvning hukmronlik nuqtai nazariga ko‘ra, jamiyatda hech qanday harakat, hech qanday

jarayon (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy va boshqalar)ni to'liq cheklangan deb hisoblash mumkin emas. Xalqaro munosabatlarning globallashuvi bu – ijtimoiy hayot va xalqaro munosabatlar sohasidagi turli faoliyat sohalarida o'zaro bog'liqlik va o'zaro ta'sirning ortishi-dir. U ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohalariga, jumladan, iqtisodiyot, siyosat, mafkura, ijtimoiy soha, madaniyat, ekologiya, xavfsizlik, turmush tarzi va inson mavjudligining jamiki shart-sharoitlariga ta'sir ko'rsatadi.

“Globallashuv” tushunchasi so'nggi paytlarda iqtisodiy adabiyotlarda keng tarqalgan bo'lsa-da, u hali ham konseptual xarakterga ega bo'lgan amaliy jihatdan ro'y berishi aniq bo'lgan uzoq yo'ldir.

Globallashuv jarayonining iqtisodiy munosabatlardagi o'ziga xos ko'rinishi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi (bunda dunyoning ko'plab mamlakatlaridan ishlab chiqaruvchilarning yakuniy mahsulotni yaratishda turli shakl va bosqichlarda ishtirok etishlari kuzatiladi;

- mamlakatlar o'rtasida, birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri investitsiya shaklida (tashqi savdo va ishlab chiqarish tezroq o'sib borayotgan xorijiy mamlakatlardagi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi bilan) xalqaro kapital oqimlarining o'sishi hisobiga kapitalning baynalmilallashuvini chuqurlashtirish va shu asosda dunyo fond bozorining baynalmilallashuvi;

- integral ishlab chiqarish va iste'mol tizimlarida iqtisodiy birliklarni bog'lovchi ishlab chiqarish vositalari va ilmiy-texnik, texnologik bilimlar almashinuvi, shuningdek, xalqaro ixtisoslashuv va hamkorlik shaklida ishlab chiqarish kuchlarining globallashuvi hamda ishlab chiqarish hamkorligi, ishlab chiqarish resurslarining xalqaro harakati;

- xalqaro hamkorlikni ta'minlovchi global material, axborot, tashkiliy va iqtisodiy infratuzilmani shakllantirish;

- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi asosida birjalarning baynalmilallashuvini mustahkamlash, mujassamlashgan tovarlar bo'yicha xalqaro savdo miqyosini kengaytirish va sifatini oshirish;

- xalqaro mehnat migratsiyasining oshishi;

- ishlab chiqarish va iste'molning atrof-muhitga ta'sirida baynalmilallashuvning ortishi.

| |
|--|
| Jahon iqtisodiyotining globallashuvi |
| Xalqaro almashinuvning chuqurlashuvi |
| Xalqaro mehnat migratsiyasining o‘sishi |
| Kapitalning xalqaro ko‘chishi |
| Ishlab chiqarish kuchlarining globallashuvi |
| Global infratuzilmaning shakllanishi |
| Xalqaro ishlab chiqarish va iste’molning atrof-muhitga ta’sirining o‘sishi |
| Xalqaro ishlab chiqarishning chuqurlashuvi |

1.3-rasm. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining tarkibiy qismlari

Globallashuv jarayonlari kelajakda quyidagi ko‘rinishlarda yuzaga kelishi bashorat qilinmoqda:

- mintaqaviy integratsiya jarayonlarining intensivlashuvi;
- o‘z iqtisodiy faoliyatini hali to‘liq erkinlashtirmagan davlatlar iqtisodiy tizimlarining yanada ochiqligi;
- Har qanday bozorga barcha ishtirokchilarning hech qanday cheklovlarsiz kirishi;
- savdo va moliyaviy operatsiyalar uchun qoidalarni universal- lashtirish;
- bozorni tartibga solish va nazorat qilishni unifikatsiyalash;
- kapital harakati, investitsiya jarayoni va global to‘lov va hisob-kitob tizimiga bo‘lgan talablarni standartlashtirish.

Globallashuv va integratsiyaning bir nechasini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- mintaqaviy va xalq xo‘jaligi (makro daraja);
- tovar, moliya va valyuta bozorlari, mehnat bozorlari (mezzodara- ja);
- induvidial kompaniyalar (mikro daraja).

Globallashuvning makroiqtisodiy darajasi davlatlar va integratsion birlashmalarning savdoni erkinlashtirish, savdo va investitsion to‘siqlarni olib tashlash, erkin savdo zonalarini yaratish va shu kabi usullar bilan o‘z chegaralaridan tashqarida iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanishga intilishida namoyon bo‘ladi.

Globallashuvning mikroiqtisodiy darajasi kompaniyalar faoliyatini ichki bozordan tashqarida kengaytirishda namoyon bo‘ladi. Eng yirik ko‘p millatli korporatsiyalarning aksariyati jahon miqyosida faoliyat yuritishi kerak: ularning bozori iste‘mol darajasi yuqori bo‘lgan har qanday sohaga aylanadi, ular chegara va millatidan qat‘iy nazar, hamma joyda iste‘molchilar talabini qondira olishi kerak.

Barcha iqtisodiy subyektlarning erkin va samarali biznes faoliyati uchun yagona global iqtisodiy, huquqiy, axborot va madaniy makonni shakllantirish, tovar va xizmatlar, kapital va mehnat uchun yagona global bozorni yaratish va turli mamlakatlarning iqtisodiy yaqinlashuvi va majmuaga o‘zaro global iqtisodiy birlashuvi dolzarb bo‘lib kelmoqda.

Iqtisodiyotda globallashuvning o‘ziga xos xususiyati avtonom va integratsiyalashuv jarayonlarining birlashuvidir, deb belgilangan⁷. Bu “Naisbitt paradoksi”da o‘z aksini topgan: “Iqtisodiyotning globallashuv darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning eng kichik ishtirokchilari shunchalik kuchli bo‘ladi⁸”. J.Naisbitt bu fikri bilan bir tomondan siyosiy mustaqillik va o‘z-o‘zini boshqarish harakatini qayd qilgan.

Binobarin, globallashuv paradoksi jamiyatning ichki aloqalari qanchalik boy va mustahkam bo‘lsa, uning iqtisodiy va ijtimoiy mustahkamlanish darajasi shunchalik yuqori bo‘lishini ko‘rsatadi. Uning ichki resurslari qanchalik to‘liq amalga oshirilsa, integratsion aloqalarning afzalliklaridan shunchalik muvaffaqiyatli foydalana oladi va jahon bozori sharoitlariga shunchalik oson moslashadi.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari, birinchi navbatda, sanoati rivojlangan mamlakatlar o‘rtasida rivojlangan bo‘lib, keyingi navbatda rivojlanayotgan mamlakatlarni qamrab oladi. Ushbu jarayon birinchi navbatda rivojlangan mamlakatlar mavqeini mustahkamlaydi va ularga qo‘shimcha afzalliklar beradi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi jahon iqtisodiy maydonini o‘zgartirish, uni yagona hududga aylantirish, tovarlar (xizmatlar), axborot va kapitalning cheklanmagan harakatini yo‘lga qo‘yish jarayonida o‘z ifodasini topadi. Bu hududda g‘oyalarni tarqatish va ommaviy axborot vositalarini ko‘chirish ham oson bo‘lib, tegishli

⁷ Иванов Н. Глобализация и проблемы оптимальной стратегии развития. // Мировая экономика и международные отношения. — 2000. — № 2. — С. 15

⁸ Naisbitt J. Global Paradox. N.Y., 1994, p. 11.

institutsional subyektlar o'rtasida o'zaro hamkorlik tizimlarini o'rnatishga va bu orqali ayrim subyektlar rivojlanishiga yordam beradi.

Shu tariqa xalqaro miqyosda madaniy, axborot, huquqiy va iqtisodiy jihatdan yagona hududning paydo bo'lishi jahon tizimlarining globallashuvi natijasidir. Boshqacha aytganda, globallashuv hodisasi iqtisodiy soha bilan cheklanmaydi, balki jamiyatning barcha asosiy sohalari – mafkura, madaniyat va siyosatga katta ta'sir ko'rsatadi. Shak-shubhasiz, bu hodisa yangi asr jahon iqtisodiyotida yuqori mavqega ega bo'lib, u globallashuvga moslashgan siyosat va iqtisodiyotda yangilangan jahon munosabatlari tizimining shakllanishidan iborat.

Jahon xo'jaligi XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib tom ma'noda to'liq tizimga aylandi. Biroq, jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayoni bir necha rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi. Jumladan:

Hozirgi zamon jahon xo'jaligi shakllanishining birinchi bosqichi (XIV – XIX asr oxiri) jahon tovar bozori va jahon savdosining paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, keyinchalik jahon xo'jaligi globallashuv jarayonining dastlabki belgilarini o'zida mujassam etadi.

Jahon xo'jaligi rivojlanishining ikkinchi bosqichi (XIX asr oxiri - XX asr boshlari) kapitalizmning ishlab chiqarishni monopoliyalashtirish bosqichiga o'tishining dastlabki ko'rinishi sifatida tavsiflanishi mumkin. Shuningdek, bu vaqtda yetakchi kuchlar o'rtasida jahon hududlari va iqtisodiy ta'sir zonalari bo'lib olinishi yuz berib, transchegaraviy kapital oqimlari (eksport) ortib bordi. Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning turli shakllari rivojlanib bordi. Tovarlar almashinuvi bilan bir qatorda davlatlar o'rtasida ishlab chiqarishning alohida omillari migratsiyasiga ham amal qilinadi. Bu bosqichda xalqaro mehnat taqsimotining, shuningdek, jahon savdosining kelajakdagi globallashuvi sohasida fundamental asoslar shakllandi.

Globalashuvning uchinchi bosqichi (I va II jahon urushlari o'rtasidagi davr) jahon iqtisodiy munosabatlarini o'rnatishda erishilgan muvaffaqiyatlar uchun halokatli bo'ldi. Bu davrda iqtisodiy rivojlanish sezilarli darajada tezlashgan bo'lsa-da (birinchi xalqaro korporatsiyalar paydo bo'ldi), bu davrdagi transmilliy xarakterdagi moliya tizimi o'ta beqarordir. Buning oqibatida sanoat mamlakatlaridan uzoq muddatli kapital olib chiqib ketilganini qayd etish mumkin.

To'rtinchi bosqich (ikkinchi jahon urushi oxiridan 90-yillar boshigacha) - davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy reja munosabatlarini yan-

gicha qayta qurish, jahon iqtisodiyoti uchun yangi tartib-qoidalar izlab topishga urinish davri bo'ldi. Bu davrda tashqi savdo siyosatini erkinlashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish natijasida misli ko'rilmagan iqtisodiy o'sish sur'atiga erishildi. Bu bosqichda jahon moliyasini globallashtirish uchun poydevor qo'yilib, iqtisodiy taraqqiyotni tartibga soluvchi moliya-xo'jalik tashkilotlarining makrotizimi tarkib topdi (BMT, XVVF, jahon banki va IB va JSTning savdo tashkilotlari).

Beshinchi bosqich (90-yillar boshidan hozirgi davrga qadar) jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi davridir. Bu davrning asosiy omillari sotsialistik tuzumning qulashi, binobarin, Markaziy va Sharqiy Yevropadagi sobiq ijtimoiy blok davlatlar va ularning mustamlakalari bo'lgan mamlakatlarda bozor iqtisodiyotiga o'tish ochiq bozorlarning keskin o'sishi bilan xarakterlanadi.

Jahon banki statistikasiga ko'ra, bugungi kunda dunyoda 200 dan ortiq mamlakatlar mavjud. Shu munosabat bilan, ayniqsa, iqtisodiy sohada ko'plab mamlakatlarning milliy suvereniteti va globallashtirish qonuniyatlari o'rtasida keskin ziddiyatlar mavjud. Globallashtirish sharoitida eksport subsidiyalari va import to'siqlari, markaziy bankning qayta moliyalash stavkalari va milliy valyutalar kursi kabi iqtisodiyotni makro jihatidan tartibga solishning milliy miqyosdagi an'anaviy instrumentlari samaradorligi sezilarli darajada pasayadi.

Jahon iqtisodiyotining globallashtirish jarayonlari quyidagi holatlarni keltirib chiqardi:

1. Globallashtirish mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy masofa deb ataladigan jahon rivojlanishining obyektiv omillari, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, transport va aloqa sohasidagi ilmiy va texnologik taraqqiyot singari sohalarda oraliq masofani kamaytirishga sabab bo'ladi.

2. Savdo va iqtisodiyotni erkinlashtirishning boshqa shakllari proteksionistik siyosatni cheklab qo'ydi va jahon savdosini erkinlashtirdi.

3. Transmilliylashuv hodisasi mamlakatning ayrim iste'mol va ishlab chiqarish, daromad va import, eksportni xalqaro markazlarning qarorlari bilan uning chegaralaridan tashqarida belgilanishiga olib keladi. Bu tizimda baynalmilallashuvda asosiy o'yinchilar va uning natijasi bo'lgan xalqaro korporatsiyalar (TMK) egallaydi.

4. Bozor iqtisodiyoti va erkin savdo tizimini baholashda global konsensusga erishish. Bu jarayon 1978-yilda Xitoyda islohotlar asosida yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari Sobiq Sovet Ittifoqining qulashi oqibatida va MDH mamlakatlari siyosati va iqtisodiyotida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Bu jarayonlar natijasida sotsialistik va bozor mafkuralarining yaqinlashuvi sodir bo'lib, ular o'rtasidagi tafovutlar iqtisodiyotga bozor yondashuvining deyarli bir xil ko'rinishidagi shakli bilan to'ldirildi. Bu yaqinlashishning tabiiy oqibati sotsialistik lager mamlakatlarining iqtisodiyotda bozor tushunchasining faol kirib kelishi bo'ldi.

5. Globallashuv madaniy taraqqiyotga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Globallashuv sharoitida ommaviy san'at, mashhur madaniyat va ommaviy axborot vositalarida bir xillikka asoslangan va ingliz tilining keng tarqalishiga qaratilgan yondashuv mavjud.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvining yana bir xususiyati XX asr oxirida moliya bozorlarining kosmik sur'atlar bilan rivojlanishi bo'ldi. Bu davrda kredit, valyuta va fond bozorlarining o'zgaruvchan roli xalqaro iqtisodiyot arxitekturasining o'zgarishiga olib keldi. Jahon moliyasini globallashtirish markazlari sifatida uchta yirik iqtisodiy hudud belgilanadi: AQSh, G'arbiy Yevropa va Yaponiyadir. Bugungi kunda bu uchlik va ularda amalga oshirilayotgan iqtisodiy operatsiyalar jahon iqtisodiyotida hal qiluvchi darajadagi muhim kuchga ega.

1.4. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining namoyon bo'lish shakllari va globallashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar

XX asr oxirlariga kelib jahon xo'jaligining rivojlanishi va faoliyati globallashuv jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsata boshladi. Bundan tashqari globallashuv insonlarning iqtisodiy, ijtimoiy va gumanitar faoliyat sohaslarida namoyon bo'la boshladi. Jamiyat hayotining u yoki bu sohasida sodir bo'layotgan jarayonlar globallashib, boshqa sohalardagi jarayon va hodisalarga ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun ilmiy adabiyotlarda globallashuvning huquqiy makonning globallashuvi, siyosiy munosabatlarning globallashuvi, iqtisodiyotning globallashuvi, axborot-kommunikatsiya makonining globallashuvi, etnik globallashuv va boshqa turlari farqlanadi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi so‘nggi davrlarda turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda. Ular turli mamlakatlarning huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida o‘z aksini topgan.

Sohaga oid adabiyotlarda globallashuv ko‘rinishlari sifatida integratsion jarayonlar va integratsiya shakllari, xususan, integratsion birlashmalar ko‘rsatiladi.

Integratsion birlashmalarning turkumlanishi, asosan, ishtirokchi mamlakatlar iqtisodiyotining makro va mikro darajada o‘zaro yaqinlashish va bir-biriga naqadar chuqur kirib borish holatini baholashda namoyon bo‘ladi. Bu mezonga ko‘ra integratsiyaning to‘rt ko‘rinishi (erkin savdo hududi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor va iqtisodiy ittifoqlar)ni ajratib ko‘rsatish mumkin (1.1-jadval).

1.1-jadval

Integratsion birlashmalarning ko‘rinishlari⁹

| Ko‘rinish nomi | Ittifoq ichida erkin savdo | Uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona savdo-bojxona siyosati | Ishlab chiqarish omillarining erkin harakatlanishi | Qonunchilik, ijtimoiy va valyuta sohalarda iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish |
|--------------------|----------------------------|---|--|--|
| Erkin savdo hududi | X | | | |
| Bojxona ittifoqi | X | X | | |
| Umumiy bozor | X | X | X | |
| Iqtisodiy ittifoq | X | X | X | X |

Erkin savdo hududlari (ESH) xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining boshlang‘ich bosqichi sanaladi. Erkin savdo hududi zamonaviy talqinda preferensial hudud hisoblanib, uning doirasida bojxona va miqdoriy cheklanishlardan holi savdo tartibiga rioya qilinadi.

Erkin savdo hududlari amalda ikki va undan ortiq davlatlarning o‘zaro savdosi aloqalari turli bojlar, litsenziya va kvotalarni muzlatish va asta-sekin bekor qilish to‘g‘risidagi bitimlarning imzolanishi

⁹ Nazarova G.G‘., Xaydarov N.X. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O‘quv qo‘llanma. -T.: TDIU, 2005. 247-b

natijasida shakllanadi. Bunda, YeI, NAFTA va MERKOSUR tajribasidan ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga nisbatan savdo rejimini erkinlashtirish cheklangan tartibga ega, bu dastlab bojxona nomenklaturasidagi ba'zi pozitsiyalarni qamrab oladi.

Erkin savdo hududlarining ijobiy jihatlariga kelsak, eng avvalo, ishtirokchi mamlakatlarning savdo siyosatida barqarorlikning o'rnatilishini kiritish mumkin. Erkin savdo hududlari a'zo mamlakatlarni xalqaro iqtisodiy munosabatlarga jalb etish jarayonining tezlashishiga yordam beradi, ular xalqaro mehnat taqsimotidan maksimal darajada samarali foydalanish imkoniga ega bo'ladilar.

Erkin savdo hududlarining salbiy jihatlariga esa, ichki bozorda raqobatning kuchayishi bilan belgilanadi. Bu milliy ishlab chiqaruvchilarga salbiy ta'sir etishi va ular uchun bankrotlik xavfini kuchaytirishi mumkin.

Bundan tashqari erkin savdo hududlarini yaratish millatlararo tartibga soluvchi organlarni tashkil etish holatlarida kuzatilmaydi. Bu esa, o'z navbatida, qarorlar qabul qilishni sekinlashtiradi, shuningdek, qabul qilingan qarorlar bajarilishini nazorat qilishni qiyinlashtiradi. Biroq qiyinchiliklar va muammolarga qaramasdan, integratsiyaning boshlang'ich bosqichidagi erkin savdo hududlari jahon iqtisodiyotida keng tarqalishi ham mumkin.

Bojxona ittifoqi (BI) huquqiy nuqtai nazardan olganda ikki va undan ortiq davlatlar o'rtasida o'zaro va uchinchi bir mamlakatlarga nisbatan soddalashtirilgan soliq siyosatining o'rnatilishini anglatadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan olganda esa bojxona ittifoqini tashkil etish – bu yagona iqtisodiy makonni shakllantirish va bu makon doirasida esa har qanday bojxona chegaralarini olib tashlanishini anglatadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlatlararo tartibga solishning bu ko'rinishi Bojxona ittifoqi qatnashchilari o'rtasida bojsiz savdonigina emas, balki uning tashqi chegaralarida muvofiqlashtirilgan tarif tizimini joriy qilishni ham nazarda tutadi. Bojxona ittifoqining erkin savdo hududidan farqi ham ana shundadir.

Bojxona ittifoqlarining yaratilish va ularning shakllanishining aniq natijalari unga a'zo mamlakatlarning ishlab chiqarish va iste'mol sohasida yuz beradigan tarkibiy o'zgarishlarda o'z aksini topadi. Boshqacha qilib aytganda, bojxona ittifoqi savdoning kengayishi hisobiga aholining turmush farovonligini oshiradi, biroq ayni bir payt-

da ishlab chiqaruvchilarning arzon mahsulotlariga nisbatan qimmat tovar ishlab chiqarishga moslashishlari hisobiga farovonlikni pasaytiradi.

Tashqi savdoni davlatlararo tartibga solishning keng tarqalgan ko‘rinishi sifatida bojxona ittifoqi haqida gapirganda shuni esdan chiqarmaslik lozimki, uning faoliyati uzoq vaqt mobaynida alohida olingan mamlakatlarning jami tovarlar va xizmatlar nomenklaturasiga tarqalmasligi mumkin. Bojxona ittifoqlarining rivojlanishi jarayonlarini birgalikda tartibga solish sohasining asta-sekin kengayib borishidan darak beradi. Ya’ni bosqichma-bosqich olib boriladigan mazkur jarayon oxir-oqibat millatlararo muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar va institutlarni tashkil etishni taqozo etadi.

Bojxona ittifoqining erkin savdo hududidan asosiy farqi ittifoq chegaralarida muvofiqlashtirilgan savdo-bojxona rejimini joriy etishdir.


Integratsion jarayonlarning keyingi rivojlanishi integratsiyaning eng yuksak ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan umumiy bozor hamda iqtisodiy ittifoqning shakllanishiga olib keladi.

Jahon iqtisodiyotida ko‘plab iqtisodiy birlashmalarning vujudga kelishi va taraqqiyotidan ma’lumki, aynan umumiy bozor va iqtisodiy ittifoq eng ko‘p diqqatga sazovordir.

Umumiy bozorni iqtisodiy ittifoqqa aylantirishning zamonaviy bosqichida Yevropa Ittifoqining ahamiyati kattadir. Bu tashkilot iqtisodiy integratsion jarayonlarning eng yuqori cho‘qqisiga intilishini yaqqol namoyish etayotgan hozirgi kundagi yagona iqtisodiy ittifoqdir.

Globalashuvning yuqorida qayd etilgan ko‘rinishlari qator omillar ta’sirida yuzaga keladi.

Globalashuv hodisasi mohiyatini tushuntiruvchi sabablarning tizimli tahlili uning taraqqiyotini belgilovchi quyidagi omillar guruhini ajratishni taqozo etadi (1.4-rasm):



1.4-rasm. Globallashuv jarayoni rivojlanishini belgilovchi omillarning asosiy guruhlari

1. Iqtisodiy omillar – kapitalning ulkan konsentratsiyasi va markazlashuvi, xalqaro korporatsiyalar qudratining o‘shishi, ishlab chiqarish va hamkorlik xalqaro ixtisoslashuvini intensivlashtirish, xalqaro marketing, elektron tijorat, xalqaro logistika.

2. Siyosiy omillar – davlat chegaralari asta-sekin shaffoflashib, odamlar, tovarlar, xizmatlar va kapitalning harakat erkinligiga ko‘proq imkoniyat yaratib beradi.

3. Xalqaro omillar – uning dinamikasini globallashuv jarayonini rag‘batlantiruvchi yirik xalqaro voqealar sanalari bilan bog‘laydi.

4. Texnik-texnologik omillar – axborot, texnologiyalar, tovarlar va moliyaviy resurslarni tezkor tarqatishga imkoniyatlar yaratadigan zamonaviy transport vositalari, axborot tizimlari va texnologiyalari, aloqa va telekommunikatsiyalar, moslashuvchan avtomatlashtirilgan, vositalar majmuidan iborat bo‘lib, ularni ishlab chiqarishni rivojlantirish natijasida xarajatlar hajmi kamayadi.

5. Ijtimoiy omillar – an’analar, ijtimoiy aloqalar va urf-odatlar ahamiyatining zaiflashuvi odamlarning geografik, ma’naviy va hissiy jihatdan harakatchanligini oshirishga yordam beradi.

6. Tovar va kapital bozorlarini erkinlashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish, bojxona, savdo va soliq qonunlarini yumshatish va birlashtirish milliy iqtisodiyot va ularning tadbirkorlik subyektlarining o‘zaro iqtisodiy bog‘liqligini ham oshirdi.

Quyidagi omillar globallashuvni harakatga keltiruvchi moliyaviy tizimlarning o‘zgarishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi va bu ta’sir butun global tizimlarning u yoki bu darajada o‘zgarishiga olib keladi:

- iqtisodiy munosabatlarni transmilliylashtirish va milliy moliya bozorlarida integratsiyalash jarayonini jadal rivojlantirish;

- global moliyaviy bozorlarni tartibga solishning nisbiy yengilashuvi (ularning hajmlari va aylanmalarning ortishi bilan raqobatning ortishi);

- rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga kirib borishi bilan global moliya tizimining kengayishi;

- kapital hajmining doimiy o‘sishi va o‘ta harakatchanligi keskin vaziyatni yuzaga keltiradi; makroiqtisodiy va global (davlatlararo iqtisodiy integratsiya, shu jumladan, moliyaviy va pulning tarkibiy qismlari) darajada moliyaviy resurslarning yuqori konsentratsiyasi;

- kapital konsentratsiyasiga moyillik, global tijorat va moliyaviy tuzilmalar mustaqilligining ortib borishi;

- moliyaviy operatsiyalarning intensivligi, harakatchanligi va moliyaviy bozorlar o‘zaro bog‘liqligining ortib borishi;

- moliyaviy vositalarning xilma-xilligi va ularning yuqori darajadagi harakatchanligi.

1.5. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining ko‘rsatkichlari va ustuvor yo‘nalishlari

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi - siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy qarorlar qabul qilishda sezilarli ta’sir ko‘rsatish salohiyatiga ega bo‘lgan alohida shaxslar xulq-atvoriga (nano daraja), alohida korxonalar (mikro daraja), davlatlar ichidagi mintaqalarning tovar, moliyaviy, valyuta va mehnat bozorlari (mezo daraja), milliy iqtisodiyot (makro daraja) va xalqaro, shu jumladan, mamlakatlararo

mintaqaviy daraja (mega darajasi)da ta'sir qiluvchi iqtisodiy munosabatlarga ta'sir qiluvchi ko'p darajali hodisadir (1.2-jadval).

1.2-jadval

Globalashuvning ta'sir doirasi va chegaralari¹⁰

| Predmet doirasi | Tadqiqot obyekti | Predmeti | Subyekti |
|------------------------|--|---|------------------------------------|
| Mega iqtisodiyot | Global iqtisodiyot – mega daraja | Jahon iqtisodiyoti yagona tizim ko'rinishida | Jarayonli va obyektli yondashuvlar |
| Xalqaro iqtisodiyot | Mega iqtisodiyot alohida mamlakatlar iqtisodiyotining majmuasi – mega daraja | Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar | Obyektli yondashuv |
| Makro iqtisodiyot | Alohida mamlakat iqtisodiyoti – makro daraja | Alohida mamlakatlar ichidagi iqtisodiy jarayonlar | Jarayonli yondashuv |
| Mezo iqtisodiyot | Tarmoqlar, mintaqalar, majmualar va yirik korxonalar iqtisodiyoti – makro va mezo daraja | Mintaqalar, tarmoqlar va majmualar orasidagi iqtisodiy munosabatlar | Obyektli yondashuv |
| Mikro iqtisodiyot | Korxonalar o'zaro munosabatlari kesimida tarmoq bozorlari iqtisodiyoti – mikro daraja | Korxonalarda resurslarni jalb etish, narx va ishlab chiqarish hajmining shakllanishidagi iqtisodiy jarayonlar | Jarayonli yondashuv |
| Mini iqtisodiyot | Bo'linmalar kesimidagi korxonalar iqtisodiyoti – mikro daraja | Korxonalar bo'linmalari orasidagi iqtisodiy munosabatlar | Obyektli yondashuv |
| Nano iqtisodiyot | Ishlab chiqarish, taqsimot, iste'mol jarayonlarining alohida ishtirokchilari xulq-atvori – nano daraja | Iqtisodiyotning individual ishtirokchilari xulq-atvorini belgilovchi jarayonlar va omillar | Jarayonli va obyektli yondashuvlar |

¹⁰ Роцеско С. Глобализация: взаимодействия в рамках многообразия. // Сборник научных докладов «Глобализация и крупные периферийные страны». –Москва: Международные отношения, 2003. – С.45


Bozor munosabatlari sharoitida nano va mikro darajadagi alohida korxonalar, firmalar va tadbirkorlar xalqaro iqtisodiy munosabatlarning barcha shakllaridagi belgilovchi subyektlar bo'lganligi tufayli globallashuvning tarkibiy asosini tashkil etadi.

Globallashuv ta'sir sohalarida kapital eksporti va xalqaro qayta taqsimlanishidagi transmilliy korporatsiyalarning iqtisodiy va siyosiy manfaatlarini belgilovchi nano va mikro darajadagi subyektlar yetakchi o'rinni egallaydi. Jahon xo'jaligi aloqalari mezo darajada – yirik davlatlar tarkibidagi mintaqalar, tovar va xizmatlar, kapital, mehnat, moliya-kredit va valyuta bozorlari darajasida ham amalga oshadi.

Globallashuv omillarining jahon iqtisodiy shart-sharoitlari iyerarxiyasiga ta'sirining megavariantligi bozor munosabatlarida o'z-o'zini tartibga solish tamoyillaridan foydalanib bo'lmasligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham global tendensiyalar va ochiqlik bilan bir qatorda rivojlanayotgan va o'tish davri iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlar bilan bir qatorda rivojlangan mamlakatlarda ham proteksionistik yo'nalish saqlanib qolmoqda.

Globallashuv mega darajada milliy iqtisodiyotlarning xalqaro o'zaro ta'siri ko'rinishida to'liqroq namoyon bo'ladi. Bir tomondan, xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi to'siq va cheklovlarni bartaraf etish va kamaytirish borasidagi maqsadli sa'y-harakatlar mega darajada muhim ahamiyat kasb etmoqda, boshqa tomondan esa, globallashuv jarayonlarini rag'batlantirish, iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarni muvofiqlashtirish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish va umuman, jahon hamjamiyatiga ta'sir qiluvchi global, xususan, keng ko'lamli muammolarni hal qilish uchun zaruriy resurslarni jamlash kerak. Bu jarayonlarni ta'minlash vazifasi mintaqaviy va xalqaro, hukumatlararo va nodavlat tashkilotlar zimmasiga tushadi.

Globallashuvning ustun ko'rinishlari sifatida tovarlar, xizmatlar, moliyaviy kapitalning harakati, texnologiyalar diffuziyasi va ishchi kuchi migratsiyasi sohasidagi transchegaraviy tranzaksiyalarning ortishi bilan aloqador davlatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning ortishini tushungan holda globallashuv jarayonining asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash mumkin (1.5-rasm).



1.5-rasm. Globallashuv jarayonini baholovchi asosiy ko'rsatkichlar¹¹

O'tgan yarim asrdan ko'proq vaqt mobaynida globallashuv ko'rsatkichlaridan biri sifatida xalqaro savdo yo'nalishida sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga qaraganda tezroq o'sish dinamikasi kuzatilmoqda. Bu davrda jahon tovar va xizmatlar eksporti jahon birlashgan yalpi ichki mahsulotidan qariyb uch barobar oshdi. XX asrning 70-yillaridan boshlab, Bretton-Vuds konferensiyasining asosiy kelishuvlari rad etilgandan so'ng, tariflar va savdo to'g'risidagi Bosh bitim (GATT) bo'yicha savdoni erkinlashtirishga asoslangan yangi iqtisodiy tartib paradigmasi va Jahon savdo tashkiloti (1995-yil)ning shakllanishi bilan davom etdi. U global iqtisodiy rivojlanish uchun yangi shart-sharoitlar yaratdi. 1947-yili, ya'ni GATT tashkil etilgan vaqtda shartnomada qatnashuvchi rivojlangan mamlakatlar import tariflarining o'rtacha tortilgan darajasi 40% ga teng bo'lib,

1970-yilga kelib bu ko'rsatkich 8-10 %ga, 1990-yilga kelib esa 6,3% ga qisqardi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda import bojxona tarifining o'rtacha tortilgan darajasi Jahon savdo tashkiloti a'zolari uchun 3,8% ni, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 15,5% ni tashkil etadi¹⁰. Shu bilan birga, tashqi savdoni tartibga solish jarayonida amalda qo'llaniladigan kvotalar, litsenziyalar va boshqa shakldagi tarifsiz cheklovchi to'siqlarning ahamiyati ortib bormoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, xalqaro savdoni yanada erkinlashtirish jarayonlari

¹¹ Филипп Р.Лейн и Джан-Мария Милези-Фиретти. Изучение глобальных дисбалансов // Финансы и развитие (МВФ). – 2006. – март. – С.38-41.

aniq emas, chunki ular rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish davri iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlar uchun ma'lum darajada xavf tug'diradi. Shu sababli ular milliy iqtisodiyotning rivojlanish muammosini hal qilish uchun yetakchi iqtisodiy kuchlar bilan farqni kamaytirish uchun proteksionistik chora-tadbirlardan oqilona foydalanish kerak.

Iqtisodiy globallashuvdagi liderlik o'rniga moliya sektori asosiy da'vogar bo'lib, uning xalqaro darajada jadal rivojlanishi muayyan muammolar va ziddiyatlar bilan bog'liq. So'nggi yillarda dunyo miqyosida "moliyaviy makon" tushunchasi paydo bo'ldi. Bu asosan quyidagilarda namoyon bo'ladi.

- iqtisodiy birjalarni mustahkamlash (TMKlar faoliyati, investitsiyalarni rivojlantirish);

- valyuta bozorlari orqali katta miqdorda pul o'tkazish, transmilliy bitimlar tuzish va bir davlatdan tashqarida mulkiy huquqlarni amalga oshirish;

- moliyaviy sektorning real sektordan o'zib ketishi: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining jahon savdosiga nisbatan tez ortib borishi;


- valyuta va moliya bozorlaridagi bitimlar hajmining xalqaro savdo hajmidan ortib ketishi va hokazo.

O'tgan asrning oxirgi o'n yilligining boshida xalqaro kapital transfertlari kuniga 1,3 trln. \$ dan oshib ketdi, bu esa 130 yil davomida taxminan 20 barobar o'sishni anglatdi.

Bu davrda yillik valyuta savdosi 400 trillion \$ dan oshib, jahon savdosi yillik hajmining deyarli 80 barobarini tashkil etdi. Oxirgi ikki o'n yil mobaynida bu ko'rsatkich 40 barobarga o'sdi. Bunday operatsiyalarga xizmat ko'rsatishda eng yangi aloqa va axborot tizimlaridan foydalaniladi.

Jahon moliyaviy oqimlarining salmoqli qismi tovar va xizmatlarning xalqaro harakatiga xizmat ko'rsatish, shuningdek, kapitalning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari bilan bog'liq. Butun dunyo bo'ylab harakatlanayotgan kapitalning bu qismini turli shakllarda erkinlashtirish iqtisodiyotda yaxshi samara berdi, ko'plab milliy iqtisodiyotlarga va jahon iqtisodiy munosabatlari tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu hodisalarning barchasi moliyaviy globallashuvning jadal

rivojlanayotganligini ko'rsatadi va u quyidagi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi (1.5-rasm):



1.5-rasm. Moliyaviy globallashuvning asosiy ko'rsatkichlari¹²

Moliyaviy globallashuv orqali moliyaviy mahsulotlar, xizmatlar va xalqaro kapital oqimlari transchegaraviy bitimlarining ko'payishi va xilma-xilligi, shuningdek, moliyaviy va telekommunikatsiya texnologiyalarining tez va keng tarqalishi natijasida butun dunyo mamlakatlarining o'zaro bog'liqligi kuchayib borishini anglatadi. Yangi moliyaviy vositalarning rivojlanishi, milliy moliya bozorlarining kengayishi, xalqaro banklar va boshqa moliya institutlarining rivojlanishi jahon hamjamiyatining barcha mamlakatlarini o'z ichiga olgan holda faoliyat ko'rsatuvchi global moliya tizimini yaratdi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan jarayonlarni tizimli ko'rsatkichlar asosida baholash jahon mamlakatlari, uning ayrim mintaq va hududlarida globallashuv jarayonining holati va rivojlanish tendensiyalarini

¹² Филипп Р.Лейн, Джан-Мария Милези-Фиретти. Изучение глобальных дисбалансов // Финансы и развитие (МВФ). – 2006. – март. – С.38-41.

aniq baholash hamda jarayonlarni chuqurlashtirish yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilash imkonini kengaytiradi.

1.6. Globallashuv borasidagi ilmiy qarashlarning vujudga kelishi va rivojlanishi

“Globallashuv” tushunchasi 1996-yildan boshlab Davos forumining asoschisi va prezidenti Klaus Shvab rahbarligidagi jahon iqtisodiy forumining 25-sessiyasida “Sayyoradagi asosiy jarayonlarning globallashuvi” mavzusida bo‘lib o‘tgan muhokamadan so‘ng maxsus atama sifatida kiritildi.

1981-yilda amerikalik sotsiolog J.Maklean tomonidan “global-lashuv” atamasi konseptual atamalardan biri sifatida ishlatilgan. Uni iqtisodiyot fani atamasi sifatida birinchi marta 1983-yilda T.Levit “Harvard Business Review” jurnalidagi ko‘p millatli korporatsiyalar tomonidan ishlab chiqarilgan alohida mahsulotlar uchun bozorlarni birlashtirish jarayonini tasvirlab bergan maqolasida qo‘llagan.

1985-yilda R.Robertson globallashuv atamasini maqolalaridan biriga sarlavha sifatida qo‘yadi va uni batafsil talqin qiladi. R.Robertsonning ta’rifiga ko‘ra, globallashuv alohida mamlakatlarda ijtimoiy haqiqatga xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan turli omillar (masalan, yaqin iqtisodiy va siyosiy aloqalar, madaniy va axborot almashinuvi) ta’sirini oshirish jarayonidir. Bugungi kungacha bu atama ma’no mundarijasi ko‘p manbalarda R.Robertsonning ta’rifi asosida tushuntiriladi. Chunki, globallashuv o‘z mohiyatiga ko‘ra iqtisodiy, siyosiy, axborot va ijtimoiy sohalarni qamrab oladi.

Mavjud adabiyotlarda “globallashuv” tushunchasining mohiyatini quyidagicha talqin etish mumkin: “Globallashuv (lotincha “globus” – shar) – nazariya va siyosatdagi dunyoning ajralmas iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va siyosiy yagona tizim sifatida shakllanishi, tashkil topishi, faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi asosidagi yondashuv tamoyilidir”.

Globallashuv haqidagi ilmiy g‘oyalarning 1950-yildan hozirgi kungacha rivojlanishi

| I-davr. 1950–1990 yillar | | |
|--|--|---|
| Mualliflar | Yondashuvning o‘ziga xos jihatlari | Globallashuv nazariyalari |
| R.Robertson, M.Uoters, G.Terborn, A.Zinovev, I.Vallerstrayn, D.Meyer, N.Luman | Globallashuv tarixiy jarayon sifatida qaraladi. Globallashuv jarayonlarining hayotning muayyan sohalarida namoyon bo‘lishi. Hodisani to‘liq yoritishga da’vo qilmaydigan bir qancha aniq ta’riflar taklif etiladi. Ayrim tadqiqotchilar globallashuvni ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi natijasi sifatida talqin etadilar. | I.Vallerstainning jahon tizimli tahlili nazariyasi (1974 yil). D.Meyerning milliy davlat nuqtai nazaridan jahonni tizimli tahlil nazariyasi (1987 yil). I.Vallerstain “Zamonaviy jamiyat to‘g‘risidagi global tasavvur nazariyasi” (1984 yil). N.Lumanning fikricha, ijtimoiy jarayonlarni global tushunish zamonaviylik ijtimoiy tavsifining yanada tejamli usulidir. (1970-1980 yillar). R.Robertsonning globalizatsiya nazariyasi (globallashuv + mahalliy lashtirish). (1990 yil) |
| II-davr. 1990–2000 yillar | | |
| I.Vallerstayn, G.Terborn, M.Archer, R.Robertson, M.Fezerstoun, A.Appadurai, B.Terner, A.Zinovev, N.S.Mironenko | Ta’riflar ko‘proq iqtisodiy xarakterga ega. Globallashuv jamiyat hayotining turli sohalariga singib bormoqda. | G.Terborn “Globallashuv to‘lqinlari” (2000 yil). A.Zinovev “Globallashuv nazariyasi jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi ulkan jarayon sifatida” (2000- yillar). N.S.Mironenko jahon iqtisodiyotini rivojlantirish uchun globallashuv modelini taklif etadi (1990-yillar). |
| III-davr. 2000-yillardan hozirgi davrgacha | | |
| M.Kastels, L.Ye.Grinin, R.Robertson | Globallashuvni hayotning barcha sohalarining murakkab o‘zaro aloqalarida ko‘rib chiqish, globallashuvning kelajakdagi mumkin bo‘lgan oqibatlarini unifikatsiyalash, prognozlash. | R.Robertsonning globallashuvning madaniy jihatlari va ommaviy axborot vositalari faoliyati natijasida yaratilgan ijtimoiy jarayonlarning globallashuvi haqidagi jamoaviy (ijtimoiy) g‘oyalarning ahamiyatiga e’tibor qaratadigan nazariyasi (2003-yil). |

Shu bilan birga, globallashuv hodisasining yagona va to‘laqonli ta’rifi hali ham mavjud emas. Hozirgi kunda globallashuv atamasining talqinida 3 xil yondashuv mavjud:

1. Fan nuqtai nazaridan olingan tor doiradagi yondashuv. Bir qator tadqiqotchilar globallashuvni 90-yillarning boshidan to hozirgi kunga qadar yangi komponentlar va texnologiyalar asosida moliyaviy va axborot makonini shakllantirishning obyektiv va sifat jihatidan yangi jarayoni deb tushunadilar.


2. Mafkuraviy yondashuv. Ayrim mualliflarning fikricha, globallashuv atamasining joriy etilishi G'arb davlatlari tomonidan neoliberalizmga qarshi jarayonga targ'ibot etuvchi javob bo'ldi. Globallashuv TMK va davlat, shuningdek, xalqaro tuzilmalar (Jahon banki, JST) qudratining yangi mafkuraviy asoslanishi sifatida ko'riladi. Shu bilan birga globallashuvni dunyoning amerikalashuvi sifatida baholovchi qarashlar ham bor.

3. Tarixiy yondashuv. Ushbu yondashuv vakillari globallashuvni modernizatsiyalash jarayonining o'ziga xos rivojlanishi, dunyo integratsiyasining zamonaviy bosqichi va insoniyat ajralmas sivilizatsiyasining shakllanishi deb biladilar. Globallashuv ma'lum bosqichlarda rivojlanayotgan, o'zaro bog'langan yagona iqtisodiy, siyosiy va madaniy makon sifatida butunjahon birlashuvi jarayoni hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan yondashuvlardan kelib chiqib, globallashuvning mohiyatini quyidagi ko'rinishda ifodalash maqsadga muvofiq.

Globallashuv (lotin tilidan "*globus*" – shar, fransuz tilidan "*global*" – umumiy) – xalqaro hamjamiyatning barcha sohalarida chuqurlashib borayotgan o'zaro aloqa va o'zaro bog'liqlikka asoslangan tubdan yangi global tizimni shakllantirish, tashkil etish, faoliyat ko'rsatish va rivojlantirishning obyektiv jarayonidir.

Globallashuvni ilmiy tushunish u bilan bevosita bog'liq bo'lgan hodisalar guruhining umumiyliги va farqlarini anglashga asoslangan bo'lishi kerak, boshqacha aytganda, globallashuvning alohida shakllari mohiyatini to'g'ri anglash lozim. Globallashuvning sohalar va yuzaga kelish jihatlari bo'yicha quyidagi asosiy shakllarini ko'rsatib o'tish mumkin (1.6-rasm):



1.6-rasm. Globallashuvning sohalar va yuzaga kelish jihatlari bo'yicha shakllari

- *tabiiy globallashuv* – boshqa ijtimoiy-madaniy an'analar yutuqlarining turli ijtimoiy-madaniy an'analar orqali in'ikos etishning tadrijiy jarayoni. Bu idrok asosan ixtiyoriy bo'lib, muayyan ijtimoiy-madaniy an'ananing rivojlanish darajasiga, uning boshqa ijtimoiy-madaniy an'analarning ma'lum yutuqlarini o'rganish va amalda qo'llashga intilishiga bog'liq;

- *sun'iy globallashuv* bu – dunyo haqida muayyan g'oyalarni kuch bilan yoki boshqa usullar (aldash, ishontirish, sotib olish va boshqalar) bilan singdirishga urinishdir. Shu bilan birga, sun'iy globallashuv iqtisodiy, siyosiy qadriyat dunyoqarash tushunchalarini majburiy joriy etish bilan bog'liq ekan, bu ko'proq inqilobiy jarayondir. Sun'iy globallashuv muayyan mamlakat, din yoki siyosiy g'oya da'volarini

tavsiflaydi. Bunday da'voning paydo bo'lishi o'z holicha xosil bo'lib, dunyoda u yoki bu sohada rivojlangan muvozanatni saqlab qola olmagan mamlakatlar, dinlar va siyosiy g'oyalarning zaiflashuvini aks ettiradi. Nomutanosiblik sun'iy globallashuvga intilish kuchli bo'lgan qator yo'nalishlarning faollashuviga olib keladi;

- *iqtisodiy globallashuv* – nafaqat xalqaro tovar (moliyaviy) oqimlarini intensivlashtirish va TMKlarning o'sish jarayoni, balki mahalliy iqtisodiy jarayon (tizim)larni tarkibi va ta'siri jihatidan baynalmilallashtirish shaklida jahon mehnat taqsimoti tizimining institutsionallasuvi, ya'ni muntazam amaliyotga kiritilishi hamdir;

- *siyosiy globallashuv* – nafaqat xalqaro tashkilotlar soni va ta'sirini oshirish, balki mahalliy siyosiy aksiyalar yoki harakatlarning baynalmilallasuvi shaklidagi jahon xalqaro munosabatlar tizimini institutsionallashtirish jarayonidir;

- *madaniy globallashuv* – nafaqat G'arb ommaviy axborot tizimlari va TMKlarning estetik va xulq atvor standart ramzlarining global kengayish jarayoni, balki mahalliy jamoalarning ko'p madaniyatlilik holatida jahon madaniyatiga institutsionallashtirish hamdir.

Globallashuvning shakllanishi ungacha bo'lgan bir qator tushuncha va jarayonlarning to'laqonliligi shakllanganligi hamda amal qilinishiga ham bog'liq.

Bunday tushuncha va jarayonlar ketma-ketligini "baynalmilallasuv – mintaqalashuv – globallashuv" ko'rinishida ifodalash mumkin. Sanab o'tilgan tushunchalar aks etgan hodisalar ilgari mamlakat ichkarisidagi jarayonlar majmuasining yagona davlat chegaralaridan chiqqan holda ro'y berishini ifodalaydi. Bunda hodisalarning vujudga kelish sharoitlari va vaqtlarida, ularning mohiyati, o'ziga xos ijtimoiy-tarixiy vazifalarida, jarayonlar predmetlari to'plamida tegishli farqlar kuzatiladi. Bundan tashqari hodisalarning ko'lami, chuqurligi va intensivligida, shuningdek, ularning bevosita va uzoq muddatli natijalari va oqibatlarida muayyan farqlar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu yo'sin muntazam ko'rsatkichlar jadvalini ishlab chiqish mumkin emas, faqat nomlangan konseptual seriyalar va unga kiritilgan toifalar haqidagi tasavvurlarnigina bayon qilish mumkin, holos.

Baynalmilallasuv ilgari faqat ichki hisoblangan tushunchaning dastlabki doiradan chiqishi yoki jahon iqtisodiyoti va siyosatida bir

necha subyektlar harakati biror umumiy vazifa, maqsad va tadbir atrofida birlashtirilishini nazarda tutadi.

Baynalmilallashuv xalqaro hayotdagi barcha ishtirokchilarni to'la jalb qilmasa-da, subyekt va makonni egallash jihatidan universal hisoblanadi. Baynalmilallashuv mahalliy darajada yoki faoliyatning alohida yo'nalishlari, turlari va sohalariga tatbiq etishda yanada samarali rivojlangan. Baynalmilallashuv tarixan juda erta yuzaga kelishi lozim bo'lgan hodisa bo'lib, dastlabki ijtimoiy-hududiy obyekt (shaharlar, davlat qismlari va boshqalar)larning yuzaga kelishi bilan namoyon bo'lgan. Baynalmilallashuvning funksional jihatlari tarkibiy ta'sirlarga nisbatan ustundir. Uning asosiy vazifasi – real dunyoda barqaror xalqaro munosabatlarni ta'minlashdan iborat.

Mintaqalashuv ko'pincha XX asr oxiridagi jahon iqtisodiyoti va iyoosatining o'ziga xos xususiyati sifatida ko'riladi. Biroq mintaqalashuv hodisasisiz nafaqat antik va o'rta asrlar, balki bugungi davrda ham o'rta va yirik davlatlar rivojlanishi mumkin emas.

Mintaqalashuv subyektlari faqat o'z davri uchun xalqaro munosabatlarning yetakchi subyektlari hisoblanadi. Bunday subyektlardan olingan huquq va vakolatlar asosida harakat qiluvchi o'z agentlari bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda globallashuv bilan bog'liq jarayonlarni tushuntirishda sanoatlashuv davridan keyingi davr, axborot inqilobi asri, texnogloballizm va boshqa tushunchalar ko'p qo'llaniladi. Ularning barchasi globallashuv keltiradigan eng muhim o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi.

Globalashuv jarayonining rivojlanishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, biotexnologiyalar, nanotexnologiyalar va boshqalar (virtual davlatlar – Erkin Birma koalitsiyasi) muhim ahamiyat kasb etadi. Kastels globallashuvni iqtisod, madaniyat, ijtimoiy tashkilotlar va milliy davlatlar o'rtasidagi tobora kuchayib borayotgan o'zaro bog'liq munosabatlar deb hisoblaydi. Globalashuv axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarining o'sib borayotgan o'zaro bog'liqligi yangi madaniyat ko'rinishlarini shakllantirmoqda.

1.7. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi to‘g‘risidagi ilmiy konsepsiyalarning asosiy yo‘nalishlari

Zamonaviy sharoitda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning barcha shakllarining rivojlanishini belgilovchi va bir vaqtning o‘zida sintez qiluvchi asosiy yo‘nalishlardan biri iqtisodiy globallashuv jarayonidir. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) ekspertlari globallashuvni “...tovarlar, xizmatlar va global kapital oqimlaridagi xalqaro bitimlarning ko‘payishi va xilma-xilligi natijasida dunyodagi mamlakatlarning o‘sib borayotgan iqtisodiy o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek, texnologiyaning tobora tez va keng tarqalishi” sifatida talqin qilishadi.

Umuman, globallashuv jarayoni umumbashariy bo‘lib, nafaqat iqtisodiyotni, balki jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarini: siyosat, ijtimoiy soha, axborot tizimi, ta‘lim, madaniyat va boshqa sohalarni qamrab oladi. Amalda globallashuv ko‘rsatib o‘tilgan sohalarda rivojlanayotgan turli xil, ammo o‘zaro chambarchas bog‘liq globallashuv jarayonlarining murakkab majmuasidir. Shuning uchun ham uning turli jihatlari ko‘pgina fanlarning o‘rganish obyekti bo‘lib, globallashuv tom ma‘noda fanlararo tadqiqot obyektidir. Masalan, texnika fanlari vakillari alohida mamlakatlarda yuzaga keladigan yangiliklar va yangi texnologiyalarni texnik bilimlarning yagona global majmuasiga birlashtirishda namoyon bo‘ladigan “texnoglobalizm” tushunchasini ko‘rib chiqadilar. Ular energetika, aloqa, telekommunikatsiya, transport va shu kabi qator sanoat ishlab chiqarish tarmoqlari va boshqa sohalarda mohiyatan global “texnologik makrotizimlar” ning paydo bo‘lishini tahlil qiladilar. Sotsiologlar va faylasuflar globallashuv konsepsiyasini madaniyat va insoniy qadriyatlarning universallashtirish ta‘sirida turli mamlakat va mintaqalarda yashovchi odamlarning turmush tarzida kechadigan yaqinlashish tendensiyalari bilan bog‘lashadi. Globallashuv jarayonlari siyosat sohasida (shu jumladan, harbiy-siyosiy sohada) ham yuz berib, bu yangi globallashuv muammolari jarayonida yuzaga keladigan yirik xalqaro institutlarning (birinchi navbatda, BMT) o‘rni va roli masalasini ko‘taradi.

Lekin globallashuvning eng harakatchan jarayoni iqtisodiy sohada yuz beradi. Shu bilan birga iqtisodiy globallashuvning obyektiv va subyektiv jihatlari yoritib beriladi. Darhaqiqat, bir tomondan, iqtiso-

diyotning globallashuvi – bu yagona global iqtisodiy yaxlitlikka tomon tabiiy, obyektiv ravishda belgilangan harakat jarayoni, iqtisodiy hayotning sifat jihatidan yangi, yuqori baynalmilallashuvi bosqichidir. Boshqa tomondan, iqtisodiyotning globallashuvini dunyoning yetakchi mamlakatlari, yirik transmilliy korporatsiyalar (TMK) va transmilliy banklar (TMB), jahon moliyaviy markazlari o‘z manfaatlari uchun amalga oshirilayotgan aniq iqtisodiy siyosat shakli sifatida baholash mumkin.

Albatta, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning boshqa subyektlari (iqtisodiy jihatdan kuchli bo‘lmagan mamlakatlar va ularning uyushmalari, korporativ biznes va boshqalar) iqtisodiy globallashuv jarayonida ham o‘z manfaatlarini ro‘yobga chiqarmoqchi bo‘ladi. Shuning uchun ham iqtisodiy globallashuv jarayoni muqarrar ravishda keskin ziddiyatlar bilan kechadi.

Bu jarayonlar iqtisodiy globallashuv nazariyasi alohida o‘rin tutgan jahon iqtisodiyoti nazariyalarining rivojlanishida o‘z aksini topishi zarur.

Iqtisodiy globallashuv muammolari bo‘yicha shakllangan nazariy qarashlarni baholash so‘nggi yillarda olimlar turlicha yondashuvlarga asoslanadilar. Shartli ravishda ularning uchta asosiy yo‘nalishini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Giperglobalistik yo‘nalish (giperglobalizm)
2. Shubha yo‘nalishi (skeptitsizm).
3. Transformatsion yo‘nalish.

Ulardan birinchisi bo‘lgan giperglobalizm yo‘nalishi milliy chegaralarni yo‘q qilishning mutloq jarayoni va mamlakatlar o‘rtasidagi madaniy farqlarning yo‘qolishi bilan bog‘liq. XX asrning 70-yillaridan boshlab shakllanib kelayotgan yagona jahon bozori doirasida kapital, tovarlar va axborotlarning erkin harakati bu yerda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalish vakillarining fikricha bu yangi sharoitda, “milliy egoizm” tushunchasi ma’nosiz bo‘lib qoladi. Giperglobalizmning eng taniqli namoyandalari qatoriga K.Omai, F.Fukuyama va R.Rayxlarni kiritish mumkin.

“Globallashuv” atamasining dastlabki mualliflaridan va targ‘ibotchilaridan biri K.Omai bo‘lib, u o‘zining bir nechta asarlarini shu masalaga bag‘ishlagan.

U o‘z asarlarida “an’anaviy milliy davlatlar biznes nuqtai nazaridan, global iqtisodiyotdagi birliklar” yoki “dunyoning sobiq xaritasi illyuziyadan boshqa narsaga yaramay qoldi” degan fikrlarni ilgari surdi.

K.Omai tomonidan zamonaviy davlatlar rivojlanayotgan global tizimda mahalliy hokimiyat birliklariga aylanib borayotganligi, unda moliyaviy bozorlar va transmilliy korporatsiyalar hal qiluvchi rol o‘ynay boshlaganligi ta’kidlanadi.

K.Omai davlatlarni global iqtisodiyotning “g‘ayritabiiy” birliklariga aylangan “o‘tmishning ixtiyoriy debitorlari” deb baholaydi. K.Omai fikriga ko‘ra, “mintaqaviy davlatlar”, “tabiiy iqtisodiy zonalar”, “tabiiylik” va uning ko‘lami global iqtisodiyotning ehtiyojlariga ko‘ra shakllantiriladi.

Mashhur futurist F.Fukuyama asarlarida ham giperglobalizmning ba’zi qoidalari ishlab chiqilgan. F.Fukuyama o‘zining “Tarixning oxiri va so‘nggi odami” (1992 yil) nomli monografiyasida giperglobalizm nuqtai nazaridan dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonlarini o‘rganadi. Uning fikricha, hozirgi kunga kelib barcha rivojlangan davlatlar mohiyatan liberal-demokratik siyosiy institutlarni yaratdilar, boshqa mamlakatlar esa bozor iqtisodiyoti yo‘nalishida isloh qilinib, global iqtisodiy tizimga yanada jadal integratsiyalashmoqda. Zamonaviy texnologiya alohida mamlakatlar milliy iqtisodiyotiga ta’sir etib, ularni yagona global iqtisodiy tizimiga bog‘lashga xizmat qiladi.

F.Fukuyama o‘z tadqiqotlarida jahon iqtisodiyotida sodir bo‘layotgan integratsiya jarayonlarining madaniy jihatiga alohida e’tibor beradi. Uning fikricha, rivojlanayotgan integratsion hamjamiyat a’zolari o‘z faoliyatlarini mavjud institutlar, normalar va qoidalarga muvofiq amalga oshirishlari o‘zaro ishonchni anglatadi. Bu nuqtai nazardan ularning xatti-harakatlari oldindan taxmin qilinadi. Shunday qilib, globallashuv jarayonlarini faol joylashtirish deyarli butun dunyoda liberal demokratik qadriyatlarning faol tarqalishiga asosan amalga oshiriladi.

Ko‘rinib turibdiki, giperglobalizm vakillari mohiyatan o‘zlarining asosiy funksiyalaridagi davlatlarning yo‘qolishi va kelajakda – umuman milliy davlatlarning yo‘q bo‘lishi bilan birga to‘liq madaniy diffuziyani bashorat qiladilar. Giperglobalizm o‘ta qutbli pozitsiya

bo‘lib, uning ichida jamiyat zamonaviy taraqqiyotining ayrim real jihatlari mutloqlashtiriladi, deb aytish mumkin.

Giperglobalizmni ko‘p jihatdan tanqid qilish natijasida skeptitsizm (shubha-gumon) yo‘nalishi vujudga keldi. Bu yo‘nalishda ko‘p-lab tadqiqotlar amalga oshirildi. S.Xantington, P.Xirst, G.Tompson va S.Krasnerlarni skeptitsizmning faol tarafdorlari qatoriga kiritish mumkin. Bu mualliflarning ilmiy qarashlarini umumlashtirib, ularda aks ettirilgan g‘oyalarni quyidagi asosiy tezislarni ko‘rinishiga keltirish mumkin:

- oxir-oqibatda umumiy madaniy yaqinlashishga erishish mumkin emas;

- zamonaviy sharoitlarda ro‘y berayotgan tovarlar, mehnat va kapitalning transmilliy harakati o‘z tarixiga ega bo‘lib, bu tarixda o‘zining yuksalish va pasayish, taraqqiyot va retsessiyasiga ega bo‘lgan;

- garchi tarix davlatlar rolining muayyan darajada cheklanganligini ko‘rsatsa-da, millatlar va milliy davlatlarga hech qanday tahdid yo‘q.

S.Xantingtonning qayd etishicha, zamonaviy dunyoda sodir bo‘layotgan jarayonlar dunyo madaniy gomogenligidan ko‘ra ko‘proq bo‘linish va mojarolarga sabab bo‘ladi. Aslida uning o‘zi asosiy asarlaridan biri bo‘lgan “Tamaddunlar to‘qnashuvi va jahon tartibini qayta tiklash” asarida birinchi marta vaziyatni shu tarzda baholadi¹³.

S.Xantington fikriga ko‘ra, jahonda sotsialistik tuzum parchalanganidan so‘ng ikki qutbli dunyo o‘rnida paydo bo‘lgan yangi dunyoda odamlar va xalqlar o‘rtasida nafaqat siyosiy yoki mafkuraviy, balki madaniy farqlar yuzaga kelganligi aniq ko‘rinib qoldi.

S.Xantingtonning fikricha, zamonaviy dunyoda “mintaqaviy siyosat etnik munosabatlar darajasida amalga oshiriladi va global siyosat sivilizatsiyalar o‘rtasidagi munosabatlar darajasida amalga oshiriladi. Superkuchlarning raqobati sivilizatsiyalar to‘qnashuviga yo‘l beradi”. Uning fikricha, sivilizatsiyalar to‘qnashuvi jahon miqyosida ikki shaklda – mikro va makro darajadagi o‘zaro aloqador ziddiyatlar sifatida yuzaga kelishi mumkin.

Bunday mojarolarning sabablari sifatida S.Xantington zamonaviy xalqaro siyosatning bir qator muammolariga ishora qiladi:

¹³ S.Hutington. The Clash of Civilizations and the Remaking of the World Order. — N.Y., 1996.

- global siyosatning shakllanishi va BMT, XVJ, Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar faoliyatiga ta'sirning ortishi;

- harbiy sohadagi raqobat;

- xalqaro savdo, xorijiy investitsiyalar va boshqalar bo'yicha kelishmovchiliklarning ortishida o'z aksini topuvchi mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatlariga bo'lgan munosabatlaridagi o'zgarishlar;

- millatlararo nizolar (xususan, bir sivilizatsiyani ifodalovchi davlatlarning turli sivilizatsiyaga mansub mamlakatlarda o'z aholisini himoya qilish uchun urinishlarida namoyon bo'ladi);

- qadriyat va madaniyatlar muammolari (ma'lum bir davlatlar o'z qadriyatlari va madaniyatini boshqa sivilizatsiyaga mansub kishilarga sun'iy ravishda yuklashga harakat qilganda yuzaga keladigan ziddiyatlar);

- dunyoning yetakchi mamlakatlari ishtirokida ayrim hollarda yuzaga keladigan hududiy muammolar.

S.Xantington zamonaviy dunyoning mamlakatlar va ayrim ta'limotlar kesimidagi sakkiz sivilizatsiyasini o'rganib chiqadi: g'arb, konfutsiylik, yapon, musulmon, hind, slavyan-pravoslav, lotin Amerikasi va Afrika sivilizatsiyalari. Shu bilan birga, xalqaro mojarolarning asosiy yo'nalishi, uning fikricha, kelajakda G'arb va boshqa sivilizatsiyalar o'rtasidagi ziddiyatdan iborat bo'ladi.

Umuman olganda, S.Xantington fikrlari aslida madaniy mintaqalashuv jarayoniga qarshi bo'lib, giperglobalizm vakillariga xos global madaniy "diffuziya" va gomogenazatsiya ehtimolini rad etadi.

1990-yillar boshidan buyon giperglobalizm qoidalarini tanqid qiluvchi boshqa bir qator tadqiqotlar chop etilgan. Bular qatoriga P.Xirst, G.Tompson va S.Krasner kabi mualliflarning asarlarini kiritish mumkin.

P.Xirst va G.Tompsonning fikricha, XX asrning 90-yillari oxirigacha erishilgan iqtisodiy hayotning baynalminallashuv darajasi yuqori bo'lishiga qaramay, jahon iqtisodiyoti hali to'la globallashtirilmagan. Ushbu fikrni asoslash uchun yetakchi bo'lgan haqiqiy ko'p millatli korporatsiyalar soni hali nisbatan kam; xalqaro tovarlar va kapital xizmatlar oqimlari bozor iqtisodiyoti rivojlangan yetakchi mamlakatlar guruhida nisbatan ko'proq jamlangan.

P.Xirst va G.Tompsonning fikriga ko'ra, zamonaviy sharoitlarda iqtisodiyotni boshqarishning shakl va usullari o'zgarib bormoqda. Bu

sohada siyosat markazlashib bormoqda, milliy davlatlar esa parallel va raqobatlashuvchi boshqaruv organlarining murakkab tizimi unsurlaridan biriga aylanmoqda. Ularning fikricha, boshqaruv samarali bo'lishi uchun xalqaro va milliy darajadagi boshqaruv organlarini yagona, yaxshi integratsiyalashgan tizimga birlashtirish zarur.

P.Xirst va G.Tompson uchta darajadagi boshqaruv organlari o'zaro munosabatlarining quyidagi shakllarini belgilaydi:

- dunyoning yetakchi mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarni shartnomalar tuzish orqali boshqarish, masalan, valyuta kurslarini barqarorlashtirish yoki qisqa muddatli spekulyativ moliyaviy operatsiyalarni cheklash vazifasini hal etish mumkin;

- dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan iqtisodiy faoliyatning ayrim yo'nalishlari bo'yicha xalqaro tartibga solish organlarini tashkil etish orqali samarali boshqaruv (masalan, GATT / JST tizimi);

- savdo bloklarini yaratishga asoslangan yirik iqtisodiy makonlarni boshqarish (masalan, "umumiy bozor" vazifalaridan uzoqlashtirilgan Yevropa Ittifoqi), bunday guruhlar global iqtisodiy bosimga muvaffaqiyatli qarshilik ko'rsatishi mumkin;

- bu sharoitda milliy davlatlar xususiy va davlat manfaatlari o'rtasidagi raqobatni muvofiqlashtiruvchi siyosat olib boradilar. Natijada "yarim ixtiyoriy" iqtisodiy hamkorlik va muvofiqlashtirish maqsadlaridagi qo'llab-quvvatlash tizimi shakllanadi;

- mintaqaviy miqyosda ularni tashqi zarbalardan himoya qilish va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida sanoat hududlarini qo'llab-quvvatlash vazifalari hal etilishi mumkin.

P.Xirst va G.Tompsonning qarashlaridagi eng muhim jihat sifatida milliy davlatlarni zamonaviy jahon iqtisodiyotining markaziy elementi va predmeti sifatida baholashini ko'rsatib o'tish mumkin.

Ushbu masaladagi P.Xirst va G.Tompsonning yondashuvlari ko'p jihatdan S.Krasner tomonidan ishlab chiqilgan fikrlarga mos keladi. Uning fikricha, globallashtirish jarayoni davlat faolligini oshirish jarayoni bilan parallel ravishda ishlaydi.

Bir tarafdin, giperglobalizm tarafdorlari, ikkinchi tomondan, skeptitsizm tarafdorlari fikrlari bilan taqqoslash mumkin bo'lgan yana bir yetakchi g'oya globalistik yo'nalish asoschilari J.Rozenau, D.Xeld, A.Mak-Gryular boshlab bergan "transformatsion" yo'nalish hisoblanadi. Ushbu yo'nalish tarafdorlari globallashtirishni bir tomonlama va

soddalashtirilgan tushunchalar sifatidagi qarashlarga qarshi bo‘lib, globallashuvni jamiyatning barcha sohalarida yuz beruvchi murakkab va serqirra jarayon sifatida talqin etadilar.

Globallashuvga giperglobalizm, skeptitsizm va transformatsion yondashuvlarni talqin qilish jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayoni naqadar murakkab, noaniq va ziddiyatli ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Uning o‘z mantig‘i va rivojlanish dialektikasi mavjud. Shu bilan birga, milliy davlatlar faoliyatida ham, zamonaviy xalqaro tashkilotlar tizimida, shakl va faoliyatida ham tegishli o‘zgarishlar ro‘y berishi kerak.

XX asrning 50–60-yillarida G‘arbning rivojlangan mamlakatlarida iqtisodiy o‘shish va aholi turmush darajasining tez sur‘atlar bilan o‘shishi kuzatildi. Biroq, farovonlikning o‘shishi bilan bir vaqtda global ekologik, demografik va oziq-ovqat muammolari tobora chuqurlasha boshladi. 60-yillarning oxiri va 70-yillarning boshlarida o‘tkir global muammolarning paydo bo‘lishi insoniyatni bu muammolarni hal etish yoki yumshatish yo‘llarini topishga mo‘ljallangan yangi g‘oya va tushunchalar ishlab chiqishga majbur qilib qo‘yganini kam sonli kishilargina anglab yetdilar. Aynan shu davrda global inqirozdan chiqish yo‘lini qidirish bilan shug‘ullanuvchi jamoat tashkilotlari paydo bo‘la boshlaydi.

Rim klubi ana shunday jamoat tashkilotlarining eng mashhur-laridan hisoblanadi. Doimiy tuzilmaga va budjetga ega bo‘lmagan holda Rim klubining faoliyati zamonaviy jamiyatda keng aks-sado beradi. Rim klubini yaratish g‘oyasi italiyalik sanoatchi, iqtisodchi Aurelio Pechcheiga tegishli. Uning asl g‘oyasi jahon muammolarini muhokama qilish va ularni hal qilish yo‘llarini topish uchun kichik bir doirani yaratishdan iborat edi.

1968 yilning aprelida insoniyatning hozirgi va kelajakdagi murak-kab ahvolini muhokama qilish maqsadida Rimda 30 nafar olim, iqti-sodchi, pedagog va xodimlardan iborat guruh to‘plandi. Bu uchrashuv a‘zolari 100 kishidan ko‘p bo‘lmagan norasmiy, moliyaviy jihatdan mustaqil tashkilot hisoblangan Rim klubining shakllanishini belgilab berdi.

Ushbu yig‘ilishda klub amalga oshirishi kerak bo‘lgan ikkita asosiy vazifa belgilandi: odamlarni “insoniyat qiyinchiliklari”ni iloji boricha aniqroq doirada bilishga yordam berish; mavjud holatni

to'g'rilashga yordam beruvchi barcha bilimlardan foydalanish, mavjud vaziyatga hissa qo'shadigan yangi munosabatlar, siyosat va institutlarni tashkil etishga undash.

Shunday qilib, Rim klubining yaratilishi turli obyektiv va subyektiv sabablarga bog'liq bo'lib, ulardan asosiysi global muammolarning paydo bo'lishi va ularni hal etishda global hamkorlik g'oyalarining zaruriyati edi.

Rim klubi a'zolari tomonidan o'z faoliyati davomida iqtisodiy o'sish va global muvozanat masalalari o'rganilib, tadqiqot natijalari va yangiliklar ma'ruzalar ko'rinishida taqdim etib borilgan (1.4-jadval).

1.4-jadval

Rim klubi tomonidan ishlab chiqilgan tahliliy ma'lumotlar

| Yil | Ma'ruza nomi | Mualliflar |
|------------|---|------------------------------------|
| 1972 | O'sish chegaralari | D.Medouz va boshqalar |
| 1974 | Insoniyat burilish nuqtasida | M.Mesarovich va E.Pestel |
| 1975 | Xalqaro tartibni qayta ko'rib chiqish | Ya.Tinbergen |
| 1976 | Chiqindilar asri chegaralaridan | D.Garbor va boshqalar |
| 1977 | Insoniyat uchun maqsadlar | E.Laslo va boshqalar |
| 1978 | Energiya: teskari hisob | T.Monbrial |
| 1979 | Ta'lim olish uchun chegaralar yo'q | J.Botkin, E.Elmanjra, M.Malitsa |
| 1980 | Uchinchi dunyo: jahonning to'rtidan uch | M.Gerne |
| 1980 | Boylik va farovonlik haqida dialog | O.Jiriani |
| 1980 | Kelajakka eltuvchi yo'nalishlar | B.Gavrilishin |
| 1981 | Shimol va Janub hamkorligi | J.Sen-Jur |
| 1982 | Mikroelektronika va jamiyat | G.Fridrixs, A.Shaff |
| 1984 | Uchinchi dunyo o'zini o'zi boqa oladi | R.Lenuar |
| 1986 | Ummonlar kelajagi | E.Mann-Borgaze |
| 1988 | Yalangoyoqlar inqilobi | B.Shnayder |
| 1988 | O'sishdan tashqarida | E.Pestel |
| 1989 | Ma'naviy qashshoqlik chegaralari | O.Jarini, V.Siel |
| 1989 | Ochlikni yenggan Afrika | A.Lemma, P.Malaska |

| | | |
|------|---|----------------------------------|
| 1991 | Birinchi global inqilob | A.King, B.Shnayder |
| 1994 | Boshqaruv qobiliyati | Ye.Dror |
| 1995 | Janjal va uyat: qashshoqlik va rivojlanmaganlik | B.Shnayder |
| 1995 | Hayotni ta'minlovchi milliy boylikda tabiatni e'tiborga olish | V.Van Diren |
| 1997 | To'rtinchi omil: boylikning ikkilanishi, resurslarni ikki marta tejash | Z.Vayszekker, E.Lovins, L.Lovins |
| 1997 | Ijtimoiy birlik chegaralari: ziddiyatlar va xilma-xillik sharoitida tushunish | P.Berger |
| 1998 | Biz qanday ishlashimiz kerak | O.Jarini, P.Lidtker |
| 1998 | Dengizlarni global resurs sifatida | E.Mann-Borgaze |
| 1999 | Tarmoqda: farazli jamiyat | J.L.Sebrian |
| 2000 | Insoniylik g'alaba qiladi | R.Mon |
| 2001 | Axborot jamiyati va demografik inqilob | S.kapitsa |
| 2002 | San'at o'ylashga majbur qiladi | F.Fester |
| 2003 | Ta'lim va ishning ikkilangan spirali | O.Jarini, M.Malitsa |
| 2004 | O'sish chegaralari – 30 yildan so'ng | D.Medouz va boshqalar |
| 2005 | Xususiylashtirish chegaralari | E.Vayszekker |

Taqdim etib borilgan har bir ma'ruzada jahonni siyosiy, iqtisodiy, madaniy yoki ekologik jihatdan taraqqiy ettirishdagi alohida va global muammolar o'rganilib, yakunda ushbu muammolarni hal etishning muqobil variantlari tavsiya etilgan. Rim klubi tomonidan ishlab chiqilgan traktatlar so'nggi yillarda jahon taraqqiyotidagi muammolarni yechishda yetakchi manbalardan biri bo'lib kelmoqda.

Shunday qilib, Rim klubi taraqqiyot va rivojlanish (shu jumladan, barqaror rivojlanish konsepsiyasi) bo'yicha zamonaviy qarashlarni shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Rim klubi g'oyalarining asosiy kamchiligi zamonning keskin siyosiy vaziyatida ularni amalga oshirish imkoni yo'q edi.

1983-yilda Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha xalqaro komissiya (ARXK) tashkil etildi. Ushbu tadqiqot guruhining faoliyati BMT Bosh Assambleyasi qarori bilan yaratilgani bois tashkil etilgandan buyon jahon hamjamiyati e'tiborini tortib kelmoqda. Komissiya ishining

maqsadi jahon taraqqiyoti tamoyillarini izlashdan iborat bo'lib, ular asosida birgalikdagi xalqaro harakatlar amalga oshirilishi mumkin bo'ladi. 1987-yilda Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha xalqaro komissiyaning "Umumiy kelajagimiz" nomli hisobotida chop etilgan asosiy postulatlar jahon taraqqiyoti Barqaror rivojlanish konsepsiyasi nomli tamoyiliga aylandi. Konsepsiya iqtisodiyot va atrof-muhit o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etish, ilmiy-texnik portlashlarning salbiy oqibatlarini oldini olish uchun mo'ljallangan.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining paydo bo'lishining asosiy sabablari iste'mol falsafasining hukmronligi, resurslarni yo'q qilish texnologiyalarining ustunligi va global iqtisodiy muammolar edi.

Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha xalqaro komissiya jahon iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish maqsadida quyidagi asosiy vazifalarni belgiladi:

1. O'sish jarayonlarini jonlantirish. Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi jon boshiga iqtisodiy o'sishni yiliga 5-6% ga, rivojlangan mamlakatlarda esa 3-4% ga oshirish.

2. O'sish sifatining o'zgarishi, ya'ni foydaning yanada adolatli taqsimlanishiga o'tish hamda kam resurs talab qiladigan sifatli texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. Iqtisodiy o'sish ekotizimlarning ko'payish qobiliyatiga putur yetkazmasligi kerak. Konsepsiya mualliflarining fikricha, iqtisodiyotning miqdoriy o'sishini uning rivojlanish sifati bilan almashtirish zarur.

3. Yer yuzidagi barcha aholining asosiy ehtiyojlarini qondirish. Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha xalqaro komissiya bandlik, oziq-ovqat, energetika, uy-joy, suv, sanitariya, ta'lim va sog'liqni saqlashni asosiy ehtiyojlar sifatida belgilab berdi. Insoniyatning asosiy vazifalaridan biri – bu ehtiyojlarni har kim qondira olishi uchun iqtisodiy tizim yaratishdir.

4. Aholi sonining barqaror, ya'ni ekotizimlarning mahsuldor sig'imiga mos keladigan darajasini ta'minlash.

5. Resurs bazasini saqlash va mustahkamlash.

6. Texnologiyaning qayta yo'naltirish va inqirozlar yuzaga kelishining oldini olish.

7. Qaror qabul qilishda ekologik-iqtisodiy jihatlarni birlashtirish. Barqaror rivojlanish bilan iqtisodiy o'sish ekologik muammolarni keltirib chiqarmasligi kerak. Bu barqaror rivojlanish tushunchasining

asosiy g'oyasi hisoblanadi. Global ekologik va iqtisodiy tizimlar o'rtasidagi munosabatlar zamonaviy dunyodagi eng muhim muammo sifatida ko'rib chiqildi.

Barqaror rivojlanishga erishish dunyoning alohida mamlakatlari va mintaqalarida, ayniqsa, butun dunyoda ijtimoiy va siyosiy keskinlikni to'liq bartaraf etish imkonini bermaydi. Shunday bo'lsa-da, barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirish global vazifa hisoblanadi, ammo har bir mamlakat konsepsiyaning g'oyalarini amalga oshirish uchun o'z faoliyat dasturini ishlab chiqishi lozim.

Shunday qilib, globallashtiruvning rivojlanishida va xususan, barqaror rivojlanish bo'yicha zamonaviy qarashlarning shakllanishida Rim klubi faoliyati katta rol o'ynadi. Rim klubi, shuningdek, boshqa shu kabi tashkilotlarning shakllanishi dunyoda global muammolarning paydo bo'lishi va avj olishi bilan bog'liq bo'ldi. Biroq Rim klubi nafaqat global muammolarni, balki ularning bir-biri bilan aloqalarini tadqiq qilgan birinchi tashkilot edi. Global muammolarning o'zaro bog'liqligi g'oyasi asosida Rim klubining eng mashhur ma'ruzasi – "O'sish chegaralari" hisoboti yaratildi.

Ushbu hisobotning paydo bo'lishi globalistika va global prognozlash rivojlanishida butunlay yangi bir bosqich bo'ldi. Hisobot mualliflari ijtimoiy-iqtisodiy omillarning global muammolarning rivojlanishi va o'zaro aloqasiga ta'sirini hisobga olmaganiga va tadqiqot usulida xatolar ehtimoli borligiga qaramay, hisobot mualliflari asosiy maqsadga erishishga muvaffaq bo'ldilar. Hisobotni nashr etishning eng muhim natijalarini global muammolar haqidagi munozaraning boshlanishi va G'arb mamlakatlaridagi ziyoli insonlar orasida dunyo masalalariga qiziqish kuchayishi deyish mumkin. Bundan tashqari Rim klubi "iste'mol falsafasi"ni jiddiy rivojlantirishga muvaffaq bo'ldi, uning hukmronligi global muammolarning paydo bo'lishi va avj olishining eng muhim sabablaridan biridir.

"O'sish chegaralari" hisoboti chop etilgandan so'ng nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlar uchun ham yerni saqlab qolish va global muammolarni hal qilish yoki hech bo'lmaganda ijobiy tomonga siljitish yo'llarini izlash insoniyat rivojlanishining asosiy kun tartibidan o'rin oldi.

Xulosalar

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning o'tgan 20 yilida jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining o'ziga xos jihatlaridan biri xalqaro iqtisodiy munosabatlarning global ravishda rivojlanib borishidir. Jahon xo'jaligi tizimida alohida davlatlar guruhleri, xalqaro iqtisodiy guruhlar, alohida kompaniyalar va tashkilotlar orasidagi iqtisodiy munosabatlar borgan sari kengayib, chuqurlashib bormoqda. Bu jarayonlar xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va baynalmilallashuvida, ularning bir-biriga bog'liqligi va yaqinlashuvida, mintaqaviy xalqaro tuzilmalar va davlatlar guruhlarining rivojlanishi va mustahkamlanishida namoyon bo'ldi.

Global iqtisodiy munosabatlar tizimiga quyidagilar kiradi:

1. Xalqaro mehnat taqsimoti.
2. Xalqaro tovar va xizmatlar savdosi.
3. Xalqaro kapital va investitsiyalar harakati.
4. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi.
5. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari.
6. Global iqtisodiy integratsiya.

Jahon xo'jaligi XX va XXI asrlar chegarasida to'liq tizimga aylandi. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi rivojlanish jarayonida quyidagi bosqichlardan o'tdi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi – siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy qarorlar qabul qilishda ustun ta'sir ko'rsatish salohiyatiga ega bo'lgan alohida shaxslar xulq-atvoriga (nano daraja), alohida korxonalar (mikro daraja), davlatlar ichidagi mintaqalarning tovar, moliyaviy, valyuta va mehnat bozorlari (mezo daraja), milliy iqtisodiyot (makro daraja) va xalqaro, shu jumladan mintaqaviy mamlakatlararo daraja (mega darajasi)da ta'sir qiluvchi iqtisodiy munosabatlarga ta'sir qiluvchi ko'p darajali hodisadir.

“Globallashuv” tushunchasi 1996 yildan boshlab Davos forumining asoschisi va prezidenti Klaus Shvab rahbarligidagi jahon iqtisodiy forumining 25-sessiyasida “Sayyoradagi asosiy jarayonlarning globallashuvi” mavzusida bo'lib o'tgan muhokamadan so'ng alohida atama sifatida kiritildi.

“Globallashuv” atamasi 1983 yilda T.Levit tomonidan birinchi marta “Harvard Business Review” jurnalidagi maqolasida qo'llanilgan.

1981-yilda amerikalik sotsiolog J.Maklean tomonidan “globallashuv” atamasi konseptual atamalardan biri sifatida ishlatilgan. 1985 yilda R.Robertson globallashuv atamasini o‘z maqolalaridan birining nomi sifatida qo‘lladi va uni batafsil talqin qiladi. R.Robertsonning ta’rifiga ko‘ra, globallashuv alohida mamlakatlarda ijtimoiy haqiqatga xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan turli omillar (masalan, yaqin iqtisodiy va siyosiy aloqalar, madaniy va axborot almashinuvi) ta’sirini oshirish jarayonidir.

“Globallashuv (lotincha “globus” – shar) – nazariya va siyosatdagi dunyoning ajralmas iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va siyosiy yagona tizim sifatida shakllanishi, tashkil topishi, faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishiga yondashuv tamoyilidir”.

Tayanch iboralar

Jahon iqtisodiyoti, globallashuv, baynalmilallashuv, global iqtisodiy munosabatlar, global iqtisodiy integratsiya, globallashuv obyekti, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi, erkin savdo hududlari, ochiq iqtisodiyot, xalqaro mehnat taqsimoti, moliyaviy globallashuv.

Nazorat uchun savollar

1. Globallashuv obyekti sifatida subyekt nima bilan o‘zaro aloqada bo‘lishini, globallashuv muammolarini bartaraf etishda nimalarga qarshi turishini tushuntiring.
2. Globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyotining qaysi sohalarini qamrab olgan?
3. Zamonaviy jahon iqtisodiyotining globallashuvi qanday jarayonlarda namoyon bo‘ladi?
4. Globallashuv jarayoni qanday jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazadi?
5. Iqtisodiy integratsiya qaysi jarayonlarda o‘z ifodasini topgan?
6. Xo‘jalik faoliyatini baynalmilallashtirish bosqichlarini tushuntiring.
7. Globallashuv iqtisodiy o‘zgarishlarning ko‘proq qaysi jarayonlarda o‘z aksini topadi?

8. Kelajakda globallashuv jarayonlari qanday ko‘rinishlarda yuzaga kelishi bashorat qilinmoqda?

9. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi rivojlanish jarayonida nechta bosqichni bosib o‘tgan? Ularni izohlang?

10. Qanday omillar globallashuv jarayonlarining tezlashishiga sabab bo‘ladi?

11. Globallashuv sharoitida o‘tish iqtisodiyotili mamlakatlarning rivojlanish tendensiyalarini tushuntiring.

12. Globallashuv atamasini birinchi marta qachon va kim tomonidan qo‘llanilgan?

13. Hozirgi kunda globallashuv atamasining talqiniga qanday yondashuvlar mavjud?

14. Globallashuv haqidagi ilmiy g‘oyalarning 1950-yildan hozirgi kungacha rivojlanish nazariyalarini tushuntiring.

15. Globallashuvning sohalar va yuzaga kelish jihatlari bo‘yicha shakllarini tushuntiring.

16. S.Xantingtonning zamonaviy dunyoning sakkiz sivilizatsiyasi haqidagi nazariyasini tushuntiring.

17. P.Xirst va G.Tompson boshqaruv organlarining uchta darajadagi o‘zaro munosabatlarining qaysi shakllarini belgilab beradi?

II BOB. GLOBAL IQTISODIYOTNING O‘ZGARUVCHAN KONTURLARI VA DRAYVERLARI

2.1. Iqtisodiyotning globallashuvi nazariyalarining transformatsiyalashuvi va xususiyatlari

Turli qit’alardagi atmosfera haroratining ko‘tarilishi va boshqa anomaliyalar bilan kuzatilayotgan tabiiy ofatlar ob-havo tizimining keskin o‘zgarayotganligini ko‘rsatadi. Bunday o‘zgarishlar chegaralari endi yil fasllariga qarab odatiy tebranishlarni o‘z ichiga olmaydi, uning ichida oldindan bashorat qilinmagan yangi jarayonlar yuzaga kelmoqdaki, bu mavjud tizimning odatdagi tuzilmalari o‘zgarayotganligini va ularni tushuntiruvchi nazariyalar eskirayotganini ko‘rsatadi. Tabiiy o‘zgarishlar bilan birga siyosiy hamda iqtisodiy o‘zgarishlar qonuniyatlarida ham yuqoridagi kabi tizim o‘zgarishlari yuz berayotganligini ko‘rish mumkin.

Shunisi xarakterliki, so‘nggi yillarda iqtisodiy globallashuvning salbiy jihatlarini tanqidiy baholash kuchaydi va bu jarayondagi ziddiyatlarni tahlil qilish g‘arb olimlari, shuningdek, o‘z hukumatlari va nufuzli xalqaro tashkilotlarda muhim lavozimlarni egallagan amaliy siyosatchilar tomonidan ham avj oldi. Ana shunday tanqidchilarning yorqin misoli sifatida 2001-yilda asimmetrik axborotli bozorlar yo‘nalishidagi tadqiqotlari uchun Nobel mukofoti sovrindori bo‘lgan J.Stiglitsni ko‘rsatish mumkin. J.Stiglits iqtisodiy fanlarning yangi tarmog‘i hisoblanuvchi “axborot iqtisodiyoti” fanining asoschisi hisoblanadi. J.Stiglits tomonidan “nomaqbul tanlash” va “axloqiy xatar” konsepsiyalari ishlab chiqilgan. U matematik usullardan foydalanib, bozor agentlarining to‘liqsiz, noaniq va asimmetrik axborotlar va nomukammal raqobat sharoitida umumiy bozor muvozanatiga erisha olmasligini isbotlagan.

J.Stiglits J.Keyns va F.Ruzveltning davlatning iqtisodiyotdagi faol rolini qo‘llab-quvvatlash borasidagi g‘oyalari izdoshi bo‘lib, zamonaviy kapitalizmni yaxshilash va takomillashtirish kerak, deb hisoblaydi.

Iqtisodiy globallashuv jarayoniga haqiqiy baho bergan holda, u o‘zining “Globalizatsiya va uning nomutanosibliklari” nomli monografiyasida shunday deydi: “Men globalizatsiya ya’ni erkin savdo va

milliy iqtisodiyotlarning yaqinroq integratsiyalashuvi yoʻlidagi toʻsiqlarni olib tashlash yoʻlidagi kuch boʻlishi mumkin, deb hisoblayman va u yer yuzidagi barcha odamlarning hayotini yaxshilash mumkin boʻlgan rivojlanish salohiyatiga ega. Globallashuvning salbiy taʼsiri rivojlanayotgan mamlakatlarga mafkuraviy siyosat tufayli yetkazilgan zarardan emas, balki global savdo tizimiga xos adolatsizliklardan xabardorlik hamdir. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning ikkiyuzlamachiligi, adolatsizligi ayon boʻlib qoldi, bu – oʻz bozorlarini yopiq qoldirgan holda, turli yordamlar bahonasida rivojlanayotgan mamlakatlarni oʻz mahsulotlari uchun bozorlarni ochishga majbur qilishda koʻrinadi. Hozirgi vaqtda bu ikkiyuzlamachi siyosatni faqat tor egoistik monopol manfaatlari rivojlangan mamlakatlarning yopiq bozorlariga bogʻliq boʻlgan kishilargina oqlaydilar. Bunday siyosat boylarni boyitib, kambagʻallarni yanada kambagʻallashtirishi va oʻsib borayotgan norozilikni yanada kuchaytirishi koʻpchilikka ayon boʻlib bormoqda”.

Tabiiy oʻzgarishlar jamiyat haqidagi oldingi bilimlarning haqiqatligini shubha ostiga oladigan chuqur ijtimoiy oʻzgarishlar bilan birga keladi. XXI asrda oʻzgarishlarning jadal yuz berishi ijtimoiy taraqqiyot haqidagi avvalgi adolatli deb hisoblangan barqaror gʻoyalarni oʻzgartiruvchi bogʻliq boʻlmagan, tasodifiy jarayon va hodisalarning tartibsiz majmui sifatida namoyon boʻladi. Terrorizm, ekstremizm, milliy va irqiy dushmanlikning keng tarqalishi va ularga hamroh boʻlgan mahalliy qurolli mojarolar hamda ommaviy migratsiya kabi jahon siyosatidagi jarayon va hodisalar ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy-siyosiy oʻzgarishlarning nazoratsiz tabiatini ifodalaydi. Zamonaviy dunyo tartibini tasvirlashda “turbulentlik” atamasining tobora koʻproq qoʻllanilayotganligi jahon siyosatidagi xalqaro jarayonlarning oldindan aytib boʻlmasligini juda aniq aks ettirayotgani tasodifiy emas.

Turbulentlik (lotincha “*turbulentus*” – turbulent, tartibsiz) – suyuqliklar va gazlarga xos hodisa boʻlib, ularning oqimlarida turli kattalikdagi koʻplab qyunlar hosil boʻladi, natijada ularning gidrodinamik va termodinamik xususiyatlari odatdagi koʻrsatkichlardan tashqariga chiqadigan tebranishlarni boshdan kechiradi¹⁴. Bu atama

¹⁴ Большой энциклопедический словарь. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Большая Российская энциклопедия; СПб.: Норинт, 1998. – С. 1233.

jismoniy va ijtimoiy muhitda yuz berayotgan tasodifiy o'zgarishlarni tavsiflash uchun ishlatiladi.

Jahon siyosatida turbulentslik tushunchasini globallashtirishning transformatsion nazariyasi asoschilaridan biri – amerikalik siyosatshunos J.Rozenau taklif etgan bo'lib, u 1990-yilda ko'rib o'tilayotgan holatni keng yorituvchi “Jahon siyosatida turbulentslik: o'zgarishlar va davomiylik nazariyasi” asarini nashr etdi¹⁵. Bu tushunchaga ko'ra, jahon tizimi keskin o'zgarishlar natijasida yuqori tanglikni boshdan kechirmoqda, bu esa jahon siyosatini qo'llab-quvvatlovchi tuzilmalar va jarayonlarni beqaror holga keltirib, ularni qayta tashkil etmoqda. Tizimning odatiy o'zgarishlari anomalialar bilan almashtiriladi, tashkil etilgan tuzilmalar tarqalib ketadi, yangi jarayonlar ishlab chiqiladi, natijalar qisqa umr ko'radi va tizim uzoq beqarorlik davriga kiradi.

Turbulent siyosatning asosiy xususiyati noaniqlik bo'lib, qonuniyatlar yetishmasligi bilan xarakterlanadi. Jahon siyosati oldindan belgilangan qoidalar yoki chegaralarga ega bo'lmagan bosqichga kiradi, chunki dunyoda keskinlik kuchayadi, munosabatlar o'zgaradi va asosiy siyosatchilar tomonidan siyosiy rivojlanishi falajlanadi. Ushbu jarayonda ilgari barqaror bo'lgan va uning o'zgaruvchan tarkibiy qismlarining tebranishini cheklab qo'ygan jahon siyosatining parametrlari yo'q bo'lmoqda.

J.Rozenau joriy siyosiy tizim parametrlarini o'zgartiradigan beshta asosiy sababni ajratib ko'rsatadi:

- texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan industrial jahon tartibidan postindustrial jahon tartibiga o'tish;

- transmilliy xarakterga ega bo'lgan atmosferaning ifloslanishi, terrorizm, narkotrafik, valyuta inqirozlari va OITS kabi hodisalarning paydo bo'lishi;

- davlatlarning tobora yirik xalqaro masalalar bilan uzviy bog'ligi ortishi natijasida o'z vakolati doirasida yirik siyosiy masalalarni samarali hal eta olmasligi;

- barcha tashkiliy darajalarda markazdan qochish tendensiyalarining keng tarqalishi;

¹⁵ Rosenau J.N. Turbulence in World Politics. A Theory of Change and Continuity. – Princeton (N. J.): Princeton University Press, 1990. – 480 p.

- dunyoni idrok qilishning o'zgarishi va dunyo aholisi tahliliy qobiliyatining ortishi.

Nemis siyosatshunosi Xanns Maull turbulentslikni quyidagi uchta keng qamrovli tendensiya ta'siridagi xalqaro munosabatlarning globallasuvi oqibatlari sifatida tavsiflaydi:

- geosiyosatning geoiqtisodiyot ustidan hukmronligi;

- davlatlararo munosabatlardan jamiyat va transmilliy sohaga tobora ko'proq o'tayotgan global xavfsizlik muammosining muta-tsiyalari;

- turli qadriyatlar tizimi va mafkuralar o'rtasidagi ziddiyatlar intensivligining ortib borishi¹⁶.

Uning fikricha, yuqori o'zaro bog'liqlik bilan belgilangan tizim-lardagi global o'zaro ta'sirlar dinamikasi siyosiy nazoratning murak-kabligini ko'rsatadi, bu esa mavjud tizimning qulashiga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, tadqiqotchilar va siyosatchilar ijtimoiy va siyosiy hayotning tartibsiz tabiatini dunyodagi global o'zgarishlar bilan bog'laydilar. Shu asosda jismoniy va ijtimoiy sohalar o'rtasidagi bog'-liqliklar, shuningdek, mavjud dunyo tartibining belgilangan qoidalar doirasida ishlamayotganligi tushuntiriladi J.Rozenau turbulentslik sababini tartibga solishning murakkabligi, global makonni egallash vakolatlariga egalik qilishga harakatlarda ko'radi¹⁷.

XX asr oxirida jahon siyosiy tizimida yagona kuch uchun mavqega ega bo'lgan iyerarxiya vujudga keldi. Biroq, ushbu yagona kuchning jahon miqyosida tartibni saqlash va maqsadlariga erishish imkoniyatlari cheklangan. Masalan, AQSh imkoniyatlari turli soha-larni tobe uchun yetarli harbiy kuchga ega, biroq yuz berayotgan vazi-yatlarning aksariyatini harbiy kuch bilan barqarorlashtirib bo'lmaydi.

Global jarayonlarining murakkablashib borishi sharoitida jahon miqyosida hokimiyatni jamlash masalasi dolzarb bo'lib qoladi. Shu bois muayyan muammolarni hal etishga qaratilgan xalqaro tuzilmalar oldingi o'ringa chiqadi va ularning hamkorligi jahon siyosatida yuzaga

¹⁶ Maull H.W. World Politics in Turbulence // Internationale Politik und Gesellschaft Online. 2011, N.1. – P. 11–25. – http://library.fes.de/pdf-files/ipg/ipg-2011-1/2011-103_a_maull.pdf

¹⁷ Rosenau J.N. Along the Domestic-Foreign Frontier: Exploring Governance in a Turbulent World. – Cambridge: Cambridge University Press, 1997. – P. 144–173

kelayotgan tahdid va qiyinchiliklarni bartaraf etishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Siyosiy turbulენტlikka avval belgilangan tartib va madaniy an'analar qarshilik ko'rsatadi. Mavjud tartibni saqlovchi kuchlar va transformatsiyaga intiluvchi kuchlar o'rtasidagi kurash natijalarini bashorat qilish uchun turbulენტlik tushunchasi ichidagi mavjud tendensiyalarni aniqlash va tahlil qilish kerak. Turbulენტlik tadqiqotlari jahon siyosatini o'zgartirishga hissa qo'shuvchi turli harakatlantiruvchi kuchlarni tahlil qilish bilan bog'liq bo'lib, natijada yangi qoida va tartiblar tan olindi.

Axborot qarama-qarshiliklari elementlarining ta'siri ortib borishi voqelikni idrok etishni o'zgartiruvchi yangi texnologiyalarning paydo bo'lishiga yordam beradi. Masalan, Oksford lug'atini tuzuvchilarning fikriga ko'ra, 2016 yil "haqiqatdan keyingi" ("post-haqiqat") davr deb ataladi. Bu atama XXI asrning boshlarida hozirgi zamonga tegishli har qanday tushuncha, voqeaning o'rinsizligini ifodalash uchun qo'llaniladi¹⁸.

"Post-haqiqat" tushunchasi jamoatchilik fikrini shakllantirishda obyektiv faktlar hissiyotlar va shaxsiy e'tiqodlarga murojaat qilishdan ko'ra kamroq ahamiyatga egaligini bildiradi.

"Post-haqiqat" ko'pincha real narsadan ko'ra ko'proq mashhur bo'luvchi "soxta yangiliklar" ("fake news")ga asoslanadi. Collins English Dictionary mualliflari 2017 yildagi eng mashhur so'z sifatida "soxta yangiliklar" ("fake news") so'zini e'lon qilishgan. Collins "soxta yangiliklar"ni "yangiliklar niqobi ostida tarqalgan yolg'on, shov-shuvli ma'lumotlar" deb ataydi¹⁹. Collins ning ma'lumotlariga ko'ra, 2016-yilda dunyo ommaviy axborot vositalarida "soxta yangiliklar" dan foydalanish 365 % ga oshdi.

"Soxta yangiliklar"ning xavfliligi shundaki, axborot makonidagi shov-shuvli xabarlar sifatida buzilgan, yolg'on, soxta yangiliklar ustunlik qila boshlaydi va ular real muammolarning muhokama markazidan chetlashtiradi.

¹⁸ Keyes R. The Post-Truth Era: Dishonesty and Deception in Contemporary Life. – New York: St. Martin's, 2004.

¹⁹ Fake news is «very real» word of the year for 2017 // The Guardian. 2017. – 2 November. – <https://www.theguardian.com/books/2017/nov/02/fake-news-is-very-real-word-of-the-year-for-2017>

Jahon iqtisodiyoti globallasuvi nazariyalari XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida mantiqiy va sifat jihatidan tobora yangilanib, o'zgarib bormoqdaki, buning natijasida globallasuv sharoitidagi iqtisodiy jarayonlar yangicha talqin va xususiyatlarni kasb etmoqda.

2.2. Jahon iqtisodiyoti globallasuvini harakatlantiruvchi kuchlari

Jahon xo'jaligining globallasuvi milliy iqtisodiyotni baynalmilallashtirish bosqichi bo'lib, unda jahon xo'jaligi butunlay yangi, ilgari mavjud bo'lmagan sifat va xususiyatlarni kasb etadi. Ushbu xususiyatlar sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin (2.1-rasm):

| Jahon xo'jaligining yangi sifat xususiyatlari |
|--|
| Jahon xo'jaligi yaxlitligining ortishi |
| Barcha mamlakatlar milliy iqtisodiyotlari o'zaro bog'liqligining ortishi |
| Yopiq holatda bo'lgan milliy iqtisodiyotlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarga jalb etilishi |
| Turli mamlakatlarda boshqaruv tizimlari va shakllarining bir xilligi va o'xshashligining ortishi |
| Jahon moliyaviy, tovar va ishchi kuchi bozorlarining shakllanishi |

2.1-rasm. Globallasuv natijasida shakllangan jahon xo'jaligining yangi sifat xususiyatlari


- jahon xo'jaligi yaxlitligining keskin ortishi;
- deyarli barcha mamlakatlar milliy iqtisodiyotlarining o'zaro bog'liqligining ortishi;
- ilgari yopiq holatda bo'lgan milliy iqtisodiyotlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarga jalb etilishi;
- turli mamlakatlarda boshqaruv tizimlari va shakllarining bir xilligi va o'xshashligining ortishi;
- jahon moliyaviy, tovar va mehnat bozorlarining shakllanishi.

Globallasuv jarayonlari murakkab va kompleks jarayon bo'lganligi sababli, bugungi jamiyatda iqtisodiyotga ham, hayotning boshqa ko'plab sohalariga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, u nafaqat iqtisodiy, balki boshqa ijtimoiy fanlarda ham tadqiqot predmeti hisoblanadi va uning harakatlantiruvchi kuchlari texnika fanlari tadqiqotida o'z o'rnini topadi.

Yuqoridagi rasmda ko‘rsatib o‘tilgan jahon xo‘jaligining yangi va avval mavjud bo‘lmagan xususiyatlari globallashtirish jarayonining chuqurlashuvi hamda milliy iqtisodiyotlarning barcha sohalarining o‘zaro bog‘liqligi ortishi natijasida yuzaga keladi.

Jahon iqtisodiyotining globallashtirish uni harakatga keltiruvchi qator kuchlar ta’sirida shakllanadi. Globallashtirish jarayonini harakatlantiruvchi kuchlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin (2.2-rasm):

1. Kapitalning konsentratsiyalashuvi va markazlashuvi.
2. Xo‘jalik hayotining transmilliylashuvi, ya’ni yirik transmilliy kompaniyalar va moliya guruhlarining rivojlanishi.
3. Jahon va milliy darajadagi bozor raqobati.
4. Fan texnika taraqqiyoti.
5. Texnologik innovatsiya taraqqiyoti.
6. Iqtisodiy faoliyat (xo‘jalik hayoti)ning erkinlashuvi.
7. Xizmat va kapital bozorini tartibga solishning qisqarishi.
8. Jahon xo‘jaligi erkinlashuvi jarayonining kuchayishi.



2.2-rasm. Globallashtirish jarayonini harakatlantiruvchi kuchlar

XX asrning so‘nggi yillaridan boshlab jahon siyosiy tizimdagi o‘zgarishlar, mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy va siyosiy aloqalarning integratsiyalashuvi bilan globallashuv jarayonlarining jadallashuvi yuz berdi. Ushbu jarayonlarning tarkibiy qismi sifatida jahon miqyosida moliyaviy resurslarning konsentratsiyasi va alohida moliyaviy markazlarda markazlashuv jarayoni, ya’ni kapitalning jahon miqyosida qayta taqsimlanishi yuz berdi. Jahon moliya (valyuta, qimmatli qog‘ozlar, sug‘urta, kredit va boshqa) bozorlarining globallashuv jarayonida alohida mamlakatlar hududidan global miqyosga kengayishi milliy iqtisodiyotlarning globallashuvga bog‘liqlik darajasini oshirdi.

Moliyaviy resurslarning nisbatan faol harakati jahon moliyaviy markazlari orqali yuz bera boshladi. Ushbu markazlar qatoriga Yevropada – London, Frankfurt, Parij, Syurix, Jeneva, Lyuksemburg; Amerikada – Nyu-York va Chikago, Osiyoda – Tokio, Singapur, Syangan, Bahrayn kabi moliyaviy markazlarni kiritish mumkin. So‘nggi yillardagi o‘zgarishlar natijasi sifatida mintaqaviy moliyaviy markazlar qatoriga Keyptaun, San-Paolo, Shanxay va boshqalar qo‘shilgan bo‘lsa, Karib dengizi basseynidagi ayrim ofshor markazlari – Panama, Bermud, Bagam, Kayman va Antil orollari bir qancha vaqtdan buyon jahon moliyaviy markazlari sifatida faoliyat olib bormoqda²⁰.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan jahon moliyaviy markazlari jahon moliyaviy resurslar bozoridagi resurslarning asosiy harakat yo‘nalishlarini belgilab berayotganligi milliy iqtisodiyotlar hamda uning tarkibiy qismlarini o‘z faoliyatini jahon moliyaviy markazlari faoliyatiga moslagan holda faoliyat yuritishga majbur qilmoqda.

Globallashuv jarayonini harakatlantiruvchi kuchlarning yana biri bu – iqtisodiy faoliyatning transmilliylashuvi, ya’ni yirik transmilliy kompaniyalar va moliya guruhlarining rivojlanishidir.

Transmilliy korporatsiyalar zamonaviy jahon iqtisodiyotining eng harakatchan subyektlaridan biri bo‘lib, shakllanish davridan hozirgi kunlarga jiddiy taraqqiy etdi. TMKlar “kolonial-xomashyo” shaklidan global kompaniyalar ko‘rinishigacha rivojlanib keldi. TMKlar taraqqiyoti ularning son va sifat jihatidan o‘sishi bilan XXI


²⁰ Мировая экономика: Учебник для вузов / Под ред. проф. Ю.А.Щербанина. М.: ЮНИТИДАНА, 2004. С. 84-85.

asrning boshlariga kelib son jihatidan 100 mingdan ortiqroqqa yetib keldi²¹.

TMKlar ishtirokidagi qo‘shilishlar va qo‘shib olinishlar shaklida kapitalning xalqaro birlashishi (konsolidatsiyasi) jarayoni bugungi kunda jahon iqtisodiyotining transmilliylashuvi va globallasuv jarayonini harakatlantiruvchi asosiy kuchlaridan biriga aylandi.

Hozirgi vaqtga kelib TMKlarning jahon iqtisodiyotiga ta’siri juda yuqori. Bir millionga yaqin xorijiy filiallarni boshqarayotgan 100 mingdan ortiq TMKlarning qo‘l ostida xususiy ishlab chiqarish fondlari (XICHF)ning 30 %i, xalqaro savdoning 50 %dan ortig‘i mujassamlashgan, ular tomonidan jahon bozorlaridagi deyarli barcha xomashyo savdosi nazorat qilinmoqda. TMKlarning umumiy valyuta zaxirasi jahonning barcha federal banklarining birgalikdagi zaxirasidan bir necha marta ko‘pligidan, ushbu moliyaviy resurslar miqdorining 1-2% ga o‘zgarishi istalgan ikkita mamlakat valyutasi paritetini o‘zgartirib yuborishga qodir.

Globallasuv jarayonini harakatlantiruvchi kuchlardan yana biri jahon va milliy darajadagi bozor raqobatidagi o‘zgarishlar hisoblanadi. Globallasuv sharoitida raqobatning turlarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin (3.3- rasm):



2.3-rasm. Globallasuv sharoitida raqobat turlari²²

²¹ Nazarova G.G'., Salixova N.M. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi. / prof. N.X. Jumaev tahriri ostida (o'quv qo'llanma). –T.: TDIU, 2011 y. 162-163 b.

Jahon iqtisodiyotining globallashtiruvigacha bo'lgan davrda raqobatning dastlabki ikki turi, ya'ni bir mamlakat doirasidagi korxonalar o'rtasidagi hamda turli mamlakatlar korxonalarini o'rtasidagi raqobat shakli mavjud bo'lgan bo'lsa, globallashtiruv sharoitida aytib o'tilgan raqobat turlariga korxonalar va TMKlar o'rtasidagi hamda TMKlar tarkibidagi mintaqaviy bo'linmalar o'rtasidagi raqobat turlari qo'shildi.

Turli mamlakatlar korxonalarini o'rtasidagi raqobat munosabatlariga globallashtiruv quyidagi umumiy iqtisodiy va bozor omillari orqali o'z ta'sirini ko'rsatadi:

- ichki bozorlarda raqobat sharoitlarining og'irlashishi va tashqi bozorlarga chiqish to'siqlarining kamayishi natijasida tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishni istovchi ko'p miqdordagi subyektlarning paydo bo'lishi;

- jahon savdosining rivojlanishi va tashqi savdo ishtirokchilari uchun sharoitlarni tenglashtirish yo'nalishidagi xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishi;

- turli bozorlardagi faoliyatni tez muvofiqlashtirish, o'zgarayotgan bozor sharoitlariga tez moslashish imkonini beruvchi aloqa vositalarining rivojlanishi;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda tashish xarajatlari ulushini pasaytirish imkonini beruvchi transport (konteyner tashish, katta o'lchamli aviatashuvlar) tizimlarining rivojlanishi;

- milliy bozorlarga ikki tomonlama kirish imkoniyatini kengaytiruvchi xorijiy investorlarga nisbatan turli mamlakatlar hukumati ijobiy munosabatining shakllanishi;

- turli mamlakatlar iste'molchilarining mahsulot va xizmatlar iste'moli xususiyatlarining borabarlantirilishi va boshqalar.

Globallashtiruv jarayonini harakatlantiruvchi eng asosiy kuchlardan yana biri fan texnika taraqqiyoti hisoblanadi. Bizning davrimizda ilmiy-texnika taraqqiyoti global ahamiyatga ega bo'lgan omilga aylandi. Ilmiy va texnologik taraqqiyot ko'p jihatdan jahon iqtisodiyotining holatini belgilaydi. Keng miqyosda ilmiy kashfiyotlar va ixtirolar insoniyat hayotini doimiy o'zgartirib, ishlab chiqarish tizimida, ishlab chiqarish mahsuloti va iste'molda moddiylashadi. Har

²² Еремин А.В. Влияние процесса глобализации на формирование и трансформацию конкуренции. Евразийский международный научно-аналитический журнал. Проблемы современной экономики, №3 (11), 2004. –С. 64-66.

qanday mamlakatning ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti, ilmiy-texnikaviy salohiyati mamlakatlar iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Texnologik innovatsiya taraqqiyoti ham globallashtirish jarayonini harakatlantiruvchi kuchlardan biri bo'lib, fan-texnika taraqqiyoti darajasi ko'p jihatdan texnologik innovatsiya taraqqiyotiga bog'liq. Jahon iqtisodiyotida bugungi kunda jahon eksportining 15% dan ortig'ini tashkil etuvchi yuqori texnologiyalar va ilmtalab ishlab chiqarish tarmoqlarining o'rni ortib bormoqda. Yuqori texnologiyalarga asoslangan mahsulotlar bozorida bozorning 80 %ini nazorat qilayotgan AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya mamlakatlarining kompaniyalari yetakchilik qilmoqda. Ushbu kompaniyalar qatoriga so'nggi yillarda Janubiy Koreya, Malayziya, Singapur kabi mamlakatlar kompaniyalari qo'shib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda texnologiyalarga aylanayotgan yangi bilimlarni yaratuvchi yirik korporatsiyalarga ushbu mamlakatlar YaIM o'sishining 70-85% qismi to'g'ri keladi. Yirik korporatsiyalar eski tizimdan farqlanuvchi "yangi iqtisodiyot"ni shakllantirgan bo'lib, uning asosini yangi axborot texnologiyalari tashkil qiladi.

Iqtisodiy faoliyat (xo'jalik hayoti)ning erkinlashuvi ham globallashtirish jarayonini harakatlantiruvchi kuchlardan biri hisoblanadi. Globallashtirish jarayonlarining o'ziga ham, ushbu jarayonlar oqibatlariga ham to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi yana bir harakatlantiruvchi kuch - iqtisodiy hayotni erkinlashtirish, tovarlar, xizmatlar va kapital uchun bozorlarni erkinlashtirishdir. Shu munosabat bilan turli ma'muriy to'siq va cheklovlarni olib tashlash iqtisodiy hayotni baynalmillallashtirishni chuqurlashtirish tendensiyasini mustahkamlaydi.

G'arb mamlakatlari liderlarining neoliberalizm mafkurasiga sodiq-ligi va iqtisodiyotga davlatning aralashuvini cheklashi globallashtirish jarayonlarida ma'lum darajada o'zining izini qoldirdi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, globallashtirish xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi va mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini mustahkamlash jahon mamlakatlarining iqtisodiy hayotini tartibga solish bilan birga, hali ham uning neoliberal ko'rinishida, ya'ni neoliberal model doirasida rivojlanmoqda. Rus tadqiqotchisi V. Kollontayning fikriga ko'ra globallashtirishning neoliberal modeli quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- jahon iqtisodiyotining bir qismi bo'lgan mamlakatlarning iqtisodiy tartibga solish mexanizmlarini monetarist asosda gomogenizatsiyalashni majburlashga e'tibor qaratiladi;
- bozor mexanizmi rivojlanishning asosiy regulyatori sifatida tan olinadi;
- milliy iqtisodiy kompleks, milliy suverenitet va qisman davlat ham tugab boruvchi kategoriya hisoblanadi;
- asosiy sa'y-harakatlar davlatning iqtisodiy rolini zaiflashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulkni davlat tasarrufidan chiqarishga qaratilgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va erkinlashtirishning yuqori darajasi iqtisodiy o'sishga yordam berishi mumkin, chunki ochiqlik institutsional islohotlar, jumladan, pul-kredit, moliyaviy va huquqiy tizim islohotlari bilan yaxshi qo'llab-quvvatlanadi va iqtisodiy jihatdan kuchli strategik hamkorlar bilan barqaror aloqalar o'rnatiladi.


3.2. Jahon iqtisodiyoti globallashtirishning asosiy mexanizmlari

Jahon iqtisodiyoti globallashtirish jarayonlarini harakatga keltiruvchi kuchlarning aniq bir nuqtada uchrashishi natijasida yuzaga keluvchi mexanizmlar faoliyati bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Bu mexanizmlar globallashtirish jarayonlarining asosiy natijalarini aks ettiruvchi jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, ular globallashtirishdagi raqobat, ishlab chiqarish ko'lamining bir mamlakat doirasidan chiqib, ko'p millatli ko'rinish olishi, alohida yo'nalish yoki hududda faoliyat ko'rsatuvchi moliya bozorlarining birikishini ta'minlashi mumkin.

Jahon iqtisodiyotining globallashtirish jarayonini shakllantiruvchi hamda tezlashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratib beruvchi uch asosiy mexanizmning amal qilishi bilan izohlanadi (2.4-rasm).

Jahon savdosida raqobatning kuchayishi natijasida, bir tomondan milliy ishlab chiqaruvchilar va tashqi raqobatchilar o'rtasidagi raqobat, ikkinchi tomondan tashqi raqobatchilar o'rtasidagi raqobat orqali iste'molchilar uchun juda qulay xarid va iste'mol sharoitlari yaratiladi.

Raqobat ko'lamini xalqaro ixtisoslashuv va turli sohalardagi hamkorlik ta'siri ostida xalqaro savdoda ishtirok etuvchi tashqi savdo operatsiyalari ishtirokchilari sonining keng o'sishi bilan bog'liq. Iqtisodiy hayotning baynalmilallashtirish raqobat bazasini kengaytiradi.



2.4-rasm. Jahon iqtisodiyoti globallashtiruvining asosiy mexanizmlari

Yirik monopoliyalar bilan bir qatorda o‘rta, kichik va hatto eng kichik firmalar ham bozor raqobatiga kirishadi. An’anaviy rivojlangan eksportga ega mamlakatlar raqobatiga “yangi industrial mamlakatlar” orasidan yangilari qo‘shilib, jahon bozoridagi vaziyatni o‘z foydasiga o‘zgartirishga qat’iy urinishlar qiladi. Milliy eksportchilarni qo‘llab-quvvatlash va tashqi savdo operatsiyalarini shakllantirishda hukumatlarning faol ishtiroki me’yorga aylandi.

Raqobatning keng tarqalishi uning o‘ziga xos jarayonlari harakatini ham tezlashtiradi: uning shakl va usullarini jadal yangilash, yangi raqobatbardosh mahsulotlar va yangi bozorlarni izlab topish darajasi ortadi. Fan-texnika taraqqiyoti raqobatga maxsus o‘zgarish xususiyati (dinamika)ni beradi. Qayerda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash va foydani maksimallashtirish bo‘yicha raqobat bo‘lsa, fan-texnika taraqqiyoti nafaqat raqobatning samarali vositasi, balki uning eng kuchli katalizatori sifatida maydonga chiqadi.

Fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish mahsulot turini yangilash, bozor talabidagi o‘zgarishlarga tez javob berish, mahsulot sifat xususiyatlariga o‘sib boruvchi talablarni qondirish uchun keng imkoniyatlar ochadi. Bugungi kunda yangilik raqobatbardoshlikning asosiy omillaridan biriga aylangani bejiz emas. Bu, asosan, butunlay yangi ehtiyojlarini yoki shunday yangi bozorlarni tashkil etish yoki allaqachon yuqori sifat darajasiga ega bo‘lgan ma’lum ehtiyojlarni qondirish imkonini beradi.

Jahon sanoati eksporti tahlili ushbu davrda kimning eksporti eng tez sur’atlar bilan ortib borayotganligi, ya’ni fan-texnika taraqqiyoti

ta'siri bilan tez yangilanayotganligi, qaysi tovarlar raqobat ustunligiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mutaxassislarning fikricha, tubdan yangi mahsulot ishlab chiqarishni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan kompaniyalar ishlab chiqarishga joriy etilganidan keyin 5-10 yil ichida foyda o'sish sur'ati an'anaviy mahsulot ishlab chiqarishni davom ettirayotgan raqobatchilarnikidan ikki barobar yuqori bo'ladi. Yangi mahsulotlarning bozordagi muvaffaqiyatiga, an'anaviy narxlardan farqli o'laroq, mahsulotning iste'mol xususiyatlari (sifat, yangilik, ishonchlilik va hokazolar)ga bog'liq holda nisbatan yuqori narxlarni belgilash mumkin. Bu raqobatning narx bilan bog'liq bo'lmagan shakllari ahamiyatini oshirish konsepsiyasini qo'llab-quvvatlashda kuchli dalildir.

Ayni paytda, narx asosidagi raqobat ma'lum darajada cheklangan, lekin uni yetarli darajada hisobga olmaslik xato bo'ladi. Jahon amaliyotida mahsulotlar (yarim o'tkazgichlar, maishiy elektron uskunalarning)ning keng ko'lamliligi va tez arzonlashishiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Odatda, fan-texnika yutuqlaridan foydalanib narxlarni pasaytirish ishlab chiqarish xarajatlarini keskin kamaytirish orqali yuz beradi.

Uzoq vaqt davomida iste'molchilarning afzalliklari o'zgarib turadigan markaz sifatida narxning ahamiyati sifat, yangilik, mahsulotning progressivligi va ishonchliligi, xalqaro standartlarga muvofiqligi, ishlash qulayligi, dizayni, iste'molga tayyorligi, texnik xizmat ko'rsatish samaradorligi kabi ko'rsatkichlar hisobiga pasayib bormoqda. Iste'mol qiymatlarining yangi tizimini tashkil etuvchi bu parametrlar raqobatning yangi epitsentrlarini tashkil etib, u alohida eksport qiluvchi firmalarni ham, eksportyor sifatida harakat qiluvchi butun mamlakatlarni ham qamrab oladi.

Iste'molchi talablari doirasi qanchalik keng va ularning darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, eksport qiluvchilarga va ularning raqobatbardoshligiga nisbatan talablar shunchalik kuchayadi. Zero, raqobatbardosh mahsulot, odatda, faqat raqobatbardosh korxonadan tomonidan ishlab chiqarilishi mumkin va bunday korxonadan o'z mamlakatining raqobatbardoshligi sifatida tavsiflanadigan muayyan shart-sharoitlarga muhtoj.

Raqobatbardoshlik – bu korxonalarning raqobatchilar mahsulotiga nisbatan narx va narx bilan bog'liq bo'lmagan xususiyatlari bo'yicha

iste'molchilarga yanada jozibador bo'lgan mahsulotlarni loyihalashtirish, ishlab chiqarish va sotish bo'yicha real va potensial qobiliyatidir.

Mamlakat raqobatbardoshligini aniqlash uchun 340 ga yaqin ko'rsatkich va ekspertlarning 100 dan ortiq baholaridan foydalaniladi. Tahlil ma'lumotlari quyidagi omillarga asoslangan holda guruhlanadi:

- iqtisodiyotning salohiyati va o'sish sur'atlari;
- sanoat ishlab chiqarish samaradorligi;
- fan va texnika yutuqlarining o'zlashtirilish darajasi;
- ichki bozorning o'zgaruvchanligi va sig'imi;
- moliya tizimining moslashuvchanligi;
- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning ta'siri;
- ishchi kuchining malaka darajasi;
- mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik;
- ijtimoiy-iqtisodiy va ichki siyosiy vaziyat.

Jahon iqtisodiyoti globallashtiruvining yana bir mexanizmi bu – ko'p millatli ishlab chiqarishning shakllanishi hisoblanadi.

So'nggi o'n yilliklarda xilma-xil, ko'pincha bir-biriga zid ta'sir ko'rsatuvchi jahon iqtisodiyotining globallashtiruv jarayoni jamiyat iqtisodiy va siyosiy hayotining asosiy sohalarida bosqichma-bosqich chuqurlashib bormoqda. Tovarlar, xizmatlar, xodimlar va investitsiyalar transchegaraviy almashinuvining keskin o'sishi o'zaro bog'liq ko'plab omillar, shu jumladan, o'z operatsiyalarini kengaytirishda chet el bozorlariga tobora ko'proq yo'naltirilgan firmalarning o'zgaruvchan strategiyasining natijasidir. Masalan, "Fortune Global 500" ro'yxatiga kiruvchi kompaniyalarining 98% dan ortig'i tashqi bozorlarda faoliyat ko'rsatadi.

O'z navbatida, iqtisodiyotning globallashtiruv firmalarning tashkiliy tuzilishi va geografiyasiga, shuningdek, ularning strategiyasi va taktikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Firmalarni nafaqat milliy, balki mintaqaviy va global bozorlarda ham raqobatga kirishishiga hamda ushbu bozorlarda mavjud imkoniyatlardan foydalanishga majbur qiladi. Shunday qilib, ikki tomonlama jarayon rivojlanmoqda va tezlashmoqda, natijada globallashtiruv firmalar faoliyatiga ta'sir qiladi, uning natijalari globallashtiruv jarayonining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

Yirik transmilliy korporatsiyalar (TMK) xalqaro biznes sohasida eng muhim o'yinchilar bo'lishi davom etmoqda, ular faoliyatining

baynalmilallashuvi asta-sekin xalqaro ishlab chiqarish makonini shakllantirmoqda, bu esa mamlakatlar, mintaqalar va tarmoqlarning tobora ko‘payib borishini qamrab olmoqda.

“Ko‘p millatli ishlab chiqarish” atamasining turli talqinlari mavjud. Ushbu ishlab chiqarishni xorijiy nazorat yoki qaror qabul qilish ostida tovarlar va xizmatlar, shuningdek, oraliq va yakuniy mahsulotlar ishlab chiqarish sifatida talqin qilinishi ushbu atamani aniq va lo‘nda izohlaydi²³.

Xalqaro ishlab chiqarish ustidan nazorat subyektlari yirik ko‘p millatli korxonalar hisoblanadi²⁴.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) ko‘p millatli ishlab chiqarish amalga oshiriladigan korxonalarni boshqarish ustidan nazoratni amalga oshirish uchun TMKlarning eng muhim vositasi hisoblanadi. Umumiy qabul qilingan ta‘rifga ko‘ra, TTXI uzoq muddatli munosabatlarni talab qiladigan va boshqa mamlakatda faoliyat ko‘rsatuvchi korxonalar (to‘g‘ridan-to‘g‘ri investor) ustidan uzoq muddatli nazoratni aks ettiruvchi investitsiyadir.

Firmalar mavjud aktivlarni sotib olish yoki yangi investitsiyalar kiritish yo‘li bilan tashqi bozorlarda o‘z o‘rnini mustahkamlashi mumkin. Muayyan turdagi investitsiyalarni tanlash bir qator omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning asosiy qismi investitsiya kiritilayotgan mamlakatning institutsional va madaniy xususiyatlari hisoblanadi. Mahalliy bozordagi bitim xarajatlari darajasi, mamlakatdagi erkinlashtirish va xususiylashtirish siyosati, mintaqaviy integratsiya darajasi, valyuta xatarlari, shuningdek, birlashish uchun kerakli moliyaviy vositachilar roli ham muhim ahamiyatga ega.

Ko‘p millatli ishlab chiqarish jarayoni ishlab chiqarishning milliy doiradan chiqib, xalqaro darajaga o‘tishi bilan xarakterlanadi va ushbu mexanizmning faoliyati yuqorida aytib o‘tilgan ko‘p millatli korxonalar (transmilliy korporatsiya)larning rivojlanishi bilan bog‘liq.

Globallashuv jarayonlarining rivojlanishida xalqaro moliya bozorlarining integratsiyalashuvi mexanizmi ham muhim o‘rin tutadi. Chunki ko‘p millatli ishlab chiqarishning shakllanishi va jahon

²³ UNCTAD, World Investment Report, 2002. Transnational Corporations and Export competitiveness. – New York and Geneva: United Nations, 2006. P. 3.

²⁴ Волгина Н.А. Международная экономика. – М.: Эксмо, 2006. - С. 425-429

savdosida raqobat jarayonlarining kuchayishi ko'p jihatdan moliyaviy resurslarning ko'chishi hamda ularning integratsiyasi bilan bog'liq.

Xalqaro moliya bozorlarining integratsiyasi ko'p millatli ishlab chiqarishning tayanch nuqtasi hisoblangan transmilliy va ko'p millatli korporatsiyalar faoliyatini yo'naltiruvchi ahamiyatga ega bo'lish bilan birga, ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) jarayonlariga yangiliklarni joriy etish uchun zaruriy moliyaviy oqimlarni yo'naltiradi.

Global iqtisodiyotning vujudga kelishini nafaqat tovarlar va xizmatlar eksportining ulkan ko'lamlari, balki kapitalni olib chiqish, qimmatli qog'ozlar, bank depozitlari, qarz talablari va majburiyatlari shaklidagi mulkchilik huquqlari savdosi namoyon etmoqda. Xalqaro fond va valyuta bozorlaridagi aylanmalar savdo aylanmalaridan o'nlab, ba'zan yuzlab marta ortiqdir.

Jahon iqtisodiyoti faoliyatidagi kapital davriy aylanmasi qonuniyati moliyaviy bozor rivojlanishining obyektiv asosidir. Jahonning ba'zi joylarida ortiqcha erkin kapital paydo bo'ladi, ba'zi joylarda unga talab paydo bo'ladi. Jahon valyuta va moliya-kredit bozorlari bu qarama-qarshiliklarni jahon xo'jaligi darajasida hal qiladi. Jahon valyuta, kredit, qimmatli qog'ozlar bozorlari tashkil topishining ko'rinishi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- kapitalning ishlab chiqarish va bank ishlaridagi konsentratsiyasida;
- xo'jalik aloqalarining baynalmilallashuvida;
- banklararo telekommunikatsiyalarning rivojlanishida.

Jahon moliya markazlari bu - banklar, ixtisoslashgan kredit-moliya institutlari yig'iladigan joy. Unda xalqaro valyuta, kredit, moliya operatsiyalari, qimmatli qog'ozlar, oltin oldi-sotdisi amalga oshiriladi. Xalqaro moliya markazlari orasida London, Nyu-York, Frankfurt, Parij, Syurix, Tokiodagi bozorlar ajralib turadi.

Davlatlararo har tomonlama hamkorlikning bir ko'rinishi sifatida xalqaro tashkilotlar va fondlar yuzaga chiqmoqda. Ular siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy- texnikaviy va madaniy sohalarida umumiy tusdagi maqsadlarga erishish uchun davlatlar, milliy institutlar, nodavlat assotsiatsiyalarni birlashtiradi. Xalqaro tashkilotlar o'z faoliyatini har tomonlama muvofiqlashtirish uchun o'z fondlarini tashkil etadilar.

Davlatlararo kelishuvlar asosida ishtirokchi davlatlarning yagona moliya va kredit siyosatlarini amalga oshirish uchun pul mablag'

larining davlatlararo maqsadli fondlari tuziladi. Davlatlararo fondlar (tashkilotlar) daromadlarini shakllantirish usullari va moliyalashtirish tusiga ko'ra bir nechta turlarga bo'linadi.

Moliya-kredit tashkilotlarining davlatlararo va xalqaro fondlari ushbu fondlarning asosiylaridan biri hisoblanadi. Ular nizom kapitalida ishtirok etuvchilarga maqsadli kreditlar ajratadilar va maqsadli fondlarni tashkil etadilar. Bu tashkilotlar faoliyati davomida olgan daromadlaridan ulushiga ko'ra dividend to'laydilar hamda turli maqsadlar uchun zaxira fondlarini shakllantiradilar. Mazkur tashkilotlar jumlasiga Xalqaro investitsiya banki (XIB), Xalqaro iqtisodiy hamkorlik banki (XIHB), Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki (YETTB), Xalqaro Valyuta Fondi (XVF)ni kiritish mumkin.

Xalqaro moliya bozorlarining integratsiyalashuvi mexanizmi globallashtirish jarayonining muhim qismi bo'lib, jahon moliyaviy resurslarining mintaqalar hamda tarmoqlar kesimida taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini ta'minlaydi.

2.3. Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlarining vujudga kelishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar

Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlarining vujudga kelishi va rivojlanishi tahlili ushbu jarayonlar bir qator omillarning ta'siri natijasida yuzaga kelishini ko'rsatadi. Bu omillar sifatida globallashtirishning alohida harakat yo'nalishlari obyektlariga bog'liq ravishda quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin (2.5-rasm):


- mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy bog'liqlikning keskin kuchayishi;
- milliy iqtisodiyotlar iqtisodiy ochiqligining jadal sur'atlar bilan ortishi;
- xalqaro savdo va kapitalning mamlakatlararo harakati asosida jahon iqtisodiyotining milliy iqtisodiyotga ta'sirining intensivlashuvi;
- xalqaro mehnat taqsimoti sifatining shakllanishi;
- jahon moliya bozorining milliy segmentlari o'rtasidagi aloqalarning kuchayishi va global moliya bozorlarining shakllanishi;
- axborot tizimi va telekommunikatsiyaning rivojlanishi;
- transmilliy korporatsiya (TMK)lar faoliyatining global kengayishi;

- rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyotili mamlakatlarning xalqaro savdo, xalqaro kredit, xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlariga jalb etilishi.

- jahon iqtisodiyoti subyektlari tarkibining keskin murakkablashuvi;

- jahon iqtisodiyotida rivojlanib borayotgan yirik (alfa) shaharlar ta’sirining kuchayishi.

Quyida globallashuv jarayonlarining vujudga kelishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarning mohiyati va ta’sir darajasini umumiy holda ko‘rib chiqaylik.



2.5-rasm. Globallashuv jarayonlarining vujudga kelishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar ilk davlatlar bilan bir paytda obyektiv reallik sifatida paydo bo‘lgan keng ko‘lamdagi rang-barang aloqalar va munosabatlarning muhim tarkibiy qismini ifodalaydi. Uzoq

tarixga nazar tashlar ekanmiz, qadimgi sivilizatsiyalar eramizdan avvalgi IV-III ming yilliklardayoq iqtisodiy sohada o‘zaro aloqalar olib borishganiga doir bir talay misollarga duch kelamiz, chunki ular xoh Qadimiy Misr yoki Shumer madaniyati bo‘lsin, xoh Hind vodiysi madaniyati yoki Shan-In davridagi Xitoy bo‘lsin, kelib chiqishining avtonomligi va geografik jihatdan ajralganligiga qaramasdan, bir-birlari bilan xo‘jalik munosabatlarini o‘rnatishga va ularni keyin ham davom ettirishga intilishgan²⁵.

Juda ko‘p manbalar shundan guvohlik beradiki, ahyon-ahyonda tartibsiz tabiatdagi natural tovar ayirboshlash ko‘rinishidagi munosabatlar o‘rniga asta-sekin antik davr (eramizdan avvalgi I ming yillar - eramizning I ming yillarining o‘rtalari)ga xos bo‘lgan tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi asosidagi doimiy xo‘jalik aloqalari vujudga keladi.

O‘rta asrlarning boshlanishi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ilgarilanma harakatida iqtisodiyotning yalpi naturallashuvi, mulkning korporativ-tabaqalangan tuzilmasi va ijtimoiy munosabatlarning sakralizatsiyasiga asoslangan orqaga chekinishni keltirib chiqardi. Biroq shaharlarning o‘sishi va savdo-ssuda kapitalining rivojlanishi Buyuk jug‘rofiy kashfiyotlar ochilgan davrda mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy sohadagi aloqalarning misli ko‘rilmagan darajada kengayishiga va Yevropadagi yetakchi davlatlar: Ispaniya, Portugaliya, Gollandiya, Fransiya va Britaniyaning kolonial imperiyalari tashkil topishiga poydevor yaratdi.

Aynan ana shu omil, shuningdek, ishlab chiqarish, transport va aloqa vositalarida ulkan olg‘a siljishni ifodalagan XIX asrning oxiri - XX asrning boshlaridagi sanoat to‘ntarishi (inqilobi) zamonaviy ko‘rinishdagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi uchun zarur bo‘lgan muhit sifatida global iqtisodiy makrotizimni yuzaga kelish jarayoniga hal qiluvchi ta‘sir ko‘rsatdi. Shunday qilib, insoniyatni XIX-XX asrlar bo‘sag‘asida taraqqiyotning industrial davriga o‘tishi an‘anaviy ko‘rinishdagi hududiy xo‘jalik tizimlari evolyutsiyasidan oldingi davrga yakun yasadi, jahon miqyosida Yevropa (aniqrog‘i, ingliz-amerika) bozor iqtisodiyoti modelining g‘alabasini ifodaladi.

²⁵ Nazarova G.G‘., Salixova N.M. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi. / prof. N.X.Jumaeov tahriri ostida (o‘quv qo‘llanma). – TDIU, 2011 y. 8-11-betlar.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, Yevropa, Shimoliy Amerika va, ma'lum darajada, Yaponiya milliy xo'jaliklarini, ikkinchi tomondan, keng ko'lamdagi mustamlaka periferiyalarni o'z ichiga olgan jahon iqtisodiy kompleksi (majmuasi)ning yuzaga kelishi xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimining shunday ko'rinishi tashkil topishiga olib keldiki, bu ko'rinish shu holatda ma'lum o'zgarishlar bilan hozirgi kunda ham mavjuddir. Albatta, o'tgan o'n yillik davr xalqaro iqtisodiy munosabatlar tabiati va tuzilmasiga ma'lum o'zgarishlar kiritdi.

Mustamlakachilik imperiyalarining tugatilishi va rivojlanayotgan mamlakatlar (180 dan ortiq) deb atalmish guruhlarining vujudga kelishi natijasida iqtisodiy aloqalar uch iqtisodiy markaz, ya'ni AQSh, Yevropa, Yaponiya bilan Osiyo, Afrika hamda Lotin Amerikasidagi yosh davlatlar o'rtasidagi aloqalar ko'rinishini oldi. SSSRning tarqalib ketishi va sobiq sotsialistik mamlakatlarning tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yo'liga o'tishi rejali-buyruqbozlik xo'jaligining samarasiz ekanligi va rivojlanishning bozor modeliga keng ko'lamda o'tish muqarrar ekanligini namoyish qildi.

Va nihoyat, ixtisoslashuv va kooperatsiyaning chuqurlashuvi bilan birga kuzatiluvchi ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi bir qator integratsion guruhlar, shuningdek, universal va ixtisoslashgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar paydo bo'lishini rag'batlantirdi.

Davlatlarning yopiq tipdagi xo'jalik tizimi (avtarkiya)dan qutulishga intilishi haqida gapirganda, yetakchi mamlakatlar o'z siyosatlarida global bozor makrotizimini qurishning asosiy sharti bo'lgan barcha uchun barobar raqobat muhitini saqlash yoki yaratishni ilgari suruvchi «ochiq eshiklar» va «teng imkoniyatlar» tamoyillarini amalda qo'llaganliklarini qayd etib o'tish kerak.

Xalqaro mehnat taqsimotiga kelsak, iqtisodiy turmushning ushbu favqulodda hodisasi xo'jalik taraqqiyotining ilmiy-texnikaviy tarkibiy qismi birinchi darajali ahamiyat kasb etganligi tufayli yangi sifatlarga ega bo'ldi. Natijada, milliy iqtisodiyotlarning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy-jug'rofiy omil ikkinchi darajali bo'lib qoldi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng transmilliy korporatsiyalar (TMK) nomini olgan xalqaro monopolistik guruhlar davlat chegaralarini kesib o'tish orqali sayyoramizning barcha mamlakatlari va hududlari bo'ylab

menejment va marketingning yangi uslublarini tarqatish yoʻnalishida globallasuv jarayonlariga taʼsir etmoqda.

Xoʻjalik sohasida baynalmilal ayirboshlash mexanizmlari sezilarli darajada murakkablashdi - koʻplab yangi huquqiy meʼyor va tartiblar paydo boʻldiki, ular xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olindi hamda iqtisodiy masalalar boʻyicha ikki va koʻp tomonlama bitimlarda mustahkamlandi.

Oxirgi ellik yil davomida bir necha rivojlanish bosqichlarini, yaʼni avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish, biologizatsiya kabilarni boshidan kechirgan ilmiy-texnikaviy inqilob global jahon bozorida tamomila yangi segmentning – axborotlar va texnologiyalar bozorining paydo boʻlishiga olib keldi. Ushbu bozorning rivojlanish yoʻnalishlari bugungi kunda jahonning globallasuv markazlarining belgilanishiga asos boʻlmoqda.

Soʻnggi yillardagi alohida shaharlarning yiriklashuvi va ularda sanoat- moliyaviy guruhlarining faol harakati jahon iqtisodiyotining globallasuviga taʼsir etuvchi omillardan biriga aylanib bordi.

Globallasuv davrida shaharlar oʻzlarining yangi funksiyalarini namoyon etmoqda. Bu jarayonning mohiyati bir qancha yirik jahon markazlari hisoblangan shaharlarda eng muhim iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy funksiyalarning jamlanishida koʻrinadi. Oʻtgan asrning oxirida “global shaharlar” deb ataladigan shaharlar paydo boʻla boshladi. “Global shaharlar konsepsiyasi” mualliflari amerikalik sotsiolog va iqtisodchi S.Sassen-Koob (1991) va A.King (1990) hisoblanadi. Ularning fikriga koʻra, global shaharlar global iqtisodiy, moliyaviy va innovatsiyalarni boshqaruv markazlaridir.

Global shaharlarning eng yirik tadqiqotchilaridan biri, britaniyalik iqtisodchi P.Teylorning fikricha, global shaharlarning shakllanishi va rivojlanishi bu shaharlarning qandaydir oʻziga xos xususiyatlariga emas, balki ular oʻrtasidagi kapital, mehnat, axborot, boshqaruv va boshqa resurslar oqimi harakatiga bogʻliq. Shuning uchun shaharning bu resurs oqimlarini oʻziga jalb qilish qobiliyati muhimdir, aks holda u muqarrar ravishda oʻziga raqobatchi boʻlgan shaharlarga yutqazadi. Jahon shaharlari oʻrtasidagi munosabatlar qatʼiy iyerarxik tuzilishga ega. P.Teylorning fikriga koʻra, dunyo shaharlari uch sinfga boʻlinadi: “ α -alfa”, “ β - beta” va “ γ -gamma” shaharlar. Iyerarxiyaning eng past oʻrnini γ -shaharlar egallaydi – ular sanoat, xom-ashyoni qazib olish va

qayta ishlash bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan shaharlardir. β -shaharlar o‘z nazorati ostidagi γ -shaharlar hosil qilgan resurs oqimlarini qayta taqsimlaydi va α -shaharlar β -shaharlarga xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan. Shu bilan birga, har bir shaharning juda aniq belgilangan mas‘uliyati, o‘z maydoni bor va bu iyerarxik holatda iqtisodiy makonni kengaytirish yoki kamaytirish jarayoni juda sekin boradi.

Global shahar (“alfa shahar” deb ham yuritiladi) – global iqtisodiy tizimning muhim elementi hisoblangan shahardir. “Global shahar” atamasi quyidagi yo‘nalishlar asosida global ta’sirga ega bo‘lgan urbanizatsiyalashgan mintaqani anglatadi:

1. Shahar hududiy boshqaruv sifatini yaxshilash markazi, mamlakat va mintaqa uchun o‘shish nuqtasi hisoblanib, xalqaro sahnada “dunyo darvozasi” vazifasini bajaradi.

2. Shahar mintaqaviy va global iqtisodiy tarmoq tuzilmasining muhim elementi sifatida faoliyat ko‘rsatib, milliy va mintaqaviy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini oshiradi.

3. Shahar nafaqat o‘zi joylashgan mintaqaga, balki sayyoraning boshqa makro mintaqalariga, bu bilan esa sivilizatsiyaga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

4. Zamonaviy dunyoda shaharlar mintaqaviy aloqa markazlari, global, mintaqaviy va hududiy darajadagi nufuzli iste’mol va elitlarning o‘zaro aloqalari markazlari sifatida harakat qiladi.

5. Zamonaviy global shaharlar rivojlangan va yuqori harakatchan ta’lim muhiti tufayli bilimlarni ko‘paytirish va yangi mutaxassislarni tayyorlash markazlaridir.

Global shaharlar – jahon iqtisodiyotiga yuqori darajada integratsiyalashgan markazlardir. Global shaharning asosiy mezonlari sifatida, bizning fikrimizcha, quyidagilarni alohida ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq:

1. Ishbilarmonlik faolligi darajasi – elita qatlam o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning jadalligi, sanoat va mintaqaviy manfaatlarga asoslangan manfaatlar uchun bosim guruhlarini shakllantirish imkoniyatlari.

2. Inson kapitali – dunyoning yetakchi “bilim markazlari” qatoriga kiruvchi ilmiy va o‘quv klasterlari, oliy o‘quv yurtlari soni; chet ellik talabalar, oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan aspirantlar soni; ilmiy-tadqiqot markazlari va jahon darajasidagi ilmiy maktablar soni.

3. Axborot kapitali – yetakchi mahalliy ommaviy axborot vositalarida xalqaro yangiliklar hajmi; axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi, shu jumladan, INTERNET va boshqalar.

4. Madaniy kapital – turistik jozibadorlikning miqdoriy va sifat ko'rsatkichi; muzey va ko'rgazma saytlari hamda boshqa jahon darajasidagi madaniyat muassasalari; xalqaro Olimpiya harakatida ishtirok etish, sport, madaniyat va san'at sohasidagi maxsus tadbirlar o'tkazish.

5. Siyosiy vazn - shaharning xalqaro siyosiy faoliyatda ishtirok etish darajasi va ahamiyati, masalan, xorijiy elchixonalar, konsulliklar, xalqaro tashkilotlar vakolatxonalarini soni; shaharda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlar darajasi; siyosiy va xalqaro tadqiqotlar markazlari soni.

6. Innovatsiya salohiyati – boshqa shaharlar va mintaqalar tomonidan xalqaro darajada o'z samaradorligini isbotlagan kashfiyotlar, texnologiyalar, patentlar ko'rinishidagi shahar tajribasini o'zlash-tirish amaliyotlari soni.

7. Investitsiya kapitali – investitsiyalar hajmi, xorijiy kompaniyalarning vakolatxonalarini soni, chet el kapitali ishtirokida tuzilgan shartnoma va bitimlar soni.

Jahon shaharlari tarmog'ini ajratish uchun umumiy qabul qilingan variant 10 yildan buyon amal qilmoqda. Ushbu ajratish mezonlariga ko'ra jahon shaharlarining 3 ta asosiy yo'nalishi – Yevropa, AQSh va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mavjud bo'lib, ular barcha sinflardagi shaharlar – α -, β - va γ -shaharlarni ifodalaydi. Ayni paytda, geosiyosiy markazda joylashgan va bir-biri bilan raqobatlashuvchi faqat uch alfa shaharlar bor. Bular Nyu-York, London va Tokio shaharlaridir. Nyu-York – Shimoliy va Janubiy Amerika, London – Yevropa, Afrika, Tokio - Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo mintaqalarini nazorat qilsa, β -shaharlar (Moskva, Sanpaul, Seul) Sharqiy Osiyo, Avstraliya va Okeaniyani nazorat qiladi. γ -shaharlar esa alohida kichik mintaqalar va hududlarni nazorat qilmoqda²⁶.

So'nggi ma'lumotlarga qaraganda, bugungi kunda dunyoning 50 dan ortiq shaharlari global shaharlar toifasiga kiradi. α -shaharlar guruhi: London, Parij, Nyu- York, Tokio, Frankfurt-Mayn, Gonkong,

²⁶ Трейвиш А. И. От Персеполиса до Франкфурта / А. И. Трейвиш // Независимая газета. Сценарии, 22.04.2008.

Los-Anjeles, Milan, Singapur shaharlaridan; β -shaharlar: San-Fransisko, Sidney, Toronto, Bryussel, Madrid, Mexiko, San-Paolo, Moskva, Seul shaharlaridan; γ -shaharlar: Amsterdam, Boston, Karakas, Dallas, Dyusseldorf, Jeneva, Xyuston, Jakarta, Yoxannesburg, Melburn, Osaka, Praga, Santyago, Vashington, Bankok, Pekin, Monreal, Rim, Stokgolm, Varshava, Atlanta, Bonn, Berlin, Buenos-Ayres, Budapesht, Kopengagen, Gamburg, Istambul, Kuala Lumpur, Manila, Mayami, Minneapolis, Shanxay kabi shaharlardan iborat²⁷.

Transmilliy shahar tizimi asosiy ishlab chiqaruvchi firmalar va xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar o'rtasida yangi turdagi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi natijasida paydo bo'ldi. Yirik moliya bozorlarining baynalmilallashuvi moliyaviy oqimlarning milliy chegaralarni kesib o'tishiga imkon beradi. Bu hodisa turli qimmatli qog'ozlar va tovar birjalari faoliyati orqali yuzaga keladi. Moliyaviy resurslar chegaralar va qit'alarga e'tibor bermasdan, bozorlarda mamlakatlar va firmalarga ko'chib o'tadi. Milliy hukumatlar endi bu jarayonlarni nazorat qila olmaydi²⁸.

Global shaharlar iste'mol, hayot sifati va identifikatsiyalash uchun belgilovchi ahamiyat kasb etib bormoqda. Ilmiy-madaniy taraqqiyot, fan, biznes va davlatning o'zaro hamkorligi hamda insoniyatning global axborot kun tartibining shakllanishi sodir bo'ladi. Bugungi kunda shaharlar turli ijtimoiy tabaqa vakillari va turli e'tiqodga ega odamlar munosabatga kirishadigan joylarga aylandi va ularning o'zaro muloqot qilishlari uchun aniq qoidalar yo'q²⁹.

Global xo'jalik makrotizimi tuzilmasini tabiiy ravishda murakkablashuvi bozor muhiti funksiyalarining tabaqalanishi bilan birga kuza-tiladi. Bu funksiyalarning asosiylari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- indikativ – bozor agentlari, ya'ni ishlab chiqaruvchilar, vositachilar va iste'molchilarni tovar va xizmatlarga talab va taklif tamoyillari yo'nalishi to'g'risida axborotlardan xabardor qilish;

²⁷ Савкин Д. А. Глобальный город как актер мировой политики : автореф. дис. на соискание науч. ст. канд. полит. наук : спец. 23.00.04 – полит. пробл. межд. отн., глоб. и регион. разв. / Д. А. Савкин. – СПб гос. ун-т. – СПб.: 2010. 32 с

²⁸ Вагин В. В. Городская социология / В. В. Вагин [электронный ресурс]. Режим доступа: <http://vasilievaa.narod.ru>

²⁹ Sassen S. The Global City: New York, London, Tokyo. – Princeton U.P., 2001.

- tartibga solish – jahon narxlari harakatiga ta'sir o'tkazish;
- kommunikativ – harakatdagi bozor agentlari o'rtasida aloqalarni ta'minlash;
- sanatsiyalash – raqobat kurashi jarayonida bozorning «o'z-o'zini davolashi» jarayoni, ya'ni iqtisodiy jihatdan samarasiz kompaniyalarni bartaraf etish va talabga ega bo'lmagan mahsulotlar ishlab chiqarishni to'xtatish.

2.4. Jahon iqtisodiyoti globallashtiruvining belgilari


Xalqaro iqtisodiy munosabatlar jahon iqtisodiyotining barcha tarkibiy qismlari mavjudligining eng muhim shakliga aylanib bormoqda. Hech kim, hatto eng rivojlangan milliy iqtisodiyot va uning tarkibiy qismlari (iqtisodiyotning real sektori) ham endilikda jahon iqtisodiyoti bilan yaqin o'zaro aloqasiz, mutloq o'z-o'zini ta'minlash rejimida rivojlana olmaydi.

Jahon iqtisodiyotining globallashtiruvini harakatlantiruvchi kuchlar va omillarning aniq mexanizmlar orqali harakatga kelishi natijasida jahon iqtisodiyotining globallashtiruv yuzaga keladi. Globallashtiruv jarayonlarining natijalari uning alohida belgilariga asosan baholanishi mumkin.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti globallashtiruvini quyida keltirilgan asosiy belgilar orqali aniqlash va baholash mumkin (3.6-rasm):

- xalqaro mehnat taqsimotidagi sifat o'zgarishlari;
- transmilliy korporatsiyalarning jahon iqtisodiyotida yetakchi rol o'ynashi;
- jahon ho'jaligi munosabatlarining milliy iqtisodiy munosabatlarga nisbatan ustuvorligi;
- global axborot-texnologik taraqqiyotning chuqurlashuvi;
- ilmiy-texnika taraqqiyotining ishlab chiqarish integratsiyalashuviga universal, keng qamrovli ta'siri;
- texnologik, ekologik, statistik, moliyaviy standartlarning uyg'unlashuvi;
- xalqaro ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va intensivlashuvi;
- kapital integratsiyasi shakl va mexanizmlarining global miqyosda kengayishi;

- xalqaro iqtisodiy va moliya tashkilotlarining jahon iqtisodiyotini global tartibga solish rolining vujudga kelishi;
- iqtisodiy mintaqalarning to‘liq hududiy integratsiya bilan qamrab olinishi;
- jahon iqtisodiyoti integratsiya jarayonlarining jadal rivojlanishi;
- xalqaro bozorlar va tovarlarning globallashuvi.



3.6-rasm. Jahon iqtisodiyoti globallashuvini aks ettiruvchi asosiy belgilar

XX asrning oxirgi choragi jahon iqtisodiyoti o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga o‘tishi boshlanganligi bilan tavsiflanadi. Bu yangi bosqich oldingi rivojlanish bosqichlaridan tubdan farq qiladi.

Mutaxassislar uzoq muddatli tamoyillarni belgilash va kelajakdagi iqtisodiy strategiyani aniqlashga intilgan holda tuzilmaning eng xarakterli belgilarini muhokama qilishni davom ettirayotgan bo‘lsalar-da,

hozirgi kundayoq xalqaro iqtisodiy munosabatlarning zamonaviy tuzilmasining quyidagi xususiyatlari o‘z- o‘zidan namoyon bo‘lib turibdi:

a) samarali, yuqori texnologik hamda resurslarni tejoychi ijtimoiy ishlab chiqarish bilan tavsiflanuvchi axborotlar iqtisodiyotini shakllantirish;

b) konveyer, keng xalq ommasi iste’moliga asoslangan industrial tizimni davlat, aralash va ayniqsa, xususiy kompaniyalarning alohida yo‘naltirilgan kreativ (ijodiy) xo‘jalik faoliyatiga o‘zgartirish;

c) milliy iqtisodiyotlarni ochiq lashtirish tamoyillarining hududiy miqyosdagi yopiq iqtisodiy bloklarni shakllantirish tamoyili bilan qo‘shilib ketishi;

d) xalqaro korporatsiyalar ahamiyatining ortib borishi sharoitida davlatning tartibga solish rolining kuchayishi;

e) hal etilishida jahondagi barcha mamlakatlarning jamoaviy harakatlarini talab qiluvchi, sivilizatsiyaning global muammolari deb atalmish ekologik, xom ashyo, demografik kabi muammolarning keskinlashishi.

Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarning eng muhim belgilarini sanab o‘tgan holda, kasbiy faoliyati xo‘jalik sohasi bilan bog‘liq har bir mutaxassis uchun o‘z faoliyatida alohida korxonada doirasidagi jarayonlarga jahon bozorining ta’sir qilish omillarini u bank, zavod yoki savdo kompaniyasi bo‘lishidan qat’iy nazar, bilishi va hisobga olishi kerak.

Shuning uchun xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy ko‘rinishlarining globallashtirishini o‘rganish, ularni modellashtirish usullari ko‘p omillarga asoslangan tahlil va statistikani qo‘llanishiga qarab turli-tuman bo‘lishiga qaramasdan, makro va mikro darajada jahon va milliy xo‘jalik kon’yunkturasidan muvaffaqiyatli xabardorlikning zaruriy shart-sharoiti hisoblanadi.

Globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyotining turli sohalarini qamrab oladi, ya’ni;

- tashqi, xalqaro, jahon miqyosidagi tovarlar, xizmatlar, texnologiyalar, intellektual mulk obyektlari savdosini;

- ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakatini (ishchi kuchi, kapital, axborot);

- xalqaro moliya-kredit va valyuta operatsiyalarini (beg‘araz moliyalashtirish va yordam, iqtisodiy munosabatlar subyektlarining

kredit va qarzlari, qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar, maxsus moliyaviy mexanizmlar va vositalar, valyuta operatsiyalari);

- ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy, texnologik, injiniring va axborotlar sohasidagi hamkorlikni.

Zamonaviy jahon iqtisodiyotining globallashuvi quyidagi jarayonlarda namoyon bo'ladi:

- ishlab chiqarish baynalmilallashuvining chuqurlashuvi. Ishlab chiqarish baynalmilallashuvi iste'mol uchun yaratiladigan mahsulotni tayyorlashda jahonning turli davlatlari ishlab chiqaruvchilari qatnashishini namoyon qiladi;

- kapital baynalmilallashuvining chuqurlashuvi, ya'ni davlatlaro xalqaro kapital harakatining o'sishi, bunda, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ko'rinishida, fond bozorlarining baynalmilallashuvi;

- ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy, texnologik bilimlar vositalarini almashinuvi natijasida, shuningdek, xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv, xalqaro miqyosda ishlab chiqarish resurslarining joylashuvi natijasida ishlab chiqarish kuchlarining globallashuvi;

- xalqaro hamkorlikni amalga oshirishni ta'minlovchi global - miqyosdagi material, axborot, tashkiliy-iqtisodiy infratuzilmaning shakllanishi;

- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi natijasida ayirboshlashni baynalmilallashuvini kuchayishi, bunda xalqaro hamkorlikning ishlab chiqarish sohasiga nisbatan xizmatlar sohasi asosiy yo'nalishlardan biriga aylanadi.

- xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining o'sishi. Bunda rivojlangan davlatlarda kambag'al davlatlardan kelgan ishchi kuchlarini malaka talab qilmaydigan yoki past malaka talab qiladigan ishga jalb etiladi.

- ishlab chiqarish va iste'molning baynalmilallashuvini atrof-muhitga ta'sirining ortishi, bu esa zamonaviy global muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan xalqaro hamkorlikka bo'lgan ehtiyojning ortishini keltirib chiqaradi;

Globalashuv jarayoni quyidagilarga o'z ta'sirini o'tkazadi:

- mintaqaviy integratsion jarayonlarni jadallashtirish;

- hozirgi paytda xo'jalik yuritishni to'liq erkinlashtirmagan davlatlar iqtisodiyotining ochiqligini ta'minlash;

- barcha bozorlardagi ishtirokchilarning to'siqlarsiz qatnashuvini ta'minlash;

- moliyaviy va savdo operatsiyalarning qonun-qoida va chegaralarini universallashtirish;
- bozorlarni tartibga solish va nazorat qilishni bir me'yorga keltirish, ya'ni unifikatsiya qilish;
- kapital joylashtirish, investitsion jarayonlar va umumjahon to'lov-hisob tizimini standartlashtirish.

Makroiqtisodiy darajadagi globallashtirish davlatlar va integratsion uyushmalarning iqtisodiy faollikka intilib, savdo va investitsion to'siqlarni olib tashlash, erkin savdo hududlarini tashkil qilish asosida paydo bo'ladi. Undan tashqari globallashtirish jarayoni davlatlararo xo'jalik yuritish uchun iqtisodiy, huquqiy, axborot va siyosiy miqyosdagi o'zaro kelishuvlarni ham qamrab oladi.

Xulosa

Jahon iqtisodiyotining globallashtirishi uni harakatga keltiruvchi qator kuchlar ta'sirida shakllanadi. Globallashtirish jarayonini harakatlantiruvchi kuchlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. Kapitalning konsentratsiyalashuvi va markazlashuvi.
2. Xo'jalik hayotining transmilliylashuvi, ya'ni yirik transmilliy kompaniyalar va moliya guruhlarining rivojlanishi.
3. Jahon va milliy darajadagi bozor raqobati.
4. Fan - texnika taraqqiyoti.
5. Texnologik innovatsiya taraqqiyoti.
6. Iqtisodiy faoliyat (xo'jalik hayoti)ning erkinlashuvi.
7. Xizmat va kapital bozorini tartibga solishning qisqarishi.
8. Jahon xo'jaligi erkinlashuvi jarayonining kuchayishi.

Globallashtirish jarayonini harakatlantiruvchi kuchlardan yana biri jahon va milliy darajadagi bozor raqobatidagi o'zgarishlar hisoblanadi. Globallashtirish sharoitida raqobatning quyidagi turlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Bir mamlakat doirasidagi korxonalar o'rtasidagi raqobat (tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslari hamda qulay shart-sharoit uchun tad-birkorlik raqobati).
2. Turli mamlakatlar korxonalari o'rtasidagi raqobat.
3. Korxonalar va TMKlar o'rtasidagi raqobat.

4. TMKlar tarkibidagi alohida mintaqaviy bo‘linmalar o‘rtasidagi raqobat.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi jarayonni shakllantiruvchi hamda tezlashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratib beruvchi uch asosiy mexanizmning amal qilishi bilan izohlanadi.

- 1) Jahon savdosida raqobatning kuchayishi
- 2) Ko‘p millatli ishlab chiqarishning shakllanishi
- 3) Xalqaro moliya bozorlarining integratsiyalashuvi

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining vujudga kelishi va rivojlanishi tahlili ushbu jarayonlar bir qator omillarning ta’siri natijasida yuzaga kelishini ko‘rsatadi. Bu omillar sifatida global-lashuvning alohida harakat yo‘nalishlari obyektlariga bog‘liq ravishda quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy bog‘liqlikning keskin kuchayishi;

- milliy iqtisodiyotlar iqtisodiy ochiqligining jadal sur‘atlar bilan ortishi;

- xalqaro savdo va kapitalning mamlakatlararo harakati asosida jahon iqtisodiyotining milliy iqtisodiyotga ta’sirining intensivlashuvi;

- xalqaro mehnat taqsimoti sifatining shakllanishi;

- jahon moliya bozorining milliy segmentlari o‘rtasidagi aloqalarning kuchayishi va global moliya bozorlarining shakllanishi;

- axborot tizimi va telekommunikatsiyaning rivojlanishi;

- transmilliy korporatsiya (TMK)lar faoliyatining global kengayishi;

- rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyotili mamlakatlarning xalqaro savdo, xalqaro kredit, xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlariga jalb etilishi;

- jahon iqtisodiyoti subyektlari tarkibining keskin murakkablashuvi;

- jahon iqtisodiyotida rivojlanib borayotgan yirik (alfa) shaharlar ta’sirining kuchayishi.

Tayanch iboralar

Jahon xo‘jaligi, mehnat bozori, globallashuv jarayonlari, jahon iqtisodiyotining globallashuvi, kapitalning konsentratsiyalashuvi, fan

texnika taraqqiyoti, texnologik innovatsiya taraqqiyoti, iqtisodiy faoliyat, transmilliy korporatsiyalar, investitsiyalar, xalqaro moliya bozorlari.

Nazorat uchun savollar

1. Globallashuv natijasida shakllangan jahon xo‘jaligining yangi sifat xususiyatlarini tushuntiring.
2. Qanday kuchlarni globallashuv jarayonini harakatlantiruvchi kuchlar qatoriga kiritish mumkin?
3. Moliyaviy resurslarning nisbatan faol harakati qaysi jahon moliyaviy markazlari orqali yuz bera boshlagan?
4. Globallashuv sharoitida raqobatning qaysi turlarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin?
5. Turli mamlakatlar korxonalari o‘rtasidagi raqobat munosabatlariga globallashuv qanday umumiy iqtisodiy va bozor omillari orqali o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi?
6. Rus tadqiqotchisi V.Kollontayning fikriga ko‘ra globallashuvning neoliberal modeli qanday asosiy xususiyatlarga ega?
7. Jahon valyuta, kredit, qimmatli qog‘ozlar bozorlari tashkil topishining ko‘rinishi nimalarda namoyon bo‘lishini tushuntiring.
8. Globallashuvning alohida harakat yo‘nalishlari obyektlariga bog‘liq ravishda qaysi omillar ko‘rsatib o‘tiladi?
9. “Global shahar” atamasi qaysi yo‘nalishlar asosida global ta‘sirga ega bo‘lgan urbanizatsiyalashgan mintaqani anglatadi?
10. Global shaharning qanday asosiy mezonlarini alohida ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq?
11. Jahon iqtisodiyoti globallashuvini qanday asosiy belgilari orqali aniqlanadi va baholanadi?
12. Globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyotining qanday sohalarini qamrab oladi?
13. Zamonaviy jahon iqtisodiyotining globallashuvi qaysi jarayonlarda namoyon bo‘ladi?

3- MAVZU. XALQARO SAVDO

3.1. Xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro savdo to'g'risidagi turlicha nazariyalar

Milliy xo'jaliklarning xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida ishtirok etishi, ularning shakllari va samaradorlik darajasi kabi muammolarning uzoq davr mobaynida turli olimlar tomonidan tadqiq etilishi bu boradagi turlicha nazariyalarning shakllanishiga olib keldi. Bu nazariyalar orasida eng avvalo mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvda ishtirok etishi zarurligini nazariy jihatdan asoslab beruvchi mutloq va qiyosiy (nisbiy) ustunlik nazariyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutlaq ustunlik nazariyasi. Iqtisodiy rivojlanishning milliy andozasidan jahon andozasiga o'tish, xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishi, iqtisodiyotning globalashuvi mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirok etishi milliy manfaatlarga qay darajada javob beradi, degan savolni qo'yadi. Bu savolga javob topishga iqtisodiyot fani ilgari qiziqib kelgan. Jumladan, A.Smit xalqaro mehnat taqsimoti masalasini tahlil qilib, qanday tovarlarni eksport qilish va qaysilarini import qilish qulayligi to'g'risidagi o'z qarashlarini bayon qilish asosida «mutloq ustunlik» nazariyasini ilgari surgan. Mazkur nazariyaga ko'ra, A.Smit har bir mamlakatning qandaydir mahsulot turini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvda bozorning asosiy rol o'ynashini ko'rsatib bergan. Shu bilan birga, u mamlakatlar quyidagi ikki ko'rinishdagi ustunlikka: 1) tabiiy, ya'ni iqlim sharoitining qulayligi, ba'zi bir tabiiy resurslarning mavjudligi va shu kabi holatlar bilan shartlangan ustunlik; 2) erishilgan, ya'ni mamlakatdagi ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish texnologiyasi bilan shartlangan ustunlikka egaligini ta'kidlagan. Bu ustunliklardan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulot o'z sifati jihatidan yuqori va tannarxi jihatidan past darajada bo'ladi. Shunga ko'ra, mahsulotlarning barcha turlari har bir mamlakat tomonidan ishlab chiqarilishi shart emas, balki ularning ba'zilarini ustunlikka ega bo'lgan mamlakatdan sotib olish samarali hisoblanadi. Uni sotib olish mehnat sarflari esa mazkur mamlakatning o'zi uchun ustun hisoblangan sohadagi mehnat orqali qoplanadi. A.Smit nazariyasi bo'yicha har bir mamlakat o'zida boshqalarga qaraganda

arzonga tushgan, ya'ni kam mehnat sarflangan tovarni eksport qilib, ularga nisbatan ko'p sarf talab qiladigan tovarlarni import qilish foydalidir.

Qiyosiy ustunlik nazariyasi. D.Rikardo o'zaro foydali savdo va xalqaro ixtisoslashuvning ancha umumiy tamoyillarini shakllantirib, A.Smitning qarashlarini takomillashtirgan holda «qiyosiy ustunlik» nazariyasini ishlab chiqdi. U mazkur nazariya yordamida, hatto barcha mahsulotlarni ishlab chiqarishda ayrim mamlakatning mutloq ustunligi mavjudligida ham o'zaro foydali savdoning nafaqat mumkinligini, balki zarurligini isbotlab berdi. Bu mamlakat nisbatan past samarali mahsulotni ishlab chiqarishdan voz kechib, nisbatan yuqori samarali mahsulotni ishlab chiqarishga o'tish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirishi mumkin. Mazkur nazariyaga ko'ra, mamlakatlar nisbatan past xarajatli mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashuv orqali qo'shimcha ustunlikka ega bo'lishi va mahsulot umumiy hajmini oshirishlari mumkin. Bunda har bir mamlakatning qandaydir tovar ishlab chiqarish bo'yicha mutloq ustunlikka ega bo'lishi, ya'ni uning ishlab chiqarish xarajatlari xorijda yaratilayotgan shunday tovarlarning xarajatlaridan past bo'lishi shart emas. D.Rikardoning fikricha, mamlakat o'zida qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishi va chetga sotishi yetarli hisoblanadi.

Qiyosiy ustunlik nazariyasi quyidagi bir qator shartli farazlarga asoslanadi: 1) unda ikkita mamlakat va ikkita tovar o'zaro taqqoslanadi; 2) ishlab chiqarish xarajatlari ish haqi ko'rinishida olinadi; 3) mamlakatlar o'rtasidagi ish haqi darajasidagi farqlar e'tiborga olinmaydi; 4) transport xarajatlari e'tiborga olinmaydi; 5) erkin savdo mavjud deb faraz qilinadi.

Xalqaro savdoda qiyosiy ustunlik tamoyillarining amal qilishini yaqqol tasavvur qilish uchun quyidagi shartli misolni ko'rib chiqamiz (3.1-jadval).

1-jadval

Turli mamlakatlarda don va vino ishlab chiqarish xarajatlari

| Mamlakat | 50 kg don ishlab chiqarish xarajatlari, kishi-kun | 100 l vino ishlab chiqarish xarajatlari, kishi-kun |
|-----------------|--|---|
| Buyuk Britaniya | 100 | 120 |
| Portugaliya | 90 | 80 |

Jadvaldan ko‘rinadiki, agar mutloq xarajatlar e‘tiborga olinsa, ular har ikkala mahsulot bo‘yicha ham Portugaliyada past bo‘lib, uning Buyuk Britaniya bilan savdo aloqalarini o‘rnatish uchun hech qanday ehtiyoj yo‘q. Biroq, qiyosiy xarajatlar ushbu fikr-mulohazalarni o‘zgartirib yuboradi. Buning uchun har ikkala mahsulot bo‘yicha mamlakatlarning qiyosiy xarajatlarini hisoblab chiqamiz:

1. Don bo‘yicha qiyosiy xarajatlar:

a) Buyuk Britaniyada $\frac{100}{50} : \frac{120}{100} = \frac{5}{3} = 1,6$.

b) Portugaliyada $\frac{90}{50} : \frac{80}{100} = \frac{9}{4} = 2,25$.

2. Vino bo‘yicha qiyosiy xarajatlar:

a) Buyuk Britaniyada $\frac{120}{100} : \frac{100}{50} = \frac{3}{5} = 0,6$.

b) Portugaliyada $\frac{80}{100} : \frac{90}{50} = \frac{4}{9} = 0,4$.

Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, don bo‘yicha qiyosiy xarajatlar koeffisienti Portugaliyaga (2,25) nisbatan Buyuk Britaniyada (1,6) pastligi sababli donni Buyuk Britaniya ishlab chiqarishi va eksport qilishi lozim. Vino bo‘yicha qiyosiy xarajatlar koeffisienti Buyuk Britaniyaga (0,6) nisbatan Portugaliyada (0,4) pastligi sababli, vinoni Portugaliyada ishlab chiqarish va eksport qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday tartibdagi xalqaro savdoda ishtirok etish har ikkala mamlakat uchun ham manfaatli hisoblanadi.

Iqtisodiyot nazariyasida xalqaro ixtisoslashuvning ustunliklarini asoslash Rikardonning klassik sxemasi bilan cheklanmagan. XX asrda xalqaro ixtisoslashuvning qonuniyatlari E.Xeksher, B.Olin, P.Samuelson, J.Keyns, V. Leontev, G.Xaberler va boshqa ko‘plab iqtisodchilar tomonidan tadqiq qilindi. Jumladan, iqtisodiy adabiyotlarda **Xeksher-Olin-Samuelson modeli** deb yuritiluvchi model alohida ahamiyat kasb etadi. Bu model asoschilari E.Xeksher va B.Olin xalqaro tovar oqimlarining yo‘nalish va tarkibiy tuzilishi qay tarzda belgilanishi to‘g‘risidagi zamonaviy tasavvurlarni ishlab chiqdilar. P.Samuelson esa mazkur fikrlarni amaliy jihatdan ifodalovchi matematik shartlarni ochib berdi. Mazkur model asosida **ishlab chiqarish omillari nisbati**

nazariyasi yotadi. Ma'lumki, turli mamlakatlar ishlab chiqarish omillari – ishchi kuchi, yer va kapital bilan turli darajada ta'minlanganlar. Agar mamlakat faqat qandaydir bitta omil bilan yetarli darajada ta'minlangan bo'lsa, bu mamlakatda shunday omil sig'imi katta bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish arzonga tushadi. Bu mamlakat uchun ularni ishlab chiqarish va eksport qilish nisbatan foydali hisoblanadi.

Xalqaro ixtisoslashuvning qonuniyatlarini yanada chuqurroq tushunish qiyosiy xarajatlar tahlili asosida ko'p omilli andoza tuzishga olib keldiki, unda tovarlar harakati bilan birga ishlab chiqarish omillarining davlatlararo erkin harakati imkoniyatlari hisobga olindi. O'tkazilgan tadqiqotlarda nafaqat tarmoqlararo, balki tarmoqlar ichida va mintaqa o'rtasidagi ixtisoslashuvning qonuniyatlari, mamlakatning material, kapital, mehnat va fan sig'imli tovarlarga ixtisoslashuv sabablari ochib berildi. Ixtisoslashuvga fan va texnika taraqqiyoti hamda texnologik o'zgarishlar sur'ati va tavsifi ta'sirining xususiyatlari aniqlandi.

1954-yili amerikalik iqtisodchi V.Leontevning maqolasi e'lon qilinib, unda o'sha davrda kapital ortiqchaligiga ega bo'lgan mamlakat hisoblanuvchi AQSH eksporti va importida mehnat va kapital to'liq sarfining hisob-kitobi asosida Xeksher-Olin nazariyasini tekshirishga urinib ko'rilgan. Bunda AQSH kapital sig'imi yuqori bo'lgan tovarlarni eksport qilib, mehnat sig'imi yuqori bo'lgan tovarlarni esa import qilishi taxmin qilinar edi. Natija teskari bo'lib chiqib, **Leontev paradoksi** degan nom oldi. Ma'lum bo'ldiki, AQSHdagi kapitalning nisbiy ortiqchaligi Amerika tashqi savdosiga ta'sir ko'rsatmaydi. AQSH ko'proq mehnat sig'imi yuqori, kapital sig'imi esa past bo'lgan tovarlarni eksport qilar ekan. V.Leontev Amerikadagi mehnatning yuqori unumdorligi amerikalik ishchilarning nisbatan yuqori malakasi bilan bog'liqligini ta'kidlab, bu erdagi mehnatning xorijdagi mehnat bilan nisbati 1:3 ekvivalentlikda ekanligini ko'rsatdi. Bu esa ishchi kuchi malakasi modelining paydo bo'lishiga olib keldi.

Ishchi kuchi malakasi modeliga ko'ra, ishlab chiqarishda uchta emas, balki to'rta: malakali ishchi kuchi, malakasiz ishchi kuchi, kapital va er ishtirok etadi. Kasbiy mahoratga ega bo'lgan xodimlar va yuqori malakali ishchi kuchining nisbatan ko'pligi malakali mehnatning katta miqdorini taqozo etuvchi tovarlarning eksport qilinishiga olib keladi. Malakasiz ishchi kuchining ko'pligi esa ishlab

chiqarishda yuqori malaka talab etilmaydigan tovarlarning eksportiga imkon yaratadi.

Hozirgi zamon iqtisodiy fani Xeksher-Olin nazariyasining faqat yutuqli jihatlarini emas, balki cheklangan tomonlarini ham ochib beradi. Jumladan, quyidagi jarayonlar bu nazariyaga muvofiq kelmaydi:

- yuqori rivojlangan mamlakatlarning sanoati va savdosidagi tarkibiy siljishlarning yaqinlashuvi;

- daromadlarning bir xilda yuqori darajasiga ega bo'lgan mamlakatlar o'rtasidagi savdoning ahamiyatli va muntazam o'sib boruvchi solishtirma salmog'i;

- jahon savdosida o'xshash sanoat tovarlarini bir-biriga yetkazib berishning yuqori va o'sib boruvchi solishtirma salmog'i.

Sanab o'tilgan holatlar iqtisodiy fan oldiga Xeksher-Olin nazariyasini kengaytirish yoki asosiy qoidalarini yangilash yo'llarini qidirish vazifasini qo'yadi. Bu bir tomondan, nazariyaning kengayishiga, ishlab chiqarish omillarining yangicha talqin etilishiga, ikkinchi tomondan esa, uning to'liq inkor etilishiga hamda XMT samaradorligi muammosiga mutloq yangi yondashuvlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Xalqaro mehnat taqsimoti neoklassik nazariyalari o'rtasida amerikalik iqtisodchi **G.Xaberlarning muqobil xarajatlar modeli** yetakchi o'rin tutadi. U har bir mamlakat uchun barcha resurs va eng yaxshi texnologiyalardan foydalangan holda ikki turdagi tovarni qanday nisbatda ishlab chiqara olishi mumkinligini ko'rsatuvchi ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'idan foydalanishni taklif etadi. Bu qarashlarga ko'ra, har bir mamlakat boshqa mamlakatlarga taqqoslaganda yuqori texnologiyaga ega bo'lgan tarmoqlardagi mahsulotlarni eksport qiladi. Keyinchalik ilg'or texnologiya muqarrar ravishda dunyo bo'ylab tarqalib, texnologiyadagi farqlar yo'qoladi, eksport pasayib, jahon savdosi tarkibiy tuzilishida keyingi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

R.Vernonning tovarning hayotiy sikli nazariyasida mamlakatning jahon savdosidagi muvaffaqiyati ichki bozorga bog'liqligi ta'kidlanadi. Vernon nazariyasiga ko'ra mahsulotlarning ba'zi bir turlari to'rt bosqichdan iborat sikldan o'tadi (joriy etish, o'sish, yetuklik, pasayish), ularni ishlab chiqarish esa xalqaro miqyosda siklning bosqi-

chidan kelib chiqqan holda siljiydi. R.Vernon AQSHning yangi va istiqbolli tovarlarning ahamiyatli miqdorini ishlab chiqarishda yetakchilik qilishi sabablarini ochib berishga harakat qildi. U milliy bozorda xorijiy bozorga nisbatan ertaroq paydo bo'lgan tovarlarga talab AQSHning texnologik ustunligiga olib kelishini ta'kidladi. Amerika firmalari ishlab chiqarishning rivojlanishi bosqichida bu yangiliklarni eksport qiladi, ularga bo'lgan talabning o'sishi bilan esa xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarishni tashkil etadi. Yangi texnologiyaning tarqalishi bilan xorijiy korxonalar ham yangi tovarlarni ishlab chiqarishni o'zlashtirib, ularni AQSHga olib kela boshlaydilar. «Tovar sikli» tushunchasi milliy va tashqi bozorlarning o'zaro bog'liqligini izohlovchi nazariyaning asosiga aylandi. Xalqaro mehnat taqsimoti va jahon savdosi tarkibiy tuzilishining samaradorligi mustaqillik, o'zaro bog'liqlik va bog'liqlik konsepsiyalarini tushuntirishga yordam beradi.

Yuqori iqtisodiy mustaqillik ba'zi bir tovar, xizmat va texnologiyalarning mavjud bo'lmasligini bildiradi, shunga ko'ra hozirda hech bir mamlakat to'liq mustaqillikka intilmaydi. Biroq, ko'plab mamlakatlar xalqaro mehnat taqsimoti tizimiga kirish hamda tashqi savdo tarkibini shakllantirishda talab va taklif ustidan xorijiy nazoratning o'rnatilishi xavfini past darajada bo'lishiga harakat qiladilar.

Xorijdagi o'zgarishlardan himoyalanganlikning o'sishini o'zaro ehtiyoj asosidagi savdo aloqalarini rivojlantirish orqali ta'minlash mumkin. Mamlakatlar (masalan, Fransiya va Germaniya) ning savdo sheriklari sifatidagi o'zaro bog'liqligi holatida ulardan birining Tovarlarni yetkazib berish yoki bozor hajmini qisqartirishi ehtimoldan uzoq, chunki boshqa tomon ham bunga darhol javob qaytaradi. O'ta yuqori darajadagi bog'liqlik mamlakatning boshqa mamlakatlarda ro'y beruvchi o'zgarishlarga bog'liqligini keltirib chiqaradi.

Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi barcha nazariyalarning hayotiy layoqatliligini va ularni doimiy ravishda modifikatsiyalab, yangi qirralarni qo'shib turish zarurligini tasdiqlaydi. Xalqaro aloqalarning jahon amaliyotida esa bu nazariyalardan keng foydalanilmoqda.

3.2. Xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi va xususiyatlari

Hozirgi jahon rivojining xususiyatli belgisi tashqi iqtisodiy aloqalarning, avvalo, tashqi savdoning tez o'sishi hisoblanadi. Tashqi savdo xalqaro hamkorlikning ishlab chiqarish, ilmiy-texnika va boshqa shakllari (kadrlarni tayyorlash, turizm va h.k.) bilan bir qatordagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim shakli hisoblanadi. Barcha mamlakatlar tashqi savdosi majmui xalqaro savdoni tashkil etadi.

Xalqaro savdo – bu turli mamlakat xo'jaliklari o'rtasidagi tovar va xizmatlarni ayirboshlash jarayonida sodir bo'ladigan munosabatlar majmuidir. Xalqaro savdo qadimdan mavjud bo'lsada, faqat XIX asrga kelib, ya'ni deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar xalqaro savdo aloqalarida ishtirok eta boshlashi bilan jahon bozori shakliga kirdi.

Xalqaro savdo tashqi savdo aylanmasi, eksport va import, savdo balansi kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

Eksport – mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni mamlakatdan tashqariga chiqarilib chet ellik mijozlarga sotishdir. Eksportning iqtisodiy samaradorligi, foydaliligi shu bilan aniqlanadiki, mazkur mamlakatda ishlab chiqarish xarajatlari tovarni import qiluvchi mamlakatlar xarajatlaridan past bo'lgan mahsulotlarni chetga chiqaradi. Bunda eksportda olinadigan yutuq hajmi mazkur tovar milliy va jahon narxlarining nisbatiga, mazkur tovarning xalqaro aylanmasida ishtirok etuvchi mamlakatlarning mehnat unumdorligiga bog'liq.

Xalqaro savdoda **tovarlarning eksport tarkibi** fan-texnika revolyusiyasi va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ta'siri ostida o'zgaradi. Hozirgi davrda xalqaro savdoning eksport tarkibida qayta ishlovchi sanoat mahsulotlari yetakchi o'ringa ega bo'lib, uning hissasiga jahon tovar ayirboshlashining 3/4 qismi to'g'ri keladi. Oziq-ovqat, xomashyo va yoqilg'i ulushi faqat 1/4 qismini tashkil qiladi.

Xizmatlar eksporti tovarlar eksportidan farq qiladi. Chet ellik iste'molchilarga xizmat ko'rsatish, chet el valyutalarini olish bilan bog'liq bo'lib, u milliy chegarada amalga oshiriladi (masalan, chet el kompaniyasi vakillariga pochta, telegraf xizmati ko'rsatish, chet el fuqarolariga sayyohlik va boshqa xizmatlar ko'rsatish va h.k.).

Kapital eksport qilish ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Kapital eksporti kredit berish yoki chet el korxonalari aksiyalariga maqsadli sarmoyalar sarflash kabi shakllarda amalga oshirilib, kapital chiqarilgan vaqtda eksport qiluvchi mamlakatdan mablag‘lar oqimini taqozo qiladi va shu orqali tasarrufida bo‘lgan resurslar hajmini qisqartiradi. Boshqa tomondan, kapital eksporti chet davlatlarning mazkur mamlakatdan bo‘lgan qarzlarini ko‘paytiradi. U jahon bozoriga tovarlarning keyingi eksporti uchun qulay sharoit yaratadi va chet el valyutasida foiz yoki dividend shaklida barqaror daromad olish omili hisoblanadi.

Ko‘plab mamlakatlar, cheklangan resurs bazasiga va tor ichki bozorga ega bo‘lib, o‘zlarining ichki iste‘moli uchun zarur bo‘lgan barcha tovarlarni yetarli samaradorlik bilan ishlab chiqarish holatida bo‘lmaydi. Bunday mamlakatlar uchun import kerakli tovarlarni olishning asosiy yo‘li hisoblanadi.

Import eksportdan farq qilib chet ellik ishlab chiqaruvchilardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga keltirishni bildiradi. Bunda mamlakat ichida ishlab chiqarish xarajatlari tashqaridan sotib olingan chog‘dagi xarajatlardan yuqori bo‘lgan tovarlar import qilinadi. Tashqi savdo samaradorligini hisoblashda mazkur mamlakat tomonidan import qilish hisobiga muayyan tovarlarga bo‘lgan o‘z ehtiyojining tezlik bilan qondirilishi hamda bunday tovarlarni mamlakat ichida ishlab chiqarilgan chog‘da sarflanishi lozim bo‘lgan resurslarning tejaliishi natijasida olinuvchi iqtisodiy naf e‘tiborga olinadi.

Quyidagi jadvalda keyingi yillarda mamlakatimizdagi eksport va importning tovar tarkibi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan (3.2-jadval).

“Bizning tashqi savdoga chiqadigan yuklarimizning 80 foizi Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Rossiyaning tranzit yo‘laklari orqali o‘tadi. Shuningdek, tayyor mahsulotlarimiz eksportining 50 foizi, ayrim tovarlar bo‘yicha esa 80 foizi Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston hissasiga to‘g‘ri keladi”³⁰.

³⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi (24.01.2020) // Xalq so‘zi gazetasi, 2020 yil 25 dekabr.

O‘zbekistonda eksport va importning tovar tarkibi, foizda³¹

| Tovarlar guruhi | Eksport va importning umumiy hajmidagi ulushi, foizda | | | | | | | |
|-------------------------|---|------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|
| | 2010 | 2012 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 |
| Eksport | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| Paxta tolasi | 11,3 | 14,6 | 7,7 | 6,1 | 5,1 | 3,4 | 1,6 | 1,6 |
| Oziq-ovqat | 9,7 | 2,6 | 12,4 | 10,8 | 8,5 | 6,3 | 7,8 | 8,5 |
| Kimyo mahsulotlari | 5,1 | 8,3 | 4,7 | 5,1 | 6,7 | 6,4 | 6,5 | 4,9 |
| Energetika mahsulotlari | 24,8 | 13,5 | 23,0 | 22,1 | 13,6 | 13,8 | 19,1 | 14,1 |
| Qora va rangli metallar | 6,8 | 14,5 | 7,2 | 6,8 | 5,7 | 6,6 | 8,4 | 7,3 |
| Mashina va uskunalar | 5,5 | 0,4 | 4,0 | 1,3 | 1,8 | 2,6 | 1,5 | 2,5 |
| Xizmatlar | 9,1 | 23,0 | 22,4 | 25,2 | 25,5 | 25,2 | 21,9 | 19,9 |
| Boshqalar | 27,7 | 22,2 | 18,6 | 22,6 | 33,1 | 35,7 | 33,2 | 41,2 |
| Import | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| Oziq-ovqat | 10,9 | 7,2 | 10,8 | 12,8 | 11,9 | 9,8 | 8,1 | 7,8 |
| Kimyo mahsulotlari | 14,3 | 17,7 | 15,9 | 17,0 | 17,5 | 16,5 | 13,0 | 13,2 |
| Energetika mahsulotlari | 6,0 | 0,3 | 6,2 | 5,8 | 4,9 | 5,7 | 4,5 | 3,8 |
| Qora va rangli metallar | 8,4 | 3,2 | 8,0 | 7,4 | 7,6 | 9,8 | 9,1 | 8,7 |
| Mashina va uskunalar | 44,1 | 58,4 | 39,5 | 40,5 | 41,4 | 38,9 | 43,0 | 43,8 |
| Xizmatlar | 4,7 | 7,0 | 8,0 | 7,7 | 6,5 | 7,5 | 10,9 | 10,0 |
| Boshqalar | 11,6 | 6,2 | 11,6 | 8,88 | 10,2 | 11,8 | 11,2 | 12,7 |

Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalardagi ishtirokini ifodalovchi bir qator ko‘rsatkichlar ham mavjud. Masalan, tarmoq ishlab chiqarishining xalqaro ixtisoslashuvi darajasi ko‘rsatkichlari sifatida **taqqoslama eksport ixtisoslashuvi koeffisienti (TEIK)** hamda **tarmoq ishlab chiqarishidagi eksport bo‘yicha kvotadan foydalanish** mumkin. TEIK quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$K_o = \mathcal{E}_o / \mathcal{E}_m,$$

bu yerda:

E_o – mamlakat eksportida tovar (tarmoq tovarlari yig‘indisi)ning solishtirma salmog‘i;

³¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari; O‘zbekiston Respublikasining Statistika xabarotnomasi, 2017 yil. Toshkent 2018.

E_m – jahon eksportidagi shu turdagi tovarlarning solishtirma salmog‘i.

Agar nisbat birdan katta bo‘lsa, bu tarmoq yoki tovarni xalqaro jihatdan ixtisoslashgan tarmoq yoki tovarlarga kiritish mumkin va aksincha.

Eksport bo‘yicha kvota milliy sanoatning tashqi bozor uchun ochiqlik darajasini ifodalaydi:

$$K_y = \mathcal{E} / \mathcal{YIM},$$

bu yerda: E – eksport qiymati.

Eksport bo‘yicha kvotaning ko‘payishi ham mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokining, ham mahsulot raqobatbardoshligining o‘sib borishidan darak beradi.

Mamlakatdagi aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi eksport hajmi uning iqtisodiyotining «ochiqligi» darajasini ifodalaydi. **Eksport salohiyati** (eksport imkoniyatlari) – mazkur mamlakat tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning o‘z iqtisodiyoti manfaatlariga putur yetkazmagan holda jahon bozorida sotishi mumkin bo‘lgan qismi.

Tovarlar eksporti va importi summasi tashqi savdo aylanmasi yoki tashqi tovar aylanmasini tashkil etadi. Biror bir mamlakat boshqa mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarni o‘z iste‘moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun xarid qilgan taqdirda **reeksport ro‘y beradi**. Reeksport bilan reimport uzviy bog‘liq. **Reimport** iste‘molchi mamlakatdan reeksport tovarni sotib olishni bildiradi.

O‘zbekistonda tashqi savdo aylanmasi va uning tarkibi quyidagi ma‘lumotlar bilan tavsiflanadi (3.3-jadval).

Eng muhimi, eksport hajmining ana shunday o‘sishi biz uchun an’anaviy resurslar bo‘lmish paxta tolasi, qimmatbaho metallar va turli xomashyo yetkazib berish hisobiga emas, balki asosan avtomobillar, neft-kimyoy va metall mahsulotlari, mineral o‘g‘itlar, ip-kalava va gazlama, trikotaj buyumlar, sim-kabel mahsulotlari, qurilish materiallari va boshqa shu kabi ko‘plab eksport tovarlari hajmi va turlarini ko‘paytirish evaziga ta‘minlanmoqda.

O‘zbekistonda tashqi savdo aylanmasi va uning tarkibi, foizda³²

| 1. Ko‘rsatkichlar | Yillar | | | | | | | | |
|-------------------------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|
| | 2010 | 2011 | 2012 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 |
| Tashqi savdo aylanmasi | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| Eksport | 59,7 | 55,3 | 47,0 | 49,2 | 49,4 | 50,9 | 47,4 | 41,9 | 42,4 |
| Import | 40,3 | 44,7 | 53,0 | 50,8 | 50,6 | 49,1 | 52,6 | 58,1 | 57,6 |
| Eksport – jami | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| shu jumladan: | | | | | | | | | |
| Tovarlar | 90,9 | 86,3 | 77,0 | 77,6 | 74,8 | 74,5 | 74,8 | 78,1 | 88,1 |
| Xizmatlar | 9,1 | 13,7 | 23,0 | 22,4 | 25,2 | 25,5 | 19,7 | 21,9 | 19,9 |
| Import – jami | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| shu jumladan: | | | | | | | | | |
| Tovarlar | 88,4 | 93,8 | 93,8 | 92,0 | 92,3 | 93,5 | 92,5 | 89,1 | 90,0 |
| Xizmatlar | 11,6 | 6,2 | 6,2 | 8,0 | 7,7 | 6,5 | 14,1 | 10,9 | 10,0 |

«Bu yil eksportyorlarga kafillik beradigan va xarajatlarning bir qismini qoplaydigan – Eksportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hamda eksportni oldindan moliyalashtirish uchun – Eksport-kredit agentligi tashkil etiladi. Shuningdek, eksport qilishda zamonaviy sug‘urta xizmatlari yo‘lga qo‘yiladi, avtomobil va havo transporti xarajatlarini qisman davlat tomonidan qoplab berish mexanizmi joriy qilinadi.»³³.

Eksport va importning harakatida ham multiplikatsiya samarasi mavjud bo‘lib, bu omilni hisobga olish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada taniqli iqtisodchi olimlardan J.Keyns, R.Kan, F.Maxlup, P.Samuelson va boshqalar tashqi savdo multiplikatori to‘g‘risidagi nazariy asoslarni yaratishda katta hissa qo‘shdilar.

Eksport multiplikatori ham investitsiyalar multiplikatori singari iste‘mol sohasidagi ichki jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, iste‘mol yoki jamg‘armaga so‘nggi qo‘shilgan moyillik ko‘rsatkichlari orqali aniqlanadi:

³² Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzildi.

³³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi (24.01.2020) // Xalq so‘zi gazetasi, 2020 yil 25 dekabr.

$$M_x = \frac{1}{MRS} = \frac{1}{1 - MRC},$$

bu yerda:

M_x – eksport multiplikatori koeffitsienti;

MRS – jamg‘armaga so‘nggi qo‘shilgan moyillik;

MRC – iste‘molga so‘nggi qo‘shilgan moyillik.

Eksport hajmi oshishining yalpi milliy ishlab chiqarish hajmiga ta‘sirini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$\Delta YIM = M_p \Delta X,$$

bu yerda:

M_r – multiplikator;

ΔX – eksport hajmining o‘sishi.

Biroq, xalqaro savdo faqat eksportdan iborat bo‘lmay, balki o‘z ichiga importni ham oladi. Agar eksportdan olingan daromadning bir qismi importga sarflansa, u holda mamlakatning ichki xarid qobiliyati pasayadi. Import jamg‘arma singari boy berilgan imkoniyat sifatida amal qiladi, shuning uchun u matematik ifodalarda manfiy ishora bilan qo‘llaniladi. Importni jamg‘arish funksiyasiga o‘xshagan holda tahlil qilish mumkin. Buning uchun importga so‘nggi qo‘shilgan moyillik tushunchasini kiritib olamiz. Bu moyillik import hajmi o‘zgarishining daromad o‘zgarishiga nisbati orqali ifodalanishi mumkin. Natijada **import multiplikatori** formulasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$M_p = \frac{1}{(MRS + MRM) \Delta X},$$

bu yerda:

MRM – importga so‘nggi qo‘shilgan moyillik.

Importni hisobga olgan holda eksport hajmi o‘zgarishining yalpi milliy ishlab chiqarish hajmiga ta‘sirini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\Delta YIM = \frac{1}{(MRS + MRM) \Delta X} \cdot$$

Tashqi savdo multiplikatori cheksiz harakatda bo'lmaydi. Import tovarlarni iste'mol qilishga so'nggi qo'shilgan moyillikning qiymati birdan kam bo'lganligi sababli navbatdagi qo'shimcha o'sishlar miqdori muntazam qisqarib, multiplikatsiya jarayoni sekin-asta so'nib boradi.

Xalqaro savdo bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Iqtisodiy resurslarning harakatchanligi mamlakatlar o'rtasida mamlakat ichidagiga qaraganda ancha past bo'ladi. Masalan, ishchilar mamlakat ichida viloyatdan viloyatga, hududdan hududga erkin o'tishi mumkin. Mamlakatlar o'rtasidagi til va madaniy to'siqlardan tashqari yana immigratsion qonunlar ishchi kuchining mamlakatlar o'rtasidagi migratsiyasiga qattiq cheklashlar qo'yadi. Soliq qonunchiligidagi, davlat tomonidan tartibga solishning boshqa tadbirlaridagi farqlar va boshqa qator muassasaviy to'siqlar real kapitalning milliy chegara orqali migratsiyasini cheklaydi.

2. Har bir mamlakat har xil valyutadan foydalanadi. Bu mamlakatlar o'rtasida xalqaro savdoni amalga oshirishda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi.

3. Xalqaro savdo siyosiy aralashuv va nazoratga mahkum bo'lib, bu ichki savdoga nisbatan qo'llaniladigan tadbirlardan tavsifi va darajasi bo'yicha sezilarli farqlanadi.

Xalqaro savdoning tarkibiy tuzilishi ishlab chiqarish asosiy omillarining turli mamlakatlar o'rtasida joylashuvi hamda jahon ishlab chiqarishi tuzilmasiga bog'liq. Agar bundan bir asr muqaddam xalqaro savdoda ustun ravishda xomashyo, materiallar, oziq-ovqat va yengil sanoat mahsulotlari ayirboshlangan bo'lsa, bugungi kunga kelib sanoat tovarlari, ayniqsa mashina va asbob-uskunalarining salmog'i sezilarli darajada o'sdi. Intellektual tovarlar va xizmatlarning ulushi ham keskin ravishda oshib, umumiy savdo aylanmasining 10 foiziga qadar etdi. Shuningdek, xalqaro savdoni tashkil etish shakllari ham takomillashib bormoqda. An'anaviy ko'rinishdagi tovar birjalari, auksionlar, savdo-sanoat yarmarkalari, savdo ko'rgazmalari bilan bir qatorda ikki tomonlama bitimlarning quyidagi shakllari ham keng qo'llanmoqda:

1) barter – tovarlarni to'g'ridan-to'g'ri, pul ishtirokisiz bir-biriga ayirboshlash. Barterda pul ishtirok etmasada, tovarlarning qiymatini bir-biriga taqqoslash uchun pulning qiymat o'lchovi vazifasi orqali baholab olinadi;

2) eksport qiluvchilar tomonidan yetkazib berilgan tovarlar qiymatining bir qismiga import tovarlarni xarid qilish;

3) texnikaning yangi modellarini sotishda eskirgan modellarni sotib olish;

4) import qilingan asbob-uskunalar qism va detallarini importga sotuvchi mamlakat tomonidan butlab berish;

5) kompensatsion bitimlar. Mazkur bitimlar shartiga ko'ra, texnologik asbob-uskunalar yetkazib beruvchi tomonlarning biri taqdim etgan kredit (moliyaviy, tovar ko'rinishidagi) bo'yicha to'lovlar ana shu asbob-uskunalarda tayyorlangan tayyor mahsulotlarni yetkazib berish orqali amalga oshiriladi;

6) bir mamlakatda undirilgan xomashyoni boshqa bir mamlakat ishlab chiqarish quvvatlari yordamida qayta ishlashda ushbu qayta ishlash va tashib berish xizmatlarini qo'shimcha xomashyo yetkazib berish orqali to'lash;

7) kliring operatsiyalari, ya'ni o'zaro talab va majburiyatlarni hisobga olish orqali naqd pulsiz hisoblashuv.

Xalqaro savdoda ishtirok etish har bir mamlakat uchun milliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi raqobatdan himoya qilish vazifasini dolzarb qilib qo'yadi. Bu vazifa mamlakatlarning savdo siyosati orqali amalga oshadi. Jahon amaliyotida bu siyosatning **proteksionizm (tashqi ta'sirdan himoyalash)** va **fritrederlik (savdogaga to'liq erkinlik berish)** kabi shakllari keng tarqalgan.

Proteksionizmning klassik va zamonaviy ko'rinishlari farqlanadi. **Klassik yoki qattiq proteksionizm** siyosatining nazariy asosini merkantilizm tashkil etib, uning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- tovarlar importini cheklash;
- eksportni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;
- chetdan keluvchi tovarlarga yuqori boj to'lovlari o'rnatish orqali milliy ishlab chiqarishni himoyalash;
- tovarlarning ma'lum turlari bilan savdo qilishga davlat monopoliyasining o'rnatilishi va h.k.

Zamonaviy proteksionizmning ham asosiy maqsadi ichki bozorda milliy ishlab chiqaruvchilar uchun nisbatan qulay sharoitlar yaratish hamda ularni xorijiy ishlab chiqaruvchilar raqobatidan himoyalash hisoblanadi, biroq uning usul va vositalari o'zining moslashuvchanligi bilan klassik proteksionizmdan farq qiladi.

Qiyosiy xarajatlar nazariyasiga ko‘ra erkin savdo tufayli, jahon xo‘jaligi resurslarni samarali joylashtirishga va moddiy farovonlikning yuqori darajasiga erishishi mumkin. Proteksionizm, ya’ni erkin savdo yo‘lidagi to‘siqlar xalqaro ixtisoslashuvdan olinadigan nafni kamaytiradi yoki yo‘qqa chiqaradi.

Erkin savdo yo‘lida juda ko‘p to‘siqlar mavjud bo‘ladi. Ularning asosiylari quyidagilar:

1) boj to‘lovlari. Boj to‘lovlari import tovarlarga aksiz soliqlari hisoblanadi, u daromad olish maqsadida yoki himoya uchun kiritilishi mumkin;

2) import kvotalari. Import kvotalari yordamida ma’lum bir vaqt oralig‘ida import qilinishi mumkin bo‘lgan tovarlarning maksimal hajmi o‘rnatiladi;

3) tarifsiz to‘siqlar. Tarifsiz to‘siqlar tarkibiga litsenziyalash tizimi, mahsulot sifatiga standartlar qo‘yish yoki oddiy ma’muriy taqiqlashlar kiradi;

4) eksportni ixtiyoriy cheklash. Eksportni ixtiyoriy cheklash savdo to‘siqlarining nisbatan yangi shakli hisoblanadi. Bu holda chet el firmalari o‘zlarining ma’lum mamlakatga eksportini ixtiyoriy ravishda cheklaydi.

Mamlakatlar xalqaro savdo yordamida o‘zlarining davlatlararo ixtisoslashuvini rivojlantirishi, o‘zlarining resurslari unumdorligini oshirishi va shu orqali ishlab chiqarishning umumiy hajmini ko‘paytirishi mumkin. Alohida davlatlar, eng yuqori nisbiy samaradorlik bilan ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan tovarlarga ixtisoslashishi va ularning o‘zlari samarali ishlab chiqarish holatida bo‘lmagan tovarlarga ayirboshlash hisobiga yutish mumkin.

Shu o‘rinda mamlakatlar nima uchun savdo-sotiq qiladi, degan savol tug‘iladi. Birinchidan, iqtisodiy resurslar dunyo mamlakatlari o‘rtasida juda notekis taqsimlanadi: mamlakatlar o‘zlarining iqtisodiy resurslar bilan ta’minlanishi keskin farqlanadi. Ikkinchidan, har xil tovarlarni samarali ishlab chiqarish har xil texnologiya yoki resurslar uyg‘unlashuvini talab qiladi. Bu ikki holatning xalqaro savdoga ta’sirini oson tushuntirish mumkin. Masalan, Yaponiya ko‘p va yaxshi tayyorlangan ishchi kuchiga ega, malakali mehnat ortiqcha bo‘lganligi sababli arzon turadi. Shu sababli, YAponiya tayyorlash uchun ko‘p miqdorda malakali mehnat talab qilinadigan turli-tuman mehnat

sigʻimli Tovarlarini samarali ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Avstraliya esa aksincha, juda keng maydonlariga ega boʻlgan holda yetarli boʻlmagan miqdorda inson resurslari va kapitalga ega.

Qisqacha aytganda, himoya qilinadigan tarmoqlar savdo toʻsiqlarini kiritishdan oladigan foyda butun iqtisodiyot uchun ancha katta yoʻqotish hisoblanadi.

Erkin savdo (fritrederlik) siyosati proteksionizm siyosatining aksi boʻlib, tashqi savdoni erkinlashtirishga qaratilgan. Bu siyosat xalqaro savdo hajmlarini oʻsishiga olib keluvchi turli tarif va kvotalarni qisqartirish, milliy iqtisodiyotning ochiqligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xalqaro savdoni tartibga solish xalqaro va milliy darajalarda amalga oshadi.

Milliy darajadagi tartibga solish eksport va importni tartiblash orqali namoyon boʻladi. Eksportni tartiblash tashkiliy va kredit-moliyaviy usullar yordamida uni ragʻbatlantirishga yoʻnaltirilgan. **Eksportni ragʻbatlantirishning tashkiliy usullariga** quyidagilarni kiritish mumkin:

- eksport qiluvchilarga axborot va maslahat berish xizmatlarini koʻrsatish uchun maxsus boʻlinmalarni tashkil etish;
- savdo bitimlarini tuzishda davlat idoralarining ishtirok etishi;
- tashqi savdo uchun malakali kadrlarni tayyorlashga koʻmaklashuv;
- xorijiy mamlakatlarda koʻrgazmalar tashkil etishda yordam koʻrsatish;
- milliy kompaniyalarni diplomatik jihatdan qoʻllab-quvvatlash va h.k.

Eksportni ragʻbatlantirishning kredit-moliyaviy usullari quyidagilardan iborat:

- eksportga tovarlar yetkazib berishni subsidiyalash;
- eksport qiluvchilar uchun davlat kreditlarini berish va xususiy kreditlar berilishini ragʻbatlantirish;
- xorijda amalga oshiriluvchi savdo bitimlarini davlat tomonidan sugʻurtalash;
- eksportdan olinuvchi foydadan soliq toʻlashdan ozod etish va h.k.

Mamlakatimizda ishlab chiqaruvchi korxonalarining eksport salohiyatini yanada oshirishni rag'batlantirish ko'lami yanada oshirildi. Shu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 26 martdagi "Eksport qiluvchi korxonalarni rag'batlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni kengaytirish borasida qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1731-sonli Qarori qabul qilinib, unga muvofiq mikrofirma va kichik korxonalariga sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish, mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini sertifikatlaydigan o'tkazish, shuningdek, laboratoriya testlari va sinovlarini o'tkazish komplekslarini xarid qilishga yo'naltiriladigan mablag'lar uchun yangi texnologik uskunalarni sotib olishda nazarda tutilgan yagona soliq to'lovi bo'yicha soliq solinadigan bazani kamaytirish huquqi berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2018 yil 17 oktyabrdagi PQ-3978-son qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, eksport operatsiyalari bo'yicha bojxona yuk deklaratsiyasi rasmiylashtirilgan sanadan boshlab muddati o'tkazib yuborilgan debitor qarzdorlik hosil bo'lishi meva-sabzavot mahsulotlari uchun 120 kun etib belgilanadi. Eksport qiluvchining tashqi savdo kontraktlari bo'yicha to'lov muddati o'tgan debitor qarzdorligi bo'lsa, uning keyingi eksporti faqat 100 foizli oldindan to'lov asosida amalga oshirilishiga ruxsat beriladi³⁴.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.10.2018 y. 814-son "O'zagroeksport" AJ ixtisoslashtirilgan tashqi savdo kompaniyasi oldindan to'lovsiz, tasdiqlangan bank akkreditivi ochilmasdan yoki birinchi darajali xorijiy bank kafolati rasmiylashtirilmasdan meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilishi mumkin bo'lgan yetakchi xorijiy import qiluvchi tashkilotlar ro'yxatiga qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.07.2017 y. PQ-3157-son "Mahalliy eksport qiluvchi korxonalarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari mahalliy ishlab chiqaruvchilarni eksport qilishga undovchi me'yoriy hujjatlar bo'lib hisoblanadi.

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2018 yil 17 oktyabrdagi PQ-3978-son qarori

Importni tartibga solish, asosan, uni tarifli va tarifsiz vositalar orqali cheklashdan iborat. Asosiy tarifli to‘siq sifatida bojxona bojlarini keltirish mumkin.

Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishning strategik yo‘nalishi sifatida O‘zbekistonning xorijiy sheriklar bilan 2019 yildagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, texnologik va moliyaviy-texnik hamkorligini tubdan rivojlanishi va kengayishini ta‘minlashga doir «Yo‘l xaritasi» loyihasini ishlab chiqib, unda quyidagilarni nazarda tutilmoqda:³⁵

- O‘zbekiston korxonalarining mahsulotlari va xizmatlarini tashqi bozorga eksport qilishni kuchaytirib borish;

- O‘zbekistonga investitsiyalarni, ilg‘or texnologiyalarni, sayyohlar oqimini, shuningdek, grantlar, imtiyozli kreditlar va texnik ko‘maklarni jalb etish;

- Respublikaning transport-tranzit imkoniyatlarini oshirish, tashqi savdo yuk tashish ishlari uchun qulay sharoitlarni shakllantirish;

- ta‘lim, fan va texnika sohasidagi hamkorlikni kengaytirish.

3.3. Global iqtisodiyotning shakllanishida xalqaro savdoning o‘rni

Dunyo mamlakatlari va xalqlarining o‘zaro bog‘liqligi, rivojlanish darajasi, madaniyat, tarixiy an‘analardagi barcha farqlarga qaramay, shunday bosqichga o‘tdiki, bu bosqichni “globallashuv” deb atamoqdalar.

Yangi tushuncha iqtisodiyot, siyosat va madaniyatga ham birdek taalluqlidir. Biroq aynan iqtisodiyot globallasuvi barcha globallasuv jarayonlarining negizini tashkil etadi va o‘rnatilgan jahon tuzilmasiga tahdid soladi. XX asrda global iqtisodiyot kuchli dinamizm bilan rivojlandi. XX asrning ikkinchi yarmida savdoning o‘zish sur‘atlari jahon yalpi mahsulotining o‘zish sur‘atlariga nisbatan tezroq rivojlandi.

O‘tgan asrning so‘nggi yillarida jahon eksporti yalpi mahsulotga nisbatan 1,7 marta tezroq ko‘paydi. Bu alohida mamlakatlarning milliy xo‘jaligi tobora ko‘proq darajada tashqi bozorga ishlayotganligini,

³⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, PF-4947-sonli Farmoni. 8-ilova, 313-qator

eksport esa global mahsulotning chorak qismidan oshib ketganini ko'rsatadi.

Iqtisodiy globallasuv qator yangi sifat belgilariga egaligi tufayli uni iqtisodiy hayot baynalmilallasuvining alohida bosqichiga ajratish mumkinki, bu bosqich o'tgan asrning boshi yoki o'rtalariga nisbatan farq qiladi. Xo'jalik faoliyatining o'zaro bog'liqligi hozirgi vaqtda nafaqat kuchliroq namoyon bo'lmoqda, balki global darajaga chiqib, deyarli barcha mamlakatlarni qamrab oladi. Albatta, eng avvalo sanoati rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotlari o'zaro birikib ketadi, lekin boshqa mamlakatlar ham turli tezlik va jadallik bilan umumjahon jarayonlariga jalb etiladi.

Kompyuter texnikasi va elektron telekommunikatsiyalarning tez rivojlanishi, yuqori tezlikka va tejamkorlikka ega transportning paydo bo'lishi barcha qit'alar va davlatlarni bir-biriga yaqinlashtirdi, xalqaro ayirboshlashning keskin o'sishi uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratdi. Mamlakatdan mamlakatga ko'chayotgan tovarlar va xizmatlar, kapital va ishchi kuchi oqimlari, global kompaniyalar va axborot tizimlari, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar va korporatsiyalar faoliyati global iqtisodiyotni tashkil etadiki, unga barcha milliy xo'jaliklar u yoki bu darajada qo'shiladi. Global iqtisodiyotdagi har qanday uzilishlar xavf- xatarlarni olib keladi.

Iqtisodiy globallasuvning erishilgan darajasi ko'pgina bashoratlardan o'tib ketdi. Yuqorida keltirilgan jahon tovarlar va xizmatlar eksporti va jahon yalpi ichki mahsuloti o'rtasidagi o'zaro nisbat global o'zaro bog'liqlikning haqiqiy ko'lamlarini kamaytiradi. Chunki jahon YAIMning 60% i xizmatlarga to'g'ri keladi, ularning ko'p qismi esa (ta'lim, tibbiy xizmat ko'rsatish, davlat boshqaruvi, ulgurji va chakana savdo) xalqaro savdoning predmeti hisoblanmaydi. Bu savdo qilinmaydigan (nontradable) deb ataluvchi, ya'ni xalqaro savdoda ishtirok etmaydigan xizmatlardir. Jahon savdosida ishtirok etmaydigan xizmatlar chiqarib tashlangan jahon YAIMda tovarlar eksportining ulushi umumiy jahon YAIM hajmida tovarlar eksportining ulushiga nisbatan ancha ko'p (ayrim hisoblarga ko'ra, deyarli 50%).

Yirik mamlakatlar Belgiya, Niderlandiya kabi kichik mamlakatlarga nisbatan ko'proq ichki bozorga tayangan holda rivojlanishga qodir. Umuman olganda, hozirgi vaqtda qator mamlakatlar uchun jahon bozori milliy bozorga qo'shimcha sifatida emas, balki xalq xo'jaligi amal

qilishining zaruriy shartiga aylandi. Iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishda tashqi bozorning roli ichki bozorning roliga tenglashadi.

Bu baynalmilal o‘zaro bog‘liqlik va kooperatsiyaning yangi sifat darajasi bo‘lib, zamonaviy davrning alohida hodisasi sifatida global iqtisodiyot to‘g‘risida gapirishga imkon beradi.

Jahon tajribasiga ko‘ra, zamonaviy jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish davomli jarayon bo‘lib, uzoq muddatli iqtisodiy strategiya ishlab chiqilishini, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, xo‘jalik aloqalari shakl va usullarini tubdan qayta tuzishni talab etadi.

Globallashuvning hukumat faoliyatiga ta‘siri juda murakkab bo‘lib, o‘z ichiga siyosatdagi har xil kuchlar muvozanatini va ta‘sirini qamrab oladi. Birinchi qarashda, globallashuv ba‘zi bir milliy monopoliyalarni - aloqa, TV, radioni buzadi. Xalqaro telefon xizmati va fakslar jo‘natilishi, odatda, boshqa tovarlar va xizmatlarga qaraganda oddiy aholi uchun ancha arzon. Bugungi kunda Internet haqiqatan ham global tarmoq bo‘lib, kommunikatsiyalar va axborot almashuvida katta imkoniyatlar yaratadi.

Bu o‘zgarishlar davlat funksiyalarini faqat kamaytirib qolmasdan, balki aholining milliy tegishlilik hissasini pasaytiradi. Biroq ushbu o‘zgarishlarning ahamiyatini oshirib yubormaslik kerak. Davlat modem, faks va shu kabilarni ishlab chiqarish va ishlatishni nazorat qiladi. Davlat televizion stansiyalar, simsiz telefonlar uchun radiochastotalardan foydalanish uchun litsenziyalar berilishini ham nazorat qiladi. Davlat sirlarini, kompyuter tarmoqlari bilan ishlashning xususiy mulkchilik huquqini himoyalash uchun texnologiyalar ishlab chiqilmoqda. Zamonaviy global kommunikatsiya tizimi davlatning kuchsizlanishiga olib keladi, deb hisoblash qo‘pol xatodir.

-Davlat modem, faks va shu kabilarni ishlab chiqarish va ishlatishni nazorat qiladi.

-Davlat televizion stansiyalar, simsiz telefonlar uchun radiochastotalardan foydalanish uchun litsenziyalar berilishini ham nazorat qiladi.

-Davlat sirlarini, kompyuter tarmoqlari bilan ishlashning xususiy mulkchilik huquqini himoyalash uchun texnologiyalar ishlab chiqilmoqda.

3.1-rasm. Globallashuv siyosatdagi kuchlar muvozanati va ta‘siri³⁶

36 Xajiyev B, Mamaraximov B. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan o‘quv uslubiy majmua. – T.: TDIU, 2017.

Shunga o'xshash holatni davlat tomonidan iqtisodiyotning rivojlanishini tartibga solinishi nazarda tutilishini iqtisodiyotda ham ko'ramiz. Bu borada bir nechta muammo ko'rib chiqilmoqda. Birinchidan, global bozorlarning, ayniqsa bir kunlik aylanishi 1 trillion dollarni tashkil etuvchi valyuta bozorining faoliyati. Bu faoliyat, masalan, ishsizlik, inflyatsiya darajasini tartibga solish bo'yicha davlat tomonidan o'tkazilayotgan mustaqil milliy siyosatni o'rnatishga putur yetkazadi. Ikkinchidan, qisqa muddatli va uzoq muddatli kapital, yuqori malakaga ega mehnat resurslari kabi ishlab chiqarishning yuqori samaradorligini ko'rsatuvchi omillar davlat tomonidan ishlab chiqarishni joylashtirish, daromadning taqsimlanishi, soliq stavkalarini o'rnatilishi va atrof muhitni muhofaza qilish va ish bilan band qilish sohalari ustidan nazoratni ancha kamaytiradi.

Shunday qilib, globallashtirish davlatlarning iqtisodiy siyosat sohasidagi harakatlarini cheklaydi, lekin uni bekor qilmaydi.

Alohida olingan mamlakatlar uchun globallashtirishdan keladigan foyda yoki yo'qotishlar integratsiya bilan emas, balki bu mamlakatlar ichki bozorining tuzilmasi xususiyatlari bilan ko'proq bog'liq. Globallashtirish raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Shu sababli jahon bozoriga chiqish muvaffaqiyat kafolati hisoblanmaydi. Masalan, kemasozlik, aviatashish xizmatlari, kimyoviy qayta ishlash, po'lat ishlab chiqarish kabi sohalar xalqaro raqobat sharoitida o'z daromadlarini yo'qotib, tavakkal qilishga majbur bo'lmoqdalar. Globallashtirish jahon bozorida to'g'ri strategiyani tanlay olganlarga eng ko'p foyda keltiradi va bu bilan xalqaro raqobatning salbiy ta'sirini kamaytiradi.

Globallashtirish fenomenining mohiyati shundaki, u jahon bozorida tan olingan va tan olinmaganlarning foydalari farqini kuchaytiradi. Bu hamma sohalarda (sport, san'at, fan, musiqa, bank ishi yoki korporativ sohalar) ham o'z aksini topadi.

Hozirgi sharoitda tashqi savdo siyosati davlatning iqtisodiy tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim vosita hisoblanadi va tashqi iqtisodiy faoliyat mexanizmlari orqali amalga oshiriladi.

3.4. Xalqaro savdo dinamikasi va o'zgarishlarining xususiyatlari

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishida xalqaro savdoning mavqei XX asrda tobora oshib bordi. Buning asosida, birinchi navbatda, xalqaro

savdoning hajmi 1870-yillardan boshlab muntazam ravishda o'sib borishi yotar edi. Agar 1870-1913-yillarda eksportning o'rtacha yillik o'sishi 3,4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 1950-2015-yillarda bu ko'rsatkich 6,2 foizni tashkil etdi, savdoni YAIMdagi ulushi esa ushbu davrda 4,6 foizdan 19,4 foizgacha oshdi.

XX asrning 50-yillaridan so'ng jahon iqtisodiyotida xalqaro savdo tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Jahon eksporti 1948 yilda atigi 59 mlrd. dollarga teng bo'lgan. Ushbu davr ichida mintaqalarning jahon eksportidagi hisyasi ham o'zgardi: Shimoliy Amerikaning hisyasi 28,1 foizdan 14,5 foizgacha tushgan bo'lsa, Yaqin Sharq va Osiyoning ulushi esa qariyb ikki barobar o'sdi.

raqobat kurashining keskinlashishi;

valuta kurslarining nobarqarorligi;

to'lov balanslarining kamomadlari;

o'tish davri iqtisodiyotidagi va rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzlari kabilar.


3.2-rasm. Tashqi savdoni tartibga solish vositalari³⁷

1950-2015-yillar orasidagi davrda xalqaro savdoda tovar aylanmasi 14-15 barobar o'sdi. Mutaxassislarning fikricha, 1950-1970 yillarni xalqaro savdoning "oltin asri" deb aytish mumkin. Aynan ana shu davrda jahon eksporti yiliga o'rtacha 6-7% ga o'sdi. Ammo, 70-yillarda u 5,5% ga tushib, 80-yillarda yana-da kamaygan edi. 80-yillarning oxirida va 90-yillarda jahon eksporti sezilarli ravishda jonlanganligini ko'rishimiz mumkin (90-yillarning o'rtasida 8-9% ni tashkil etgan). Bu davrda xalqaro savdoning barqaror o'sishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatgan bo'lib, ular quyidagilardir:

- xalqaro mehnat taqsimotni va ishlab chiqarishning baynalmilalashuvining rivojlanishi;
- ilmiy-texnika inqilobi (ITI);
- jahon bozorida transmilliy korporatsiyalarning faoliyati;

37 Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Barkamol fayz-media» nashriyoti, 2017.

- xalqaro savdoning Tariflar va savdo bosh bitimi (GATT) faoliyati orqali tartibga solinishi (erkinlashtirilishi);
- xalqaro savdoning erkinlashtirilishi, ko‘plab davlatlarning importni son jihatdan cheklashni bekor qiluvchi va bojlarni keskin qisqartiruvchi rejimga o‘tishlari, erkin savdo hududlarining tashkil topishi;
- savdo-iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanishi. Mintaqaviy to‘siqlarning olib tashlanishi, umumiy bozorlar, erkin savdo hududlarining tashkil etilishi;
- sobiq mustamlaka davlatlarning mustaqillikka erishishlari. Ularning orasida tashqi bozorga yo‘naltirilgan iqtisodiyot modelini tanlagan “yangi industrial davlatlarning” ajralib chiqishi va h.k.



3.3-rasm. Tashqi savdo siyosatining raqobat qiluvchi yo‘nalishlari³⁸

XX asrning 50-yillaridan so‘ng jahon iqtisodiyotida tashqi savdo dinamikasining notekisligi namoyon bo‘la boshladi. Bu esa, o‘z navbatida jahon bozoridagi davlatlar o‘rtasidagi kuchlar nisbatiga ta‘sir ko‘rsatdi. Jahon iqtisodiyotida AQSHning hukmronligi pasaya boshladi. O‘z navbatida, Germaniya eksporti Amerikaniqiga yaqinlashib va hatto ayrim yillarda undan ham oshib ketdi. Germaniyadan tashqari boshqa G‘arbiy Yevropa davlatlarining eksporti ham o‘tdi. 90-yillarda G‘arbiy Yevropa xalqaro savdoning asosiy markazlaridan biriga aylandi.

³⁸ Xajiyev B, Mamaraximov B. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan o‘quv uslubiy majmua. – T.: TDIU, 2017.

XX asrning 80-yillarga kelib xalqaro savdo sohasida Yaponiya katta o‘shishga erishdi. 1983 yilda u birinchi marta mashina va eksporti bo‘yicha birinchi o‘ringa chiqdi. Yaponiya jahonda yengil va yuk avtomobillarini, kundalik elektrotexnika asbob-uskunalar va boshqalarni olib chiqish bo‘yicha boshqa davlatlardan ancha oldinlab ketdi. Yaponiya eksportining 1/3 qismi AQSHga to‘g‘ri keladi.

Sof holda deyarli mavjud bo‘lmaydi, chunki unga ko‘ra boshqa mamlakatlar bilan tashqi savdo sohasida ayirboshlash bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarga davlatning aralashuvi talab qilinadi. Haqiqatda esa ko‘rsatib o‘tilgan jarayonlarga davlatning aralashuvi minimallashtiriladi.

3.4-rasm. Erkin savdo siyosati³⁹

Oxirgi yillarda ham jahon savdosining o‘shishi kuzatilmoqda. Ushbu jarayon barcha mintaqalarga taalluqlidir. Eksport va importning eng tez o‘shish sur‘atlari Janubiy va Markaziy Amerika, MDH, Yaqin Sharq va Osiyoda kuzatilmoqda.

Rivojlanayotgan davlatlar hozircha rivojlangan davlatlar uchun asosan xom ashyo yetkazib beruvchi bo‘lib qolmoqda. Jahon iqtisodiyotida sanoati rivojlangan davlatlar jahon oziq-ovqat va xom ashyo eksportidagi ulushini yildan-yilga oshib bormoqda.

Bu boshqa mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish siyosatidir. Bu siyosatning maqsadi milliy kompaniyalarning milliy va xorijiy bozorlardagi faoliyatiga xorijiy raqobatchilarga nisbatan yaxshiroq shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Bu ichki bozorni himoyalash va milliy kompaniyalarning xorijiy bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga ko‘maklashish orqali amalga oshiriladi.

3.5-rasm. Proteksionizm siyosati⁴⁰

Rivojlanayotgan davlatlar o‘z eksportlarini sanoat tovarlari hisobiga diversifikatsiya qilishga urinishlari sanoati rivojlangan davlatlarning u yoki bu shakldagi qarshiligiga duch kelmoqda. Shu bilan

39 Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Barkamol fayz-media» nashriyoti, 2017.

40 Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Barkamol fayz-media» nashriyoti, 2017.

birga ba'zi bir rivojlanayotgan davlatlar, ayniqsa, "yangi industrial davlatlar" o'z eksportlarining restrukturalashtirishda ancha muvaffaqiyatga erishib, unda tayyor mahsulotlar, sanoat mahsulotlarni, shu jumladan, mashina va uskunalarning ulushini ko'paytirmoqda.

Xulosalar

1. Barcha mamlakatlar tashqi savdosi majmui xalqaro savdoni tashkil etadi. Xalqaro savdo – bu turli davlat milliy xo'jaliklari o'rtasidagi tovar va xizmatlarning ayirboshlash jarayonidir. Xalqaro savdo qadimdan mavjud bo'lsada, faqat XIX asrga kelib, ya'ni deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar xalqaro savdo aloqalarida ishtirok eta boshlashi bilan jahon bozori shakliga kirdi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblangan xalqaro savdo tashqi savdo aylanmasi, eksport va import kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

2. Kapital eksport qilish ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Kapital eksporti kredit berish yoki chet el korxonalarini aksiyalariga maqsadli qo'yilmalar kabi shakllarda amalga oshirilib, kapital chiqarilgan vaqtda eksport qiluvchi mamlakatdan mablag'lar oqimini taqozo qiladi va shu orqali tasarrufida bo'lgan resurslar hajmini qisqartiradi. Boshqa tomondan, kapital eksporti chet davlatlarning mazkur mamlakatdan bo'lgan qarzlarni ko'paytiradi. U jahon bozoriga tovarlarning keyingi eksporti uchun qulay sharoit yaratadi va chet el valyutasida foiz yoki dividend shaklida barqaror daromad olish omili hisoblanadi.

3. Mamlakatdagi aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi eksport hajmi uning iqtisodiyotining «ochiqligi» darajasini ifodalaydi. Eksport salohiyati (eksport imkoniyatlari) – bu mazkur mamlakat tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning o'z iqtisodiyoti manfaatlariga putur yetkazmagan holda jahon bozorida sotishi mumkin bo'lgan qismi.

4. Xalqaro savdoda ishtirok etish har bir mamlakat uchun milliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi raqobatdan himoya qilish vazifasini dolzarb qilib qo'yadi. Bu vazifa mamlakatlarning savdo siyosati orqali amalga oshadi. Jahon amaliyotida bu siyosatning proteksionizm (tashqi ta'sirdan himoyalash) va fritrederlik (savdoga to'liq erkinlik berish) kabi shakllari keng tarqalgan.

5. Iqtisodiy bitimlar – qiymatning har qanday ayirboshlanishi, ya'ni tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik

huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o'tishi bo'yicha kelishuvlar. Har qanday bitim ikki tomoniga ega bo'ladi va shu sababli to'lov balansida ikki tomonlama yozuv tartibiga rioya qilinadi. Har bir bitim to'lov balansining debet va kredit qismlarida o'z ifodasini topadi.

6. Iqtisodiyot subyektlarining davlat va Markaziy bank siyosatiga ishonchsizligi to'lov balansi inqirozini chuqurlashtiruvchi omil hisoblanadi. Milliy valyuta qadrsizlanishining kutilishi chet el valyutalariga chayqovchilikka qaratilgan talabni rag'batlantiradi.

7. Pulning jahon xo'jaligida amal qilishi va turli xalqaro iqtisodiy aloqalarga (tashqi savdo, ishchi kuchi va kapital migratsiyasi, daromadlar, qarzlilar va subsidiyalar oqimi, fan-texnika yutuqlarini ayirboshlash, turizm va h.k.) xizmat qilishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar xalqaro valyuta-kredit munosabatlari deb ataladi. U pulning xalqaro to'lov munosabatida amal qilish jarayonida vujudga keladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Eksport – tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar mamlakatdan tashqariga chiqariladi.

Import – chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga kiritish.

Reeksport – biror bir mamlakatning boshqa mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarni o'z iste'moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun xarid qilishi.

Reimport – iste'molchi mamlakatdan reeksport tovarlarni sotib olish.

Xalqaro valyuta tizimi – xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan shakli.

Valyuta kursi – bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalangan narxi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ichki va tashqi savdoning o'xshashliklari nimadan iborat? Ularning farqi-chi?

2. Xalqaro savdo qanday ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi?

3. Nima uchun xalqaro savdoda sun'iy to'siqlar mavjud bo'ladi? Ularning tavsifini bering.

4. Proteksionistik siyosatning ijobiy va salbiy tomonlari qanday? Ularni taqqoslang.

5. Xalqaro savdoda iqtisodiy integratsiyaning ahamiyati qandayligi va unda O'zbekistonning ishtirok etishi imkoniyatlarini aniqlang.

6. Xalqaro valyuta tizimini tushuntiring. Har bir tizim qanday ustunlik va kamchiliklarga ega?

7. Davlat valyuta kurslarini barqarorlashtirish uchun qanday usullardan foydalanadi?

8. Chet el valyutalariga talab va taklifga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

4-BOB. TO‘LOV BALANSI

4.1. To‘lov balansi tushunchasi va uning tuzilishi.

To‘lov balansi – ma’lum davr mobaynida mamlakat rezidentlari va tashqi dunyo o‘rtasida bo‘ladigan bitimlar statistik qayd qilingan hujjatdir. U mamlakatning iqtisodiy aloqalarini aniq, lo‘nda ifodalab pul-kredit, valyuta, budjet-soliq, xalqaro savdo siyosatining hamda davlat qarzini boshqarish yo‘nalishlarini tanlash uchun indikator vazifasini bajaradi.

Mamlakatning ma’lum vaqtdagi barcha xalqaro iqtisodiy faoliyati, shu jumladan, tashqi savdo, kapital va ishchi kuchi migratsiyasi ham to‘lov balansida o‘z aksini topadi. Har qanday tashqi iqtisodiy bitim valyuta ayirboshlash va valyuta operatsiyalari orqali amalga oshiriladi. Demak, mamlakatning jahon bozoridagi faoliyati natijalari pirovardida xorijiy valyuta tushumlari va xarajatlarida ifodalanadi. Shuning uchun ham to‘lov balansini bir tomondan, chetdan keladigan barcha tushumlar, ikkinchi tomondan esa, chetga chiqariladigan barcha to‘lovlar ko‘rsatilgan hujjatdir deb qarash mumkin. Tushum faqat eksport yordamida ta‘minlanishi mumkin. Aksincha, xorijiy tovarlarni va xizmatlarni sotib olish (import) uchun to‘lovlar va xorijiy valyuta xarajatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunda tovar deganda ayirboshlanadigan har qanday narsa tushuniladi, ya‘ni, u moddiy ne‘mat, xizmat, ishchi kuchi, kapital.

To‘lov balansida barcha iqtisodiy bitimlar ikkita katta guruhga bo‘linadi: joriy operatsiyalar va kapital harakati bilan bog‘liq operatsiyalar (4.1-jadval). Shunga ko‘ra to‘lov balansi strukturasi ham ikki qismdan iborat:

1. Joriy operatsiyalar hisobi;
2. Kapital harakati hisobi.

Joriy operatsiyalar hisobida mahsulotlar va xizmatlar eksporti «plyus», import esa «minus» ishoralari bilan belgilanadi. Ya‘ni, joriy operatsiyalar hisobida ichki mahsulotlar eksporti kredit, aksincha mamlakatga mahsulotlar olib kelish - import esa debet sifatida ko‘rsatiladi. Chunki, mahsulotlar eksporti xorijiy valyuta ishlab topib, mamlakat valyuta zaxirasini boyitsa, import esa mamlakatdan valyuta

chiqib ketishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida mamlakat valyuta zaxirasini kamaytiradi.

4.1-jadval

Mamlakat to‘lov balansining taxminiy ko‘rinishi (raqamlar shartli)

| Moddalar nomi | Kredit (+) yoki eksportdan tushumlar | Debet (-) yoki import uchun xarajatlar | Sof kredit yoki sof debet |
|--|---|---|--|
| Joriy operitsiyalar hisobi | | | |
| Tovarlar | +185 | -260 | -75 |
| Tashqi savdo balansining qoldig‘i | | | -75 |
| Xizmatlar | +85 | -97 | -12 |
| Investitsiyalardan daromadlar (foizlar va divedentlar) | +28 | -20 | +8 |
| Transfert ko‘rinishidagi pul o‘tkazmalari | +10 | -18 | -8 |
| Joriy operatsiyalar bo‘yicha balansning qoldig‘i | | | -87 |
| Kapital harakatning hisobi | | | |
| Investitsiyalar va boshqa o‘rta va uzoq muddatli kapital | +150 | -87 | +63 |
| Kapital harakati balansining qoldig‘i | | | +63 |
| Joriy operatsiyalar va kapital harakati bo‘yicha balansning qoldig‘i | | | -24 |
| Rasmiy zaxiralar (oltin, XFVdagi zaxiralar) | +24 | | +24 |

4.2. Joriy operatsiyalar hisobi balansi

Joriy operatsiyalarning asosiy moddasi tovarlar eksporti va importi hisoblanadi, ularning farqi tashqi savdo balansining qoldig‘i deb yuritiladi. Misolimizda bu balans salbiydir, ya’ni, mamlakat tovarlarni chetga olib chiqishdan ko‘ra ko‘proq olib keladi (-75).

Joriy operatsiyalarning keyingi moddasi – bu, xizmatlar (transport, sug‘urta, sayyohlik xizmatlari va boshqalar) eksporti va importidir. Misolimizda tovarlar bilan bo‘lgan operatsiyalardagi kabi xizmatlar bilan bo‘lgan operatsiyalarda ham mamlakat xorijiy xizmatlarni ko‘proq oladi ya’ni, masalan, mamlakatda yashovchilar xorijga chetdan mamlakatga keladigan sayyoxlarga nisbatan ko‘proq boradilar, shuningdek, mamlakatdagi tadbirkorlarga xorijiy transport va sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish hajmi xorijiy tadbirkorlarga mamlakatda transport va sug‘urta kompaniyalari ko‘rsatadigan xizmatlar hajmiga qaraganda yuqoriroq va h.k. Bu operatsiyalar bo‘yicha ham balans salbiy qoldiqqa ega (-12).

Investitsiyalardan [daromadlar](#), foizlar va dividendlar bo‘yicha to‘lovlarni o‘z ichiga oladi. Agar xorijga qo‘yilgan milliy kapital uchun chet to‘lovlari bo‘yicha tushumlar mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy kapital uchun to‘lanadigan to‘lovlar miqdoridan ko‘p bo‘lsa, unda sof daromad musbat bo‘ladi (+8).

Transfert ko‘rinishida pul o‘tkazishlar shu mamlakatlarning xorijda yashayotgan fuqarolariga to‘lanidigan nafaqalarni, muxojirlarning xorijdagi o‘z qarindoshlariga pul o‘tkazmalari, turli ko‘rinishdagi hukumat yordamlarini o‘z ichiga oladi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, xorijga jo‘natilayotgan pul o‘tkazishlar miqdori olinayotganiga nisbatan yuqori, ya’ni, operatsiyalar mamlakatdagi xorijiy valyuta zaxiralarini kamaytiradi (-8).

Joriy hisoblar bo‘yicha barcha operatsiyalar yig‘indisi joriy operatsiyalar balansini tashkil etadi. Bizning misolda u salbiy (-87). Bu esa mamlakatda import operatsiyalari natijasida xorijiy valyutaga bo‘lgan talab uning eksport operatsiyalari ta’minlaydigan taklifdan ortiq bo‘lishini anglatadi. Boshqacha aytganda, ushbu holda mamlakat to‘lov balansi joriy operatsiyalar bo‘yicha kamomadga ega.

Makroiqtisodiy modellarda joriy operatsiyalar balansi qoldig‘i quyidagicha beriladi:

$$\mathbf{X - M = X_n = Y - (S + I + G);}$$

bu yerda: X - eksport; M - import; X_n - sof eksport;

S + I + G -YAIMning bir qismi (absorbtsiya)

Joriy operatsiyalar balansida kamomad bo'lgan sharoitda, mamlakatning eksportdan olgan daromadlari importga qilgan xarajatlaridan kam bo'ladi va uni tashqaridan qarz olish hisobiga yoki mavjud aktivlarning bir qismini xorijiy investorlarga sotish orqali qoplashi mumkin. Bu operatsiyalar sof xorijiy aktivlarning kamayishiga olib keladi.

Sof xorijiy aktivlar (NFA) – bu, milliy rezidentlar tomonidan egalab turilgan xorij aktivlari va xorijliklar egalik qilgan mamlakat aktivlari o'rtasidagi farqni bildiradi.

Joriy operatsiyalar balansida taqchillik bo'lmagan sharoitda esa mamlakat xorijiy valyutalarni sarf qilishga nisbatan ko'proq olib keladi.

Misolimizga aksincha mamlakat joriy operatsiyalar bo'yicha balansi ijobiy qoldiqqa ega bo'ladi. Bunda mamlakatda chet elda ko'chmas mulkni sotib olish yoki boshqa mamlakatlarga qarzga berishga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan ortiqcha xorijiy valyuta yuzaga keladi.

4.3. Kapital harakati hisobi balansi.

Investitsiyalash va kreditlash bilan bog'liq operatsiyalar to'lov balansining keyingi bo'limida, ya'ni, kapitallar harakati hisobida aks ettiriladi.

Mamlakatda ma'lum bir vaqtda moddiy va moliyaviy aktivlarini sotib olish va sotish bilan bog'liq operatsiyalariga kapital harakati hisobi deyiladi. Kapital harakati hisobi balansida korxonalar, yer, [uy-joylar](#), qimmatbaho qog'ozlar, aksiyalar, xazina majburiyatlari va boshqa aktivlarni olish-sotish bilan bog'liq kapitallar oqimi aks ettiriladi. Bu aktivlar sotilsa yoki eksport qilinsa, xorijiy valyuta mamlakatga kiritiladi, ya'ni valyuta tushumi ko'payadi (+150). Biroq kapitalni olib kelish bilan bir vaqtda uni olib chiqish bilan bog'liq operatsiyalar ham amalga oshiriladi. Bunda mamlakatning tadbirkorlari xorijdan aksiyalar sotib oladi, xorijliklarga kreditlar beradi va shu asosda ular xorijiy valyuta zaxiralarini sarflaydi. Bu operatsiyalar debet ko'rinishida aks ettiriladi (-87). Kapital harakati balansining qoldig'i – bu, uni olib kelish va olib chiqish o'rtasidagi farqdir (+63).

Kapital xarajatlari hisobida aktivlar bo'yicha barcha xalqaro operatsiyalar ko'rsatiladi.

Kapital harakati balansi =Aktivlarni sotishdan tushadigan barcha tushumlar – Xorijiy aktivlarni sotib olishga qilingan xarajatlar.

Xorijga aktivlarni sotish valyuta zaxirasini ko'paytirsa, sotib olish esa uni kamaytiradi. Shuning uchun kapital harakati balansi barcha operatsiyalardan keladigan sof valyuta tushumlarini ko'rsatadi. Kapital harakati hisobining ijobiy qoldig'i mamlakatda kapital ko'payishini bildirsa, uning salbiy qoldig'i mamlakatda kapital kamayishini bildiradi.

Avval aytib o'tilganidek, joriy operatsiyalar bo'yicha balans va kapital harakati balansi o'zaro chambarchas bog'liq. Bizning misolda birinchisining taqchilligi (-87) katta qismi (+63) kapitalning sof oqib kelishi hisobiga moliyalashtiriladi va aksincha, agar to'lov balansi joriy operatsiyalar bo'yicha musbat qoldiqqa ega bo'lsa, kapital harakati hisobi balans bo'yicha manfiy qoldiqqa yo'l qo'yilgan bo'ladi.

Shunday qilib, balansning bu ikki bo'limi bir-biri bilan tenglashib boradi.

To'lov balansi qoldig'i= Joriy operatsiyalar + Kapital harakati balansi

Biroq, amalda to'lov balansining bu qismida ham ko'pincha kamomad yoki ortiqchalik yuzaga keladi. Barcha mamlakatlarning Markaziy banklari rasmiy zaxiralar deb ataluvchi xorijiy valyuta zaxiralariga ega bo'lib, bu zaxiralar joriy operatsiyalar bo'yicha balans va kapital harakati bo'yicha balans nomutasosibligini bartaraf etishda qo'llaniladi. Bizning misolda bu nomutasosiblik yoki qoldiq (-24)ni tashkil etadi va rasmiy zaxiralardan tushumlar hisobiga tartibga solinadi.

Rasmiy zaxiralarning qisqarishi (+) kamomad miqdorini ifodalaydi, rasmiy zaxiralarning o'sishi (-) esa to'lov balansining musbat qoldig'i miqdorini ko'rsatadi. Natijada uning barcha uch bo'limi

summasi «0»ni tashkil etishi lozim. Bu esa xorijiy valyuta taklifini va unga mamlakatda boʻlgan talab tengligini bildiradi.

Joriy operatsiyalar hisobi bilan kapital harakati hisobining oʻzaro aloqalarini umumlashtirsak, uning makroiqtisodiy koʻrinishi quyidagicha boʻladi:

$$Y=C+I+G+X_n;$$

$$Y-C-G = C+I+G+X_n-(C+G);$$

$$S_n = I+X_n$$

$(I-S)+X_n=0$ (egiluvchan valyuta kursi rejimida markaziy bank aralashmagan sharoitda), bu yerda: S_n – milliy jamgʻarish;

$(I-S)$ – miqdori ichki investitsiyalarning ichki jamgʻarmalardan ortiqchaligini koʻrsatadi va kapital harakati hisobi qoldigʻini bildiradi.

Asosiy makroiqtisodiy ayniyatga koʻra joriy operatsiyalar va kapital harakati hisoblari bir-biriga tenglashadi:

$$X-M = X_n=-(I-S)=S-I \text{ ichki balans}$$

Bu shuni bildiradiki, toʻlov balansining joriy operatsiyalar boʻyicha kamomadi kapitalning sof oqib kelishi hisobiga moliyalashtiriladi.

$$X_n < 0 [X-M < 0 [X < M ;$$

$I-S > 0 [I > S [\text{xorijdan kapital kiritilishi.}$

Agarda investitsiyalar (I) milliy jamgʻarmalardan koʻp boʻlsa ($I > S$), ortiqcha investitsiyalar xorijdan olinadigan qarz hisobiga moliyalashtirilishi lozim. Bu qarzlarni mamlakatga tovar va xizmatlarni eksport qilishga nisbatan koʻproq import qilinishini taʼminlaydi ($M > X$). YAʼni, sof eksport manfiy qoldiqqa ($X_n < 0$) ega boʻladi. Mamlakat xalqaro jarayonga qarzdor boʻlib qatnashadi.

Joriy operatsiyalar musbat qoldiqqa ega boʻlganda, ortiqcha mablagʻlardan xorijga investitsiya qilishda yoki xorijdan koʻchmas mulk sotib olishda foydalaniladi.

$$X_n > 0 [X-M > 0 [X > M;$$

$I-S < 0 [I < S [\text{xorijga kapital chiqarilishi}$

Davlatlar rasmiy zaxiralar va qarzlarni hisobiga qoplash qobiliyatiga ega bo'lmagan to'lov balansining katta davriy taqchilligi bo'lgan hollarda o'z valyutalari devalvatsiyasini amalga oshirishlari mumkin. Bu importning fizik hajmi ko'payishiga va oqibatda mamlakatda xorijiy valyuta tushumining o'sishi hamda to'lov balansi kamomadi tugatiladi.

To'lov balansini tuzish tamoyillariga ko'ra u doimo balanslangan bo'ladi. Manfiy yoki musbat qoldiq tushunchasi faqatgina to'lov balansining alohida qismlariga taalluqli. Shu bilan birga to'lov balansi qoldig'ining milliy iqtisodiyotga ta'siri amaliyotda bir xil tavsiflanmaydi. Iqtisodiy siyosat maqsadlaridan kelib chiqib to'lov balansining musbat qoldig'i ham, manfiy qoldig'i ham ijobiy yoki salbiy deb baholanishi mumkin.

To'lov balansi holatiga baho berishda savdo balansi qoldig'i, joriy operatsiyalar balansi qoldig'i, kapital harakati va moliya balansi qoldig'i hamda rasmiy hisob kitoblar balansi qoldig'i alohida tahlil etiladi.

Savdo balansi qoldig'i o'zgarishiga baho berishda bu o'zgarishlar qaysi omillar ta'sirida ro'y berganligi e'tiborga olinadi. Masalan, manfiy qoldiq eksportning qisqarishi hisobiga ro'y bergan bo'lsa, bu holat milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi pasayganligidan dalolat berishi va negativ hodisa deb qaralishi mumkin. Lekin bu holat mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi ko'payishi hisobiga importning o'sishi natijasida ro'y bergan bo'lsa milliy iqtisodiyotning zaiflashishidan dalolat deb qaralmaydi.

Joriy operatsiyalar hisobi balansi, odatda, to'lov balansining ma'lumot beruvchi qoldig'i deb qaraladi. Chunki bu qoldiq bilan birga ichki iqtisodiy siyosatni cheklovchi tashqi iqtisodiy omil hisoblanishi bilan birga mamlakatning moliyalashtirishga ehtiyojini belgilaydi. Joriy operatsiyalar hisobi balansi musbat qoldig'i mamlakat boshqa davlatlarga nisbatan netto kreditor ekanligidan dalolat beradi, va aksincha manfiy qoldig'i (ya'ni joriy operatsiyalar hisobi balansi taqchilligi) mamlakat tovarlar va xizmatlarning netto-importi uchun to'lovlarni amalga oshirishga va transfert to'lovlarni moliyalashtirishga majbur bo'lgan sof qarzdorga aylanganligini anglatadi. Amalda joriy to'lov balansining musbat qoldig'iga ega mamlakat

milliy jamg'armalarning bir qismini kapitalni ichki jamg'arishga yo'naltirish o'rniga mamlakat tashqarisiga investitsiyalaydi.

Kapital harakati va moliya balansi qoldig'i joriy operatsiyalar balansi holatining oynadagi aksi hisoblanadi, chunki real resurslar oqimini ko'rsatadi. Shuningdek joriy operatsiyalar balansi holati qisman «Sof xatolar va chetda qoldirishlar» moddasiga to'g'ri keladi.

Rasmiy hisob kitoblar balansi qoldig'i to'lov balansi umumiy (yakuniy) qoldig'ining kengroq tarqalgan nomlanishi bo'lib norezidentlarning mamlakatga nisbatan likvidli talablarning ko'payishi (kamayishi) yoki xorijiy likvidli aktivlardagi mamlakat rasmiy zaxiralarining ko'payishidan (kamayishidan) dalolat beradi. Bu qoldiq «Zaxira aktivlari» moddasidan boshqa barcha moddalarni qamrab oladi.

Qayd qilingan valyuta kurslari sharoitida (1979-yilga kadar) rasmiy hisob kitoblar holatiga katta ahamiyat berilar edi, chunki uning taqchilligi mamlakatning boshqa davlatlar oldidagi majburiyatlarining ortganligini (yoki zaxiralarining kamayganligini) anglatgani holda valyuta kursining barqarorligiga taxdid solar edi. Suzib yuruvchi valyuta kursining kiritilishi bilan umumiy to'lov balansi tushunchasini yo'qqa chiqardi, rasmiy zaxiralar dinamikasi esa nafaqat rasmiy hisob kitoblar qoldig'ining oqibati, balki to'lov balansining boshqa bo'limlarida hisobga olingan oqimlaridagi o'zgarishlarning sababchisi ham bo'lib qoldi.

17.4. To'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solish vositalari va usullari.

To'lov balansi muvozanatini ta'minlash uchun joriy hisoblar va kapital harakati qoldiqlari bir-birini aynan qoplashi zarur bo'ladi. Markaziy Bank valyuta intervensiyasini amalga oshirish chorasini ko'rmasa, va rasmiy valyuta zaxiralari miqdorini o'zgartirmasa to'lov balansi hisoblarini valyuta kursining erkin tebranishi hisobiga o'zaro tartibga solish amalga oshiriladi.

Bunday sharoitda kapital oqib kelishi sababli milliy valyutaning qimmatlashuvi, kapital chiqib ketishi sababli esa uning arzonlashuvi ro'y beradi. Valyuta kursining erkin tebranishi to'lov balansining joriy va kapital hisoblarini avtomatik ravishda mutanosiblashtirish mexanizmi hisoblanadi.

Erkin tebranuvchi valyuta kursi tarafdorlari ta'kidlashicha, to'lov balansining ortiqchaligi yoki taqchilligi bunday vaziyatlarda tez orada barham topadi. Valyuta kurslarining erkin harakati to'lov balansining ortiqchaligi yoki kamomadini yo'qotadi.

Erkin tebranuvchi valyuta kurslari to'lov balansini tenglashtirishda katta imkoniyatlarga ega bo'lsada, kamchiliklardan holi emas. Chunonchi, bunday valyuta birinchidan, savdoning noaniqligi va qisqarishiga, [ikkinchidan](#), savdo sharoitining yomonlashishiga, uchinchidan, beqarorlikka va boshqalarga olib keladi.

Agar Markaziy Bank rasmiy valyuta zaxiralari vositasida chet el valyutasini sotib yoki sotib olib valyuta kursini erkin tebranishiga barham bersa valyuta kursining erkin tebranishi vositasida to'lov balansini tartibga solish zarurati yo'qoladi.

Bunda to'lov balansi taqchilligi Markaziy Bank rasmiy zaxiralarini qisqartirish hisobiga moliyalashtirilishi mumkin. Bunday vaziyatda ichki bozorda chet el valyutasi taklifi oshadi. Qayd etilgan operatsiya eksportga xos bo'lib kreditda plyus belgisi bilan (Markaziy Bankda xorijiy valyuta zaxirasi kamayishiga qaramasdan) hisobga olinadi. Ushbu tadbir natijasida ichki bozorda milliy valyuta taklifi kamayadi, uning almashinuv kursi nisbatan ko'tariladi va bu investitsiyalar hajmiga hamda iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

To'lov balansining aktiv-(musbat) qoldig'i esa Markaziy bankning rasmiy valyuta zaxiralari miqdorining ortishiga olib keladi. Bunda Markaziy bank valyuta zaxiralarini to'ldirish uchun chet el valyutasini sotib olishi natijasida ichki bozorda milliy valyuta taklifi nisbatan oshadi, uning almashinuv kursi kamayadi, bu hol esa iqtisodiyotga (investitsiyalar hajmi va iqtisodiy o'sishga) rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Markaziy bank tomonidan o'tkaziladigan bunday operatsiyalar rasmiy rezervlar bilan bo'ladigan operatsiyalar deyiladi. Bu operatsiyalar natijasida to'lov balansi qoldig'i nolga tenglashishi kerak.

To'lov balansining aktiv qoldig'i yoki taqchilligi mamlakat iqtisodiyoti xususiyatlariga qarab turlicha baholanishi mumkin.

Valyutasi xalqaro hisob-kitoblarda, hamda boshqa mamlakatlar zaxira valyutasi sifatida foydalaniladigan mamlakatlar uchun to'lov balansi taqchil bo'lishi tabiiy hol hisoblanadi. Bunday mamlakatlar to'lov balansini uzoq muddat makroiqtisodiy tartibga solmasligi mumkin.

Milliy valyutasi jahon iqtisodiyotida zaxira valyutasi hisoblanmaydigan mamlakatlar Markaziy Banklaridan rasmiy valyuta zaxirasi cheklanganligi tufayli to'lov balansining uzoq muddatli taqchilligi bu rezervlarning sarflab bo'linishiga olib keladi. Bunday hollarda to'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solinadi. Mamlakat savdo siyosati va valyuta almashinuv kursini o'zgartirishi choralari qo'llab chet ellardagi o'z xarajatlarini kamaytiradi, yoki eksportdan o'z daromadlarini oshiradi.

Bunday tartibga solish natijasida baholar umumiy darajasining oshishi oqibatida aholi turmush darajasining pasayishi, milliy valyutaning qadrsizlanishi, iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida bandlilikning pasayishi ro'y berishi mumkin.

Valyuta rezervlari sarflab bo'lganligi, ilgari olingan chet el kreditlarini qaytarilish grafiklari buzilganligi tufayli bunday kreditlarni yana olish imkoniyatlari yo'qqa chiqqanligi sababli mamlakat to'lov balansi taqchilligining uzoq vaqt davom etishi to'lov balansi inqirozi deyiladi.

To'lov balansi inqirozini hal etishning yagona yo'li makroiqtisodiy tartibga solish hisoblanadi.

O'tish davri iqtisodiyotida xorijiy valyutaga spekulyativ talab oshishi Markaziy Bankni qiyin axvolga solib qo'yadi. Chunki rasmiy valyuta zaxiralari bir vaqtning o'zida ham to'lov balansi taqchilligini ham ichki spekulyativ talabni qondirish uchun yetarli bo'lmasligi mumkin.

Valyuta almashinuv kursini tartibga solish bu vaziyatdan chiqishning yagona yo'lidir.

Qisqa istiqbolda to'lov balansi qoldig'i jamg'arish va investitsiyalar hajmlarini belgilovchi omillar (masalan [budjet soliq siyosati](#), foiz stavkalari) ta'sirida o'zgarishi mumkin.

Agar mamlakatda rag'batlantiruvchi fiskal siyosat yurgizilsa bu hol milliy jamg'armalarning pasayishiga olib keladi. Bu o'z navbatida joriy operatsiyalar hisobi bo'yicha taqchillikka, kapital harakat hisobi bo'yicha musbat qoldiqqa olib keladi.

Cheklovchi fiskal siyosat milliy jamg'armalar hajmlarini oshiradi, bu o'z navbatida kapital harakati hisobi bo'yicha taqchillikka, joriy operatsiyalar hisobi bo'yicha musbat qoldiqqa olib keladi.

Jahon foiz stavkalarining oshishi kapital harakati hisobi bo'yicha taqchillikka, joriy operatsiyalar hisobi bo'yicha musbat qoldiqqa erishishga olib keladi. Jahon foiz stavkalarining pasayishi esa aks natijalarga olib keladi.

Xulosa

To'lov balansi – mamlakatning dunyoning boshqa davlatlari bilan bo'lgan savdo va moliyaviy operatsiyalari aks ettirilgan hujjat. U ikki qismdan, joriy operatsiyalar va kapital harakati balansidan tashkil topgan.

Savdo balansi mamlakatning joriy tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha tushumlar va xarajatlarni aks ettiradi. Mamlakat eksporti uning importidan ko'p bo'lsa joriy operatsiyalar balansi musbat qoldiqli bo'ladi.

Joriy operatsiyalar balansidagi o'zgarishlar ichki ishlab chiqarish va o'z navbatida ichki bandlilik bilan bog'liq.

Kapital harakati balansi aktivlarni sotish va sotib olish bo'yicha barcha xalqaro bitimlarni xarakterlaydi. Aktivlarni sotib olish xorijiy valyutaning chiqib ketishini, sotish esa kirib kelishini anglatadi.

Xar qanday xalqaro bitimlar to'lov balansida ikki bir-birini muvozanatlovchi yozuv ko'rinishida qayd etilgani uchun ham joriy operatsiyalar balansi va kapital harakati balansi qoldiqlari 0 ga teng bo'ladi.

To'lov balansi taqchilligi rasmiy zaxiralarning qisqarishi hisobiga qoplansa uning aktiv sal'dosi rasmiy zaxiralarning o'sishiga olib keladi.

Qayd etilmagan valyuta kursi sharoitida to'lov balansi valyuta kursining o'zgarishi hisobiga muvozanatlashadi.

Milliy valyutasi jahon iqtisodiyotida zaxira valyutasi hisoblanmaydigan mamlakatlar Markaziy banklaridan rasmiy valyuta zaxirasi cheklanganligi tufayli to'lov balansining uzoq muddatli taqchilligi bu rezervlarning sarflab bo'linishiga olib keladi. Bunday hollarda to'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solinadi.

Qayd etilgan valyuta kursi tizimida to'lov balansini tartibga solish uchun tashqi savdo siyosati, pul kredit va fiskal siyosat vositalaridan foydalaniladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Eksport – tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar mamlakatdan tashqariga chiqariladi.

Import – chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga kiritish.

Reeksport – biror bir mamlakatning boshqa mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarni o‘z iste‘moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun xarid qilishi.

Reimport – iste‘molchi mamlakatdan reeksport tovarlarni sotib olish.

Xalqaro valyuta tizimi – xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan shakli.

Valyuta kursi – bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalangan narxi.

To‘lov balansi – mamlakat rezidentlari (uy xo‘jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o‘rtasida ma‘lum vaqt oralig‘ida (odatda bir yilda) amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar natijasining tartiblashtirilgan yozuvi.

Iqtisodiy bitimlar – qiymatning har qanday ayirboshlanishi, ya‘ni tovarlar ko‘rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o‘tishi bo‘yicha kelishuvlar.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ichki va tashqi savdoning o‘xshashliklari nimadan iborat? Ularning farqi-chi?

2. Xalqaro savdoda iqtisodiy integratsiyaning ahamiyati qandayligi va unda O‘zbekistonning ishtirok etishi imkoniyatlarini aniqlang.

3. Xalqaro valyuta tizimini tushuntiring. Har bir tizim qanday ustunlik va kamchiliklarga ega?

4. Davlat valyuta kurslarini barqarorlashtirish uchun qanday usullardan foydalanadi?

5. CHet el valyutalariga talab va taklifga qanday omillar ta‘sir ko‘rsatadi?

6. Valyuta-moliya sohasidagi davlatlararo tashkilotlarga qaysi tashkilotlar kiradi? Ularning asosiy faoliyatlarini tavsiflab bering.

5-BOB. GLOBAL IQTISODIYOTDA G‘OLIBLAR VA MAG‘LUBLAR

5.1. Iqtisodiy rivojlanishning umumjahon tomonlari va ishlab chiqarishning baynalminallashuvi

Hozirgi zamon jahon xo‘jaligi rivojining muhim tamoyili milliy xo‘jaliklarning baynalminallashuvi, shu asosda jahon xo‘jaligi va avvalo jahon bozorining shakllanishi va rivojlanishidan iborat. Insoniyat taraqqiyoti uchun ijobiy bo‘lgan bu jarayonga yetmish yildan ortiq davr davomida dunyoning ikki qarama-qarshi ijtimoiy-siyosiy tizimiga bo‘linganligi salbiy ta‘sir ko‘rsatib keldi. Hozir yangi davr boshlandi, dunyoning iqtisodiy rivojlanishi va shunga mos ravishda O‘zbekiston bilan jahon hamjamiyati mamlakatlari o‘rtasidagi aloqalarning butunlay yangi imkoniyatlari vujudga keldi. O‘zbekiston va jahon hamjamiyati mamlakatlari o‘rtasidagi har tomonlama aloqalarning kengayishi va chuqurlashuvi har ikki tomon uchun iqtisodiy va siyosiy jihatdan foydali hisoblanadi. Shu bilan birga, har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi, uning milliy xo‘jaligi ko‘p darajada nafaqat bu mamlakatning ichki imkoniyatlari bilan, balki uning xalqaro ijtimoiy mehnat taqsimotida qatnashish darajasi va miqyosi, butun insoniyat resurslari bilan aniqlanadi.

Hozirgi davrda jahon iqtisodiy rivojlanishining eng muhim o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – turli mamlakatlar va mintaqalar xo‘jaliklari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning o‘sib, rivojlanib borishi hisoblanadi.

Jahon xo‘jaligi birdaniga shakllangan tizim emas, u uzoq davrni o‘z ichiga olgan tarixiy jarayon hisoblanadi. Turli mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar dastlab cheklangan turdagi va miqdordagi tovarlar savdosi shaklida kelib chiqib, bu quldorlik va feodalizm davrlarida ham mavjud bo‘lgan. Bunga misol qilib, qadimdan O‘rta Osiyoda joylashgan mamlakatlarning Hindiston, Xitoy, Arab va boshqa mamlakatlar bilan, ikkinchi tomondan esa, Yevropa mamlakatlari bilan “Buyuk ipak yo‘li” orqali olib borgan turli xil savdo-sotiq ishlarini ko‘rsatish mumkin.

Ayrim ma‘lumotlarga qaraganda Rim imperiyasi davrlarida ham turli xil xalqaro savdolar, ayniqsa, qul savdosi amalga oshirilgan. Lekin u davrda asosan natural ishlab chiqarish hukmron bo‘lib, tovar-

lar savdosi va iqtisodiy aloqalar juda cheklangan holda bo'lgan. Keyinchalik tovar ishlab chiqarish va tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi, oltinning yagona jahon puli sifatida tan olinishi buyuk geografik kashfiyotlar, mustamlakachilikning rivojlanishi, xalqaro mehnat taqsimotining kuchayishi jahon bozorining paydo bo'lishi va rivojlanishi ilmiy texnika taraqqiyotining jadallashuvi, globallashtirish jarayonlarining kuchayishi kabi qator omillar turli mamlakatlar iqtisodiyotini bir-biri bilan bog'liq holda rivojlanishga va asta-sekinlik bilan jahon iqtisodiyoti tizimiga birlashishiga turtki bo'ldi.

Ayniqsa, hozirgi davrda umumjahon muammolari: sovuq urushning oldini olish va tinchlikni ta'minlash; ekologik buzilishning oldini olish; cheklangan energiya va yoqilg'i manbalaridan samarali foydalanish; energiyaning yangi manbalarini topish (masalan, quyosh energiyasidan foydalanish); rivojlangan va kam taraqqiy etgan mamlakatlar o'rtasidagi ziddiyat va keskinlikni yumshatish; xalqaro terrorizmga va giyohvandlikka qarshi kurashish kabi muammolarni birgalikda hal qilish masalasi milliy xo'jaliklarni jahon xo'jaligiga birlashtirishni zarur qilib qo'yimoqda. Jahon xo'jaligining asta-sekinlik bilan shakllanishini, uning rivojlanish bosqichlarini ko'rib chiqqanda yanada ravshanroq ko'rinadi.

Bu masalada ham iqtisodiy adabiyotlarda turlicha yondashuvlar mavjud. Ularning ayrimlarida jahon xo'jaligining rivojlanishini 5 bosqich deb, ayrimlarida esa 4 bosqich deb beriladi. Masalan, E.F.Borisov jahon xo'jaligi shakllanishining to'rtta bosqichini ajratib ko'rsatadi. Biz misol tariqasida ushbu bosqichlarni bayon qilamiz.

Birinchi bosqich ishlab chiqarishning sanoatlashuvidan oldingi davrda vujudga kelib, dastlab o'sha davrdagi kishilar jamoalari yoki qabilalari o'rtasida paydo bo'lgan savdo ayirboshlashuvi keyinchalik tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan turli mamlakatlar o'rtasidagi doimiy tovar almashuvi – **xalqaro savdoning** paydo bo'lishi va rivojlanishiga olib keldi.

Ikkinchi bosqich ishlab chiqarishning sanoatlashuv davriga to'g'ri kelib, yirik mashinalashgan ishlab chiqarishning vujudga kelishi va tadbirkorlarning ko'proq foyda olishga intilishi tashqi savdoni deyarli barcha milliy xo'jaliklarning tarkibiy qismiga aylantirib qo'yishi natijasida XVIII-XIX asrlarda rivojlangan **jahon bozori** paydo bo'ldi.

Uchinchi bosqich XIX-XX asrlarga to‘g‘ri kelib, bu davrda jahon xo‘jaligi tizimi shakllandi.

To‘rtinchi bosqich XX asrning 60-yillaridan boshlab, ya‘ni ko‘p-lab mustamlaka mamlakatlarning siyosiy qaramlikdan ozod bo‘lishi natijasida zamonaviy jahon iqtisodiyotida ijobiy o‘zgarishlarning yangi tendensiyalari paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Bu tendensiyalar quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy manfaatdorlik asosidagi xalqaro hamkorlik;
- ishlab chiqarishning baynalminallashuvi;
- jahon miqyosidagi bozor makonlarining kengayishi;
- jahon xo‘jaligi aloqalari majmuining rivojlanishi⁴¹.

Ba‘zi manbalarda «Jahon xo‘jaligi», tushunchasining keng va tor ma‘nolari farqlanadi⁴². Keng ma‘nosiga ko‘ra, jahon xo‘jaligi – bu jahondagi barcha milliy iqtisodiyotlarning yig‘indisidir. Tor ma‘nosiga ko‘ra – bu milliy iqtisodiyotlarning faqat tashqi dunyo bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan qismlari majmuidir. Biroq, bu ikkala ma‘no o‘rtasidagi tafovut borgan sari sezilmay qolmoqda, chunki barcha mamlakatlarda tashqi dunyo bilan bevosita yoki bilvosita aloqaga kirishmagan tarmoq yoki sohalar tobora kamayib bormoqda.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, **jahon xo‘jaligi – bu xalqaro mehnat taqsimoti asosida savdo, ishlab chiqarish, moliyaviy, ilmiy-texnikaviy va boshqa shakldagi iqtisodiy hamkorlik va aloqalari kuchaygan, o‘zaro manfaatdorlik maqsadida birlashgan turli mamlakatlar xo‘jaliklarining umumiy tizimidir.**

Jahon xo‘jaligi subyektlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- o‘z ichiga milliy iqtisodiyot majmuasini oluvchi turli mamlakatlar;
- transmilliy korporatsiyalar;
- xalqaro tashkilot va institutlar;
- milliy iqtisodiyot chegarasidan chiqqan, barcha sohalar, xo‘jaliklar va firmalar.

⁴¹ Борисов Е.Ф. Экономическая теория: учеб. – 4-е изд., перераб. и доп. – М. : Высшее образование, 2008, с.497-499.

⁴² Экономика: Учебник, 3-е изд., перераб. и доп. / Под ред. д-ра экон. наук, проф. А.С.Булатова. – М.: Экономистъ, 2005, с.691.

Jahon bozorining o'ziga xos xususiyati bo'lib jahon narxlari va xalqaro raqobat tizimining amal qilishi hisoblanadi. Aynan xalqaro raqobatning mavjudligi turli darajadagi milliy qiymatlarni yagona baynalminal qiymatga keltiradi. Jahon narxi jahon bozoriga ne'matlarning asosiy hajmini yetkazib beruvchi mamlakatlardagi shart-sharoitlar orqali aniqlanadi. Mamlakatlar o'rtasida sotish bozorlarini egallash uchun keskin raqobat kurashi olib boriladi.

Jahon xo'jaligida har bir o'zgarishlar (jahon bozoridagi narxlar harakati va alohida mamlakatning eksport imkoniyatidan tortib dunyo iqtisodiyotidagi tarkibiy siljishlar va xalqaro monopoliyalar faoliyatigacha) dunyodagi barcha mamlakatlar manfaatini o'ziga tortadi. Mamlakatning savdo, ishlab chiqarish, valyuta-moliya sohalaridagi jahon tamoyillariga bog'liqlik obyektiv reallik hisoblanadi. Hozirgi davrda har qanday mamlakatni uning iqtisodiyoti qanday rivojlangan bo'lishidan qat'iy nazar, jahon xo'jaligi aloqalariga jalb qilmasdan to'laqonli iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash mumkin emas. SHu sababli Prezidentimiz SH.Mirziyoev «jahon ishlab chiqarish tizimiga, dunyo bozori talablariga va iqtisodiy integratsiya jarayonlariga hamohang bo'lishimiz lozim»¹, deb ta'kidlaydi.

Shuni amalga oshirish maqsadida “davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatidagi o'rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish”⁴³ strategik vazifa sifatida qo'yildi.

Dunyo bir-biridan maqsadlari, amal qilish mexanizmi bilan farqlanuvchi turli xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar, xalqaro guruhlariga bo'lingan. Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlash har xil mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Turli mamlakatlarning **iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarining** turli-tumanligi ular taraqqiyot darajasini qandaydir bitta nuqtai-

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисининг Сенати ва Қонунчилик палатасига Мурожаатномаси (24.01.2020) Халқ сўзи газетаси, 2020 йил 25 январь.

⁴³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги, ПФ-4947-сонли Фармони, 1-илова.

nazardan baholash imkonini bermaydi. Shunga ko‘ra, mazkur maqsad-da bir necha asosiy ko‘rsatkich va mezonlardan foydalaniladi:

- mutloq va nisbiy YAIM;
- milliy daromad va uning aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi miqdori;
- milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasi;
- mamlakat eksporti va importi tarkibiy tuzilmasi;
- aholining turmush darajasi, sifati va boshqalar.

Mamlakatning jahon xo‘jaligidagi o‘rnini aniqlashda bir necha yondashuvlar mavjud. Ulardan eng oddiylari – mamlakatlarni **aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi daromad darajasi** bo‘yicha guruhlariga ajratish hisoblanadi. Bunday yondashuv BMT, Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon tiklanish va taraqqiyot banki (JTTB) tomonidan qo‘llaniladi. Masalan, JTTB daromad darajasiga ko‘ra mamlakatlarning uchta guruhini farqlaydi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi milliy daromadlarning quyidagi chegaraviy miqdorlari belgilangan:

- daromadlarning past darajasi – 765 dollargacha (49 ta mamlakat);
- daromadlarning o‘rtacha darajasi – 766 dollardan 9385 dollargacha (58 ta mamlakat);
- daromadlarning yuqori darajasi – 9386 dollar va undan yuqori (26 ta mamlakat).

Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlashga umumiy asosda yondashib **xo‘jalik tizimlarining xususiyatlariga** mos ravishda davlatlarning uchta guruhini ajratib ko‘rsatish mumkin: rivojlangan, bozor iqtisodiyotiga asoslangan holda rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyoti mavjud bo‘lmagan mamlakatlar. **Rivojlanganlik darajasi** bo‘yicha ham o‘z navbatida uchta guruh farqlanadi: past, o‘rtacha va yuqori rivojlangan mamlakatlar. Shimoli-sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlar (YAIM), yuqori daromadli neft eksport qiluvchi mamlakatlar (Saudiya Arabistoni, Quvayt va boshqalar), eng kam rivojlangan mamlakatlar (EKRM), shu jumladan eng kambag‘al mamlakatlar (Chad, Bangladesh, Efiopiya), har xil mintaqaviy ittifoqlar va baynalminal guruhlariga ajratiladi. Bu barcha turli-tumanlik bir butun yaxlitlikka o‘zaro iqtisodiy bog‘liqlikning har xil jihatlari orqali tortiladi. Hozirgi xo‘jalik aloqalarining chuqurlashib borayotganligi, baynalminallashuvning kuchayishi hamda fan-texnika

inqilobining keng qamrovli tavsifi, aloqa va kommunikatsiya vositalarining butunlay yangi roli sharoitida milliy iqtisodiyot o'z-o'zini ta'minlash orqali samarali amal qilishi mumkin emas.

Jahon xo'jalik aloqalarining tez o'sishi shunday davrlarga to'g'ri keladiki, bu davrda ishlab chiqarish omillarining harakati tezlashadi, kapital milliy chegaradan chiqadi, ishchi kuchi migratsiyasi kuchayadi, xalqaro mehnat taqsimotining shakllanish jarayoni tezlashadi. Bu shundan guvohlik beradiki, xo'jalik aloqalarining baynalminallashuvini ko'p jihatdan ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish mantiqi taqozo qiladi, ya'ni u milliy chegaradan o'sib chiqadi va obyektiv ravishda ishlab chiqarishning baynalminallashuvini zarur qilib qo'yadi.

Ishlab chiqarish yoki iqtisodiy hayotning baynalminallashuvi – bu mamlakatlarning jahon miqyosida iqtisodiy aloqalarining kuchayishi hamda iqtisodiy munosabatlarning tobora kengroq jabhalarini qamrab olish jarayoni hisoblanadi.

Barcha iqtisodiy jarayonlarning baynalminallashuvi natijasida jahon xo'jaligining quyidagi tarkibi vujudga keldi:

- 1) tovar va xizmatlar jahon bozori;
- 2) kapitallar jahon bozori;
- 3) ishchi kuchi jahon bozori;
- 4) xalqaro valyuta tizimi;
- 5) xalqaro kredit-moliya tizimi.

Bundan tashqari, baynalminallashuv axborotlar, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari, madaniyat sohalarida ham rivojlanmoqda. YA gona ilmiy-axborot makoni shakllanmoqda.

Xalqaro savdo milliy davlatlarning paydo bo'lishi bilan ular orasidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalarning ifodasi sifatida qadimdan amal qilib kelgan bo'lsada, bu hali jahon bozori mavjudligini anglatmas edi. Jahon bozori faqat yirik mashinalashgan sanoatning paydo bo'lishi bilan dastlab bir qator mamlakatlar o'rtasida vujudga kelib, XX asrning boshlarida jahonning barcha mamlakatlarini qamrab oldi.

Alohida mamlakatlar milliy bozori hamda jahon bozori farqlanadi. Jahon bozori bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Agar milliy bozorda tovarlar harakati iqtisodiy omillar (ishlab chiqarish aloqalari, transport, xomashyo, mehnat resurslari va h.k.) bilan bog'liq bo'lsa, tovarlarning jahon bozoriga bu omillardan tashqari alohida davlatlarning tashqi iqtisodiy siyosati ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi.

Milliy xo‘jaliklar va ular o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar negizida shakllangan jahon xo‘jaligi asosida xalqaro mehnat taqsimoti yotadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlarning ma‘lum turlarini ishlab chiqarish bo‘yicha ixtisoslashuvini ifodalaydi. Alohida mamlakatlarning bunday ixtisoslashuvi mahsulotlari ustun darajada eksportga yo‘naltirilgan xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlarning shakllanishiga olib keladi.

Dastlabki vaqtlarda xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi asosan tabiiy sharoitlardagi tafovutlarga asoslangan edi. Binobarin, faqat sanoat to‘ntarishidan keyin, ya‘ni ishlab chiqaruvchi kuchlar baynalminal xususiyat kasb etib, milliy xo‘jaliklar doirasidan tashqariga o‘sib chiqa boshlagach, ularning negizida barqaror mehnat taqsimoti va jahon bozori tarkib topadi. Hozirgi vaqtda xalqaro mehnat taqsimoti turli ijtimoiy tizimlarni o‘z ichiga oluvchi umumjahon xo‘jaligi doirasida rivojlanmoqda.

Xalqaro mehnat taqsimoti va ayirboshlashda qatnashayotgan mamlakatlar bir xil sharoitda emas. Bu hol ularning turli geografik ahvoli, tabiiy resurslarining tarkibi va miqdori, rivojlanish ko‘lami, darajasi va iqtisodiyotining tuzilishi, ichki bozorning hajmi bilan belgilanadi.

Ana shu farqlar sababli ayrim mamlakatlarda bir xil tovarlarni ishlab chiqarishdagi xarajatlar darajasi ham turlicha bo‘ladi. SHuning uchun har bir mamlakat o‘zi nisbatan qulayroq, kamroq xarajat bilan ishlab chiqaradigan tovarlarni boshqa mamlakatlarga sotishga harakat qiladi. Aksincha, ishlab chiqarish nisbatan ko‘proq xarajat talab qiladigan yoki tabiiy va boshqa sharoitlarga ko‘ra umuman ishlab chiqarib bo‘lmaydigan tovarlarni jahon bozoridan sotib olishga intiladi.

Tovarlar mamlakatlar o‘rtasida jahon narxlari asosida ayirboshlanadi. Ular **baynalminal qiymatga** asoslanadi. Buning ma‘nosi shuki, **ijtimoiy zaruriy baynalminal mehnat sarflari** jahon bozorida e‘tirof qilinadi. Umuman olganda, jahon narxlarining tashkil topishi odatda sof holda amalga oshmaydi. Baynalminal qiymatning hosil bo‘lishiga to‘sqinlik qiluvchi maxsus omillar jahon narxlariga ta‘sir qiladi. Tashqi savdo va valyuta cheklovlari, valyutalar qiymatining o‘zgarib turishi, xalqaro monopoliyalar siyosati, birjadagi chayqovchiliklar va hokazolar shular jumlasidandir. Shu sababli ayrim mamlakatlarning jahon bozoridagi raqobatlashuv qobiliyatidagi

farqlar, pirovard natijada mehnat unumdorligining milliy darajadagi farqlarini aks ettiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda keyingi o'n yilliklarda yangi texnologik asoslarga o'tish jahon xo'jalik aloqalarining tez o'sishi bilan birga bordi. Takror ishlab chiqarish jarayonlarining baynalminallashuvi o'zining har ikkala shaklida: **integratsion** (milliy xo'jaliklarning yaqinlashuvi, o'zaro moslashuvi orqali) va **transmilliy** (xalqaro ishlab chiqarish majmuasining tuzilishi orqali) shakllarida kuchayadi. Jumladan, butun dunyoda mintaqaviy davlatlararo iqtisodiy integratsiyaning qaror topish tamoyili kuzatiladi. Xususan, rivojlangan Yevropa integratsion hamjamiyati (EI) doirasida tovarlar, xizmatlar va ishchi kuchining erkin harakati amalga oshiriladi. Shimoliy Amerika umumiy iqtisodiy hamkorligi AQSH, Kanada va Meksika iqtisodiyotining integratsiyasini ko'zda tutadi. Davlatlararo integratsiyaning kuchayishi janubiy-sharqiy Osiyo, O'rta Osiyo, arab dunyosi, Afrika va Markaziy Amerika mamlakatlari uchun ham xususiyatli bo'lmoqda.

5.2. Jahon xo'jaligining globallashuvi yo'nalishlari va ziddiyatlari

Iqtisodiy hayotning baynalminallashuvi bilan bir qatorda globallashuvi jarayoni ham muhim o'rin tutadi. Bu har ikkala tushuncha o'zaro bog'liq bo'lib, ular jahon xo'jaligi subyektlarining umumiy maqsadlarga erishish yo'lidagi xatti-harakatlarining birlashuvi jarayonini aks ettiradi. SHuningdek, bu tushunchalar bir-biridan farqlanadi. Birinchidan, ular bir xilda bo'lmagan xo'jalik birlashmalari miqyoslarini ifodalaydilar. Oldingi o'rinda ko'rsatilganidek, baynalminallashuv jahon xo'jaligining bir necha subyektlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar o'rnatilishi va rivojlanishining dastlabki bosqichi hisoblanadi. **Globallashuv (lotincha globus – er kurrasi) jahon xo'jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimining tashkil topishi va rivojlanishini anglatadi.** Bugungi kunda globallashuv jarayoni ahamiyatining tobora oshib borishi iqtisodiy adabiyotlarda uning rivojlanish yo'nalishlari va ziddiyatlari kabi masalalarning ham ko'rib chiqilishini taqozo etmoqda⁴⁴.

⁴⁴ Борисов Е.Ф. Экономическая теория: учеб. – 4-е изд., перераб. и доп. – М. : Высшее образование, 2008, с.514-524.

Globallashuv uzoq vaqt davomida tarkib topuvchi hamda butun borliqni qamrab oluvchi bashariyat miqyosidagi iqtisodiy tizimni namoyon etadi. Hozirda u jahon xo‘jaligining umumjahon tavsifiga ega hamda yaxlit holda butun insoniyatga taalluqli bo‘lgan ma’lum bir unsurlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Shunga ko‘ra, hozirgi vaqtda jahon xo‘jaligining globallashuv yo‘lidagi rivojlanishining dastlabki qadamlari, yo‘nalishlari amalga oshmoqda. Globallashuvning yo‘nalishlari makroiqtisodiyotga nisbatan sifat jihatidan yangi bo‘lgan iqtisodiy munosabatlar turining tarkib topishiga olib keladi. Globallashuv jarayonining quyidagi yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchi yo‘nalish – **mulkchilik munosabatlarining globallashuvi.** Hozirda mulkiy o‘zlashtirishning mamlakatlar hududidan chetga chiquvchi, ko‘plab davlatlarning ishtiroki asosida ro‘y beruvchi ko‘rinishlari amal qilmoqda. Bularga transmilliy korporatsiyalar (TMK), shuningdek TMKning xalqaro birlashmalarini misol keltirish mumkin.

Yevropa ittifoqi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mintaqaviy integratsiyalashuv milliy tuzilmalardan yuqori turuvchi organlarni tarkib toptirishi mumkin. Bu organlar YeIga a‘zo davlatlarning mulkchilik munosabatlarini ham ma’lum darajada tartibga soladi.

Ikkinchi yo‘nalish – **kooperatsiya va mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajasiga o‘tish.** Yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar hozirgi zamon murakkab mehnat kooperatsiyasiga xos bo‘lgan xo‘jalik o‘zaro aloqalarining juda katta tarmog‘iga kirishib ketganlar. Eng mukammal texnika vositalarini yaratishda turli mamlakatlardan yetkazib beriluvchi ko‘plab butlovchi qismlardan foydalaniladi. Masalan, AQSH «Boing» samolyotini ishlab chiqarishda butlovchi qism va detallarni mingga yaqin xorijiy firmalardan oladi.

Uchinchi yo‘nalish – **xo‘jalikni tashkil etishning butunlay yangi shakllarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.** Jahonda xo‘jalik aloqalarini tashkil etish shakllarining tubdan o‘zgarishi ko‘p jihatdan axborot tarqatishning globallashuvi bilan bog‘liq. Jumladan, yangi asrimizning dastlabki davri uchun quyidagi jarayonlar xos: a) butun jahonni to‘liq kompyuterlashtirishni taqozo etuvchi global axborot tizimlari (Internet) yanada rivojlanadi; b) sun‘iy yo‘ldoshlar imkoniyatlaridan foydalanishning yangi tizimi uyali telefon aloqasidan

yo‘ldoshlar orqali ta‘minlanuvchi global aloqaga o‘tish imkonini beradi; v) insoniyat ochiq axborotlari rivojlangan jamiyat tomon intiladi; g) Internet orqali savdo tizimi keng rivojlanadi.

To‘rtinchi yo‘nalish – **xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning tartibiga soluvchi roli rivojlanadi.** Jahon xo‘jaligi subyektlarining o‘zaro aloqasi hamda o‘zaro bog‘liqligining kengayishi va kuchayishi global muammolarni hal etishda tobora ko‘proq davlatlarning ishtirok etishini taqozo etadi. Bunga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan chiqish va uning salbiy ta‘sirini yumshatish maqsadida 20 ta rivojlangan mamlakatlar ishtirokida o‘tkazilgan Sammitlarni misol qilib keltirish mumkin. Bu va shunga o‘xshash muammolarning murakkablashuvi ularning o‘z vaqtida va tezkorlik bilan hal etilishida hukumatlararo va nohukumat (ishlab chiqaruvchilar, kompaniyalar va firmalar, ilmiy jamiyatlar va boshqa tashkilotlarning birlashmalari) xalqaro iqtisodiy tashkilotlarining birgalikdagi faoliyatini zaruriyatga aylantiradi.

Shuningdek, jahon xo‘jaligi globallasuvi jarayonlarining **ziddiyatli tomonlari** ham mavjud. Bu ziddiyatlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

1) turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishning bir tekisda bormasligi.

Iqtisodiy o‘shishning jadallashuvida ilmiy-texnika inqilobi (ITI) hal qiluvchi rol o‘ynaydi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib yangi texnika va texnologiyalarga «sakrab» o‘tilishi o‘ziga xos «tutash zanjir» hosil qildi. Global miqyosdagi axborotlashtirish natijasida turli mamlakatlarning texnologik jihatdan baravarlashuvi tendensiyasi kuchaydi. Axborot, aloqa va transport vositalari rivojlanishidagi texnikaviy to‘ntarish er sharining barcha mintaqalarida ITI yutuqlarini tezlik bilan o‘zlashtirish imkonini berdi. Natijada, bir mamlakatda yaratilgan yangi texnika va texnologiyalar, sun‘iy to‘siqlarni bartaraf etgan holda, jahon bo‘yicha tezlik bilan tarqalmoqda. Biroq, XX asrning oxiriga kelib, jahon xo‘jaligidagi iqtisodiy o‘shish sur‘atlarida jiddiy tafovutlar sezilmoqda. Birinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarishning ko‘payish tezligi juda o‘sib ketdi. Aholi jon boshiga YAIM o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlar soni ko‘paydi. Ikkinchidan, iqtisodiy rivojlanish sur‘atlaridagi tafovutlar natijasida g‘arb mamlakatlari iqtisodiy qudratining sekin-asta, biroq muntazam ravishdagi nisbatan pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Ba'zi mamlakatlar o'zlarining iqtisodiy o'sish sur'atlarini sezilarli darajada oshirgan holda zamonaviy sanoatlashgan ishlab chiqarishning eng yuqori darajasiga erishishga harakat qilmoqdalar. Masalan, 1970-1980 yillarda yangi industrial mamlakatlarning «dastlabki avlodi» – Koreya Respublikasi, Tayvan, Singapur va Gonkong ancha tez sur'atlarda rivojlandi. 1990 yillarning oxiriga kelib yangi industrial mamlakatlarning «ikkinchi avlodi» – Indoneziya, Filippin, Malayziya, Tailand jadal sur'atda taraqqiy etdi. Ular rivojlangan mamlakatlar bilan nafaqat an'anaviy ishlab chiqarish sohalari, balki murakkab texnika mahsulotlari, jumladan ishlab chiqarish vositalari bozori bo'yicha raqobatlasha boshladilar. Biroq, hali jahon xo'jaligi tarkibida ishlab chiqarishning sanoatlashuvi darajasiga etmagan, taraqqiyotda ilgarilab ketgan mamlakatlarga etib olish uchun zarur resurslarga ega bo'lmagan ko'plab mamlakatlar ham mavjud.

2) boy va qashshoq mamlakatlar o'rtasidagi farqning kuchayishi.

Jahon miqyosida yaratilgan mahsulot va daromadlarning turli mamlakatlar o'rtasidagi taqsimoti o'ta darajada notekis bormoqda. XX asrda er shari aholisining eng boy chorak qismi YAIMning o'rtacha jon boshiga 6 baravar o'sishiga erishgan bo'lsa, eng kambag'al chorak qismi esa bu ko'rsatkichning 3 baravar o'sishiga erishgan holos.

BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi davrda jahonda ochlikka mahkum kishilar soni 500 mln.ga yetadi, ularning deyarli yarmi ochlik va to'yib ovqatlanmaslik hamda buning oqibatida kelib chiquvchi turli kasalliklar natijasida o'limga mahkumdirlar. 1 mlrd.dan ortiq kishilar yetarli darajada ovqatlanmaslik muammosiga duch kelmoqdalar. SHuningdek, «yashirin ochlik» – sifatli va to'liq ovqatlanmaslik ham keng tarqalgan. Shunga qaramay, fan va texnikaning zamonaviy darajasi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ahamiyatli darajada ko'paytirish imkonini berib, u nafaqat hozir, balki kelgusida yashashi mumkin bo'lgan barcha aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondira oladi.

3) ekologik halokat tahdidlarining kuchayib borishi.

Insoniyat taraqqiyotining butun tarixi davomida xo'jalik faoliyatining tabiatga ta'siri u qadar ahamiyatli bo'lmay, tabiat o'zining ekologik muvozanatini qayta tiklashga qodir bo'lib kelgan. Biroq, hozirga

kelib, atrof-muhitga ko'rsatilayotgan ta'sir shunchalik kuchayib ketdiki, natijada tabiat o'zini-o'zi qayta tiklash qobiliyatini yo'qotib bormoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, keyingi 200 yil ichida er yuzidagi 900 mingga yaqin turdagi o'simlik va hayvonlar qirilib ketgan.

Foydali qazilmalarning ba'zi bir qayta tiklanmas zaxiralari tugab bormoqda, o'rmon materiallari resurslari va xomashyoning boshqa turlari qayta tiklanib ulgurmayapti. Er yuzidagi iqlimning o'zgarishi, ozon qatlamining siyraklashuvi, boshqa halokatli jarayonlarning kuchayishi sivilizatsiyaga jiddiy tahdid solmoqda.

Ishlab chiqarishning tabiiy muhitga salbiy ta'sirining oldini olish maqsadida tozalash qurilmalari va boshqa ekologik himoya vositalarini barpo etish uchun yirik kapital qo'yilmalar talab etiladi. Global ekologik muammolarni hal etish uchun butun dunyo mamlakatlari va xalqlarining kuchlarini birlashtirish lozim bo'ladi.

4) turli mamlakatlarda aholi soni o'zgarishining farqlanishi.

Yana bir global ziddiyat sifatida XX asrning ikkinchi yarmida boshlangan demografik «portlashlar», ya'ni er shari aholisi sonining jadal o'sishi ko'rsatiladi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining tez o'sishi bir qator jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Ba'zi bir mamlakatlardagi aholi sonining ko'payishi natijasida ratsional xo'jalik yuritishga to'sqinlik qiluvchi aholining nisbiy ortiqchaligi belgilari ko'zga tashlanadi. Ishlab chiqarish hajmining ko'payishiga qaramay aholi jon boshiga iste'mol, ayniqsa rivojlangan mamlakatlardagi iste'mol darajasi bilan taqqoslaganda kishilarning haqiqiy ehtiyojlariga qaraganda past darajada qolmoqda. Bu kabi holatlardan ba'zi bir demograf-olimlar asossiz ravishda, keskin xulosalar chiqarib, aholi nufusi jarayonlari ustidan davlat miqyosidagi nazoratlarning o'rnatilishi, jumladan oilani rejalashtirish dasturlarini ishlab chiqish kabi da'volarini kuchaytirmoqdalar. Bunday asossiz dasturlardan ko'ra, ular bu mamlakatlarda yangi texnika va texnologiya asosida ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish dasturini taklif qilsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, hozirda jahon miqyosida yuz berayotgan globallashuv jarayonlari o'zining ijobiy yo'nalishlari va ziddiyatlariga ega bo'lib, bu jihatlarning nisbatini tartibga solishda dunyoning barcha mamlakatlarining faol ishtiroki va birlashuvi talab etiladi.

Xulosalar

1. Ishlab chiqarish yoki iqtisodiy hayotning baynalminallashuvi – bu iqtisodiy aloqalarning jahon miqyosida kuchayishi hamda iqtisodiy munosabatlarning tobora kengroq jabhalarini qamrab olishi jarayoni hisoblanadi.

2. Iqtisodiy hayotning baynalminallashuvi bilan bir qatorda globallashuv jarayoni ham muhim o‘rin tutadi. Globallashuv jahon xo‘jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar yagona tarmog‘ining tashkil topishi va rivojlanishini anglatadi. Globallashuv jarayonining mulkchilik munosabatlarining globallashuvi; kooperatsiya va mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajasiga o‘tish; xo‘jalikni tashkil etishning butunlay yangi shakllarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi; xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning tartibga soluvchi roli rivojlanishi kabi yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, jahon xo‘jaligi globalashuvi jarayonlarining turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishining bir tekisda bormasligi; boy va qashshoq mamlakatlar o‘rtasidagi farqning kuchayishi; ekologik halokat tahdidlarining kuchayib borishi; turli mamlakatlarda aholi soni o‘zgarishining farqlanishi kabi ziddiyatli tomonlari ham mavjud.

3. Xalqaro mehnat taqsimoti (XMT) alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlarning ma‘lum turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini ifodalaydi. Alohida mamlakatlarning bunday ixtisoslashuvi mahsulotlari ustun darajada eksportga yo‘naltirilgan xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlarning shakllanishiga olib keladi.

4. Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishi natijasida jahon bozori tarkib topadi. Jahon bozoriga tovar va xizmatlarning xalqaro harakati sifatida qarash mumkin. Jahon bozori o‘zining rivojlanishida bir qator bosqichlardan o‘tadiki, ulardan har biri milliy xo‘jalikning xalqaro iqtisodiy munosabatlarga jalb qilinishining ma‘lum darajasi bilan tavsiflanadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Ishlab chiqarish yoki iqtisodiy hayotning baynalminallashuvi
– mamlakatlarning jahon miqyosida iqtisodiy aloqalarining kuchayishi

hamda iqtisodiy munosabatlarning tobora kengroq jabhalarini qamrab olishi jarayoni.

Xalqaro mehnat taqsimoti – alohida olingan mamlakatlarning tovar va xizmatlarning ayrim turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi.

Globalashuv – jahon xo‘jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar yagona tarmog‘ining tashkil topishi va rivojlanishi.

Kapitalning xalqaro harakati – kapitalning chet elda joylash-tirilishi va harakat qilishi.

Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi – ishchi kuchi resurslari-ning ancha qulay sharoitda ish bilan ta‘minlanish maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko‘chib o‘tishi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlash qanday mezon-larga asoslanadi? Ularni turkumlash bo‘yicha hozirgi davrdagi yondo-shuvlarga asoslanib davlatlarning asosiy guruhlarini ajratib ko‘rsating.

2. Iqtisodiy hayotning baynalminallashuvi jarayonining mohiyati nimadan iborat?

3. Globalashuv jarayoni nima va uning qanday yo‘nalishlari mav-jud? Globalashuv jarayonining ziddiyatli jihatlarini gapirib bering.

4. Xalqaro mehnat taqsimoti qanday tamoyillarga asoslanadi? Unda tabiiy sharoitdagi tafovutlar qanday rol o‘ynaydi?

5. Jahon narxlari qanday qiymatga asoslanadi? Jahon narxlariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tavsifini bering.

6. Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi to‘g‘risida tushuncha bering. Xalqaro migrantlar qanday toifalarga ajratiladi?

7. Jahon infratuzilmasi tarkibiy qismlarining tavsifini bering va ularning har birining ahamiyatini ko‘rsating.

6-BOB. TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI HORIJIY INVESTITSIYALAR

Reja

1. Xalqaro kapital harakatining mohiyati va shakllari
2. To‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel investitsiyalari
3. Erkin iqtisodiy zonalar
4. Xalqaro kreditlar. Jahon qarzlari inqirozi.

Investitsiya qilish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel (bilvosita) investitsiyalar ajratiladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar - bu investitsiya obyektini to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarish va boshqarish maqsadida korxonalar (firmalar, kompaniyalar) kapitaliga investitsiyalar.

Ular nafaqat daromad olishni emas, balki ta’sir doirasini kengaytirishga, kelajakda moliyaviy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan.

Portfel investitsiyalari - bu daromad olish maqsadida (investitsiya obyektlarining bozor qiymatini oshirish, dividendlar, foizlar, boshqa naqd to‘lovlar shaklida) va xatarlarni diversifikatsiya qilish uchun iqtisodiy aktivlarga investitsiya qilingan mablag‘lar. Qoidaga ko‘ra, portfel investitsiyalari - bu boshqa emitentlarning qimmatli qog‘ozlarini va boshqa aktivlarni sotib olishga investitsiyalar.

Ko‘pincha real va moliyaviy investitsiyalar mos ravishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel sifatida ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, ba’zi hollarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar ishlab chiqarishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni anglatadi, portfel investitsiyalari esa qimmatli qog‘ozlarni sotib olishni anglatadi. bu holda tasniflash mezonini investitsiya obyektining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, bunday identifikatsiyalash xato, chunki real investitsiyalar, ishlab chiqarish kapitalining jismoniy elementlariga investitsiyalardan tashqari, aytib o‘tilganidek, boshqa real shakllarga investitsiyalarni o‘z ichiga oladi va moliyaviy investitsiyalar nafaqat qimmatli qog‘ozlarga, balki investitsiyalarga ham tegishli. boshqa moliyaviy vositalar. Bundan tashqari, faqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni ishlab chiqarish investitsiyalariga investitsiya kiritish, chunki portfel investitsiyalarining bir qismi (sanoat korxonalarining qimmatli qog‘ozlariga ularni

dastlabki joylashtirishda qo‘yiladigan investitsiyalar) ishlab chiqarishga investorlarning mablag‘larini jalb qilish uchun mo‘ljallangan.

Boshqa hollarda, turli xil investitsiya guruhlarini aralashtirish, ularni tasniflashda ishlatiladigan aniq mezonlar mavjud emasligi sababli sodir bo‘ladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, real va moliyaviy investitsiyalarni taqsimlash investitsiya obyektiga qarab amalga oshiriladi, investitsiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfelli investitsiyalarga ajratish uchun asos sifat jihatidan farq qiluvchi mezon – investitsiya maqsadlaridan foydalanadi.

Xususan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarish va boshqarishni o‘rnatishga yo‘naltirilgan investitsiyalar nafaqat real iqtisodiy aktivlarda, balki moliyaviy vositalarda ham amalga oshirilishi mumkin. Investitsion obyektning boshqarish qobiliyati nazorat ulushini va boshqa ishtirok etish shakllarini sotib olish orqali ta’minlanadi. Portfel investitsiyalari - bu joriy daromad olishga yo‘naltirilgan investitsiyalar.

Binobarin, real va moliyaviy investitsiyalar, bir tomondan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel investitsiyalar, boshqa tomondan investitsiyalarning har xil turlari sifatida namoyon bo‘ladi.

6.1. Xalqaro kapital harakatining mohiyati va shakllari

Yuzlab yillar davomida jahon savdosi xalqaro iqtisodiy munosabatlarda o‘z mavqeini egallab kelgan. Biroq, XX asr oxirida. mutloq yetakchi - bu kapitalning erkin harakati.

Shakllangan **monetaristik falsafa** - milliy chegaralar va suverenitetni tan olmaydigan ochiq global moliyaviy makonni yaratish texnologiyasi. Bu, ayniqsa, jahon moliyaviy piramidalarini yaratishda namoyon bo‘ldi. Qayta taqsimlanadigan ishlab chiqarish amaliyotini almashtirish amalga oshirildi. Ilgari asosiy daromad real ishlab chiqarish jarayonida olingan bo‘lsa, endi bu valyuta kurslari bilan o‘ynash natijasida olinmoqda. Virtual “moliyaviy iqtisod” yoki pul evaziga pul ishlab chiqarish (sudxo‘rlik, qarz foizlari) xristianlik va Islom tomonidan inson tabiatiga zid ravishda qoralanadi.

Xalqaro kapital harakati jahon iqtisodiyoti faoliyatida hal qiluvchi element hisoblanadi. XXI asr boshlarida. Yillik valyuta aylanmasi 400 trln. tovarlarning jahon savdosidan 80 baravar yuqori. O‘rtacha kunlik

bozor aylanmasi 5 trln. dollar. Xalqaro hisob-kitoblar bankining ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda dunyoda har yili 5,3 trln. va 9,8 trln. AQSh dollari miqdoridagi bank kreditlari berildi. Ikkinchi Jahon Urushidan keyin dinamik ravishda rivojlanib borgan jahon savdosi kapital harakatiga ta'sir qila boshladi. O'tgan asrning 90-yillarida dunyo bo'yicha tovarlar va xizmatlar eksporti mos ravishda 5 va 1,2 trln AQSh dollarini tashkil qildi.

Kapitalning xalqaro harakati ishlab chiqarish omillaridan biri harakati tufayli vujudga keladi, uning iqtisodiy shart-sharoitlari bitta mamlakatda boshqa mamlakatlarga qaraganda samaraliroq.

Xalqaro investitsiyalar turlicha kelib chiqish manbalari, tabiati, foydalanish vaqti va maqsadi.

O'zlarining tabiati va shakllariga ko'ra, xorijiy investitsiyalar boshqacha bo'lishi mumkin.

Kelib chiqishi manbasi bo'yicha xorijiy investitsiyalar quyidagicha ajratiladi:

Davlat kapital qo'yilmalar (rasmiy) - bu chet elga yuboriladigan yoki to'g'ridan-to'g'ri hukumatlar yoki hukumatlararo tashkilotlarning qaroriga binoan olingan davlat budjeti mablag'lari. Bular xalqaro kreditlar, hukumatlararo bitimlar bilan belgilanadigan davlat kreditlari, ssudalar, grantlar, yordamlardir. Bunga xalqaro tashkilotlarning kreditlari va boshqa mablag'lari ham kiradi.

Xususiy kapital - bu nodavlat manbalardan chet elga joylashtirilgan yoki chet eldan xususiy shaxslar tomonidan (yuridik yoki jismoniy shaxslar) olingan mablag'lar. Bularga investitsiyalar, savdo kreditlari, banklararo kreditlar kiradi; ular davlat budjetiga bevosita bog'liq emas. Ammo hukumat ularning harakatlarini diqqat bilan kuzatib boradi va o'z vakolatlari doirasida ularni boshqarishi va tartibga solishi mumkin. Amalda, davlat mablag'larini xususiy investitsiyalarga aylantirishning juda nozik usullari mavjud.

Joylashtirish shartlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli bo'lingan.

Foydalanish xarakteriga ko'rachet el investitsiyalari kredit va tadbirkorlikdir.

Kredit investitsiyalari deganda foizlar ko'rinishidagi foizlarni berish tushuniladi.

Tadbirkorlik investitsiyalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita ishlab chiqarishga investitsiya qilinadi va foyda olish huquqining ma'lum hajmini dividend shaklida olish bilan bog‘liq.

Maqsad bo‘yicha tadbirkor investitsiyalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel investitsiyalariga bo‘linadi.

Tarixan kapitalning eksporti kam rivojlangan mamlakatlarning kapitalini past orqaga qarab eksport qilish shaklida shakllangan.

Jahon iqtisodiyotining doimiy rivojlanishi kapital eksportini har qanday mamlakat iqtisodiyotining samarali ishlashi uchun zarur shartga aylantirdi. Shu bilan birga, nafaqat sanoatlashgan davlatlar, balki o‘rta rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar ham kapitalni eksport qilmoqdalar. Bundan tashqari, har bir mamlakat kapitalni eksport qiluvchi va import qiluvchi hisoblanadi. Kapital harakati bir tomonlama va istiqbolga qadar rivojlandi. Haqiqiy global kapital bozori jahon moliya bozorining bir qismi sifatida rivojlandi.

Pul bozori qisqa muddatli to‘lov vositalariga talab va taklif nisbatlarini aniqlaydi. Bu odatda tovarlarni sotib olish va xizmatlar uchun to‘lovlarni to‘lash uchun taqdim etiladigan xalqaro tijorat kreditidir. Qisqa muddatli kapitalning harakati xalqaro valyuta bozorida tuzilgan barcha qarzlarni yoki zayomlarni o‘z ichiga oladi.

O‘rta va uzoq muddatli kreditlar global kredit bozorining bir qismi bo‘lib, ayni paytda global kapital bozorining ajralmas qismidir.

Jahon kapital bozori investitsiyalar ko‘rinishidagi uzoq muddatli aktivlarning harakatini tartibga soladi. Uzoq muddatli kapital harakati chet el mamlakatlariga uzoq muddatli va qaytarib beriladigan to‘lovlar - foizlar, asosiy qarzlarni uchun berilgan barcha kapital o‘tkazmalarini o‘z ichiga oladi.

Kapitalni eksport qilish sabablari

Ko‘proq foyda olish uchun kapitalni eksport qilishning eng muhim sabablari quyidagilar:

1. Eksport qilinadigan mamlakatda kapitalning to‘planishi.
2. Jahon iqtisodiyotining turli qismlarida kapitalga talab va uning taklifining nomutanosibligi.
3. Mahalliy bozorni monopollashtirish imkoniyatining mavjudligi.
4. Kapital eksport qilinadigan, arzonroq xom ashyo va ishchi kuchi bo‘lgan mamlakatlarda mavjudligi.
5. Barqaror siyosiy vaziyat va umuman qulay investitsiya muhiti.

To'g'ridan-to'g'ri va portfel xorijiy investitsiyalari.

«Investitsiya» atamasi lotin tilidagi «invest» so'zidan kelib chiqqan bo'lib «qo'yish», «mablag'ni safarbar etish», «kapital qo'yilmasi» ma'nosini beradi. Keng ma'noda investitsiya mablag'ni ko'paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Ko'pgina hollarda «investitsiya» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta'riflanadi. Investitsiya deganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya xususida qonuniy hujjatlar 1991 yildan boshlab qabul qilindi va o'tgan vaqt ichida ular ancha takomillashtirildi. Investitsiya to'g'risida O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunda ko'rsatilishicha, investitsiya bu iqtisodiy samara (foйда, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir. Bu iqtisodiy ta'rif investitsiyaning bozor iqtisodiyoti sharoitida to'laligicha faoliyat ko'rsatishini aniq tasdiqlaydi. Jumladan, unda, birinchidan, investitsiyaning o'ziga va investitsiya faoliyatining obyektlariga keng ta'rif berilgan; ikkinchidan, investitsiyaning bevosita iqtisodiy va ijtimoiy samara olishga muqarrar bog'liqligi ta'kidlab o'tilgan. Demak, investitsiyaga bozor munosabatlaridan kelib chiqib berilgan ta'rifning o'zidayoq investitsion jarayonning hajmi, asosiy bosqichlari, ya'ni jamg'armalar (resurslar), qo'yilma mablag'lar (sarf-xarajatlar), samara (daromad, foyda) aniq, va ravshan ko'rsatib o'tilgan. Xuddi shu kabi yondashuv investitsion faoliyatning bozor munosabatlariga o'tishi uchun zamin yaratadi, bu esa, moliyaviy moddiy va aqliy boyliklarni qayta taqsimlashning vertikal va gorizontallardan bir xilda foydalanishni ta'minlab beradi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida investitsiya quyidagicha tasniflanadi:

- Birlamchi (avaylangan) jamg'arilgan kapitalni ko'paytirish maqsadida kapitalni tadbirkorlik obyektlariga joylashtirish;

- Investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida investitsiya faoliyati ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Xorijiy mamlakatlarning tajribasi va investitsiya to'g'risida o'zimizda qabul qilingan qonunlarning tahlilidan kelib chiqib, investitsiyaning shartli ravishda uchta turini ajratish mumkin:

- moliyaviy investitsiyalar;
- moddiy investitsiyalar;
- aqliy (intellektual) investitsiyalar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida shartli bir investitsiya turining o'ziga xos o'rnini bo'ladi. Moliyaviy investitsiyalar tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, depozit sertifikatlar, aksiyalar, obligatsiyalar, veksel'lar va boshqa qimmatli qog'ozlar sharda tenglashtirilgan boyliklar kiradi.

Moddiy investitsiyalar tarkibiga asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbob-uskunalar, inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari kiradi.

Aqliy (intellektual) investitsiyalar miqdori juda rang-barangdir, ya'ni ular mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar aqliy mehnatga oid shakldagi investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat.

Mulkiy huquqlar guruhiga kiradigan investitsiyalarning xillari bozor munosabatlarining nechog'lik rivojlanganligiga, milliy bozorlarning o'ziga xos tomonlariga qarab har xil bo'ladi. Aqliy mehnatga oid haq-huquqlar shaklidagi investitsiyalar tarkibiga mualliflik huquqlari, "nou-xau", kashfiyotlar, tovar belgilariga beriladigan litsenziyalar va boshqa xil egalik huquqlari kiradi.

Investitsiyalar – bu hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapital. O'zining moliyaviy shakliga ko'ra, ular foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar hisoblanasa, iqtisodiy xususiyatiga ko'ra, u yangi korxonalar qurishga, uzoq muddatli xizmat ko'rsatuvchi mashina va asbob uskunalariga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir.

Investitsiyalar xususiy sektor va davlat tomonidan mamlakat ichkarisida va uning tashqarisida turli ishlab chiqarishlarga va qimmatbaho qog'ozlarga (aksiyalar, obligatsiyalar) qo'yilishi mumkin. Investitsiyalar yalpi va sof investitsiyalarga ajratiladi. YAlpi investitsiyalar – bu ishlab chiqarish vositalarining iste'mol qilingan qismini qoplash hamda ularni qo'shimcha o'sishi maqsadida ishlab chiqarish jamg'armalari va aholi mablag'lari qo'yilmalaridir. Boshqacha so'z bilan aytganda, yalpi investitsiyalar o'z ichiga amortizatsiya va sof investitsiyalarni qo'shadi. Sof investitsiyalarni aniqlash uchun yalpi investitsiyalardan amortizatsiya ajratiladi.

YAlpi investitsiyalar va amortizatsiya o'rtasidagi nisbatga qarab iqtisodiyotning ahvoli qanday ekanligini, ya'ni yuksalish, yo turg'unlik yoki pasayish davrini boshidan kechirayotganligini aniqlash mumkin. Agarda, yalpi investitsiyalar amortizatsiyadan ortiq, ya'ni sof investitsiya yuqori bo'lsa, iqtisodiyot yuksalishda bo'ladi, chunki uning ishlab chiqarish quvvatlari o'sadi.

Yalpi investitsiya va amortizatsiya bir-biriga teng bo'lgan chog'da iqtisodiyot turg'unlik holatida bo'ladi. Bu vaziyatda sof investitsiyalar nulgaga barobar va iqtisod shu yilda qancha kapital iste'mol qilgan bo'lsa, uni qoplash uchun shuncha ishlab chiqaradi.

Ishchan faollik pasayib borayotgan iqtisodiyot uchun (assignatsiya holati) yalpi investitsiyalar amortizatsiyadan kam bo'lgan holdagi vaziyat xosdir, ya'ni iqtisodiyotda yil davomida kapital ishlab chiqarilganiga nisbatan ko'proq iste'mol qilinadi. Bunday holatda sof investitsiyalar ishorasi manfiy bo'lib, uning mutloq qisqarishini bildiradi. Natijada, yil oxirida kapital hajmi yil boshidagiga qaraganda kam bo'ladi.

Islohotlar dastlabki bosqichida iqtisodiyotning stagnatsiya holati deyarli barcha hamdo'stlik mamlakatlarida kuzatildi. Korxonalarining ichki investitsiyalash imkoniyatlarini pasayishi bilan bir vaqtda markazlashgan kapital qo'yilmalarning qisqarishi, ishlab chiqarishni tushib ketishiga, milliy mahsulot hajmini mutloq kamayishiga olib keldi.

Investitsiya kiritishda, avvalo:

- investitsiya faoliyati subyektlarning mustaqilligi va tashabbuskorligi;

- kiritilayotgan moddiy ne'matlarga investitsiya maqomini berish (fuqaro o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun olgan buyumlari investitsiya bo'la olmaydi);

- qonun bilan belgilangan investitsiya faoliyatini amalga oshirish imkoniyati yaratilishi zarur bo'lib hisoblanadi.

Investitsiyalar – bu yangi korxonalar qurilishiga, mashina va asbob-uskunalar sotib olishga, ya'ni yangi kapitalni barpo etishga ketgan xarajatlardir. Investitsiyaga ketgan xarajatning miqdori ikki omilga bog'liq: birinchisi – sof foydaning kutilayotgan me'yori, qaysiki uni tadbirkorlar investitsiyaga ketgan xarajatlaridan olishni mo'ljallaydi; ikkinchisi – foiz stavkasi yoki tadbirkor real kapitalni sotib olishga zarur bo'lgan pulga ega bo'lishi uchun to'lashi lozim bo'lgan baho. Agarda, kutilayotgan foyda me'yori foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali va aksincha, foiz stavkasi kutilayotgan foyda me'yoridan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali bo'lmay qoladi.

Investitsiya xarajatlari foyda keltirishini aniqlashda nominal foiz stavkasi emas, balki real foiz stavkasi hisobga olinadi. Real foiz stavka narxlar darajasini o'zgarishini aks ettirib, nominal stavkadan inflyatsiya darajasini ayirmasi ko'rinishida aniqlanadi. Masalan, nominal foiz stavkasi 16%ga teng bo'lsa, inflyatsiya darajasi yiliga 12% tashkil etsa, unda real foiz stavkasi 4% (16%-12%) tashkil etadi. Agarda, bu miqdor kutilayotgan sof foyda me'yoridan past bo'lsa, investitsiya xarajatlari o'sib boradi.

Investitsiya talabining egri chizig'i istalgan investitsiya hajmi (I) va real foiz stavkasi miqdori (r) o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatadi. Real foiz stavkasi, ya'ni pul kapitalini qarzga olish bahosi qanchalik yuqori bo'lsa, investitsiyalashni xohlovchilar shuncha kam bo'ladi va aksincha real foiz stavkasi qanchalik past bo'lsa, foyda keltiradigan investitsiya loyihalari shuncha ko'p bo'ladi. Shuning uchun ham investitsiya funktsiyasi grafigi quyiga qarab og'ma bo'ladi.

Makroiqtisodiy siyosatda foiz stavkasi bilan investitsiya hajmi o'rtasidagi mavjud bog'liqlik hisobga olinadi va keng foydalaniladi. Foiz stavkasining miqdori pul-kredit siyosatining muhim quroli hisoblanadi. Davlat uni o'zgartirish orqali mamlakatdagi pul taklifini tartibga solib turadi. Foiz stavkasini ko'tarilishi pulning qimmatlashuvi va unga bo'lgan talabning qisqarayotganini bildiradi. Demak, investi-

tsiya xarajatlari ham qisqarib boradi. O‘z navbatida, investitsiya xarajatlarini qisqarishi, kelajakda milliy ishlab chiqarish hajmini pasayishini bildiradi.

Investitsiyalar (kapital qo‘yilmalar) milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarining asosiy vositalarini kengaytirilgan tarzda ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan moddiy, mehnat va pul resurslari xarajatlarining yig‘indisi. Investitsiyalar - bu Rossiya iqtisodiyoti uchun nisbatan yangi atama. Markazlashtirilgan rejalashtirish tizimi doirasida “yalpi kapital qo‘yilmalar” tushunchasi ishlatilgan, bu tushunchada asosiy vositalarni takror ishlab chiqarish xarajatlari, shu jumladan ularni ta‘mirlash xarajatlari tushunilgan edi. Investitsiyalar tushunchasi, shuningdek, “kapital qo‘yilmalar” va “moliyaviy” (portfel) investitsiyalari, ya'ni aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar atamalariga yaqin bo‘lgan real investitsiyalar deb ataladi.

Portfel investitsiyalari - bu kapitalni taqdim etgan mamlakat portfelida paydo bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar. Bu yirik moliyaviy markazlarga joylashtirilgan aksiyalar va obligatsiyalar. Bu holda qimmatli qog‘ozlarni sotib olish nazoratni o‘rnatish bilan birga bo‘lmaydi. Asosiy maqsad daromad olishdir, shuning uchun ayrim mamlakatlarda obligatsiyalar bo‘yicha to‘langan foiz stavkalaridagi farq portfel investitsiyalari hajmi va dinamikasiga ta‘sir qiladi. Barcha portfel investitsiyalarini korxonalarining 10 foizdan kam miqdordagi aksiyalari va qarzli qimmatli qog‘ozlarga (obligatsiyalar, veksellar va boshqalar) bo‘lish mumkin.

Portfel investitsiyalari yirik korporatsiyalar, davlat va xususiy bank muassasalari tomonidan beriladigan imtiyozli kreditlarni moliyalashtirish uchun xorijiy kapitalni jalb qilishda muhim manbadir.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar - bular ishlab chiqarishga kiritilgan sarmoyalar bo‘lib, ular investorga kapital olayotgan mamlakat korxonalarida boshqaruvni boshqarish huquqini beradi. Xalqaro amaliyotda bunday investitsiyalar deyiladi **xorijiy investitsiyalar**. Nazorat qilinmaydigan to‘lovlar, ssudalar va qimmatli qog‘ozlarni sotib olish kapital o‘tkazmalar sifatida belgilanadi.

Portfel (spekulyativ) investitsiyalarning o‘sishi diversifikatsiyalash ehtiyojlari va soliqqa tortilmaslik istagi bilan rag‘batlantiriladi. Zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarining harakatchanligi va

qo'shma korxonalarining rivojlanishi ortib borishi bilan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ko'paymoqda.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun alohida iqtisodiy imtiyozlar endi yetarli emas, mintaqaviy iqtisodiy sharoitlarning, shu jumladan siyosiy, ijtimoiy va ishlab chiqarish-iqtisodiy omillarning raqobatbardoshligini yaratish zarur. Shuni esda tutish kerakki, portfel (spekulyativ) va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar mahalliy bozorlarda turlicha harakat qiladi. spekulyativ investitsiyalar tezda keladi va moliya bozori yaxshi rivojlanmagan bo'lsa, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar mulkni yoki uning bir qismini, masalan, individual firma yoki kompaniya sotib olish orqali amalga oshiriladi. Germaniyalik ishbilarmonlar ko'proq chet elga sarmoya kiritishlari mumkin - to'g'ridan-to'g'ri sarmoyalar, amerikalik ishbilarmonlar ko'plab mahalliy bozorlardan uzoq bo'lgan portfel sarmoyalariga tayanadilar. Xorijiy investitsiyalarni, ayniqsa, axborot texnologiyalariga jalb qilish bo'yicha jahonda yetakchi Amerika Qo'shma Shtatlari hisoblanadi.

Iqtisodiy globallashuv jarayonida uning ahamiyati **to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar**. XX asr oxirida. ularning xorijiy investitsiyalardagi ulushi 30 foizdan oshdi. Chet el investitsiyalari xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yetakchi shakllaridan biriga aylandi va to'g'ridan-to'g'ri investor rolini ko'pincha transmilliy korporatsiyalar o'ynaydi. Zamonaviy dunyoda, ayniqsa sanoatlashgan mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni joylashtirishning asosiy usuli transchegaraviy sotib olish va xorijiy kompaniyalarning sotib olishidir.

Investitsion muhitxorijiy yoki ichki kapitalni jalb qilish uchun siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sharoitlarning uyg'unligi, bu joyni boshqarishning haqiqiy shartlari. Masalan, Rossiyadagi investitsiya muhiti noqulay deb baholanmoqda.

Chet el investitsiyalaridan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Iqtisodiyotni jonlantirish

· Ilg'or texnologiyalar va boshqaruv usullaridan foydalanish;

Davlatning tashqi qarzining ko'payishiga qarshi turish, uni to'lash uchun mablag' ajratish;

· Jamiyatning o'z ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishini rag'batlantirish;

· Ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy hamkorlik natijasida iqtisodiyotning samarali ishlab chiqarilishi va o'sishiga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishiga ko'maklashish.

Chet el investitsiyalarining bilvosita foydalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Yangi texnologiyalar, uskunalar va nou-xau jalb qilish;

Zamonaviy menejment va ishlab chiqarishni tashkil etish texnologiyalariga ega mutaxassislar, menejerlar va tadbirkorlarni tayyorlash qobiliyati;

Donor mamlakatning eksport salohiyatini faollashtirish;

· Mintaqaviy manbalarni rivojlantirish.

3. Erkin iqtisodiy zonalar tashqi iqtisodiy faoliyatning jahon amaliyotida, hududiy - iqtisodiy boshqaruvning turli modellari mavjud. Ushbu murakkab shakllanishlar qatorida erkin iqtisodiy zonalar deb nomlanuvchi iqtisodiy tuzilmalar ham mavjud. Bunday zonalarning xilma-xil turlari jahon iqtisodiyotining "orollari", ko'plab investitsiyalar, texnologiyalar va boshqaruv ko'nikmalarining ko'plab mintaqalar va mamlakatlarga kirib borishi uchun "derazalar" deb nomlanadi. Va nihoyat, ko'pgina iqtisodchilar EIIZda global iqtisodiy tizimda yangi "ochiq eshiklar" siyosatining prototipini ko'rishadi.

Ixcham hududiy birliklar sifatida MIXlarni qadimiy va zamonaviy deb atash mumkin. Ularning ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi va shu bilan birga amaliy faoliyatni zamonaviy tsivilizatsiyaning yangi mazmuni bilan boyitadi. "Erkin iqtisodiy zonalar", - deydi amerikalik olimlar M.Frazier va R.Ren, "insoniyatning iqtisodiy rivojlanish sohasidagi eng qadimiy va eng so'nggi g'oyalaridan biridir."

Hatto qadimiy antik davrda ham, qadimgi Finikiyaliklar, Misrliklar va Xitoylar erkin iqtisodiy zonalarini tashqi savdoni rivojlantirish uchun ishlatgan. O'sha davrda zonalar erkin portlar va bandargohlar ko'rinishida faoliyat ko'rsatgan. Birinchi bepul port 814 yilda Karfa-gen edi. Miloddan avvalgi. 13-asrda erkin savdo zonalari ishlay boshladi. Tarix erkin zonaning prototipi va qadimiy Polotsk erida saqlanadi.

Erkin iqtisodiy zonalar xalqaro iqtisodiy shakllardir. Ular dunyoning deyarli barcha mamlakatlarini, shu jumladan boy va kambag'alarni qamrab oluvchi global xususiyatga ega bo'ldi. Ularning yordami

bilan butun mintaqalarni jahon iqtisodiy munosabatlar tizimiga juda intensiv integratsiyalashuvi amalga oshirilmoqda.

Erkin iqtisodiy zonalar savdo, moliyaviy, sanoat va texnologik aloqalarning juda yuqori darajada jamlangan joylaridir. Ular bozor munosabatlari, tadbirkorlik rivojlanishining yuqori darajadagi markazlari, texnologiyalar va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish uchun joy. Yigirmanchi asrning oxirida ushbu fenomenal shakllanishlar global iqtisodiyotning muhim omiliga aylandi va global savdo aylanishini tezlashtiradigan va tashqi savdoni rag'batlantiradigan noyob savdo markazlariga aylandi.

MIZ o'z rivojlanishining so'nggi bosqichida muntazam ravishda va kuchli tarzda jahon iqtisodiyotining barcha jabhalariga kirib boradigan yangi mingyillikka ko'tariladi. G'arb ekspertlarining fikriga ko'ra, 21-asrning boshlariga kelib dunyo savdosining 1/3 qismi erkin iqtisodiy zonalar orqali o'tadi.

MIXlarni yaratadigan mamlakatlarning maqsadlari boshqacha bo'lishi mumkin. Ba'zi davlatlar zonalarini integratsiyalashgan iqtisodiy mexanizm sifatida, boshqalari esa chet el texnologiyalarini jalb qilish uchun foydalanadilar. Masalan, Buyuk Britaniya 1981-yilda ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirish, iqtisodiy vaziyatni milliy darajada faollashtiradigan faoliyatni jalb qilish maqsadida bepul aeroportlar (Liverpool, Birmingham, Kardiff, Sausanton, Prestich va Belfastda) yaratishni boshladi. EIIZ hududidagi post-sotsialistik mamlakatlar bozorni boshqarish mexanizmining bozor mexanizmlarini sinab ko'rishmoqda. Qo'shma Shtatlarda, 1934-yildagi qonunga binoan, zonalar AQShga olib kirilganda chet el tovarlarini bojlardan ozod qilish orqali tashqi savdoni yengillashtirishi va rag'batlantirishi kerak edi.

Ko'rib turganimizdek, MIZni yaratish maqsadlari turlicha ekanligiga ishonch hosil qilish uchun bir nechta misollar yetarli. Biroq, ushbu maqsadlardagi farqlarga qaramay, ular bir qator umumiyliklarga ega, ular ichida iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnik maqsadlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Iqtisodiy:

- milliy bozorni jahon iqtisodiyotiga chuqurroq kiritish;
- yuqori rentabelli ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun xorijiy va milliy investitsiyalarni jalb qilish;

Ijtimoiy:

- orqada qolgan hududlarni kompleks rivojlantirish;
- ish o‘rinlari va bandlik sonining ko‘payishi;
- malakali milliy ishchilar, muhandislar, iqtisodiy va boshqaruv kadrlarini tayyorlash va tayyorlash;
- milliy bozorni yuqori sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirish.

Ilmiy-texnik:

- zamonaviy va xorijiy texnologiyalardan foydalanish;
- boshqaruv ishlarining yangi shakllari bilan tanishish;
- tajriba va ilmiy-texnik markazlarni jalb qilish;
- ishlatilgan ishlab chiqarish quvvatlari, infratuzilma va konver-siya obyektlarining samaradorligini oshirish.

MIXlarning tashkil etilishidagi ushbu va boshqa maqsadlari xorijiy investorlar va qabul qiluvchi mamlakat uchun yaratilgan barcha sharoitlar sharoitida amalga oshirilishi mumkin. Shu munosabat bilan biz MIXlarning normal ishlashi uchun eng muhim shartlarni nomlaymiz:

- mamlakatdagi siyosiy barqarorlik barcha qulay investitsiya muhitini yaratadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda bu juda muhimdir;
- xorijiy va mahalliy investorlarning huquqlarini kafolatlaydigan va ularning faoliyatini rag‘batlantiruvchi rivojlangan qonunchilik bazasi mavjudligi;
- rivojlangan infratuzilma (sanoat va tijorat) mavjudligi;
- tabiiy va geografik muhit juda muhim shart.

MIXlarni rivojlantirishning eng muhim stimulyatori investitsiyalarni amalga oshirishdan oldin ularga berilgan imtiyozlar shartlarini o‘rganishdan manfaatdor bo‘lgan investorlarni rag‘batlantirish tizimi hisoblanadi.

Har bir mamlakat yoki uning mintaqalari, MIZlar tashkil etilganda, o‘ziga xos imtiyozlar belgilanadi. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, MIZda o‘rnatilgan imtiyozlar tizimi yetarlicha individualdir va uning hududida amalga oshirilayotgan dasturlar va loyihalar bilan bog‘liq. Biroq, iqtisodiy adabiyotlarda imtiyozlarning to‘rtta asosiy guruhlari deyiladi:

soliq imtiyozlari tadbirkorlikning ayrim manbalarini rivojlantirishni rag‘batlantirish. Ular daromad, daromad, mulk solig‘i va soliq

stavkalari darajasiga solinadigan soliqlarga nisbatan qo'llaniladi. Ularning sohasida tadbirkorlarni soliqdan doimiy yoki vaqtincha ozod qilish masalalari mavjud;

moliyaviy foyda yer, ishlab chiqarish binolari, infratuzilma, kommunal xizmatlardan foydalanish uchun past narxlarni belgilash shaklida. Moliyaviy rag'batlantirish - bu budjet mablag'lari va imtiyozli davlat kreditlari hisobidan subsidiyalarning turli shakllarini berish;

ma'muriy imtiyozlar odatda EIIZ ma'muriyati tomonidan va korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish, chet el fuqarolarining kirishi va chiqishi va turli xizmatlarni taqdim etish tartibini soddalashtirish maqsadida taqdim etiladi. Ma'muriy protseduralarning soddaligi har doim investor tomonidan ijobiy baholanadi va ba'zan zonaga xorijiy kapitalni jalb qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega;

tashqi savdo imtiyozlari. Bu asosan tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishning soddalashtirilgan tartibini joriy etish, shuningdek eksport-import bojlarini kamaytirish yoki bekor qilish bilan bog'liq.

Ushbu imtiyozlarning barchasi turli xil kombinatsiyalarda qo'llanilishi mumkin.

MIXlarni tasniflash shunchaki ularni qisqacha tavsiflash bilan emas, balki ularning rivojlanishi, shakllanishi va faoliyati evolyutsiyasi.

- ombor va tranzit zonalari (eng qadimgi, eng sodda)
- erkin bojxona zonalari
- erkin savdo zonalari
- eksport-ishlab chiqarish zonalari
- murakkab joylar
- bepul ilmiy-texnik zonalar
- xalqaro zonalar
- dastur yo'nalishlari

Investitsiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi. Investitsiyalarni tahlil qilish va rejalashtirishni tizimlashtirish uchun ularni muayyan tasniflash mezonlari bo'yicha guruhlash mumkin. Shunday qilib, investitsiyalarning tasnifi uning ostidagi mezonni tanlash bilan belgilanadi. Investitsiyalarni tasniflashda asosiy tipologik xususiyat investitsiya obyekti hisoblanadi.

Investitsiya obyektlarini real va moliyaviy investitsiyalarga bo‘lish mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu iqtisodiy shakllarning mohiyati va tuzilishini, ularning investitsiyalarning boshqa tasnif guruhlari bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash uchun turli xil yondashuvlar mavjud bo‘lganligi sababli, real va moliyaviy investitsiyalar tarkibini aniqlashtirish, ularning obyektlarini aniqlash kerak.

Haqiqiy investitsiyalar*real iqtisodiy aktivlarga investitsiyalar to‘plami sifatida harakat qilish:* moddiy resurslar (jismoniy kapital elementlari, boshqa moddiy aktivlar) va nomoddiy aktivlar (ilmiy, texnikaviy, intellektual mahsulotlar va boshqalar). Haqiqiy investitsiyalarning eng muhim tarkibiy qismi bu kapital qo‘yilmalar ko‘rinishidagi investitsiyalardir, bu iqtisodiy adabiyotlarda, shuningdek, so‘z ma’nosida real investitsiyalar yoki kapitalni shakllantirish investitsiyalari deb ataladi.

Moliyaviy investitsiyalar tarkibiga turli moliyaviy aktivlarga (vositalarga) investitsiyalar kiradi - *qimmatli qog‘ozlar, aksiyalar va aksiyalar, bank depozitlari va boshqalar.*

Investitsiya maqsadlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel (bilvosita) investitsiyalarini ajratish mumkin.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar kabi harakat qiling *investitsiya obyektini to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarish va boshqarish uchun korxonalar (firmalar, kompaniyalar) ustav kapitaliga investitsiyalar.* Ular nafaqat daromad olishni emas, balki ta’sir doirasini kengaytirishga, kelajakda moliyaviy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan.

Portfel investitsiyalari vakili *daromad olish maqsadida iqtisodiy aktivlarga investitsiya qilingan mablag‘lar*(investitsiya obyektlarining bozor qiymatining oshishi, dividendlar, foizlar, boshqa naqd to‘lovlar ko‘rinishida) *xavflarni diversifikatsiya qilish.* Qoidaga ko‘ra, portfel investitsiyalari - bu boshqa emitentlarning qimmatli qog‘ozlarini va boshqa aktivlarni sotib olishga investitsiyalar.

Ko‘pincha real va moliyaviy investitsiyalar mos ravishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel sifatida ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, ba’zi hollarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar ishlab chiqarishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni anglatadi, portfel investitsiyalari esa qimmatli qog‘ozlarni sotib olishni anglatadi. Bu holda tasniflash mezonini investitsiya obyektining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Ko‘rinishidan, bunday identifikatsiyalash xato, chunki real investitsiyalar ishlab chiqarish kapitalining jismoniy elementlariga investitsiyalardan tashqari boshqa real shakllarga investitsiyalarni o‘z ichiga oladi va moliyaviy investitsiyalar nafaqat qimmatli qog‘ozlarga, balki boshqa moliyaviy vositalarga ham kiritiladi. Bundan tashqari, faqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni ishlab chiqarish investitsiyalariga jalb qilish qonuniy emas, chunki portfel investitsiyalarining bir qismi (ishlab chiqarish korxonalarining qimmatli qog‘ozlariga ularni dastlabki joylashtirishda qo‘yiladigan investitsiyalar) ishlab chiqarishga investorlarning mablag‘larini jalb qilish uchun mo‘ljallangan.

Boshqa hollarda, turli xil investitsiya guruhlarini aralashtirish, ularni tasniflashda ishlatiladigan aniq mezonlar mavjud emasligi sababli sodir bo‘ladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, real va moliyaviy investitsiyalarni taqsimlash investitsiya obyektiga qarab amalga oshiriladi, investitsiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfelli investitsiyalarga ajratish uchun asos sifat jihatidan farq qiluvchi mezon – investitsiya maqsadlaridan foydalanadi.

Xususan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarish va boshqarishni o‘rnatishga yo‘naltirilgan investitsiyalar nafaqat real iqtisodiy aktivlarda, balki moliyaviy vositalarda ham amalga oshirilishi mumkin. Investitsion obyektning boshqarish qobiliyati nazorat ulushini va boshqa ishtirok etish shakllarini sotib olish orqali ta’minlanadi. Portfel investitsiyalari - bu joriy daromad olishga yo‘naltirilgan investitsiyalar. Binobarin, real va moliyaviy investitsiyalar, bir tomondan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel investitsiyalari, boshqa tomondan, tipologiyada turlicha bo‘lgan investitsiya guruhlarini vazifasini bajaradi.



Ularning yo‘nalishiga ko‘ra investitsiyalar ikkita asosiy turga bo‘linadi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar - bu korxonalar va kompaniyalarning ustav fondiga, yangi binolar, asbob-uskunalar, moddiy ishlab chiqarish va

mahsulotlarni sotish, tovar-moddiy zaxiralarga kapital va boshqa qiymatlarning uzoq muddatli investitsiyalari. Xorijiy omonatlar va ichki iqtisodiyotga investitsiyalarga bo‘lingan.

Portfel investitsiyalari

Portfel investitsiyalari - bu aksiyalar, obligatsiyalar, sanoat qimmatli qog‘ozlari, veksellarni sotib olishga investitsiyalar. Ular qimmatli qog‘ozlar portfeli shaklida shakllanadi va foizlar yoki dividendlar hisobiga foyda keltiradi. Portfel - bu bir butun sifatida boshqariladigan turli xil qimmatli qog‘ozlarning barcha to‘plami.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel investitsiyalari o‘rtasidagi asosiy farqlar

1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy va ishlab chiqarish jarayonini faol boshqarish, portfel passiv qiziqishni anglatadi.

2. Portfel investitsiyalarining rentabelligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri nisbatan pastroq.

3. Portfel investitsiyalari bilan ishlashda xavf odatda past bo‘ladi.

4. Portfel investitsiyalari yuqori likvidlilik bilan tavsiflanadi.

5. Direktlar odatda uzoqroq sarmoyaviy davr uchun mo‘ljallangan.

6. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni bitta kompaniyada amalga oshirish maqsadga muvofiqdir, shu bilan birga portfel investitsiyalaridan passiv daromad olish uchun turli korxonalar va kompaniyalarning aktivlariga investitsiyalardan katta foyda olish mumkin.

7. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmi portfelga qaraganda ancha katta, chunki bunday hollarda investorlarning o‘zlari nazoratni amalga oshiradilar.

Tabiiyki, har qanday turdagi investitsiyalarning maqsadi bir xil - foyda olish. Ammo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar sizga investitsiya qilingan biznesning yo‘nalishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatishga imkon beradi va shu bilan birga kompaniyani tezkor boshqarishda ishtirok etadi, so‘nggi yillarda portfel investitsiyalarining kamayishi va shunga mos ravishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning o‘sishi tendentsiyasi kuzatilmoqda. Albatta, sarmoyadorlar tomonidan ishlab chiqarishni tezkor boshqarishga ta’sirini to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar bilan cheklash mumkin bo‘lgan biznes-sxemalar ko‘pincha yuzaga keladi.

Investitsiyalar boshqacha. Korxonalar, biznes, ko‘chmas mulk yoki pul mablag‘lari hisob raqamlariga mablag‘ kiritasizmi, har safar

o'zingizga ma'lum maqsadlar qo'yasiz. Asosiy investitsiya toifalari orasida to'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalari ajralib turadi. Shunday qilib, ularning orasidagi farq nima ekanligini aniqlaylik.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar - biznesni boshqarish

Siz korxonani rivojlantirish va faoliyatiga investitsiya kiritgansiz va buning evaziga ustav kapitalida o'z ulushingizni olgansiz, aytaylik, 20% - bu sizning qo'ygan mablag'ingizga bog'liq. Endi siz egalari tomonidan qabul qilingan qarorlarga bevosita ta'sir qilishingiz mumkin, ya'ni kompaniyani boshqarishda ishtirok etasiz, ayniqsa sizning qo'lingizda nazorat ulushi bo'lsa. Bunday holda siz o'zingizning shaxsingizni direktorlar kengashiga yuborishingiz mumkin. Bu to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar.

Boshqacha qilib aytganda, to'g'ridan-to'g'ri investitsiya bu mahsulot ishlab chiqarish yoki uni sotish uchun investitsiya bo'lib, unda investor kompaniyaning ustav fondida kamida 10 foiz ulushni oladi.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar sizni kompaniyaning muvaffaqiyatli rivojlanishida katta qiziqish bildirayotganingizni anglatadi. Shuning uchun egalari nafaqat investorning moliyaviy yordamiga, balki uning bilimlari, tajribasi va aloqalariga ham tayanishga haqlidirlar. To'g'ridan-to'g'ri investor biznes egalarning teng huquqli sherigiga aylanadi.

Kompaniyalar egalari, qoida tariqasida, korxonani yanada faol rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rganlarida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qiladilar, ammo buning uchun o'z mablag'lari yetarli emas. Shu bilan birga, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish ular uchun foydalidir, chunki ular korxonani rivojlantirish uchun zarur bo'lgan mablag'ni olib, ularga kerakli uskunalarni sotib olish, dilerlik tarmog'ini rivojlantirish uchun sarmoya kiritib, ular kompaniyaning boshqaruvini saqlab qoladilar.

Biror biznesga mablag' kiritadigan sarmoyadorlar ko'pincha g'oyalar bosqichida turishadi. Va ular biron bir sababga ko'ra shunday nomga ega bo'lishdi, chunki ushbu bosqichda investorlardan klassik ma'noda mablag' olish hayoliylar toifasidagi g'oyadir. Ular, qoida tariqasida, allaqachon yaxshi tashkil etilgan ish jarayonlariga ega bo'lgan kompaniyalarga pul to'lashadi.

Muayyan biznesga sarmoya kiritishga qaror qilganda, investor ko‘plab omillarni hisobga oladi va tahlil qiladi:

- Kompaniyaning rivojlanish istiqbollari, uning raqobatbardosh ustunliklari.

- Mulkchilik tuzilishi, barcha biznes jarayonlarining ravonligi.

- Menejmentning tajribasi va professionalligi, korporativ madaniyat darajasi.

- Hokimiyat bilan munosabatlar, xususan soliq tuzilmalari bilan ziddiyatlar mavjud emas.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar:

- Chiqish - bu davlat fuqarolari chet eldagi korxonalariga pul qo‘yganda.

- Kiruvchi - mablag‘lar xorijiy investorlardan jalb qilinadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri sarmoyadorlar ham xususiy kompaniyalar, ham biznesni rivojlantirish uchun mablag‘ to‘plashga ega bo‘lgan shaxslar bo‘lishi mumkin. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki xuddi shu nomdagi mablag‘lar orqali amalga oshiriladi - Xususiy sarmoyalar fondi (xususiy sarmoyalar fondi). Qoidaga ko‘ra, bu uzoq muddatli investitsiya bo‘lib, undan faqat bir necha yil o‘tgach foyda olish mumkin. O‘zlarini himoya qilish uchun mablag‘lar odatda to‘plangan mablag‘larni bir vaqtning o‘zida bir nechta kompaniyalariga tarqatadi.

Iqtisodiyotning turli sohalaridagi korxonalariga, shuningdek ixtisoslashgan fondlarga mablag‘ kiritadigan universal fondlar mavjud bo‘lib, ularning maqsadi faqat ma‘lum bir sohadagi kompaniyalariga, masalan, axborot texnologiyalariga investitsiya kiritishdir.

Qanday qilib mablag‘larni qaytarish va foyda olish:

- Kompaniyaning egalari allaqachon oyoqqa turishgan va o‘zlarining kelgusidagi faoliyatlarida katta istiqbollarni ko‘rishgan holda, sizning ulushingizni sotib olishmoqda.

- Kompaniyaga strategik investor keladi va ustav kapitalidagi ulushingizni sotib oladi.

- Birjaga kirish va IPO o‘tkazish.

Portfelga sarmoya kiritish - passiv ravishda foyda olish

Portfel sarmoyasi, nomidan ko‘rinib turibdiki, siz egalik qiladigan qimmatli qog‘ozlar portfelingizdir. Bu turli xil kompaniyalar aksiyalari va obligatsiyalarini to‘plash mumkin. Shu bilan birga, siz passiv

investor sifatida harakat qilasiz va mutloqo u yoki bu korxonada hayotida ishtirok etishni xohlamaysiz.

Birinchidan, chunki sizning qo‘lingizda juda oz hissangiz bor, ikkinchidan, boshidanoq bunday niyatingiz yo‘q edi. Sizning asosiy maqsadingiz daromad olishdir va kompaniyaning egalari uni qanday ta‘minlaydilar, siz ko‘p narsalarga ahamiyat bermaysiz.

Bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel investitsiyalari o‘rtasidagi asosiy farq - birinchi holda siz kompaniyaning hayotida faol ishtirok etasiz, ikkinchisida - yo‘q

Ko‘pincha kichik sarmoyadorlar mavjud kapitalni saqlash va ko‘paytirishni maqsad qilgan portfel investitsiyalariga ustunlik berishadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalardan farqli o‘laroq, portfel ko‘pincha qisqa yoki o‘rta muddatda daromad olishga qaratilgan. Va portfel investitsiyalarining asosiy afzalligi shundaki, sizning mablag‘laringiz diversifikatsiyalanadi, ko‘p foyda manbalariga taqsimlanadi. Va shuning uchun, noxush hodisalar yuzaga kelganda, barcha pullarni yo‘qotish xavfi minimaldir. Bundan tashqari, agar biror narsa noto‘g‘ri bo‘lsa, ularni sotish bilan aktivlardan xalos bo‘lish qiyin bo‘lmaydi.

Xulosalar

1. Investitsiyalar – asosiy va aylanma kapitalni ko‘paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga pul shaklidagi qo‘yilmadir. U pul mablag‘lari, bank kreditlari, aksiya va boshqa qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishida amalga oshiriladi. Pul mablag‘lari ko‘rinishidagi investitsiya nominal investitsiya, ana shu pul mablag‘lariga sotib olish mumkin bo‘lgan investitsion resurslar real investitsiya deyiladi.

2. Investitsiyalarga sarflar darajasini ikkita asosiy omil belgilab beradi: 1) investitsiya sarflaridan kutilayotgan foyda normasi; 2) foiz stavkasi.

3. Statistika ma‘lumotlar dinamikasi shundan dalolat beradiki, mamlakatimiz iqtisodiyotiga sarflanayotgan investitsiyalar hajmi yildan-yilga o‘sib borish tendensiyasiga ega.

Asosiy tayanch tushunchalar

Investitsiya – ishlab chiqarishni va xizmat ko‘rsatish sohalarini kengaytirishga, ya’ni asosiy va aylanma kapitalga pul shaklidagi qo‘yilma.

Investitsiyalar samaradorligi – milliy daromad (foyda)ning o‘sgan qismining investitsion sarflar summasiga nisbatining foizdagi ifodasi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Investitsiyalarga sarflarning darajasini qanday omillar belgilab beradi? Ularning qisqacha tavsifini bering.

2. Yalpi investitsiya va amortizatsiya nisbati o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri qanday?

3. Jamg‘arma va investitsiya o‘rtasidagi muvozanatning klassik modelining mohiyatini tushuntirib bering.

4. Jamg‘arma va investitsiya o‘rtasidagi muvozanatning keynscha modelining mohiyatini hamda klassik modeldan farqini tushuntirib bering.

7-BOB. XALQARO VALYUTA TIZIMI VA SIYOSATI

7.1. Jahon valyuta tizimining zaruriyati

Har qanday xalqaro bitim o‘zaro hisob-kitoblar bilan kuzatilishi sababli birinchi navbatda uni qaysi pul birligida amalga oshirish masalasi turadi. Shuning, uchun bitim ishtirokchisi jahon bozorida biror-bir tovar yoki xizmatni sotar yoki sotib olar ekan, o‘zining milliy valyutasi boshqa mamlakatlarning pul birliklari bilan qanday nisbatda ekanligini, ulardan qaysi biri barqarorroq va jahon bozorida qay darajada talabga ega ekanligini bilishi kerak. Bu unga xorijda tashqi iqtisodiy operatsiyalar olib borishga zarur bo‘lgan valyuta zaxirasini o‘zida yaratish imkonini beradi. Mamlakatlar o‘rtasida tovar va xizmatlar oqimi ko‘paygan sari. pul-moliya vositalari ayirboshlash ham tobora ko‘payib boradi, o‘zaro hisob-kitoblar murakkablashadi, natijada bunday hisob-kitoblarni tartibga solib turish, tezlashtirish va kapital harakati uchun keng yo‘l ochishga xizmat qiluvchi jahon valyuta tizimi shakllanishiga obyektiv shart-sharoit yaratiladi.

Jahon valyuta tizimi tarixan mamlakat ichida va tashqarisida normal to‘lovlarni ta‘minlovchi milliy valyuta tizimlarining rivojlanishi asosida yuzaga kelgan. XIX asr boshlarida turli mamlakatlar o‘rtasida xalqaro ayirboshlashning kengayishi, ularning milliy valyuta tizimlari o‘rtasida o‘zaro aloqalarni ta‘minlash zarurligiga olib keldi. Dastlab bunday o‘zaro aloqa «oltin standart» bazasida amalga oshirildi, ya‘ni oltin pulning asosiy shakli bo‘lgan pul tizimida olib borildi. Oltin standart kiritilgan mamlakatlarda davlat qonuniy tartibda milliy valyutada oltinning miqdoriy hajmini o‘rnatadi, ichki bozorda muomalaga cheklanmagan miqdorda oltin tangalarni chiqaradi, boshqa pullar unga nisbatan bo‘ysunuvchi rol o‘ynaydi va istalgan paytda oltinga erkin ayirboshlanishi mumkin bo‘ladi.

Undan tashqari davlat barcha tovarlar bahosini oltin birliklarida hisoblaydi, oltinni erkin olib kelishga va olib chiqishga ruxsat beradi. Demak, milliy valyuta bahosi oltinga bog‘langan ekan. Birinchidan, har bir mamlakat hukumati oltin bilan ta‘minlanishi mumkin bo‘lgan miqdorda qog‘oz pullarni chiqarishga harakat qiladi, bu esa ortiqcha pul emissiyasini va u bilan bog‘liq inflyatsiyani to‘xtatib turadi; ikkinchidan, 97 turli milliy valyutalar o‘rtasidagi o‘zaro nisbatlar qayd etilgan, nisbat doimiy bo‘lib, xalqaro hisoblarda barqarorlikni ta‘min-

laydi. Masalan, agar 1929 yilda bir funt sterling 7,32 g sof oltinni, AQSH dollari 1,5 g sof oltinni tashkil etgan bo'lsa, ular o'rtasidagi o'zaro nisbat yoki oltin pariteti (tengligi) 1 f. s. = 4,86 AQSH dollari bo'lgan.

XIX asr o'rtalaridan XX asr boshlarigacha oltin standart asosan bir guruh yuqori rivojlangan mamlakatlarni qamrab olgan mukammal pul tizimi hisoblangan. 1913 yilda uch yetakchi davlat- AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya hissasiga jahon oltin - monetar muomalasining 62 foizi yoki 3,5 ming tonna oltin to'g'ri kelgan. Shu bilan birga, o'sha davrlardayoq xalqaro hisob-kitoblarda oltinga qaraganda qulayroq bo'lgan qog'oz pullardan foydalanilgan. Iqtisodchilarning baholashicha 1894 yilda xalqaro to'lov aylanmida oltin ulushi bor yo'g'i 3,5 foizni tashkil etgan, ya'ni banklararo hisob-kitoblar asosan valyutalarda amalga oshirilgan. Bu davrda Buyuk Britaniya yetakchi iqtisodiy va moliyaviy davlat bo'lgan va funt sterling oltin kabi xalqaro to'lovlarda erkin muomaladagi asosiy valyuta hisoblangan.

Shuningdek, AQSH dollari, Fransiya franki va boshqa rivojlangan mamlakatlarning pul birliklaridan ham keng foydalanilgan. Milliy valyutalarning bir mamlakatdan boshqasiga «o'tib yurishi» ularga bo'lgan talab va taklifga, ular o'rtasidagi nisbatga ta'sir qilib turgan va natijada ularning bozor kursi yaratilgan. Milliy valyutalarning bozor kurslari oltin paritetdan oltinni to'lov uchun tashish bilan bog'liq bo'lgan transport xarajatlari miqdorida farq qilgan. Bunday farq unchalik sezilarli darajada bo'lmay nisbatan barqaror bo'lgan, shuning uchun ham valyuta kurslari amalda qayd etilgan hisoblangan.

Keyinchalik barcha mamlakatlar tomonidan qog'oz pullarni oltinga almashtirish to'xtatildi, uning muomala sohasi keskin torayib, ulgurji va xalqaro aylanmalar bilan cheklandi, oltin bilan bo'ladigan operatsiyalarni faqat markaziy va yirik xususiy banklar amalga oshiradigan bo'ldilar. Xalqaro operatsiyalarda yetakchi o'rinni kredit va qog'oz pullar egallay boshladi, ularning bahosi endi oltinga bog'lanmagan edi. Davlatlar pul chiqarishni ko'paytira boshladilar, inflyatsiya kuchayib bordi, bu esa pul-moliya hisob-kitoblarida zarur bo'lgan ma'lumotlar chalkashligiga olib keldi.

Ikki jahon urushlari o'rtasidagi davrda iqtisodiy hamda siyosiy 98 vaziyatning beqarorligi chuqur inqirozga va pirovardida jahon valyuta tizimining tarqalib ketishiga olib keldi. Urush va urushdan keyingi

davr jahondagi yetakchi mamlakatlar o‘zaro munosabatlarini tubdan o‘zgartirib yubordi va bu o‘zgarishlar xalqaro iqtisodiy munosabatlar, shu jumladan valyuta munosabatlari xarakteriga ta’sir etdi. Bu munosabatlarda AQSH ning mavqei keskin oshdi va shunga muvofiq uning milliy valyutasi – dollarning roli ham o‘sib bordi. Urushdan keyingi davr voqeligini va xususiyatini hisobga oluvchi yangi jahon valyuta tizimini shakllantirish zarurati tug‘ildi. Yangi valyuta tizimining asoslari 1944 yilda, Bretton - Vudsda (AQSH) bo‘lib o‘tgan valyuta-moliya masalalari bo‘yicha xalqaro konferensiyada qo‘yilgan.

Bretton Vuds jahon valyuta tizimining xususiyati shundan iboratki, unda oltinning milliy valyutalar qiymatini o‘lchash vositasi, xalqaro rezervlarning asosiy shakli va to‘lov balansi taqchilligini qoplash vositasi sifatidagi roli qayta tiklangan. Ammo bu vaqtda AQSH dollari xalqaro valyuta munosabatlarida asosiy rol o‘ynagani sababli, oltinga nisbatan erkin ayirboshlandi, ya’ni bu valyuta amalda xalqaro to‘lovlarda oltinning teng huquqli ekvivalenti bo‘lib chiqa boshladi. Davlatlar o‘z valyutalarining oltin miqdorini o‘rnatdilar va shu bilan ularning bozor kursi ham oltinga, ham dollarga nisbatan qayd etildi. Bretton-Vuds valyuta tizimining boshqa muhim xususiyati - xalqaro valyuta tizimining birinchi bor tashkiliy jihatdan tuzilganligi edi.

Maxsus tashkil etilgan Xalqaro valyuta fondi va Umumjahon banki bu tashkilotlarga a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi valyuta-moliya munosabatlarini tartibga solib turishlari lozim edi, ya’ni jahon valyuta bozorida intizom qoidalarini, xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartiblarini o‘rnatish, valyuta kurslari harakatini boshqarish, mamlakatlarga moliyaviy yordam ko‘rsatish va hokazolar. 60-yillarning boshlarida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda G‘arbiy Yevropa mamlakatlari va Yaponiyaning iqtisodiy imkoniyatlari tiklandi va roli faollashdi, xalqaro to‘lov aylanmaini dollar bilan to‘lib borishi va AQSH to‘lov balansida taqchillikni (defitsit) kuchayib borishi sharoitida yetakchi milliy valyutalar kursini belgilovchi, dollarda mujassamlashgan oltinning rasmiy bahosi tobora nohaqqoniy bo‘la bordi.

Dastlab Xalqaro valyuta fondida qatnashuvchi-mamlakatlar tomonidan oltinning bozor bahosini barqarorlashtirishga qaratilgan maxsus bitim qabul qilindi. 1969 yilda xalqaro pul birligi – SDR qabul qilindi, 1971-yilda dollarni oltinga almashtirish to‘xtatildi, buning natijasida milliy valyutalarning oltin bilan har qanday aloqasi yo‘qoldi va

ularning bahosi yuqori darajada valyuta bozoridagi talab va taklifga bogʻliq boʻlib qoldi: XVF ga aʼzo-mamlakatlar asta-sekin «suzib yuruvchi» kurslarga oʻta boshladilar.

XVF ga aʼzo-mamlakatlar 1976-yilda Yamayka poytaxti Kingstonda yangi xalqaro valyuta tizimiga asos solgan bitimni imzoladilar. Xalqaro valyuta tizimi oʻz rivojlanishining hozirgi bosqichida qator xususiyatlari bilan ifodalanadi.

Birinchidan: «suzish» erkinligi mamlakatlarda davlat tomonidan cheklansa ham, «suzib yuruvchi valyuta» kurslari qoidasi rasman tan olingan va kiritilgan. («Erkin suzib yuruvchi» valyuta kursi maʼlum valyutaga boʻlgan bozor talabi va taʼsiri ostida oʻzgarib turishi mumkin)

Ikkinchidan: AQSH dollari oʻzining asosiy valyuta sifatidagi ahamiyatini yoʻqotmoqda hamda nemis markasi, Yaponiya iyenasi, EKYU (hozirda YEYRO) va boshqalar tobora xalqaro rezervlar va toʻlov vositalari sifatida qoʻllanilmoqda.

Uchinchidan: jahon valyuta tizimiga sobiq sotsialistik mamlakatlar jalb qilingan boʻlib, ularning koʻpchiligi 90-yillarning boshlarigacha XVF faoliyatida qatnashmagan amalda jahon valyuta tizimiga tortilmagan edilar. 1993 yilda 178 davlat XVF aʼzolari sanalib, sotsialistik mamlakatlardan faqatgina Koreya Xalq Demokratik Respublikasi va Kuba uning tarkibiga kirmagan edi.

Toʻrtinchidan: davlatlarning XVF tevaragida yagona valyuta tizimiga birlashishi alohida hududiy xalqaro valyuta tizimlari faoliyat koʻrsatishini inkor qilmaydi, chunki ular jahon tizimi tarkibida rivojlanib bormoqda.

Xususan, 1979 yilda Yevropa hamjamiyati mamlakatlari Yevropa valyuta tizimini barpo etdilar. Unda yagona valyuta (EKYU) 1999 yil 1 yanvardan YEYRO hamda valyuta kurslarini oʻrnatish va valyuta operatsiyalarini amalga oshirishning yagona mexanizmi mavjud. Hozirgi paytda jahon valyuta tizimi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim qismi boʻlib, tashqi savdo operatsiyalari xorijiy investitsiyalar va boshqalar boʻyicha xalqaro pulli hisob-kitoblar tashkil etishning doimo takomillashib borayotgan shakli hisoblanadi. Unda quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni ajratish mumkin:

1. Xalqaro hisob-kitoblarda foydalanadigan toʻlov va kredit vositalari: - oltin; - yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar milliy

valyutalari: AQSH dollari, Angliya funt sterlingi, Germaniya markasi, Shveysariya franki, Yaponiya iyenasi, ya'ni rezervdagi milliy valyutalar; - xalqaro yoki mamlakatlararo hisob-kitob pul birliklari (SDR, EKYU). 1999 yil 1 yanvardan YEVRO

2. Valyuta kurslarini o'rnatish va saqlab turish mexanizmi.

3. Valyuta bozorlarining ishlash tartibi.

4. Jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartib-qoidalari.

5. Valyuta munosabatlarini tartibga solish va nazorat qilish tizimi, shu jumladan valyuta cheklashlari, konvertatsiyalash shartlari.

6. Valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi va jahon valyuta tizimi barqarorligini ta'minlovchi xalqaro muassasalar tizimi (XVF, Umumjahon banki).

Birinchi element - xalqaro hisob-kitoblarda foydalanadigan to'lov va kredit vositalari jahon valyuta tizimining asosi hisoblanadi, qolgan barchasi amalda mamlakatlar o'rtasida ularning aylanishiga xizmat qilishga qaratilgan. Milliy pul birliklarining xalqaro hisob-kitoblarda qatnashishi mamlakatning rivojlanish darajasini, uni jahon ayirboshlashidagi o'rnini va ishonchli tadbirkor, ishbilarmon sherik sifatida ifodalaydi.

O'zbekiston 1992 yilda XVF va Umumjahon bankining teng huquqli a'zosi bo'ldi, jadal sur'atlar bilan xalqaro valyuta munosabatlarini kengaytirmoqda va shuning uchun milliy valyutani mustahkamlash, uning xarid quvvatini oshirish respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichidagi dolzarb vazifa hisoblanadi.

Xalqaro valyuta-kredit vositalari zamonaviy xalqaro hisob-kitoblarda va kreditlashda uch xil to'lov vositasidan foydalaniladi: oltin, yetakchi mamlakatlarning milliy valyutalari va xalqaro pul birliklari.

Hozirgi vaqtda oltin o'zining asosiy to'lov, hisob-kitob vositasi xususiyatini yo'qotgan bo'lsada, u har qanday mamlakat valyuta rezervlarining asosiy qismini tashkil etadi va undan ayrim hollarda, muhim tashqi savdo operatsiyalariga xizmat ko'rsatish va kreditlarni kafolatlashda foydalaniladi. Jahon savdosida rivojlangan mamlakatlar milliy valyutalaridan xalqaro hisob-kitoblarda yana-da kengroq foydalanilmoqda. Bunday valyutalarni boshqa davlatlarning Markaziy banklari xalqaro hisob-kitoblar uchun o'zlarining rezerv vositalari sifatida saqlaydilar.

Shuning uchun ham ularni rezerv milliy valyutalar deyiladi. Keyingi yillarda rezerv valyuta sifatida xalqaro pul birliklaridan ham (SDR, YEVIRO) foydalanilmoqda. Rezerv valyuta javob berishi kerak bo'lgan asosiy talab uni konvertirlashuvidir. Valyuta konvertirlashuvi deganda uning boshqa xorijiy valyutalarga almashish qobiliyati tushuniladi. Konvertirlashuv tushunchasi jahon valyuta tizimi rivojlanishi bilan o'zgarib bordi. 30-yillargacha qayd etilgan kurs bo'yicha oltinga erkin ayirboshlangan valyuta konvertirlanadigan valyuta deb hisoblangan. Hozirgi vaqtda valyutalar erkin konvertirlanadigan, qisman konvertirlanadigan va konvertirlanmaydigan valyutalarga ajratiladi.

Erkin konvertirlanadigan valyuta - bu amaldagi kurs bo'yicha har qanday boshqa xorijiy valyutaga erkin va cheklanmagan miqdorda ayirboshlanadigan valyutadir. Xorijiy valyutani erkin sotib olish va sotish joriy operatsiyalar (tashqi savdo ayirboshlashi, xalqaro turizm) hamda kredit va investitsiya operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan to'lovlar bo'yicha amalga oshiriladi. Erkin konvertirlanadigan valyutalarga AQSH dollari, Kanada dollari, Yevropa hamjamiyati mamlakatlari, shuningdek Shveysariya, Shvetsiya, Yagyuniya milliy valyutalarini kiritish mumkin. Ulardan valyuta narxlarini aniqlashda foydalaniladi. Masalan, o'ta muhim mahsulot hisoblangan neft va boshqa energiya tashuvchilar, bir qator metall narxlari AQSH dollarida qayd etiladi.

Qisman konvertirlanadigan valyuta - bu milliy valyuta bo'lib, faqat ba'zi bir xorijiy valyutalarga ayirboshlanadi, shunda ham xalqaro to'lov aylanmaining barcha turlari bo'yicha emas. Masalan, faqat joriy operatsiyalar bo'yicha to'lovga ruxsat beriladi yoki tashqi iqtisodiy faoliyatda qatnashuvchilar uchun xorijiy valyutani sotib olishda va sotish huquqiga cheklashlar qo'yiladi.

Bizning milliy pul birligimiz so'mni qisman konvertirlanadigan valyutalar qatoriga kiritish mumkin. Konvertirlanmaydigan valyuta bu faqatgina ichki to'lov aylanmaiga xizmat qiladi va xorijiy valyutalarga ayirboshlanmaydi. Bu milliy va xorijiy valyutalarni olib kelish va olib chiqishga, sotish va sotib olishga taqiqlashni qo'llaydigan mamlakatlar valyutasidir.

Ular qatoriga ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarning milliy valyutalari kiradi. Ichki va tashqi konvertirlanish farqlanadi. Ichki

konvertirlanish rezidentlarning (ya'ni mamlakatda doimiy yashash joyi bo'lgan shaxslarning) mamlakat ichkarisida xorijiy valyutani sotib olish va ushlab turish, u bilan ayrim operatsiyalar olib borishi qonunlashtirilgan huquqidir. Ichki konvertirlanish davlat tomonidan cheklangan bo'lishi mumkin. Misol uchun, xususiy shaxslar mamlakat ichida xorijiy valyutani sotib olishlari va egalik qilishlari mumkin, korxonalar esa o'zlarining barcha eksport tushumlarini davlatga topshirishga majburdirlar. Tashqi konvertirlanishda to'lovlarni chet elda amalga oshirishga va aktivlarni ushlab turishga ruxsat beriladi.

Valyutalarning konvertirlanishi ko'pchilik mamlakatlar iqtisodiy siyosatining muqim maqsadi hisoblanadi va jahon tajribasining ko'rsatishicha, ko'pchilik mamlakatlarda raqobatga bardoshli sanoat bazasi va kerakli xalqaro rezervlar barpo etilgandan so'ng kiritilgan.

Bunda, birinchi bosqichda qisman konvertirlanish kiritilgan (joriy, savdo operatsiyalari bo'yicha) va faqat so'nggi bosqichdagina kapital xarajatlari bo'yicha ham konvertirlanish kiritilgan. Masalan, Fransiya, Italiya hamda Yaponiya o'z milliy valyutalari to'liq konvertirlanishini faqat 80-yillarning oxirida joriy etdilar. Hozirgi vaqtda xalqaro hisob-kitoblarda milliy valyutalar bilan bir qatorda xalqaro yoki mamlakatlararo pul birliklari (SDR, EKYU, YEVRO) tobora keng qo'llanilmoqda. Milliy valyutalardan farqli ravishda, SDR, EKYU banknot ko'rinishidagi moddiy shaklga ega emas va ushbu hisob kredit vositalarini muomalaga chiqargan tashkilotda qatnashuvchi mamlakatlar Markaziy banklari maxsus hisob raqamlariga yozib qo'yish orqali naqdsiz to'lovlar uchun foydalaniladi. Lekin 1999 yil yanvaridan boshlab Yevropa ittifoqiga a'zo davlatlar hududida yagona valyuta YEVRO muomilaga kiritildi, u naqd pul ko'rinishiga ega.

1. Qarzga beriluvchi maxsus vositalar (SDR) XVF tomonidan barpo etilgan va 1970 yildan boshlab uning a'zolari o'rtasida o'zaro operatsiyalarda, vakil qilingan ushlab turuvchilar uchun va XVF bilan, bo'ladigan operatsiyalarda foydalanish uchun tarqatiladi. SDR 1993 yildan boshlab aktiv rezerv rolini bajarmoqda, uning ulushi XVF ga a'zo mamlakatlar rezerv summasining 2,1 foizini tashkil etadi (oltindan tashqari). Bu xalqaro valyuta o'z mohiyatiga ko'ra oltin yoki AQSH dollariga muqobil (alternativ) aktiv hisoblanadi. SDR birligi qiymati har kuni «valyuta savati» bazasida AQSH dollarida hisoblab chiqiladi. Valyuta savatini 5 yetakchi davlatlarning milliy valyutalari

AQSH dollari, nemis markasi, Yaponiya iyenasi, ingliz funt sterlingi, fransuz franki tashkil etadi. Bu 5 valyuta ichida AQSH dollari eng yuqori ulushga ega 40 foiz, shuning uchun ham SDR amalda dollar kursi bilan bog‘liq.

Bunday holat bu xalqaro pul birligining zaif tomonlaridan hisoblanadi. Uning kursi dollar kursining tebranishi bilan o‘zgarib turadi. 1994 yilning 15 avgustida SDR qiymati 1,45614 AQSH dollarini 2000 yil 9 may holatiga ko‘ra 1.30926 AQSH dollarini tashkil etdi. EKYYU-hududiy xalqaro valyuta birligi hisoblanib, Yevropa valyuta tizimida qatnashuvchi mamlakatlarda hisob-kitob va kredit funksiyalarini bajaruvchi valyuta sifatida 1979 yildan 1999 gacha foydalanib kelindi. Bu valyuta AQSH dollarining tasiriga qarshi hamda Yevropa mamlakatlarning valyuta sohasida o‘zaro birlashuvlari maqsadida qabul qilingan. Naqdsiz xalqaro pul birligi hisoblangan EKYYU 1999 yil yanvaridan boshlab naqd pul ko‘rinishiga ega bo‘lgan jahon puliga aylandi. Qog‘oz pullar 500, 200, 100, 50, 20, 10 va 5 YEVIRO, tangalar esa, 2 va 1 YEVIRO, shuningdek, 50, 20, 10, 5, 2 va 1 sentlik bo‘ladi.

2002 yildan Yevro yagona Yevropa hamjamiyatiga kiruvchi 15 davlat milliy pul birliklarining o‘rnini bosmoqda. EKYYU ning qiymati esa Yevropa valyuta tizimida qatnashuvchi mamlakatlar milliy valyutalari, Angliya funt sterlingi va Gretsiya draxmasi asosida hisoblanib kelingan edi. Bir EKYYUning qiymati taxminan 1,3 AQSH dollarini tashkil etdi va SDRga qaraganda boshqa milliy valyutalarga kamroq bog‘liq bo‘lganligi sababli Yevropa mamlakatlaridan tashqarida ham yuqori talabga ega bo‘lib kengaydi. EKYYU o‘rniga muomalaga kirigilgan YEVIRO jahon pullarining biri vazifasini o‘tashmoqda. Boshqacha aytganda, bu valyuta dunyo puli vazifasini bajarmoqda. Yuqorida sanab o‘tilgan barcha xalqaro to‘lov-kredit vositalari, o‘zaro hisob-kitoblarda, kreditlashda va valyuta rezervlarini shakllantirishda tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar tomonidan keng foydalaniladi (eslatib o‘tish lozim, SDR va YEVIRO dan asosan xalqaro miqyosda foydalaniladi).

2. Jahon valyutalarining ichida AQSH dollari ayniqsa aktiv valyuta hisoblanadi. Hozirgi vaqtda dunyonint eng yirik moliyaviy markazi bo‘lgan Londonda, AQSH dollari qatnashmagan bitimlar umumiy aylanmaning faqat 3 foizini tashkil etadi. Umuman olganda, xalqaro valyuta aylanmasining 90 foizi jahonning 6 ta yetakchi

valyutasi hissasiga to‘g‘ri keladi. Ular qatoriga AQSH dollari, nemis markasi, yapon iyenasi, ingliz funt sterlingi, fransuz va Shveysariya franklari kirgan.

3. Valyutaning ayirboshlash kurslari. Turli mamlakatlarning valyutalari hamda xalqaro pul birliklari tuzilgan xalqaro bitimlarga xizmat ko‘rsatish jarayonida o‘zaro almashinadilar va har qanday ayirboshlashda bo‘lgani kabi, bu yerda ham ularning bahosini, aniqrog‘i valyutalar kursini aniqlash muhim hisoblanadi. Valyuta kursi - bu bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birliklarida ifodalangan bahosidir. Valyuta kursini o‘rnatish kotirovkalash deb ataladi. Agar xorijiy valyuta birligining bahosi milliy valyutada ko‘rsatilsa, ya‘ni milliy "valyutada xorijiy valyutaning bir birligiga to‘g‘ri keladigan miqdorda ko‘rsatilsa, to‘g‘ri kotirovkalash deb ataladi. Masalan, 2005 yilning 28 mayiga so‘mning kursi 1 AQSH dollariga nisbatan 125,0 so‘mni, Rossiya rubliga nisbatan 38 so‘mni tashkil etdi.

Undan tashqari teskari kotirovkalash degan tushuncha ham bor. Teskari kotirovkalashda bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutalardagi miqdori o‘rnatiladi, ya‘ni bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutadagi bahosi ko‘rsatiladi, masalan: 1 so‘m – 0.0008 AQSH dollari yoki 1 AQSH dollari = 1250 so‘m yoki boshqa misol keltiramiz: 1 so‘m = 0.026 Rossiya rubli yoki 1 Rossiya rubli 38 so‘m (2005 yil 28-may holatiga ko‘ra). Ko‘pchilik mamlakatlarda valyutalarni to‘g‘ri kotirovkalash qabul qilingan, faqat Angliya funt sterlingi, Avstraliya dollari va EKYU ning kursi teskari kotirovkalash yordamida o‘rnatilib kelingan. Agarda ikki valyuta o‘rtasidagi nisbat qandaydir uchinchi valyutaga nisbatan olingan kurslarida aniqlansa, bunday nisbatni "kross-kurs" deb ataladi. Masalan: 1 so‘m = 0.0008 AQSH dollari yoki 1 so‘m = 0.026 Rossiya rubliga, bu yerda 0.0008 AQSH dollari = 0.026 Rossiya rubliga 1 AQSH dollari = 32,5 rubl.

Yuqorida keltirilgan nisbat Rossiya rublining dollarga nisbatan aniqlangan kross-kursidir. Ushbu shartli misolda o‘zbek so‘mi uchinchi valyuta rolini o‘ynaydi, jahon amaliyotida esa asosan uchinchi valyuta sifatida AQSH dollari qo‘llaniladi, ya‘ni barcha valyutalar jahon ayirboshlashida aynan shu valtotaga nisbatan kotirovka qilinadi. Valyuta kursi yoki milliy valyuta bahosi har qanday boshqa tovar bahosi kabi erkin, boshqariladigan, o‘rnatiladigan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun uni erkin suzib yuruvchi, cheklangan darajada suzib

yuruvchi va qayd etilgan valyuta kurslariga ajratiladi. Erkin “suzib” yuruvchi valyuta kursi ma’lum valyutaga bo’lgan bozor talabi va taklifi ta’sirida o’zgarib turishi mumkin. Masalan, AQSH dollari, Yaponiya iyenasi, Angliya funt sterlingi kurslari.

Shu bois bu valyutalar jahon valyuta ayirboshlashida keng ishtirok etadi. Cheklangan darajada “suzib” yuruvchi valyuta kurslarining o’zgarishi ayrim valyutalar yoki bir guruh valyutalar (valyuta savati) kursi o’zgarishiga bog’liq. Misol uchun, «Uchinchi dunyo» ning ko’pchilik mamlakatlari o’z valyutalarini AQSH dollariga, fransuz frankiga va boshqa xorijiy valyutalarga bog’laydilar.

Cheklangan darajada “suzib” yuruvchi valyuta kurslari kiritilgan mamlakatlar o’z valyutalarining tebranish chegarasini hamkorlik qilayotgan sheriklari bilan kelishib oladilar, Qayd etilgan valyuta kursi - bu xorijiy valyutada ifodalangan milliy pul birligining davlat tomonidan rasmiy o’rnatilgan bahosi bo’lib, unga valyuta bozorida talab va taklifning o’zgarishi ta’sir qilmaydi. Hozirgi vaqtda qayd etilgan valyuta kursi kam rivojlangan mamlakatlarda yoki iqtisodiyoti tashqi bozorga yetarli darajada kirib bormagan mamlakatlarda ularning moliya tizimini va milliy ishlab chiqarishni kuchli xorijiy raqobat-chilardan himoya qilish va quvvatlash maqsadida qo’llaniladi. Masalan, O’zbekistonda ham valyutalarning so’mga nisbatan rasmiy kursini o’rnatdi, ammo Markaziy bank valyutalarni sotish va sotib olish majburiyatini olmaydi.

Valyuta qiymatini aniqlashning asosi bo’lib valyuta pariteti hisoblanadi. Uning ma’nosi shuki, ikki valyuta o’rtasidagi nisbat qonunan mustahkamlanib qo’yiladi. Oltin standart yuritilgan davrda valyuta pariteti tushunchasi oltin pariteti ma’nosida tushunilgan, chunki ikki valyuta o’rtasidagi nisbat ulardagi oltin miqdori bilan aniqlangan. Oltindollar standarti yuritilgan davrlarda barcha valyutalarning kurslari oltinga hamda dollarga nisbatan qayd etilgan. 70-yillarning boshlarida suzib yuruvchi valyuta kursiga o’tilishi munosabati bilan XVF doirasida shunday valyuta pariteti qabul qilindiki, unda SDR xalqaro pul birligi oltin va dollar rolini o’ynaydi.

Modomiki, valyuta kursi mamlakatlararo tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchi harakatini tartibga soluvchi vosita ekan, uning o’zgarib turishi eksport va import hajmiga, butun makroiqtisodiy vaziyatga ta’sir qiladi. Shunday holatni ko’rib chiqaylik. Masalan,

o‘zbek so‘mining kursi 1 Rossiya rubliga nisbatan 38.22 so‘mdan 40 so‘mgacha pasaygan, ya’ni so‘m Ross.iya rublga nisbatan arzonlashgan va aksincha Rossiya rubli qimmatlashgan.

Bu holda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan 38,22 so‘mlik qiymatga ega tovar Rossiya bozorida ham arzonlashib boradi va u endi 4 ming Rossiya rubliga sotiladi. Natijada uning raqobatga chidamliligi oshib, bu tovarga talab ham orta boradi, uni eksport qilish rag‘batlantiriladi, ammo milliy valyutani Rossiyaga chiqarish O‘zbekiston uchun foydali bo‘lmay qoladi. Rossiyada ishlab chiqarilgan 4000 rubl qiymatga ega bo‘lgan tovarga kelsak, bu tovar so‘mning kursi pasayishi va rublning qimmatlashuvi natijasida o‘zbek bozorida shunga muvofiq ko‘tariladi.

Endi Rossiyada ishlab chiqarilgan tovar narxi qimmatlashdi, shu sababli uni tashib keltirish (import) qisqarib boradi. Aksincha, o‘zbek so‘mining kursi oshib borgani sari, respublika uchun tovarlarni tashib keltirish (import) va kapitalni chetga chiqarish foydali bo‘ladi. Shunday qilib, milliy valyuta kursining pasayishi bilan baholar darajasi ham pasayadi va dunyo bozorida O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan tovarlarning raqobatga bardoshlilikiga orta boradi, eksport va xorijiy kapitalni oqib kelishi rag‘batlantiriladi va aksincha milliy valyuta kursining ko‘tarilishi bilan mamlakat uchun chetdan mol olib kelish (import) va kapitalni chetga chiqarish foydali bo‘ladi.

Mamlakatlarning o‘z tashqi iqtisodiy siyosatlarini amalga oshirishda valyuta kurslari tebranishidan unumli foydalanish hamda xalqaro hisob-kitoblar barqarorligini ta’minlashga intilishlari suzib yuruvchi valyuta kurslarini tartibga solish zarurligini taqozo etadi. Davlat valyuta bozorlariga “bosqinchilik” qilish va Markaziy bank hisob stavkasini o‘zgartirish yordamida valyuta kurslari harakati nazorat qilinishi mumkin bo‘lgan oqimga yo‘naltiradi. Tashkil qilingan “bosqinchilik” yoki bozorga katta miqdorda valyuta tashlash milliy valyutaga bo‘lgan talab va taklifga, pirovardida valyuta kursiga ta’sir qiladi.

Hisob stavkalarining oshirilishi pullarni yanada “qimmatliroq”, uning pasaytirilishi esa ularni yanada “arzonroq” qiladi, o‘z navbatida davlat tomonidan ishlangan bunday chora investitsiya, to‘lov majburiyatlari harakatiga ta’sir qiladi va shunga muvofiq valyuta kurslarining o‘zgarishiga olib keladi. XVF faol a’zolarining kelishuv-

lariga ko‘ra 1976-yildan boshlab, bu mamlakatlarning Markaziy banklari xorijiy valyutalarni sotadilar va sotib oladilar, 1985 yildan boshlab esa, jahon valyutalari kurslarini tartibga solish maqsadida kelishilgan «birlashgan bosqinchilik» va hisob stavkalarini o‘zgarishi choralarini qo‘llamoqdalar.

Valyutalarni almashtiruv kurslari tebranishini samarali boshqarishga misol qilib Yevropa valyuta uyushmasi faoliyatini keltirish mumkin. Uning qatnashchilari o‘z valyutalari kurslarini faqat o‘rnatilgan mulkdor doirasida, belgilangan chegaralarda o‘zgartirishga yo‘l qo‘yadilar. Davlat olib borayotgan iqtisodiy siyosatning kuchli ta’sir qiluvchi quroli milliy valyutani “devalvatsiya” yoki “revalvatsiya” qilish hisoblanadi. Devalvatsiya deganda, milliy valyuta bahosini jahon pul standartiga nisbatan kamaytirishga qaratilgan tadbir tushuniladi va aksincha, uning qiymatini oshirishga qaratilgan tadbir revalvatsiya deb ataladi. 70-yillargacha, oltin standart davrlarda milliy valyutalar oltinga nisbatan arzonlashtirilgan (ya’ni ularning oltin miqdori rasman pasaytirilgan), undan keyingi davrlarda esa, erkin konvertirlanadigan valyutalarga nisbatan pasaytirilgan, XVF ga a’zo-mamlakatlar esa, o‘z valyutalarini SDR ga nisbatan ham pasaytirganlar.

Suzib yuruvchi kurslar asosida barpo etilgan zamonaviy valyuta tizimida valyutalarning bozor devalvatsiyasi tatbiq qilinmoqda. Bu bozorda bir pul birligi bahosini asosiy iqtisodiy sheriklar bo‘lgan bir guruh mamlakatlarning valyutalariga yoki birgalikda tebranib turuvchi valyutalar uchun rasmiy o‘rnatilgan markaziy kursga nisbatan tushirib yuborishni bildiradi, markaziy kurslar qandaydir bir valyutaga (asosan AQSH dollariga) yoki «valyutalar savatiga» yoki xalqaro pul birligiga nisbatan o‘rnatiladi. Masalan, Yevropa valyuta uyushmasida milliy valyutalarning markaziy kursi EKYUga nisbatan o‘rnatiladi. Ushbu uyushma a’zolari uchun ular pul birliklarining markaziy kurs atrofida tebranib turish chegarasi aniqlanadi (masalan 2,5 foiz atrofida). O‘zgarishlar o‘rnatilgan chegaradan oshib ketsa, devalvatsiya hisoblanadi. Agar valyutalarning oddiy qadrsizlanishi valyuta bozoridagi talab va taklif ta’sirida ro‘y bersa, devalvatsiya shu bilan farq qiladiki, bu jarayonda milliy valyuta qiymati bir vaqtda sezilarli darajada pasaytiriladi, uning miqdori XVF bilan kelishilgan holda hukumatlar tomonidan o‘rnatiladi. Masalan, 1971 yilda AQSH dollari devalvatsiya

qilindi. Jahon valyuta tizimini tartibga solishning bu vositasi kamdan-kam hollarda - pul muomalasi butunlay izdan chiqqanda, milliy valyutaga bo'lgan talab davomli tushib borganda (hukumat uning bozor kursini «valyuta bosqinchiligi» yo'li bilan ham to'xtatib tutolmaydi), inflyatsiya jarayoni tobora oshib borayotganda va mamlakat to'lov balansining uzoqqa cho'zilgan taqchilligida qo'llaniladi.

Milliy valyutani devalvatsiya qilishdan davlatlar jahon bozorida eksport qilinayotgan tovarlarning bahosini pasaytirish va ichki bozorda import tovarlarining bahosini oshirish hamda shu yo'l bilan eksport-import oqimini tartibga solishda foydalanadilar. Barcha mamlakatlar ma'lum muddatda o'z valyutalari kurslari to'g'risidagi aylanmani e'lon qilib boradilar. Misol uchun, respublikamizda 1994 yildan buyon markaziy gazetalarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining xorijiy valyutalarning so'mga nisbatan rasmiy kursi e'lon qilib kelinmoqda. Bunday xabarlarida gap rasmiy nominal valyuta kurslari to'g'risida boradi. Lekin kuchayib borayotgan inflyatsiya sharoitida jahon bozorida milliy mahsulotga bo'lgan talabni, uning raqobatga bardoshlilikini aniqlashda milliy va xorijiy tovarlar baholari o'rtasidagi nisbatni ham bilish kerak bo'ladi. Ya'ni milliy valyutaning real almashtirish kursini hisoblab chiqish kerak.

Real kurs tovarlarning milliy valyutadagi bahosiga va nominal almashtirish kursiga bog'liq bo'lib quyidagi tenglik bilan izoqlanadi.

Real volyuti kursi - nominal valyuta kursi X uz mamlakatida ishlab chiqirilgan tovarlar bahosi X xorijiy ishlab chiqarilgan tovar bahosi

Bu tenglikni umumiy ko'rinishda shunday yozish mumkin:

Real valyuta kursi = nominal valyuta kursi / baholar darajasi.

Past valyuta kursida milliy tovarlar nisbatan arzonroq, xorijiy tovarlar esa nisbatan qimmatroq turadi.

Shuning uchun eksport o'sib boradi, import esa qisqarib boradi va aksincha, yuqori real valyuta kursida milliy tovarlar nisbatan qimmatroq, xorijiy tovarlar esa nisbatan arzonroq turadi. Natijada import o'sib, eksport qisqarib boradi.

4. Valyuta bozorlari va valyuta operatsiyalari Valyutaning almashtirish kursi ularni olish-sotish jarayonida belgilanadi. Tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari bo'lgan korxonalar, banklar, moliya -kredit muassasalari va jismoniy shaxslar tashqi savdo hisob-kitoblarini

kapital va ishchi kuchi migratsiyasini amalga oshirish, valyuta rezervlarini to'ldirish, valyuta xavf-xataridan sug'urta qilish, shuningdek, valyuta kurslari o'zgarishi hisobiga foyda olish uchun xorijiy valyutani sotib oladilar va sotadilar.

Xorijiy valyuta oldi-sotdisi bo'yicha bo'ladigan bu operatsiyalar valyuta operatsiyalari deb ataladi. Valyuta sotuvchilari va xaridorlari o'rtasida doimiy bo'ladigan telefon, teletayp va boshqa aloqa turlari ko'rinishidagi bu operatsiyalar yig'indisi valyuta bozori deb yuritiladi. Shunday qilib, valyuta bozorlari xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida muhim vazifalarni bajaradi.

Birinchidan, ular mahsulotlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining xalqaro aylanishiga xizmat ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ular talab va taklif asosida valyuta kursini aniqlaydi.

Uchinchidan, ular valyuta xavf-xataridan himoyalashni ta'minlaydi, chayqovchilik kapitalidan foydalanish imkoniyatini yaratadi, turli mamlakatlar o'rtasida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlaydi.

Zamonaviy jahon valyuta bozorining xususiyati shundaki, unda savdo va moliyaviy operatsiyalarga xizmat ko'rsatish bilan emas, balki almashadigan kurslar farqi hisobiga foyda olish bilan bog'liq operatsiyalar ustunlikka ega. Hozirgi vaqtda bu operatsiyalar hissasiga jahon valyuta aylanishining 90 foizdan ortig'i to'g'ri keladi.

40-50- yillarda bu ko'rsatkich 10 foizni tashkil etgan edi. Demak, jahon valyuta bozori hisob-kitob markazidan moliyaviy resurslarni xalqaro qayta taqsimlash mexanizmiga aylanib bormoqda. Zamonaviy valyuta bozori 50-80- yillarda yaratilgan edi. Bu davrda, bir tomondan, bozorda qatnashuvchilar soni tez ko'paydi, operatsiyalar hajmi o'sdi, ikkinchi tomondan, barcha valyuta operatsiyalari yaxlitligini shakllantirishga imkon beruvchi aloqa vositalari va yangi texnika paydo bo'ldi.

Valyuta operatsiyalarini juda qisqa muddatda amalga oshirish natijasida ularning moddiy ko'rinishi yo'qoldi: milliy pul birliklari bir mamlakatdan boshqasiga asosan banklarning korrespondent hisoblaridagi yozuvlar ko'rinishida ko'chsa, naqd pullar faqat pul almashtiradigan shoxobchalar, sayyohlik firmalari, banklar tomonidan aholiga xizmat ko'rsatishda qo'llaniladigan bo'ldi. Jahon valyuta bozorini milliy valyutalari deyarli cheklanmagan holda almashinadigan davlatlar tashkil etadi. Bular AQSH, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Kanada, Gonkong, Birlashgan Arab Amirliklaridir. Ko'p-

lab mamlakatlarda valyuta konventirlanmaydigan yoki qisman konventirlanadigan bo'lgani uchun jahon valyuta bozorida faqat vakolat berilgan banklar va davlat muassasalari qatnashadi. Respublikamizda bunday vakolat Milliy bankka berilgan. Jahon valyuta bozorlari valyuta bozorlariga va yevrovalyuta bozorlariga yoki Yevro bozorga ajratiladi. Agar valyuta o'z mamlakatida sotilsa va sotib olinsa, valyuta bozori hisoblanadi, agar bu undan tashqarida yuz bersa Yevro bozor hisoblanadi.

Yevrobozorda savdo qilinadigan valyutalar Yevrovalyutalar deb ataladi. (yevrodollar, yevromarka, yevrobank va boshqalar). Masalan, agar O'zbekiston Milliy banki AQSH bankidan dollarda kredit olsa, bu operatsiya valyuta bozorida yuz beradi. Biroq, xuddi shu kreditni dollarda London bankidan olsa, u holda bu Yevrovalyuta bozoridagi savdo bo'ladi. Bu dollar yevrodollar deb ataladi. Dollarning to'lov-kredit vositasi sifatida tarqalganligini hisobga olgan holda yevrodollar bozori kengayib bormoqda.

Valyuta bozorlarida amalga oshiriladigan operatsiyalar bo'linadi: - naqd yoki spot» operatsiyalar, ular bitimni tuzish vaqtida yoki keyin "spot" kurs deb ataluvchi joriy valyuta kursi bo'yicha naqd xorijiy valyutani qo'llashni ko'zda tutadi:

- muddatli operatsiyalar, ular bo'yicha hisob-kitoblar bitimni rasmiylashtirilgach, 2 kundan so'ng qilinadi;

- bu operatsiyalar valyuta kursi o'zgarishidan himoyalash yoki qo'shimcha foyda olish maqsadida amalga oshiriladi.

Ular banklararo (forvard) va birja (fyuners) valyuta operatsiyalari bo'lishi mumkin. Banklararo yoki forvard operatsiyalarini amalga oshirishda valyuta kursi va summasi bitimni tuzish vaqtida qayd etiladi, biroq muddat kelguncha (asosan 1-6 oy) hisoblar bo'yicha summalar o'tkazilmaydi. Bu operatsiyalarda qo'llaniladigan forvard kurslar mavjud kurslarga ("spot" kurslarga) chegirmalar yoki mukofotlar ko'rinishida o'rnatiladi. Masalan, agar AQSH dollari "spot" kursida 1 funt sterlingga 1,9925 dollar bo'lsa va 3 oyga 0,0325-0,0310 dollar mukofoti bilan kotirovka qilinsa, u holda xaridorning bir oylik kursi 1,9600 dollarga teng bo'ladi (1,9925-0,0325).

Qat'iy belgilangan muddatda "forvard" kursi bo'yicha to'lovlarni ko'zda tutuvchi oddiy muddatli valyuta bitimi "autrayt" deb ataladi. Muddatli banklararo operatsiyalar miqdori bo'yicha har qanday bo'li-

shu mumkin va naqd pul bilan ta'minlashni talab etmaydi. Muddatli birja yoki fyuchers operatsiyalari shu bilan farq qiladiki, ular bitimning barcha shartlari, ya'ni summasi, muddati, hisoblash usuli va shu kabilar aniq ko'rsatilgan standart kontraktlar savdosi ko'rinishida o'tkaziladi.

Bu ko'rinishdagi bitimlarni tuzishda katta bo'lmagan kafolatli depozit kiritiladi. Fyuchers "operatsiyalari valyuta bozorlarida 70-yillardan boshlab o'tkaziladi va asosan AQSH da keng tarqalgan. Barcha valyuta operatsiyalarining asosiy hissasi naqd bitimlarga to'g'ri keladi. Shu bilan birga suzuvchi kurslar qoidasiga asoslangan zamonaviy valyuta bozori uchun muddatli operatsiyalar hajmi va turlarining o'sishi ham xosdir. Xususan, ularning "opsion" bilan birgalikda «*lidzendlegz*», "svop" kabi ko'rinishlari ham rivojlanib, amalda keng qo'llanilmoqda. "Opsion" bilan operatsiyalar tomonlardan biriga kontraktning muqobil valyuta shartlarini tanlash huquqi berilishini ko'zda tutadi. Tomonlar ushbu huquqdan qachon va qanday sharoitlarda foydalanish mumkinligi to'g'risida kelishib oladilar. Bu huquqning amalga oshirilishi qo'shimcha foyda olish imkonini beradi. «*Lidzendlegz*» operatsiyalari korxonalar, firmalar, korporatsiyalar tomonidan keng qo'llanilib, to'lov muddatlari yoki bitimning boshqa shartlarini o'zgartirishga imkon beradi.

"Svop" operatsiyalari muddatli bitimni naqd bitim bilan qo'shib olib boradi; naqd valyutani ("spot") sotish uni muddatga (forvard) sotib olish bilish bir vaqtda amalga oshiriladi yoki aksincha. Muddatli valyuta operatsiyalarining ahamiyati shundaki, ular qo'shimcha foyda olishning yoki valyuta xavf-xataridan sug'urta qilishning samarali usuli hisoblanadi. Valyuta xavf-xatari deganda valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda xorijiy valyuta kursining milliy pul birligiga nisbatan o'zgarishi bilan bog'liq mumkin bo'lgan pul yo'qotishlar tushuniladi. Masalan deylik, o'zbek korxonasi Pokiston firmasi bilan 2 mln. dollarlik mahsulot yetkazib berish to'g'risida kontrakt tuzdi. Kontrakti tuzish davrida dollar kursi 1250 so'mni tashkil etgan edi va o'zbekistonlik eksport qiluvchi korxonada berilgan 2 mln. dollar hisobidan 2500,0 mln. so'mga ega bo'lardi (2 mln. dollar X 125,0 so'm). Biroq bitim tugallanishi chog'ida dollar kursi pasaydi va 1200 so'mni tashkil etdi, unda eksport qiluvchi 2400 mln. so'mga ega bo'ladi (2 mln. dollar X 1200 so'm), ya'ni 100 mln. so'mni valyuta

kursi o'zgarishi hisobiga yo'qotadi, import qiluvchi Pokiston firmasi esa yutadi.

Shunday qilib, kontraktidagi valyuta kursining milliy valyutaga nisbatan pasayishida, kontrakti imzolash va u bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish o'rtasidagi davrdagi yo'qotishlar eksport qiluvchilar zimmasida bo'ladi. Import qiluvchi esa kontraktning tugallanishi chog'ida valyuta kursi ko'tarilgan holdagina zarar ko'radi.

Asosiy tushunchalar:

Jahon valyuta tizimi - turli mamlakatlar o'rtasidagi valyuta-kredit munosabatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi tizim.

Oltin standart -pulning asosiy shakli oltin hisoblangan o'zaro aloqalar amaliyoti.

Erkin konvertirlanadigan valyuta - har qanday xorijiy valyuta erkin va cheklanmagan miqdorda ayirboshlanadigan valyuta.

Qisman konvertirlanadigan valyuta - xorijiy valyutalarning ma'lum bir qismigagina ayirboshlanadigan, xorijiy valyutani sotib olishda va sotishda cheklashlar mavjud bo'lgan valyuta.

Konvertirlanmaydigan valyuta – xorijiy valyutalarga ayirboshlanmaydigan va ichki to'lov aylanmasiga xizmat qiladigan valyuta.

SDR (50K) -Xalqaro valyuta fondining maxsus pul birligi.

EKYU hududiy xalqaro valyuta birligi.

Yevropa Ittifoqi valyuta tizimida hisob-kitob va kredit funksiyalarini bajaradi.

Valyuta kursi -bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligidagi bahosi.

Kotirovkalash -valyuta kursini o'rnatish.

To'g'ri kotirovkalash -xorijiy valyuta birligiga to'g'ri keladigan milliy valyuta miqdorini o'rnatish.

Teskari kotirovkalash -milliy valyuta birligiga to'g'ri keladigan xorijiy valyuta miqdorini o'rnatish.

Devalvatsiya - milliy valyuta kursining kamaytirilishiga qaratilgan tadbir.

Revalvatsiya - milliy valyuta kursini oshirishga qaratilgan tadbir.

Nominal valyuta kursi – bir-birlik milliy valyutaga to'g'ri keladigan xorijiy valyutaning qiymati.

Real valyuta kursi – bir-birlik milliy tovar va xizmatlarga to‘g‘ri keladigan xorijiy tovar va xizmatlar qiymati.

Valyuta operatsiyalari - xorijiy valyutaning oldi-sotdisi bo‘yicha bo‘ladigan operatsiyalar.

To‘lov balansi - mamlakatga chet eldan keladigan barcha tushumlar va mamlakat chetga chiqaradigan barcha to‘lovlar ko‘rsatiladigan hujjat.

Nazorat savollari:

1. Oltin standartga asoslangan milliy valyuta tizimi xususiyatlari nimadan iborat?

2. Agarda AQSH xazinasini oltinning 1 unsiyasini 35 dollarga, Buyuk Britaniya xazinasini esa 12,5 funt sterlingga sotib olsa, bu valyutalarning oltin pariteti nimaga teng bo‘ladi ?

3. Jahon valyuta tizimi shakllanishining asosiy shart-sharoitlarini ayting.

4. Bretton-Vuds valyuta tizimining xususiyatlari nimadan iborat?

5. Hozirgi zamon jahon valyuta tizimining xususiyatlari qanday ?

6. Jahon valyuta tizimining qaysi belgilarini ajratish mumkin?

7. Xalqaro ayirboshlashda foydalaniladigan asosiy to‘lov kredit vositalarining tavsifini bering.

8. Qaysi valyutalar rezerv valyuta sifatida qo‘llaniladi?

9. Valyutaning konvertirlanishi nima va u qanday ko‘rinishlarda mavjud bo‘ladi? O‘zbek so‘mi valyutalarning qaysi turiga kiradi? Javobingizni asoslang.

10. Valyuta kursi va kotirovka deganda nimalar tushuniladi ?

11. AQSH dollarining kursi o‘zbek valyutasiga nisbatan 1250 so‘m, Rossiya rubliga nisbatan 40 rubl bo‘lsa, o‘zbek so‘mini Rossiya rubliga bo‘lgan kross-kursini aniqlang.

12. Qaysi valyuta kurslari erkin suzib yuruvchi, cheklangan darajada suzib yuruvchi va qayd etilgan valyuta kurslari deb ataladi?

13. O‘zbek so‘mining Rossiya rubliga bo‘lgan nisbatining doimo o‘shishini faraz qilsak, bu holatda o‘zbek tadbirkorlariga nima manfaatliroq: o‘z mahsulotini Rossiyaga olib chiqishmi yoki Rossiya tovarlarini olib kelishmi?

14. Valyuta devalvatsiyasi nima va u valyutaning oddiy qadrsizlanishidan qanday farqlanadi?

15. Agarda nominal valyuta kursi 5, ikki mamlakatdagi baholar darajasidagi nisbat esa 0,4 ga teng bo'lsa, real valyuta kursi nimaga teng?

16. Valyuta bozori deganda nima tushuniladi va u qanday funksiyalarni bajaradi?

17. Valyuta operatsiyalarining qanday ko'rinishlari mavjud?

18. Agar o'zbek korxonasi fransuz firmasi bilan bitim tuzib, unga joriy valyuta kursi bo'yicha keyingi hak to'lansa, bu operatsiya naqd (spot) yoki muddatli hisoblanadimi?

19. Xalqaro iqtisodiy faoliyatning turlari to'lov balansida qanday aks ettiriladi?

20. Joriy operatsiyalar hisobi va kapital harakati hisobi bir-biri bilan qanday bog'langan?

21. Joriy operatsiyalar bo'yicha balans qoldig'i 60, kapital harakati balansida qoldig'i esa +50. Rasmiy rezervlardan tushumlar qanday bo'lishi lozim va u qaysi qatorda aks ettiriladi. Kredit (+) qatoridami yoki debet (-) qatoridami?

22. To'lov balansida taqchilligini bartaraf etish maqsadida davlat qanday chora-tadbirlarni amalga oshirishi mumkin?

8 BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA ISHCHI KUCHI BOZORI VA MIGRATSIYASI MUAMMOLARI

8.1. Jahon ishchi kuchi bozori tushunchasining mohiyati, shakllanish sabablari va rivojlanish omillari

Aholining ommaviy migratsiyasi jahon hamjamiyatining XX asr ikkinchi yarmidagi hayotining eng xarakterli xususiyatlaridan biriga aylandi. Aholi migratsiyasi deganda, ma'lum hududlarda insonlarning doimiy yashash joyini almashtirish yoki unga qaytish sharti bilan ko'chib o'tishi tushuniladi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro (tashqi) migratsiyaning mehnat, oilaviy, rekreatsion, turistik va boshqa turdagi shakllari mavjud.

Biz xalqaro mehnat migratsiyasi, xalqaro ishchi kuchi bozori muammolarini ko'rib chiqamiz. Xalqaro ishchi kuchi bozori milliy chegaralarni kesib o'tuvchi turli-tuman ishchi kuchi resurslari oqimini qamrab oladi. Xalqaro ishchi kuchi bozori ishchi kuchining milliy va mintaqaviy bozorlarini birlashtiradi. Xalqaro ishchi kuchi bozori mehnat migratsiyasi shaklida namoyon bo'ladi. Jahon bo'yicha 1960 yilda 3,2 mln., 2004 yilda esa 35 mln.dan ortiqroq migrant mavjud bo'lgan.

Jahon ishchi kuchi bozori deganda ishchi kuchini sotish, sotib olish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan davlatlararo ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui tushuniladi⁴⁵.

Jahon ishchi kuchi bozorida ishchi kuchining qiymati baholanishi bilan birga uni yollash, ish haqining miqdori, mehnat sharoitlari, ta'lim olish va kasb mahoratini o'stirish imkoniyatlari, ish bilan bandlik kafolatlari va boshqa bir qator shartlar aniqlanadi. Jahon ishchi kuchi bozori jahon aholisining ish bilan bandlik darajasi, uning tarmoqlar, kasb-malaka, demografik, ishsizlikning ko'lami va o'zgarishi kabi asosiy jarayonlarni aks ettiradi.

Jahon ishchi kuchi bozori ham boshqa xil bozor tizimlari kabi makroiqtisodiy usullarni qo'llash sohasi bo'lib, u bir-biriga bog'liq bo'lgan talab va takliflar ta'sirida muntazam o'zgarib turadi.

⁴⁵ Акопова Е.С., Воронкова О.Н. Мировая экономика и МЭО. Учебное пособие. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2004. - С. 201

Bozor iqtisodiyotining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida jahon ishchi kuchi bozorining shakllanishi uchun mehnat munosabatlarini huquqiy jihatdan ta'minlash, bozor rag'batlari samarali ta'sir ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratuvchi tashkiliy tadbirlar tizimini vujudga keltirish lozim.

Jahon ishchi kuchi bozoriga o'tishning eng muhim sharti ish beruvchi bilan xodim o'rtasidagi munosabatlarda tenglik va erkinlik o'rnatishdir.

Jahon ishchi kuchi bozorining iqtisodiy talablariga javob beradigan me'yorda amal qilishi esa bir qator shartlarning bajarilishini taqozo qiladi. Ularning asosiylari quyidagilardir:

- talab va taklifning erkin amal qilishini kafolatlovchi huquqiy asoslar mavjudligi;

- bozor subyektlarining erkin harakat qilishi uchun zarur zamin-iqtisodiy makonning mavjudligi;

- jahon ishchi kuchi bozori infrastrukturasi mavjudligi;

- ish haqi miqdorining chegaralanmaganligi, uy-joy bozorining mavjudligi va boshqalar.

Jahon ishchi kuchi bozorida amalga oshadigan munosabatlar doirasida asosan mamlakatlarning ishchi kuchini sotuvchi va sotib oluvchilar ishtirok etadi va bu jarayonga bir tomondan ishlash istagi bor bo'lganlar (bunga ish bilan band bo'lganlar ham, ishsizlar ham kiradi), ikkinchi tomondan – tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish uchun xodimlarni yollovchilar kiradi. Jahon ishchi kuchi bozori faqatgina bo'sh ish joylarini yaratishga va ishsizlarga ish topib berishgagina xizmat qilmasdan, balki yollanma mehnat sohasini keng mazmunda o'rganishni ham o'z ichiga oladi.

Ana shuning uchun ham mehnat munosabatlari va unda jalb etilgan xodimlar bilan bog'liq keng miqyosli soha jahon ishchi kuchi bozori va aholini ish bilan band etish siyosatining obyekt bo'lib xizmat qiladi. Bunga ish haqi muammolari, mehnat sharoitlari, bajarilayotgan ish hajmi va intensivlik darajasi, korxonalarda ish bilan ta'minlashning barqarorligi, mehnat motivlari, jahon ishchi kuchi bozorining egiluvchanligini ta'minlash, ishchi kuchini mehnatga tayyorlash va qayta tayyorlash kabilar kiradi.

Ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifga ta'sir qiladigan omil ish haqidir. Ammo ushbu mexanizmdagi har bir o'zgarish o'zaro bog'liq

ravishda uning tarkibiga kiruvchi boshqa unsurlarning o'zgarishiga olib keladi. Chunonchi, ishchi kuchi miqdorining ortib ketishi ish haqining kamayib ketishiga va, o'z navbatida, ish joylari miqdorining nisbatan kamayishiga olib keladi va hokazo. Umuman olganda, bu to'g'ridagi asosiy ilmiy-uslubiy tasavvurlarni jahon iqtisodiyoti amaliyoti va nazariyasidan bilib olsak bo'ladi. Hozirgi paytda jahon ishchi kuchi bozorining amal qilinishi va nazariy tushunchasiga har xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ularni o'rganish ishchi kuchi bozori haqidagi dunyoqarashimizni yanada boyitadi.

Neoklassik yondashuv. G'arb iqtisodiy nazariyasida ishchi kuchi bozoriga turli ishlab chiqarish zaxiralaridan biri sotiladigan bozor deb qaraladi. Bunda zamonaviy ishchi kuchi bozori amal qilishiga nisbatan mavjud bo'lgan 4 ta asosiy konseptual yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin⁴⁶.

Birinchi konsepsiya asosida klassik siyosiy iqtisodiy postulatlar yotadi. Bu konsepsiya asosan neoklassiklar (Dj.Perri, M.Fidstayn, R.Holl) tomonidan ilgari surilgan. 80-yillarda esa uni iqtisodiy taklif qilish konsepsiyasi tarafdorlari A.Laffer va boshqalar ham qo'llab-quvvatlashdi. Ushbu konsepsiya tarafdorlari ishchi kuchi bozori ham boshqa bozorlar kabi baho muvozanati asosida harakat qiladi, ya'ni bu yerda ham baho (bu holda ishchi kuchi bahosi) asosiy bozor regulyatori bo'lib xizmat qiladi, deb hisoblashadi. Ularning fikriga ko'ra, aynan ish haqi yordamida ishchi kuchi talabi va taklifi tartibga solinadi hamda ularning muvozanati ta'minlab turiladi. Ta'lim va malaka oshirishga (inson kapitaliga) qilingan investitsiyalar mashina va uskunalarga qilingan investitsiyalar kabidir. Baho muvozanati modeliga ko'ra, toki bu qo'yilmalarga foyda me'yori pasaymagunga qadar malakali investitsiyalar kelaveradi. Neoklassik konsepsiyaga ko'ra, ishchi kuchi bahosi talab va taklifga bog'liq holda goh ko'payib, goh kamayib bozor ehtiyojiga tezlik bilan moslashadi. Ishchi kuchi bozorida muvozanat mavjud bo'lgan sharoitda esa ishsizlik bo'lishi mumkin emas.

Ish haqining talab va taklif tebranishlarga to'la mos ravishda o'zgarishi ayniqsa, ishsizlikning mavjud bo'lmasligi borasida aniq

⁴⁶ Ломакин В.К. Мировая экономика: учебник для студентов вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. С. 301

tarzda gapirib bo‘lmasligi tufayli bu konsepsiya tarafdorlari ular nazariyasining hayot bilan mos kelmasligiga bozorning qaysidir “nomukammalliklari”ni qilib ko‘rsatishadi.

Bularga kasb uyushmalarining ta’siri davlat tomonidan ish haqi minimal darajasining belgilab qo‘yilishi, yetarli axborot yo‘qligi va hokazolar kiradi. Bundan tashqari ishsizlikning go‘yoki erkin xarakteri to‘g‘risidagi fikr ham ilgari suriladi. Lekin shu o‘rinda agar ishsizlik erkin xarakterga ega bo‘lsa, nima uchun u iqtisodiy sikllar fazalariga bog‘liq holda o‘zgarib (tebranib) turadi, degan haqli savol paydo bo‘ladi. Ammo ular bu savolga asosli javob berishmaydi.

Keynscha yondashuv. Keynes va monetarlar ishchi kuchi bozorining amal qilish tartibini tushuntirib berishga boshqacha yondashadilar. Neoklassiklardan farqli ravishda ular ishchi kuchi bozoriga doimiy va fundamental muvozanat xos ekanini isbotlashga urinadilar.

Keynscha model (J.M.Keyns, keyinroq R.Rordon va boshqalar) ishchi kuchi bahosi (ish haqi) qat’iy belgilangan va amalda o‘zgarmaydi (ayniqsa, kamayish tomonga) degan qoidadan kelib chiqadi. Modelning bu unsuri tasdiqlanib o‘tirilmasdan shak-shubhasiz dalil sifatida qabul qilinadi. Keynschilar fikricha, bozor iqtisodiyoti sharoitida to‘la bandlikni kafolatlovchi hech qanday mexanizm mavjud emas. Mazkur nazariyaga ko‘ra, bandlik darajasini oshirish va real ishsizlikni kamaytirish tashqi omillarga bog‘liq emas. Aksincha, ishchi kuchi bozoriga faol ta’sir o‘tkazishni ichki omillar, jumladan, investitsiyalar va omonat qo‘yilmalar orqali amalga oshirish darkor. Shu bilan birga, bozor sharoitida tovarlar va ishchi kuchi bahosi pasayish belgisiga egadir. Shunday qilib, bu omillar (tashqi - qurg‘oqchilik, iqtisodiy pasayish va ichki omillar) iqtisodiyotni yanada qiyin ahvolga solib qo‘yadi. Shuning uchun ham keyinchilar ishchi kuchi bozorini avtomatik tarzda tartibga solish mexanizmini inkor qiladilar. Bu konsepsiyaga ko‘ra, baho (ish haqi) bozor regulyatori emasligi (bo‘lmasligi) tufayli ham u chetdan kiritilishi kerak. Bozor regulyator rolini davlat bajaradi. Davlat yalpi talabni kamaytirib yoki ko‘paytirib mavjud tengsizlikka barham berish mumkin. Shunday qilib, bu modelga ko‘ra, ishchi kuchiga talab mehnatga bo‘lgan bozor baholarining tebranishlari bilan emas, balki yalpi talab bilan,

boshqacha qilib aytganda, ishlab chiqarish hajmi bilan tartibga solinadi.

Monetarcha model. Keynscha yondashuv tarafdorlari singari monetarchilar maktabi vakillari ham ishchi kuchiga bo'lgan baholarining qat'iy strukturasi ham bu baholarning bir xil yo'nalishdagi o'sib boruvchi harakati shart-sharoitlaridan kelib chiqadilar. Monetarchilar tomonidan ilgari surilgan yondashuvga ko'ra, ishsizlikning tabiiy darajasi ishchi kuchi bozorining strukturasi xos xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Uning o'sishi bozordagi baholarni tez moslasha oladigan qilib qo'yadi. Me'yoriy amal qilishiga to'sqinlik qiladi, muvozanatsizlikni va bundan kelib chiqqan holda ishsizlikni kuchaytiradi, deb hisoblashadi. Bu maktab vakillarining fikriga ko'ra, ishchi kuchi bozori beqarorligi kuchayishiga olib keluvchi bunday salbiy omillarga davlat tomonidan ish haqi minimal darajasining belgilab qo'yilishi, kasaba uyushmalarining yetarli kuchga ega ekanligi, vakansiyalar mavjudligi haqidagi hamda rezerv ishchi kuchi haqidagi axborotlarning yo'qligi kiradi. Monetarchilar bozorni muvofiqlashtirish uchun pul-kredit siyosati dastaklarini qo'llashni taklif qiladi. Bunda so'z markaziy bankning hisob stavkasi tijorat banklarining markaziy bank hisobidagi majburiy rezervlari hajmi kabi dastaklar haqida boryapti.

Jahon aholisi yoshiga bog'liq ravishda ikki tipdagi odamlarni o'z ichiga oladi: mehnatga layoqatli - 15-60 yoshlilar, mehnatga layoqatsiz – bolalar va qariyalar. Aholi umumiy hajmining taxminan 70 foizi birinchi tipga tegishli, biroq bu ulush turli hududlarda o'zgarib turadi. Masalan, Osiyo va Afrikada voyaga yetmaganlar, Yevropa va Shimoliy Amerikada qariyalar ulushi yuqoriroq.

O'z navbatida, mehnatga layoqatli aholi ham ikkiga ajratiladi: iqtisodiy faol va faol bo'lmaganlar. Uy bekalari, talabalar (ta'til paytida), davlat qaramog'idagi fuqarolar, shuningdek, fuqaroligi bo'lmaganlar iqtisodiy faol bo'lmaganlar qatoriga kiradi. Bizni iqtisodiy faol aholi, ya'ni mehnatga layoqatli va unga intiluvchi odamlar qiziqtiradi. Fuqarolarning aynan shu toifasi mamlakat ichkarisida va xorijdan ish qidirish jarayonida faol ishtirok etadi.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi uzoq tarixga ega bo'lsa-da, XX asrga kelib u ishlab chiqarish omillari harakatining yetakchi

ko‘rinishlaridan biriga, binobarin, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning alohida muhim sohasiga aylandi.

Ushbu holatni quyidagi sabablar bilan bog‘lash mumkin:

- xo‘jalik hayotining baynalmilallashuvi;
- ijtimoiy-demografik o‘zgarishlar;
- fan-texnika va axborot sohasidagi inqilob;
- integratsiya jarayonlarining rivojlanishi;
- transmilliy korporatsiyalar faoliyati.

Bu omillar mehnatga layoqatli aholining harakatchanligining kuchayishiga sababchi bo‘ldi. Zero, insonlar mamlakatlar va qit‘alararo ko‘chish uchun rivojlangan kommunikatsiya infratuzilmasidan foydalanishadi. Hozirgi kunga kelib shunday jahon ishchi kuchi bozori (JIKB) vujudga keldiki, bu bozorning asosini milliy xo‘jalik tizimlari va jahon iqtisodiyoti doirasida ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi, tabiati va joylashuviga sezilarli ta‘sir etuvchi iqtisodiy faol aholining mamlakatlar va hududlar o‘rtasidagi jami migratsion aylanmasi tashkil etadi. XXI asrning boshiga kelib migrantlarning bir yildagi o‘rtacha miqdori 35 mln. kishiga yetdi (1960-yilda 3,5 mln)⁴⁷. Jahon ishchi kuchi bozori faqatgina migrantlarni emas, balki turli darajadagi migratsiya xizmatlarini, shuningdek, xorijiy mehnatkashlarning huquqiy maqomi, ularning mehnatini himoyalash, ularga ijtimoiy kafolatlar berish va boshqa shu kabi masalalar bilan shug‘ullanuvchi xalqaro tashkilotlarni ham o‘z ichiga oladi. Fuqarolarni o‘z vatanidan tashqarida ish qidirishga majbur etuvchi eng asosiy omil turmush darajasini yaxshilash va o‘z qobiliyatlaridan unumli foydalanishga intilish hisoblanadi. Ayni paytda ishsizlik, qishloq xo‘jaligida aholining ko‘payib ketishi kabi salbiy ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar ham yashash joyini vaqtincha yoki doimiy o‘zgartirishga sabab bo‘lmoqda.

8.2. Jahon ishchi kuchi bozorining rivojlanish bosqichlari, rivojlangan mamlakatlardagi demografik vaziyat va demografik muammolar

⁴⁷ Nazarova G.G., Xaydarov N.X. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O‘quv qo‘llanma. T.: TDIU, 2005. 91-b.

Bugungi kunga qadar iqtisodiyot nazariyasida jahon ishchi kuchi bozorining rivojlanishini tadqiq etishga qaratilgan bir nechta nazariy va uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning har biri jahon miqyosidagi iqtisodiy taraqqiyot davrlarining ma’lum bir bosqichiga to‘g‘ri keladi. Ushbu nazariyalarning eng mashhurlaridan biri – bandlikning klassik nazariyasi bo‘lib, u aholining to‘liq bandligini mavjud bozordagi raqobat mavjudligining zaruriy sharti sifatida belgilaydi, bu esa yalpi talabning yalpi taklifga mos kelishiga asoslanadi⁴⁸.

Bandlik klassik nazariyasining asosiy tamoyillari tashqi bozor aralashuvi natijasida muvozanatdan chiqib ketishi mumkin bo‘lgan erkin bozor faoliyati mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha yondashuvga asoslangan. Ushbu nazariya tarafdorlari bozor mexanizmini ishlab chiqarishni tiklaydigan hamda daromadlar va xarajatlar balansini ta’minlaydigan, o‘z-o‘zini tartibga soluvchi mexanizm sifatida talqin qilishgan⁴⁹.

Bandlik nazariyasining yangi konsepsiyasini J.M.Keyns o‘zining 1936 yilda nashr etgan “Bandlik, foizlar va pulning umumiy nazariyasi” nomli fundamental asarida e’lon qildi. Unda bandlik nazariyasiga yangi konseptual yondashuv ko‘rsatilgan bo‘lib, J.Keyns bandlikni tartibga solish mexanizmi bozor iqtisodiyotiga xos emasligini asoslagan holda klassik nazariyani butunlay rad etadi va iqtisodiyotning muvozanatliligiga davlatning tartibga soluvchi roli orqali erishilishini asoslab beradi⁵⁰.

XX asrning ikkinchi yarmida Keynsning bandlik modeli sanoatlashgan jamiyat modeli bilan almashtirildi. Uning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

1. Iqtisodiyotning barcha sohalarida ustun bo‘lgan sanoat texnologik ukladi shakllandi.

2. Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida bandlik nisbati o‘zgardi: qishloq xo‘jaligida band bo‘lganlarning ulushi pasaydi, sanoat tarmoqlari va xizmatlar sohasida bandlik ulushi ortdi.

⁴⁸ Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N.T., Bakieva I.A., «Mehnat iqtisodiyoti» (Darslik) – T.: TDIU, 2011 y. -73- b.

⁴⁹ Сэй Ж.Б. Трактат по политической экономии. Серия «Политическая экономия: ступени познания». - М.: Дело, 2000.–С. 43-44.

⁵⁰ Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег. Избранное. / Дж. М. Кейнс. - М.: ЭКСМО, 2007. –С. 76-77.

3. Shaharlar va shahar aholisining jadal rivojlanishi yuz berdi.

4. Jahon miqyosida bandlikning sifat jihatlarini belgilab beruvchi umumiy savodlilik darajasi va milliy ta'lim tizimlarining rivojlanishiga alohida ahamiyat berila boshlandi.

5. Aholi iste'moli darajasi sezilarli darajada oshdi.

6. Umumiy inson xarajatlari tarkibida mehnat vaqti qiymati nisbatan qisqardi.

7. Jamiyat rivojlanishidagi demografik ko'rsatkichlarining o'zgarishi, jumladan, tug'ilish va o'lim darajasining pasayishi, umr ko'rish davomiyligining o'sishi bilan bog'liq o'zgarishlar kuzatildi.

Taraqqiyot qonuniyatlariga asosan, XX asrning ikkinchi yarmi oxirida sanoatlashgan jamiyat modeli postindustrial modelga aylana boshladi. Modellarning o'zgarishi ko'p jihatdan mehnat unumdorligining o'sishi va moddiy ishlab chiqarish sohasidagi talab dinamikasining harakatlanishi bilan bog'liq bo'lgan bandlik jarayonidagi tarkibiy o'zgarishlar bilan belgilanadi. Ushbu o'zgarishlarning asosiy xususiyatlaridan biri – moddiy ishlab chiqarish darajasi o'sishi bilan sanoatda band bo'lganlar ulushining kamayishidir. Shunday qilib, rivojlangan mamlakatlarda sanoat ishlab chiqarishi va unda ishlaydigan ishchilar ulushining pasayishi bir vaqtning o'zida uning umumiy hajmining oshishi bilan ro'y beradi⁵¹. Aytish joizki, Keynsning ushbu yondashuvi yangi bilimlarga asoslangan iqtisodiyot sharoitida yanada takomillashgan holda o'z isbotini topmoqda.

Iqtisodiy adabiyotlarda xizmat ko'rsatish sohasining jadal rivojlanishi ushbu sohadagi bandlik jarayonining muhim sharti sifatida qaraladi. M.Porterning fikricha, bandlik jarayonidagi bunday o'zgarishlar bir qator omillar – xizmatlarga bo'lgan ehtiyojning o'sishi va uning o'zgarishi, ya'ni ishlab chiqarishga xizmat qiladigan aniq funksiyalarni muayyan korxonadan tashqarida bo'lgan hamkorlarga topshirishga bog'liq. M.Porterning hisob-kitoblariga ko'ra, jalb qilingan xizmatlarning yakuniy mahsulot yoki xizmatga qo'shilgan qiymatdagi ulushi 80% gacha bo'lgan qismini tashkil qiladi⁵².

⁵¹ Базылев Н.И. Макроэкономика / Н.И. Базылев, С.П. Гурко, М.Н. Базылева. - М.: ИНФРА-М, 2003. –С. 170-171.

⁵² Портер М. Конкурентное преимущество: как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость / пер. с англ. Е. Калининой. — М.: «Альпина Паблишер», 2008. — 720 с.

O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab, dunyoda mehnat turlari asosiy ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bo'yicha farqlana boshlandi. Ushbu sohada malakali ishchi kuchiga talabning o'sishiga olib keladigan, mustaqil biznes turi sifatida ajralib chiqadigan yuqori texnologiyali xizmatlarning roli ortib bordi. Bir qator iqtisodchilarning fikriga ko'ra, 90-yillarning oxirida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga ehtiyojlarning tortilishi qonuni, intellektual resurslar miqdorining o'sishi va inson kapitali sifatining o'zgarishi bilan bog'liq ravishda yuzaga keluvchi iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli omillari ta'sir ko'rsatdi⁵³.

Jahon iqtisodiyotida aholi bandligini shakllantirishning zaruriy sharti bu – yuqori darajada rivojlangan moddiy ishlab chiqarishdir, chunki aynan shu shartga asoslangan holda ishchilarni xizmatlar sohasida qayta taqsimlash uchun shart- sharoitlar yuzaga keladi. Bu tendensiyaga birinchi bo'lib A.Toffler o'tgan asrning 60-yillari o'rtalarida e'tibor qaratgan bo'lib, uning tadqiqotlarida mehnat shakllari sarfidagi asosiy o'zgarish sifatida rivojlangan mamlakatlar aholisi faoliyatida jismoniy mehnat 50% dan ko'proq pasayishni boshlaganligi aniqlangan⁵⁴.

Xizmat ko'rsatish sohasida bandlikni rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratadigan ushbu omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Ilmiy va texnikaviy taraqqiyotning tarkibiy ehtiyojlari. Ushbu ehtiyojlar ta'sirida transport, moliyaviy, telekommunikatsiya xizmatlari iqtisodiyotning zamonaviy infratuzilmasi asosini tashkil etadi va shu bilan birga, tarmoqlararo munosabatlar tizimini shakllantirish orqali boshqa sohalarda yangi ish o'rinlarini yaratishni rag'batlantiradi.

2. Aholi turmush darajasi dinamikasi. Bu omilni yetarli darajada e'tiborga olinsa, uning mazmun-mohiyatiga ko'proq daromadga ega bo'lgan aholi qo'shimcha xizmatlarga ko'proq pul sarflashi nazarda tutilgan.

⁵³ Иноземцев В.Л. За пределами экономического общества. М.: Академия — Наука, 1998.—С. 103-104.

⁵⁴ Тоффлер, Э. Революционное богатство / Э. Тоффлер, Х. Тоффлер. — М.: АСТ, 2007. — 576 с.

3. Jamiyatda iste'molchi psixologiyasining o'zgarishi. Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida iste'mol madaniyatida o'zgarishlar yuz berdi⁵⁵. Shuningdek, aholi daromadlari darajasi qayta baholanmoqda, bu, bir tomondan, ortib borayotgan daromadlar ta'siri va uning ishchi kuchi bozoriga ta'sirida aks etadi, ikkinchi tomondan, o'zlarining shaxsiy maishiy faoliyatini yollanma ishchilar bilan almashtiradigan yangi xizmatlarga bo'lgan ehtiyojning kengayishiga olib keladi.

Xizmat ko'rsatish sohasining kengayishi quyidagilarda namoyon bo'luvchi ishchilarga bo'lgan talabni ta'minlaydi:

1. Ishlab chiqarishning tobora murakkablashib borishi va kundalik hayot uchun ishlab chiqarishning o'sishi ushbu mahsulotni iste'molchiga yetkazish bilan bog'liq mehnat xarajatlari oshishi bilan birga yuzaga keladi.

2. Ta'limga bo'lgan ehtiyojning ortishi bevosita yangi talablarga muvofiq xodimlarni shakllantirish jarayoniga ta'sir qiladi.

3. Daromadlarning o'sishi bilan aholining o'z salomatligiga munosabati o'zgaradi, bu esa inson kapitalini shakllantirish omiliga aylanadi. Buning natijasida sog'liqni saqlash va tibbiy xizmatni rivojlantirish jarayoni tez sur'atlarda kengayib boradi.

4. Hayot sifatining sezilarli yaxshilanishi rivojlangan mamlakatlarda umr ko'rish davomiyligining oshishiga olib keldi, bu esa ijtimoiy xizmatlarning, xususan, qariyalarga xizmatlarning keng spektrini rivojlantirish, sog'lomlashtirish markazlarini yaratish, dam olish xizmatlarini rivojlantirish kabi sohalarda ish hajmining ortishini rag'batlantiradi.

5. Ish bilan band ayollar sonining o'sishi. Murakkablik nuqtai nazaridan, xizmat ko'rsatish sohasida ko'pchilik ayollar, shu jumladan, maxsus ma'lumotga ega bo'lmaganlar va uy bekalarining band bo'lishi uchun imkoniyatlar kengaydi.

6. Shaharlashuv darajasining ortishi. Ushbu sharoit shaharlarda yashash bilan bog'liq bo'lgan yangi xizmat turlarini, jumladan, hayot xavfsizligini ta'minlash va boshqa maishiy xizmat turlarining rivojlanishini ta'minlaydi.

⁵⁵ Лебедева Л.Ф. Структурные сдвиги в личном потреблении в России и США: особенности современного периода // США. ЭПИ. - 1997. - №12. - С. 36-37.

Shunday qilib, xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotining jadal rivojlanishini ta’minlaydigan shart-sharoitlar yangi ishchilarga bo‘lgan talabni kengaytiradi, bu rivojlangan mamlakatlarda ish bilan bandlikning industrial modeliga muayyan o‘zgarishlar kiritmoqda. Bundan tashqari, yigirmanchi asrning oxirida insonning mehnatga motivatsiyasi tizimida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Mehnat motivatsiyasi tizimida moddiy rag‘batlantirish ikkinchi darajaga o‘tib, bajarilgan ishdan qoniqish, o‘z qobiliyatlarini namoyon etish, o‘z-o‘zini takomillashtirish imkoniyati va boshqalar birinchi darajaga o‘tdi.

Bandlikning yangi modeli postindustrial modelga o‘xshash bo‘lib, unda ishlab chiqarishning an’anaviy omillari roli o‘zgaradi. Bunda axborot va bilim alohida o‘rin egallab, asosiy rivojlanish intellektual faoliyatga bog‘liq bo‘ladi. (8.1-jadval).

Ushbu modelda ishlab chiqarish xizmatlari uchun yangi, yuqori malakali ish o‘rinlarini va aholiga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq past malakali ish o‘rinlarini shakllantirish funksiyasini o‘z ichiga oladigan xizmat ko‘rsatish sohasi alohida o‘rin tutadi.

8.1-jadval

Bandlik modellari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari⁵⁶

| Bandlik modellari | Bandlik modellarining xususiyatlari |
|--------------------------------|---|
| Bandlikning klassik nazariyasi | Aholining to‘liq bandligi muayyan bozordagi raqobat mavjudligining zaruriy sharti sifatida belgilanadi, bu esa yalpi talabning yalpi taklifga mos kelishiga asoslanadi. |
| Keyns modeli | Bandlik bozor mexanizmi tomonidan muvozanatga kelmaydi, balki u davlatning ishsizlik va inflyatsiya darajasini tartibga solish bilan bog‘liq iqtisodiyotga aralashuvi natijasida barqarorlashadi. |
| Bandlikning industrial modeli | Moddiy ishlab chiqarish sohasining rivojlanishiga mutanosib holda sohada band bo‘lganlar miqdorining ortib borishi kuzatiladi. |

⁵⁶ Асракулов, А.С. Неформальная занятость и анализ факторов, влияющих на неформальную занятость в Узбекистане. // Региональная экономика: теория и практика, 2019. 17(12), 2328-2336.

| | |
|-----------------------------------|---|
| Bandlikning Postindustrial modeli | Moddiy ishlab chiqarish va unda ishlaydigan ishchilar ulushining pasayishi bir vaqtning o'zida uning umumiy hajmi oshishiga olib keladi. Bandlikning moddiy ishlab chiqarishdan xizmatlar sohasiga ko'chish jarayoni boshlanadi. |
| Bandlikning yangi modeli | Ishlab chiqarish an'anaviy omillarining roli o'zgaradi. Bunda axborot va bilim alohida o'rin egallaydi. Asosiy rivojlanish intellektual faoliyatga qaratiladi. Ushbu modelda ishlab chiqarish xizmatlari uchun yangi, yuqori malakali ish o'rinlarini va aholiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq past malakali ish o'rinlarini shakllantirish funksiyasini o'z ichiga oladigan xizmat ko'rsatish sohasi alohida o'rin tutadi. Mehnat motivatsiyasi tizimi o'zgaradi, "mehnat" tushunchasiga nisbatan yondashuv o'zgaradi. |

Shunday qilib, bandlikning zamonaviy modeli quyidagi o'ziga xos asosiy tendensiyalar bilan tavsiflanadi:

1. Rivojlangan mamlakatlarda ish bilan bandlikning asosiy tendensiyasi sifatida iqtisodiy faol aholi tarkibining moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan xizmat ko'rsatish sohasiga o'tishini ko'rsatish mumkin⁵⁷.

2. Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi bilan vaqtinchalik yollanuvchi ishchilar faoliyati keng tarqalmoqda. Shu munosabat bilan bandlikning yangi modeli - vaqtincha mehnatdan foydalanish hajmi ortmoqda.

3. Ishchi kuchi resurslari umumiy tarkibida ayollar ulushining ortishi.

4. Bandlik modelidagi mehnat intensivligi darajasiga qarab, ishchilarni ikki guruhga ajratiladi: mehnat sig'imi past, ammo ishchilarning yuqori kasbiy tayyorgarligi (telekommunikatsiya, kompyuter texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar va boshqalar) talab etiladigan guruh; mehnat sig'imi yuqori va kasbiy tayyorgarlik darajasiga talablar past (savdo, umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish va boshqalar) bo'lgan guruh.

5. Mehnat munosabatlarining qonuniylik holatiga ko'ra, yangi bandlik modelida bandlik rasmiy va norasmiy, shuningdek, o'z-o'zini

⁵⁷ Седлак М. Тенденции развития секториальной структуры экономики // Проблемы теории и практики управления. - 1998. - №2. - С. 31-32.

ish bilan ta'minlash (o'z biznesini yo'lga qo'yish, o'zini o'zi boshqarish) shaklidagi bandlik shakllari farqlanadi.

Erkin bozor munosabatlarini shakllantirish jarayoni yuz berayotgan mamlakatimizda ishchi kuchi bozorini takomillashtirishda yuqorida ko'rib o'tilgan bandlik modellari mohiyatidan kelib chiqqan holda tashkiliy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish milliy ishchi kuchi bozorining xalqaro ishchi kuchi bozoriga integratsiyasini tezlashtirish, bandlikka ta'sir etuvchi omillarni boshqarish samaradorligini oshirish hamda aholi bandligi samaradorligini oshirish imkonini kengaytiradi.

So'nggi yillarda jahon miqyosida ishchi kuchi resurslari ba'zi mamlakatlarda ko'payib, ba'zilarida, aksincha, kamayib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Ishchi kuchi resurslarining miqdoriy o'zgarishi bevosita bandlik masalalari dolzarbligini keltirib chiqarmoqda.

1820 yilda dunyo aholisi 1 milliard kishidan, 1960 yilga kelib esa 3 milliard kishidan iborat bo'lgan, 2019 yilda 7,7 milliard kishiga yetdi. Shundan, Xitoy aholisi 2017 yilda 1,4 milliard, 2019 yilda Hindiston aholisi 1,3 milliardni tashkil etadi. Shaharlarning tezda ko'payib borayotgani ham bandlik tarkibiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Demografik jarayonlar natijasida jahonda aholi sonining keskin oshib borganligi, o'z navbatida, aholi turmush farovonligini oshirish dolzarb masalalardan ekanligini ko'rsatadi.

Aholining samarali bandligi ta'minlangan holatda esa turmush darajasini oshirish imkoniyatlari kengayib boradi. Demografik jarayonlar aholining mehnatda bandlik holatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'zbekistonda aholining o'sishi yuqoridir, ayni vaqtda dunyoning ba'zi mamlakatlarida, jumladan, Yevropa mamlakatlarida aholining keksayishi kuzatilmoqda. Mazkur mamlakatlarda ishchi kuchi resurslariga nisbatan keksa aholi ulushi oshib borayotgani bandlikka ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Keksa aholi ulushi ko'payishining sabablari:

1. Tug'ilishning kamayishi, yoshlarning qisqarishi.
2. Umr ko'rish yoshining oshib borishi.

Keksa aholi ulushining mehnatga layoqatli aholiga nisbatan oshib borishining oqibatlari:

1. Aholining iqtisodiy faolligi, mehnat unumdorligining pasayishi.
2. Aholi harakatchanligining pasayishi.

3. Pensiya jamg'armasi mablag'larini to'laydigan mehnatga layoqatli aholi ulushining qisqarishi.

4. Davlat ijtimoiy xizmatlariga ehtiyojlarning ortishi.

Demografik vaziyat 2050 yilda dunyo aholisi 9,3 milliard bo'lishini ko'rsatmoqda. Bu davrda har bir ayolga 2 nafardan farzand to'g'ri keladi. Osiyoda ayollar ko'payishi kutilmoqda. Bu bilan 15 dan kichik yoshdagilarning o'sishi barqaror bo'lib qoladi.

BMTning prognozlariga ko'ra, 2050 yilda dunyo aholisining yarmidan ko'pi Osiyoda, 25 foizi Afrikada, 8,2 foizi Lotin Amerikasida, 7,4 foizi Yevropada, 4,7 foizi Shimoliy Amerikada yashashi kutilmoqda. XXI asr boshidan buyon aholi o'sishining 97 foizi rivojlanayotgan mamlakatlar, ya'ni Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi davlatlariga to'g'ri kelmoqda.

Rivojlangan davlatlarda esa mehnatga layoqatli yoshdagi kishilar soni qisqarib boradi. Mazkur mamlakatlardagi demografik jarayonlar keksa yoshdagi aholi ulushining ko'payishini iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir qilishi, natijada bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishini ko'rsatmoqda.

2017 yilda dunyo miqyosida band bo'lganlarning o'rtacha yoshi 40 yoshdan iborat bo'lgan bo'lsa, 2030 yilga borib 41 yoshga yetadi.

Dunyo miqyosida ishsizlik darajasi birmuncha barqarorlashgan bo'lsa-da, munosib mehnat turlari hali ham yetarlicha emasligi namoyon bo'lmoqda. Bu esa dunyo miqyosida yangi ish joylarini yaratish jarayonini jadallashtirishni, qo'shimcha chora-tadbirlarni qo'llashni talab etadi.

2017 yilda dunyo miqyosida ishsizlik 192,7 mln. kishini tashkil etgani holda, 2016 yilga nisbatan 2,6 mln. kishiga ko'paygan. 2017 yilda dunyo miqyosida ishsizlik darajasi 5,6%dan iborat bo'ldi.

Dunyo miqyosida global muammolardan biri shundaki, rivojlanayotgan va rivojlanmagan mamlakatlarda yashayotgan ishchilarning aksariyati norasmiy bandlar toifasiga mansub bo'lib, ro'yxatdan o'tmagan firmalarda faoliyat olib bormoqdalar. Mazkur ish joylarining aksariyatida mehnat sharoiti talablarga javob bermaydi, ishchilar ijtimoiy sug'urta qilinmagan.

Shuningdek, dunyo miqyosida rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida ishchilar mayda dehqon xo'jaliklarida vaqtinchalik, barqaror ish haqi mavjud bo'lmagan past malakali mehnat faoliyati

bilan banddirlar. Buning natijasida ularning aksariyati bir nechta ish joylarida ishlashga majburdirlar. Shunday bo'lsa-da, aksariyat hollerda ularning topgan mablag'lari o'zi va oilasi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashga yetmaydi.

Dunyo miqyosida bandlik bo'yicha dolzarb muammolardan biri norasmiy mehnatda bandlik oqimlarining kengayib borayotganligi, shuningdek, band bo'lganlarning aksariyati ish joylari yetishmasligi sababli qisqartirilgan ish kunida, nobarqaror ish joylarida band bo'lish bilan kifoyalanishga majbur bo'layotganligidir.

2017-yilda dunyo miqyosida band bo'lganlardan 1,4 milliard kishi barqaror bo'lmagan ish joylari bilan kifoyalanishga majbur bo'lgan, 2019 yilda ularning soni yana 35 million kishiga ko'payishi kutilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi ishchilarning to'rt dan uch qismi barqaror bo'lmagan ish joylarida band bo'lgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda «band bo'lgan kambag'allar» ulushining qisqarishi ishchi kuchi resurslarining o'sishiga nisbatan sekinlik bilan bormoqda. Rivojlanayotgan davlatlarda esa ayollar past ish haqi evaziga ishlashga majbur bo'lmoqdalar. 2017 yilda dunyo bo'yicha 300 mln. kishi kuniga 1,9 dollar ish haqi evaziga mehnat qilishiga to'g'ri kelgan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan demografik muammolar global miqyosida turli mintaqalar va hududlarda jahon ishchi kuchi bozoridagi barqarorlikni ta'minlashda o'ziga xos yondashuvlar hamda chora-tadbirlar ishlab chiqish lozimligini ko'rsatadi.

8.3. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi ko'rinishlari, tarkibi, yo'nalishlari va migrantlarni o'ziga jalb qiluvchi markazlar

Migratsiya lotincha so'z bo'lib, bir joydan ikkinchi joyga ko'chish ma'nosini anglatadi. Ushbu so'z keng ma'noda insonlar, hayvonlar, kapitallar hamda kimyoviy elementlarning yer qobig'idagi ko'chishini anglatadi⁵⁸.

Har bir chegaraga ma'lum aholining ko'chishi emigratsion va immigratsion oqimlarning yig'indisidan tuziladi. Emigratsiya chet elga

⁵⁸ Ломакин В.К. Мировая экономика: учебник для студентов вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. С. 301

chiqish bo'lsa, immigratsiya chet eldan kelishni bildiradi. Ushbu ikki oqim o'rtasidagi farq sof migratsiya hajmini, ularning yig'indisi esa yalpi migratsiya hajmini belgilaydi.

Biron bir xalqaro mintaqadan boshqasiga ko'chib o'tish har doim insonlarga xos bo'lgan doimiy xususiyatlardan biridir. Aholi migratsiyasi odamzod tarixida, yer sharida uning tarqalishida, xalqlarni paydo bo'lishida katta rol o'ynagan.

Migratsion jarayonlarning rivojlanishida odatda uchta yirik to'lqin alohida ahamiyat kasb etadi⁵⁹.

Birinchi – eski migratsiya nomini olgan, davr nuqtai nazaridan XIX asrning deyarli 2/3 qismini o'z ichiga oladi. Bu davr uchun sanoat ishchilarining ko'chishi xarakterlidir.

Ikkinchi to'lqin XIX asr oxiri – XX asrning boshida o'z ta'sirini ko'rsatdi. U yangi migratsiya degan nom olgan. Ushbu davrda bankrotga uchragan xristianlar migratsiyasi kuzatiladi.

Ishchi kuchi migratsiyasining uchinchi to'lqini Ikkinchi jahon urushidan so'ng boshlandi. Bu bosqichda qoloq mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlarga o'zaro qarama-qarshi ikkita migratsion guruhlarining ko'chib o'tishi xarakterlidir. Bir tomondan, kam o'rganilgan va malakasiz ishchilar oqimining ustunlik qilishi kuzatilsa, boshqa tomondan, ilmiy kadr va mutaxassislarining sanoat markazlari sari ko'chib ketishlari kuzatiladi.

Migratsion oqimlarning asosini ishchilar, past malakaga ega xizmatchilar tashkil etadi. Lekin xalqaro ishchi kuchi migratsiyasida yangi ko'rinish paydo bo'lib, bu ilmiy - texnik kadrlarning ko'chishi hisoblanadi. Insonlar yaxshiroq sharoitni izlab, o'z kuchini samarali qo'llash uchun hayot darajasi yuqori bo'lgan joylarni qidirib, AQSh va G'arbiy Yevropaga ko'chib o'tishmoqda.

Jahon hamjamiyati yaqin kunlarga xalqaro darajadagi migratsion jarayonlarning o'ziga xosliklari va oqibatlari, ko'lamlarini sezmay kelgan. Hozirda u keskin vaziyatlarni hal qilish va migratsion oqimlarni jamoaviy tartibga solish bo'yicha bir qancha mamlakatlar harakatlarini tartibga solish ehtiyoji yuzaga keldi.

Oxirgi paytlarda noqonuniy immigratsiya kuchaydi. Xitoyliklar AQSh va Rossiya chegaralaridan o'tib borishmoqda, jazoirliklar

⁵⁹ Ливенцев Н. Международные экономические отношения. - Учебник. М.: 2005, С.306.

Fransiyaga ko‘chib o‘tishmoqda va hokazo. Noqonuniy immigratsiya tadbirkorlarga eng arzon va huquqsiz ishchi kuchidan foydalanish va buning natijasida katta daromadga egalik qilish imkoniyatini yaratmoqda. Shuning uchun ham meksikalik noqonuniy immigrantlar oqimiga hatto Amerika politsiyasi ham bas kela olmayapti.

Institutsional, me‘yoriy-huquqiy va boshqarishning moliyaviy mexanizmlari global, mintaqaviy va milliy darajalarda yaratilgan bo‘lib, aholining xalqaro migratsiyasi va migratsion oqimlarni me‘yorga keltirish sohasidagi keskinlikni asta-sekin kamaytirishga yordam berdi. XX asrning oxirgi o‘n yilligi - XXI asrning boshlari shu bilan xarakterlidirki, ishchi kuchi resurslarini import va eksport qiluvchi mamlakatlar o‘z migratsion siyosatiga qator o‘zgarishlar kiritdi.

Bir qator mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o‘tishi jamiyatimiz hayotida turli o‘zgarishlarga olib keldi. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni tadqiq qilish natijalari yoshlar uchun ish joylarini yaratish, ayollarning ishsizlik darajasi, qonunbuzarlikning ko‘payishi, oila va qarindoshchilik aloqalarining susayishi kabi sohalarda muammolarni mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Mehnat migratsiyasi jahon kapitalistik xo‘jaligining rivojlanishi bilan bog‘liq holda vujudga keldi. Jahon iqtisodiy rivojlanishining global xarakteri, jahon xo‘jaligi aylanmasiga mamlakatlarning o‘zaro bog‘liqligi va ularning notekis iqtisodiy rivojlanishi migratsiyaning iqtisodiy sabablarini keltirib chiqaradi. Ularga quyidagilar kiradi:

- mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi farqlar va uning natijasida ish haqi, hayot, ijtimoiy ta‘minlanganlik darajalaridagi mamlakatlararo farqlar;

- alohida mamlakatlarning ishchi kuchi resurslari bilan ta‘minlanganlik darajalaridagi farqlar;

- milliy ishlab chiqarishda moddiy o‘zaro bog‘liqlikning o‘sishi;

- TMKlarning rivojlanishi;

- iqtisodiy sikllarining o‘sish davrida ishchi kuchiga talab ko‘payadi, inqiroz davrida pasayadi;

- jahon xo‘jaligida iqtisodiy integratsiya jarayonlari, ular o‘zaro birlashuvchi mamlakatlar orasidagi xalqaro ishchi kuchi migratsiyasini rag‘batlantiradi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, bu jarayonlar uchinchi

mamlakatlar uchun ishchi kuchini jalb qiluvchi yalpi markazlarga aylanmoqda;

- insonlar tomonidan boshqa mamlakatlar keng iqtisodiy imkoniyatlarga ega ekanligining tan olinishi, transport vositalarining rivojlanishi va arzonlashishi, xalqaro axborot tizimining kengayishi.

Xalqaro migratsiya aylanmasi tarkibini tushunib yetish uchun mehnat migratsiyasining ko'rinishlarini belgilab chiqish zarur, ularni turli mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin. Jahon tajribasida ishchi kuchi migratsiyasining shakllari quyidagicha guruhlanadi⁶⁰:

1. Yo'nalishlar bo'yicha:

- rivojlanayotgan va sobiq sotsialistik mamlakatlardan sanoati rivojlangan davlatlarga migratsiya;

- sanoati rivojlangan mamlakatlar doirasida;

- rivojlanayotgan mamlakatlar doirasida;

- yuqori malakali ishchi kuchining sanoati rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga migratsiyasi;

- rivojlanayotgan mamlakatlardan sobiq sotsialistik mamlakatlarga migratsiya.

2. Geografik yo'nalishiga ko'ra:

- tashqi va ichki.

3. Davomiyligiga ko'ra:

- doimiy, qaytmas (odatda, mintaqalararo migratsiya, shuningdek, qishloqdan shaharga bo'lgan migratsiyalar shunday xarakterga ega),

- vaqtinchalik, qoida bo'yicha, mintaqa ichkarisida;

- mavsumiy, pul topish niyatidagi har yili borib kelishlar;

- mayatnikli, yashab turgan manzildan yiroqda joylashgan har kunlik borib kelishlarni nazarda tutadi.

4. Qonuniyligi darajasiga ko'ra:

- qonuniy va noqonuniy. Mamlakatga ish qidirib kirib kelgan shaxslar yoki qonuniy ravishda mamlakatga kirib, noqonuniy ravishda ishga joylashadigan shaxslar noqonuniy migrantlar hisoblanadi.

5. Ijtimoiy tarkibiga ko'ra:

- malakasiz ishchilar,

- o'rta texnik va servis xodimlari,

⁶⁰ Ливенцев Н. Международные экономические отношения. Учебник. - М.: 2005, С. 308.

- talabalar (ta'til paytida),
 - mutaxassislar,
 - fan, madaniyat va sport arboblari, tadbirkorlar;
6. Tabiatiga ko'ra:
- bevosita va bilvosita (TMK doirasida firma ichida).
7. Mehnat shartnomasi ko'rinishiga ko'ra
- shaxsiy va jamoaviy;
8. Qabul qiluvchi mamlakatdagi huquqiy holatga ko'ra⁶¹:
- assimilyatsion (keyinchalik fuqarolik berilishi) va noassimilyatsion.

Butun aholi migratsiyasi bilan birgalikda alohida uning guruhleri – ijtimoiy, etnik va boshqa guruhlarning migratsiyasi ham farqlanadi. Masalan, ishchi kuchi migratsiyasini joylashtirishdagi farqlar natijasida ishga layoqatli aholining ko'chishi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti klassifikatsiyasi bo'yicha bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga ish va mablag' topish niyatida mamlakatga kirib kelgan shaxslar doimiy ishlab turuvchi migrantlar hisoblanadi.

BMT klassifikatsiyasiga asoslanib zamonaviy xalqaro migratsiyasining beshta asosiy turini farqlash mumkin⁶²:

1. Bir joydan ikkinchi joyga doimiy tarzda yashashga ko'chib kelganlar.

2. Kontrakt (shartnoma) bo'yicha ishlaydiganlar (ushbu shartnomada qabul qiluvchi mamlakatda yashash muddati aniq belgilangan bo'ladi).

3. Professionallar – yuqori darajadagi tayyorgarlik, tegishli ta'lim, amaliy ish tajribasiga ega bo'lganlar, shuningdek, jahon tizimidagi oliy ta'limga asoslanib ko'chib kelgan o'qituvchi va talabalar.

4. Noqonuniy migrantlar – ish faoliyati bilan shug'ullanuvchi, turistik yoki muddati o'tib ketgan vizlarga ega bo'lgan yoki umuman vizaga ega bo'lmagan xorijliklar.

5. Qochoqlar – hayot uchun qandaydir xavf tug'ilganda o'z vatanini tark etishga majbur bo'lganlar.

⁶¹ Nazarova G.G., Xaydarov N.X. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O'quv qo'llanma. T.: TDIU. 2005. 92-b.

⁶² Ливенцев Н. Международные экономические отношения. Учебник. - М.: 2005, С..309.

Zamonaviy xalqaro migratsiyaning ushbu beshta asosiy turi davrlar mobaynida shakllanib, hozirgi kunda dunyo miqyosida keng tarqalgan. Shu turdagi migrantlar mamlakat iqtisodiyotiga ham salbiy, ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro statistika ma'lumotlariga ko'ra, migrantlarning asosiy qismini ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligida band bo'lgan kam malakali ishchilar tashkil etadi. Shunday bo'lsa-da, mutaxassislarning, ya'ni TMKlar tuzilmasida e'tiborli va yuqori haq to'lanadigan mansablarni egallagan yuqori malakali ishchi kuchining migratsion oqimi («aqlning oqib chiqib ketishi») o'sib bormoqda. Bundan tashqari yildan yilga Yevropa Ittifoqi kabi integratsion birlashmalarda ayollar va yoshlarning safarbarligi kuchaymoqda.

Geografik yo'nalishga ko'ra mintaqalararo va mintaqada ichidagi tashqi aholi migratsiyasi farqlanadi. Bunda mehnat migratsiyasi oqimlarining aniq qayerga harakat qilganligini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ishchi kuchining birinchi ommaviy mintaqalararo ko'chishi majburiy tarzda bo'lgan. Bu XVII–XIX asrlardagi qullar savdosining rivojlanishi bilan bog'liq edi. Shunday oqim natijasida Afrika aholisi 1650-1850 yillarda 22 foizga qisqardi.

Ishga yollangan mustaqil shaxslar ko'chishi to'g'risida so'z yuritilganda, XIX–XX asrlarda yevropaliklarning okean ortiga chiqib ketishini eng yirik migratsion oqim deb hisoblash mumkin. XIX asrda qariyb 30 mln. kishi emigratsiya qilgan. XX asr boshidan Birinchi jahon urushigacha Yevropadan 19 mln. ga yaqin kishilar chiqib ketgan. 1914-1918-yillarda migratsiya jarayonlari nisbatan pasaygan, keyinchalik esa qaytadantiklandi va 1918-1939-yillarda 9 mln. kishi emigratsiya qildi. Ikkinchi jahon urushi Yevropadan okean ortiga aholi migratsiyasining to'xtalib turishiga sabab bo'ldi, urush tugagandan so'ng u yanada tiklanib, so'ngra tadrijiy ravishda yana susaya boshladi.

Emigrantlarning asosiy migratsiya oqimi kapitalizm jadal rivojlanayotgan AQShga tomon harakatlangan. Shu bilan birga, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Argentina va boshqa davlatlarga ham ko'chishlar mavjud. Ta'kidlash joizki, ushbu mamlakatlar aholi soni o'sishining asosiy omili immigratsiya bo'ldi. Irlandiya, Angliya,

Fransiya, Germaniya kabi Yevropa mamlakatlaridan immigrantlar kirib kelgan.

Oxirgi o'n yilliklarda nafaqat mintaqalararo, balki mintaqalarning ichkarisida yangi jahon ishchi kuchi bozorlari paydo bo'ldi.

Mehnat migratsiyasi deyarli barcha milliy iqtisodiyotlarga xos jarayondir. Biroq uning jadallik darajasi jahonning u yoki bu hududlarida farq qiladi. Migrantlarning eng jadal oqimi ishchi kuchini eksport yoki import qiluvchi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasida va tabiiy demografik o'sish sur'atida jiddiy farq bo'lganda kuzatiladi. Migratsiyaning asosiy to'rt yo'nalishi ichida jami migratsiya oqimining hajmi bo'yicha rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlar tomon ishchi kuchlarining ko'chishi birinchi o'rinda turadi. Mutaxassislar quyidagi migratsiya oqimlarini alohida ko'rsatib o'tishadi: G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari o'rtasida, sobiq sotsialistik mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlarga, rivojlanayotgan yoki o'tish davri iqtisodiyotli davlatlar o'rtasida (masalan, Janubiy Amerika chegarasida, Ukrainadan Rossiyaga).

Ishchi kuchi migratsiyasining yana bir yo'nalishi, ya'ni rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan yoki o'tish davri iqtisodiyotli davlatlarga migratsiya shaklida uchrasa-da, bu yo'nalishni tanlovchi migrantlar soni unchalik ko'pchilikni tashkil etmaydi. Ular TMKlarning shahobchalari va sho'ba korxonalarida band bo'lgan xodimlar, turli xayriya tashkilotlari va fondlarining a'zolari, shuningdek, sarguzasht izlovchilar hamda tavakkalchilardan iborat.

Migrantlarni o'ziga tortuvchi boshqa bir "ohangrabo" Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridir. Xorijiy ishchi kuchi jami aylanmasining $\frac{1}{4}$ qismidan ko'prog'i ularga to'g'ri keladi. Yevropa hamjamiyati mamlakatlarida migrantlar va ularning oila a'zolarining o'zi 13 mln. kishini tashkil etadi. Bu ma'noda Fransiya (mamlakat aholisining 8 foizi – 4 mln.ga Yaqin Shimoliy Afrikadan kelgan immigrantlar), Germaniya (7,5 foiz – 4630 ming kishi) davlatlari yetakchilik qilmoqda. Belgiyada 1 mln.ga yaqin ispaniyaliklar va italiyaliklar, Shvetsiyada 1 mln. atrofida finlar mavjudligi hisobga olingan. Bular dan tashqari Buyuk Britaniya, Belgiya, Niderlandiya, Shvetsiya, Avstriya ham ishchi kuchi qabul qilishda oldingi o'rinlarda turadi.

Yevropa ekspertlarining bashorati bo'yicha, umumiy bozor yaratilishidan so'ng migratsion oqimlarda bir necha o'zgarishlar ro'y beradi. Past malakali ishchilar ommaviy immigratsiyasining yomon tashkil etilishi barobarida maqsadga yo'naltirilgan jamoaviy kelishuvlar paydo bo'ladi. Migratsiyaning ko'p qismini past va o'rta malakali ishchilar tashkil etayotganiga qaramay, bu yerda yuqori malakali ishchilar ustun turuvchi huquqqa ega bo'ladilar.

Ishlovchi migrantlarni jalb qiluvchi ikkinchi markaz 70-yillarda Yaqin Sharq mintaqasida paydo bo'ldi. Neft qazib oluvchi mamlakatlar Hindiston, Bangladesh, Pokiston, Iordaniya, Yaman, shuningdek, Gretsiya, Turkiya, Italiyadan ko'pchilikni ishga jalb qilgan. 90-yillar boshiga kelib u yerda 4,5 mln. xorijliklar ishlagan (mahalliy ishchilar shu davrda 2 mln. kishini tashkil etgan). Alohida mamlakatlar ishchi kuchining umumiy miqdorida immigrantlar ulushi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu tarzda Birlashgan Arab Amirliklarida u 97 %ni, Quvaytda 86,5 %ni, Saudiya Arabistonida 40 %ni, ya'ni yalpi ishchi kuchining katta qismini tashkil etgan.

Yahudiylar Yaqin Sharqda migrantlarning ahamiyatli guruhini tashkil etadi. 1989-1994 yillarda MDH mamlakatlaridan Isroilga 500 ming kishi ko'chib kelgan. Sobiq kommunistik mintaqadan yahudiylar ko'chib ketishining asosiy sabablariga etnik vatanga qaytish, siyosiy noaniqlik va iqtisodiy qiyinchiliklardan qochish, qarindoshlar bilan birlashuv va diniy qarashlar kiradi. Isroil barcha yahudiylarni o'zlarining tarixiy vatanlariga qaytarishga harakat qilmoqda. Yahudiylarning "Jannatmakon yer"ga migratsiyasi, umuman olganda, siyosiy sabablar tufayli yuz bergan bo'lsa-da, uning iqtisodiy jihatlari ham mavjud. Turmush darajasi past bo'lgan mamlakatlardan Isroilga kelayotgan migrantlar oqimining jadalligi ham bundan dalolat beradi.

Ishchi kuchini o'ziga tortuvchi markazlar ichida eng yirik va 300 yildan beri mavjud bo'lgan markaz Shimoliy Amerika (AQSh va Kanada) hisoblanadi. Amerikalik mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra, 90-yillar davomida belgilangan kvota 675 ming kishi bo'lishiga qaramay yiliga 1 mln.dan ortiq migrantlar AQSh hududiga kirib kelgan. Tarixdan ma'lumki, ushbu mamlakatning ishchi kuchi resurs-lari immigrantlar hisobiga tashkil topgan.

Hozirgi paytda ham mamlakat ishchi kuchining 5 %ga yaqinini xorijliklar tashkil etadi. Urushdan keyingi immigratsiya ushbu

mamlakatda bir necha bosqichlarga bo‘linadi. Birinchi bosqich kuchli Yevropa oqimini tashkil etib, G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridan AQShga 6,6 mln. kishi kirib kelgan. Ikkinchi bosqich 1965 yilda boshlanib, bu paytda Osiyo va Lotin Amerikasidan kelganlarga qulay sharoit yaratuvchi qonun qabul qilingan. 1993 yildan uchinchi bosqich boshlanib, bu paytda Yevropa – Irlandiya, Polsha, shuningdek, Argentinadan emigrantlarga talab ko‘p bo‘ldi.

To‘rtinchi bosqichdagi xalqaro mintaqa Avstraliya hisoblanadi. Ushbu mamlakatda 200 mingta xorijiy ishchilar faoliyat ko‘rsatmoqda. Avstraliya AQSh singari o‘z siyosatini immigrantlar o‘zlashtirishga yo‘naltirdi.

Bundan tashqari, 1982 yildan boshlab Avstraliya mamlakatda biznesning rivojlanishiga ko‘maklashuvchi migratsion siyosat olib bormoqda. Unga asosan, mamlakatga, birinchi navbatda, iqtisodiyotga investitsiya qiluvchi immigrantlar qabul qilinadi⁶³.

Avstraliya hukumati mamlakat hududining katta qismida aholi zichligi darajasining pastligi va uning tarkibida xitoy millati ulushining ko‘payib borayotganidan xavotirda. Shuning uchun ham Kanberra tomonidan Avstraliya mamlakatiga qit‘aga oq irqqa mansub aholini, asosan, fertil (turmush qurish va farzand ko‘rishga qodir) yoshdagi ayollarning ko‘chib o‘tishini rag‘batlantirish borasida chora-tadbirlar majmui e‘lon qilingan.

Mehnat migratsiyasining beshinchi markazi Osiyo-Tinch okeani mintaqasi – Bruney, Yaponiya, Gonkong, Malayziya, Singapur, Koreya, Tayvan, Pokiston hisoblanadi. Masalan, Yaponiya migrantlar sifatida dastlab koreyslarni kirita boshlagan bo‘lsa, oxirgi paytlarda qora ishni bajaruvchi eronliklar ham paydo bo‘la boshladi. Shu bilan bir paytda Yaponiya mazkur mintaqa mamlakatlariga uning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarini amalga oshiruvchi yuqori malakali ishchi kuchini chiqara boshladi. Ushbu migratsiya tranzit professional migratsiya degan nom olgan.

Lotin Amerikasida ishchi kuchini jalb qiluvchi oltinchi markaz tashkil bo‘lgan, u yerda immigrantlarni asosan Argentina va Venesuela qabul qiladi. Migrantlarning umumiy soni 3 mln. kishini tashkil qilib,

⁶³ Колосова Р.П., Артамонова М.В. и др. Глобализация экономики и занятость населения. Учебное пособие, М. 2000.

ularning ko'pchilik qismi lotin amerikaliklardan tarkib topgan. Biroq Argentina, Boliviya, Braziliya, Venesuela, Chili va Paragvay sharqdagi yevropaliklarni jalb qilish bo'yicha maxsus dasturni subsidiya qilishdi, shular qatorida sobiq Ittifoqdan chiqib kelganlar ham mavjud. Ular neftchilar, injinerlar, ximiklar, fermerlarga katta ehtiyoj sezmoqda.

Bundan tashqari Afrika markazi ham mavjud. Taxminiy baholarga ko'ra, Afrikadagi mamlakatlararo migratsiya 2 mln. kishini tashkil etadi.

Asosiy migratsiya oqimining geografik yo'nalishlari bo'yicha jahon ishchi kuchi bozorining 4 ta yirik markazini asosiy deb aytish mumkin: Yaqin Sharq, G'arbiy Yevropa, AQSh va Kanada hamda Avstraliya.

MDH doirasida Rossiya yirik markaz bo'lsa-da, u ham eksportyor, ham importyor mamlakat sanaladi. Rossiyadan uzoq xorijga ishchi kuchi eksport qilinsa (yiliga 10 ming kishi), MDH mamlakatlaridan, asosan, Ukraina, Belorusiya, Moldaviya, Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikistondan (yiliga 2-3 mln. kishi) import qilinadi.

8.4. Ishchi kuchi eksporti va importining mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri

Xalqaro huquqiy hujjatlarda ishsizlikni kamaytirish, emigrantlardan valyuta mablag'larini kirib kelishi, qabul qiluvchi mamlakatda ularga yetarli darajadagi turmush sharoitini ta'minlashga ko'mak berish uchun emigratsion siyosat olib borilishi qayd etiladi.

Migrantlarning asosiy qismini 30-40 yoshdagilar tashkil etadi, ularning xorijga chiqishi ichki ishchi kuchi bozorida raqobatni yumshatish imkoniyatini beradi. Binobarin, milliy iqtisodiyotning beqarorligi sharoitida ijtimoiy keskinlik yumshatiladi.

Emigrantlarning o'tkazmalaridan kelib tushadigan valyuta mablag'lari jahondagi asosiy ishchi kuchi eksportyorlari (Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining bir qator mamlakatlari, shuningdek, ba'zi sobiq sotsialistik davlatlar) uchun milliardlab dollar bilan o'lchanadi. Bunday mamlakatlar o'nta atrofida. O'ttizdan ko'proq mamlakat yiliga 100 va undan ko'proq million dollar miqdorida emigrantlarning pul o'tkazmalarini oladi. Bunda kanal orqali valyuta daromadlari olishda ishlab chiqarish xarajatlari bilan kuzatilmaydi, zero bunday xarajatlar tovar savdosiga xosdir. Natijada ishchi kuchi eksportidan iqtisodiy

samara tovarlar yoki xizmatlar savdosidagidan taxminan besh marta yuqori bo'ladi. Mutaxassislar migrantlarning chet elga chiqishidan keladigan valyuta daromadlarining beshta manbasini ko'rsatib o'tishadi: vositachi-firmalar foydasidan soliqlar, migrantlarning o'z yurtiga pul o'tkazmalaridan soliqlar, migrantlarning shaxsiy investitsiyalashlari, ishchi kuchini import qiluvchi mamlakatlardan eksportyor mamlakatlarga davlatlararo kanallar orqali kelib tushadigan kapitallar, xayriya fondlari va xalqaro tashkilotlarning subsidiyalari.

Bundan tashqari migrantlar chet elda ishlab qaytgandan so'ng, odatda, 2-7 yil davomida valyuta o'tkazmalariga ekvivalent miqdorda qimmatli buyumlar va jamg'armalar olib kelishadi. Ishchi kuchi eksportining o'ziga xos ijobiy tomonlaridan biri shundaki, uzoq vaqt davom etgan xorijiy faoliyatdan so'ng bu ishchilarning umumiy kasb mahorati darajasi ortadi va ular o'z vatanlarida iqtisodiy hayotning yangi sohalarida ishlashga tayyor bo'lishini kiritish mumkin.

Ishchi kuchining chet elga yuborilishining salbiy jihatlari ichida eng asosiysi mehnatga layoqatli va yuqori malakali mutaxassislarning yo'qotilishi hisoblanadi.

Ishchi kuchini import qiluvchi mamlakatlar odatda, migrantlar soni va sifatini tarkibini tartibga solib boruvchi iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlardir. Tartibga solish dastaklari sifatida immigratsiya kvotalari va turli cheklashlardan (migrantning yoshi, ma'lumotlilik saviyasi, kasb mahorati darajasi, sog'ligi kabilar) foydalaniladi. Shuning uchun ham xorijdan ishchi kuchini jalb etishga tanlov tamoyilidan foydalanish to'g'risida aytish mumkin.

Ichki ishchi kuchi bozorida qo'shimcha ishchi kuchi paydo bo'lishining shubhasiz ijobiy jihatlari quyidagilarni kiritish mumkin:

- immigrantlar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlarning xarajatlarni kamayishi (xorijliklar importyor mamlakat fuqarolariga nisbatan faolroq va kamroq ish haqiga ishlashga tayyor bo'lishadi) hisobiga raqobatbardoshligi oshadi;

- migrantlar tomonidan tovar va xizmatlarga ichki talabning rag'batlantirilishi;

- malakali mutaxassislar tayyorlash, ijtimoiy dasturlar, shuningdek, boshqa davlatlardan patentlar, litsenziyalar va nou-xaular sotib olishga zarur mablag'larning tejalishi;

- ishchi kuchi taklifi sohasida raqobatni kuchaytirish orqali ichki ishchi kuchi bozoriga qo‘shimcha egiluvchanlikni berish.

Biroq ishchi kuchini eksport qilishda bo‘lgani kabi singari uning importida ham salbiy jihatlar mavjud. Xususan, rezidentlar va migrantlar o‘rtasidagi ish joyi uchun qo‘shimcha raqobat ishsizlikning kuchayishiga olib keladi.

Immigrantlar oqimining kengayishi bilan bog‘liq ravishda valyuta mablag‘larining mamlakatdan chetga chiqib ketishi ortib boradi. Bundan tashqari xorijiy ishchi kuchi, ayniqsa, afrikalik va osiyoliklar G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada milliy, irqiy va diniy negizdagi to‘qnashuvlarni keltirib chiqaradi, jinoiy holatlar soni ortadi.

Shunday qilib, migratsiya jarayonlarining jahon mamlakatlari iqtisodiyotiga ta’siri yetarli darajada ziddiyatlidir, uning salbiy va ijobiy tomonlarini nisbiy baholash mazkur mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va uning global iqtisodiy munosabatlar tizimidagi holatiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Ishchi kuchi eksporti milliy iqtisodiyotda ijobiy oqibatlar bilan bir qatorda salbiy oqibatlarga ham olib keladi. Bu eng avvalo “aqli kishilarning ketib qolishi” (ingl. brain-drain) deb ataluvchi yuqori malakali mutaxassislarning xorijga ketib qolishi bilan bog‘liqdir. Bu jarayonning mohiyati shundaki, mutaxassislar turmush darajasi past davlatlardan yuqori ish haqi, yaxshi mehnat sharoitlari, ijodiy imkoniyatlarni amalga oshirishga yetarli shart-sharoit, va nihoyat, ijtimoiy kafolatlar yaratib bera oladigan mamlakatlarga ketib qoladi.


Ishchi kuchini jo‘natuvchi davlat uchun salbiy bo‘lgan jihatlar qabul qilib oluvchi mamlakatlar uchun ijobiy hisoblanadi. Chunki kirib keluvchi ishchilarning aksariyat qismini yuqori darajada ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faol bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Bunga 1983-1987 yillarda Polshadan yosh kadrlarni chiqib ketishi bilan bog‘liq vaziyatni misol sifatida keltirish mumkin: bu mamlakatni tark etganlarning 15 foizini (50 ming kishi atrofida) oliy ma’lumotlilar tashkil etgan, ushbu emigrantlar Polsha oliy o‘quv yurtlarining bir yillik bitiruvchilariga to‘g‘ri keladi. “Intellektual migratsiya” jami ishchi kuchi migratsiyasi miqdorining 3-5 foiziga teng bo‘lsa-da, hozirgi paytda bu ulushning yildan-yilga ortib borishi kuzatilmoqda, binobarin, eksportyor mamlakat uchun iqtisodiy zarar miqdori ham oshib boryapti. Bu zarar ba’zi bir mamlakatlar milliy daromadining 10

foizigacha teng bo‘lmoqda. Mutaxassislarning chetga chiqib ketishi jahon bozorida raqobatchilarning mavqeini kuchaytiradi, chunki bu mutaxassislarning ko‘pchiligi yirik transmilliy korporatsiyalarga ishga joylashadi.

“Yuqori sifatli” ishchi kuchini o‘ziga jalb qiluvchi asosiy markazlar eng boy mamlakatlar AQSh, Kanada, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, kamroq darajada Yaponiya, Singapur, Tayvan sanaladi. Aqlli kishilarning xorijga chiqib ketishida asosiy sabablardan birinchisi, xorijiy talabalar va aspirantlarni chet eldagi universitetlari tomonidan jalb etilishi bo‘lsa, ikkinchidan, tajribali mutaxassislarning xalqaro kompaniyalarda ishga taklif etilishi hisoblanadi.

Ishchi kuchi ko‘chib yurishining iqtisodiy sababi - mehnatga to‘lanadigan haqning turli davlatlarda turlichaligidir. Demak, xalqaro ishchi kuchi harakatining asosiy bosh sababini turli davlatlarda o‘rtacha real ish haqi darajasining har xilligi bilan asoslash to‘g‘ri bo‘ladi.

Tasavvur qilamizki, dunyoda “A” va “B” davlatlari mavjud. “A” davlat LA miqdorda ishchi kuchi resurslari bilan, “B” davlat esa AL’ miqdorida resurslar bilan ta‘minlangan. Ikkala davlatning umumiy ishchi kuchi resurslari LL’ ga tengdir⁶⁴.



8.1-rasm. Mehnat migratsiyasining iqtisodiy samaradorligi

⁶⁴ Кругман П. Международная экономика. 5-е изд. СПб.: Питер. 2003г.

S1 va S2 to'g'ri chiziqlari bu ishchi kuchi evaziga yaratilgan mahsulot hajmi. Agarda, xalqaro mehnat migratsiyasi namoyon bo'lmasa, "A" davlat ichki ishchi kuchi resurslari zaxirasidan foydalanib ularga o'rtacha real ish haqi LS to'laydi. "B" davlat ham o'z ishchi kuchi resurslari zaxirasidan foydalanib L'D miqdorida o'rtacha real ish haqi to'laydi. "A" davlat bor ichki ishchi kuchi resurslaridan foydalangan holda $a+b+c+d+e$ miqdorda mahsulot ishlab chiqaradi. "B" davlatning ishlab chiqaradigan mahsuloti hajmi $i+j+k$ ga teng bo'ladi. "B" davlat "A" davlatga qaraganda ishchi kuchiga bir muncha ko'p haq to'lamoqda. $LS < L'D$, ya'ni "A" davlatdagi ish kuchi bahosi "B" davlatnikiga qaraganda past.

Davlatlarning real o'rtacha ish haqlari turlicha bo'lganligi munosabati bilan "A" davlatning bir qism AB ishchilari "B" davlatga o'tishadi. Natijada, ikkala davlatning ish haqi darajalari BR muvozanat holatga erishadi. "A" davlatda qolgan ishchi kuchi resurslari va "B" davlatga ishlash uchun ketgan ishchi kuchi evaziga yaratilgan yalpi mahsulot hajmi $a+b+c+d+e+h$ ga ko'paygan. Bu yerda $a+d+s+d$ "A" davlatdan ketmagan ishchi kuchiga tegishli yaratilgan mahsulot bo'lsa, $e+h$ "B" davlatga emigratsiya qilingan ishchi kuchi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini tashkil etadi. Rasmga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, "A" davlat mehnat unumdorligini oshirgani asosida va ko'chib o'tgan ishchilar mehnat samaradorligi hisobiga yaratilgan yalpi mahsulot h segmentiga ortgan. Bu esa ishlovchilar daromadining oshishiga olib kelmoqda. "B" davlatdagi o'zgarishni qaraydigan bo'lsak, "A" davlatdan kelgan migrantlar hisobiga, "B" davlatning o'rtacha real ish haqi L'D dan L'F=BR gacha pasayganligi kuzatiladi. Ammo, o'z navbatida, "B" davlatda yaratilgan ichki mahsulot hajmi $i+j+h$ dan $i+j+h+g+e$ ga ko'paygan. Bunda $r+e$ segmentlar, xorijiy ishchi kuchidan yaratilgan mahsulot hajmiga to'g'ri keladi va bir qismi daromaddan ushlab qolinadigan soliqni ayirib tashlagan holda xorijiy ishchi kuchiga maosh tarzida to'lanadi. Sof ichki ishlab chiqarish hajmi esa g segmentni tashkil etadi. Real o'rtacha ish haqi darajasi pasayganligi munosabati bilan "B" davlatdagi ishlovchilar daromadlari $j+k$ danga qisqaradi. Boshqa ishlab chiqarish omillari egalarining daromadi i -dan $i+g+j$ ga ko'tariladi. Bir davlatdan ikkinchi davlatga ishchilarni migratsiya qilish natijasida yaratilgan yalpi umumiy ishlab chiqarish hajmi $[a+b+c+d+e] + [k+j+I]$

dan $[a+b+c+d] + [e+g+h+i+j+k]$ ga ko'paygan. Bu yerda h, "A" davlatning bir kism ishchi kuchi resurslarining "B" davlatga emigratsiya qilish tufayli va qolgan ishchi kuchidan samarali foydalangan holda oshirilgan ishlab chiqarish hajmini anglatadi. g-segment esa "B" davlatning, xorijiy ishchi kuchidan foydalanilgan holda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmidir. Shunday qilib, ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi tufayli ikkala davlat ham o'zaro manfaatli natijalarga erishishga muyassar bo'lishdi.

O'zbekiston ham xalqaro savdo va moliya-kredit munosabatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda ishchi kuchining xalqaro migratsiyasida o'z ishtirokini kengaytirmog'i lozim.

8.5. Global inqirozlarning jahon ishchi kuchi miqyosi va tarkibiga ta'siri, xalqaro ishchi kuchi bozorini tartibga solish vositalari

Ma'lumki, hozirgi vaqtda jahonda ro'y berayotgan moliyaviy inqiroz va uning oqibatlari jahon iqtisodiy tizimining turli sohalariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Odatda, retsessiya uzoq muddatli iqtisodiy tendensiyalarga kuchli ta'sir o'tkazmaydi. Biroq global inqirozlar aholi daromadlari va bandligiga uzoq muddatli, hatto doimiy ta'sir etish kuchiga ega bo'ladi. Bu ta'sir rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda turlicha namoyon bo'ladi.

Hozirda ko'plab mutaxassis va ekspertlar tomonidan jahon moliyaviy inqirozining global tus olishi va iqtisodiy inqiroz jarayonlarining kuchayishi retsessiya va iqtisodiy pasayishni, investitsion faollik ko'lami cheklanib borishini, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi hamda jahonning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talafotlar sodir bo'lishi mumkinligi e'tirof etilmoqda.

Xususan, 2008 yilda jahon miqyosida bevosita xorijiy investitsiyalar oqimi 20% gacha pasayganligi kuzatilgan. 2009 yilda ham jahon yalpi ichki mahsuloti hamda pasayishi, bevosita xorijiy investitsiyalar ko'laminin yanada pasayishini kuzatilgan. Xalqaro savdo hajmi qariyb 15% dan ortiqroqqa pasaygan. Bu holat esa ishsizlik darajasining ortishi bilan bog'liq jiddiy ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy transfertlarning ko'payishi davlat xarajatlarining o'sishiga olib keladi.

Shunga ko‘ra, hukumatlar darajasida inqirozdan chiqish bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqishda bandlik masalalarini, talabni rag‘batlantirish orqali ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan keskin choralarni ko‘rish masalasini ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda.

Moliyaviy inqiroz tezda ishchi kuchi bozoridagi inqirozga aylandi. 2009 yilda iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda ishsizlik darajasi 9 % dan ortib ketdi.

Global moliyaviy inqiroz davrida AQShda ishsizlik bu darajadan allaqancha oshib ketdi. 2009 yil may oyida 2007 yil dekabriga nisbatan 6 mln. ish joyi yo‘qotilgan, ishsizlarning umumiy soni esa 14,5 mln. dan ortib ketdi. Ispaniyada 2009 yil aprelda umumiy ishsizlik darajasi 15 %ga, migrantlar orasida esa 28 %ga yetdi⁶⁵.

Inqirozdan eng ko‘p jabr ko‘rgan hududlarga migrantlarning ko‘pchilik qismi yashaydigan mamlakatlar, ya’ni rivojlangan mamlakatlar kiradi.

Inqirozning migrantlarga salbiy ta’sirini nafaqat rivojlangan mamlakatlarda, balki Fors ko‘rfazi, Sharqiy Osiyo va G‘arbiy Afrikada ham kuzatish mumkin.

Ishchi kuchi bozoridagi inqiroz eng avvalo migrantlar uchun yomon ta’sir ko‘rsatadi, chunki mamlakatlar inqirozli holatlarda birinchi navbatda xorijiy ishchilarni ishdan bo‘shatadi. O‘rtacha olganda migrantlar yoshroq bo‘lib, pastroq malakaga va ish stajiga ega, odatda, vaqtinchalik lavozimlarda ishlaydi va sekin rivojlanuvchi tarmoqlarga jamlangan. Bu esa pasayish paytida eng zaif hisoblangan guruhga xos tavsiflardir. O‘tkazilgan tahlillardan ma’lum bo‘ldiki, iqtisodiy pasayish davrida migrantlar o‘z vatanida yashovchilarga nisbatan ko‘proq ish yo‘qotadi. 1998-2008 yillarda 14 ta Yevropa mamlakatining yalpi ichki mahsulot va ishsizlik bo‘yicha choraklik ko‘rsatkichlari asosida aniqlanishicha, retsessiyani boshdan kechirgan mamlakatlarda migrantlar orasida ishsizlik darajasi boshqa guruhlarga nisbatan tezroq o‘sadi. IXRT a’zo mamlakatlarida migrantlarning katta qismi siklli rivojlanuvchi tarmoqlarda, jumladan, qayta ishlash sanoati, qurilish, moliya, ko‘chmas mulk, mehmonxona va restoran xo‘jaligi kabi tarmoqlarda jamlangan. IXRTning deyarli barcha yuqori daromadga ega a’zo mamlakatlarida migrantlarning 40 foizi shu

⁶⁵ Доклад о развитии человека 2009. ПРООН, 2009. С.41.

tarmoqlarda mehnat qilgan va bu sohalarda ish joylarining qisqarishi eng ko'p kuzatilgan.

Migrantlarning ko'chishiga inqirozning naqadar kuchli ta'sir etishini aniqlashda bir qancha omillarni hisobga olish kerak. Ushbu omillarga vatanida va chet elda bevosita rivojlanish istiqbollari, migratsiya, chet elda yashash va qaytish tavakkalchiligini anglash va kuchayib boruvchi to'siqlar kiradi. Ishchilarni jalb qiluvchi ayrim asosiy mamlakatlar qaytish uchun qulay imkoniyatlar (bonuslar, chiptalar, ijtimoiy to'lovlar bo'yicha yirik mablag'lar) yaratib berdi, shu bilan birga mamlakatga kirish va yashash bo'yicha to'siqlarni ham ko'paytirdi.

2008 yil mobaynida inqirozning kuchayishi natijasida rivojlangan mamlakatlarga migrantlar oqimining kamayganini ko'rish mumkin.

Buyuk Britaniyada mamlakatda yashayotgan xorijliklardan milliy sug'urta kartochkalariga talabnomalar soni 25 %ga kamaydi. AQSh aholini ro'yxatdan o'tkazish byurosi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar 2007 yil sentabrdan 2008 yil avgustigacha meksikalik migrantlar oqimining 25 %ga kamayganini ko'rsatdi. Bu tendensiyalar 2009 va 2010 yillarda ham davom etganligi kuzatiladi. Biroq bunday teskari oqimlar paydo bo'lmasligi ham mumkin. 1970-yillarda Yevropa mamlakatlarning gastrobayterlar uchun dasturlar tajribasi ko'rsatishicha, teskari oqimlarning hajmi qabul qiluvchi mamlakatga qaytish istiqbolloriga, mamlakatning ijtimoiy ta'minot tizimiga, oila a'zolarining ehtiyojlari va o'z vatanidagi shart-sharoitlarga bog'liq.

Hozircha global inqirozlarning migratsiya modellariga ta'siri noaniq. Avvalgi retsessiyalarning ko'rsatkichlari inqiroz turli oqibatlarni keltirib chiqarishini ko'rsatadi. Avstraliya, Argentina, Braziliya, Kanada, Buyuk Britaniya va AQSh mamlakatlari misolida o'rganilganda, 1850-1920 yillarda mamlakatda ish haqining pasayishi immigratsiyaga cheklovlarning zaiflashishiga olib kelgan. Ayrim olimlarning ta'kidlashicha, Yevropada uzoq muddatli iqtisodiy stagnatsiya, tarkibiy ishsizlik va malakasiz ishchi kuchiga pasaygan talab davrini boshlab bergan 1973 yildagi neft inqirozi migratsiya modellariga shunday ta'sir ko'rsatdiki, natijada nisbatan boyroq bo'lgan Yaqin Sharq mamlakatlari yangi ishchi kuchini jalb qiluvchi markazga aylandi. 1980-yillarda Meksikada import o'rnini qoplash siyosatining tanazzulga uchrashi AQShga ommaviy migratsiya oqimini keltirib

chiqardi va bu holat 1986 yilda bexosdan AQShda immigratsion islohotning o'tkazilishi bilan rag'batlantirildi. Shu bilan birga 1990-yillar oxirida ro'y bergan janubiy-sharqiy Osiyodagi moliyaviy inqirozning xalqaro migratsion oqimlarga uzoq muddatli ta'siri kuzatilmaydi.

Hozirgi bosqichda ro'y berishi mumkin bo'lgan tuzilmaviy o'zgarishlar turi va ko'lamini aniq aytib berish qiyin. Ayrim olimlarning fikricha, rivojlangan mamlakatlarning muayyan tarmoqlarida inqirozning boshlanishi va faol rivojlanishi rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa, Osiyo mamlakatlarining o'rnini kuchaytirishi va hatto jahon iqtisodiyotining tubdan o'zgarishiga ham olib kelishi mumkin.

Jahon moliyaviy inqirozining pul o'tkazmalar hajmiga ta'sirini tahlil qiladigan bo'lsak, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, inqiroz boshlanganda Yevropa mamlakatlaridan Afrikaga pul o'tkazmalar miqdori oshdi. Bunga sabab, ko'pchilik migrantlar mehnat qilayotgan mamlakatlardagi bank hisoblarini yopib, pul mablag'larini o'z yurtiga o'tkaza boshladilar va 2008 yilda bu ko'rsatkich rekord darajaga yetdi. Biroq keyingi davrda ularning miqdori tabiiy ravishda ancha qisqardi.

2009-yilda asosiy ishchi kuchini qabul qiluvchi mamlakatlarda boshlangan va global tus olgan iqtisodiy inqiroz rivojlanayotgan mamlakatlarga pul o'tkazmalarining hajmi qisqarishiga olib keldi.

O'tkazmalarga kuchli bog'langan mamlakatlarga, jumladan, Bangladesh, Misr, Salvador va Filippinga pul oqimi jiddiy qisqardi.

Inqiroz turli mamlakatlar va turli mintaqalarda pul o'tkazmalar hajmiga har xil ta'sir ko'rsatdi. Tahlillarga ko'ra, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlariga pul o'tkazmalari nisbiy va miqdoriy jihatdan eng ko'p qisqardi. Bu Yevropa Ittifoqiga a'zolik va Rossiyadagi kuchli iqtisodiy ko'tarilish orqasidan kelgan kuchli teskari oqim bilan tushuntiriladi. Moldova va Tojikistonda YaIMda pul o'tkazmalarining ulushi dunyo bo'yicha eng yuqori (mos ravishda 45 va 38 foiz) bo'lib, global moliyaviy inqiroz ta'sirida 2009 yilda ular 10 % ga tushdi. Salvadorda YaIMning 18 %ni tashkil qiluvchi pul o'tkazmalarining jiddiy foizli qisqarishi ro'y beradi. Sahroi Kabirdan Janubiy Afrikaga pul o'tkazmalarining $\frac{3}{4}$ qismi inqirozdan katta zarar ko'rgan AQSh va Yevropadan kelib tushgan.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotiga hanuzgacha o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Buni dunyoning

aksariyat mamlakatlarida ishsizlik darajasi ortib borayotganligi bilan ham izohlash mumkin.

Mamlakat mustaqil kasaba uyushmalari Federatsiyasining ma'lum qilishicha, inqiroz paytida Rossiyada 2,6 million kishi rasmiy ishsizlar ro'yxatiga olingan. Ro'yxatga olinmaganlari bilan qo'shib hisoblaganda esa ishsizlarning umumiy soni 2010 yil yanvar oyi oxirida 6,8 million kishini tashkil etgan.

Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash va ijtimoiy rivojlanish vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2010 yilning 24 fevralidan 3 martigacha bo'lgan muddatda Rossiyada ishsizlik 0,1 foizga kamaygan bo'lsa-da, ammo yil davomida ishsizlik darajasining yana pasayishi kuzatilgan. Global inqiroz sharoitida ishsizlik darajasi ortib, bu birinchi galda fan va xalq ta'limi, sanoat, qurilish materiallari va ko'mir ishlab chiqarish sohalariga o'z ta'sirini ko'rsatish taxmin qilinmoqda.

8.6. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet ellardagi mehnat faoliyatini tartibga solish masalalari

Jahon iqtisodiyotining XXI asrdagi integratsiyalashuvi va liberallasuvi jarayonida mehnat migratsiyasining ahamiyati tobora oshib bormoqda. Globallasuv jarayonlari, mamlakatni modernizatsiyalash, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashga qaratilgan. Bosqichma-bosqich sobitqadamlik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotda yangi sohalar va kasb-hunarlar paydo bo'lishiga, ishchi kuchi resurslari oqimlarining o'zgarishiga olib keladi.

O'zbekistonda ham tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlari kuchaymoqda. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 2010 yilda ko'chib kelganlar soni 139775 kishini tashkil qilib, ko'chib ketganlar soni 183858 kishini tashkil qilgan, ya'ni ko'chib ketganlar soni ko'chib kelganlarga nisbatan 44083 kishiga ko'pdir. 2019 yilda respublika bo'yicha kelganlar soni 158,8 ming kishini, ketganlar soni esa 169,5 ming kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i -10,7 ming kishini tashkil qildi (8.8-jadval).

8.8-jadval

**O‘zbekistonda 2010-2019 yillardagi migratsiya jarayonlari
ko‘rsatkichlari⁶⁶, kishi**

| Ko‘rsatkichlar | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 |
|------------------------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| Ko‘chib kelganlar soni | 139,8 | 136,6 | 169,7 | 155,1 | 145,3 | 139,3 | 141,5 | 157,1 | 160,1 | 158,9 |
| Ko‘chib ketganlar soni | 183,9 | 184,1 | 210,6 | 189,6 | 183,9 | 168,6 | 167,8 | 175,7 | 174,8 | 169,5 |
| Migratsiya saldosi | -44,1 | -47,5 | -40,9 | -34,5 | -38,6 | -29,3 | -26,3 | -18,6 | -14,7 | -10,6 |

Ma’lu motlarga ko‘ra, 2,5-3,0 milliondan ortiq o‘zbekistonlik ishchi kuchi migranti sifatida xorijda istiqomat qiladi. Ularning oilalariga jo‘natayotgan pul o‘tkazmalari hajmi viloyatlar kesimida, umumiy aholi daromadining 5 foizidan 23 foizigacha bo‘lgan qismini tashkil etadi.

Bu ayrim viloyatlarda oila daromadining o‘rtacha yigirmadan bir qismini, boshqa viloyatlarda esa aholi daromadlarining taxminan to‘rt dan yoki beshdan bir qismini tashkil etadi deganidir (8.9-jadval).

O‘zbekistonliklarning aksariyat qismi Rossiyada mehnat qilayotgan bo‘lsa-da, 2018 yilda mamlakatga qariyb 1 milliard AQSh dollarilik pulni boshqa yurtlarda ishlayotgan migrantlar jo‘natdi. So‘nggi yillarda boshqa mamlakatlarga mehnat migratsiyasi oshib bormoqda. Bizningcha, bunga 2014 yilda Rossiya rublining keskin qadrsizlanishi va buning ta’sirida ish haqi miqdori dollar hisobida bir yarim yoki ikki baravar kamayib ketgani sabab bo‘ldi.

8.9-jadval.

O‘zbekiston hududlariga xorijdan pul o‘tkazmalarining umumiy daromaddagi ulushi

| № | Hududlar | Xorijdan pul o‘tkazmalarining umumiy daromaddagi ulushi, % |
|----|--------------------|--|
| 1. | Xorazm viloyati | 23,2 |
| 2. | Samarqand viloyati | 19,3 |
| 3. | Andijon viloyati | 19,0 |

⁶⁶ www.stat.uz

| | | |
|-----|-------------------------------|------|
| 4. | Surxondaryo viloyati | 17,4 |
| 5. | Buxoro viloyati | 16,9 |
| 6. | Namangan viloyati | 16,5 |
| 7. | Farg‘ona viloyati | 15,3 |
| 8. | Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 14,8 |
| 9. | Qashqadaryo viloyati | 14,3 |
| 10. | Toshkent shahri | 12,0 |
| 11. | Sirdaryo viloyati | 10,0 |
| 12. | Jizzax viloyati | 6,2 |
| 13. | Toshkent viloyati | 5,4 |
| 14. | Navoiy viloyati | 5,1 |

So‘nggi 5 yilda ish topish maqsadidagi migratsiya geografiyasi o‘zgarib boshladi. Ishchilar oqimi AQSh, Turkiya, Isroil, Janubiy Koreya, BAA va Qozog‘istonga tobora o‘sib borayotgani kuzatilmog‘da (8.10-jadval).

8.10-jadval.

O‘zbekistonga jismoniy shaxslarning transchegaraviy pul o‘tkazmalari⁶⁷, mln. AQSh dollari

| Mamlakatlar | 2016 yil | | 2017 yil | | 2018 yil | |
|-----------------------|---------------|--------------|---------------|------------|---------------|------------|
| | Miqdori | Ulushi | Miqdori | Ulushi | Miqdori | Ulushi |
| Rossiya Federatsiyasi | 2998 | 79,3 | 3907,3 | 79,8 | 3963,1 | 77,5 |
| Qozog‘iston | 248,9 | 6,6 | 317,9 | 6,5 | 320,0 | 6,3 |
| AQSh | 150,0 | 4,0 | 162,5 | 3,3 | 188,4 | 3,7 |
| Turkiya | 98,4 | 2,6 | 150,1 | 3,1 | 203,8 | 4,0 |
| Janubiy Koreya | 49,9 | 1,3 | 64,4 | 1,3 | 108,3 | 2,1 |
| BAA | 34,1 | 0,9 | 35,3 | 0,7 | 34,2 | 0,7 |
| Isroil | 20,7 | 0,5 | 22,4 | 0,7 | 54,5 | 1,1 |
| Boshqa davlatlar | 180,7 | 4,8 | 227,0 | 4,6 | 241,8 | 4,6 |
| Jami | 3780,7 | 100,0 | 4896,6 | 100 | 5114,1 | 100 |

⁶⁷ <https://uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/graphics/4423/>

Quyidagi rasmdan ko‘rinib turganidek, qariyb 95 foiz pul o‘tkazmalari mehnat migratsiyasining “kuchli yettilik”ka kiruvchi mamlakatlardan jo‘natilgan.

Ish topish maqsadida Rossiyaga ketayotgan o‘zbekistonliklar soni yiliga 850 ming – 1 million kishi bo‘lib turgan paytda boshqa mamlakatlarga ketayotgan ishchi kuchi migrantlari soni tobora oshib bormoqda. 2018 yilda Rossiyadan yuborilgan pul mablag‘lari 2 foizga kamaygan bo‘lsa, qolgan mamlakatlardan jo‘natilgan o‘tkazmalar ulushi ortdi.

2018 yilda Qozog‘istonga safari maqsadini “ish” deb ko‘rsatgan o‘zbekistonliklar statistikasi bundan mustasno. Davlat statistika qo‘mitasining ma‘lumotlariga ko‘ra, bunday migrantlar 3,5 million kishini tashkil etadi. Aftidan, bu fuqarolarning ko‘pchiligi Qozog‘istonga boshqa maqsadda chiqqan. U yerga borgan ishchi kuchi migrantlarining haqiqiy soni bundan ancha kam. Qozog‘istondan O‘zbekistonga jo‘natilgan pul o‘tkazmalari miqdorining 2017 yilga nisbatan 28 foiz oshganiga qaraganda, 2018 yilda Qozog‘istonga ketgan ishchi kuchi migrantlari sonini 650 ming – 800 ming nafar deb taxmin qilsa bo‘ladi. AQSh va Turkiyaga ish topish maqsadida ketgan o‘zbekistonliklar soni ham amalda bir oz kamroq bo‘lishi mumkin. Biroq 2018 yilda ushbu mamlakatlardan jo‘natilgan pul o‘tkazmalari 30 foizga oshdi.

O‘zbekistonning iqtisodiy faol aholisi soni ko‘payishi barobarida ish qidirib chetga chiqayotgan fuqarolar soni ham oshib bormoqda. Shunisi qiziqki, bu raqamlarning o‘zaro nisbati 10-11 foiz atrofida deyarli o‘zgarmas bo‘lib turibdi. Boshqacha aytganda, O‘zbekistonning har o‘ninchi iqtisodiy faol fuqarosi har yili ish topish maqsadida xorijga chiqadi. Shu o‘rinda 2018 yil statistikasida keltirilgan ma‘lumotlar (4,1 million kishi) bundan mustasno ekanini qayd etish joiz.

Mehnat migratsiyasining zamonaviy davri oldingilaridan o‘z ko‘lami, tavsifi va ishtirokchilar tarkibi bilan farq qiladi. Ayniqsa, migratsion oqimlarning yo‘nalishi jiddiy o‘zgargan. Hozirgi vaqtda O‘zbekistondan xorijga emigratsiyaning uchta yo‘nalishini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Markaziy Osiyoga (chegaraoldi hududlardan Qozog‘iston va Qirg‘izistonga). Umumiy migrantlar sonining 50-65% - bu hosil terimiga yoki uy-joy qurilishiga kelgan mavsumiy ishchilardir, atigi 2-3% qonuniy ravishda mehnatning malakali sohalarida ishlaydi.

**O‘zbekistondan “ish” safar maqsadi bilan chiqib ketgan fuqarolar
va aholining iqtisodiy faol qatlami soni, ming kishi**

| Ko‘rsatkichlar | Yillar | | | | |
|---|--------|-------|-------|-------|-------|
| | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 |
| O‘zbekiston aholisining iqtisodiy faol qatlami soni | 13505 | 13768 | 14022 | 14353 | 14642 |
| “Ish” safar maqsadi bilan chiqib ketgan O‘zbekiston fuqarolari soni | 1435 | 1351 | 1450 | 1630 | 4134 |
| O‘zaro nisbat, % | 10,6 | 9,8 | 10,3 | 11,4 | 28,2 |

2. MDHning Yevropa qismiga. Migrantlarning asosiy oqimi Rossiyaga, nisbatan kam qismi Ukraina (bu asosan qrim tatarlari) va Belorusiyaga jo‘naydi.

3. Uzoq xorij mamlakatlariga – AQSh, Yevropa, Arab mamlakatlari, asosan, BAA, Misr, Bahrayn, Quvayt, Saudiya Arabistoni; janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari, asosan, Janubiy Koreya, Tailand, Indoneziya, Malayziyaga.

O‘zbekistonga ish izlab kelish borasida amalga oshirilgan, noqonuniy mehnat safarlar migratsiyasining bir nechta yo‘nalishlari mavjud⁶⁸:

- O‘zbekistonda ushbu mamlakatlar bilan viza rejimi amal qilishi ushbu yo‘nalishlarni qiyinlashtirishiga qaramay, migrantlarning 60%i Tojikistondan, 20% Turkmaniston va Qirg‘izistondan keladi;

- O‘zbekistonga Afg‘onistondan Tojikiston orqali keluvchilar soni umumiy oqimning 2 - 4%ini tashkil qiladi;

- Bundan tashqari Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston va Turkmaniston orqali Xitoydan Eron, Pokiston, Hindistondan keluvchilar bor.

Ma’lumki, yurtimizda keyingi yillarda aholi bandligi va iqtisodiy faolligini oshirish maqsadida yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va mavjud ish o‘rinlarining barqarorligini ta’minlashga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Bunda, asosiy e’tibor ishsizlikni kamaytirish, ishchi

⁶⁸ www.catalog.fmb.ru/uzbekistan10.shtml

kuchi bozoriga ilk bor kirib keluvchi ta'lim muassasalari bitiruvchilarining bandligini ta'minlash, birinchi navbatda aholining ijtimoiy zaif qatlami, xususan, ayollar, nogironlar, jazoni o'tab kelgan shaxslar, odam savdosi jabrdiydalari, tashqi migratsiya ishtirokchilari va boshqalarning bandligini oshirishga qaratilmoqda. Bu borada so'nggi yillarda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi oldiga qator muhim vazifalar qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5052-sonli Farmoni mamlakatimizdagi mehnat munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqishda muhim hujjatlardan biri bo'ldi⁶⁹.

Iqtisodiy islohotlarni o'tkazish davrida mehnat migratsiyasining muhim ijtimoiy funksiyasi – aholi tashabbuskorligi hisobiga ish bilan ta'minlashning muqobil va ommabop tizimini yaratishdir.

Bunday sharoitlarda ishchi kuchlarini yaqin va uzoq chet davlatlarga eksport qilish muammoni yechish yo'llaridan biri hisoblanadi. Bunday mehnat faoliyatiga aholining ehtiyoji juda katta. Ijtimoiy so'rovlarga ko'ra, bu sohada taklif talabdan 15-20 marta katta. Shuni ta'kidlash kerakki, kishilar faqat kambag'al bo'lganliklari yoki o'z vatanlarida ish topa olmaganliklari uchungina, ya'ni faqat moddiy ta'minotni o'ylab chet elda ishlashga intilishmaydilar. Mehnat almashinuvi obyektiv voqelik hisoblanadi. Unda asosan yangiliklarni bilishga, zamonaviy texnologiyalarda qatnashish, ilg'or tajribalar orttirishga intiluvchi va umuman dunyoni chuqurroq bilishga intilgan va uni turist sifatida tomosha qilmoqchi bo'lmagan yoshlar qatnashadilar.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2017 yilda 1,3 milliondan ortiq fuqarolar xorijiy davlatlarda mehnat qilganlar. Bu jami iqtisodiy faol aholining 8,2 foizini tashkil etadi⁷⁰. Bunday holat tashqi mehnat migratsiyasi masalalariga davlat

⁶⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5052-sonli farmoni. <http://lex.uz>

⁷⁰ Трудовая миграция в СНГ: социальные и экономические эффекты. /Отв. ред. Зайончковская Ж.А.- М.: ИИП РАН, 2003.

darajasida yanada jiddiyroq e'tibor qaratish, uni tartibga solish bo'yicha mavjud mexanizmlarni doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab qiladi.

Ushbu muhim vazifalarni tashqi mehnat migratsiyasi omillari, yo'nalishlari, natijalari hamda unda ishtirok etayotgan ishchi kuchi resurslari bo'yicha aniq ma'lumotlarga ega bo'lmasdan turib hal etishning imkoni yo'q.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3001-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mehnat organlari faoliyatini yanada takomillashtirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi"da Xalqaro Mehnat Tashkilotining ishchi kuchi migrantlari to'g'risidagi 97-sonli Konvensiyasini ratifikatsiya qilish imkoniyatlarini o'rganib chiqish belgilangan. Ushbu Konvensiyada migrantlarning mehnat faoliyati, ularning mol-mulki va oila a'zolari bilan bog'liq bo'lgan barcha jihatlar qamrab olingan.

Bundan tashqari, yuqoridagi qarorga muvofiq "Aholi bandligiga ko'maklashuvchi nodavlat tashkilotlari (rekruting agentliklari) faoliyati to'g'risida"gi qonun xususiy rekruting agentliklari faoliyatini qonun bilan tartibga solish, shuningdek, ham ichki, ham tashqi noqonuniy migratsiya oqimlarining sonini keskin kamaytirish imkonini beradi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining tashqi mehnat migratsiyasi faoliyatini tartibga solish maqsadida "Mehnat migratsiyasi to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu qonunning qabul qilinishi natijasida ishchi kuchi migrantlarining qonuniy manfaatlari va haq-huquqlari himoya qilinishi ta'minlanadi hamda fuqarolarning xorijiy davlatlarda ishga joylashish jarayonlari tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda mehnat faoliyatini amalga oshirishlari hamda chet el fuqarolarining O'zbekistondagi mehnat faoliyatini tashkil etishlari uchun qonuniy asos yaratiladi va boshqarib bo'lmaydigan noqonuniy migratsiya faoliyatlari bartaraf etiladi.

"Mehnat migratsiyasi to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi respublikada ishchi kuchi migrantlarining xalqaro-huquqiy manfaatlarini himoya qilish mexanizmlari joriy etilishiga asos bo'ladi.

O‘zbekiston Respublikasi migratsiya siyosatining fundamental o‘zagi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati, shuningdek, Iqtisodiyot va Tashqi ishlar vazirliklari hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining O‘zbekistondagi vakili tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi va BMT o‘rtasida hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan 2017-2020 yillarga mo‘ljallangan yo‘l xaritasi chora- tadbirlar reja”si imzolangan.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda boshqa bir qator tegishli vazirlik va idoralarga O‘zbekistonning Xalqaro migratsiya tashkilotiga kirish imkoniyatlarini baholash vazifasi yuklatilgan. Shuningdek, 2020 yilga qadar odam savdosiga qarshi kurashish, mehnat migratsiyasini tartibga solish, o‘zbek ishchi kuchi migrantlarining huquqlarini himoya qilish, bundan tashqari tashkilotning boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha qo‘shma loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Shularni inobatga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 15 maydagi “Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet ellarga ketayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini hisobga olishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 97-sonli qarori qabul qilingan. Ushbu qarorning 4- bandiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi har yili ishchi kuchi migrantlari bilan chuqurlashtirilgan sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazib boradi.

Mehnat migratsiyasi borasida oqilona siyosatni ta‘minlash uchun jahon tajribasini ko‘rib chiqib bizning mamlakatga har tomonlama mos keladiganlarini joriy qilish foydadan holi bo‘lmaydi. Jahon tajribasidan shular ma‘lumki, ishchi kuchini eksport qiluvchi davlat o‘z ishchi kuchlarining malakasi oshishiga, ishlab chiqarishning yangi texnika va texnologiyalar bilan ta‘minlanishiga va asosiysi mamlakatga valyuta oqimi kirib kelishiga erishadi.

O‘zbekiston Respublikasida mehnat migratsiyasining oqilona holatini ta‘minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan. Kelgusida ham xuddi shunday ishlarni davom ettirish lozimligini ko‘zda tutgan holda quyidagi takliflarni berish mumkin:

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini, ayniqsa, yoshlarni chet el ishchilari bilan bemalol raqobatlasha oladigan qilib tayyorlaydigan kurslar tashkil qilish (til o‘rganish, maxsuslashtirilgan kurslar);

- ishchilar yuborilgan ishlayotgan mamlakatdagi elchixonalarning xodimlarni muntazam ravishda nazorat qilib turishini ta'minlash;

- chet elga chiqib ishlamoqchi bo'lganlarga turli imtiyozlar berish (masalan, ma'lum davr davomida chet elda ishlab valyuta kirib kelishiga hissa qo'shgan bo'lsa, ayrim turdagi moddiy boyliklarni olib kirishga to'sqinlik qilmaslik) kerak;

- jahon standartlariga mos keladigan malakali kadrlar tayyorlash.

Yuqoridagi xulosa va tavsiyalarni amalda tatbiq etish respublikada mehnat migratsiyasi borasidagi mavjud muammolarni ilmiy asosda yechishga ko'mak beradi va mehnat migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omili bo'lishiga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

Xulosalar

XX asr ikkinchi yarmida aholining ommaviy migratsiyasi jahon hamjamiyati hayotida eng xarakterli xususiyatlaridan biriga aylandi. Aholi migratsiyasi deganda ma'lum hududlarda insonlarning doimiy yashash joyini almashtirish yoki unga qaytish sharti bilan ko'chib o'tishi tushuniladi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro (tashqi) migratsiyaning mehnat, oilaviy, rekreatsion, turistik va boshqa turdagi shakllari mavjud.

Jahon ishchi kuchi bozorining iqtisodiy talablariga javob beradigan me'yorda amal qilishi esa bir qator shartlarning mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Ularning asosiylari quyidagilardir:

- talab va taklifning erkin amal qilishini kafolatlovchi huquqiy asoslarning mavjudligi;

- bozor subyektlarining erkin harakat qilishi uchun zarur zamin – iqtisodiy makonning mavjudligi;

- jahon ishchi kuchi bozori infrastrukturasi mavjudligi;

- ish haqi miqdorining chegaralanmaganligi, uy-joy bozorining mavjudligi va boshqalar.

Migratsiya - lotincha so'z bo'lib, bir joydan ikkinchi joyga ko'chish ma'nosini anglatadi. Ushbu so'z keng ma'noda insonlar, hayvonlar, kapitallar, kimyoviy elementlarning yer qobig'idagi ko'chishini anglatadi.

Har bir chegaraga tegishli aholining ko'chishi emigratsion va immigratsion oqimlarning yig'indisidan tuziladi. Emigratsiya chet elga

chiqish bo'lsa, immigratsiya chet eldan kelishni bildiradi. Ushbu ikki oqim o'rtasidagi farq sof migratsiya hajmini ko'rsatadi, ularning yig'indisi esa yalpi migratsiya hajmini tashkil qiladi.

Biron bir xalqaro mintaqadan boshqasiga ko'chib o'tish har doim insonlarga xos bo'lgan xususiyatlardan biridir. Qadimgi zamonlardan boshlab aholi migratsiyasi odamzod tarixida, yer sharida uning tarqalishida, xalqlarning paydo bo'lishida katta rol o'ynagan.

Jahon iqtisodiyotining XXI asrdagi integratsiyalashuvi va liberal-lashuvi jarayonida mehnat migratsiyasining ahamiyati muntazam oshib bormoqda. Globallashuv jarayonlari, mamlakatni modernizatsiyalash, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashga qaratilgan, sobitqadamlik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotda yangi sohalar va kasb-hunarlar paydo bo'lishiga, ishchi kuchi resurslari oqimlarining o'zgarishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasida mehnat migratsiyasining oqilona holatini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilgan. Bu ishlarni kelgusida ham davom ettirish lozimligini ko'zda tutgan holda quyidagi takliflarni berish mumkin:

- chet mamlakatda ishlamoqchi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini chet el ishchilari bilan bimalol raqobatlasha oladigan qilib tayyorlaydigan kurslar tashkil qilish (til o'rganish, maxsuslashtirilgan kurslar);

- mamlakat ishchilari ishlayotgan mamlakatdagi elchixonalarining xodimlarni doimiy ravishda nazorat qilib turishini kuchaytirish;

- chet elga chiqib ishlamoqchi bo'lganlarga turli imtiyozlar berish (masalan, ma'lum davr davomida chet elda ishlab valyuta kirib kelishiga hissa qo'shgan bo'lsa, ayrim turdagi moddiy boyliklarni olib kirishga to'sqinlik qilmaslik) kerak;

- jahon standartlariga mos keladigan malakali kadrlarni tayyorlashdir.

Tayanch iboralar

Ishchi kuchi bozori, xalqaro mehnat migratsiyasi, xalqaro ishchi kuchi bozori, jahon ishchi kuchi bozori, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi, bandlik nazariyasi, xalqaro mehnat tashkiloti, immigratsiya, emmigratsiya, ishchi kuchi eksporti, ishchi kuchi importi.

Nazorat uchun savollar

1. Jahon ishchi kuchi bozorining mohiyatini tushuntiring.
2. Jahon ishchi kuchi bozorining rivojlanish bosqichlari qanday jarayonlar ta'sirida o'zgargan?
3. Xizmat ko'rsatish sohasida bandlikni rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratadigan omillarni ko'rsatib bering.
4. Xizmat ko'rsatish sohasining kengayishi qanday holatda namoyon bo'luvchi ishchilarga bo'lgan yuzaga keltiradi?
5. Bandlik modellari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.
6. Ishchi kuchi migratsiyasi shakllari jahon tajribasida qanday guruhlanadi?
7. BMT tasnifiga asosan, zamonaviy xalqaro migratsiya nechta asosiy turlarga ajratiladi?
8. Jahon iqtisodiyotida xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining o'zgarish tendensiyalarini tushuntiring.
9. Xalqaro migrantlar immigratsiyasi va emigratsiyasi eng yuqori bo'lgan mamlakatlarni ko'rsating.
10. Ishchi kuchi eksporti va importining mamlakatlar iqtisodiyotiga qay darajada ta'sir ko'rsatadi?
11. Ichki ishchi kuchi bozorida qo'shimcha ishchi kuchi paydo bo'lishining qanday ijobiy jihatlari mavjud?
12. Global inqirozlarning jahon ishchi kuchi miqyosi va tarkibiga ta'sirini tushuntiring.

IX BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA TRANSMILLIY KORPORASIYALAR

9.1. Transmilliy korporatsiyalarning mohiyati, belgilari va jahon iqtisodiyoti globallashtirishdagi o‘rni

Biznesni baynalmilallashtirishning zamonaviy tendensiyalarida ko‘p millatli kompaniyalarda ishlab chiqarish va kapitalning yetakchi pozitsiyalarini transmilliylashtirish, nafaqat xalqaro miqyosda, balki kapital, transmilliy korporatsiya (TMK)lar va transmilliy bank (TMB)lar miqyosida ham amalga oshirilishi zarurligi ko‘rsatilmoqda.

Zamonaviy adabiyotlarda TMKlar tushunchasining bir yoqlama shakllantirilishi hamda ularni boshqa firmalardan farqlash mezonlari mavjud emas. “Transmilliy korporatsiya” kategoriyasini belgilashda tadqiqotchilar xalqaro operatsiyalarni TMKlarni rasmiylashtirishning asosiy xususiyati sifatida ko‘rsatadilar.

Iqtisodiy adabiyotlarda TMKlarning ma’no jihatdan o‘xshash bir qancha ta’riflari mavjud. Bir necha o‘n yillar davomida BMTda TMKlar uchun ishlab chiqilgan Kodeks loyihasida TMKlar “... davlat, xususiy yoki aralash, ikki yoki undan ortiq mamlakatlardagi ofislar bilan, ushbu idoralarning huquqiy shakli va doirasidan qat’iy nazar, bir yoki bir nechta qaror qabul qilish markazlari orqali izchil siyosat va umumiy strategiyaga imkon beruvchi muayyan qaror qabul qilish tizimi asosida ishlaydigan, mulk yoki boshqa munosabatlardan qat’iy nazar, ularning bir yoki bir nechtasi boshqalarning faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi va, ayniqsa, bilim va resurslarni va mas’uliyatni boshqalar bilan baham ko‘ruvchi biznes tizimi” sifatida talqin qilinadi.

G.M.Velyaminovning fikriga ko‘ra, TMK – turli mamlakatlarda joylashgan va yagona markazdan boshqariladigan yagona iqtisodiy maqsad bilan birlashtirilgan turli mustaqil tashkilotlar majmuidir⁷¹. M.M.Boguslavskiy, eslatma sifatida, TMKlardagi iqtisodiy birlik qonuniy jihatdan ko‘pchilik tomonidan shakllantirilishi va ular o‘z egalarining manfaatlariga xizmat qilishini ko‘rsatib o‘tgan⁷². Bu yerda oddiy kompaniyalardan farqli ravishda TMK faoliyati strategiyasi

⁷¹ Вельяминов Г.М. Международное экономическое право и процесс. – М.: Wolters Kluwer, 2004.

⁷² Богуславский М. М. Международное частное право: Учебник. М., 1999.

xorijiy filiallar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi asosiy kompaniya tomonidan ishlab chiqiladi.

V.G.Yermolayev nuqtai nazaridan: “TMKlarning o‘ziga xos xususiyati unga tegishli bo‘lgan va turli mamlakatlarda joylashgan yuridik shaxslar va tarkibiy bo‘linmalar (filiallar, vakolatxonalar, sho‘balar)ning ma’lum darajada mustaqilligi bilan markazlashgan boshqaruvning birlashuvidir”⁷³.

Iqtisodiy ensiklopediyada TMKga quyidagicha ta’rifi berilgan: “Ko‘p millatli korporatsiya – to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bilan shug‘ullanuvchi firma”⁷⁴. Xuddi shunday ta’rif Ye.A.Gryaznov tomonidan ham keltiriladi: “TMK ikki yoki undan ortiq mamlakatlarda ishlab chiqarish aktivlariga egalik qiluvchi yoki nazorat qiluvchi korxonalar sifatida belgilanadi”⁷⁵.

Zamonaviy iqtisodiy lug‘atda TMKlar chet el faoliyatining asosiy xususiyatini ko‘rsatuvchi kengaytirilgan ta’rifi beriladi: “Ko‘p millatli korporatsiya – bu ro‘yxatga olingan mamlakatdan tashqaridagi operatsiyalarning asosiy qismini bajaradigan korporatsiya, ko‘pincha, filiallar, korxonalar tarmog‘iga ega bo‘lgan bir necha mamlakatlarda faoliyat olib boruvchi firmadir”⁷⁶.

Ye.V.Lenskiy va V.A.Svetkovlar tomonidan berilgan ta’rif yanada TMK mohiyatini kengroq ochib beradi: “TMK o‘zi yoki bu korporatsiyalar negizida bo‘lgan mamlakat tashqarisida joylashgan ishlab chiqarish yoki xizmat majmualarini nazorat qiluvchi korxonalar (moliyaviy va sanoat birlashmalari)larga ega bo‘lgan, filiallari va ofislari keng tarmoqni egallab, muayyan mahsulot ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha yetakchi o‘rinni egallovchi kompaniyadir”⁷⁷.

Garvard universiteti tadqiqot dasturi ta’rifiga ko‘ra, ko‘p millatli kompaniyalar oltidan ortiq xorijiy sho‘ba va kompaniyalarni o‘z ichiga oladi. Xalqaro korporatsiyalar faoliyatini o‘rganuvchi BMT uzoq vaqt davomida (1960- yillardan boshlab) TMKlarni yillik aylanmasi 100

⁷³ Ермолаев В. Г., Сиваков О. В. Международное частное право: Курс лекций. М., 1998.

⁷⁴ Экономическая энциклопедия. М.: Экономика, 1999.

⁷⁵ Грязнов Э.А. ТНК в России. Позиции крупнейших в мире транснациональных корпораций в Российской экономике. -М.: ООО «Фирма Инограф», 2000.

⁷⁶ Современный экономический словарь. М.: Экономика, 1997.

⁷⁷ Ленский Е.В., Цветков В.А. Транснациональные финансово-промышленные группы и межгосударственная экономическая интеграция: реальность и перспективы. -М.: АФП Еженедельника «Экономика и жизнь», 1998.

mln. dollardan oshadigan va kamida olti mamlakatda filiallarga ega bo'lgan kompaniyalarnigina TMKlar deb yuritib keladi.

BMTning ayrim ekspertlari xorijda ishlab chiqarish obyektlariga ega bo'lgan har qanday kompaniyani TMK deb hisoblaydilar. Biroq, TMK konsepsiyasining talqini ko'plab davlatlarning manfaatlariga ta'sir qilishini hisobga olgan holda, BMTning transmilliy korporatsiyalar bo'yicha komissiyasi TMKlar ta'rifining kelishuv versiyasini ishlab chiqdi. Unga ko'ra "...huquqiy shakli va faoliyat sohasidan qat'iy nazar, ikki yoki undan ortiq mamlakatlarda izchil siyosat va umumiy strategiya uchun yagona boshqaruv markazi orqali birliklarni tashkil etadi, unda alohida birliklar mulkchilik orqali yoki boshqa tarzda bog'langan bo'lib, ulardan biri yoki bir nechtasi boshqalarning faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi va, xususan, boshqalar bilan bilim, resurslar va mas'uliyatlarni baham ko'rishi mumkin".

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning TMK bo'yicha komissiyasi xalqaro kompaniyalarni quyidagicha tavsiflaydi:

- yuridik shakli va faoliyat sohasidan qat'iy nazar, ikki yoki undan ortiq mamlakatlarda xo'jalik subyektlariga ega bo'lgan;
- bitta boshqaruv markazi orqali umumiy strategiyani amalga oshirish va muvofiqlashtirilgan siyosat yuritishga imkon beruvchi qarorlar qabul qilish tizimi doirasida ish olib boradigan;
- mulkchilik orqali bir-biriga bog'langan alohida xo'jalik subyekti sifatida, bunda xo'jalik subyektlaridan bittasi yoki undan ko'prog'i boshqalarining faoliyatiga bilimlar, resurslar va mas'uliyatni boshqalar bilan birgalikda foydalanish orqali jiddiy ta'sir ko'rsata oladigan tashkilotdir.

Jahon amaliyotida xalqaro korporatsiyalar deyilganda, jahon tovar va ishlab chiqarish omillari bozorlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatuvchi yirik kompaniyalar tushuniladi. Ular quyidagi shartlar asosida belgilanadi:

- yillik sotish hajmi 1 mlrd. dollardan kam bo'lmasligi;
- umumiy moliyaviy aylanma mablag'larining beshdan bir qismidan uchdan bir qismigacha xorijdagi operatsiyalar ulushiga to'g'ri kelishi;
- xorijdagi aktivlar ulushi 25% dan kam bo'lmasligi;
- kamida oltita mamlakatda filiallarga ega bo'lishi.

Ta'kidlab o'tish joizki, xalqaro korporatsiyalarning asosiy xususiyati to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish jarayonidir.

Shunday qilib, har qanday xalqaro korporatsiya quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1) jahon iqtisodiyoti rivojlanishi va xalqaro mehnat taqsimoti jarayonlarining faol ishtirokchisi;

2) milliy chegaralarda yuzaga keladigan jarayonlarda kapital harakatining nisbiy mustaqilligi bilan ajralib turadi;

3) jahon iqtisodiy munosabatlarini obyektiv ravishda tartibga soladi;

4) yuqori daromad olish uchun o'z operatsiyalarini amalga oshiradi.

Ko'pgina G'arb tadqiqotchilari transmilliy korporatsiyalarning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatadilar:

1) bir nechta mamlakatda mahsulotlarni sotish (mahsulotlarining katta qismi chet elda sotiladi, shu bilan jahon bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi);

2) ikki yoki undan ortiq mamlakatlarda filiallarining mavjudligi;

3) korporativ mulkning turli mamlakatlar aholisi o'rtasida taqsimlanishi (xorijiy korxonaning iqtisodiy faoliyati ustidan nazoratni ta'minlovchi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni ifodalovchi xorijiy kapitalidagi holis ishtiroki);

4) xodimlarning ko'p millatligi. Bu yerda birinchi xususiyat eng muhim hisoblanadi. Ushbu mezonda mutloq yetakchilik namunasi Shveysariyaning "Nestle" kompaniyasida bo'lib, u 98% dan ortiq mahsulotni eksport qiladi. Ishlab chiqarish va mulkni baynalmilallashtirishga kelsak, bu ikki xususiyat mavjud bo'lmasligi mumkin. So'nggi yillarda korporatsiyaning xalqaro holatini belgilovchi ko'rsatkichlar kompaniya mamlakatdan tashqarida sotayotgan tovarlar ulushi, boshqa davlatlar hududida joylashgan aktivlar ulushi, yuqori darajali boshqaruv tarkibi va shu kabilar bilan to'ldirildi. Amalda ko'p millatli korporatsiyalar toifasiga kirish uchun haqiqiy faoliyat yurituvchi korporatsiya bu mezonlardan birortasiga javob berishi kifoya, lekin ko'pgina yirik kompaniyalar bir vaqtning o'zida barcha xususiyatlarga ega.

Shunday qilib, transmilliy korporatsiyalar yirik kompaniyalar ko‘rinishida bo‘lib, xorijiy aktivlar yoki iqtisodiyotning bir yoki bir necha tarmoqlariga egalik, muhim imkoniyatlar va korporatsiya joylashgan mamlakatda iqtisodiy ta’sir ega turli milliy firmalar uyushmalari bilan korporatsion integratsiya va ba’zan uning chegaralari orqasida ekanligini aytish mumkin. Qaysi kompaniya ishlab chiqarishi, yagona global yoki mintaqaviy strategiyani amalga oshirishidan qat’iy nazar, TMK doirasidagi alohida kompaniyalar (yoki ularning bo‘linmalari) asosiy kompaniya bilan umumiy ishlab chiqarish va texnologik jarayonlar borasida yaqindan bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha aytganda, bir tomondan, TMK bir qancha mamlakatlar o‘rtasida ishlab chiqarish birliklari dispersiyasi asosida xalqaro ishlab chiqarish tizimini tashkil etish bilan xarakterlansa, boshqa tomondan, ilg‘or ishlab chiqarish tarmoqlariga kirib, ularning jadal rivojlanishi uchun katta investitsiyalar va yuqori malakali kadrlar talab qilishi bilan ajralib turadi. Bularning barchasi ularni milliyashtirishga qaratilgan harakatlarda ishonchli xavfsizlikni ta’minlaydi.

Bir vaqtning o‘zida ularning faoliyatini belgilovchi omillar bo‘lgan zamonaviy TMKlarning xarakterli xususiyatlari orasida quyidagilar alohida ajratiladi:

- xalqaro yondashuvdan foydalanish – iqtisodiy faoliyatning barcha jabhalarida (firmalararo va xalqaro mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish, kapitalni baynalmillallashtirish va boshqalar) xorijiy operatsiyalarning alohida o‘rni va ahamiyati;

- faoliyatning xalqaro xarakteri – transmilliy sanoat, tijorat va moliyaviy kompleksni uyda qaror qabul qilish markazi va boshqa mamlakatlardagi filiallar bilan shakllantirish mumkin:⁷⁸

- yordamchi (sho‘ba) kompaniya, sherik kompaniya, bo‘linmaning asosiy kompaniya tomonidan ishlab chiqilgan global strategiyaga muvofiq faoliyat yuritishi;

- xalqaro miqyosda raqobatga qarshi turish uchun jahon iqtisodiyotining rivojlanishida faol ishtirok etish va yuqori foyda olish.

TMKlar tarixan qisqa vaqt ichida “yangi industrial mamlakatlarning” jadal sur’atlarda rivojlanishida muhim omil bo‘ldi.

⁷⁸ Леонтьев Р.Г. Теория и практика менеджмента: Учеб. пособие. Хабаровск: Изд-во ДВГУПС, 2000.

Xalqaro korporatsiyalar shakllangan davrdan boshlab o‘z rivojlanish strategiyalariga ega bo‘lib, quyidagi belgilar ular uchun xosdir:

- ishlab chiqarishni xorijiy xomashyo bilan ta’minlash;
- xorijiy bozorlarda o‘z filiallari yordamida mustahkam o‘rin egallash;
- ishlab chiqarishni xarajatlar nisbatan past bo‘lgan mamlakatlarda joylashtirish;
- ishlab chiqarish, savdo va moliya faoliyatini diversifikatsiyalash.

Xalqaro korporatsiyalar faoliyat olib borayotgan mamlakatlarida umumiy tartibdagi va multimilliy lashtirish bilan bog‘liq raqobat afzalliklarini qo‘lga kiritish usullaridan foydalanishadi (9.1-jadval).

9.1-jadval

Xalqaro korporatsiyalar tomonidan raqobat afzalliklarini qo‘lga kiritish usullari⁷⁹

| Afzalliklar | Tavsif |
|---|---|
| 1. Umumiy tartibdagi raqobat afzalliklari | |
| O‘z texnologiyasiga ega bo‘lish | Nou-xau yoki firmaga tegishli mahsulotni ishlab chiqarish, jarayon yoki boshqaruv texnologiyasi, uni boshqa firmalar faqat ITTKI yoki uning egasidan olishi mumkin. |
| Markaga yoki savdo belgisiga asoslangan “gudvill” | Sifat, xizmatlar va boshqalarga nisbatan tajriba asosida orttirilgan obro‘-e’tibor |
| Ishlab chiqarish ko‘lamlari bo‘yicha iqtisod qilish | Katta ko‘lamlarda ishlab chiqarish mahsulot birligi qiymatini pasaytiradi |
| Ishlab chiqarish diapazoni bo‘yicha iqtisod qilish | Bir nechta ishlab chiqarish turlari “bir tom ostida” birlashishi hisobiga xarajatlar kamaydi |
| Xaridlar ko‘lamlari bo‘yicha iqtisod | Xaridlarni katta hajmlarda amalga oshirish hisobiga xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar qiymatining kamayishi |

⁷⁹ Вахабов А.В. Модели развития финансово-промышленных групп в мировой экономике и возможности его использования в Узбекистане. / «Moliya-sanoat guruhlarini tashkil etish bo‘yicha xalqaro tajriba va O‘zbekistonda korporativ boshqaruvni takomillashtirish muammolari» mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – M., MGEI, 2008. 18-b.

| | |
|---|---|
| Moliyalashtirishdagi afzallik | Yirik firmalar uchun ancha past stavkalarda moliyalashtirishdan foydalanish |
| Sotuvlardagi afzallik | Xom ashyo va mahsulotni katta partiyalarda yuklash mahsulot birligini tashish qiymatini pasaytiradi |
| Reklamadagi afzallik | Bir nechta bozorlardagi sotuvlar reklamanning muayyan “bozorlararo” ixtisoslashishiga imkon beradi |
| Davlatning homiyligi | Davlat boshqaruvi ostida bozorga erkin yoki preferensial tarzda qo‘llab-quvvatlash orqali kirish |
| Xodimlar menejmenti | Band bo‘lganlarning guruhli faoliyatini rag‘batlantirish va mehnat unumdorligini maqbullashtirish ko‘nikmalari |
| 2. Multimilliy lashtirish bilan bog‘liq raqobat afzalliklari | |
| Marketingning multimilliy imkoniyatlari | Bir nechta mamlakatlardagi bozorlarni o‘rganish, bilish va ulardan foydalanish |
| Multimilliy ta‘minot manbalari | Bir nechta mamlakatlardagi xomashyo, yarim tayyor mahsulotlardan erkin foydalanish, bu yagona manbaga nisbatan xarajatlarni ancha pasaytiradi |
| Multimilliy diversifikatsiya | Bir nechta mamlakatlarda operatsiyalar olib borish siyosiy va biznes qatnashini pasaytiradi |
| Bir nechta mamlakatlarning menejmentdagi tajribasi | Bir nechta mamlakatlar tajribasi asosida shakllangan operatsiyalarni boshqarish ko‘nikmalari raqobatchilar oldida nisbiy afzalliklar beradi |
| Aglomeratsiya bo‘yicha iqtisod | Boshqa firmalar bilan hududiy ishlab chiqarish kooperatsiyasi natijasidagi aglomeratsiya bo‘yicha iqtisod qilish |

TMKning mahsulotni bir vaqtning o‘zida bir nechta mamlakatlardagi filiallarida ishlab chiqarish sabablarini aniqlash uchun uning hududiy jihatini ajratib ko‘rsatish zarur. Hududiy jihat korporatsiyaning arzon xomashyo va ish kuchidan foydalanish, mahsulotni tashish va saqlash xarajatlarini qisqartirish, bojxona va soliq to‘siqlarini chetlab o‘tishga intilishi bilan bog‘liqdir.

Baynalmilal jihat esa bir nechta mamlakatlarda o‘z filiallariga ega korporatsiya o‘z nisbiy ustunligidan foydalanishi bilan bog‘liq hisoblanadi. Iqtisodiy mustaqil bir necha korporatsiyadan ko‘ra,

mahsulotni bitta korporatsiya tomonidan qator mamlakatlarda ishlab chiqarish afzalroqdir. Shuningdek, TMK soliqlarni qisqartirish maqsadida hisobotni boshqarishi va unga tegishli bo'lgan texnologiya ustidan nazoratni o'rnatishi mumkin. Ushbu imkoniyat to'liq nazorat qilinadigan filiallar yordamida amalga oshiriladi.

TMKlar quyidagi xususiyatlari bilan boshqa kompaniyalardan farqlanadi:

- xalqaro mehnat taqsimotining faol ishtirokchilari ekanligi;
- xalqaro ishlab chiqarish majmualarini yaratib, qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'lishi;
- global ishlab chiqarish kuchlari va resurslaridan foydalanish;
- ommaviy iste'molchilar uchun ishlashi;
- kapitalning bazaviy mamlakatda yuz berayotgan jarayonlarga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshirishi;
- yuqori texnologiyali va fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan tarmoqlarda faoliyat olib borishi. Ushbu tarmoqlar rivojlanishi katta hajmdagi kapital qo'yilmalar va yuqori malakali mutaxassislarni talab etadi.

Shu bilan birga TMKning rivojlanishi quyidagi qarama-qarshi tendensiyalarga ega:

- ular o'rtasida raqobatning keskinlashuvi;
- o'zaro hamkorlik munosabatlarining o'rnatilishi.

TMKlar yirik biznes tashkilotining shakli sifatida xalqaro mehnat taqsimotining zamonaviy tabiatiga mos kelib, bir tomondan, integratsiyalashgan korporatsiyaning yuqori iqtisodiy samaradorligini ta'minlashga imkon beradi, boshqa tomondan, yangi sharoitlarga moslashuvchanlik va innovatsiyalarga ta'sirchanlikning katta salohiyatidan doimiy foydalanishga imkon beradi.

9.2. Transmilliylashuv indeksi, uni hisoblash usullari

Jahon miqyosida so'nggi yillarda yirik TMKlar rivojlanayotgan mamlakatlar bozorlariga kirishga urinmoqdalar va ushbu urinishlarning aksariyatida TMKlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni bu mamlakatlarning moliya- sanoat sektoriga kiritish orqali kuchli asosdagi tuzilmalarni shakllantirishga harakat qilinmoqda. Shu nuqtai nazardan TMKlarning transmilliylashuv darajasi,

ular ko‘lamining shakllanish mezonlarini o‘rganish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

TMKlar faoliyatini davomiy o‘rganib boruvchi BMTning Savdo va rivojlanish Konferensiyasi (United Nations Conference on Trade and Development, UNCTAD) ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda dunyoda 70 mingga yaqin TMKlar faoliyat ko‘rsatib, ular tomonidan turli mamlakatlarda joylashgan 1 millionga yaqin sho‘ba korxonalar faoliyati nazorat qilib borilmoqda.

TMKlarning “kuch” xususiyatlarini yoki ushbu kuch va ahamiyatga ega bo‘lgan mezonlarni “tortish” mumkinligini tahlil qilish muhimdir. TMKlar “kuchi”ning asosiy xususiyatlaridan biri korporatsiyaning umumiy kapitallashuv darajasi va uning mamlakatlardagi mavjud aktivlaridir. Kapitallashuvning umumiy darajasi davlat va xalqaro tashkilotlarga, muayyan mamlakatlarda esa ularning davlat tuzilmalariga bosim o‘tkazish kuchidan iboratdir. Shu munosabat bilan TMK faoliyatini tahlil qilishda “transmilliylashuv indeksi” tushunchasidan foydalaniladi. Transmilliylashuv indeksining ikki turi mavjud:

1. Kompaniyalarning transmilliylashuv indeksi ma’lum bir TMKning xorijda tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga jalb etilganlik darajasini aks ettiradi. Bu quyidagi uch ko‘rsatkichning o‘rtacha miqdori sifatida hisoblanadi: jami xorijiy aktivlarning umumiy aktivlardagi ulushi, xorijga sotish hajmining umumiy sotish hajmiga nisbati va xorijiy bo‘linmalardagi xodimlar sonining TMK umumiy xodimlari sonidagi ulushi.

2. Mamlakatning transmilliylashuv indeksi ma’lum bir mamlakat uchun xorijiy TMKlarning ahamiyatini baholaydi. Bu quyidagi to‘rt o‘zgaruvchi yig‘indisi sifatida hisoblanadi:

- mamlakat ichidagi barcha kapital investitsiyalardagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushi;

- mamlakatda to‘plangan xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbati;

- mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi xorijiy kompaniyalar filiallarining ulushi;

- ushbu xorijiy kompaniyalarda ish bilan band shaxslarning mamlakatdagi umumiy ish bilan band shaxslar sonidagi ulushi.

Kompaniyalarning transmilliylashuv indeksini quyidagi bog‘lanish asosida aniqlash mumkin:

$$I_t = (A_{xa} / A_{ua} + C_x / C_u + X_x / X_u) : 3$$

Bu yerda: I_t - transmilliylashuv indeksi;

A_{xa} - xorijiy aktivlar hajmi;

A_{ua} - umumiy aktivlar hajmi;

C_x - xorijiy filiallar sotgan tovar va xizmatlar hajmi;

C_u - tovar va xizmatlar sotishning umumiy hajmi;

X_x - xorijiy xodimlar soni;

X_u - kompaniyaning umumiy xodimlari soni.

Mutaxassislarning fikricha, bugungi kunda eng transmilliylashgan mamlakatlar Gonkong (86 %), Irlandiya (64%), Belgiya va Lyuksemburg (59%), Singapur (59%), Estoniya (47%) hisoblanadi. Boshqa mamlakatlarda transmilliylashuv indeksi ancha past: Braziliya-da 15%, Rossiyada 14%, Germaniyada 11%, Xitoyda 10%, Yaponiya-da esa 2%⁸⁰. Agar Amerika TMKlarini Yevropa TMKlari bilan solishtirsak, unda o‘ziga xos bir qonuniyatni ko‘rishimiz mumkin: AQSh savdo bozorining kattaligi tufayli AQSh TMKlarining transmilliylashuv darajasi Yevropa TNKlariga qaraganda ancha past. Bundan tashqari, TMKlarning faoliyati uchun zaruriy sharoitlarni ta‘minlab beruvchi AQSh va Yevropaning soliq tizimlari ham bir-biridan farq qiladi. Ayni vaqtda Yevropa TMKlari uchun ishlab chiqarish joyini Sharqqa ko‘chirish ancha foydali. TMKlarni mamlakatda faoliyat boshlashini rag‘batlantirish maqsadida hukumatlar ularga soliq, davlat subsidiyalari, mehnat yoki ekologik qonunlar tizimida alohida imtiyozlarni taklif etadilar.

Kapitallashuv darajasini baholashning iqtisodiy mezonlaridan tashqari, kompaniyaning TMK sifatida tasniflashning bir qator boshqa mezonlari ham mavjud, masalan:

- korporatsiya faoliyat ko‘rsatadigan mamlakatlar soni (kamida 2 tadan 6 tagacha);

- korporatsiyaning ishlab chiqarish obyektlari joylashgan mamlakatlarning minimal soni;

- korporatsiya erishgan hajm;

⁸⁰ Мировая экономика и международные экономические отношения: Учебник/ Под ред. А. С. Булатова, Н. Н. Ливенцева. М.: Магистр, 2008

- korporatsiya daromadidagi yoki sotuvdagi xorijiy operatsiyalarning minimal ulushi (odatda 25%);

- korporatsiya xodimlari va yuqori boshqaruv organlaridagi xodimlarning xalqaro tarkibi.

Shuni ta’kidlash lozimki, to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan foydalanish jarayonida TMKlarning roli muhim ahamiyatga ega. Xalqaro valyuta fondi tomonidan belgilanishicha, to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiya – maqsadi boshqa iqtisodiy tizimi rezidenti bo’lgan kompaniyaning bir iqtisodiy tizim rezidenti bo’lgan yuridik shaxs tomonidan uzoq muddatli manfaati uchun kiritilgan investitsiya hisoblanadi. Uzoq muddatli foizlar investor va xorijiy kompaniya o’rtasida uzoq muddatli munosabatlar mavjudligi va investorning tashkilot boshqaruviga sezilarli darajada ta’sir ko’rsatishini nazarda tutadi.

9.2-jadval

TMKlarning xorijdagi faoliyatini namoyon etuvchi asosiy ko’rsatkichlar⁸¹

| Kompaniya nomi | Faoliyat sohasi | I | II | III |
|-----------------------|-------------------------------|----------|-----------|------------|
| Royal Dutch/Shel | Energetika | 67,8 | 73,3 | 77,9 |
| Ford | Avtomobilsozlik | 29,0 | 30,6 | 29,8 |
| General Electric | Elektronika va elektrotexnika | 30,4 | 24,4 | 23,4 |
| Exxon | Energetika | 73,1 | 79,6 | 53,7 |
| General Motors | Avtomobilsozlik | 29,4 | 29,2 | 33,9 |
| Volkswagen | Avtomobilsozlik | 84,8 | 60,8 | 44,4 |
| IBM | Elektronika va elektrotexnika | 51,9 | 62,7 | 50,1 |
| Toyota | Avtomobilsozlik | 30,5 | 45,1 | 23,0 |
| Nestle | Oziq-ovqat sanoati | 86,9 | 98,2 | 97,0 |
| Bayer | Kimyo sanoati | 89,8 | 63,3 | 54,7 |
| ABB | Elektrotexnika sanoati | 84,7 | 87,2 | 93,9 |
| Nissan | Avtomobilsozlik | 42,7 | 44,2 | 43,5 |
| Elf Aquaine | Energetika | 54,5 | 65,4 | 47,5 |
| Mobil | Energetika | 61,8 | 65,9 | 52,2 |
| Damler-Craisler | Avtomobilsozlik | 39,2 | 63,2 | 22,2 |

⁸¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki>

Yuqorida aytib o‘tilganidek, TMKlarning xorijdagi faoliyatini namoyon etuvchi quyidagi ko‘rsatkichlar katta ahamiyatga ega: kompaniyaning umumiy aktivlarida xorijiy aktivlarning ulushi, umumiy savdo hajmida xorijdagi yillik savdo hajmining ulushi, umumiy ishlovchilar sonida xorijdagi kompaniyalarda band bo‘lganlarning ulushi.

I – kompaniyaning umumiy aktivlarida xorijiy aktivlarning ulushi.

II – umumiy savdo hajmida xorijdagi yillik savdo hajmining ulushi.

III – umumiy ishlovchilar sonida xorijdagi kompaniyalarda band bo‘lganlarning ulushi.

Yuqoridagi indekslar va ko‘rsatkichlardan foydalanilgan holda transmilliylashuv indeksini alohida korporatsiya yoki mamlakat miqyosida baholash mumkin.

9.3. Transmilliy korporatsiyalarning jahon iqtisodiyoti globallashuvidagi o‘rni

Zamonaviy xalqaro korporatsiyalarning asosiy qismi TMK shakliga ega. TMKlarning asosiy xususiyati shuki, ularning ishlab chiqarish, savdo-sotiq va boshqa faoliyatlari mamlakatning davlat chegaralaridan tashqarisida amalga oshirilib, ular bazasida xalqaro ishlab chiqarish ham yo‘lga qo‘yiladi. TMKlar dunyoning baynalmilallashuv va globallashuv jarayonlarini kuchaytiruvchi xalqaro mehnat taqsimotining obyektiv tendensiyalaridan faol foydalanib, tashqi iqtisodiy faoliyat tizimida yangi aloqalar va o‘zaro munosabatlarni o‘rnatadi. TMK xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotiga bevosita investitsiyalar sarflash imkonini beradi.

TMKlar quyidagi maqsadlarda bevosita investitsiyalarni amalga oshiradi:

- o‘zini bevosita barqaror bozor bilan ta‘minlash yoki rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon bozorlariga chiqishida tramplin vazifasini bajarish;

- u yoki bu soha bo‘yicha alohida mamlakatlarda o‘z “ichki bozorini” tashkil etish uchun shart sharoit yaratish;

- hududiy va xalqaro darajadagi manfaatlarini davlatlararo munosabatlar darajasiga ko‘tarish;

- davlatlararo munosabatlarda o'zining hududiy va xalqaro darajadagi manfaatlarini amalga oshirish.

TMKlar bir mahsulotni birdaniga bir necha mamlakatdagi filiallarida ishlab chiqarishining sababini aniqlash uchun kamida ikkita jihatni ajratib ko'rsatish mumkin – hududiy va xalqaro. Bunda hududiy jihat korporatsiyaning arzon xomashyo va ish kuchidan foydalanish, mahsulotni tashish va saqlash sarf- xarajatlarini qisqartirish, bojxona va boshqa to'siqlarni chetlab o'tishga intilishdan iborat iborat bo'lsa, xalqaro jihat bir necha mamlakatlarda filiallari bor korporatsiyaning ma'lum ustunlikka ega bo'lishi bilan bog'liq. Iqtisodiy mustaqil bir necha korporatsiyadan ko'ra bitta mahsulotni bitta korporatsiya tomonidan bir qancha mamlakatlarda ishlab chiqarilishi afzalroqdir. Bundan tashqari u soliqni qisqartirish maqsadida hisobotni boshqarishi mumkin va unga tegishli bo'lgan texnologiya ustidan nazoratni ta'minlaydi. Bu imkoniyatni faqat to'liq nazorat qilinadigan filiallarga beradi.

Hozirgi zamon TMKlari bir qator xususiyatlarga ega:

- ular xalqaro mehnat taqsimotining faol qatnashchisi bo'lib, uni taraqqiy ettiradi;

- xalqaro ishlab chiqarish majmualarini yaratib, qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'ladilar;

- global ishlab chiqarish kuchlari va resurslaridan foydalanadilar;

- ommaviy iste'molchilarga xizmat ko'rsatadilar;

- TMKlar kapitalining harakati ularning baza mamlakatlarida bo'lib o'tayotgan jarayonlarga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshiriladi;

- TMKlar yuqori texnologiyali, fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan tarmoqlarga kirib bormoqda. Bu tarmoqlar katta hajmdagi kapital qo'yilmalar va yuqori malakali mutaxassislarni talab etadi. Bu esa, o'z navbatida, tarmoqlarning monopollashtirilishiga olib keladi.

Zamonaviy bosqichda TMKlar taraqqiyoti ikki qarama-qarshi tendensiyaga ega:

- ular o'rtasida raqobatning keskinlashuvi;

- o'zaro hamkorlik munosabatlarining o'rnatilishi.

1960-1970 yillarda uchinchi dunyo mamlakatlariga xususiy to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning katta oqimi kuzatilgan. Agar 1962 yilda investitsiyalarning yillik o'sishi 2,4 mlrd.doll.ni

tashkil etgan bo'lsa, 1980 yilga kelib bu ko'rsatkich 17 mlrd.doll.ni tashkil etdi.

Biroq 80-yillarga kelib to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning rivojlanayotgan davlatlarga kirib borishi kamaydi va 16 mlrd.doll.ni tashkil etdi. 1995 yili to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 75 %i quyidagi o'nta davlatga to'g'ri keldi:

1. Braziliya - 12 %
2. Singapur - 12 %
3. Meksika - 11 %
4. Xitoy - 10 %
5. Gonkong - 7 %
6. Malayziya - 6 %
7. Argentina - 4 %
8. Tailand - 3 %
9. Misr - 3 %
10. Kolumbiya - 3 %

9.3-jadval

TMKlar va ularning xorijdagi filiallarining mamlakat guruhlari bo'yicha taqsimoti⁸²

| Hudud - mamlakat | Hududda joylashgan bosh kompaniyalarning soni | Hududda joylashtirilgan xorijiy filiallarning soni |
|----------------------------------|---|--|
| Sanoati rivojlangan mamlakatlar | 34 353 | 93 311 |
| Rivojlanayotgan mamlakatlar | 3 788 | 101 139 |
| O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari | 400 | 55 000 |
| Butun dunyo | 38 451 | 251 450 |

Ammo 90-yillarga kelib rivojlanayotgan davlatlarga kiritilayotgan to'g'ridan- to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 25,2 % dan 17 % ga tushib qoldi. Bu ko'rsatkich 1968 yilda 31 % ni tashkil etgan.

Hozirgi kunda TMKlar shu darajada rivojlanganki, yetarli sharoit mavjud bo'lganda ular dunyoning istalgan nuqtasida faoliyat olib bora oladi. TMKlarning siklik savdo hajmi rivojlanayotgan mamlakatlarning yalpi ichki mahsuloti hajmidan ham katta bo'lmoqda.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, eng katta TMK deb tan olingan «Djeneral Motors» kompaniyasining yalpi savdo hajmi Indoneziya davlatining YaIM hajmidan katta. Umuman olganda, «General

⁸² Акопова Е.С., Воронкова О.Н. и др. Мировая экономика и международные экономические отношения. Ростов-на-Дону: «Феникс», 2000. –С. 367.

Motors» kompaniyasining yalpi savdo hajmi barcha rivojlanayotgan davlatlarning YaIM hajmidan katta, faqat Xitoy, Hindiston, Braziliya, Meksika va Janubiy Koreya bundan mustasno.

9.4-jadval

O‘nta yirik TMKlar va ba’zi davlatlar rivojining solishtirma xarakteristikasi, mlrd. AQSh dol. (2000 yil)⁸³

| № | TMK reytingi, kompaniya va davlat | YaIM yoki yalpi savdo hajmi |
|----------|--|------------------------------------|
| 1 | «General Motors» (AQSh) | 125,1 |
| | <i>Indoneziya</i> | <i>107,3</i> |
| 2 | «Roll Datch/Shell» (Angliya/Gollan .) | 107,2 |
| 3 | «Ekson» (AQSh) | 105,9 |
| | Norvegiya | 105,8 |
| 4 | «Ford Motors» (AQSh) | 98,3 |
| | <i>Turkiya</i> | <i>69,5</i> |
| | <i>Argentina</i> | <i>96,2</i> |
| | <i>Tailand</i> | <i>80,1</i> |
| 5 | «IBM» (AQSh) | 69,0 |
| 6 | «Toyota» (Yaponiya) | 64,5 |
| 7 | «IRI» (Italiya) | 61,4 |
| 8 | «British Petroleum» (Angliya) | 59,5 |
| 9 | «Mobil» (AQSh) | 58,8 |
| 10 | «General Elektrik» (AQSh) | 58,4 |
| | <i>Portugaliya</i> | <i>56,8</i> |
| | <i>Venesuela</i> | <i>48,3</i> |
| | <i>Filippin</i> | <i>43,8</i> |
| | <i>Malayziya</i> | <i>42,4</i> |
| | <i>Kolumbiya</i> | <i>41,1</i> |
| | <i>Nigeriya</i> | <i>34,7</i> |
| | <i>Misr</i> | <i>33,2</i> |
| | <i>Bangladesh</i> | <i>22,8</i> |
| | <i>Keniya</i> | <i>7,5</i> |

1970 yilda jahonning 14 ta yetakchi mamlakatlaridagi 7,3 mingta TMKlarning xorijdagi filiallari soni 27,3 mingta va ularning umumiy mablag‘i 626 mlrd.doll.ni tashkil qilgan. 80-yillar o‘rtalaridan jahon

⁸³ <https://ru.wikipedia.org/wiki>

miqyosida TTXI larning ulushi keskin o'sib borib yalpi ichki investitsiyalardan bir necha marotaba ortib ketdi.

1980 yilda bevosita, portfel va boshqa investitsiyalar jahon YaIMining 8,4%ni tashkil etgan bo'lsa, 1999 yilda bu ko'rsatkich 22,6%ga yetdi. Ekspertlarning baholashlaricha TMK va transmilliy bank (TMB)lar xorijiy aktivlarining jahonning yalpi mahsulotiga nisbatan o'sishi 1945 yilda 4,9%dan 1995 yilda 56,8%gacha o'sdi⁸⁴.

1999 yilda TMKlar soni 60 mingga yetib, ularning chet eldagi filiallari soni 600 mingdan oshib ketdi. Ular tomonidan to'plangan xorijiy kapital 4,8 trln.doll.ni tashkil etdi.

Hozirgi kunda TMKlar jahon sanoati ishlab chiqarishining salkam 2/3 qismini, xalqaro savdoning 2/3 qismini, yangi texnika, texnologiya va nou-xaular patent va litsenziyalarining 4/5 qismini nazorat qiladilar. Eng ko'p TMKlar quyidagi mamlakatlarda ro'yxatga olingan: Germaniyada 7100 ta, Yaponiyada 3650 ta, Shvetsiyada 3550 ta, Shveysariyada 3000 ta, AQShda 3000 ta, Buyuk Britaniyada 2800 ta.

XX asrning eng yirik TMKlariga quyidagilar kiradi: «General electric» (AQSh), «Microsoft» (AQSh), «Royal-Datch/Shell» (Buyuk Britaniya/Niderlandiya), «Coca-Cola» (AQSh), «Exxon» (AQSh), «IBM» (AQSh), «General Motors» (AQSh), «Xitachi» (Yaponiya), «Matsushita» (Yaponiya), «Nestle» (Shveysariya), «Ford» (AQSh), «Alcatel» (Fransiya), «Fillips» (Niderlandiya), «Mobil oil» (AQSh), «Asea Brown Boveri» (Shveysariya), «Alfakitten» (Fransiya), «Volkswagen» (Germaniya), «Toyota» (Yaponiya), «Siemens» (Germaniya), «Daimler Benz» (Germaniya), «British Petroleum» (Buyuk Britaniya), «Unilever» (Buyuk Britaniya/Niderlandiya)⁸⁵. 90-yillar oxirlarida «General Motors» kompaniyasining yillik savdo hajmi Finlyandiya, Daniya, Norvegiya, Saudiya Arabistoni, Indoneziya va Argentinaning YaIMidan katta edi. «Toyota» kompaniyasining yillik savdo hajmi Misr, Nigeriya, Singapur, Peru, Chili va Marokkolar YaIM hajmidan 2 marotaba ko'p edi. Shu davrda jahon TMKlarida 75 mln. kishi ish bilan band edi, bu dunyo mamlakatlari qayta ishlash sanoatida band bo'lganlarning deyarli 10% ga teng. Undan tashqari 150 mln.kishi TMKlarda qo'shimcha ravishda mehnat qilishar edi.

⁸⁴ Шишков Ю. Внешнеэкономические связи в XX в.- от упадка к глобализации//МЭиМО № 8, 2001, С.18.

⁸⁵ Бюллетень иностранной и коммерческой информации. № 107, 10 сентября 1998 г. С.16

90-yillar oxirlarida yirik TMKlar xorijda 300 mingga yaqin filiallariga ega edilar. Eng ko‘p filiallar quyidagi mamlakatlarda ro‘yxatga olingan: Xitoyda 45 ming, AQShda 15,4 ming, Germaniyada 12 ming, Singapurda 11 ming, Braziliyada 8 ming, Fransiyada 7,6 ming, Meksikada 7 ming, Ruminiyada 6,9 ming, Portugaliyada 6,7 ming, Ispaniyada 6,3 ming, Kanadada 5,9 ming, Shveysariyada 4 ming, Buyuk Britaniyada 3,9 ming, Janubiy Koreyada 3,6 ming, Yaponiyada 3,2 ming, MDH davlatlarida 2 ming⁸⁶.

Yirik TMKlar orasida rivojlanayotgan mamlakatlar (Osiyo va Lotin Amerikasi) TMKlari ham mavjud. Ularga “DAEWOO” (Koreya), “Xatnison Uamtu” (Gonkong) va “Semeks” (Meksika)larni misol qilib ko‘rsatish mumkin.

TMKlar jahon iqtisodiyotining barcha sohalarida (ishlab chiqarish, moliya, texnologiyalar, xizmatlar) ustunlikka ega bo‘lib bormoqda. Qiziqish sohalariga qarab TMKlar quyidagicha taqsimlanadi: 60% - sanoat, 37% - xizmatlar, 3% - bazaviy tarmoqlar (qazib olish, qishloq xo‘jaligi). Sanoat ishlab chiqarishining 30%i, xalqaro savdoning 50%i, TTXIlarning 90%i, patentlar va listenziyalarning 95%i TMKlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Xalqaro kredit sohasida 50 ta TMBlar, sug‘urta operatsiyalarida – 30 ta yetakchi kompaniyalar, reklama ishida – 20 ta yetakchi xalqaro agentliklar, havoda tashish bo‘yicha – 25 ta xalqaro aviatransport kompaniyalari hukmronlik qilishadi. Yuzlikka kiruvchi bu TMKlar uchun xarakterli xususiyatlar quyidagilardir:

- kelib chiqish nuqtai nazaridan eng yirik guruhni tashkil qiluvchi TMKlar AQShga tegishli bo‘lib (100 tadan 32 tasi), xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi ular hissasiga to‘g‘ri keladi;

- tez o‘sayotgan guruh bu yapon TMKlari (1990 yil – 11 %, 1992 yil - 19 %) hisoblanadi, ular elektronika sohasida yetakchilik qilishadi,

- Yevropa TMKlari ximiya va farmatsevtika sanoatida sezilarli o‘rin egallashadi;

- ximiya va farmatsevtika sohasidagi TMKlar, keyin oziq-ovqat va elektronika sohasidagi firmalar tarmoqlar bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichga ega hisoblanadi.

⁸⁶ Андрианов В. Транснационализация внешнеэкономических связей // Маркетинг № 4, 2001, С. 4.

Yirik investorlarga tegishli rejalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning barchasi faol xorijiy operatsiyalarni amalga oshirishi rejalashtirilmoqda. Ammo bu yerda bir qator "geografik" cheklanish mavjud amerika firmalari G'arbiy Yevropa bozorlariga intilmoqda (ayniqsa, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga va iste'mol Tovarlarini ishlab chiqarishga).

Yevropa kompaniyalari esa amerika bozorlarini tanlashmoqda, yapon firmalari uchun ustuvor yo'nalish Osiyo mamlakatlari bo'lib qolmoqda. Bevosita investitsiyalarning jahon bozoriga chiqib borishi bilan xalqaro savdo o'rtasida ma'lum bog'lanishlar vujudga kelmoqda. Bu esa bevosita investorlarni davlat tomonidan turli vositalar yordamida boshqarishni zarur qilib qo'yimoqda.

Yuqorida qayd etilganidek, xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchi davlat uchun salbiy holatlarni keltirib chiqarishi ham mumkin. Jahon tajribasida bunday holatlarning to'rt turi ma'lum:

1. Xorijiy investitsiyalar boshqa iqtisodiyotga kirib kelishi bilan birga shu davlatning milliy zaxiralarini va investitsiya kelishi qisqarishiga turtki bo'lishi mumkin. Shu bilan birga TMKlar davlat bilan eksklyuziv shartnoma tuzish orqali kuchli raqobatni yo'qotib, ular tanho monopoliya o'rnatishga urinadilar.

2. Agar TMKlar investitsiyasi kiritilishining birinchi bosqichida investitsiya qabul qiluvchi mamlakatning xorijiy valyuta zaxirasini boyitsa, keyingi bosqichlarda esa valyuta tushumini cheklab qo'yadi. Valyuta zaxiralari esa yarim-fabrikatlar, texnologiya, import natijasida qisqaradi. Ishlab chiqarishdan olingan foyda esa shartnomaga asosan chetga olib ketiladi.

3. TMKlar davlatga korporativ soliqlar to'laydi, lekin bu soliqlar korporatsiyaning davlat bilan tuzilgan soliq solishdagi yengilliklar haqidagi shartnomasiga binoan minimal miqdorda bo'ladi.

4. TMKlarning tadbirkorlik va boshqaruv tajribalari milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga yordam bermasligi, hattoki, salbiy ta'sir etishi mumkin. TMKlar mahalliy bozorda hal qiluvchi o'rinni saqlab qolishlari uchun o'z tajribalarini boshqa kompaniyalarga yaqqol namoyon etmaydilar.

MDH mamlakatlarini geografik va ijtimoiy-madaniy yaqinligi, o'zaro to'ldiruvchi mineral xomashyo va ilmiy ishlab chiqarish bazasining tarixiy shakllangan ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va

kooperatsiyalashuvining mavjudligi ular tomonidan TMKlar va moliya-sanoat guruhlarini tashkil etishning obyektiv asosi bo'lib xizmat qiladi.

9.4. Transmilliy korporatsiyalarning turlari va ularning xalqaro kapitalni taqsimlash va qayta taqsimlashdagi o'rni

Xalqaro korporatsiya yirik korporatsiya tashkiliy tuzilishining bir shakli bo'lib, jahonning turli mamlakatlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshiradi.

Xalqaro korporatsiyaning ikkita asosiy turi mavjud:

- transmilliy korporatsiya (TMK) (*transnational corporations*) – bosh kompaniya bir mamlakat kapitaliga tegishli, filiallari esa dunyoning ko'pgina mamlakatlarga tarqalgan.

- ko'pmillatli korporatsiya (*multinational corporations*) - bosh kompaniya ikki yoki undan ortiq mamlakat kapitaliga tegishli, filiallari esa turli davlatlarda joylashgan.

Bosh kompaniya joylashgan mamlakatdan qabul qilayotgan mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish xalqaro korporatsiyaning asosiy belgisi hisoblanadi.

Baza mamlakat (*home country*) - bu xalqaro korporatsiyaning bosh ofisi joylashgan mamlakat.

Qabul qilayotgan mamlakat (*host country*) xalqaro korporatsiyalarning bevosita investitsiyalarini qabul qiluvchi mamlakat bo'lib, qabul qiluvchilar ushbu korporatsiyalarning filiallaridir.

TMKlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik munosabatlari quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin:

1. **Xalqaro firmalararo kooperatsiya.** Bu shakl birlamchi rivojlanayotgan mamlakatlarning qazib olish va qayta ishlash tarmoqlaridagi korporatsiyalari bilan hamkorlik asosida faoliyat olib borishi sifatida namoyon bo'lsa, keyinchalik yuqori texnologiyalar talab qiluvchi, ITT yutuqlarini keng qo'llaydigan sohalarda amalga oshirila boshlandi;

2. **Strategik alyanslar** – jahon bozoridagi global masalalarni birgalikda hal etish maqsadida tuziladigan firmalararo ittifoq bo'lib, bu ittifoq firmalarning boshqa sohalarda to'liq raqobatlashuviga to'sqinlik qilmaydi. Strategik alyanslarni yaratishdan maqsad:

- a) texnologik izlanishlar olib borish;
- b) qo'shma ishlab chiqarishni amalga oshirish;
- v) mahsulotni realizatsiya (sotish) qilishda hamkorlik qilish;

3. **Strategik oilalar** – o'zaro raqobatda bo'lgan korporatsiyalarning bir-birini to'ldiruvchi strategiyani amalga oshirish maqsadidagi birlashuvi bo'lib, ushbu strategiya ularning bozordagi muvaffaqiyatiga bog'liqdir;

4. **Strategik tizimlar** - turli tarmoqlardagi (ishlab chiqarish korxonalari, savdo firmalari, banklar) ko'p sonli korxonalarning uzoq muddat hamkorlik qilish sharti bilan koooperatsion birlashmasi bo'lib, ularning asosiy maqsadi muhim axborotlar, personal va texnologiyalar almashishdir;

5. **Xalqaro qo'shib va yutilib ketishlar.** Xalqaro raqobatlashuv kuchayib borishi natijasida 80-yillar o'rtalaridan boshlab TMKlar ishtirokida firmalarning qo'shib va yutilib ketishi jarayoni kuchaydi. Buning asosiy sababi sanoat tarmoqlarida to'liq band bo'lmagan korxonalarning ko'payishi, TMKlar daromadining pasayishi, moliya sohasidagi o'zgarishlar oqibatida moliyalashtirishning yangi manbalari va vositalarining vujudga kelishi bo'ldi. 1998 yilda qo'shib va yutilib ketgan kompaniyalarning qiymati 544 mlrd. doll.ga teng bo'ldi, 1997 yilda esa bu qiymat 342 mlrd.doll.ni tashkil etgan.

Xalqaro qo'shib va yutilib ketishlarning 90%i rivojlangan mamlakatlar TMKlariga xosdir. Bu jarayon asosan bank, sug'urta, farmatsevtika va telekommunikatsiya sohalarida bo'lib o'tmoqda.

6. **TMKlarning xalqaro chatishib ketishi** deganda, korporatsiyalarning bir-birlarining qimmatbaho qog'ozlariga ega bo'lib, ularni sherikchilik asosida boshqarishi tushuniladi. Xalqaro chatishib ketishlar, asosan, avtomobilsozlik tarmoqlarida yuz beradi.

Oxirgi 30 yil davomida xalqaro savdo va moliya oqimining jadal sur'atlar bilan o'sganligining sababini TMKlarning faol harakati bilan izohlash mumkin. Shimoliy Amerika, Yevropa va Yaponiya TMKlari investitsiya qabul qiluvchi davlatlar uchun bir tarafdin katta imkoniyatlar yaratsa, ikkinchi tarafdin bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda kapitalni davlatlararo taqsimlash iqtisodiy o'sishning faol omili bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiyot baynalmilallashgan sari kapital faoliyati milliy doiradan xalqaro

miqyosga chiqadi va mamlakatlararo kapital eksporti yuz beradi. Jahon xo‘jaligi rivojlanishining dastlabki bosqichlarida kapital sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlardan qoloq mamlakatlar tomon yo‘nalgan edi. Jahon xo‘jalik tizimi aloqalari rivojlangan sari kapital harakati umumjahon doirasida yuz berib, uning oqimi har tomonlama, to‘xtovsiz bo‘ladi va pullik jamg‘armalarning investitsiyalarga aylanishi kapitalning xalqaro miqyosdagi harakatini bildiradi.

Iqtisodiy adabiyotda xalqaro kapital migratsiyasining mohiyatini ochib beruvchi ikki xil yondashuv mavjud bo‘lib, ular orasidagi farq quyidagi sabablar orqali ochib beriladi:

- bozor va uni tashkil etuvchi xo‘jalik aloqalarining rivojlanishi;
- ushbu aloqalarning milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va

takomillashuvi

bilan bog‘liq rolining o‘zgarishi.

Birinchi yondashuv tarafdorlari uchun xalqaro kapital migratsiyasi - bu ishlab chiqarish omillaridan birining harakatidir. Bunda alohida tovar va xizmatlar boshqa mamlakatlardagi ishlab chiqarishning iqtisodiy afzalligi tufayli o‘sha mamlakatlar tomon oqib o‘tadi. Bozorning alohida mamlakatlar milliy xususiyatlarini hisobga oluvchi universal qimmati bu yondashuv tarafdorlarining diqqat markazida turadi.

Ikkinchi yondashuv tarafdorlarining fikricha, xalqaro kapital migratsiyasi ortiqcha ishlab chiqarish, moliya resurslarining foyda olish maqsadida xorijga uzluksiz joylashtirilishidan iboratdir. Bu yerda bozor subyekt sifatida emas, balki milliy, hududiy va xalqaro miqyosda muayyan maqsadga erishish vositasi, obyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

XXI asr boshida iqtisodiyotning globallashuvi omillaridan biri kapitalning mamlakatlar o‘rtasida harakatlanishining barqaror sur‘atlarda o‘sishi hisoblanadi.

Tovar ishlab chiqarishning muhim omillaridan hisoblangan kapitalning xalqaro harakati milliy iqtisodiyot chegaralaridan chiqib boshqa mamlakatlarga ko‘chadi.

Xalqaro kapital migratsiyasi jahon xo‘jaligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki u mamlakatlarning tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalarining mustahkamlanishiga olib keladi, ularning tashqi savdo aylanmalarini oshiradi, iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiradi, ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytiradi, ishlab chiqarilayotgan tovar-

larning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini, importyor mamlakatlar texnik salohiyatini o‘stiradi va mamlakatdagi bandlikni oshiradi.

Kapital migratsiyasining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- kapitalning foiz stavkasi bilan belgilanadigan turli chegaraviy unumdorligi;

- firmalarning o‘z faoliyatini xalqaro diversifikatsiyalashtirishga intilishlari;

- tovarlarni import qilishga xalal beradigan va xorijiy ta‘minotchilarning bozorga kirish uchun kapital olib kirishga undaydigan boj to‘siqlarining mavjudligi;

- barqaror siyosiy vaziyat va qulay investitsiyaviy muhit.

Kapital migratsiyasi jarayonlariga quyidagi omillar ta‘sir qiladi:

- ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy o‘sish sur‘atlarining saqlab turilishi;

- jahon iqtisodiyoti va alohida mamlakatlar iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o‘zgarishlar;

- ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyasining chuqurlashuvi;

- jahon iqtisodiyotining transmilliylashishi;

- ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi va integratsiyaviy jarayonlarning rivojlanishi;

- bozorlarning o‘ta to‘yinishi ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini cheklaydi;

- rivojlangan mamlakatlardagi sotuvchilar o‘rtasidagi keskin raqobat;

- milliy bozorning yirik moliya-sanoat guruhlari tomonidan monopollashtirilishi;

- harakatdagi texnologiyalarni takomillashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi;

- sanoati rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini, bandlik darajasini, ilg‘or sanoat tarmoqlarining rivojlanishini saqlab turish uchun salmoqli hajmda kapitallarni jalb qilishga yo‘naltirilgan iqtisodiy siyosati;

- xalqaro tashkilotlar tomonidan xalqaro investitsiyaviy bo‘shliqni erkinlashtirish siyosatining yuritilishi, investitsiyaviy sheriklikning universal me‘yorlarini ishlab chiqish;

- mamlakatlar o'rtasida daromadlar va kapitalning ikki yoqlama soliqqa tortilishiga yo'l qo'ymaslik haqidagi xalqaro kelishuvlar, ular savdo-sotiqning rivojlanishi va investitsiyalarning jalb qilinishiga ko'maklashadi.

Xorijiy investitsiyalar butunjahon iqtisodiyotiga va xalqaro biznesga quyidagi tarzda jiddiy ta'sir ko'rsatadi:

- kapital ekspansiyasi milliy xo'jalik hayotini baynalmilallashtirish missiyasini bajaradi;

- kapital ekspansiyasi yangi texnologiyalar va "nou-xau"larni butun dunyoga tarqatib, jahon bozorlarining diversifikatsiyasini yanada chuqurlashtiradi, jumladan, jahon ishlab chiqarishi xalqaro bozori-ning umumiy samaradorlik darajasini, uning raqobatbardoshligini oshiradi;

- kapital ekspansiyasi va uning jahon iqtisodiyotining daromadli o'sish nuqtalariga ko'chib o'tishi uzoq istiqbolda ishlab chiqarish shart-sharoitlarini tenglashtirish, milliy narxlarning jahon narxlariga yaqinlashishi, ish haqi va foiz stavkalarida milliy farqlarning yo'qolishi tendensiyasini yuzaga keltiradi;

- o'zi uchun bevosita yoki uchinchi mamlakatlar bozorlariga chiqish uchun tramplin sifatida barqaror bozorni ta'minlash;

- xalqaro korporatsiyalarning turli mamlakatlarda o'z "ichki bozor"larini, u yoki bu tarmoqlarini yaratishi natijasida ishlab chiqarish va kapitalning baynalmilallashuvi jarayoni bilan to'ldiriladi;

- o'z manfaatlarini mintaqaviy va yuqoriroq xalqaro darajadagi davlatlararo munosabatlarga kiritish;

- sherik mamlakatlarning ichki ishlari va davlatlararo munosabatlariga aralashmaslik, tenglik, o'zaro manfaatlarni hisobga olish, investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatlar milliy an'analari va madaniy qadriyatlarini, mehnatkashlar huquqlarini hurmat qilish bo'yicha umume'tirof etilgan tamoyillarga rioya qilgan holda xalqaro investitsiyalarni xalqaro hamkorlikning muhim omili sifatida belgilash.

Mamlakatning xalqaro kapital migratsiyasidagi ishtirok etish darajasi qator ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Birinchi guruh ko'rsatkichlarga quyidagi mutloq ko'rsatkichlar kiradi: kapital eksporti va importining hajmi, kapital eksporti- importi qoldig'i, mamlakatdagi xorijiy kapitalli korxonalar soni, ulardagi bandlar soni va h.k. Kapital eksporti-importi qoldig'idan kelib chiqib, jahon mamlakatlari kapital

eksport qiladigan (Yaponiya, Shveysariya), kapital import qiladigan (AQSh, Buyuk Britaniya) hamda eksport va import hajmi taxminan bir xil bo'lgan mamlakatlarga (Germaniya, Fransiya) ajratiladi.

Boshqa guruh ko'rsatkichlar nisbiy ko'rsatkichlar bo'lib, ular xalqaro kapitallar migratsiyasining markazlari va mamlakatning kapital importi-eksportiga bog'liqligini aks ettiradi:

1. Kapital importi koeffitsiyenti – xorijiy kapitalning mamlakat YaIMdagi ulushini ko'rsatadi.

2. Kapital eksporti koeffitsiyenti - eksport qilinadigan kapitalning YaIMdagi ulushini aks ettiradi.

3. Xorijiy kapitalning mamlakat kapital qo'yilmalariga bo'lgan ichki ehtiyojdagil ulushini aks ettiruvchi kapital.

4. Boshqa nisbiy ko'rsatkichlar: xorijiy yoki aralash kompaniyalarning milliy ishlab chiqarishdagi ulushi, kapital eksporti-importining oldingi davrga nisbatan o'sish sur'atlari, mamlakat aholisi jon boshiga to'g'ri keladigan xorijiy investitsiyalar summasi.

Kapitalni xorijga chiqarish, uning davlatlar orasida faol migratsiyasi zamonaviy jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning eng muhim ajratib turuvchi tomoniga aylandi.

Xalqaro kapital migratsiyasi-kapital egasi uchun foyda keltiruvchi, davlatlar orasidagi qarama-qarshi harakatdir. Har bir davlat bir vaqtning o'zida kapitalning importyori va eksportyori bo'lib hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida katta foyda uchun kapital olib chiqishning eng muhim sabablari quyidagilardan iboratdir:

- kapital olib chiqilayotgan davlatda uning ortiqcha to'planganligi;
- jahon xo'jaligining turli zvenolarida kapital talabi va taklifining mos kelmasligi;

- mahalliy bozorni monopol qilish imkoniyati mavjudligi;

- kapital eksport qilinadigan davlatda arzonroq xomashyo va ishchi kuchining mavjudligi;

- barqaror siyosiy holat va umuman qulay investitsion muhitning mavjudligi.

Amaliy hayotda investitsiya qilish zaruriyati o'zida investitsion muhitning barcha qismlarini mujassamlashtirgan sabablar kompleksi va shuningdek, ayrim bozorlarning nisbiy ustunligi tamoyillari bilan belgilanadi.

9.5. Transmilliy korporatsiyalarning mintaqaviy va tarmoq tarkibi, holati va rivojlanish tendensiyalari

Taniqli iqtisodchilarning jahondagi TMKlar bo'yicha tahliliga ko'ra, bugungi kunda TMKlar reytingida Amerika korporatsiyalari yetakchilik qilmoqdalar, yapon korporatsiyalari ikkinchi o'rinda, undan keyin Xitoy va Buyuk Britaniya, ulardan keyin esa Fransiya, Germaniya, Kanada, Braziliya, Janubiy Koreya, Italiya va Hind korporatsiyalari turadi⁸⁷.

Sektorlar bo'yicha bunday korporatsiyalarning ishlab chiqarish sanoatida yetakchi ulushni saqlab qolgan holda, xizmat ko'rsatish sohasida ham o'z ulushini oshirib borish tendensiyasi kuzatilmoqda.

So'nggi yillarda TMKlar filiallari jahon bozorida alohida o'ringa ega bo'la boshladi, UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, jahon savdosining 33% i va jahon yalpi mahsulotining 10 %i ular hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bundan tashqari TMKlar jahon miqyosida ilmiy tadqiqotlar rivojlanishida tobora muhim rol o'ynay boshlaydi, barcha patentlar va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan mablag'larning 80 %i ular hisobiga to'g'ri kelmoqda.

9.5-jadvalda berilgan ma'lumotlarga ko'ra TMKlarning eng katta guruhi bank-moliya sektorida jamlangan. U asosan AQSh va Xitoydagi korporatsiyalardan iborat bo'lib, hozirgi kunda TMKlarning moliyaviy sektorda faoliyat olib boruvchi alohida guruhi ko'p millatli banklar (TMB) deb yuritiladi.

TMKlarning ikkinchi eng yirik guruhi neft-gaz qazib olish va qayta ishlash sohasiga tegishli bo'lib, unda ham yetakchi o'rinlarni AQSh va Xitoy korporatsiyalari egallab turibdi. Bu guruhga Rossiya vakillari hisoblangan "Gazprom", "Rosneft", "Sberbank" va boshqa TMKlar ham kiradi.

TMKlarning uchinchi guruhi farmatsevtika ishlab chiqarishi va biotexnologiyaga qaratilgan. Ushbu guruhga Fransiya va Shveysariya korporatsiyalari kirib, bu guruh 22 ta ko'p millatli korporatsiyadan iborat.

⁸⁷ Хасбулатов Р.И. Международные экономические отношения. – М: ЮРАЙТ, 2012.

**Ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va mamlakatlar bo'yicha yirik
TMKlarning taqsimlanishi (2012 yil)**

| Faoliyat sohalari | TMK-lar | Ta'sischi mamlakatlar | Faoliyat sohalari | TMK-lar | Ta'sischi mamlakatlar |
|---|----------------|---|---|----------------|--|
| Neft va gaz qazib olish | 43 | AQSh, Xitoy, Rossiya va boshqalar | Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish | 16 | AQSh, Yaponiya, Tayvan va boshqalar |
| Bank-moliya xizmatlari | 71 | AQSh, Xitoy, Avstraliya va boshqalar | Avtomobillar va avtomobil ehtiyot qismlari ishlab chiqarish | 17 | Yaponiya, Germaniya, AQSh va boshqalar |
| Oziq-ovqat mahsulotlari sanoati | 9 | Shveysariya, AQSh, Buyuk Britaniya va boshqalar | Farmatsevtika ishlab chiqarishi va biotexnologiyalar | 22 | Shveysariya, Fransiya va boshqalar |
| Dasturiy ta'minot, kompyuter xizmatlari | 13 | AQSh, Germaniya, Hindiston, Yaponiya va boshqalar | Chakana savdo sohasi | 17 | AQSh, Ispaniya, Meksika va boshqalar |
| JAMI | | | 208 | | |

Xalqaro amaliyot va tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, "TMKlarning tarmoqlararo bo'linish" tendensiyalari jahon iqtisodiyoti tizimining tashkil topishidagi o'zgarishlar bilan yuzaga keladi. Empirik tarzda real sektor bilan bog'liq TMKlar turli inqirozlar ta'sirida yanada moslashuvchan bo'ladi. Real sektorda TMKlar tarkibining o'zgarishi faqat uzoq muddatli davrda yuzaga kelishi mumkin.

Globalashuv sharoitida TMKlar faoliyat xususiyatlarining o'zgarishi ularning milliy va mamlakatning o'ziga xos omillarini hisobga olishni talab qiladi. Shu munosabat bilan, zamonaviy TMK mamlakat mansubligini baholash Danningning milliy chegaralar bo'ylab kapital oqimlari nazariyasi asosida amalga oshiriladi. Bu ko'rsatkich ma'lum bir mamlakatda joylashgan asosiy kompaniyalar soni bilan belgilanadi. Asosiy bosh kompaniyalar TMKlarning "yuragi" bo'lib, ular

joylashgan mamlakatlar butun TMK faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, Danning nazariyasiga ko'ra, bunday TMKlarning miqdori va sifati "mamlakat ichidagi ortiqcha investitsiyalar oqimi"ni ko'rsatadi, bu esa ma'lum darajada mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini aks ettiradi.

9.6-jadvalni shakllantirish uchun turli istiqbolli xalqaro hududlarni "milliy chegaralardan tashqaridagi kapital oqimlari" nuqtai nazaridan tavsiflash uchun tanlab olindi. Eng ko'pi yirik korporatsiyalar AQShda jamlangan – 174 ta, ikkinchi o'rinda Yaponiya – 38 ta, Fransiya va Xitoyda joylashgan transmilliy korporatsiyalar soni bir-biriga yaqin bo'lib, bu ulardagi iqtisodiy rivojlanish va ichki kapital yetarlilik darajasining deyarli bir xilligini ko'rsatadi.

9.6-jadval

**Zamonaviy TMKlarning mamlakatlar bo'yicha mansubligi
(2012 yil)**

| TMKlar asosiy kompaniyalariga ega mamlakatlar | TMKlar soni | Eng yuqori bozor qiymati, mlrd. doll. | Eng past bozor qiymati, mlrd. doll. |
|--|--------------------|--|--|
| AQSh | 174 | 559,0 | 18,0 |
| Xitoy | 34 | 279,0 | 18,3 |
| Fransiya | 24 | 120,4 | 18,3 |
| Yaponiya | 38 | 149,6 | 18,2. |
| Rossiya | 10 | 145,8 | 23,4 |
| Braziliya | 12 | 170,8. | 26,8 |
| Buyuk Britaniya | 38 | 222,4 | 18,1 |
| Germaniya | 19 | 92,0 | 18,7 |
| Shveysariya | 15 | 207,4 | 19,0 |
| Hindiston | 12 | 48,2 | 19,5 |

Shuningdek, oldingi bo'limlarda TMKlar ishlab chiqarishni tashkil etish uchun mezbon mamlakatda malakali mehnatning mavjudligi omili yoritib berilgan. Bu malakali ishchi kuchini mezbon mamlakat ichki resurslaridan, shuningdek, tashqi inson resurslaridan olishi mumkin. Biroq, buni zaruriy darajadagi ish haqi bilan ta'minlash orqali amalga oshirish mumkin, biroq bunda xarajatlar miqdori ortadi.

Ko'rib o'tilgan omillarni tasdiqlash uchun alohida tahlil o'tkazish talab etiladi. Bu tahlil iqtisodiy inqirozlar ta'sirida eng jozibador va

barqaror bo‘lgan TMK tarmoqlarini aniqlashga yordam beradi. Ushbu maqsadga erishish uchun eng yaxshi 500 ta TMK faoliyati tahlil qilinadi. 2007-2012 yillar davrida sanoat bo‘yicha TMKlar soni dinamikasi 9.7-jadvalda ko‘rsatilgan. Tahlil natijalari asosida “Top 500” xalqaro reytingiga asos solindi.

9.7-jadval

Faoliyat sohalari tarkibidagi TMKlar soni o‘zgarishi

| Faoliyat sohalari | 2007 yil | 2008 yil | 2009 yil | 2010 yil | 2011 yil | 2012 yil |
|--|---------------------|---------------------|---------------------|---------------------|---------------------|---------------------|
| Neft va gaz qazib olish | 43 | 43 | 44 | 45 | 46 | 43 |
| Bank-moliya sohasi | 83 | 71 | 56 | 69 | 75 | 71 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari sanoati | 7 | 9 | 11 | 9 | 9 | 9 |
| Dasturiy ta’minot, kompyuter xizmatlari | 11 | 10 | 12 | 12 | 12 | 13 |
| Yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish sohalari | 21 | 18 | 18 | 21 | 19 | 16 |
| Avtomobillar va ularga ehtiyot qismlar ishlab chiqarish sohalari | 10 | 10 | 8 | 11 | 15 | 17 |
| Farmatsevtika va biotexnologiya | 22 | 23 | 25 | 20 | 20 | 22 |
| Chakana savdo sohasi | 16 | 12 | 19 | 19 | 15 | 17 |
| Jami | 213 | 196 | 193 | 206 | 211 | 208 |

9.7-jadvalda 6 yil mobaynida TMKlar faoliyatining 8 ta asosiy yo‘nalishlari yoritilgan. Ma’lumotlarda ko‘rsatilishicha, global iqtisodiy inqirozlar sharoitida eng barqaror 43-46ta TMK darajasida o‘zgarish yuz bermagan. Bu haqiqatni o‘z iqtisodiyotining ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarining resurs ta’minotida import qiluvchi mamlakatlar ehtiyojlarini qondiruvchi, bir xil darajada qolayotgan energiya xomashyosi jahon bozoridagi barqaror talab bilan izohlash mumkin.

Bank-moliya sektori esa eng ko‘p zarar ko‘rgan. Chunki bu sohadagi TMKlar soni 2009 yilga kelib 83 tadan 56 taga kamaydi. 2010-yilda ular yana ko‘paya boshlaganiga qaramay, inqirozdan oldingi ko‘rsatkichga yetib bormagan. Bu moliyaviy va iqtisodiy sohaning iqtisodiy larzalarga barqaror emasligini tasdiqlaydi.

TMKlarning hozirgi rivojlanish bosqichi nafaqat global korporatsiyalarning paydo bo'lishi, balki ular strategiyasining chuqur evolyutsiyasi bilan ham xarakterlanadi va u quyidagi tendensiyalarda namoyon bo'ladi:

- ilmiy va texnologik inqilob va kuchli global raqobat sharoitida, ular faoliyatining asosiy maqsadi faqat foydani maksimallashtirishdan iborat bo'lib qolmasdan, uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik fonida foyda va "bozor"ni maksimallashtirish, ya'ni korporatsiyaning strategik barqarorligini ta'minlashni ham nazarda tutadi;

- kompaniyaning yagona global strategiyasi doirasida global ishlab chiqarish va sotish tarmoqlarini yaratish. Shu bilan birga, TMKlar bir mamlakatda to'liq ishlab chiqarish siklini yaratish bilan qanoatlanmasdan, har bir korxonani global tarmoqda alohida tugun sifatida yakuniy bosqich uchun komponent ishlab chiqarishda ixtisoslashtirishga intiladi;

- TMKlar doirasida xalqaro mehnat taqsimotining kengayishi ishlab chiqarish, tadqiqot, sotish va dunyoning turli burchaklarida tarqalgan kompaniya bo'linmalari boshqa faoliyatining gorizont va vertikal integratsiyasiga asoslangan;

- TMKlar tomonidan yaratilayotgan xalqaro ishlab chiqarish nafaqat moddiy, balki nomoddiy xarakterga ham ega, ya'ni so'nggi o'n yil ichida xizmatlar va ilm-fan taraqqiyoti yo'nalishiga kiritilayotgan TTXI hajmi tez o'sib bormoqda;

- TMKlarning qayta ishlash sanoatini rivojlantirish strategiyasi moddiy, moliyaviy va inson resurslarining sifat jihatidan yangi (global) kombinatsiyasiga asoslangan bo'lib, mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan (ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra, 2025 yilda qayta ishlash sanoatining ulushi jahon yalpi mahsulotining 10 %idan oshmaydi, ammo samaradorlikning ortishi tufayli dunyoning soha mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlari to'liq qondiriladi;⁸⁸

- TMK bo'linmalari o'rtasida ichki korporativ savdoni jadal rivojlantirish (hozirgi kunda butun jahon savdosining taxminan 1/2 qismini tashkil etadi);

⁸⁸ Динамика расходов на НИОКР в промышленно развитых странах // БИКИ. 2006. №21. - 21 февраля. С.4-5.

- xalqaro korporatsiyalar tomonidan kapitalni TTXI shaklida eksport qilish nafaqat xorijiy filiallar sonini oshirishga, balki rivojlangan mamlakatlar o'rtasida ishlab chiqarishni tashkil etish va texnologik bo'shliqni kamaytirishga qaratilgan: mahsulot va xizmatlarning sifati, ishlab chiqarish mamlakatidan qat'iy nazar, xalqaro standartlarga javob berishi kerak;

- texnologiyalarni rivojlantirish, uzatish va ulardan foydalanishni asosan yopiq korporativ tarkibda foydalanish, shuningdek, raqobat xavfini kamaytirish maqsadida – qo'shma tadqiqot markazlari va dasturlarini yaratish, boshqa korporatsiyalar bilan o'zaro litsenziyalash;

- xalqaro korporatsiyalar faoliyatini shakl bo'yicha diversifikatsiyalash (15 ga yaqin). Tashqi iqtisodiy faoliyatda tovarlar, kapital, texnologiyalar va bilimlar harakatining gibrid yoki murakkab shakllarda diversifikatsiyalashuvi eng samarali hisoblanadi. "Liksfreksding" - litsenziya almashinuvi, franchayzing, tovarlar eksport qilish va TTXIning murakkab kombinatsiyasi jahon amaliyotida tobora keng tarqalmoqda. Moddiy bo'lmagan ishlab chiqarish sohasida tashqi iqtisodiy faoliyatning muayyan turlari (moliyalash, sotish, boshqarish, sug'urta) bo'yicha ixtisoslashishga nisbatan aniq tendensiya mavjud;

- turli milliy va xalqaro markazlarga tegishli TMKlarning "o'zaro hamkorligi" va strategik tizimlar, oilalar, ittifoqlar, birlashish va sotib olish shaklida o'zaro aloqalarini mustahkamlash.

TMKlarning o'rni hozirgi vaqtda ishchi kuchi va xomashyoning ko'pligi bilan emas, balki inson kapitalining sifati, innovatsion faoliyati, ta'lim darajasi va bilimlardan amaliy foydalanish darajasi bilan belgilanadi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ilmiy tadqiqotlarga xarajatlar bo'yicha Shvetsiya yetakchilik qilmoqda, undan keyingi o'rinlarni Finlandiya, AQSh, Yaponiya, Daniya va Germaniya egallagan. Umuman, eng yaxshi besh mamlakat – AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya ilmiy tadqiqotlarga ko'proq dunyodagi barcha boshqa mamlakatlarga nisbatan pul sarflaydi va bu guruhda AQShning ulushi 50% dan oshadi.

Ilmiy-texnika sohasidagi globallashtirishning zamonaviy jarayonlari tadqiqot va rivojlanishning mazmuni va yo'nalishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Tabiatan baynalmilal bo'lgan fundamental fan, nihoyat, davlatlararo to'siqlarni yengib o'tib, dunyo taraqqiyotini bashorat

qilib, koinot sirlariga va insoniyatning o'z-o'zini bilishiga kirib borishning umumiy sivilizatsion vositasiga aylanadi. Eng rivojlangan va yangi rivojlangan mamlakatlarda xorijiy tadqiqotlarni moliyalashtirish o'sib borayotgan mutanosib yangilik sohasida TMKlarning tadqiqot bo'limlarini shakllantirishga yo'naltirilmoqda. O'rtacha rivojlangan mamlakatlarda, tadqiqot va rivojlantirish uchun xorijiy moliyalashtirish ulushi taxminan 10% edi.

TMKlar o'z mamlakatlarida tashkil etilgan o'z ishlab chiqarish obyektlari ehtiyojlarini qondirish uchun, birinchi navbatda, xorijiy tadqiqot bo'linmalarini ochishga harakat qiladi. So'nggi paytlarda ko'proq xorijiy bo'linmalar faoliyati global tadqiqot salohiyatidan foydalanishga, jumladan, yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlarni jalb etishga qaratilgan.

9.6. O'zbekistonda transmilliy korporatsiyalar faoliyati va moliya-sanoat guruhlarini tuzish istiqbollari

XX asrning 90-yillariga kelib, aksariyat mamlakatlarda yirik moliya-sanoat guruhlarini shakllantirildi. Hozirgi kunda ular o'zida turli sohalar sanoat korxonalarini, jumladan, metallurgiya, kimyo, mashinasozlik, energetika va boshqalarni birlashtirgan tarzda murakkab tuzilmalar shaklida faoliyat yuritadi. Moliya-sanoat guruhlarini o'zida yirik miqdordagi kapitalni to'plagan holda, yanada diversifikatsiyalashga imkon beruvchi istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarida faoliyat yuritadi. Ta'kidlash joizki, moliya-sanoat guruhlarini ishtirokchilarning haqiqiy imkoniyatlari va manfaatlarining umumiyligi asosida tashkil etilishi kerak.

Zamonaviy moliya-sanoat tuzilmalari, shubhasiz, mamlakatda va jahonda yirik iqtisodiy va moliyaviy markazga aylanishi mumkin. Ularning milliy va jahon iqtisodiyotiga qo'shadigan hissasi yangi iqtisodiy hududlarning tashkil topishida, milliy va jahon moliya bozorlarining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Yirik moliya-sanoat guruhlarining savdo aylanmasi dunyoning ko'plab mamlakatlari YaIM hajmidan oshib ketadi. Dunyodagi ikki yuzta yirik transmilliy kompaniyalarning umumiy savdo aylanmasi AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, XXR, Braziliya, Kanada, Ispaniyadan tashqari barcha mamlakatlarning YaIM hajmidan ortiqdir.

So‘nggi 25 yilda ushbu ko‘rsatkich, mazkur tuzilmalardagi ishchilar soni 14,4% ga oshgani holda, deyarli 4 marta ko‘paygan⁸⁹.

9.8-jadval

Moliya-sanoat guruhlarining jahon moliya muassasalari umumiy aktivlaridagi ulushi¹⁷⁹

| № | Moliyaviy muassasalar | 2006 yil | 2011 yil | 2012 yil | 2013 yil | 2014 yil | 2015 yil |
|-------------|------------------------------|---------------------|---------------------|---------------------|---------------------|---------------------|---------------------|
| 1 | Banklar | 26 | 25 | 25 | 26 | 25 | 26 |
| 2 | Investitsiya fondlari | 21 | 22 | 22 | 23 | 22 | 23 |
| 3 | Moliya-sanoat guruhlari | 19 | 20 | 20 | 21 | 20 | 21 |
| 4 | Pensiya fondlari | 10 | 9 | 11 | 10 | 12 | 13 |
| 5 | Sug‘urta kompaniyalari | 7 | 10 | 12 | 11 | 9 | 9 |
| 6 | Boshqalar | 17 | 14 | 10 | 9 | 12 | 8 |
| Jami | | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |

Moliya-sanoat guruhlari milliy iqtisodiyot tarmoqlari doirasida ishlab chiqarish resurslarini to‘plash, ishlab chiqarishning tashkiliy-iqtisodiy hamda texnologik sharoitlarini yaxshilashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, sanoatning yuqori o‘sish sur‘atlariga erishgan ko‘pgina mamlakatlarda (Yaponiya, AQSh, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Italiya, Janubiy Koreya va boshqalar) moliya-sanoat guruhlari milliy korxonalar raqobatbardoshligini oshirish va butun iqtisodiyotda jadallashtirilgan iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga yo‘naltirilgan muhim omil sifatida qaraladi.

Moliya-sanoat guruhlarining milliy va jahon iqtisodiyoti uchun muhimligi ular shakllanishi va faoliyat yuritishi jarayonlarining tegishli ilmiy tahlilini talab etadi. Kapital va ishlab chiqarishning keng ko‘lamda bir joyga to‘planishi asosida yuzaga keluvchi birlashgan korporativ tuzilmalar bugungi kunda milliy va jahon iqtisodiyotining muhim subyektlari bo‘lib hisoblanadi.

⁸⁹ Федорович В.О. Крупные корпоративные образования: концентрация факторов производства и экономический рост //Аваль. Сибирская финансовая школа. – 2005. – №1. – С. 87.

Jahon amaliyotida moliya institutlariga investitsiya fondlari, moliyaviy konglomeratlar, pensiya fondlari, investitsiya paychilari, sugʻurta kompaniyalari, kredit uyushmalari va boshqa tashkilotlar kiradi. Quyidagi jadval maʼlumotlari koʻrsatishicha, moliya-sanoat guruhlarining jahon moliya muassasalari umumiy aktivlaridagi ulushi 2006 yilda 19 foizga teng boʻlgan boʻlsa, 2015 yilga kelib mazkur koʻrsatkich 21 foizni tashkil qilgan holda 2 foizli punktga oshgan. Yuqoridagi jadvaldan koʻrish mumkinki, moliya-sanoat guruhlarini aktivlari salmogʻiga koʻra banklar va investitsiya fondlari aktivlaridan keyingi oʻrinni egallagan. Mazkur holat, jahondagi moliya muassasalari tarkibida moliya-sanoat guruhlarini faoliyatining sezilarli darajada rivojlanganligi va pirovardida ular aktivlari hajmining oshganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotlar koʻrsatishicha, jahon iqtisodiyotida moliya-sanoat guruhlarini rivojlanishining quyidagi modellari keng tarqalgan, yaʼni: anglo-amerika, germaniya, lotin va yapon.

Anglo-amerika modeli, Buyuk Britaniya, AQSh, Avstraliya va Kanada mamlakatlarida amal qiladi. Ushbu mamlakatlarda sanoatlashtirishning negizi boʻlib tadbirkorlik asosida kapital toʻplash mexanizmi hisoblanadi.

Kapital institutsional aksiyadorlarning (banklar, sugʻurta kompaniyalari va pensiya fondlari) mablagʻlari hisobidan shakllanib alohida va mustaqil aksiyadorlar mexanizmi orqali faoliyat yuritadi.

Moliya-sanoat guruhlarini rivojlanishining anglo-amerika modeliga xos boʻlgan yana bitta xususiyatli tomon – ulardagi aksionerlik kapitalining birmuncha tarqoqligidir. Ushbu mamlakatlardagi moliya-sanoat guruhlarini korporativ kapitalning unchalik katta boʻlmagan qismiga ega boʻlgan koʻp sonli mulkdorlarga ega.

Germaniya modeli Germaniya va Avstriyada amal qilib, yirik hamda oʻrtacha korporatsiyalarning moliyaviy asosini bank tizimi tashkil qiladi, bunda alohida aksiyadorlarning roli unchalik ahamiyatli emas. Germaniya modelining bank mexanizmi korporativ munosabatlar tuzilmasida moliya va sanoat tarmoqlari oʻrtasidagi uzoq muddatli investitsiya munosabatlariga yoʻnaltirilgan. Ushbu modelda banklar tashqi moliyalash manbalariga ehtiyoj sezayotgan kompaniyalar uchun qarz kapitalini yetkazib beruvchi hisoblanadilar.

Germaniyada yirik banklar ko‘plab yuqori integrallashgan nemis korporatsiyalari kapitalining katta qismiga egalik qiladi. Jumladan, Germaniyaning yirik banklaridan hisoblangan «Doyche bank» yetakchi milliy korxonalarining «Daymler-Bens» (28,34%), «Filipp Holzman» (30%), «Karlstadt» (25,08%) aksiyalariga egalik qiladi. Mazkur banklar faqatgina ularning innovatsion rivojlanishidagi ehtiyojlarini moliyalashtirib qolmasdan, balki bankning moliyaviy barqarorligini ham oshirib boradi¹⁸⁰.

Germaniya moliya-sanoat guruhlarining muvofiqligi birdaniga bir nechta mexanizmlarni ta’minlaydi. Birinchidan, bir vaqtning o‘zida mazkur guruhga kiruvchi turli kompaniya va firmalarning boshqarma a’zosi bo‘lib hisoblangan mansabdor shaxslarning nisbatan kichik doirasini mavjudligi; ikkinchidan, moliya-sanoat guruhiga kiruvchi moliya-kredit institutlari muvofiqlashtiruvchi rolni bajarishi (bugungi kunda ularga mamlakatdagi 25 ta yirik sanoat korxonalarining 30% aksiyasi tegishlidir)⁹⁰; uchinchidan, guruhlar ichidagi integratsiya, shuningdek, o‘zaro kesishgan aksiyalashtirishga (kapitalda ishtirok etish) xizmat qilishi.

Germaniya an’alarining muhim xususiyati bank bilan sanoatning o‘zaro uzviy aloqalari bilan belgilanadi. Moliyaviy, aksiyadorlik, shuningdek, ish aloqalari asosida moliya institutlari bilan sanoat korxonalarining tarmoqlararo integratsiyasida barqaror gorizontol moliya-sanoat birlashmalari sodir bo‘ladi. O‘z navbatida, konsernning bir muncha barqaror negizi atrofida ko‘pgina yirik va o‘rta kompaniyalar guruhlanadi. O‘rta hisobda guruhlarining bosh holdingi aksiyalarga egalik qiladi va taxminan 150 kompaniya faoliyatini nazorat qiladi. Banklar nafaqat investitsion loyihalarni moliyalashtirishda, balki korxonalarini boshqarishda ham ishtirok etishini qabul qilishadi. Shuning uchun ham, Germaniyada moliya-sanoat guruhlarini tashkil etishning markazi mavjud bo‘lib, odatda, bu vazifani yirik banklar bajarishadi. Uchta yetakchi moliya-sanoat guruhlari boshida turuvchi yirik banklar bo‘lib, “Doyche Bank” AG, “Drezdner Bank” AG va “Kommersbank” AG hisoblanadi. Ularga mamlakat

⁹⁰ Mirzayev F.I. Banklararo raqobat: mohiyati, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. –T.: «Moliya», 2008. –197 b.

aksiyadorlik kapitalining mos ravishda 1/3, 1/4 va 1/8 qismi to'g'ri keladi⁹¹.

Lotin modeli esa, Fransiya, Belgiya va Italiya mamlakatlarida amal qiladi. Bu modelda yakka tartibdagi va oilaviy korporatsiyalar investitsiya kompaniyalari va investitsiya banklari holdinglari tomonidan birlashtirilishi natijasida erkin korporativ tarmoqlar shaklida yuzaga kelgan. Kapitalning qarama-qarshi munosabatlari iqtisodiy aloqalarning murakkab tarmoqlarini yuzaga keltirdi. Ushbu tarmoqlarda davlat korxonalarining roli tobora oshib bormoqda.

Yapon modeli esa, investitsiyalarni sanoatga uzoq muddatga yo'naltirilganligi, moliya va sanoat tarmoqlari o'rtasida yaqin aloqalarning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Mazkur modelning o'ziga xos xususiyati guruhlashish tendensiyasidir. Xo'jalik birliklari korporativ guruhlarni tashkil etgan holda aksiyalarga qarama-qarshi egalik qilish mexanizmi orqali bir-biri bilan yaqin aloqa o'rnatgan. Har bir guruhning kapitalni to'plash mexanizmi guruh banki yordamida amalga oshiriladi.

Yapon moliya-sanoat guruhlarining muhim xususiyati – bosh bankdan moliyalashtirishdir. Guruh ichidagi bitimlar bosh savdo kompaniyasi orqali amalga oshiriladi, bu savdo kompaniyasi guruh a'zolari bo'lgan kompaniyalar ishlab chiqargan mahsulotlarni sotadi va xomashyolarni sotib oladi.

Yaponiyaning 49 ta kompaniyasi kapitallashuv darajasi bo'yicha dunyoning yirik 500 ta kompaniyalari ro'yxatiga kiritilgan. Quyidagi 9.9-jadvalda ulardan eng yiriklari keltirilgan. Hozirda Yaponiyaning yirik moliya-sanoat guruhlaridan biri moliyaviy markazi yirik yapon banki Mitsubishi YuFJ Faynenshl Grupp bo'lgan Mitsubishi guruhi hisoblanadi. Guruhning tarkibiga 29 ta kompaniya kiradi, dunyoda o'z o'rniga ega bo'lgan Mitsubishi Xevi Industriz, Mitsubishi Motors Korporeyshn, Nikon Korporeyshn, Kirin Brevery Ko. kabilar mavjud. Mitsui Sumitomo guruhida, Sumitomo Mitsui Banking Korporeyshn uning asosini tashkil etadi. Jumladan, uning tarkibiga Sumitomo Xevi Industriz, Sumitomo NYeK Korporeyshn, Sumitomo Mitsui Konstrakshn Ko. kabi kompaniyalar kiradi.

⁹¹ Цветков В.А. Финансово-промышленные группы в современном мире // Промышленная политика в РФ. №6, 2000. - С. 36-47.

Yaponiyada moliya-sanoat guruhlari o'zagini banklar va bosh savdo kompaniyalari tashkil etadilar. Yapon moliya-sanoat guruhlarida barcha a'zolar tomonidan ta'sis etilgan kompaniyalar mavjud. Masalan, xorijdagi neft manbalarini rivojlantirish uchun, axborot texnologiyalari bilan bog'liq masalalarni yechish uchun, kosmik aloqalar uchun tuzilgan kompaniyalar. Guruh qatnashchilari umumiy axborot manбайдan foydalanadilar.

9.9-jadval

**Yaponiyada yetakchi korporatsiyalarning kapitallashuvi
(2015 yil holatiga ko'ra)⁹²**

| Kompaniyalar | Mlrd.doll. | Kompaniyalar | Mlrd.doll |
|---------------------------------|-------------------|---------------------|------------------|
| Toyota Motor | 168,0 | Denso | 38,1 |
| Nippon Telegraph & Telephone | 90,3 | Canon | 33,0 |
| NTT DoCoMo | 80,0 | Sony | 31,1 |
| Mitsubishi UFJ Financial Group | 67,6 | Mitsubishi Estate | 28,7 |
| Japan Tobacco | 67,0 | Fanuc | 28,0 |
| KDDI | 64,8 | Hitachi | 27,4 |
| Softbank | 60,0 | Mitsubishi | 26,3 |
| Honda Motor | 57,5 | Panasonic | 23,5 |
| Sumitomo Mitsui Financial Group | 52,0 | Mitsubishi Electric | 21,5 |
| Mizuho Financial Group | 50,2 | Mitsui | 21,3 |
| Nissan Motor | 44,0 | Nintendo | 16,3 |
| Takeda Pharmaceuticals | 39,7 | Komatsu | 15,4 |
| Seven& I Holding | 38,2 | Inpex | 14,3 |

Yaponiya banklari faqatgina kredit berish bilan cheklanib qolmasdan moliya-sanoat guruhlarini moliyalashtirish va o'zaro hamkorlik uchrashuvlarini tashkil etish faoliyatini ham bajaradi. Shuningdek, bank o'z mijozlariga o'zaro hamkorlik qilishi uchun sheriklar topishda hamda biznes xizmatlar ko'rsatishda yordamlashadi. Guruhga kiruvchi

⁹² https://uz.wikipedia.org/wiki/Категория:Компании_Японии

kompaniyalar faoliyati barqaror bo‘lgan sharoitda bosh bank uning faoliyatiga aralashmaydi. Mabodo kompaniyaning moliyaviy holati yomonlashsa, bosh bank riskli operatsiyalarni kamaytiradi hamda bu holatni yaxshilashga yordam beradi.

Jahon amaliyotida, moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish bir nechta yo‘llar orqali amalga oshiriladi: ishtirokchilarning tashabbusiga ko‘ra, davlat organlarining qarorlari bo‘yicha hamda hukumatlararo bitimlarga ko‘ra. Barcha iqtisodiy-huquqiy vakolatlar hamda tegishli yuridik va xo‘jalik majburiyatlari bilan yangidan tashkil etilgan tashkiliy tuzilmani o‘zida ifodalovchi aksionerlik jamiyatini tuzish va alohida ishtirokchilarning kapitallarini ixtiyoriy birlashtirish birmuncha keng tarqalgan usul hisoblanadi. Ikkinchi usul, tashkil etilayotgan moliya-sanoat guruhi ishtirokchilari o‘zlarining aksiya paketlarini guruh ishtirokchilaridan biriga, odatda, bank yoki moliya-kredit institutiga ixtiyoriy ravishda boshqarishga berishi hisoblanadi. Uchinchi usul esa guruh ishtirokchilaridan biri boshqa korxonalar va tashkilotlarning aksiya paketlarini egallashidan iborat bo‘lib, buning natijasida moliya-sanoat guruhi ishtirokchilari shakllanadi. Aksiya paketlarining bunday egallanishi har doim ham ixtiyoriylik xususiyatiga ega bo‘lmaydi. Biror kompaniyaning boshqasiga qo‘shilishi va singishi jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bunda, davlatga tegishli bo‘lgan aksiyalar paketlari, davlatga tegishli bo‘lgan aksiyalar paketlarini vakolatli boshqarishga berilishi yoki ularning sotib olinishi orqali moliya-sanoat guruhlarini tashkil etishga olib kelganda ularning miqdori monopoliyaga qarshi qonunchilik talablarini hisobga olgan holda belgilanishi lozim.

Xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasida moliya-sanoat guruhlarini faoliyatini tashkil qilishda quyidagi modellardan foydalanish mumkin:

- Yaponiya modeli;
- Germaniya modeli.

Ushbu ikki modelning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularda moliya-sanoat guruhlarini faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasini asosan banklar bajaradi.

Xalqaro amaliyotda bir qator mamlakatlarda tijorat banklari ishtirokidagi moliya-sanoat guruhlarini tashkil etish amaliyoti keng tarqalgan bo‘lib, ular samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. Odatda, tijorat

banklari ishtirokidagi moliya- sanoat guruhlari a'zolari o'rtasida moliyaviy resurslarning samarali qayta taqsimlanishi va faoliyat yuritish mexanizmi qulayligi tufayli keng tarqalgandir. Mamlakatimizda ham tijorat banklari tashabbuskorligi va faol ishtirokida moliya-sanoat guruhlarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Banklar ishtirokidagi moliya-sanoat guruhlari markazida moliya-kredit tashkilotlari, aksariyat hollarda yirik tijorat banki boshchiligidagi bank holdingi birlashmasi turadi. Odatda, ular tarkibiga investitsion kompaniyalar, sanoat korxonalar, savdo kompaniyalari, trust va moliya kompaniyalari, reklama va konsalting, sug'urta firmalari kiradi.

Xorijiy mamlakatlarda banklar moliya-sanoat tuzilmalarining markaziy organi hisoblanadi. Bank ma'lum korxonalar doirasida faoliyat yuritishi bilan birgalikda ularning moliyaviy holati to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'ladi. Biror muammo yuzaga keladigan bo'lsa, u zarur bo'lgan choralarni qabul qiladi. Chunki ishlab chiqarish jarayonining natijasi uning shaxsiy iqtisodiy manfaatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Moliya-sanoat guruhi ishtirokchisi bo'lgan korxonaning moliyaviy holati yomonlashganda, bank moliyaviy sog'lomlashtirishda faol qatnashadi, ma'lum bir pul oqimlarini va tuzilmaviy o'zgartirishlarni o'tkazishda bankdan barqaror moliyaviy holat talab etiladi.

Tijorat banklarining integratsiyalashgan tuzilmalar tarkibida ishtirok etishi natijasida faoliyat ko'lamini kengaytirish, sanoat bilan mustahkam munosabatlarni o'rnatish, o'zaro foydali investitsion loyihalarni hamkorlikda ishlab chiqish va amalga oshirish hamda investitsion siyosatni samarali yuritishda qulay imkoniyatlar yaratiladi. Shuningdek, mazkur tuzilmalar doirasida investitsion siyosat yuritish tijorat banklariga qator qulayliklar tug'diradi. Bular jumlasiga, ishonchli mijozlarning mavjudligi, ular moliyaviy holatini doimiy tahlil qilish imkoniyati, investitsion loyihalar bo'yicha tizimli nazoratning yo'lga qo'yilishi, investitsion jarayonlarni prognozlashni yaxshilash hisobiga bank raqobatbardoshligini oshirish, mijozlarning ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatining istiqbolli yo'nalishlarini hisobga olgan holda ixtisoslashtirishni chuqurlashtirish, yuqori ilmiy sig'imli ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan investitsion loyihalarni ishlab chiqish darajasini oshirish va boshqalar.

Ta'kidlash joizki, moliya-sanoat guruhlarining shakllantirilishi va faoliyat yuritishi orqali, birinchidan, bank kapitalini sanoatga yo'naltirish muammosi hal etiladi; ikkinchidan, butun bank tizimiga bo'lgan ishonch ortadi va uning tuzilmasi takomillashadi; uchinchidan, moliya-sanoat guruhleri o'rtasida yangi yirik tashkilotlarni jalb etish uchun, banklar o'rtasida esa guruhning eng foydali ishtirokchilariga xizmat ko'rsatish bo'yicha raqobatlashuv jarayoni kuchayadi.

Fikrimizcha, milliy iqtisodiyotda moliya-sanoat guruhlarini shakllantirishning moliyaviy-iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini asoslash jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim:

1. Iqtisodiyotda moliya-sanoat guruhlarini shakllantirishning loyihasini ishlab chiqish va mavjud imkoniyatlarni tahlil etish.

2. Moliya-sanoat guruhlarini yuqori ilmiy sig'imga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirish hamda ular faoliyatini diversifikatsiyalash imkoniyatlarini hisobga olish.

3. Ishlab chiqariladigan mahsulotlar va ularga bo'lgan talabni o'rganish.

4. Moliya-sanoat guruhleri faoliyatiga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillarni baholash.

5. Moliya-sanoat guruhleri faoliyatini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish. Mamlakatimizda ishlab chiqarish korxonalarining vertikal integratsiyasi orqali holdinglar shaklidagi moliya-sanoat korporativ tuzilmalarini shakllantirish va ular faoliyatiga tijorat banklarining investitsiyalarini yo'naltirish amaliyotini rivojlantirish lozim. Mazkur korporativ tuzilmalarda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdo korxonalarining integratsiyasini ta'minlash, shuningdek, tuzilma tarkibiga boshqa korxonalarni shartnoma asosida jalb etish tizimini yaratish lozim.

Integratsiyalashgan tuzilma tarkibiga kiruvchi korxonalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi asosiy kompaniya faoliyatida quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor berish lozim deb hisoblaymiz:

– strategik rivojlanish va marketing faoliyatini tashkil etish;

– ishlab chiqarishga innovatsiyalarni tatbiq etish va istiqbolli loyihalarga investitsiyalarni jalb etish;

– faoliyat natijalarini iqtisodiy tahlil etish va istiqbolni prognozlashtirish;

– aksionerlar bilan korporativ munosabatlarni samarali tashkil etish va boshqarish;

– tuzilma doirasida yagona ilmiy-texnikaviy va investitsiyaviy siyosatni shakllantirish va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasida moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish jarayonini iqtisodiyotning istiqboldagi tadrijiy o‘sishi va modernizatsiyalashning umumiy dasturlari doirasida amalga oshirish mumkin.

Moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish strategiyasi respublikadagi mavjud iqtisodiy jarayonlarga, ta‘minot va sotuv bozorlari tahliliga, umumdavlat ustuvor yo‘nalishlariga, mamlakat ichidagi va boshqa mintaqalardagi korxonalarining murakkablashgan aloqalariga asoslanishi kerak. Mazkur strategiya antimonopol siyosat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik kabi boshqa dasturlarni amalga oshirish bilan o‘zaro moslashishi lozim. Xorijiy moliya-sanoat guruhlarini tajribasiga tayangan holda alohida guruhlarining muayyan faoliyat bo‘yicha ixtisoslashuviga erishish lozim, bu holat tayyor mahsulotlar sifatini oshirish hamda texnologiyalarni takomillashtirish jarayonida muhim o‘rin tutgan holda sanoat tarmoqlari ishlab chiqarish va ilmiy-texnik salohiyatining jadal rivojlanishiga qulay sharoit yaratadi.

Mamlakatimizda moliya-sanoat tuzilmalarini shakllantirishda quyidagilarga alohida ahamiyat berish lozim:

– moliya-sanoat kapitali integratsiyasini ta‘minlash orqali yuqori darajada integratsiyalashgan korporativ tuzilmalarni shakllantirish va ularda zamonaviy texnologiyalar asosida eksportga yo‘naltirilgan yuqori ilmiy sig‘imli mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish lozim;

– tijorat banklari tomonidan korxonalarining aksiyalari va ulushlarini sotib olish orqali ularning ustav kapitaliga yo‘naltirilgan qo‘yilmalarni oshirish asosida banklar va korxonalar o‘rtasida kapital integratsiyasini kuchaytirish lozim;

– integratsiyalashgan moliya-sanoat korporativ tuzilmalarda tijorat banklarining ishtirokini ta‘minlash va ulardagi istiqbolli loyihalarni moliyalashtirishni inobatga olgan holda, qo‘shimcha aksiyalar emissiyasi hisobiga ularning kapitallashuv darajasini oshirish va investitsiya faoliyatini kengaytirish;

– kapitallashuv darajasi yuqori bo‘lgan tijorat banklari hamda ularning sanoat tarmoqlaridagi yirik mijozlari bilan ushbu tijorat banklari yetakchiligida moliya-sanoat guruhlarini tashkil etishni

bosqichma-bosqich amalga oshirish va ularda yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish;

– iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarda, investitsiya dasturlarini amalga oshirishda, birinchi galda iqtisodiyotning real tarmoqlariga investitsiya kiritish uchun mablag‘lar jalb etishda tijorat banklarining faol ishtirokini rivojlantirish;

– qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash, tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish, ularni transportirovka qilish, savdo va boshqa zamonaviy bozor xizmatlarni ko‘rsatishga ixtisoslashgan hamda o‘z ichiga zamonaviy yuqori texnologiyalar bilan jihozlangan ishlab chiqarish, savdo va servis xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarini qamrab olgan korporativ tuzilmalarni shakllantirish;

– qayta ishlab chiqarish sanoatidagi korxonalar va moliyaviy institutlar integratsiyasi asosida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi, mahsulotlar sotuvchi, xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi yuqori integratsiyalashgan korporativ tuzilmalarni shakllantirish va uning doirasida yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga hamda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan maqsadli loyihalarni amalga oshirish lozim.

Moliya-sanoat guruhleri faoliyat yuritishining jahon tajribasini o‘rganish asosida shuni aytish mumkinki, ular sanoatni modernizatsiyalash hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishning ta’sirchan instrumenti bo‘lib xizmat qiladi. Sanoat korxonalarini, moliyaviy va tijorat tuzilmalari bilan birlashishi mamlakat iqtisodiyoti real sektorining tiklanishi va taraqqiy etishiga yordam beradi. Mamlakatimizda moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish ishlab chiqarish sur‘atlarini o‘sishiga, bank-moliya tizimini yanada rivojlanishiga hamda pirovard natijada aholi turmush farovonligini oshishiga xizmat qiladi.

Xulosalar

Biznesni baynalmilallashtirishning zamonaviy tendensiyalarida ko‘p millatli kompaniyalarda ishlab chiqarish va kapitalning yetakchi pozitsiyalarini transmilliylashtirish, nafaqat xalqaro miqyosda, balki

kapital, transmilliy korporatsiya (TMK)lar va transmilliy bank (TMB)lar miqyosida ham amalga oshirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Jahon amaliyotida xalqaro korporatsiyalar deyilganda jahon tovar va ishlab chiqarish omillari bozorlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatuvchi yirik kompaniyalar tushuniladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- yillik sotish hajmi 1 mlrd. dollardan kam bo'lmasligi;
- umumiy moliyaviy aylanma mablag'larining beshdan bir qismidan uchdan bir qismigacha xorijdagi operatsiyalar ulushiga to'g'ri kelishi;
- xorijdagi aktivlar ulushi 25% dan kam bo'lmasligi;
- kamida oltita mamlakatda filiallarga ega bo'lishligi.

TMKlar quyidagi xususiyatlari bilan boshqa kompaniyalardan farqlanadi:

- xalqaro mehnat taqsimotining faol ishtirokchilari ekanligi;
- xalqaro ishlab chiqarish majmualarini yaratib, qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'lishi;
- global ishlab chiqarish kuchlari va resurslaridan foydalanish;
- ommaviy iste'molchilar uchun ishlashi;
- kapitalni bazaviy mamlakatda yuz berayotgan jarayonlarga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshirilishi;
- yuqori texnologiyali va fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan tarmoqlarda faoliyat olib borishi. Ushbu tarmoqlar rivojlanishi katta hajmdagi kapital qo'yilmalar va yuqori malakali mutaxassislarni talab etadi.

Xalqaro korporatsiya yirik korporatsiya tashkiliy tuzilishining bir shakli bo'lib, jahonning turli mamlakatlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshiradi.

Xalqaro korporatsiyaning ikkita asosiy turi mavjud:

- transmilliy korporatsiya (TMK) (transnational corporations) – bosh kompaniya bir mamlakat kapitaliga tegishli. Filiallari esa dunyoning ko'pgina mamlakatlariga tarqalgan.

- Ko'pmillatli korporatsiya (multinational corporations) bosh kompaniya ikki yoki undan ortiq mamlakat kapitaliga tegishli, filiallari esa turli davlatlarda joylashgan.

TMKlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik munosabatlari quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin:

1) Xalqaro firmalararo kooperatsiya.

2) Strategik alyanslar – jahon bozoridagi global masalalarni birgalikda hal etish maqsadida tuziladigan firmalararo ittifoq.

3) Strategik oilalar – o‘zaro raqobatda bo‘lgan korporatsiyalarning bir-birini to‘ldiruvchi strategiyani amalga oshirish maqsadidagi birlashuvi.

4) Strategik tizimlar - turli tarmoqlardagi (ishlab chiqarish korxonalari, savdo firmalari, banklar) ko‘p sonli korxonalarining uzoq muddat hamkorlik qilish sharti bilan kooperatsion birlashmasi.

5) Xalqaro qo‘shilib va yutilib ketishlar.

6) TMKlarning xalqaro chatishib ketishi deganda korporatsiyalarning bir- birlarining qimmatbaho qog‘ozlariga ega bo‘lib, ularni sherikchilik asosida boshqarishi tushuniladi.

Tayanch iboralar

Transmilliy korporatsiyalar, ko‘pmillatli korporatsiya, transmilliylashuv indeksi, eksportyor mamlakatlar, importyor mamlakatlar, kapital ekspansiyasi, investitsiya, xalqaro korporatsiyalar, xalqaro kapital migratsiyasi, strategik alyanslar, strategik tizimlar, kapital importi koeffitsiyenti, kapital eksporti koeffitsiyenti.

Nazorat uchun savollar

1. Transmilliy korporatsiyalar turlari va ularning xalqaro kapitalni taqsimlash bo‘yicha xususiyatlarini tushuntiring.

2. Transmilliy korporatsiya (TMK) larning mohiyatini tushuntiring va ularni mamlakatlar iqtisodiyoti samaradorlik holatini izohlang.

3. Ko‘pmillatli korporatsiyalarning maqsad va vazifalarini tushuntiring.

4. TMKlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik munosabatlari qanday shakllarda namoyon bo‘ladi?

5. Strategik alyanslar yaratishdan maqsad nima?

6. Kapital migratsiyasining asosiy sabablari nimalardan iborat?

7. Xorijiy investitsiyalar butunjahon iqtisodiyotiga va xalqaro biznesga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

8. Jahon iqtisodiyotida katta foyda uchun kapital olib chiqishning eng muhim sabablari nimalardan iborat?
9. Iqtisodiy adabiyotda xalqaro kapital migratsiyasining mohiyatini ochib beruvchi qanday yondashuvlar mavjud?
10. Xalqaro korporatsiyalar tomonidan raqobat afzalliklarini qoʻlga kiritish usullarini tushuntiring.
11. TMKlar qanday xususiyatlari bilan boshqa kompaniyalardan farqlanadi?
12. Transmilliylashuv indeksining qanday turlari mavjud?
13. TMKlar qanday sabablarga koʻra bevosita investitsiyalarni amalga oshiradilar?
14. Kapitallashuv darajasini baholashning iqtisodiy mezonlaridan tashqari kompaniyani TMK sifatida tasniflashning qanday mezonlari mavjud?

10-BOB. JAHON IQTISODIYOTI TARMOQLARI

10.1. Kapital harakatining mohiyati va asosiy shakllari.

Kapital harakati yoki uning yuqoriroq foyda oli maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko‘chib yurishi xalqlar iqtisodiy munosabatlarni tez rivojlanayotgan shakl hisoblanadi. 1983-1989 yillarda Xalqaro valyuta fondiga aʼ: mamlakatlarda tovarlar eksporti 1,7 marta, kapital eksporti 3,7 marta oshdi. Kapital eksportining tezlashuviga birinchi navbatda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarishning yanada markazlashuvi va moliya kapitalining jamg‘arilishi asosiy turtki bo‘ldi. Yirik korporatsiyalarning paydo bo‘lishi va ularni kredit-bank tizimi bilan birlashuvi kapitalning mamlakatlararo ko‘chib yurishiga sharoit yaratdi yoki shu orqali tovarlar sotish bozorlari yanada kengaytirildi. Tadbirkorlar va hukumat chet ellik sheriklariga kredit yoki qarzlarni berishi, xorijda o‘z ishini tashkil etishi xorijiy banklarda o‘z bank boshqa moliyaviy institutlar hisobidagi mablag‘lar tadbirkor ixtiyorida bo‘lib, foyda olish maqsadida ishlatiladigan va yollanma mehnat tomonidan harakatga keltiriladigan barcha moddiy vositalar, tovarlar va pul mablag‘lari birgalikda **tadbirkorlik kapitali** deb ataladi. Tadbirkorlik kapitali ishlab chiqarish va muomala jarayonida doimo harakatda bo‘ladi va bu harakat jarayonida bir qator bosqichlarni bosib o‘tadi.

Kapital ikki xil xususiyatga ega bo‘lib, uning qiymati – ko‘pchilikka ma’lum bo‘lganidek, ushbu kapitalni ishlab chiqarishga sarflangan ijtimoiy zaruriy mehnat sarfidan iboratdir. Kapitalning nafliligi esa uning: a) ko‘plab turdagi va miqdordagi nafliliklarni (tovar va xizmatlarni) yaratishda; b) ishchi kuchining ish bilan bandligini ta’minlashda; v) qiymatning tashkil topishida, ya’ni shakllanishida qisman ishtirok etishda; g) eng muhimi, qo‘shimcha mahsulotni yaratishda va o‘zlashtirishda to‘liq ishtirok etishi orqali namoyon bo‘ladi.

Kapital qaysi sohada va qanday shaklda amal qilmasin hamda qanday tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishidan qat’iy nazar, u barcha ko‘rinishlarda ikki tomonlama xususiyatga ega bo‘ladi va shu xususiyatlarning birligi sifatida amal qiladi. Kapitalning bu xususiyatlari tovardagi ikki xil xususiyatdan va uni keltirib chiqaruvchi sabab – tovarda gavdalangan mehnatning ikki yoqlama tavsifidan kelib chiqadi.


Chunki pul tovar ayirboshlash rivojlanishining mahsuli bo‘lib, tarixiy va mantiqiy jihatdan kapitalning boshlang‘ich bo‘g‘ini hisoblanadi.

Tovardagi ikki tomonlama xususiyat o‘z navbatida tadbirkorlik kapitaliga ham o‘tadi. Chunki, u pul, ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi ko‘rinishidagi unumli kapital hamda tayyor tovarlardan iborat bo‘ladi. Ayni paytda, kapital tovarlari o‘sinh xususiyatiga ega bo‘lgan qiymatni ham namoyon etadi.


Tadbirkorlik kapitalining harakat jarayoni ikki jihatdan, ya’ni – bir turdagi naflilikning sifat jihatdan boshqa turdagi naflilikka o‘tishi va miqdor jihatdan ko‘payishi hamda qiymatning o‘sinh jarayonidan iborat.

Tadbirkorlik kapitali va uning harakatidagi ikki tomonlama xususiyat pirovardida yangidan yaratilgan tovarning ikki tomoni, birinchidan, sifat jihatdan yangi turdagi va ko‘rinishdagi, miqdor jihatdan esa ko‘paygan naflilik, ikkinchidan esa, o‘tkazilgan va yangidan yaratilgan qiymatda namoyon bo‘ladi. Tadbirkorlik kapitali ishlab chiqarish va muomala jarayonida doimo harakatda bo‘ladi va bu harakat jarayonida bir qator bosqichlarni bosib o‘tadi.

Ishlab chiqarishga sarflanadigan har qanday sarmoya o‘z harakatini **pul shaklidan** boshlaydi. Pul (P) tegishli resurslar bozoridan zarur tovarlar, ya’ni ishlab chiqarish vositalari (Iv) va ishchi kuchi (Ik) sotib olishga sarflanadi (avanslanadi). Bu holda pul shunchaki tovarlar sotib olishgagina emas, balki ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy faoliyat omillarini sotib olishga sarflanadi. Ushbu muomala sohasida pul kapitali o‘z harakatining birinchi bosqichidan o‘tadi:



Mazkur jarayon natijasida pul shaklidagi mablag‘lar **unumli kapital shakliga** aylanadi va ular ishlab chiqarish jarayonining potensial omillari hisoblanadi. Kapital harakatida **ikkinchi bosqich** ishlab chiqarish (I) jarayoni hisoblanib, uning natijasida iste’molga tayyor **tovar tovar (T) shaklini** oladi. Bu erda hosil qilingan tovarlar qiymati ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchiga sarflangan qiymatdan ortiq bo‘ladi, ya’ni:



Chunki, hosil qilingan tovarlar qiymatida ishlab chiqarish vositalarining ko‘chgan qiymati, ishchi kuchi qiymatining ekvivalenti va ular tomonidan vujudga keltirilgan qo‘shimcha mahsulot qiymati ham mavjud bo‘ladi.

Uchinchi bosqichda ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish sodir bo‘ladi $T' \rightarrow P'$ ushbu bosqichda tovarlar pulga aylanadi va o‘zining dastlabki shakliga qaytib keladi. Dastlab, pul shaklida sarflangan mablag‘ yana pul shaklida, ammo miqdor jihatidan ko‘proq bo‘lib qaytadi. SHu sababli uni $P' = P + p$ ko‘rinishida ifodalash mumkin.

Tovarlarini sotishdan tushgan pul kapitali yana ishlab chiqarish omillari sotib olish uchun sarflanadi va shu tariqa yuqoridagi harakat to‘xtovsiz takrorlanaveradi.

Tadbirkorlik kapitalining o‘z harakatida uch bosqichni izchil bosib o‘tib, muntazam ravishda bir shakldan boshqa bir shaklga aylanib, yana dastlabki shakliga qaytib kelishi uning doiraviy aylanishi deyiladi.


Doiraviy aylanishning birinchi va uchinchi bosqichlari muomala sohasida, ya‘ni resurslar va tovarlar bozorida, ikkinchi bosqichi esa ishlab chiqarishda ro‘y beradi. SHuning uchun formulada ishlab chiqarish jarayoni va muomala sohasi o‘rtasidagi oraliqlar nuqtalar (...) bilan ajratilib ko‘rsatiladi. Har bir bosqichda kapital muayyan harakat shakliga kiradi. Birinchi bosqichda u pul shaklida, ikkinchi bosqichda unumli yoki ishlab chiqarish omillari va uchinchi bosqichda tovar shaklida yuzaga chiqadi. Kapital doiraviy aylanish jarayonida uning har bir shakli alohida vazifani bajaradi va shunga ko‘ra ular **kapitalning harakati shakllari** deyiladi.

Kapital **pul shaklining harakati** iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Bunga pulni ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi sotib olishga avanslash orqali erishiladi. Kapital **unumli shaklining harakati** tovarlar ishlab chiqarish va huddi shu jarayonda qiymatning o‘shishiga erishishni ta‘minlash vazifasiga qaratiladi.


Kapital **tovar shaklining harakati** orqali ishlab chiqarilgan tovarlar qiymatining narx shaklida ro'yobga chiqishi sodir bo'ladi va o'sgan qiymatning pulga aylanishi bilan tadbirkorning foyda olish maqsadi ta'minlanadi.

Ishlab chiqarish uzluksiz davom etishi uchun tadbirkorlik kapitali o'zining bir shaklidan boshqa bir shakliga aylanib turishi va ayni paytda har uchala shaklda ham mavjud bo'lmog'i lozim. Agar tadbirkorlik kapitali bu shakllarning birortasida to'xtab qolgudek bo'lsa, uning harakatidagi uzluksizlik buziladi. Tadbirkorlik kapitalining har uchala shakli bir vaqtda o'z doiraviy aylanishiga ega bo'ladi.


Tadbirkorlik kapitali pul shaklining doiraviy aylanishi:



Unumli kapitalning doiraviy aylanishi:



Tadbirkorlik kapitali tovar shaklining doiraviy aylanishi:



Kapital o'z harakatini qanday ijtimoiy-iqtisodiy shakllarda amalga oshirmasin, ular uchun yuqorida ta'kidlaganimizdek, doiraviy aylanish va uning bosqichlarining harakat ko'rinishi umumiy. SHu bilan birga xo'jalik yuritishning ayrim shakllarida tadbirkorlik kapitalining doiraviy aylanishi, ularning bosqichlari va harakat shakllari o'zlarining iqtisodiy mazmuni jihatidan farqlanadi.

Tadbirkorlik kapitali bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) investitsiyalar Portfel investitsiyalar Kapital xorijga xususiy biznes, davlat kompaniyalari va hukumat, xalqaro tashkilotlar tomonidan qarzga berilishi yoki investitsiya qilinishi mumkin. Shu sababli ham kapital harakati xususiy va davlat kapitali, shuningdek xalqaro tashkilotlar kapitali

shaklida amalga oshiriladi. Kapitalni mashina va asbob-uskunalar, patentlar va “nou-xau”lar, xorijiy firma ustav kapitaliga qo‘yilmalar tovar kreditlari ko‘rinishida olib kelinishi va olib chiqilishi mumkinligi uchun uning harakati pul va tovar shakllariga ajratiladi.

Muddati bo‘yicha kapital harakati qisqa va uzoq muddatli bo‘lishi mumkin.

Qisqa muddatly kapitalga bank depozitlari va turli moliyaviy institutlar hisoblaridagi mablag‘lar, qisqa muddatli qarzlar kiradi.

Uzoq muddatli kapitalni olib kelish va olib chiqish deganda to‘g‘ri investitsiyalar, portfel investitsiyalar, uzoq muddatli qarzlar tushuniladi.

Kapital harakatining barcha shakllari bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq va ularni ajratish shartlidir. Masalan, kapital qo‘yilmalar ko‘rinishidagi xorijiy portfel investitsiyalar xalqaro kreditga ham kiritilishi mumkin.

10.2. Zamonaviy bosqichda kapital harakatining xususiyatlari.

Zamonaviy bosqichda kapital harakati qator o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lib, ulardan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, rivojlangan mamlakatlarda kapital jamg‘arishning katta miqdordagi va nisbatan ortiqchaligi tufayli kapital harakatining keskin o‘sishi. So‘ngi 20 yil davomida kapital eksportining jahon tovar aylanishidagi qissasi ikki marta ko‘paydi va hozirgi vaqtda 15 foizdan ortig‘ini tashkil etadi. 1970 yillardan boshlab xalqaro ayirboshlash tarixida birinchi bor rivojlangan mamlakatlarning xorijiy korxonalaridagi ishlab chiqarish hajmi ularning tovar eksportidan ortiq bo‘ldi, ya‘ni bu mamlakatlar o‘zlarining xorijda amal qilayotgan ikkinchi iqtisodiyotlarini yarata boshladilar. Masalan, AQSH «ikkinchi iqtisodiyoti»ning ko‘lami G‘arbiy Germaniya, Angliya, Fransiyanikidan ikki marta ko‘proqdir. Ilg‘or! G‘arbiy Yevropa mamlakatlari xorijiy korporatsiyalarining ishlab chiqarish hajmi ular yalpi mahsulotining 30 foizga yaqinini tashkil etadi.

Kapital harakatining yana bir muhim xususiyati shundan iborat-ki, zamonaviy sharoitlarda uning yo‘nalishlari sezilarli o‘zgardi. Agar dastlab, u eng rivojlangan mamlakatlardan kam rivojlangan mamlakatlarga ustun ravishda ssuda shaklida berilgan bo‘lsa, hozirga kelib xorijiy kapital asosan rivojlangan mamlakatlar o‘rtasida investitsiyalar

ko‘rinishida beriladi va olinadi. 90-yillarning boshlarida bu mamlakatlarning hissasiga xorijiy kapital eksportining 97 foizi va importning 75 foizdan ortig‘i to‘g‘ri keldi. Bu o‘zaro investitsiyalash jarayonining kuchayishi bilan bog‘liqdir. Ya‘ni turli mamlakatlar iqtisodiyotning bir tarmog‘iga mansub korxonalarini rivojlantirish uchun birgalikdagi mablag‘larni jalb etadilar. Masalan, Germaniyadagi kimyo konserni AQSH ga, Amerika korporatsiyasi esa Germaniya kimyo sanoatiga qo‘yadi.

Kapitallarni baynalminallashtirish jarayoni ayniqsa, imliy tadqiqotlar va ulardan foydalanish sohasida yaqqol namoyon bo‘lmoqda, 80- yillarning oxirlarida sanoatda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida xorijiy investitsiyalarning hissasi umumiy xarajatlarda Kanadada 26,3 foizni, Buyuk Britaniyada 16,9 foizni, Fransiyada 10,3 foizni tashkil etdi. Sanoatning axborotlar texnologiyasi, biotexnologiya va yangi materiallar kabi ilg‘or tarmoqlarida AQSH, Yaponiya va Yevropa korporatsiyalari xorijiy firmalar bilan o‘z milliy firmalariga nisbatan ko‘proq bitim tuzdilar.

Kapital harakati jarayonini tahlil qilib quyidagini ta‘kidlash mumkin, kapital olib chiqishda ba‘zi jahon markazlarining roli sezilarli o‘zgardi. Bunda avvalo kapital eksportida AQSH hissasining pasayganini ta‘kidlash lozim. 1988 yildan boshlab bu mamlakat jahondagi yirik qarz beruvchidan qarzdorga aylandi. Shu vaqtda Yaponiya jahonning yetakchi investori o‘rnini egalladi: uning xorijiy investitsiyalari 1986-1990 yillarda 1981-1985 yillarga nisbatan deyarli besh marta ko‘paydi. Yevropa mamlakatlarining yagona hamjamiyatga birlashuvi kapitalning markazlashuviga olib keldi va ularni boshqa davlatlarga olib chiqishga imkoniyatlar yaratdi. Chunonchi, 1988 yilda Yevropa hamjamiyati va uning ba‘zi a‘zolari rivojlanayotgan mamlakatlarga ko‘rsatilayotgan yordamning 47 foizini bergan bo‘lsa, AQSH va Yaponiyaning ko‘rsatilayotgan yordamdagi hissalarini 20 foizdan oshmadi. Kapital harakati geografiasidagi o‘zgarishlarga, shuningdek, yangi sanoatlashgan mamlakatlar ham o‘z hissalarini qo‘shdilar. Ularning bir maromda rivojlanishi xorijiy kapitalni o‘ziga jalb etibgina qolmay, balki o‘z kapitalini eksport qilishga ham imkon berdi. 1990 yillardan boshlab sobiq sotsialistik mamlakatlar ham jahon kapital ayirboshlash jarayoniga faol qo‘shildilar.

Bu mamlakatlarda tub strukturaviy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ichki jamg'armalarning yetishmasligi tashqi qarzar va chet el investitsiyalariga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqardi. Xalqaro ayirboshlashning tarkibiy qismi hisoblangan kapitalni olib kelish, olib chiqish mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning boshqa shakllari, jahon xo'jaligi taraqqiyotining barcha jarayonlari bilan o'zaro chambarchas bog'langan. Yetakchi davlatlardagi yoki mamlakatlar guruhidagi iqtisodiy pasayishlar va o'sishlar, siyosiy inqirozlar va harbiy ixtiloflar kapital migratsiyasining ko'lami va rivojlanishida bevosita aks etadi. Bu jarayonlar bilan bir vaqtda, kapital harakatining o'zi ham jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va xalqaro munosabatlarning xususiyatlarini belgilab beradi.

10.3. Xalqaro kreditning asosiy turlari.

Kapital harakatining muhim shakli ssuda kapitalining xalqaro kredit ko'rinishida olib kelinishi va olib chiqilishi hisoblanadi. Korxonalar, aholi va davlatda bo'sh pul jamg'armalarining paydo bo'lishi, ularning banklar, sug'urta va investitsiya kompaniyalarida to'planishi, shuningdek, transmilliy kompaniyalar, banklar, xalqaro moliya-kredit muassasalarining paydo bo'lishi ssuda kapitali jahon bozorini shakllanishiga olib keladi. Bu bozorda turli mamlakatlardagi qarzar beruvchilar va qarzar oluvchilar kredit berish shartlari va kredit miqdorini belgilovchi shartnomalar tuzadilar. Turli belgilariga ko'ra xalqaro kreditning bir necha ko'rinishlari mavjud. Kapitalning xalqaro harakati kabi kredit ham qarzar beruvchi va muddati bo'yicha alohida turlarga bo'linadi.

Kreditlar kim tomonidan berilishiga qarab xususiy, hukumat va xalqaro tashkilotlar kreditlariga ajratiladi. Xususiy kreditlar xususiy firmalar va banklar tomonidan beriladi hamda firma va bank kreditlariga bo'linadi. Firma yoki tijorat krediti bir firma tomonidan boshqasiga to'lov muddatini cho'zish sharti bilan tovarlarni sotish ko'rinishida beriladi. Ushbu holda kredit olish-sotish bitimiga xizmat qiladi va tovarni ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga harakatlantiradi. Kreditning bu turi veksel shaklida yoki ochiq hisob bo'yicha beriladi. Veksel' shaklidagi kreditda import qiluvchi tovar

hujjatlarni olib eksport qiluvchi tomonidan o'tkaziladigan veksel to'lashga rozilik bildiradi yoki oddiy vekselni rasmiylashtiradi.

Ochiq hisob bo'yicha kreditda eksport qiluvchi import qiluvchining qarz majburiyatlarini olmaydi, balki qarzdor tomonidan vaqti-vaqti bilan qoplanadigan (har 1-2 oyda) qarzdorlik hisobini ochadi. Firma yoki tijorat krediti xalqaro savdoda keng qo'llaniladi, chunki u mahsulotni sotish va foyda olish jarayonini jadallashtiradi. Biroq firmalar moliyaviy imkoniyatlari chegaralanganligini hisobga olgan holda, u investitsiya tovarlarini yetkazib berishda ishlatilmaydi. Bunday holatlarda eksport qiluvchilar tijorat kreditini bank muassasalari yordamida qayta moliyalashtiradi. Bank krediti keng tarqalgan kredit turlaridan hisoblanib, tijorat kreditdan farqli ravishda kredit bitimlarining yo'nalishi, muddati bilan chegaralanmagan. Uning qo'llanish sohasi kengroq bo'lib, u faqat tovarlar aylanishiga emas, balki kapital jamg'arilishiga ham xizmat ko'rsatadi. Shuning uchun bank krediti ikki tomonlama xususiyatga ega.

Birinchi holda u pullar ssudasi sifatida, ya'ni qarz majburiyatlarini qoplash uchun zarur bo'lgan to'lov mablag'lari sifatida qatnashishi mumkin. Qarz oluvchi tovar, veksel, qimmatbaho qog'ozlarni garovga qo'yib, o'zi uchun ta'minlangan kredit oladi. Bu kredit qo'shimcha kapital hisoblanmaydi.

Ikkinchi holda, qarz oluvchi ta'minlanmagan kredit oladi va uni amaldagi kapitalni ko'paytirishda qo'llaydi. Bunda bank krediti kapital ssudasi shaklida qatnashadi.

Bank kreditining o'ziga xos shakllari bo'lib forfeyting, faktoring va xaridor krediti hisoblanadi.

Forfeyting bu import qiluvchi tomonidan to'lashga rozilik bildirilgan veksellarni eksport qiluvchidan sotib olish shaklidagi tashqi iqtisodiy operatsiyalarni kreditlashdir. Bunda to'lov majburiyatlari bo'yicha barcha xavf-xatarlar ham veksellarni sotib oluvchisiga (forfeyterga) o'tadi. Shuning uchun xaridor import qilayotgan mamlakat bankining kafolat berishini talab qiladi. Kreditning bu shakli o'rta muddatlidir, ya'ni yetti yilgacha, uning asosida kredit beruvchi eksportyor, importyorga bo'lgan talablarini boshqalarga o'tkazib, o'zining moliyaviy balansini yaxlitlashga imkon yaratadi. Veksel - bu qat'iy belgilangan shakldagi yozma qarz majburiyati bo'lib, uning egasiga muddat tugashi bilan (rasman 1 yil, haqiqatda 1-3 oy)

qarzdordan ko'rsatilgan pul miqdorini to'lashni talab etish huquqini beradi. Oddiy va o'tkaziladigan veksellar ajratiladi. Oddiy veksellarning qarzdor tomonidan beriladi va imzolanadi. O'tkaziladigan veksellar kredit beruvchi tomonidan beriladi va imzolanadi hamda o'zida ko'rsatilgan muddatda belgilangan miqdorning uchinchi shaxsga (reamitentga) to'lash haqidagi qarzdorga (trassa) buyruqni aks ettiradi.

O'tkaziladigan veksellarning berish (aksept)-bu to'lovchi tomonidan vekseldagi ko'rsatilgan muddat kelishi bilan uni to'lash majburiyatini olishdir. Bu veksellarning old tomonida to'lovchi qo'ygan oddiy imzo bo'lishi mumkin. Veksellarning ham cheklar, banknotlar kabi kredit pullari deb ataladi. Biroq agar bank vekseli tovar bitimi bilan mustahkamlanmagan bo'lsa, unda veksellarning qimmatbaho qog'oz, ya'ni aksiya va obligatsiya kabi qo'llanishi mumkin.

Obligatsiya-bu qarz berish haqidagi guvohnoma bo'lib, uning egasi har yillik belgilangan daromadni olish huquqiga ega, ya'ni u qat'iy foiz keltiradi. Aksiyadan farqli ravishda u boshqarishda ovoz berish huquqini bermaydi, faqat belgilangan daromad keltiradi va ma'lum muddat o'tgandan so'ng sotib olinishi lozim bo'ladi.

Faktoring - bu vositachi kompaniya tomonidan qarzdorning to'lov majburiyatlarini to'lovga qabul qilib uni tezda yoki o'rnatilgan muddatlarda mol egasiga to'lash. Kreditlashning bu shakli ustunligi shunda-ki, faktoring kompaniyasiga (vositachiga) hisob-kitob hamda bozorga chiqishning moliya natijalarini tahlil qilish funksiyalarining ma'lum qismi ham o'tadi.

Kreditning bu shaklidan iste'mol mollarni ishlab chiqarishga ixtisoslangan, eksport aylanmasi katta bo'lmagan firmalar ko'proq foydalanadi. Faktoring kompaniyalari tijorat banklari faoliyati bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ulardan kredit yordami va xaridorlarning kredit qobiliyati haqidagi ma'lumotlarni oladi. Shuningdek, faktoring kompaniyalari o'zaro xalqaro guruhlarni, assotsiasiyalarni tashkil etadilar. Bu kompaniyalar eksport qiluvchilarni kredit xavf-xatarlaridan va kreditni sug'urta qilish xarajatlaridan ozod qiladi. Xaridor krediti eksport qiluvchi banki tomonidan bevosita import qiluvchiga yoki unga xizmat ko'rsatuvchi bankka beriladi. U kontrakt bahosining 80-85 foizigacha qamrab oladi, qolganini import qiluvchi qo'shimcha manbalar hisobiga moliyalashtiradi. Kelishilgan miqdor chegarasida u kredit beruvchi mamlakat, ba'zan esa boshqa mamlakat-

larning ham har qanday firmasiga mol yetkazib berish haqini to'lashi mumkin. Bu firmalarni tanlashda kredit berayotgan bank ahamiyatli rol o'ynaydi.

Eksport qiluvchilar uchun bunday kreditlar doirasida mol yetkazib berish naqd to'lovlarni bildiradi. Kapital o'sishini ta'minlovchi bank krediti yoki bank investitsiyalari - bu bank resurslarini foizlar yoki dividendlar ko'rinishida foyda olish maqsadida uzoq muddatga qurilish va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlariga, asosan sanoatga qo'yishdir. Hukumat kreditlari yoki hukumatlararo va davlat zayomlari hukumat kredit muassasalari tomonidan beriladi. Masalan, AQSH, Yaponiyaning eksport-import banklari tomonidan, Fransiyaning tashqi savdo banki va eksportni uzoq muddatga kreditlash, qayta moliyalashtirish, xususiy banklarning sug'urta kreditlarini kafolatlash bilan shug'ullanayotgan boshqa banklari tomonidan beriladi. Bu kreditlarning xususiyati ularning imtiyozlilik va maqsadlilikidir.

Xalqaro tashkilotlarning kreditlari asosan Xalqaro valyuta fondi, Umumjahon banki, Yevropa hamjamiyatining kreditlari, shuningdek, qator hududiy kredit banklari tomonidan beriladi. Kreditlashning obyektiga qarab moliyaviy va bog'liq kreditlar ajratiladi. Moliyaviy kredit deganda moliyalashtirish obyektini kelishmagan holda, ya'ni kreditlash maqsadlarini aniqlamasdan turib, pul-valyuta ko'rinishida mablag'lar berish tushuniladi. Bu qarzlarni to'lash ham, investitsiyalar berish ham bo'lishi mumkin.

Moliyaviy kreditning eng tarqalgan shakli obligatsiya hisoblanadi. Ular xorijiy qarz oluvchilar tomonidan banklar yordamida ssuda kapitalining xalqaro va milliy bozorlarida joylashtiriladi. Moliyaviy kreditlar kredit berayotgan mamlakatlar valyutasida, shuningdek, uchinchi valyutalarda yoki, agar qarz bir necha mamlakatlarda joylashgan bo'lsa, bir nechta valyutalarda berilishi mumkin.

Obligatsiyalar hissasiga ssuda kapitallari xalqaro bozorlaridagi barcha o'zlashtirilgan mablag'larning 61 foizi to'g'ri kelsa, qolgan 39 foizi bank kreditlariga to'g'ri keladi. Kreditlar ma'lum maqsadlar uchun beriladi. Bu aniq tashqi savdo operatsiyalari (tijorat krediti), yoki ma'lum investitsiya, yoki boshqa loyihalar bo'lishi mumkin. Xalqaro kreditning barcha ko'rinishlari va shakllari bir-biri bilan o'zaro bog'langan, ba'zi hollarda bir-biriga mos keladi. Masalan, firma, tijorat va bog'liq kreditlar yoki qisqa muddatli va tijorat

kreditlari, uzoq muddatli va moliyaviy kreditlar va h.k, Xalqaro kredit milliy iqtisodiyot va jahon xo'jaligi rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Birinchidan, u bo'sh pul mablag'larini ayrim mamlakatlar o'rtasida qayta taqsimlaydi, ularni jahon xo'jaligi samaradorligining o'sishini ta'minlovchi soqalariga yo'naltiradi.

Ikkinchidan, kapitalni aylanish vaqtini qisqartiradi, hisoblarni jadallashtiradi va shu bilan muomala xarajatlarini kamaytiradi.

Uchinchidan, milliy iqtisodiyotga ta'sir etuvchi muqim vosita hisoblanib, xalqaro kredit davlatga iqtisodiy o'sish samaradorligini tartibga solish imkonini beradi.

10.4. Xalqaro ssuda kapitali bozori.

Qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasida vositachi bo'lib ssuda kapitali bozori qatnashadi. **Xalqaro ssuda kapitali bozori** - bu bo'sh turgan pul kapitallarining qoplanishi va mamlakatlar o'rtasida qayta taqsimlash bo'yicha munosabatlar majmuasidir. Uning asosi yevrobozor hisoblanadi. Unda operatsiyalar ustun ravishda dollarda, shuningdek yevroda, iyenada va boshqa konvertirlanadigan valyutalarda, ular kelib chiqqan mamlakatlar tashqarisida amalga oshiriladi. Bu bozorning asosiy ishtirokchilari yirik firmalar va banklar, moliya, sug'urta, investitsiya, qolding kompaniyalari, nafaqa fondlari, hukumat tashkilotlari va xalqaro valyuta-kredit muassasalari hisoblanadi.

Pul bozori va kapital bozori. Xalqaro ssuda kapitali bozori o'z ichiga pul va kapitallar bozorlarini oladi. Pul bozori - bu xalqaro savdoda xizmat ko'rsatish bilan bog'liq qisqa muddatli operatsiyalar (bir necha soatdan bir yilgacha) bozoridir. Uning muhim qismi banklararo bozor yoki qisqa muddatli ta'minlanmagan banklararo ssudalar (depozitlar) bozoridir. Bu yerda ssuda kapitali xarid va to'lov mablag'i sifatida amal qiladi va yuqori likvidlilik va harakatchanligi bilan ajralib turadi.

Kapital bozori uzoq muddatli operatsiyalar bozori hisoblanadi. Unda ssuda kapitali o'z-o'zidan o'sib boruvchi qiymat sifatida qatnashadi, ya'ni shakliga ko'ra u o'z navbatida kredit va qimmatbaho qog'ozlar bozorlariga bo'linadi. Qimmatbaho qog'ozlar bozori kapital bozorining asosiy buguni hisoblanadi. Unda obligatsiyalar, aksiyalarni chiqarish va ularni ikkilamchi joylashtirish amalga oshiriladi.

Dastlab u fond birjalari sifatida paydo bo'ldi, biroq hozirgi vaqtda uning birja bo'lmagan turi kengaymoqda.

Pul va kapitallar bozorlari bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'langan va bu ayniqsa, qisqa muddatli resurslarning urta va uzoq muddatli kreditlarga aylanish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Jahon ssuda kapitali bozori geografik jihatdan jahon savdosi va kapital migratsiyasiga xizmat ko'rsatuvchi ko'p sonli kredit-moliya muassasalari to'plangan yirik xalqaro moliyaviy markazlar majmuasi sifatida aks ettirilishi mumkin.

Obligatsiya, aksiyalar chiqarish va qimmatbaho qog'ozlar savdosi keng tarqalgan Nyu-York xalqaro valyuta, depozit va kredit operatsiyalarida yetakchi mavqega ega bo'lgan London, Syurixlarni shular jumlasiga kiritish mumkin. So'nggi yillarda jahon savdo va moliya markazlari qatori Singapur, Gonkong, Baxrayn va boshqalar hisobiga kengayib bormoqda.

Ssuda bozorida kapitallar harakatini asosiy tartibga soluvchisi bo'lib kredit qiymati hisoblanadi. U uchta tarkibiy qismdan iborat: - foiz stavkasi; - komission va boshqa to'lovlar; - sug'urta mukofotlari. Bevosita qarz beruvchiga to'lanadigan asosiy qismi foiz stavkasi hisoblanadi. Uning darajasi jahon milliy pul bozorlarining ahvoliga, shuningdek, qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi kelishuvlarga bog'liq. Foiz stavkalari qayd etilgan va suzib yuruvchi stavkalarga bo'linadi. Qayd etilgan foiz stavkalari kreditning barcha muddatiga belgilanadi.

Suzib yuruvchi foiz stavkasi qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasida kelishilgan muddat o'rtasida (asosan 3 va 6 oydan keyin) kapital bozoridagi ahvolga qarab qayta ko'rib turiladi. Suzib yuruvchi foiz stavkasi ikki qismdan tarkib topadi:

1. Asos qilib olingan stavka. Bunday stavka sifatida AQSH banklarining birinchi darajali qarz oluvchilari uchun stavkalari, shuningdek, London banklari tomonidan shu toifadagi mijozlarga qisqa muddatli ssudalarni berishda ishlatiladigan o'rta foiz stavkalari (libor) qo'llaniladi. Rasmiy jihatdan liborning o'rnatilgan darajasi mavjud emas. Har bir yirik London banki bu stavkani valyuta bozoridagi talab va taklifga qarab aniqlaydi. Libor valyuta turlari va muddatiga qarab (1, 3, 6 va 12 oy) tabaqalashtirilgan.

2. Ustamalar yoki marja. Uning miqdori qarz oluvchi va qarz beruvchi o'rtasidagi kelishuv bo'yicha aniqlanadi. Kredit qiymatining ikkinchi qismi - komission to'lovlaridir. U qarz beruvchi bankka belgilangan muddat mobaynida zarur kredit resurslarini qarz oluvchi ixtiyoriga berish va rezervda saqlash majburiyati uchun to'lanadi. Shuningdek, komission to'lovlar agar kredit alohida banklar tomonidan emas, balki banklar uyushmasi tomonidan berilsa, kredit operatsiyalarini o'tkazishni boshqarish uchun ham to'lanadi. So'nggi holda yetakchi bank yoki uyushma ishini tashkil etuvchi menejer kreditlashda qatnashish hissasini hamda qarzni uzishdan, foizlarni to'lashdan tushadigan mablag'larni uyushma a'zolari o'rtasida taqsimlaydi. Buning uchun qarz oluvchidan boshqarish uchun bir martalik tartibda komission to'lovlar olinadi.

Kredit qiymatining so'nggi qismi sug'urta mukofoti bo'lib, maxsus sug'urta muassasalariga to'lanadi. Chunki ular yuz berishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni sug'urta qiluvchi bilan kelishilgan miqdor doirasida qoplash majburiyatini o'z zimmalariga oladilar. Hozirgi vaqtda eksport kreditlari sug'urta qilish ehtimoli bo'lgan yo'qotishlarning 80-90 foizini tashkil etadi, ba'zida esa 100 foizni. Kredit qiymati ssuda kapitali bozoridagi talab va taklif asosida aniqlanadi. Kreditlarning barcha turlari, ya'ni xususiy, hukumat va xalqaro tashkilotlarning kreditlari ustun ravishda bozor qiymati bo'yicha beriladi, biroq ba'zi hollarda qarz oluvchi tomonidan ma'lum shartlar saqlanganda hukumat kreditlari va xalqaro tashkilotlarning kreditlari bozor qiymatidan past bo'lgan imtiyozli narxda berilishi mumkin.

Belgilangan muddat tugagandan so'ng qarz oluvchi asosiy qarz va foizlar bo'yicha qarzlarni to'lashi lozim.

Birinchi asosiy qarz - bu foydalanilgan va ma'lum vaqtgacha hali qoplanmagan kredit miqdoridir.

Ikkinchisi, bu uzilmagan asosiy qarz bo'yicha hisoblangan va ma'lum muddatgacha hali to'lanmagan foizlar miqdoridir.

Asosiy uzilmagan qarzga to'lovlar va u bo'yicha hisoblangan foizlarga to'lovlar o'zida tashqi qarzga xizmat ko'rsatish bo'yicha xarajatlarni aks ettiradi. Kredit muddati: foydalanish muddati, imtiyozli davr va uzish muddati har bir qarz oluvchi qarzidan o'z vaqtida qutilish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun olingan qarzdan eng ko'p

darajada samarali foydalanishga harakat qilishi lozim. Bunda kredit muddati muhim ahamiyatga ega. Kreditning to'la va o'rta muddatlari farqlanadi. Kreditning to'la muddati foydalanish muddatini, imtiyozli davrni va uzish muddatini o'z ichiga oladi.

Bank kreditidan foydalanish muddati bu qarz oluvchi o'z majburiyatlarini to'lash uchun bank ssudasidan foydalanish muddatidir. Firma krediti bo'yicha esa tovarni yetkazib berish va haridor tomonidan eksport qiluvchiga o'z roziligini bildirish yo'li bilan qarzdorligini tan olish muddatidir. Imtiyozli davr - bu kreditdan foydalanish muddatida kreditni uzish boshlanishigacha bo'lgan davrdir. Bu davrning miqdori investitsiya tovarlarini yetkazib berishni kreditlashda katga ahamiyatga ega. Chunki u kreditni qoplashning boshlanishi olingan uskunalarni ishga tushirishga yaqinlashtiradi va shu asosda kapital qo'yilmalarni qoplash muddatini qisqartirishga imkon beradi.

Uzish muddati - bu kreditlar bo'yicha asosiy qarzni, hisoblangan foizlar va komissiya to'lovlarini to'la to'lash yuz beradigan vaqtdir. Foydalanish, uzish muddatlari va imtiyozli davrni kreditlashning turli variantlarida turlicha bo'lganligi sababli, ko'plab hisob-kitoblarni amalga oshirishda kreditning o'rtacha muddati qo'llaniladi. Agar kreditdan foydalanish va uni uzish teng me'yorda amalga oshirilsa, u holda uning o'rtacha muddati quyidagiga teng foydalanish muddatining yarmi imtiyozli davr uzish muddatining yarmi.

10.5. Chet el investitsiyalari tushunchalari.

Tadbirkorlik kapitali harakati kapitalni olib kelish va olib chiqishning yangi, biroq jadal rivojlanayotgan shakli hisoblanadi. Xalqaro kredit kabi, u ham xo'jalik aloqalari baynalmilallashuviga yordam beradi, chet el investitsiyalari ko'rinishida ishlab chiqarish sohasining yangilanishi va kengayishida bevosita qatnashadi.

Chet el investitsiyalari deganda milliy iqtisodiyotga xorijiy mamlakatlarning valyutadagi pul mablag'lari, qimmatbaho qog'ozlar, shuningdek, kreditlar ko'rinishidagi kapital qo'yilmalarning barcha shakllari tushuniladi. Bu qo'shma korxonalarda o'z hissasi bilan qatnashish, xorijiy investorlarga to'liq tegishli bo'lgan korxonalarni yaratish, chet ellik shaxslar tomonidan korxonalar, ko'chmas mulk, qimmatbaho qog'ozlar, shuningdek, zayomlar va kreditlarni sotib olish

bo'lishi mumkin. Shunday qilib keng ma'noda investitsiyalarning uch xili farqlanadi:

- haqiqiy, ya'ni moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga uzoq muddatli mablag'lar quyish;
- moliyaviy yoki xalqaro kredit-moliya faoliyati, bunga qimmatbaho qog'ozlar bilan operatsiyalar ham kiradi;
- intellektual - bu mutaxassislarni tayyorlash, tajriba, litsenziya va "nou-xau" berish, birgalikdagi ilmiy ishlanmalar va boshqalar.

Chet el investitsiyalari tushunchasi xalqaro kredit tushunchasi bilan ba'zan bir-biriga mos keladi. Bu avvalo moliyaviy investitsiyalarga tegishlidir. Uning tarkibiy qismi bo'lib portfel investitsiyalar hisoblanadi. Ko'pincha chet el investitsiyalarining tor ma'nodagi tushunchasi qo'llaniladi. Bunda chet el investitsiyalari deganda investorga korxonada faoliyati ustidan nazorat qilish huquqini beruvchi to'g'ridan-to'g'ri qo'yilmalar tushuniladi.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiya qilishning bu xususiyati kapital ketayotgan va uni qabul qilib olayotgan mamlakatlarning ikki yoqlama munosabatlarini asoslaydi. Kapital chiqarayotgan mamlakatlar uchun kapitalning «oqib ketishi», bir tomondan, imkoniyatli ishchi joylarining va kapitalning yo'qolishini, boshqa tomondan, o'zining jahon bozorida qatnashuvini kengaytirish va yuqori foyda olishini bildiradi. Qabul qilib olayotgan mamlakatlar uchun chet el investitsiyalari, bir tomondan, iqtisodiyotning alohida bo'g'inlari ustidan nazorat yo'qolishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan esa yangi texnologiyalar, boshqarish usullariga bo'lgan keng qiziqishni aks ettiradi. Bu sharoitlar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jarayonining ko'tarilishi va pasayishini, uning yo'nalishi va xususiyatlari o'zgarishini tushuntiradi.

To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarining jahon bo'yicha olib chiqish va olib kelish hajmlari bir-biriga teng bo'lishi kerak, ammo biron amaliyotda ular baravar bo'lmaydi, chunki ularni aniqlash, baholash va hisob-kitob qilishda qator farqlar mavjud. Hozirgi bosqichda bu jarayonning xususiyati birinchidan, sanoati rivojlangan mamlakatlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni o'zaro ayirboshlashdir. Avvallari ular ustun ravishda rivojlanayotgan davlatlarga yo'naltirilgan edi. Ikkinchidan, ularni qazib oluvchi tarmoqlarda emas, balki qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarida, xususan iqtisodiyotning yuqori texnologiyali bo'g'inlarida to'plash.

Asosiy tushunchalar:

Kapitalning xalqaro harakati - kapitalning yuqoriroq foyda olish maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chishidir.

Ssuda kapitali - qaytarib berish va fondlarni to'lash sharti bo'yicha beriladigan kapital.

Tadbirkorlik kapitali - xorijda korxonalar yaratish maqsadida beriladigan kapital.

Bevosita (to'g'ri) investitsiyalar - investorga xorijiy korxonalar ustidan nazoratni ta'minlash huquqini beruvchi investitsiyalar.

Portfelli investitsiyalar - investor xorijiy korxonani bevosita boshqarishda qatnasha olmaydigan va faqat aksiyalardan dividendlar olib turishga yo'naltirilgan investitsiyalar.

Firma yoki tijorat krediti - bir firma tomonidan boshqasiga to'lov muddatini cho'zish sharti bilan tovarlarni sotish ko'rinishida beriladigan kredit.

Bank krediti - kredit bitimlarining yo'nalishi, muddati bilan chegaralanmagan kredit turi.

Forfeyting - import qiluvchi tomonidan to'lashga rozilik bildirilgan veksellarni eksport qiluvchidan sotib olish shaklidagi kreditlash.

Factoring - vositachi kompaniya tomonidan qarzdorning to'lov majburiyatlarini to'lovga qabul qilib, uni tezda yoki o'rnatilgan muddatlarda mol egasiga to'lash.

Moliyaviy kredit - kreditlash maqsadlari aniqlanmasdan, pul-valyuta ko'rinishida mablag'larni berish.

Bog'liq kreditlar - ma'lum maqsadlar uchun beriladigan kredit.

Xalqaro ssuda kapitali bozori -bo'sh turgan pul kapitallarining to'planishi va mamlakatlar o'rtasida qayta taqsimlanishi bo'yicha munosabatlar majmuasi.

Pul bozori - xalqaro savdoda xizmat ko'rsatish bilan bog'liq qisqa muddatli operatsiyalar bozori.

Kapitallar bozori - uzoq muddatli operatsiyalar bozori.

Nazorat savollari:

1. Kapital harakatining mohiyati nimadan iborat?
2. Ssuda kapitali va tadbirkorlik kapitali o'rtasidagi farqni ayting.

3. To'g'ri va portfel investitsiyalar deganda nimani tushuniladi?
4. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda kapital harakati ahamiyatining o'sishini nima bildiradi?
5. Zamonaviy sharoitlarda kapital harakati yo'nalishlarining o'zgarishi qanday?
6. Firma krediti nima va u qaysi hollarda ishlatiladi?
7. Bank kreditining xususiyatlari va o'ziga xos shakllari nimadan iborat?
8. Moliyaviy kredit bog'liq kreditdan qaysi xususiyatlari bilan ajralib turadi?
9. Xalqaro kredit milliy iqtisodiyot va jahon xo'jaligi rivojlanishida qanday rol o'ynaydi?
10. Xalqaro ssuda kapitali bozori deganda nima tushuniladi? U o'z ichiga qaysi bozorlarni oladi?
11. Kredit qiymatining qanday tarkibiy qismlari mavjud?
12. Kreditning to'la va o'rta muddatlari o'z ichiga nimalarni oladi?
13. Chet el investitsiyalarining milliy iqtisodiyotdagi roli qanday?
14. O'zbekistonda chet el investitsiyalarini jalb etish uchun qanday sharoitlar yaratilgan?

11-MAVZU. RIVOJLANAYOTGAN BOZORLAR VA MOLIYAVIY INQIROZNING O‘SISHI

11.1. Global moliyaviy bozorlarning shakllanishi, amal qilishi va ularni tartibga solish vositalari

XX asrning so‘nggi yillarida sobiq Ittifoqning parchalanishi, mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy va siyosiy aloqalarning sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tishi, milliy xo‘jalik aloqalarining integratsiyalashuvi bilan globallasuv jarayonlarining jadallasuvi yuz berdi. Globallasuv natijasida jahon xo‘jaligining tarkibiy qismiga aylanib borayotgan mamlakatlarning soni ortib bormoqda. Bu milliy darajadagi huquqiy, iqtisodiy hamda texnologik to‘siqlarning yo‘qolishiga, uning o‘rniga xalqaro iqtisodiy xo‘jalikning umumiy iqtisodiy qonuniyatlari va xalqaro xo‘jalikning funksional aloqalari tatbiq etilishiga olib kelmoqda.

Mamlakatlar hayotidagi globallasuv – iqtisodiy munosabatlardagi tovarlar, xizmatlar, kapital hamda fond bozorlaridagi savdo va siyosatga doir tartiblarning tobora erkinlashuvi orqali namoyon bo‘lmoqda.

Jahon iqtisodiy va moliyaviy muhitining shakllanishiga sezilarli ta’sir etgan o‘zgarishlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- 1950-yillardan boshlab AQSh korporatsiyalarining o‘z xorijiy faoliyatlarini kengaytirishga intilishi, jahon bozorida Yevropa va Yaponiya korporatsiyalari faoliyatining sezilarli o‘sishi, xalqaro maydonda Yaponiya va AQSh korporatsiyalari o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi;

- 1957-yilda Londonda Britaniya hukumatining funt-sterling ustidan nazorat o‘rnatishiga javob tariqasida yevro-dollar bozorining yuzaga kelishi;

- 1958-yilda dastlab “Umumiy bozor” deb atalgan Yevropa Iqtisodiy Hamkorligi (YeIH) – hozirgi Yevropa Ittifoqining (YeI) tashkil topishi;

- XX asrning 60-yillarida Yaponiya iqtisodiyotining tez sur‘atlar bilan o‘sishi, Uzoq Sharq biznes faoliyatida yangi imkoniyatlarning vujudga kelishi;

- 1971-1973 yillarda Bretton Vuds tizimining qulashiga olib kelgan jahon moliyaviy inqirozlari, valyutaning belgilangan kursi tizimidan suzuvchi valyuta kurslariga o'tilishi;

- 1971-1979 yillardagi birinchi va ikkinchi neft inqirozlarining jahon iqtisodiy tizimiga bosim o'tkazishi. Ushbu davrda neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkilotining (OPEK) neft narxini sezilarli darajada oshirishi;

- 1982 yilda rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq jahon qarzdorlik inqirozining boshlanishi;

- 1980-yillarda Yaponiyaning xalqaro moliyaviy kuch va jahon kapitalining manbasi sifatida yetakchi mamlakatga aylanishi;

- 1987 yilda "Katta yettilik" mamlakatlari tomonidan Parijda Luvr bitimining imzolanishi. Ular o'z valyuta kurslarining dollarga nisbatan tor tebranish doirasida sun'iy ravishda almashtirish orqali kuchsizlanib borayotgan dollarni qo'llab- quvvatlashni rejalashtirdilar. Shuningdek, ushbu mamlakatlar kelishilgan iqtisodiy siyosat yuritishni mo'ljalladilar.

- 1987 yilda YeIH yagona Yevropa aktini qabul qilish orqali 1992 yilda yaxlit Yevropa bozorini tashkil qilishni rejalashtirilishi. Bunda mazkur tashkilotning G'arbiy Yevropa moliyaviy va iqtisodiy holatiga sezilarli ta'sir etishi kutiladi.

- 1989-1992 yillarda Sharqiy Yevropa mamlakatlarning o'z siyosiy yo'nalishlarini o'zgartirishi. Ularning kommunistik dunyoqarashdan ko'p partiyaviylikka, markazdan rejalashtiriladigan iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishi jahondagi siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy holatga chuqur ta'sir etdi.

- 1992 yildan keyin yaxlit Yevropa bozorining yuzaga kelishi, 1993 yil noyabr oyidan Shimoliy Amerika erkin savdo bitimining (NAFTA) kuchga kirishi, 1993 yilda Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi (ATYeS) konferensiyasi va boshqa jarayonlar o'tgan asrning 90-yillarida mintaqaviy rivojlanishni jadallashtirdi.

XX asr oxiriga kelib jahon iqtisodiyotida to'rtta asosiy tendensiya kuzatiladi. Birinchidan, xom ashyo eksportiga asoslangan hamda sanoati rivojlangan mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlardagi o'zgarishlar.

Xomashyo yetkazib beruvchi mamlakatlar va sanoati rivojlangan mamlakatlar o'rtasida an'anaviy iqtisodiy aloqalar mavjud bo'lib, ularning o'zaro munosabatlar modeli quyidagicha edi: xomashyo yetkazib beruvchi mamlakatlar xomashyoni eksport qilib, olingan valyuta tushumlaridan sanoat mahsulotlari importini moliyalashtirganlar.

XX asrning 70-yillarida "Rim klubi" nomi bilan mashhur G'arbiy Yevropa olimlari: "Dunyo miqyosida tez orada tabiiy resurslarning global taqchilligi yuzaga keladi", deb bashorat qilgan edilar. Ushbu mulohazalarga asoslanib, ko'pgina xomashyo yetkazib beruvchi mamlakatlar xomashyo sotish evaziga valyuta tushumini oshirish maqsadida kartellarga birlashdilar. Ammo sanoat texnologiyasi va qishloq xo'jalik sohasining keskin rivojlanishi xomashyoga bo'lgan talabning qisqarishiga olib keldi va natijada xomashyo bahosining pasayishi yuz berdi.

Ikkinchidan, sanoati rivojlangan mamlakatlarda qo'l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarishdan bilim va yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishga o'tildi. Jahon iqtisodiy tuzilmasidagi ushbu o'zgarishlar natijasida bandlik tarkibida yuqori malaka talab qiluvchi mutaxassislariga ehtiyoj ortib, nisbatan past malakali mutaxassislariga talab pasayib bordi.

Axborot almashuvining osonligi tadbirkorlik faoliyatini, kichik biznes va shaxsiy tashabbusni rag'batlantirdi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlaridan foydalanish bilimni va yuqori malakani talab qildi, shuning uchun ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlikni oshirish uchun inson kapitaliga investitsiya qilishning ahamiyati ortdi.

Uchinchidan, jahon iqtisodiyotida xalqaro kapital harakatining sezilarli darajada ortishi. Ushbu o'zgarish xalqaro savdoga nisbatan xalqaro kapital harakatining tez sur'atda o'sishi bilan yuz berdi. Xalqaro moliya statistikasining ma'lumotlariga ko'ra, jahon eksporti hajmi 1981 yildagi 2000 mlrd. AQSh dollaridan 1991 yilda 3447 mlrd. AQSh dollari darajasigacha, ya'ni 1,5 marta o'sgan. Shu vaqt mobaynida xalqaro obligatsiyalar emissiyasi 23 mlrd. Dollardan 342 mlrd. dollargacha, ya'ni deyarli 15 marta o'sdi. Bundan tashqari, uchta yetakchi xalqaro moliya bozorlarida ko'plab xorijiy valyutalar aylanmasi sezilarli darajada o'sdi. 1986-yildan 1992-yilgacha London-

da xorijiy valyutaning kunlik oʻrtacha aylanmasi 90 mlrd. dollardan 303 mlrd. dollargacha ortdi. Shu davrda Nyu-Yorkdagi kunlik aylanma 50 mlrd.dollardan 192 mlrd. dollargacha, Tokioda 48 mlrd. dollardan 128 mlrd. dollargacha ortgan.

Global iqtisodiyotning vujudga kelishini nafaqat tovarlar va xizmatlar eksportining ulkan koʻlamlari, balki kapitalni olib chiqish, qimmatli qogʻozlar, bank depozitlari, qarz talablari va majburiyatlari shaklidagi mulkchilik huquqlari savdosi namoyon etmoqda. Xalqaro fond va valyuta bozorlaridagi aylanmalar savdo aylanmalaridan oʻnlab, baʼzan yuzlab marta ortiqdir.

Davlatlar, xalqaro tashkilotlar, banklar, xususiy kompaniyalar tomonidan beriladigan xalqaro kreditlar ulkan hajmlarda amalga oshirilmoqda (11.1-jadval).

11.1-jadval

2016 yilda xalqaro kredit resurslar hajmi⁹³ (mlrd. doll.)

| № | Koʻrsatkichlar | Dunyo | AQSh | Yevropa Ittifoqi |
|--------------------------------------|---|---------------|--------------|-------------------------|
| 1 | Jahon YaIM | 41255 | 11734 | 9616 |
| 2 | Jahon valyuta zaxiralari (oltindan tashqari) | 3866 | 175 | 281 |
| 3 | Fond bozorlarining kapitallashuvi | 37168 | 16324 | 9270 |
| 4 | Qarz qogʻozlari (davlat va xususiy) | 57843 | 22307 | 19261 |
| 5 | Tijorat banklari aktivlari | 57316 | 8497 | 27993 |
| 3,4,5 qatorlarning yigʻindisi | | 152327 | 47127 | 56524 |

Jadval maʼlumotlarining koʻrsatishicha, 2006 yilda turli kredit resurslarining hajmi ulkan miqdorga – 152 trln. dollarga yetdi. Bu kapitalning hammasi ham xalqaro transaksiyalarda ishtirok etmaydi.

Chiqarilgan qimmatli qogʻozlarning 20 %i xalqaro majburiyatlarni ifodalaydi. Bir mamlakatdan boshqa mamlakatlarga kapitallarning katta oqimi ularning iqtisodiy rivojlanishining oʻzaro bogʻliqligini paydo qiladi.

⁹³ Global Financial Report, IMF, 2006.

To'rtinchidan, transmilliy korporatsiyalarning qo'shma korxonalarini tashkil etish uchun xalqaro investitsiyalari va hamkorlik bitimlarida diversifikatsiya darajasining ortishi. Bunda asosiy o'zgarish sifatida TMKlar va ularning turli mamlakatlardagi qo'shma korxonalarini sonining o'sib borishini ko'rish mumkin.

TMKlar tashkiliy, ishlab chiqarish va marketing tizimlarini chet mamlakatlar hududlariga yoyib, shu yo'l bilan tovarlar, xizmatlar, kapital va texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etib, ushbu mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarga ta'sir etdi. Qo'shma korxonalar xalqaro biznes integratsiyasining keng tarqalgan shakliga aylandi.

Shuningdek, jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuv jarayonlarida xalqaro tashkilotlar rolini alohida e'tirof etish zarur. Jahon savdo tashkiloti (JST), Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon banki (JB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT), Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) kabi xalqaro institutlar hamda yetakchi mamlakatlar rahbarlari va moliya vazirlarining har yili bo'lib o'tadigan uchrashuvlarining xalqaro munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati ortib bormoqda. Texnologiyalar bo'yicha, atrof-muhitni asrash, moliya institutlarining faoliyati, buxgalteriya hisobotlari, milliy statistika (milliy hisoblar tizimi) va boshqalarga yagona andozalarni qo'llash kengaymoqda. Ushbu andozalar ta'lim va madaniy sohalarga ham yoyilmoqda.

Xalqaro tashkilotlar orqali makroiqtisodiy siyosatning yagona mezonlari tatbiq etilmoqda. Valyuta-kredit, soliq, tashqi iqtisodiy siyosat, bandlik sohasi bo'yicha qo'yiladigan talablarning bir xillashuvi yuz bermoqda, xalqaro raqobat qoidalari ishlab chiqilmoqda.

Bu jarayonlar qanchalik jadal sur'atlarda amalga oshirilmasin, zamonaviy jahon iqtisodiyoti o'ta global holatda faoliyat yuritayotgani yo'q, balki u globallashuv jarayonlarining dastlabki bosqichlarini boshdan kechirmoqda.

O'tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlarning jahon bozoriga integratsiyalashuvi uzoq muddatli jarayon hisoblanadi. Ba'zi milliy bozorlarning ochiq, ba'zilarining qattiq tartibga solingan hozirgi holati bilan globallashuvning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan liberallashuv o'zaro nomutanosib ko'rinish hosil qilmoqda.

Xalqaro tovarlar, xizmatlar va kapital almashinuvining erkinlashish an'anasi kengayayotgan bir paytda, har bir davlat eksport va

importni tartibga solishning ma'lum usullarini saqlab qolmoqdalar. Ularning asosiy maqsadi tarkibiy qayta qurish va inqiroz davrining qiyinchiliklarini yengib o'tish, milliy xavfsizlikni ta'minlash – takror ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlovchi (energetika, transport, aloqa va x.k) va mamlakat mudofaa qobiliyati kabi strategik sohalarni moliyaviy ta'minlash, savdo sheriklardan munosib imtiyozlarni olish, shuningdek, budget tushumlarini oshirishdan iborat bo'lmoqda. Amaldagi bunday proteksionizm fiskal muammolarni hal etishdan ko'ra ko'proq tarkibiy siyosat o'tkazish vositasi hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda erkin savdo g'oyasi (liberallasuv) bilan proteksionizm o'rtasida nafaqat qarama-qarshilik yuzaga chiqmoqda, balki milliy xo'jalikni jahon xo'jaligiga qo'shilish samarasini maksimal ta'minlash maqsadida xo'jalikni tartibga solishning yuqoridagi ikki usulining optimal birikmasidan foydalanilmoqda. Bunday birikmaning shakl va nisbatlari ma'lum vaqtdagi pragmatik manfaatlardan kelib chiqib aniqlanadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda globallasuv bilan birga integratsiya jarayonlarining yana bir shakli, ya'ni ma'lum geografik joylashuvga asoslangan hududiy integratsiya (hududiy lashuv) yuz bermoqda.

O'sib boruvchi globallasuv, hududiy lashuv, iqtisodiyotning transmilliy lashuvi va integratsiya natijasida eski davlatlararo tartibga solish mexanizmi tubdan o'zgaradi. Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar ikki tomonlama munosabatlar chegarasidan chiqib, ko'p tomonlama tus olmoqda.

Ammo "milliy xo'jalik majmui", "mamlakatning milliy iqtisodiy manfaatlari" tushunchalari o'z ma'nosini saqlab qolmoqda. Milliy xo'jalik hamon ishlab chiqarish, almashinuv, taqsimot va iste'mol, shuningdek, iqtisodiy faoliyatning asosiy markazidir.

11.2. Xalqaro moliya tashkilotlari va ularning xalqaro valyuta munosabatlarini tartibga solishdagi o'rni

Global lashuv jarayonlarining chuqurlashuvi natijasida davlatlararo har tomonlama hamkorlikning bir ko'rinishi sifatida xalqaro tashkilotlar va fondlar yuzaga chiqmoqda. Ular siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy sohalarda umumiy tusdagi

maqsadlarga erishish uchun davlatlar, milliy institutlar, nodavlat assotsiatsiyalarini birlashtiradi. Xalqaro tashkilotlar o'z faoliyatini har tomonlama muvofiqlashtirish uchun o'z fondlarini tashkil etadilar.

Davlatlararo kelishuvlar asosida ishtirokchi davlatlarning yagona moliya va kredit siyosatlarini amalga oshirish uchun pul mablag'larining davlatlararo maqsadli fondlari tuziladi. Davlatlararo fondlar (tashkilotlar) o'z daromadlarini shakllantirish usullari va moliyalashtirish tusiga ko'ra bir nechta turlarga bo'linadi.

Birinchi turga moliya-kredit tashkilotlarining davlatlararo va xalqaro fondlari kiradi. Ular nizom kapitalida ishtirok etuvchilarga maqsadli kreditlar ajratadilar va maqsadli fondlarni tashkil etadilar. Bu tashkilotlar faoliyati davomida olgan daromadlaridan ulushiga ko'ra dividend to'laydilar hamda turli maqsadlar uchun zaxira fondlarini shakllantiradilar.

Mazkur tashkilotlar jumlasiga Xalqaro Investitsiya banki (XIB), Xalqaro Iqtisodiy Hamkorlik banki (XIHB), Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki (YeTTB), Xalqaro Valyuta Fondi (XVF)ni kiritish mumkin.

Xalqaro moliya tashkilotlari va fondlarning nizom kapitali shakllanishida, olingan daromadlarni taqsimlab, turli fondlarni tashkil etishda moliya munosabatlari katta rol o'ynaydi.

Milliy va xalqaro moliya-kredit institutlarining mablag'lari, xalqaro ishtirokchi-tashkilotlar fondi, manfaatdor mamlakatlarning valyuta fondlari va budget mablag'lari to'lanadigan badallarning manbasi hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi (YeI)da ham qator davlatlararo fondlar, jumladan, Yevropa Ittifoqining budjeti, Yevropa Taraqqiyot fondi, Yevropa Valyuta Hamkorlik fondi va boshqalar tashkil etilgan.

Ikkinchi tur tashkilotlarining budjetlari ishtirokchilarning har yillik badallari evaziga tashkil etiladi. Bunday tashkilotlarga ma'lum sohalardagi milliy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi xalqaro va umumjahon institutlari kiradi. Ularga Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Xalqaro Vaqt Byurosi, Atom energetikasi bo'yicha Xalqaro Agentlik, Dengiz aloqasi bo'yicha Xalqaro Tashkilot, Ilmiy xizmatchilarning umumjahon Federatsiyasi va boshqalarni kiritish mumkin.

Uchinchi tur xalqaro tashkilotlariga vaqtinchalik tusga ega bo'lgan ilmiy dasturlar va kongresslarni kiritish mumkin. Ularni moliyalashtirish qatnashuvchi ishtirokchilar tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, Xalqaro biologiya dasturi (1964-1974 yy.), Xalqaro geodinamik loyiha (1971-1980 yy.), Xalqaro osoyishta quyosh yili (1964-1965 yy.), 1957 yildan boshlab har ikki-uch yilda chaqiriladigan Xalqaro tog' kongressi va boshqalar. Ushbu tashkilotlar turli mamlakat olimlari bilan yaxlit ilmiy tadqiqotlar olib boradi.

To'rtinchi tur xalqaro tashkilotlari xalqaro ilmiy laboratoriyalar, institutlar, ittifoqlar, yaxlit va umumiy sohalar assotsiatsiyalari, ma'lum ilmiy sohalar bo'yicha byurolardan iborat. Ular mamlakatlarni, milliy ilmiy tashkilotlarni, assotsiatsiyalarni, ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanayotgan alohida olimlarni birlashtiradi va ular faoliyatini muvofiqlashtiradi. Ushbu tashkilotlar yillik ulushli badallar, konferensiyalarda ishtirok etuvchilarni ro'yxatga olish badallari, yuridik va jismoniy shaxslarning xayriya mablag'lari, davriy ilmiy nashrlardan daromadlar hisobidan tashkil etiladigan budjetlar tomonidan moliyalashtiriladilar. Mazkur tashkilotlarga misol qilib milliy va qo'shma dasturlar bo'yicha ishlaydigan Kuchli magnit maydonlari va past harorat bo'yicha xalqaro fond, Xalqaro matematika markazi va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Beshinchi tur xalqaro tashkilotlari faoliyatning ma'lum sohalariga ko'maklashish va tadbirlarni moliyalashtirish uchun mablag'larni yig'ish bilan shug'ullanadilar. Masalan, Xalqaro Yovvoyi tabiat fondi davlat, jamoat tashkilotlari va xususiy shaxslardan yovvoyi hayvonlar va tabiatni qo'riqlash uchun mablag'larni yig'uvchi nodavlat tashkilotdir. Ushbu tashkilot boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda ma'lum tadbirlarni moliyalashtiradi. Fond o'zining nashriga ega bo'lib, uni sotishdan olinadigan daromadlar fond budjetining daromad manbalaridan biri hisoblanadi.

“Olimpiya birdamligi” fondi rivojlanayotgan mamlakatlar milliy olimpiya qo'mitalariga moliyaviy yordam ko'rsatish uchun tuzilgan. Mazkur fond milliy olimpiya qo'mitalarining badallari, xususiy kompaniyalar, firmalar va xususiy shaxslarning xayriyalari, Xalqaro olimpiya qo'mitasining investitsion va nashriyotchilik faoliyati natijasida olingan daromadlari hisobidan shakllantiriladi. Fondga olimpiya o'yinlarini televizion yoritishdan olingan daromadlarning 1/3 kelib

tushadi (olimpiya o'yinlarini televizion yoritishdan olingan daromadlar mos ravishda Xalqaro Olimpiya qo'mitasi, "Olimpiya birdamligi" fondi va Olimpiya sport turlari bo'yicha xalqaro Federatsiya o'rtasida taqsimlanadi).

Fondning budjeti har yili tasdiqlanadi. Asosiy tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha hududlarga yo'naltiriladigan mablag'lar xarajatlarining 75-85 foizini tashkil etadi. Ushbu tadbirlarga yig'inlar o'tkazish, xakamlar majlisini o'tkazish, sport buyumlarini sotib olish, milliy olimpiya qo'mitalariga moliyaviy yordamlar ko'rsatish va boshqalarni kiritish mumkin. Boshqa mablag'lar nashriyotchilik faoliyatiga va joriy xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan fondlarning tarkibiy tuzilishi, maqsadi, vazifalarini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida birinchi tur fondlar – moliya-kredit tashkilotlariga mansub Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) haqida ma'lumotlarni keltiramiz.

Xalqaro Valyuta Fondi BMTning maxsus tashkiloti bo'lib, uni tuzish to'g'risidagi kelishuv 1944 yilda Bretton-Vudsdagi valyuta-moliya masalalari bo'yicha bo'lib o'tgan BMT konferensiyasida imzolangan. 1945 yilning 27 dekabrda ushbu kelishuv kuchga kirgan. Xalqaro Valyuta Fondi amalda o'z faoliyatini 1946 yildan boshladi.

Bretton-Vuds kelishuviga muvofiq Xalqaro Valyuta Fondining vazifasi unga a'zo bo'lgan mamlakatlarning oltin va AQSh dollarida ifodalangan valyuta zaxiralarini tartibga solish hamda a'zo mamlakatlarning valyuta paritetlarining barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Ushbu kelishuvga ko'ra a'zo mamlakatlar o'z valyutalarini belgilangan kurslar asosida xalqaro joriy operatsiyalar bo'yicha almashinuvini ta'minlashlari shart edi. Shuningdek, mazkur mamlakatlar valyuta operatsiyalarini chegaralash bo'yicha mavjud to'siqlarni bekor qilishlari kerak edi (amalda 181 mamlakatdan atigi 60 mamlakat ushbu talabni bajargan).

Xalqaro Valyuta Fondining nizom fondi a'zo mamlakatlarga o'rnatiladigan kvotalar asosida to'lanadigan badallardan tashkil etiladi. Kvotalar har bir a'zo mamlakatning moliyaviy badal hajmini aniqlash, proporsional ravishda Xalqaro Valyuta Fondi kreditlari hajmini aniqlash hamda ovozlar sonini aniqlash uchun xizmat qiladi. Kvotalar hajmi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi va uning jahon iqtisodiyoti hamda xalqaro savdodagi roliga bog'liq bo'ladi. Kvota

yalpi ichki mahsulot, import va eksport hajmi, oltin-valyuta zaxiralari hajmi ko'rsatkichlari asosida hisoblanadi. Kvotalar hajmi har besh yilda qayta ko'rib chiqiladi.

Kvotalar hajmidan kelib chiqqan holda Xalqaro Valyuta Fondi boshqaruv organlarida ovozlar soni mamlakatlar o'rtasida taqsimlanadi. Har bir mamlakat 250 ta ovozga ega va har bir qo'shimcha 100000 SDR uchun 1 ta ovoz qo'shib beriladi. Hozirda boshqaruv organida ovozlarning eng ko'pi AQShga tegishli – 17,7 foiz.

Bugungi kunda Xalqaro Valyuta Fondining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- valyuta siyosati sohasidagi xalqaro hamkorlikni kengaytirish;
- valyuta siyosati sohasida balanslashgan rivojlanishda hamkorlik qilish;

- yuqori bandlik darajasi hamda real daromadlarni ta'minlash va rag'batlantirish, barcha a'zo mamlakatlarning iqtisodiy siyosati asosini tashkil etuvchi, ishlab chiqarish potensialini rivojlantirish uchun jahon savdosining balanslashgan o'sishini barqarorlashtirish;

- valyuta barqarorligini ta'minlash va a'zo mamlakatlar o'rtasida valyuta munosabatlarini soddalashtirish, shuningdek, raqobat muhitini shakllantirish nuqtai nazaridan kelib chiqqan sodda valyuta devalvatsiyasining oldini olish;

- ko'p tarmoqli to'lov tizimlarini tashkil etishda ishtirok etish, shuningdek, valyuta konvertatsiyasi bilan bog'liq cheklavlarni bekor qilish;

- a'zo mamlakatlarga to'lov balanslari taqchilligini yo'qotish uchun mablag'lar berish.

Oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni bajarish uchun Xalqaro Valyuta Fondi o'z funksiyalari va tamoyillarini ishlab chiqqan.

Xalqaro Valyuta Fondi tamoyillari:

- tartibga solishdan chetga chiqish maqsadida xalqaro valyuta tizimi yoki valyuta kursi manipulyatsiyasini ta'qiqlash;

- valyuta inqirozlariga barham berish maqsadida valyuta bozorlarida intervensiyani amalga oshirish majburiyati;

Xalqaro Valyuta Fondining funksiyalari:

- kodeksda kelishilgan munosabatlarga amal qilish, xalqaro valyuta siyosati va davlatlararo to'lovlar aylanmasi sohalarida hamkorlik qilish;

- to'lov balansi taqchilligini yengib o'tish uchun moliyaviy yordam;

- maslahat va hamkorlik qilish.

Belgilangan vazifalarini amalga oshirish maqsadida Xalqaro Valyuta Fondi o'z va jalb qilingan mablag'lar hisobidan xorijiy valyutada kreditlar yoki a'zo mamlakat to'lov balansini tenglashtirish maqsadida SDR taqdim etadi.

Moliyaviy operatsiyalar faqatgina a'zo mamlakatning rasmiy organlari: g'aznachilik, Markaziy bank, valyutani barqarorlashtiruvchi fondlar bilan birga amalga oshiriladi. Xalqaro Valyuta Fondi resurslarini olishni tartibga soluvchi qoidalar barcha a'zo mamlakatlar uchun bir xil amal qiladi. Joriy operatsiyalar bo'yicha xorijiy valyutaga ehtiyoj sezgan mamlakat kreditning zarurligini isbotlashi shart. Bunday kreditlar hajmi quyidagi shart orqali tartibga solinadi: qarzdor mamlakatning milliy valyutasi uning kvotasini yil davomida 25 foizidan va umumiy hisobda kvota hajmining 200 foizidan ortib ketmasligi kerak. Kreditlar bo'yicha foizlar har bir moliya yili uchun daromad va xarajatlarni baholash asosida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, Xalqaro Valyuta Fondi tarkibida alohida kredit turlari bo'yicha bir necha maxsus fondlar tashkil etilgan. Ushbu fondlardan aksariyat hollarda, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda savdo va to'lov tizimidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga kreditlar ajratiladi. Ushbu kreditlar, odatda, 4 yildan 10 yilgacha bo'lgan muddatlarda qaytarilishi mo'ljallanadi.

Keyingi yillarda Xalqaro Valyuta Fondining daromadi past bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlardagi tarkibiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, o'rta muddatli makroiqtisodiy barqarorlashtirish dasturlariga ajratiladigan kreditlar salmog'i ortmoqda.

11.3. Mintaqaviy va milliy moliya bozorlarining rivojlanishi va ularni tartibga solish muammolari

Globalashuv sharoitida jahon moliya tizimi barqarorligini, uning tarkibiy qismlari va funksiyalarining yaxlitligi nuqtai nazaridan dinamik muvozanatni saqlab qolish masalasi dolzarb hisoblanadi. Mazkur jarayonda, globalashuvning ta'sirini inobatga olgan holda xalqaro moliya-kredit munosabatlarini rivojlantirish uchun aniq

tamoyillarni belgilash va zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish, ehtimoliy risklarni pasaytirish muhimdir.

Bugungi kunda moliyaviy globallasuv jarayoni xalqaro moliya tizimining institutsional muhitini sifat va miqdor jihatdan o'zgartiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bir nechta milliy moliya bozorlarining hamkorligida global moliya bozorining shakllanganligi bu o'zgarishlarni aniq ko'rsatib bermoqda.

Moliyaviy globallasuv sharoitida jahon moliyaviy arxitekturasining barqarorligiga erishishda uning tarkibiy qismlari hisoblangan milliy iqtisodiyotlardagi valyuta tizimining barqarorligi, ichki moliyaviy sektorni liberallashtirish darajasi va moliyaviy ta'minotining holati muhim o'rin tutadi. Mazkur jarayonda, mamlakatlar tomonidan kapital harakatidagi cheklovlarning bekor qilinishi va kapitalning erkin harakati uchun sharoit yaratish hamda barqaror valyuta siyosatini shakllantirish, shuningdek, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarning samarali amalga oshirilishi muhimdir.

Ko'plab tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, global moliya tizimi milliy moliya tizimlari va ularni birlashtirgan xalqaro moliya tizimini o'z ichiga oladi, bunda milliy moliyaviy oqimlarning bir qismi xalqaro valyuta-kredit oqimlariga birlashadi va har bir hamkorlik qiluvchi davlatning moliyaviy resurslarini shakllantirishda ishtirok etadi⁹⁴.

Xalqaro moliya tizimi o'ziga transmilliy kompaniyalar va banklar, moliyaviy korporatsiyalar, alohida mamlakatlarning markaziy banklari, xalqaro moliya-kredit tashkilotlari, pensiya, investitsiya fondlari va sug'urta kompaniyalarini o'z ichiga olgan institutsional investorlar, yirik moliyaviy markazlarni qamrab oladi. Uning instrumentlariga depozitlar, xorijiy mamlakatlardan xarid qilingan mahsulot va xizmatlar, shu jumladan, aksiyalar uchun xalqaro pul o'tkazmalari, olingan va berilgan kreditlar, veksell, obligatsiyalar, shuningdek, hosila moliyaviy vositalar kabilarni kiritish mumkin.

Keyingi yillarda xalqaro moliya tizimida kapital harakati rivojlanishida transmilliy korporatsiyalarning (TMK) roli ortib bormoqda. Chunki, transmilliy korporatsiyalar zamonaviy jahon iqtisodiyoti va

⁹⁴ Андропова Н.Э. Проблемы реформирования мировой финансовой архитектуры в условиях финансовой глобализации // Экономические науки.– 2012. – № 5.

xalqaro moliya tizimidagi o'zgarishlarni harakatga keltiruvchi asosiy kuch hisoblanadi. TMKlar yuqori darajadagi ishlab chiqarish va moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan holda ilmiy sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga asosiy e'tibor qaratishadi. Mazkur holat esa ularning ishlab chiqarish faoliyati kengayishiga va texnologik rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan birga ular mahsulotlar va xizmatlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshlik darajasini, xalqaro kapital harakati hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Hozirgi davrda TMKlarning ta'siri barcha sohalarda kuchayib borgan holda ular xalqaro moliya tizimidagi o'zgarishlarni tartibga solishda asosiy subyektlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. quyidagi ko'rsatkichlar yordamida zamonaviy jahon moliya tizimida TMKlarning rolini ko'rish mumkin:⁹⁵

- TMKlar jahon savdosining qariyb 2/3 qismini nazorat etadi;
- dunyo sanoat ishlab chiqarishining taxminan 1/2 qismi TMKlar hisobiga to'g'ri keladi;
- TMKlar bo'linmalarida ish bilan band aholi qatlamining qariyb 10% faoliyat yuritadi;
- jahondagi mavjud patent, litsenziya va nou-xaularning deyarli 4/5 qismi TMKlar tomonidan nazorat qilinadi. Shu boisdan ular global darajada moliyaviy munosabatlar rivojlanishiga hamda xalqaro kapital harakatiga keskin ta'sir etish salohiyatiga egadir.

Jahon iqtisodiyotida faoliyat ko'rsatayotgan TMKlarning aksariyat qismi AQShga (174 ta) to'g'ri keladi, Yaponiya (38 ta), Buyuk Britaniya (38 ta), Xitoy (34 ta) kabi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar keyingi o'rinlarni egallagan⁹⁶.

Hozirgi kunda ekspertlarning baholashiga ko'ra, jahon kapitali hajmi iqtisodiyot real sektori bahosidan uch baravar ko'p, ya'ni jahon iqtisodiyotidagi moliyaviy majburiyatlar hajmi barcha mahsulotlar va xizmatlar qiymatidan uch baravarga yuqori bo'lib, bu tafovut yanada ortib bormoqda. Jahon kapitali, jumladan, bozor va bank depozitlari, shuningdek, obligatsiyalar hajmi 140 trln. dollardan oshib ketdi.

⁹⁵ Edwards S. Financial Openness, Currency Crises and output Losses in Strengthening Global Financial Markets, ed. by S. Edwards and M. Garcia. Chicago, 2006.

⁹⁶ Transnational corporations: investment and development. United Nations. New York and Geneva, 2018. Volume 25, Number 2.

Rivojlanayotgan va rivojlanish darajasi past bo'lgan mamlakatlarning jahon kapital bozoridagi ishtirokining faollashuvi, sanoatlashuv darajasining ortishi hamda ularning xalqaro moliyaviy aylanmaga keng jalb etilishi natijasida jahon iqtisodiyotining moliyaviy globallashuvi yanada oshmoqda.

Mamlakatlarning xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuv darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, moliya sektorining investitsiya maqsadlari uchun pul mablag'larini qayta taqsimlash hamda iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlariga va rivojlanishga erishish imkoniyati shuncha ortadi. Mazkur jarayon jahon iqtisodiyotida moliyaviy sohadagi resurslar hajmining oshishiga hamda mamlakatlarning moliyaviy jihatdan integratsiyalashuvining kuchayishiga olib keladi. Bunda pul massasi, moliyaviy aktivlar, aksiyalar bozorining kapitallashuvi, kreditlar hajmi kabi ko'rsatkichlarning jahon yalpi ichki mahsulotiga nisbatini baholash muhimdir. Misol uchun, global moliyaviy aktivlarning jahon YaIMga nisbati 1980 yildan 2008 yilgacha bo'lgan davrda 103 foizdan 292 foizgacha oshgan, iqtisodchilarning baholashi bo'yicha mazkur ko'rsatkich 2020 yilda taxminan 420-450 foizni tashkil etishi keltirilgan⁹⁷. Yuqoridagilardan ko'rish mumkinki, global moliyaviy aktivlar va boshqa ko'rsatkichlarning jahon YaIMga nisbati o'sishda davom etmoqda. Chunki, so'nggi yillarda moliyaviy aylanma va aktivlarning hajmi real iqtisodiyot dinamikasiga nisbatan jadal o'sishi kuzatilmoqda. Bunda asosan moliya, iqtisodiyot va innovatsiyalar sohasida rivojlangan mamlakatlarning ta'siri yuqori bo'lgan holda, ular jahon moliya tizimida o'z yetakchilik mavqeini mustahkamlashga qaratilgan faol chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqdalar.

XX asrning 90-yillarida jahonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining hajmi 449 mlrd. dollarni tashkil etgani holda, 2018 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 2,3 trln. dollarga yetdi. Mazkur holat mamlakatlar iqtisodiyotiga, shuningdek, xalqaro kapital oqimiga bo'lgan ehtiyojning tobora ortib borayotganligi bilan izohlanadi.

XXI asrning o'tgan davrida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jahonda rivojlanib borayotgan globallashuv jarayonining harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Xususan, jalb etilgan, chetga

⁹⁷ Mapping Global Capital Markets. McKinsey Global institute Annual Reports.

chiqarilgan va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 2018 yilga kelib 1990 yilga nisbatan 4-6 martaga ortgan. Biroq shu bilan birga, 2018 yilda dunyo miqyosida xorijiy investitsiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb etish hajmi 2017 yilga nisbatan 13 foizga yoki 200 mlrd. dollariga kamaygan, xorijiy investitsiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri chetga chiqarish hajmi esa 411 mlrd. dollarga kamaygan. Shuningdek, dunyo bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 611 mlrd. dollarga kamaygan.

11.2-jadval

Jahon iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning rivojlanish dinamikasi⁹⁸

| Ko‘rsatkichlar | Joriy baholardagi qiymati, mlrd. AQSh doll. | | | | | 2018 yilda 1990 yilga nisbatan o‘zgarish, marta |
|---|--|-------------|-------------|-------------|-------------|---|
| | 1990 yil | 2015 yil | 2016 yil | 2017 yil | 2018 yil | |
| Xorijiy investitsiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb etish | 205 | 2034 | 1919 | 1497 | 1297 | 6,3 |
| Xorijiy investitsiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri chetga chiqarish | 244 | 1683 | 1550 | 1425 | 1014 | 4,2 |
| To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi | 449 | 3717 | 3469 | 2922 | 2311 | 5,1 |

AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Fransiya kabi mamlakatlar xalqaro bozordagi asosiy investorlar bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar taklifini shakllantiradigan mamlakatlar hisoblanadilar. Jumladan, 2018 yilda xorijga chiqarilgan jami to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning 24 %i AQSh, 5,4 %i Kanada, 5,7 %i Germaniya, 11,2 %i Yaponiya, 6,9 %i Buyuk Britaniya hissasiga to‘g‘ri kelgan.

⁹⁸ UNCTAD, World Investment Report 2019. Special economic zones. New York and Geneva, 2019.

Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay iqtisodiy muhitni yaratgan mamlakat Xitoy hisoblanadi. 2018 yilda Xitoy iqtisodiyotiga jalb etilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 139 mlrd. dollarni tashkil etgani holda 2017 yilga nisbatan 5 mlrd. dollarga oshgan.

Jahon moliyaviy arxitekturasi holatiga va xalqaro moliya tizimi barqarorligiga ta‘sir etuvchi asosiy omillardan yana biri sifatida xalqaro valyuta bozori namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy valyuta bozori milliy iqtisodiyotlarning integratsiyalashuvi va globallashtirish sharoitida ular o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarning jadal rivojlanishining natijasi hisoblanadi. Iqtisodiyot va axborot muhitida yangi innovatsion texnologiyalar xaridorlar va sotuvchilar o‘rtasida tezkor o‘tkazmalar hamda hisob-kitoblarni amalga oshirishga imkon berdi, tovar ayirboshlash jarayonini tezlashtirdi va xalqaro valyuta bozorini jahon miqyosida yanada kengayishiga ta‘sir ko‘rsatdi.

Xalqaro hisob-kitoblar banki (Bank for International Settlements) ma‘lumotlariga ko‘ra, 1992 yilda jahonda konversion operatsiyalarning bir kunlik yalpi hajmi 820 mlrd. dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2019 yilga kelib mazkur ko‘rsatkich 6,6 trln. dollarga yetdi.

11.3-jadval

1992-2019 yillarda jahon valyuta bozorining kunlik aylanmasi hajmi (mlrd. AQSh dollarida)⁹⁹

| Yillar | 1992 | 1995 | 1998 | 2001 | 2004 | 2007 | 2010 | 2013 | 2016 | 2019 |
|---------------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|
| Aylanma hajmi | 820 | 1190 | 1527 | 1239 | 1934 | 3324 | 3973 | 5357 | 5067 | 6590 |

Ma‘lumki, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, shuningdek, valyuta bozorida dunyoning barcha mamlakatlari ishtirok etadilar, lekin xalqaro valyuta bozorida ayrim mamlakatlarning ishtirok etish ko‘lami boshqalariga nisbatan yuqori hajmni tashkil etadi.

⁹⁹ UNCTAD, World Investment Report 2019. Special economic zones. New York and Geneva, 2019.

11.4-jadval
117

Jahon valyuta bozori aylanmasining geografik tarkibi (%da)

| Ko'rsatkichlar | 2013 yil | 2016 yil | 2019 yil |
|-----------------------|-----------------|-----------------|-----------------|
| Jahon bo'yicha | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| Buyuk Britaniya | 40,8 | 36,9 | 43,1 |
| AQSh | 18,9 | 19,5 | 16,5 |
| Singapur | 5,7 | 7,9 | 7,6 |
| Yaponiya | 5,6 | 6,1 | 4,5 |
| Gongkong | 4,1 | 6,7 | 7,6 |
| Shveysariya | 3,2 | 2,4 | 3,3 |
| Boshqalar | 21,7 | 20,5 | 17,4 |

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotning real sektori rivojlanishi hamda moliya va valyuta bozorlari o'rtasida tizimli bog'liqlik mavjud. Valyuta bozorlarida eng ko'p ishlatiladigan va vaqt o'tishi bilan o'z qiymatini yo'qotmagan valyuta AQSh dollari hisoblanadi. Agar 1989 yilda xalqaro valyuta bozoridagi bitimlarning 90 foizida AQSh dollaridan foydalanilgan bo'lsa, 2019 yilda mazkur ko'rsatkich 88 foizni tashkil etgan, o'tgan o'ttiz yil davomida AQSh dollari o'zining yetakchilik rolini saqlab kelgan. Bu qisman dollarning boshqa valyutalar kross-kurslarini hisoblashdagi yetakchi roli, shuningdek, jahon valyuta bozori aylanmasining 2/3 qismiga teng bo'lgan svop bitimlarida 95 foizni tashkil etganligi bilan bog'liqdir. 2001-2010 yillarda dollarning ulushi sezilarli tebranishlarga uchragan, bu holat 2001 yil o'rtalarida boshlangan va 2008 yildagi global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida ishlab chiqarishning pasayishi hamda ishsizlikning o'sishi hisobiga yanada kuchaygan Amerika iqtisodiyotidagi retsessiya jarayoni bilan bog'liq. Lekin, iqtisodiy omillar ta'siriga qaramasdan AQSh dollari hozirgi kunda ham konversiya operatsiyalarining 88 foizini tashkil etgan holda jahon valyuta bozorida yetakchilikni qo'ldan bermay kelmoqda.

Xalqaro valyuta bozoridagi operatsiyalarda boshqa valyutalar, jumladan, yevro 32 foizni, iyena 1 foizni, funt sterling 13 foizni,

Shveysariya franki 5 foizni, Avstraliya dollari 7 foizni, Kanada dollari 5 foizni, Gongkong dollari 4 foizni tashkil etgan.

11.5-jadval

Yetakchi valyutalarning jahon valyuta bozori operatsiyalaridagi ulushi¹¹⁸ (foizda)

| Valyuta | 1989 | 1992 | 1995 | 1998 | 2001 | 2004 | 2007 | 2010 | 2013 | 2016 | 2019 |
|-------------------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|
| USD | 90,0 | 82,0 | 83,0 | 87,0 | 90,4 | 88,7 | 86,3 | 85,0 | 87,0 | 88,0 | 88,0 |
| EURO | - | - | - | - | 37,6 | 36,9 | 37,0 | 39,0 | 33,0 | 31,0 | 32,0 |
| DEM | 27,0 | 40,0 | 8,0 | 5,0 | - | - | - | - | - | - | - |
| FRF | 2,0 | 4,0 | 8,0 | 5,0 | - | - | - | - | - | - | - |
| JPY | 27,0 | 23,0 | 24,0 | 22,0 | 22,7 | 20,2 | 16,5 | 19,0 | 23,0 | 22,0 | 17,0 |
| GBR | 15,0 | 14,0 | 10,0 | 9,0 | 13,2 | 16,9 | 15,0 | 13,0 | 12,0 | 13,0 | 13,0 |
| CHF | 10,0 | 9,0 | 7,0 | 7,0 | 6,1 | 6,0 | 6,8 | 6,0 | 5,0 | 5,0 | 5,0 |
| CAD | 1,0 | 3,0 | 3,0 | 4,0 | 4,5 | 4,2 | 4,2 | 5,0 | 5,0 | 5,0 | 5,0 |
| AUD | 2,0 | 2,0 | 3,0 | 3,0 | 4,2 | 5,9 | 6,7 | 8,0 | 9,0 | 7,0 | 7,0 |
| HKD | - | 1,1 | 0,9 | 1,0 | 2,3 | 1,9 | 2,8 | 2,0 | 1,0 | 2,0 | 4,0 |
| SGD | - | 0,3 | 0,3 | 1,0 | 1,1 | 1,0 | 1,2 | 1,0 | 1,0 | 2,0 | 2,0 |
| Boshqa valyutalar | 26,0 | 21,6 | 23,8 | 31,0 | 17,9 | 18,3 | 23,5 | 22,0 | 24,0 | 25,0 | 27,0 |

Hozirgi davrda xalqaro moliya tizimi va undagi muhitga sezilarli ta'sir etuvchi omillar bo'lib xalqaro kapital harakati, valyuta bozori holati va undagi operatsiyalarning dinamikasi hamda mazkur omillarni harakatga keltirishda asosiy rol o'ynovchi TMKlar faoliyati namoyon bo'lmoqda. Chunki TMKlarning xalqaro investitsiya va valyuta bozoridagi ishtirokining faolligi, ularning jahondagi investitsion munosabatlar va xalqaro valyuta operatsiyalari holatiga, shu asosda xalqaro moliya tizimiga keskin ta'sir etish qobiliyatiga egaligini belgilab beradi.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti va bozorlari jiddiy omillar ta'siriga uchramoqda. Bular jumlasiga takrorlanuvchi va ta'sir doirasi keng bo'lgan moliyaviy va valyuta inqirozlari, rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy sektorning zaifligini; offshor moliyaviy markazlar sonining ko'payishi, xususiyl kapital hajmiga nisbatan rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy yordam ko'rsatishda xalqaro

moliya institutlari imkoniyatlarining cheklanganligi, investitsiya institutlari, moliyaviy vositalar va operatsiyalar hajmining ko‘payishi kabilarni kiritish mumkin. Mazkur omillar xalqaro moliya tizimini isloh qilish zaruratini ko‘rsatmoqda¹¹⁹.

Qayd etish joizki, bir qator yetakchi iqtisodchi olimlar va ekspertlar tomonidan yaqin yillarda jahonda moliyaviy inqiroz sodir bo‘lishi prognoz qilinmoqda. Chunki keyingi davrda jahon moliyaviy kon’yunkturasi, jahon savdosi va dunyo ishlab chiqarish hajmi hamda yetakchi moliyaviy markazlar, shuningdek, xalqaro valyuta tizimida keskin o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda.

Mazkur holatni jahondagi yetakchi xalqaro moliya institutlari ham tasdiqlamoqda. Jumladan, Jahon banki joriy yilda jahon savdosi o‘shish sur‘atlari 2,6 foizdan 1,5 foizgacha pasayish prognozini keltirdi, XVF esa iqtisodiy inqirozning 2008 yildagiga qaraganda yanada keskin bo‘lishini taxmin qilmoqda. XVF hisobiga ko‘ra, joriy yil oxiriga qadar global YaIM 0,8 foizga yoki 700 milliard dollargacha kamayadi. Natijada esa dunyo mamlakatlarining 90 foizida iqtisodiy o‘shish sur‘ati pasayadi va oxirgi o‘n yil ichidagi eng yomon holat aks etadi. Bunga qator omillar, jumladan, yetakchi mamlakatlarning savdo urushlari yo‘lida boj to‘lov miqdorlarining oshirilishi, turli xil sanksiyalarning qo‘llanilishi, uglevodorodlarga talab va narxlarning keskin pasayishi hamda yirik fond bozorlaridagi “pufaklar”ning shakllanishi kabilar ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, yetakchi valyutalarning ham xalqaro qiymatini keskin tushib ketishi va natijada mamlakatlarning xalqaro likvidligiga salbiy ta’sir etishi qayd etilmoqda.

XVF ekspertlari qayd etishicha, jiddiy retsessiya bo‘lsa, defolt xavfi bilan bog‘liq korporativ qarz hajmi 19 trillion AQSh dollariga yoki sakkizta yetakchi iqtisoddagi jami qarzning qariyb 40 foiziga yetadi. Bu moliyaviy inqiroz davrida kuzatilgan darajadan birmuncha yuqoridir.

Savdo urushlarini to‘xtatish va ilg‘or IT-texnologiyalar asosida tovarlar va xizmatlar almashishning yangi, yanada ishonchli va zamonaviy global tizimni yaratish global iqtisodiyotni sog‘lomlash-tirishning yagona yo‘li hisoblanadi. Shu bilan birga yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan inqirozli holatga, uning salbiy ta’sirlariga bardosh bera oladigan moliya tizimini shakllantirish, mamlakatlar moliya

tizimida yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan inqirozli holatlarning oldini olish hamda ularning ta’sir doirasini kamaytirish lozim. Shuningdek, xalqaro moliya tizimidagi harakatlar hamjihatligini ta’minlash, moliyaviy operatsiyalarni xalqaro darajada tartibga solishning ta’sirchanligini oshirish zarur. Hozirgi vaqtda jahon hamjamiyati xalqaro moliya tizimini global tartibga solish jarayonini isloh etishning ikkita variantini tavsiya etmoqda:

- 1) global tartibga solish institutining tashkil etilishi;
- 2) moliya bozorini tartibga solish bo‘yicha xalqaro institutlar faoliyatini global darajada muvofiqlashtirilishi.

Global tartibga solish instituti faoliyatining tashkil etishdagi asosiy muammolardan biri jahon mamlakatlari milliy moliya tizimining rivojlanish darajasidagi farqlanishlar hisoblanadi¹²⁰.

Shuningdek, bu jarayonda quyidagilarni ham inobatga olish maqsadga muvofiq:

– kriptovalyutalar bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishning asosiy qoidalarini ishlab chiqish;

– kriptoaaktivlar bozori faoliyatini tartibga solish mexanizmini yaratish;

– jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish bo‘yicha qoidalarni inobatga olgan holda moliya bozorlari faoliyati qoidalarini joriy etish;

– ayrim davlatlarning gegemonligi va valyuta munosabatlaridagi “shantaji” va “sanksion ustunligini” oldini olishga qaratilgan qat’iy qoidalarni ishlab chiqish hamda bu jarayonda xalqaro moliya institutlari rolini oshirish lozim.

Shunday qilib, xalqaro moliya tashkilotlari o‘rtasidagi o‘zaro xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish istiqbolli jarayon bo‘lib, ular faoliyatini o‘zaro muvofiqlashtirish va uyg‘unlashtirishda muhim o‘rin tutadi.

11.4. Globallashuv sharoitida rivojlanayotgan mamlakatlar davlat moliyasi va moliyaviy tizimdagi islohotlarning yo‘nalishlari

Globallashuv jarayonlari jahon xo‘jaligida ishtirok etuvchi har bir mamlakat iqtisodiyotiga ma’lum miqdorda ta’sir etadi. Bozorning turli ishtirokchilari o‘z manfaatlarini yo‘lida harakat qilib, zanjirsimon jarayonni vujudga keltiradilar. Ularning faoliyat yuritish uslubi doimiy tarzda o‘zgarib turishi sababli jahon xo‘jaligi sohalarining bir-biriga bog‘liqlik darajasi oshib bormoqda. Georg Fisherning ta’kidlashicha, jahon xo‘jaligida global o‘zgarishlar tarqalishining texnik mexanizmi mavjud.

Bunga “Buyuk depressiya” misol bo‘lib, inqiroz bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko‘pincha zanjirsimon shaklda tarqalgan: bozorning pasayishi – kapitalning boy berilishi – talabning qisqarishi, ishlab chiqarishni qisqartirish – davlat tomonidan import qiluvchilarga nisbatan bojxona to‘siqlarining o‘rnatilishi – xalqaro savdo kamayishi – savdo-sotiq bo‘yicha hamkor mamlakatlarda ishlab chiqarishning pasayishi – tovar sifatini pasaytiruvchi bojxona to‘siqlarining o‘rnatilishi va hokazo¹⁰⁰.

Globallashuv sharoitida bu kabi jarayonlarning sodir bo‘lishi shubhasiz, o‘tish iqtisodiyotili mamlakatlarda tegishli iqtisodiy siyosatni olib borilishini taqozo etadi. Bu vaqtda iqtisodiy siyosatning vazifasi nafaqat jahon ho‘jaligi jarayonlarida ishtirok etishdan olinadigan nafni maksimallashtirish, balki ushbu vaziyatda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan xavfni minimallashtirishdan ham iboratdir.

Har bir davlatning yillar davomida shakllangan o‘z tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy- madaniy rivojlanish xususiyatlari mavjud bo‘lib, boshqa mamlakatlarning tajribalarini ko‘r-ko‘rona ko‘chirib olish yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etiladigan, iqtisodiy rivojlanishning hamma uchun umumiy retseptlarini qo‘llash samarasiz bo‘lishi va iqtisodiy vaziyatni izdan chiqarishi mumkin.

Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlar ham globallashuv jarayonida munosib siyosat yuritish ustida bosh qotirib, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini oshirishning turli chora-tadbirlarini ishlab

¹⁰⁰ Г.Фишер. Глобализация мирохозяйственных связей: сущность, направления, перспективы. Автореферат докторской диссертации. – М.: 2000. – С.12

chiqadi. Globallashuv sharoitida amalga oshiriladigan vazifalarning bozor tamoyillariga qat'iy amal qilishi muhim ahamiyatga ega.

Globallashuv sharoitida xususiylashtirish va unga xos mulkchilikning milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishdagi o'rni tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'z daromadini maksimalashtirishdan manfaatdor mulkdorlar sinfining shakllanishi iqtisodiyotda raqobat muhitini yaratish, tovarlar sifatini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda eng muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Resurslarning mutanosib ravishda taqsimlanishi, ishlab chiqarish vositalaridan eng samarali va tejamkor holda foydalanilishi mulkchilikka xos xususiyatlardandir.

Xususiylashtirishni rivojlantirishga to'siq bo'lib hisoblangan muammolardan biri bu – moliyaviy tizimga ishonchsizlik oqibatida fond bozorining to'laqonli ravishda shakllanmay qolishi, korxonalarining rentabellik darajasining pastligi va qimmatli qog'ozlar egalari-da haqiqiy mulkchilik hissining yo'qligidir. Makrodarajadagi moliyaviy barqarorlik (budjet tanqisligining qisqarishi, foiz stavkalari real qiymatining ijobiy o'zgarishi, inflyatsiya darajasining pasayishi), ishlab chiqarish likvidlik darajasining oshishi, sohalarda tarkibiy jihatdan qayta tashkillashtirish natijasida korxonalar moliyaviy ahvolidan yaxshilanishi hamda investitsiyalar samaradorligining o'sishi ko'p jihatdan investitsion faollikning oshishi va xususiylashtirishni rivojlantirishning eng muhim omili bo'lib hisoblanadi.

Globallashuv sharoitida monetar siyosat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojida muhim o'rin egallaydi. To'g'ri monetar siyosat makroiqtisodiy barqarorlikni, bank tizimiga ishonch oshishini, moliya bozorlarining kengayishi va mustahkamlanishi, qulay investitsion muhit vujudga kelishi va mamlakatga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishini ta'minlaydi. Shubhasiz, bu jarayonlar iqtisodiyotni qayta qurish jarayonlarini tezlashtirib milliy xo'jalik tizimining raqobatbardoshlik darajasini oshiradi. Natijada mamlakatning globallashuv jarayonlarida faol ishtirok etish evaziga katta yutuqlarga erishishi ta'minlanadi.

Ta'kidlash joizki, globallashuv sharoitida barqaror pul bozorining shakllanishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u markaziy bankning

maqbul hamda har tomonlama ishonchli va samarali pul-kredit siyosatini olib borishni ta'minlaydi¹⁰¹.

Banklar tomonidan belgilangan foiz stavkalari va olib borilayotgan valyuta siyosatining ko'p tomonlama iqtisodiy rivojlanishini ta'minlab beradi. Masalan, foiz stavkasining haddan tashqari ko'tarilib ketishi bank daromadlarining kamayishi, buning natijasida kredit operatsiyalari miqdorining keskin kamayishiga olib keladi. Valyuta kursini boshqarish natijasida monetar siyosatda qattiq shartlarning vujudga kelishi ichki aktivlar narxlarining bir xil holatini ta'minlasa, shu vaqtning o'zida kelajakda valyuta kursining pasayishida xavfli hisoblangan tashqi qarzning oshishiga sabab bo'ladi.

Rivojlangan va ma'lum muvozanatga ega moliyaviy tizim globallashtirish sharoitida muhim ahamiyat kasb etuvchi iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan qayta qurilishi va milliy xo'jaliklarning raqobatbardoshlik darajasining oshishida iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini kengaytiradi, jamg'arishning samarali tarzda investitsiyaga aylantirilishini ta'minlaydi.

Hukumat tomonidan hisob-kitob yuritish va uni boshqarishning to'g'ri hamda huquqiy tizimini ta'minlanishi samarali faoliyat yurituvchi moliyaviy tizimga asos soladi.

Moliyaviy tizimning erkinlashtirilishi natijasida uning ko'zlangan maqsadga erishishi bir necha shartlarga bog'liq. Bu kabi shartlar moliyaviy tizimni erkinlashtirgunga qadar amalga oshiriladigan vazifalar bo'lib, makroiqtisodiy va institutsional islohot olib borish hamda umumiy barqarorlikni ta'minlash ular sirasiga kiradi.

Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida islohot olib bormasdan turib moliyaviy tizimni erkinlashtirib bo'lmaydi. Aks holda, maqsadga muvofiq bo'lmagan kapital harakati, foiz stavkalarining oshib ketishi hamda moliyaviy korporatsiyalarning qisqa vaqt ichida tushkun ahvolga uchrashiga sabab bo'ladi.

Globallashtirish sharoitida mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishi ko'p jihatdan moliyaviy siyosatga bog'liq. Erkin moliyaviy siyosat bozor mexanizmlarini qanchalik ishga solsa, global raqobat uning vazifasi nechog'liq murakkab ekanligini ko'rsatadi. Bunday

¹⁰¹ Г.Фишер. Глобализация мирохозяйственных связей: сущность, направления, перспективы. Автореферат докторской диссертации. – М.: 2000.

vaziyatda tashqi va ichki o'zgarishlarga mos valyuta siyosatini yuritish ma'quldir.

Marshal-Lerner teoremasiga ko'ra, eksport-import va tashqi qarzga xizmat ko'rsatishda valyuta kursining munosib ravishda optimal tanlanishi mamlakat manfaatlaridan holi emas. Globallashuv sharoitida jahon xo'jaligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishga qodir mamlakat va mintaqalardagi vaziyatni doimiy tarzda o'rganib turish mamlakat moliyaviy tizimiga mas'ul rahbarlarning eng muhimli vazifasidir. Moliyaviy tizimni erkinlashtirish jarayonlari to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan banklar va korxonalarda tarkibiy o'zgartirishlar olib borish, iqtisodiyotda huquqiy va raqobatbardosh muhit yaratish hamda maqsadga muvofiq bo'lgan boshqaruv va nazorat tizimini birgalikda olib borilishi islohotlardan ko'zlangan maqsadga erishishni kafolatlaydi.

Globallashuv sharoitida yuqori soliq to'lovlari nafaqat milliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining raqobatbardoshlik darajasini pasaytiradi, daromadlarning yashirilishi va noqonuniy iqtisodiyotning shakllanishi, ishlab chiqarish va eksportning diversifikatsiyalashuv jarayonini susaytiradi, balki kapital va malakali ishchi kuchining chetga chiqib ketishiga ham olib keladi. Ushbu muammolarning ijobiy hal qilinishi fiskal siyosat olib borishning qay darajada optimal ekanligiga ham bog'liq. Ma'lumki, soliq tizimi to'lov va imtiyozlar yordamida siyosat olib borish va shu yo'l bilan iqtisodiy taraqqiyotga rahnamolik qilish xususiyatiga ega.

Erkin raqobat muhiti va huquqiy asoslangan xo'jalik tizimini yaratish uchun soliqlar miqdori va imtiyozlar shunday belgilanishi kerakki, u sohalarga mutanosib ravishda taqsimlansin. Buning uchun sohalar orasida to'g'ri solishtirma tahlil olib borilib, ularning qay birida soliq miqdori oshirilishi evaziga boshqa sohalarga imtiyoz ajratilishi samarali ekanligi aniqlanadi. Shu tarzda globallashuv jarayonlarining mamlakat iqtisodiyotiga o'tkazayotgan ta'siri kuchayib borayotgan bir paytda soliq tizimi fiskal siyosat vazifasini emas, balki rag'batlantiruvchi omil vazifasini o'tashi zarur. To'lovlarning pasaytirilishi va soliqqa tortish tizimining soddalashtirilishi mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshlik darajasini oshirishga xizmat qilishi talab etiladi.

Globalashuv sharoitida faol investitsiya siyosati hamda qulay investitsion muhitni yaratish iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishlab chiqarish va eksportning diversifikatsiyalash orqali milliy iqtisodiyotning jahon xomashyo bozorining beqaror kon'yunkturasiga bog'liqlik darajasini pasaytiruvchi va aholi daromadlarini oshishini ta'minlovchi muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Jamg'arish va investitsiyalarning me'yorini milliy iqtisodiyotning uzoq kelajakdagi raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omil bo'lib borayotganligi sababli uning o'rnini va ahamiyatini aniqlash o'ta mushkuldir. Qolaversa, investitsiya siyosati iqtisodiyotning boshqa vositalari orasida eng murakkab hisoblanadi. Chunki investitsiya siyosatini olib borish iqtisodiy siyosat yuritishning boshqa vositalariga qaraganda to'laqonli ravishda mamlakat ixtiyorida mavjud resurslarga bog'liq. Ushbu resurslar bo'lmasa investitsiya ham bo'lmaydi. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida investitsiyalarga bo'lgan talab yuqori bo'lib, u iqtisodiy taraqqiyot mezonini sifatida o'rganiladi. Ushbu sohadagi siyosat resurslarning mamlakat qiyosiy afzalliklariga ega yoki ustuvorlikka erishish mumkin bo'lgan sohalarga o'tib borishini ta'minlash, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartirishlarni olib borishga yo'naltirilishi zarur. Shuningdek, jamg'arishni rag'batlantiruvchi qulay investitsion muhitni yaratish hamda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilishi kerak. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotning turli tarmoqlari – soliq-budjet, pul-kredit va tashqi iqtisodiy sohalarda kompleks tadbirlar olib borishni taqozo etadi.

O'tgan 50 yillik muddat jahon iqtisodiyotida muhim globalashuv jarayonlari yuz berganligi bilan ajralib turadi. Milliy xo'jaliklarning jahon iqtisodiyotiga tobora integratsiyalashib borishi xalqaro resurslar harakatining hajmlari va xarakteriga ta'sir qilish darajasiga chiqib bormoqda. Xalqaro savdoning yanada kengayishi imkoniyatlari, faqatgina xalqaro kelishuvlarni moliyalashtiruvchi bank sektori imkoniyatlari bilangina chegaralanib qolmoqda. Jahon moliya bozorlarining o'sishi, ular raqobatbardoshligining oshishi va faoliyat doiralarining kengayishi daromad darajasi past bo'lgan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashishiga imkoniyat yaratadi. Jiddiy moliyaviy muammolar domiga tushib qolgan (investitsiyalar va asbob-uskunalar, xomashyo, ehtiyot qismlar importi hajmining

chegaralanganligi, shuningdek, ular tomonidan tuzilgan savdo shartnomalariga ishonchning pastligi) rivojlanayotgan mamlakatlar kengayib borayotgan jahon moliya bozorlarida qatnashishni faollashtirgan holda rivojlanishning yangi imkoniyatlarini ochishi va iqtisodiy muammolarni hal qilishda tanlov va qarorlar xilma-xilligini oshirishi mumkin.

Lekin hozirgi davrda hanuzgacha rivojlanayotgan mamlakatlar xalqaro bozorlar globallashtirishdan yutadimi yoki yo'qmi aniq emas. Qator sabablar tufayli rivojlanayotgan davlatlarning jahon iqtisodiyotida to'laqonli qatnashish imkoniyatlari hali mavjud emas. Milliy bozorlar tobora ochiqlashib borayotgan bir paytda jahon bozorlariga chiqish hali ham qiyin bo'lib qolmoqda. Hatto globallashtirish jarayonlarida bevosita qatnashib kelayotgan rivojlanayotgan davlatlar uchun ham uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari umuman noaniqdir. Hozirgi davrda moliyaviy mablag'larni yer sharining istalgan nuqtasiga o'tkazish deyarli bir zumda amalga oshirilishi mumkin. Boshqa tarafdin esa, moliyaviy bozorlarning beqarorligi bilan bog'liq risklar oshib bormoqda, yuqori texnologiyalardan foydalanmaydigan ishlab chiqaruvchilar uchun jahon bozoriga chiqish qiyinlashib bormoqda.

11.5. O'zbekiston Respublikasi moliya bozori holati, rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan davridan boshlab iqtisodiy mustaqillikning asosiy omili hisoblangan milliy moliya bozorini to'laqonli shakllantirish va rivojlantirish borasida uzluksiz harakat qilib kelmoqda.

Milliy moliya bozori uning uch asosiy tarkibi hisoblangan bank tizimi, sug'urta bozori hamda kapital bozorini shakllantirish, ularda bozor munosabatlarining amal qilishini ta'minlash hamda global moliyaviy tizimga integratsiyalashuv yo'nalishidagi faoliyat asosida rivojlanib bormoqda.

So'nggi yillarda milliy moliya bozoridagi o'zgarishlar milliy moliya tizimining tez sur'atlarda xalqaro standartlarga yaqinlashib borayotganligini ko'rsatmoqda. Bugungi kunga kelib mamlakatimiz moliya bozorining xar bir tarkibiy qismi zaruriy elementlarga to'liq ega bo'ldi va tizim sifatida shakllandi.

Mustaqillikning dastlabki 25 yili davomida milliy moliya bozorini rivojlantirish bilan bog‘liq harakatlar ushbu bozorning zaruriy elementlarini shakllantirish, ularni bir-biri bilan bog‘langan tizimga aylantirish yo‘nalishida amalga oshirilgan bo‘lsa, so‘nggi davrlardagi moliyaviy islohotlarning asosiy yo‘nalishi shakllangan moliyaviy bozorlarning bozor qonuniyatlari asosida to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishi, milliy moliya bozorlarining xalqaro va global moliya bozorlariga integratsiyalashuvini ta‘minlashni ko‘zda tutadi.

Quyida O‘zbekiston Respublikasi moliya bozorining alohida tarkibiy qismlari bo‘yicha holati, rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari ko‘rib chiqaylik.

Mamlakatimizda bugungi kunda milliy bank tizimi to‘liq shakllangan bo‘lib, hozirda 30 dan ortiq xususiy, davlat kapitali ishtirokidagi va xorijiy banklar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Milliy bank tizimi mavjud aktivlar hajmi jihatidan rivojlangan mamlakatlardan ancha ortda qolmoqda. Iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadlariga erishish uchun ushbu aktivlarni sezilarli darajada oshirish kerak bo‘ladi. 2017 yil davomida aktivlarning umumiy o‘shish darajasi valyuta kursining 60 %ga devalvatsiyalashuvi va valyuta aktivlarining proporsional o‘shishi hisobiga 98 %ni tashkil etdi.

Davlatga qarashli banklar kapital va kredit portfeli nuqtai nazaridan ustunlik qiladi, ammo bu holat rivojlanayotgan iqtisodiyot uchun maqbuldir. Chunki bu kredit oqimlarini iqtisodiyotning strategik muhim sohalariga yo‘naltirish imkonini beradi.

Milliy bank tizimiga nisbatan aholi o‘rtasida ishonch darajasi nisbatan past bo‘lib, u bank tizimining rivojlanish sur‘atlarini sekinlashtiradi va iqtisodiyot yashirin sektorining saqlanib qolishiga hissa qo‘shadi.

Bugungi kunda bank tizimidagi asosiy muammolarni umumlashgan holda quyidagicha ifodalash mumkin:

- iqtisodiyotning strategik jihatdan muhim sohalariga moliyalashtirishni o‘tkazishning samarasiz mexanizmlari amal qilinayotganligi;
- bank xizmatlari turlarining iqtisodiyotning turli tarmoq va sohaları talablariga to‘liq javob bermasligi;
- bank sektorining yaxlit iqtisodiyotdagi ulushi kichikligi (jahon reytingida 86-o‘rin);
- qarz kapitalining yuqori qiymati (yiliga 23 %dan ortiq);

- moliyaviy tizimga aholi ishonchining pastligi (60 %dan kam);
- bozor jarayonlari, xalqaro hisob-kitob tizimlari va muvofiqlik amaliyotlarining past darajasi;
- xalqaro investorlar ishonch darajasining yuqori emasligi;
- bank xizmatlari sohasida raqobatning to‘laqonli shakllanmaganligi va protsessing xizmatlari bozorining yopiqligi;
- moliyaviy xizmatlar bozorida raqobat va monopoliyaga qarshi tartibga solish mexanizmlarining ishlab chiqilmaganligi, qayta ishlash xizmatlari uchun bozorning yopiqligi;
- xalqaro moliyaviy bozorlar bilan integratsiyalashning past darajada ekanligi.

11.6-jadval

YaIM foizlarida bank aktivlarining nisbati va jahon reytingidagi o‘rni¹⁰²

| Mamlakatlar | Jahon reytingidagi o‘rni | YaIM foizlarida bank aktivlarining nisbati,% |
|-----------------|--------------------------|--|
| Lyuksemburg | 1 | 1550 |
| Buyuk Britaniya | 3 | 490 |
| Gollandiya | 6 | 385 |
| O‘zbekiston | 81 | 65 |
| Qozog‘iston | 117 | 41 |
| Ozarbayjon | 122 | 36 |
| Qirg‘iziston | 125 | 32 |
| Tojikiston | 132 | 28 |

Yalpi ichki mahsulotga nisbatan bank aktivlarining ulushi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi jahon reytingida 81-o‘rinni egallab, yalpi ichki mahsulotga nisbatan bank aktivlarining ulushi 65 %dan ortiqroqni tashkil etadi (11.6-jadval).

2017 yil davomida tijorat banklarining jami aktivlari 82,6 trillion so‘mga yoki 98,2 % ga o‘sdi (2016 yilda – 29 %) va 2018 yil 1 yanvar

¹⁰² O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi. UZBEKISTAN 2035. Buyuk kelajak. 2018 y. – 260 b.

holatiga ko‘ra, 166,6 trillion so‘mni, mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmi 249,13 trillion so‘mni tashkil etdi.

Shu bilan birga, jami aktivlarning umumiy o‘sishi 64 %ni tashkil etdi (52,8 trillion so‘m), bu milliy valyuta kursining keskin pasayishi oqibatida yuzaga keldi. Ushbu omil ta’siri ostida bank aktivlarining yalpi ichki mahsulotga nisbati 2017 yil oxiriga kelib 67 %gacha (2016 yilda – 42,2 %) oshdi.

Milliy moliyaviy xizmatlar bozori hajmi 2014 yilgacha barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, 2015 yilda bu ko‘rsatkichning deyarli 3 marta pasayishi kuzatiladi. Biroq 2016 yildan boshlangan o‘shish 2017 yilda 2014 yilgi darajadan ham ortib ketadi (11.7-jadval).

11.7-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi moliyaviy xizmatlar bozorining hajmi¹⁰³

| Ko‘rsatkichlar | Yillar | | | | |
|--------------------------|---------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
| | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 |
| Ayirboshlash kursi, so‘m | 2022 | 2222 | 2500 | 2703 | 5333 |
| Bozor hajmi, mlrd so‘m | 73293 | 90865 | 34458 | 54277 | 113053 |

Yuqorida ko‘rib chiqilgan umumiy tendensiyalar ta’sirida milliy bank xizmatlari tizimida faoliyat olib borayotgan banklarning umumiy va alohida samaradorlik ko‘rsatkichlari ham o‘zgarib bormoqda.

2017 va 2018 yillarda bank tizimining aksariyat samaradorlik ko‘rsatkichlari ortgan bo‘lsa-da (kapital yetarlilik ko‘rsatkichlari–14,7 %dan 18,8 %ga, kapital barqarorligi ko‘rsatkichlari – 10,7 %dan 12,4 %ga, moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlari – 41,5 %dan 42,5 %ga, foizsiz daromad - 239,9 mlrd. so‘mdan 836,5 mlrd. so‘mga, sof foyda – 1152,8 mlrd. so‘mdan 1881,0 mlrd so‘mga), ayrim asosiy ko‘rsatkichlarning yil davomida pasayishi (moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlari – 39,5 %dan 32,5 %ga, likvidlilik stavkalari – 25,4 %dan 23,6 %ga, soliqqa tortishdan oldingi sof foydaning jami aktivlarga nisbati ROA – 2,0 %dan 1,87 %ga, soliq to‘lashdan oldingi

¹⁰³ O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi. UZBEKISTAN 2035. Buyuk kelajak. 2018 y. – 260 b.

sof foydaning umumiy kapitalga nisbati ROE–17,95 % dan 17,13 % ga) kuzatiladi¹⁰⁴.

Milliy bank tizimida moliyaviy xizmatlar hajmini keskin oshirishning asosiy omili sifatida E-banking tizimining joriy etilishi qaraladi. Ushbu tizim yordamida xususiy tijorat banklari va boshqa moliyaviy institutlar aholining moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini kengroq qamrab oladi, rivojlantirish institutlari va xususiy investorlar davlat loyihalarini moliyalashtiradi.

Masofaviy bank xizmatlarining joriy etilishi bilan quyidagi afzalliklarga erishiladi:

- moliyaviy xizmat infratuzilmasi yangilanadi;
- zamonaviy bank amaliyoti va mezonlari, shu jumladan, IT tizimlari joriy etiladi;
- raqamli bankingga o‘tish va ushbu tizimda avvaldan mavjud xizmatlar turlarini saqlab qolish;
- yagona to‘lov tizimida bank emitentlarining plastik (debet yoki kredit) kartalarini aniqlash va ulardan foydalanish;
- bank sektori to‘liq liberallasadi;
- davlat faqat nazorat va tartibga solish funksiyalarini saqlab qoladi.

Bank tizimini yanada rivojlantirishga raqamli innovatsiyalar, ma’lumotlarni tahlil qilish va masofadan xizmat ko‘rsatish asosida erishiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasida milliy bank tizimini ushbu yo‘nalishda isloh qilish 2025 yilgacha bo‘lgan davrda ikki bosqichli jarayon asosida amalga oshirilishi belgilangan:

Birinchi bosqich (2020 yilgacha)da bank ilovalarini amaliyotga kiritish, mijozlarni ulash, qo‘llab-quvvatlash xizmatini shakllantirish, kardrider va mobil terminallar tizimini kiritish, R2R hisob-kitoblarini yuritish, to‘lovlarni fiskallashtirish, fiskal ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlash jarayonlarini to‘liq amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Ikkinchi bosqich (2025 yilgacha)da esa SXX uchun tovarlarni hisobga olish va portal, tranzaksiyalarni boshqarish, mobil bank krip-

¹⁰⁴ O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi. UZBEKISTAN 2035. Buyuk kelajak. 2018 y. – 260 b.

tografik identifikatorlari, tegishli xizmatlarning banklar raqamli platformalariga integratsiyalashuvi, aniq B2B, B2C tezkor o'tkazmalarini joriy etish, ochiq API, bank biznesida masofadan identifikatsiya, sun'iy intellekt va mashinaga o'rgatish asosidagi xizmatlar, chakana savdo va telekom orqali moliyaviy xizmatlarni taqdim etish hamda jarayonga bir qator fiskal operatorlarni jalb etish jarayonini amalga oshirish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasida milliy bank tizimini isloh qilishda quyidagi asosiy strategik tashabbuslarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

2025 yilgacha bo'lgan davrda:

1. Korporativ boshqaruv mezonlarini takomillashtirish: direktorlar kengashi tarkibini mustaqil direktorlarning majburiy ishtiroki bilan standartlashtirish, rais almashuvi, rais va bosh ijrochi direktor vazifalarini aniq ajratish.

2. Chakana mijozlar, YaTT va o'rta korxonalarining ehtiyojlarini to'liq aks ettirish uchun mahsulot portfelini rivojlantirish.

3. Import-eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash xizmat turlarini kengaytirish.

4. Xalqaro hisobot mezonlariga moslashish.

5. Raqamli bankingni rivojlantirish, asraydigan texnologiyalar (LEAN) va omnikal banking sohalarida xizmatlar ko'rsatishni yaxshilash hisobiga chekka hududlarga bank xizmatlari penetratsiyasini oshirish.

6. Bank sohasida tartibga solish va nazorat qilishning xalqaro standartlariga moslashish, shu jumladan, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish uchun Big Data tizimini joriy etish.

7. Dunyoning yetakchi bank uyushmalariga a'zo bo'lish.

8. Bank sohasini monitoring qiluvchi nazorat idoralari vazifalarini aniq taqsimlash.

9. Moliyaviy tartibga soluvchi tarkibida AML/CTF tartibga soluvchisini yaratish.

10. Raqamli mehnat sohasida **Middle office** va **Back office** ni to'liq avtomatlashtirish;

11. Mamlakatda yagona mijozlar bazasini yaratish.

12. Fuqarolarning omonatlarini sug'urtalashning samarali tizimini yaratish.

2030 yilgacha bo‘lgan davrda:

1. Bank jarayonlarini maqbullashtirish, jarayonlarni qisman avtomatlashtirish orqali CIRni 40% ga pasaytirish.

2. Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish va o‘stirish uchun investitsion inkubatorlar va akseleratorlarni yaratish.

3. Mobil bank kriptografik identifikator texnologiyalarini va ko‘chma portativ platformalarni joriy etish.

4. Qo‘shimcha xizmatlarning banklar raqamli platformalariga integratsiyalashuvi.

5. O‘zaro aloqador xizmatlarning integratsiyalashuviga, hamkorlikning vositachilik haqi olinadigan tizimlarini rivojlantirishga yordam beradigan bank ekotizimlarini yaratish.

6. Past qiymatli banknotlarni chiqarishni bosqichma-bosqich to‘xtatish.

7. Portativ qurilmalar yordamida kontaktsiz to‘lov tizimlarini rivojlantirish.

8. Bank sektorida tartibga solish va nazoratning xalqaro standartlariga moslashish va monitoring qilish.

2035 yilgacha bo‘lgan davrda:

1. Naqd pul aylanishini qisqartirish, naqd pulsiz to‘lov vositalariga to‘liq o‘tish.

2. Bank dasturlarini shaxsiy raqamli qurilma bilan integratsiyalash.

3. O‘zaro investitsiyalar va kreditlash mexanizmlarini rivojlantirish.

4. Likvidlikni joylashtirish tizimlarini yaratish va bank mahsulotlari bilan integratsiyalash.

5. Bank, sug‘urta va investitsion-jamg‘arma mahsulotlarini “yagona darcha”ga integratsiyalash.

6. Mahsulot sotish modelidan xaridorning hayot tarzini kuzatish va uning dolzarb moliyaviy ehtiyojlari modeliga o‘tish.

7. Korporativ boshqaruv mezonlarini tekshirish.

8. Bank sektorida tartibga solish va nazoratning xalqaro standartlariga moslashish va monitoring qilish.

Sug‘urta va pensiya tizimi O‘zbekiston moliya bozorining ikkinchi tarkibiy qismi hisoblanib, bugungi kunda bu sohada sug‘urta bozorining elementlari yetarli shakllanmagan. Shu sababli mamlakatimizda

sugʻurta bozorining faoliyati moliyaviy sektorning juda kichik segmentini tashkil etadi. 2017 yilda mamlakatimiz sugʻurta bozori faoliyati hajmi 0,11 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan boʻlib, sugʻurta bozori faoliyati hajmining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 0,4 %ni tashkil etgan. Milliy sugʻurta bozori faoliyati natijalarini ayrim mamlakatlarning ushbu sohadagi faoliyatiga taqqoslash ham sugʻurta tizimining moliya bozoridagi faoliyat koʻlami juda pastligini koʻrsatadi (11.8-jadval).

11.8-jadval

Ayrim dunyo mamlakatlarining sugʻurta tizimi faoliyati koʻrsatkichlari¹⁰⁵

| Mamlakatlar | YaIMdagi ulushi, % | Hajmi, mlrd. AQSh dollari |
|----------------|--------------------|---------------------------|
| Oʻzbekiston | 0,4 | 0,11 |
| Gruziya | 1,2 | 0,17 |
| Ozarbayjon | 0,8 | 0,32 |
| Qozogʻiston | 0,8 | 1,11 |
| Rossiya | 1,4 | 21,59 |
| Braziliya | 2,8 | 50,50 |
| Janubiy Koreya | 12,1 | 170,80 |

Oʻzbekistonda sugʻurta bozori holati umumiy sugʻurta tizimi yaxshi rivojlanmaganligini, uning rivojlanishi uchun mamlakatda katta imkoniyatlar mavjudligini koʻrsatadi. Koʻrsatkichlar orasida Oʻzbekiston YaIMga nisbatan eng kichik sugʻurta portfeliga egadir, sugʻurta tizimining YaIMga nisbatan hajmi Janubiy Koreyaga nisbatan 30 baravar kam.

Sugʻurta mukofotlari portfelining soʻmdagi qiymati, ayniqsa, 2015 yildan boshlab, yuqori surʼatlarda oʻsib bormoqda. Sugʻurta kompaniyalari toʻlovlaridagi sugʻurta mukofotlari sezilarli darajada oshishi, yangi loyihalar ishlab chiqilishi sugʻurta xizmatlari bozorida yangi ishtirokchilarning paydo boʻlishiga olib keladi (11.9-jadval).

¹⁰⁵ Oʻzbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi. UZBEKISTAN 2035.

11.9-jadval

O‘zbekistonda sug‘urta mukofotlari va to‘lovlarining o‘shish dinamikasi¹⁰⁶

| Ko‘rsatkichlar | Yillar | | | | |
|-----------------------|--------|------|------|------|------|
| | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 |
| Mukofotlar, mlrd so‘m | 338 | 439 | 516 | 693 | 927 |
| To‘lovlar, mlrd so‘m | 67 | 75 | 111 | 131 | 270 |

Sug‘urta kompaniyalari investitsiya portfelining hajmi to‘plangan mukofotlarni oshirish hisobiga jadal sur‘atlar bilan o‘shib bormoqda. 2017 yilda milliy valyutaning AQSh dollariga nisbatan zaiflashishi munosabati bilan investitsiyalarning keskin o‘shishi kuzatildi (11.10-jadval).

11.10-jadval.

Sug‘urtalovchilar investitsiya hajmining o‘shish dinamikasi¹⁰⁷, mlrd. so‘m

| Ko‘rsatkichlar | Yillar | | | | |
|--------------------------------------|--------|------|------|-------|------|
| | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 |
| Sug‘urtalovchilar investitsiya hajmi | 338 | 439 | 516 | 693 | 927 |
| O‘shish, % | +43,6 | | | +96,1 | |

Sug‘urta sektorining investitsion tuzilmasi o‘rta darajada konservativ bo‘lib, yuqori darajadagi diversifikatsiyani ko‘rsatmoqda. Bank depozitlarining yuqori ulushi sug‘urta kompaniyalarining odatiy joylashtirilish tuzilmasiga xos emas, ammo mavjud bozor sharoitida O‘zbekiston Respublikasi oqilona variant bo‘lishi mumkin. Keyinchalik bank xizmatlari bozori normallasuvi va asosiy foiz stavkasining pasayishi tufayli sug‘urtalovchilar mablag‘larining katta qismi qimmatli qog‘ozlar bilan almashinishi mumkin.

¹⁰⁶ O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi. UZBEKISTAN 2035. Buyuk kelajak. 2018 y. – 284 b.

¹⁰⁷ O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi. UZBEKISTAN 2035.

Sug'urta tizimi rivojlanishining joriy darajasini o'rganish tizimda quyidagi asosiy muammolar mavjudligini ko'rsatadi:

- O'zbekiston sug'urta sektorining hajmi xalqaro ko'rsatkichlar bilan solishtirganda iqtisodiyot hajmiga mos kelmaydi;
- mamlakatda majburiy sug'urta darajasi ixtiyoriy sug'urta darajasiga nisbatan ancha past;
- sug'urta mahsulotlari qatori iqtisodiyotning hozirgi talablariga javob bermaydi: tibbiy sug'urta, hayot va sog'liq sug'urtasi kabi turdagi sug'urta turlari mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasida sug'urta va pensiya tizimini takomillashtirishda quyidagi natijalarga erishish ko'zda tutilgan:

- aholi, biznes va hukumatning umumiy xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan iqtisodiyot va jamiyatning asosiy yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlaydigan xususiy sug'urta tizimini joriy etish;
- majburiy tibbiy sug'urtani joriy qilish;
- ixtiyoriy va majburiy sug'urta nisbatlarini 4:1 nisbatga keltirish;
- sug'urta tizimining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2,8 % ga yetkazish;
- pensiya tizimini uch darajali – asosiy davlat pensiyasi, korporativ pensiya va individual pensiya tizim holatida qayta tashkil etish;
- pensiya tizimining yalpi ichki mahsulotdagi o'lchamini 7 % ga yetkazish;
- bir kishiga pensiya jamg'armasining o'rtacha hajmini 743 AQSh dollaridan 2510 AQSh dollarigacha oshirish;
- pensiya to'lovlarning umumiy tarkibida davlat pensiyasi ulushini 100 % dan 35 % gacha kamaytirish.

Kapital bozori bugungi kunda moliyaviy bozorning tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan tarkibiy qismi hisoblanadi. Kapital bozori- ning asosiy aylanmasi tizim sifatida shakllangan qimmatli qog'ozlar bozorida amalga oshadi.

O'zbekiston kompaniyalarining bozordagi kapitallashuvi rivojlanayotgan bozorlarga nisbatan yuqori, bunga banklar ulushi 60%ni tashkil qiladi. Bank aksiyalari eng ko'p savdoga qo'yilgan va aylanmalarning 86 foizini tashkil qiladi. Kapitalning kutilayotgan yuqori daromadi yuksak darajadagi risklari tufayli baland bo'lib, O'zbekiston Respublikasi investitsion salohiyatini sezilarli darajada

cheklaydi. Aksiyalar bo'yicha kutilayotgan daromadning yuqoriligi investorlar katta miqdorda kapitalni O'zbekiston bozoriga kiritishlari mone'lik qiladi.

Institutsional investorlar O'zbekiston korporativ sektorining qimmatli qog'ozlarini "investitsiya" sifati bilan solishtirganda yuqori rentabellikka ega bo'lgan "ekzotik" aktiv sifatida ushlab qoladi.

Korporativ sektorda investorlar bilan aloqaning rivojlanish darajasi juda past (IR – investor relations)ligi, birja portalida korporativ sektor haqida yetarli ma'lumotlarning yo'qligi bozorning faol rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

2017 yil boshida birja kotirovkasi varag'ida 191ta kompaniya mavjud edi. Bozor kapitalizatsiyasi nafaqat mutloq hajmda ortda qolmoqda, balki mamlakatning YaIMga nisbatan hajmi ko'p rivojlanayotgan bozorlardan ham kam (11.11-jadval).

11.11-jadval

**Ro'yxatga olingan kompaniyalarning bozor kapitalizatsiyasi¹⁰⁸,
YaIMga nisbatan %da**

| Davlatlar | Ro'yxatga olingan kompaniyalarning bozor kapitalizatsiyasi, % |
|--|--|
| O'zbekiston <i>- listing kompaniyalari soni</i> <i>- bozor kapitalizatsiyasi hajmi</i> | 5 % <i>171 ta</i> <i>1,8 mlrd AQSh dol.</i> |
| Ukraina | 11 % |
| Turkiya | 23 % |
| Qozog'iston | 35 % |
| Rossiya | 44 % |
| Misr Arab Respublikasi | 120 % |

Listing kompaniyalariga tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, neft-gaz sanoati korxonalarini, qurilish materiallarini ishlab chiqarish, agrosanoat kompleksi, energetika, metallurgiya korxonalarini va boshqalar kiradi. Aylanmaning eng katta qismini xorijiy investorlar tashkil

¹⁰⁸ O'zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi. UZBEKISTAN 2035. Buyuk kelajak. 2018 y. – 295 b.

etadi, chunki bozor o'sishi bilan ularning ulushi 80 foizga yetishi mumkin (misol - Janubiy Koreya).

O'zbekiston kapital bozoridagi holat tahlili ushbu tizimda quyidagi asosiy muammolar mavjudligini ko'rsatadi:

- O'zbekiston kompaniyalarining bozordagi kapitallashuvi juda past darajadali;

- bank tizimidan tashqari ishtirokchilarning baholanishi juda pastligi;

- rivojlangan kapital bozorlari bilan taqqoslaganda, xalqaro investorlar aylanma tarkibida nisbatan past ulushga egaligi;

- kapitalning kutilayotgan baland daromadi yuqori darajadagi mamlakat xavflar tufayli mamlakat investitsion salohiyatini sezilarli darajada cheklashi.

O'zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasida milliy kapital bozorlarini isloh qilishda quyidagi asosiy strategik tashabbuslarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

2025 yilgacha bo'lgan davrda:

1. Tartibga solish va nazorat qilishning xalqaro standartlarini moslashtirish, jumladan, korporativ boshqaruv, fondlar va kompaniyalar hisoboti standartlarini (shu jumladan, XMXS va XAS), mijozlarni tasniflash, ma'lumotlarni saqlash va oshkor qilish standartlari va boshqalar.

2. Professional bozor ishtirokchilari uchun axloq kodeksi va xatti-harakat standartlarini yaratish.

3. Kapital bozorida ishtirokchi davlatlarning jahon uyushmalariga, xususan, Osiyo va Yevropa nazorat va tartibga solish tashkilotiga kirishi.

4. Ichki qimmatli qog'ozlar bozorining jalb qiluvchanligini oshirish, IHHni joriy etish va jismoniy shaxslarga tegishli soliq imtiyozlarini taqdim etish.

5. Investitsiya sinfidagi davlat va korporativ yevroobligatsiyalarni, shuningdek, yuqori kredit reytingiga ega davlat qisqa muddatli obligatsiyalari va mahalliy valyutadagi obligatsiyalar hajmini oshirish.

6. Standartlashtirish va nazorat qilish bo'yicha mahalliy brokerlik kompaniyalarining rivojlanishi, shuningdek, xalqaro ishtirokchilarni kapital bozorlariga ishtirokchilar yoki hamkorlar sifatida integratsiyalashtirish.

7. FCA (Buyuk Britaniya) misolida keng vakolatlarga ega mustaqil moliyaviy tartibga soluvchi tizimni yaratish.

8. Sinov va tekshirish orqali moliyaviy bozorlar xodimlarini litsenziyalash.

2030 yilgacha bo'lgan davrda:

1. Investorlar va biznes egalarining, xususan, innovatsion rivojlanish yo'nalishlarida investitsion inkubatorlar va akseleratorlarni yaratish.

2. Zamonaviy iqtisodiyotning talablariga, xususan, jismoniy shaxslar uchun ETF, ishlab chiqarish korxonalarini uchun resurslar va valyuta hosilalari va institutsional investorlar uchun tuzilmali mahsulotlar talablariga javob beradigan mahsulot portfelini rivojlantirish.

3. Birja AT-infratuzilmasining texnologik jihozlanishi va hisoblash quvvatini rivojlantirish.

4. Chet ellik investorlarni jalb qilish uchun maxsus soliq tartiblari tamoyillarini ishlab chiqish.

2035 yilgacha bo'lgan davrda:

1. Likvidliklarni joylashtirish tizimlarini yaratish va korporativ segmentdagi bank mahsulotlari bilan integratsiyalash.

2. Chakana segmentdagi bank, sug'urta va investitsion-jamg'arma mahsulotlarining integratsiyalashuvi va hayot sikliga xizmat ko'rsatish modeliga o'tish.

3. Kapital bozori aylanmasi hajmini 2,5 mlrd. dollaridan 114,0 mlrd.dollarigacha oshirish.

4. Kapital bozori aylanmasi hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatan 3,7 % dan 80 % ga oshirish.

5. Xorijiy investorlar ulushini 43 % dan 70 % ga yetkazish.

6. Kapitaldan kutilayotgan daromadni 22,7 % dan 11,7 % gacha o'zgartirish.

Milliy moliya bozori va uning tarkibiy qismlaridagi holat va o'zgarishlar tendensiyalarini o'rganish mamlakatimiz moliya bozorlari yaxlit bozor ko'inishiga yetib kelayotganligi va to'laqonli faoliyat yuritishga qodirligini ko'rsatadi. Shu bilan birga moliya bozorlarida aniq muammolar mavjud bo'lib, mamlakatni 2035 yilgacha rivojlantirish Strategiyasida ushbu muammolarni bartaraf etish va moliya bozorlarini rivojlantirish ko'zda tutilgan.

11.6. O‘zbekistonning xalqaro moliya bozoriga integratsiyalashuv muammolari

Jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvda ilg‘or mamlakatlarning boy tajribalariga tahliliy yondashish va ushbu tajribalarni eng optimal tarzda milliy xususiyatlar bilan uyg‘unlashtirish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishgandan so‘ng mustaqil tashqi iqtisodiy siyosatini olib borish imkoniyati yuzaga chiqdi. Respublikaning tashqi iqtisodiy siyosati xalqaro moliyaviy munosabatlarda milliy manfaatlarni himoya qilgan holda amalga oshiriladi va u quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- mafkuraviy qarashlardan qat‘iy nazar tashqi munosabatlarda oshkoralik;

- teng huquqli va o‘zaro manfaatli hamkorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

- o‘zining milliy va davlat manfaatlari ustuvorligida o‘zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish;

- respublika biron-bir davlatning ta‘sir doirasiga kirmasligi tamoyiliga to‘la amal qilish;

- to‘la ishonch, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish asosida ikki tomonlama, shuningdek, ko‘p tomonlama tashqi aloqalarni o‘rnatish va ularni rivojlantirish;

- umume‘tirof etilgan xalqaro huquq me‘yorlariga rioya etish.

Tashqi iqtisodiy soha tarmoqlari majmuini vujudga keltirmasdan, moliya, bank-kredit tashkilotlari, bojxona xizmati ishini xalqaro me‘yor va talablar darajasida yo‘lga qo‘ymasdan turib, xalqaro aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashni tasavvur etib bo‘lmaydi.

Tashqi savdo, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarda quyidagi yo‘nalishlar ustuvor hisoblanadi:

- birinchidan, respublikaning eksport qudratini rivojlantirish va yanada mustahkamlash, eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish;

- ikkinchidan, eksport imkoniyatini kengaytirish, jahon bozoriga kirib borish uchun, avvalo, qimmatbaho xomashyoni qayta ishlash negizida tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi qo‘shma korxonalarni rivojlantirish;

- uchinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, xo‘jalik ishlarini yurituvchi subyektlarga xorijiy sheriklar bilan bevosita aloqalar o‘rnatishda o‘z mahsulotlarini chet ellarda sotishda ko‘proq erkinlik berish, tovarlarni eksport va import qilishda qo‘shimcha imtiyozli tartibni joriy qilishda aniq maqsadni ko‘zlab siyosat o‘tkazish;

- to‘rtinchidan, xorijiy sarmoyalarni respublika iqtisodiyotiga keng ko‘lamda jalb etish uchun zarur huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda boshqa sharoitlarni yaratish;

- beshinchidan, xalqaro moliyaviy munosabatlarning tarkibiy majmuini vujudga keltirish;

- oltinchidan, xalqaro huquq va xalqaro moliyaviy munosabatlar sohasida malakali mutaxassislar tayyorlashni tashkil etish.

Integratsiya munosabatlari, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiya turlari mavjudligiga asoslanadi. O‘zbekiston bir vaqtning o‘zida turli darajalarda – dunyo miqyosida va mintaqa ko‘lamida integratsiya jarayonlariga qatnashsada, bitta muhim qoidaga amal qiladi; ya’ni bir davlat bilan munosabatlarni tiklash boshqa bir davlat bilan aloqalarini to‘xtatish hisobiga bo‘lmasligi lozim.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan bozor tizimiga ega bo‘lgan demokratik davlat haqidagi hozirgi zamon tushunchalariga mos ravishda O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga kirishi mumkin.

Mamlakat jahon hamjamiyati bilan hamkorlik o‘rnatgan taqdir-dagina, ya’ni xalqaro mehnat taqsimotida o‘zining munosib o‘rnini topganda, mintaqa va butun dunyo xavfsizlik tizimlarini barpo etishda faol ishtirok etgandagina uni iqtisodiy rivojlanishning yangi sifat bosqichiga olib chiqish imkoniyatlari kengayadi.

O‘zbekiston Respublikasi rivojlanish va taraqqiyot yo‘liga qadam qo‘yib, iqtisodiy hamkorlik sohasidagi ko‘pgina nufuzli xalqaro tashkilotlarning teng huquqli a‘zolari safiga kirib bormoqda. Qisqa vaqt oralig‘ida respublika Xalqaro Valyuta Fondi (XVF), Jahon banki (JB), Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT), Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST), Osiyo va Tinch okeani ijtimoiy-iqtisodiy komissiyasi (OTIK), Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki (YeTTB), Xalqaro Moliya korporatsiyasi (XMK), Hamdo‘stlikning mintaqaviy

iqtisodiy tashkiloti (HMIT) va shu kabi qator xalqaro moliyaviy tashkilotlarga qabul qilindi.

Jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuv haqida soʻz borganda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatida Oʻzbekistonning ishtiroki eʼtiborga loyiqdir. Faqat Birlashgan Millatlar Tashkilotigina xavfsizlikni saqlash va taʼminlashga qaratilgan diplomatiyadan to tinchlik oʻrnatishga qaratilgan operatsiyalarda qatnashishgacha boʻlgan vositalarga ega.

Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvning strategik maqsadi – davlatlarning turli mintaqaviy birlashmalari bilan aloqalarni rivojlantirishdan iborat. Oʻzbekiston mintaqaviy xalqaro tashkilotlar – Yevropa Ittifoqi, Yevropada Xavfsizlik va

Hamkorlik tashkiloti (YeXHT), Shimoliy Atlantika bloki (NATO), Qoʻshilmaslik Harakati va boshqalar bilan samarali hamkorlik qilmoqda.

1996 yilning iyul oyida Florensiyada Oʻzbekiston bilan Yel Kengashi oʻrtasida sherikchilik va hamkorlik toʻgʻrisida bitim imzolandi. Imzolangan ushbu bitim Oʻzbekiston xavfsizligi va taraqqiyotini taʼminlashda yana bir muhim hodisa boʻlib, bu sherikchilik iqtisodiy, madaniy, ilmiy va siyosiy sohalarni oʻzida qamrab oladi.

Jahon banki bilan birgalikda Oʻzbekistonda milliy valyutani mustahkamlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish va toʻlov balansini qoʻllab-quvvatlash, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish va korxonalar darajasidagi islohotlarni amalga oshirish uchun tiklanish qarzi berish toʻgʻrisidagi masalalar koʻrib chiqildi va amalga oshirildi.

Globalashuv natijasida jahon xoʻjaligining tarkibiy qismiga aylanib borayotgan mamlakatlarning soni ortib bormoqda. Bu milliy darajadagi huquqiy, iqtisodiy hamda texnologik toʻsiqlarning yoʻqolishiga, uning oʻrniga xalqaro iqtisodiy xoʻjalikning umumiy iqtisodiy qonuniyatlari va xalqaro xoʻjalikning funksional aloqalari tatbiq etilishiga olib kelmoqda.

Mamlakatlar hayotidagi globalashuv iqtisodiy munosabatlardagi tovarlar, xizmatlar, kapital hamda fond bozorlaridagi savdo va siyosatga doir tartiblarning tobora erkinlashuvi orqali namoyon boʻlmoqda.

XX asr oxiriga kelib jahon iqtisodiyotida toʻrtta asosiy tendensiya kuzatiladi. Bu, birinchidan, xomashyo eksportiga asoslangan hamda sanoati rivojlangan

mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarda o'zgarishlar yuz berganligida qo'rinadi.

Ikkinchidan, sanoati rivojlangan mamlakatlarda qo'l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarishdan bilim va yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishga o'tildi.

Uchinchidan, jahon iqtisodiyotida xalqaro kapital harakatining sezilarli darajada ortishi kuzatildi.

To'rtinchidan, transmilliy korporatsiyalarning qo'shma korxonalarini tashkil etish uchun xalqaro investitsiyalari va hamkorlik bitimlarida diversifikatsiya darajasining ortishi kuzatildi.

Shuningdek, jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuv jarayonlarida xalqaro tashkilotlar rolini alohida e'tirof etish zarur. Jahon savdo tashkiloti (JST), Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon banki (JB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT), Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) kabi xalqaro institutlar hamda yetakchi mamlakatlar rahbarlari va moliya vazirlarining har yili bo'lib o'tadigan uchrashuvlarining xalqaro munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati ortib bormoqda.

Globalashuv sharoitida jahon moliya tizimi barqarorligini, uning tarkibiy qismlari va funksiyalari yaxlitligi nuqtai nazaridan dinamik muvozanatni saqlab qolish masalasi dolzarb hisoblanadi. Mazkur jarayonda, globalashuvning ta'sirini inobatga olgan holda xalqaro moliya-kredit munosabatlarini rivojlantirish uchun aniq tamoyillarni belgilash va zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish, ehtimoliy risklarni pasaytirish o'ta muhimdir.

Globalashuv sharoitida mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishi ko'p jihatdan moliyaviy siyosatga bog'liq. Har qancha erkin moliyaviy siyosat bozor mexanizmlarini ishga solsa, global raqobat esa uning vazifasi nechog'liq murakkab ekanligini ko'rsatadi. Bunday vaziyatda tashqi va ichki o'zgarishlarga mos valyuta siyosatini yuritish ma'qul ko'riladi.

O'zbekiston Respublikasi rivojlanish va taraqqiyot yo'liga qadam qo'yib, iqtisodiy hamkorlik sohasidagi ko'pgina nufuzli xalqaro tashkilotlarning teng huquqli a'zolari safiga kirib bormoqda. Qisqa vaqt oralig'ida respublika Xalqaro Valyuta Fondi (XVF), Jahon banki (JB), Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST), Osiyo va Tinch okeani ijtimoiy-iqtisodiy

komissiyasi (OTIK), Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki (YeTTB), Xalqaro Moliya korporatsiyasi (XMK), Hamdo'stlikning mintaqaviy iqtisodiy tashkiloti (HMIT) va shu kabi qator xalqaro moliyaviy tashkilotlarga qabul qilindi.

Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvning strategik maqsadi davlatlarning turli mintaqaviy birlashmalari bilan aloqalarni rivojlantirishdan iborat. O'zbekiston mintaqaviy xalqaro tashkilotlar – Yevropa Ittifoqi, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti (YeXHT), Shimoliy Atlantika bloki (NATO), Qo'shilmaslik Harakati va boshqalar bilan samarali hamkorlik qilmoqda.

Tayanch iboralar

Global moliyaviy bozor, "Rim klubi", Ilmiy-texnik taraqqiyot, transmilliy korporatsiyalar, Xalqaro valyuta fondi, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro moliya tashkilotlari, Bretton-Vuds kelishuvi, Jahon valyuta bozori aylanmasi.

Nazorat uchun savollar

1. Global moliyaviy bozorlarning shakllanish belgilarini tushuntiring.
2. Jahon iqtisodiy va moliyaviy muhitining shakllanishiga ta'sir etgan sezilarli o'zgarishlar sifatida qanday faoliyat yo'nalishlari ko'rsatiladi?
3. XX asr oxiriga kelib jahon iqtisodiyotida nechta asosiy tendensiya kuzatiladi va ularni izohlang.
4. Davlatlararo fondlar (tashkilotlar) daromadlarini shakllantirish usullari va moliyalashtirish tusiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
5. Bugungi kunda Xalqaro Valyuta Fondining asosiy maqsadi nimalardan iborat?
6. Xalqaro Valyuta Fondining funksiyalari nimalardan iborat?
7. Zamonaviy jahon moliya tizimida TMKlar rolini qaysi ko'rsatkichlar yordamida ko'rish mumkin?
8. Hozirgi vaqtda jahon hamjamiyati xalqaro moliya tizimini global tartibga solish jarayonini isloh etishning qanday variantini tavsiya etmoqda va ularni tushuntiring.

9. Bugungi kundagi bank tizimidagi asosiy muammolari umumlashgan holda qanday ifodalanadi?

10. Masofaviy bank xizmatlarining joriy etilishi natijasida qanday afzalliklarga erishiladi?

11. O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy siyosati xalqaro moliyaviy munosabatlarda mamlakat milliy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qanday tamoyillarga asoslanadi?

12. Tashqi savdo, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarda qanday yo‘nalishlar ustuvor hisoblanadi?

12-BOB. JAHON IQTISODIYOTINING TARMOQLARI: SANOATNI AVTOMATLASHTIRISH

12.1. Texnik taraqqiyotning xalqaro savdoga ta'siri nazariyalari

Texnologiyani ishlab chiqarishning alohida omili sifatida o'rganish, aniqrog'i, texnologiya tushunchasi xususida iqtisodiy adabiyotda yagona yondashuv yo'q. Agar texnologiya ishlab chiqarishning mustaqil omili sifatida qaraladigan bo'lsa, u bir tomondan, o'zi yordamida ishlab chiqarilgan tovarlar savdosi shartlarining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi, ikkinchi tomondan esa, xalqaro savdo predmeti hisoblanadi. Texnologiyaning xalqaro harakati ikki xil shaklda amalga oshadi: sof (litsenziya, patent, "nau-xau" savdosi) va texnologik sig'imkorligi yuqori tovarlar savdosi ko'rinishida. Shu nuqtai nazardan texnologiyaga quyidagicha ta'rif berish mumkin: texnologiya — bu amaliy maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladigan ilmiy metodlardir. Texnologiya tushunchasi texnologiyaning mahsulotlar, jarayonlar va boshqaruv texnologiyasi guruhlarini o'zida mujassamlashtiradi. Texnologiyani xalqaro uzatish - tijorat yoki beg'araz asosda ilmiy texnika yutuqlarining davlatlararo harakati. Xalqaro iqtisodiyotda quyidagilar texnologiyani eltuvchilar sifatida namoyon bo'ladi: - tovarlar — yuqori texnologiyali tovarlar savdosi; - kapital - kapital sig'imkorligi yuqori texnologik tovarlar savdosi; - mehnat - yuqori malakali ilmiy-texnika kadrlarning xalqaro migratsiyasi; - yer — qazib chiqarish uchun yangi ilmiy texnika yutuqlaridan foydalanilgan tabiiy boyliklar savdosi. Texnologiyani nazariy jihatdan asoslashda mikrodarajada yondashuv mavjud bo'lib, bu - korxonalar, firma miqyosida texnologiyalardan foydalanish nuqtai nazaridan texnologiyaga baho berishdir. Unga muvofiq texnologiya xomashyoni qayta ishlashda materiallarga ishlov berishdagi usul yoki vosita. Texnologiya — texnik vositalarni mos tarzda mahsulot ishlab chiqarish uchun ko'llash usuli. Bir turdagi texnologiyadan foydalanilganda korxonalarining ba'zilarida foyda olsa, boshqalari undan zarar ko'rishi mumkin. Texnologiyalarni guruhlashda firmalarda hozirda qo'llanilayotgan zamonaviy D.Vudvord va D.Tompson usullaridan foydalaniladi. D.Vudvord tasnifi bo'yicha texnologiyalar quyidagilarga bo'linadi:

1. Mayda seriyali yoki individual ishlab chiqarish texnologiyalari. Bunda faqat bitta mahsulot yoki bir xildagi mahsulotlarning kichik seriyasi ishlab chiqariladi. Mazkur mahsulotlar oldindan aniqlangan xaridor uchun va uning ixtisoslashuviga mos ravishda ishlab chiqariladi. Masalan, kompyuterlar, tijorat maqsadida foydalaniladigan BOING samolyotlari, harbiy reaktiv samolyotlar.

2. Ommaviy yoki yirik seriyali ishlab chiqarishda qo'llaniladigan texnologiyalar. Yirik seriyali mahsulotlar bu bir xil turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishdir. Mazkur ishlab chiqarish standartlashtirilgan detallarni ko'llash, konveyer asosida yig'ish kabi usullar bilan xarakterlanadi.

3. Uzluksiz ishlab chiqarish bilan bog'lik texnologiyalar. Bunda avtomatlashgan texnik jihozlardan foydalaniladi. Texnologiyalar kun bo'yi to'liq ishlab, katta hajmdagi mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

D.Tompson tasnifi bo'yicha texnologiyalar quyidagilarga bo'linadi:

1. Ko'p bo'g'inli texnologiyalar. Mazkur texnologiyalar ketma-ket bajarilishi lozim bo'lgan o'zaro bog'liq vazifalar seriyasidan iborat. Masalan, avtomobillarni yig'ish muayyan bir tartibda bajariladi.

2. Vositachi texnologiyalar. Bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan guruhlar to'qnashuvi va ish yuzasidan harakatlarining kelishtirilishi bilan xarakterlanadi,

3. Intensiv texnologiyalar. Maxsus ko'nikma va xizmatlar qo'llash bilan xarakterlanadi. Masalan, filmlar montaji. Ushbu tasniflar o'xshash, faqat birinchisi — firmalardagi ishlab chiqarish bo'yicha, ikkinchisi esa - umuman iqtisodiyotning barcha ishlab chiqarish yo'nalishlarida hisobga olingan.

Texnologiya rivojlanishining asosida texnik taraqqiyot yotadi. Texnik taraqqiyotning ko'plab ta'riflari va tahliliy uslublari mavjud. Texnik taraqqiyotning ma'lum darajada ommabop bo'lgan modelini ingliz iqtisodchisi Jon Xiks ishlab chiqqan.

J.Xiksning fikricha texnik taraqqiyot uch guruhga bo'linadi: neytral, mehnat omilini tejoychi va kapitalni tejoychi. Neytral texnik taraqqiyot - bir vaqtning o'zida mehnat va kapital omillari u unumdorligining ortishini ta'minlovchi texnologiyaga asoslangan taraqqiyot.

Mazkur texnik taraqqiyot natijasida tovar ishlab chiqarishga sarflandigan mehnat va kapital qisqartiriladi.

Mehnat omilini tejoychi texnik taraqqiyot — kapital unumdorligining mehnat unumdorligiga nisbatan yuqoriroq samara berishiga asoslangan taraqqiyot. Mazkur texnik taraqqiyot natijasida tovarni ishlab chiqarishga sarflanadigan kapital miqdori nisbatan oshadi, mehnat sarfi esa kapitalning o'zgarmas nisbiy bahosi asosida qisqaradi. Bunda tovarlarni ishlab chiqarishga sarflanishi kerak bo'lgan mehnat va kapitalning umumiy miqdori qisqaradi, ammo kapitalning roli nisbatan yuqori bo'ladi. Mazkur texnik taraqqiyot iqtisodiyotda mehnat bilan bir vaqtning o'zida mehnat va kapitalni tejashi bilan foydali hisoblanadi.

Kapital omilini tejoychi texnik taraqqiyot - mehnat unumdorligining kapital unumdorligiga nisbatan yuqoriroq samara berishiga asoslangan taraqqiyot.

Savdo aloqalarining mavjud emasligi sharoitida har qanday texnik taraqqiyot mamlakat farovonligini oshirish uchun xizmat qiladi. Texnik taraqqiyot natijasida aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarish hajmi oshadi. Texnik taraqqiyotning xalqaro savdoga ta'siri uning talab (iste'mol) va taklifga (ishlab chiqarish) qanday ta'sir etishiga bog'liq. Texnik taraqqiyot natijasida ishlab chiqarish hajmining ortishi xalqaro savdoga neytral, ijobiy va salbiy ta'sir etishi mumkin.

Texnik taraqqiyotning xalqaro savdoga neytral ta'siri savdo hajmining ishlab chiqarish hajmi bilan bir xil sur'atlarda ortishi bilan bog'liq. Texnik taraqqiyotning xalqaro savdoga ijobiy ta'siri savdo hajmining o'sish sur'atlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlaridan oshib ketganda yuz beradi. Bu ta'sir, odatda, o'zgarmas nisbiy baholar sharoitida import o'rini qoplovchi tovarlarga nisbatan eksport tovarlarni ishlab chiqarish hajmining ortishini bildiradi. Texnik taraqqiyotning xalqaro savdoga salbiy ta'siri ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari savdo hajmining o'sish sur'atlaridan oshib ketganda yuz beradi. Bu ta'sir odatda, o'zgarmas nisbiy baholar sharoitida import o'rini qoplovchi tovarlar hajmining eksport tovarlarni ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ortishini bildiradi. Xalqaro savdoda tovarlarning xayotiylik sikli talay mamlakatlarning texnologik yangi tovarlarni ishlab chiqarishga va eksport qilishga moslashayotganida,

boshqa mamlakatlarning allaqachon taniqli bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarayotganidan kelib chiqadi.

Bir talay yuqori kapitalga va malakali ishchilarga ega rivojlangan mamlakatlar texnologik yangi vositalarga ko'proq kapital jalb qilish orqali yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda qiyosiy dinamik (o'zgaruvchanlik) mulkni boshqa mamlakatlardan olish arafasida turibdilar. Tovarining hayotiylik sikli mahsulotning yaratilishi, o'sishi, yetuklik va tushish fazalari davomiyligining turli shakllardagi uygunligini ifoda etadi.

Tovarining hayot sikli nazariyasi quyidagi faktlardan kelib chiqadi: ba'zi mamlakatlar yangi texnologiyalar asosida tovarlarni ishlab chiqarish va eksport qilishga ixtisoslashadi, boshqalari esa bozorda allaqachon tanilgan tovarlar ishlab chiqaradi. Bu o'rinda tovarning beshta hayotiylik sikli farqlanadi. I bosqich yangi mahsulot ishlab chiqarish bosqichi, deb nomlanadi. Yangi mahsulot o'zi ishlab chiqarilgan mamlakatdagina ishlab chiqariladi va iste'mol qilinadi. Odatda, ishlab chiqarish unchalik katta bo'lmagan hajmda amalga oshiriladi va ichki bozordagina sotiladi. Tovar sifati ishlab chiqaruvchi tomonidan bozor talabiga javob beradigan darajaga yetkaziladi. II bosqich mahsulotning o'sish bosqichi deyiladi. Tovar mukammallashtiriladi, ichki bozorda unga bo'lgan talab oshadi va uni chetga eksport qilish boshlanadi. Xorijiy raqobat hali yo'q va mamlakat ushbu tovarni ishlab chiqarishda va sotishda vaqtincha monopol mavqega ega bo'ladi. III bosqich tovarning yetuklik bosqichi deyiladi. Tovar texnologiyasi shu darajada ishlatilganki, uni keyinchalik ham faqat u ixtiro qilingan mamlakatda ishlab chiqarish noo'rin hisoblanadi. Standartlashgan ishlab chiqarishning bir qismini ishchi kuchi arzon bo'lgan mamlakatlarga ko'chirish samarali rol hisoblanadi. Boshqa mamlakatlar bu mahsulotni, kashfiyot egasidan olgan litsenziya asosida, o'zining ichki bozori uchun ishlab chiqara boshlaydi. IV bosqich tovar ishlab chiqarishning pasayishi, deb nomlanadi. Ancha arzon ishchi kuchidan imitator (yangi texnologiyani o'zlashtiruvchi) mamlakat tovarni nafaqat o'z ichki bozoriga taklif qiladi, balki uni kashfiyot egasi bo'lgan mamlakatga uning mahalliy ishlab chiqaruvchilarini siqib chiqqan holda sotadi. Ixtiro egasi bo'lgan mamlakatda ichki ishlab chiqarish tez sur'atlar bilan pasayib ketadi va eksport to'xtatiladi.

Tovarning hayotiylik sikli fazalari V bosqich - tovarning ichki ishlab chiqarilishining butunlay to'xtash bosqichi. Bu bosqichda yangi texnologiyani o'zlashtiruvchi mamlakatlar ixtiro egasi bo'lgan mamlakatlardan shu darajada oshib ketadiki, natijada ixtiro egasi hisoblangan mamlakat yangi texnologiya litsenziyasini sotib, ichki ishlab chiqarishini butunlay to'xtatib, ichki bozorni xorijdan import qilish hisobiga to'ldirishga majbur bo'ladi. Yangi texnologiya ixtiro qilingan mamlakat hali xorijiy mamlakatlarga ma'lum bo'lmagan yangi turdagi tovar ishlab chiqarishni tashkil etadi. Innovatsion faoliyatda eng muhim masala - yangi texnologiyalarning u yoki bu mamlakat iqtisodiy o'sishiga qo'shgan ulushini aniqlashdir.

Texnologik rivojlanish va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik neoklassik o'sish modellaridan biri bo'lgan ekzogen texnik rivojlanish modeli orqali isbotlangan. Bu haqda yana-da aniq, xulosalarni Massachuset texnologik instituti professori, Nobel mukofoti sovrindori Robert Solou keltirib o'tadi. R.Solou birinchi bo'lib iqtisodiy o'sishning muhim omili kapital emas, balki texnologik rivojlanish ekanligini asoslab berdi. Uning 1909-1957 yillarni qamrab olgan statistik ma'lumotlar asosidagi hisob-kitoblari iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ishchi kuchining ko'payishi va kapital iste'molining ortishi muhim bo'lganligini, ammo hal qiluvchi omil emasligini ko'rsatdi. Shuningdek, R.Solou texnologik rivojlanish natijasida qishloq xo'jaligining xususiy sektorida mahsulot ishlab chiqarish 60-70% ga va mehnat unumdorligi esa 90% ga o'sganligini keltirib o'tadi. Nobel mukofoti laureati Yan Tinbergenning AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya va Fransiyaga oid 1870-1914 yillarni qamrab oluvchi hisob-kitoblari yuqoridagi mamlakatlarning iqtisodiy o'sishida texnik rivojlanishning ulushi - mehnat va kapital kabi omillarga nisbatan sezilarli darajada past ekanligini ko'rsatdi. Bundan kelib chiqib AQSH bir qator real sektor tarmoqlarida ekstensiv rivojlanishdan intensiv rivojlanish yo'liga o'ta boshladi. Keyinchalik rivojlanishning bu modeli boshqa mamlakatlarga ham ko'cha boshladi.

12.2. Texnologiyalarni xalqaro uzatish shakllari va mexanizmlari

Xalqaro texnologik ayirboshlashga inson faoliyatining kuyidagi to'rt sohasi keng jalb qilinadi: - ilm-fan (tabiatni anglashning nazariy

qonuniyatlari); - texnik (tabiatni o'zlashtirish tajribasi); - ishlab chiqarish (moddiy ne'matlarni yaratish); - boshqarish (ishlab chiqarish va boshqa masalalarni hal etish bilan bog'liq faoliyat). Texnologiyani xalqaro uzatish huquqiy himoya bilan kafolatlangan. Jahonning ko'pchilik mamlakatlarida yangi texnologiyalar qator huquqiy dastaklar yordamida himoyalanaadi.

Patent — hukumatning mutasaddi organlari tomonidan ixtirochiga beriladigan guvohnoma bo'lib, u ixtirodan foydalanishi monopol huquqni beradi. Patentning amal qilish muddati 15-20 yil bo'lib, u berilgan mamlakat hududida amal qiladi. Patentdan foydalanish huquqini saqlab turish uchun katta miqdordagi patent to'lovini to'lash talab etiladi.

Litsenziya - texnologiya egasi (litsenziar) tomonidan manfaatdor tomonga (litsenziatga) patent bilan himoyalangan yoki himoyalangan texnologiyadan muayyan muddat va ma'lum to'lov evaziga foydalanish uchun beriladigan ruxsatnoma.

Kopirayt (taqdim etish huquqi) — adabiy, audio- va videoasar muallifining o'z ishini ko'rsatish va taqdim etish huquqi.

Tovar belgisi — muayyan tashkilot belgisi bo'lib, undan tovar ishlab chiqaruvchini individuallashtirish uchun foydalaniladi. Tovar belgisidan egasining rasmiy ruxsatisiz boshqa tashkilotlar tomonidan foydalanish man etiladi. Ko'pchilik hollarda tovar belgisi rasm, grafik tasvir, harflar klaviaturasi, korporatsiya tashkilotchisi yoki egasining ismi shaklida bo'lishi mumkin. Agar tovar eksport qilinsa, tovar belgisi importyor mamlakatda ro'yxatdan o'tishi zarur. Texnologiyalarni xalqaro uzatish quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

Patent shartnomasi - xalqaro savdo bitimi bo'lib, unga muvofiq patent egasi ixtirodan foydalanish huquqini xaridorga beradi. Odatda, tor doirada ixtisoslashgan kichik firmalar ixtironi ishlab chiqarishga joriy etish imkoniyatiga ega bo'lmaganliklari sababli patentni yirik korporatsiyalarga sotadilar. Litsenziya shartnomasi - xalqaro savdo bitimi bo'lib, unga muvofiq kashfiyot egasi texnologiyaga bo'lgan egalik huquqini xaridorga muayyan chegara va shartlarda foydalanish uchun beradi.

“Nou-xau” — muayyan yutuqqa erishish imkonini beruvchi texnik tajriba va ishlab chiqarish sirlarini taqdim etish. Ular texnologik, iqtisodiy, ma'muriy va moliyaviy xarakterga ega bo'ladi. “Nou-xau”da

oldi-sotdi predmeti bo‘lib tijorat ahamiyatiga ega bo‘lgan patentlanmagan ixtirolar xizmat qiladi.

Injiniring — xarid qilingan yoki ijaraga olingan mashina va uskunalarni o‘rnatish hamda ishlatish uchun zarur bo‘lgan texnologik bilimlarni taqdim etish. Injiniring loyihalarning texnik-iqtisodiy asosnomasini tayyorlash, maslahatlar berish, nazorat qilish, loyihalashtirish, tajriba o‘tkazish, kafolat davri va kafolat davridan so‘ng servis xizmat ko‘rsatish kabi kompleks tadbirlarni qamrab oladi. Xalqaro texnologiyani uzatish uch bosqichda amalga oshiriladi:

- texnologiyani tanlash va sotib olish;
- sotib olingan texnologiyani o‘zlashtirish va unga moslashish;
- fan-texnika chegarasida joylashgan texnologiyani takomillashtirish.

Xalqaro texnologiyani uzatishning quyidagi kanallari mavjud:

- tashqi savdo — texnologiyani mashina-uskunalar bilan birgalikda qo‘shib uzatish;

- ichki firma kanali — yangi texnologiyani transmilliy korporatsiyalarning filiallari va “qiz” korxonalariga yetkazib berish; - firmalararo kanal. Xalqaro texnologiyalar uzatishning asosiy shakllaridan biri litsenzion savdo bo‘lib, u litsenzion shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Litsenzion shartnomada litsenziya turi (patentli va patentsiz), texnologiyadan foydalanish huquqi, xarakteri va chegarasi (oddiy, istisnolik, to‘liq), ishlab chiqarish sohasi va territorial foydalanish chegarasi belgilanadi.

Patentli litsenziya - patentdan foydalanish huquqini “nou-xau”siz taqdim etilganligini tasdiqlovchi hujjat.

Patentsiz litsenziya — ixtironing patentsiz “nou-xau”dan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjat.

Istisnosiz litsenziya - litsenziyalarga shu texnologiya ushbu hududda joylashgan boshqa litsenziatlarga ham taqdim etish huquqini qoldiruvchi litsenziya.

Istisnoli litsenziya — litsenziatning texnologiyadan foydalanish monopol huquqini mavjudligini hamda litsenziarni ushbu hududda patentlangan texnologiyalar va “nou-xau”lardan mustaqil foydalanish va ularni sotishni rad etilganini nazarda tutuvchi litsenziya.

To'liq litsenziya — shartnoma amal qilingan davrida litsenziar-ning patent yoki “nou-xau”dan to'liq foydalanish huquqini va listen-ziarning ulardan mustaqil foydalanishdan voz kechishini belgilovchi litsenziya.

Litsenzion to'lov - litsenziat tomonidan shartnoma predmetidan foydalanganligi evaziga litsenziarlarga to'lanadigan taqdirlov. Litsen-zion taqdirlash hajmi texnologiya narhi ko'rinishida namoyon bo'ladi va litsenziat foydasining bir qismini tashkil etadi. Texnologik jihatdan afzallik yuqori foyda olishni ta'minlaydi. Texnologiyani sotish jarayonida litsenziar yuqori foyda olish huquqini muayyan ulush evaziga sotgan bo'ladi. Foydaning mazkur ulushi litsenzion mukofot bo'lib, uning quyidagi turlari mavjud:

Royalti - shartnomaning amal qilish muddati davrida xaridor daromadidan litsenziyadan foydalanishda oladigan foydasi hajmidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladigan ajratmalar. Ko'pchilik hollarda royatli litsenziat tomonidan kelishilgan vaqt mobaynida (har yili, har kvartal, har oy) qat'iy belgilangan foiz stavkasi ko'rinishida amalga oshiriladi. Royalti stavkalari asosan 3-5 % tashkil etadi. Xalqaro amaliyotda qabul qilingan usul bo'yicha royalti stavkasini quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi;

$$t \cdot 7 = 1$$

bu yerda:

- litsenziya narxi;
- bir yildagi mahsulotning ishlab chiqarilishi yoki sotilishining kutilayotgan hajmi;

Zi - i- yilda mahsulot birligining narxi;

T — litsenzion kelishuvning amal qilish muddati (yillarda);

Ri – i - yilda royalti stavkasi.

Royalti stavkasi yillar bo'yicha o'zgarib borishi hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi va boshqa omillarga bog'liq bo'lishi mumkin. Bunda har bir yilga alohida maxsus hisoblash dasturi ishlab chiqilishi mumkin va uning umumiy summasi listenziyaning umumiy narxini ko'rsatadi. Agar royalti foydaning bir qismi sifatida hisoblansa, quyidagi formuladan foydalanish mumkin;

$$S \wedge B G \text{ III } i =]$$

bu yerda:

B, - litsenziar foydasi.

Litsenziat tomonidan texnologiyalarni yaratish litsenzion shartnomalarda narxlarni belgilashga ta'sir etuvchi muhim omillardan biridir. Texnologiyalarni yaratish ehtimoli qanchalik yuqori bo'lsa, litsenziar tomonidan olinadigan mablag' shunchalik kam bo'ladi. Nazariy jihatdan litsenziat o'zi texnologiya yaratish uchun zarur xarajatlar hajmiga teng bo'lgan mablag'da litsenziya uchun pul to'lashi mumkin. Litsenziya to'lovlari hajmiga texnologiyalarning hayotiylik muddati va uni uzatish davrida o'z hayot siklining qaysi bosqichida ekanligi; litsenziatga belgilanuvchi cheklovlar xarakteri va soni; uzatilayotgan axborotning huquqiy himoyasi darajasi (uchinchi shaxsda patentlarning mavjudligi uzatilayotgan texnologiyaning qiymatini oshiradi) ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida qayd etilgan omillarni baholash qiyinchiligi noaniqlik va risk litsenzion muzokaralarni uzoq muddatli va ko'p xarajatli jarayonga aylantiradi. Pausha to'lovi - shartnomada qayd etilgan bir marta to'lanadigan to'lov bo'lib, litsenziyadan foydalanish vaqti bilan bog'liq bo'lmay, ekspert baholash asosida oldindan belgilanadi.

Bu turdagi to'lovlar asosan kompleks asbob-uskunalar yetkazilib berilganda va texnologiya qiymati asbob-uskunalar qiymatiga kiritilganda, litsenziat texnologiyadan foydalanish ustidan nazoratdan holi bo'lishini xohlagan paytda, muttasil amalga oshiriladigan to'lovlarning xorijga o'tkazilishi xavfi tug'ilganda amalga oshiriladi.

Foydada qatnashish - litsenziya predmetidan foydalanish evaziga olingan litsenziat foydasining bir qismini litsenziarga ajratish. Ko'pchilik hollarda litsenziarning litsenziat foydasida qatnashishi 30% ni (istisnoli litsenziya berilganda) va 10% ni (istisnosiz litsenziya berilganda) tashkil etadi.

Mulkda qatnashish - litsenziat tomonidan litsenziarga litsenziyadan foydalanganlik uchun o'z korxonalarini aksiyalarining bir qismini berishi. Bu to'lov turi TMKlar tomonidan ko'p foydalaniladi. Chunki, ular o'z texnologiyalarini ishlatuvchi xorijiy korxonalar mulki ustidan nazorat o'rnatishni xohlaydilar.

Yuqoridagilardan tashqari xalqaro texnologiyani uzatishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan shartnoma shakli - bu franchayzingdir.

U inglizchadan ustunlik deb tarjima qilinadi va kommersiya konsepsiyasi shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi. Franchayzingning quyidagi shakllari farqlanadi:

Ishlab chiqarish franchayzingi - muayyan mahsulotni ishlab chiqarish texnologiyasiga ega bo'lgan firmaning mijoz firmaga mazkur mahsulotni muayyan hududda tayyorlash va sotish huquqini beradi.

Tovar franchayzingi - firmaning boshqa firmaga muayyan hududda yetakchi firmaning savdo markasidan foydalanish huquqini beradi. Xalqaro texnologiyani uzatishning muhim shakllaridan biri xalqaro texnik hamkorlik yoki texnik yordamdir.

Xalqaro texnik hamkorlik dasturlari rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlariga bozor iqtisodiyoti asoslarini yaratish uchun beriladigan yordam hisoblanadi. Xalqaro texnik hamkorlik dasturlari xalqaro tashkilotlar tomonidan va ikki tomonlama shartnomalar asosida amalga oshirilishi mumkin. Texnik hamkorlik texnik yordam olayotgan mamlakatning texnologik rivojlanish darajasini oshirishga yo'naltiriladi. Texnik yordamni boshqa xalqaro yordamlardan ajrata bilish kerak. Chunki, boshqa turdagi iqtisodiy yordamlar rivojlangan mamlakatlar tomonidan Osiyo va Afrikaning kambag'al mamlakatlariga oziq-ovqat, ichimlik suvi, yoqilg'i va boshqalar bilan bog'liq muammolarini hal etish uchun budjetdan moliyalashtiriluvchi mablag'lar shaklida bo'ladi.

Xalqaro texnik hamkorlik - mamlakatlarga qaytarib olish sharti bilan yoki beg'araz asosda texnologik jarayonlar, mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish to'g'risida yordam ko'rsatish.

Bu turdagi hamkorlik ishlab chiqarishning har qanday sohasida amalga oshirilishi mumkin. Iqtisodiyot sohasida texnik hamkorlik asosan iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish, statistika, pul va budjet siyosati, hududlarni rivojlantirish, loyihalarni texnik-iqtisodiy asoslash kabi yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Texnik yordamning quyidagi tashkiliy turlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Texnologik grantlar - rivojlangan mamlakatlar tomonidan texnologiyalar, texnologik sig'imkorligi yuqori tovarlar yoki moliyaviy mablag'larni ilgor texnologiyalarni sotib olish, personallarni o'qitish va qayta tayyorlash uchun begaraz uzatishdir. Grantlar donorlar tomonidan texnik yordam loyihalari doirasida texnologiyalar va asbob-uskunalarni yetkazib berish, mutaxassislarni jo'natish va kadrlarni qayta o'qitishni ko'zda tutadi.

Texnik yordamni moliyalashtirish — texnik yordam olayotgan tomonning shartnomaga muvofiq tashkiliy vazifalarni bajarishi bilan

birgalikda mazkur loyihani moliyalashtirishda ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Odatda, texnik yordam olayotgan tomonning loyihani moliyalashtirishdagi ulushi kam bo'lsa-da, texnik hamkorlikning bu turidan foydalanish hukumatning texnik yordamdan mamlakatda samarali foydalanishdan manfaatdor ekanligidan dalolat beradi.

Texnik yordam mexanizmlari. Loyihada qatnashayotgan mamlakatlar soniga qarab ikki va ko'p tomonlama texnik yordam turlari bir-biridan farqlanadi.

Ikki tomonlama texnik hamkorlik - donor mamlakat bilan texnik yordam olayotgan mamlakat hukumatlari o'rtasidagi kelishuv bo'yicha amalga oshiriladi.

Ko'p tomonlama texnik hamkorlik - texnik yordam oluvchi mamlakatga bir necha mamlakatlar tomonidan qo'shma loyihalar shaklida texnik yordam ko'rsatish.

BMTning Taraqqiyot dasturi (HP) rivojlanayotgan mamlakatlarga texnik yordam ko'rsatishni boshlagan birinchi xalqaro tashkilot hisoblanadi. Shuningdek, XVF, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar ham muntazam texnik yordam dasturlarini amalga oshiradilar.

12.3. Xalqaro texnologiyalar bozorining rivojlanish tamoyillari

Xalqaro texnologiyalar bozorini tarkibi va rivojlanish xususiyatlariga ko'ra quyidagi **segmentlarga** bo'lish mumkin: patentlar va litsenziyalar bozori, fan sig'imkorligi yuqori texnologik mahsulotlar bozori, yuqori texnologik kapitallar bozori va yuqori malakali ilmiy-texnik mutaxassislar bozori.

Texnologik bozorlarning segmentlarida yuz berayotgan savdo munosabatlarining hajmi to'g'risidagi tahlillarga muvofiq XX asrning oxirlariga kelib litsenziyalar bozoridagi oldi-sotdi hajmi 30 mlrd. dollarni, fan sig'imkorligi yuqori texnologik mahsulotlar bozoridagi o'rtacha yillik ko'rsatkich 2,3 trln. dollarni, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tarkibida yuqori texnologik kapitallar ulushi taxminan 10-20% ni tashkil etadi. Bashoratlarga muvofiq yuqori texnologik mahsulotlar bozoridagi talab 2015 yilga borib 3,5-4 trln. dollarni tashkil etishi kutilmoqda. Texnologiyalar bozorining tarmoq tarkibi mamlakatlarning ilmiy texnik rivojlanish maqsadiga bog'liq ravishda o'zgarib boradi. XX asrning 40-50-yillarida harbiy-texnika tarmoqlari

ustuvor darajada rivojlangan bo'lsa, 60-80-yillarida bu maqsad asosan iqtisodiy o'sishni ta'minlash va alohida tarmoqlarning raqobatbardoshligini oshirish vazifalari bilan bog'liq bo'lgan. 90-yillardan boshlab esa ilmiy-texnik rivojlanish sohasidagi siyosatning ustuvorliklari informatsion xizmatlar, tibbiyot, ekologiya va aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan sohalarga qaratildi.

Shuning uchun zamonaviy jahon texnologiyalar bozorining tarmoq tarkibini quyidagicha belgilash mumkin: elektrotexnika, elektronika, kimyo, farmasevtika, aloqa vositalarini ishlab chiqarish, asbobsozlik, aviakosmik uskunalar, avtomobilsozlik va b. Jahon texnologiyalar bozorida quyidagi rivojlanish tendensiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- jahon texnologiyalar bozorining jadal rivojlanayotgan bozorlardan biri sifatida tovarlar va kapitallar bozoriga nisbatan yuqori sur'atlarda rivojlanishi;

- jahon texnologiyalar bozorining milliy bozorlarga nisbatan yuqori darajada rivojlanganligi bilan ajralib turibdi.

Mazkur jarayonda xalqaro korporatsiyalar yetakchi rol o'ynaydi;

- jahon texnologiyalar bozorining ikki pog'onali tarkibga egaligi: a) yuqori texnologiyalar asosan sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar o'rtasida aylanadi; b) o'rta va quyi texnologiyalar rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari bozorlari uchun yangi texnologiya hisoblanishi mumkin. Shu sababli mazkur texnologiyalar ushbu mamlakatlar o'rtasida ayirboshlash predmeti bo'lib hisoblanadi;

- jahon texnologiyalar bozori texnologik resurslarning kam sonli rivojlangan mamlakatlarda konsentratsiyalashganligi bilan tavsiflanadi (AQSH- 40%, Yaponiya - 30%, Germaniya - 13%);

- jahon texnologiyalar bozoridagi asosiy raqobatchi mamlakatlar AKD1 va Yaponiya hisoblanadi;

- jahon texnologiyalar bozorida monopollashuv darajasining jahon tovarlar bozoridan ham yuqoriligi. 90-yillarda transmilliy korporatsiyalar ulushi jahon sanoat ishlab chiqarishining 18 qismini, tashqi savdoning 1 qismini tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich texnologiyalar bozorining 80% ini tashkil etadi;

- XX asrning 80-yillaridan boshlab jahon texnologiyalar bozorida transmilliy korporatsiyalarning yetakchilik mavqei firmalararo hamkorlik aloqalarida namoyon bo'la boshladi. Mazkur jarayonning

yaqqol ifodasini avtomobilsozlik sohasidagi yetakchi mamlakatlar hamkorligini aks ettiruvchi quyidagi jadval orqali kuzatish mumkin.

Firmalararo hamkorlik venchur kelishuvi, hamkorlikdagi tadqiqotlar, texnologiyalarni ayirboshlash, bevosita kapital qo'yilmalar, texnologiyalarni bir tomonlama uzatish kabi sohalarni o'z ichiga oladi. - "Yangi iqtisodiyot"ning shakllanishi va rivojlanishi murakkab texnologik mahsulotlar xalqaro savdosining jadallashuvi va jahon bozorlaridagi raqobat kurashining o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. XX asrning ikkinchi yarmida xalqaro savdo tarkibi sezilarli darajada o'zgardi: jahon eksportida tayyor mahsulotlar ulushi ikki baravarga oshgan bo'lsa, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va oziq-ovqatlar ishlab chiqarish 2,4 baravarga, mineral xomashyo va yoqilg'i 3,3 baravarga qisqargan. XX asrning Avtomobil sanoatida xalqaro hamkorlik aloqalarining rivojlanishi 90-yillarida tayyor mahsulotlarning jahon eksportidagi ulushi 5% ga oshgan. Mazkur o'zgarish asosan mashina, asbob-uskunalar va transport vositalari hisobiga yuz bergan.¹⁰⁹

Mazkur tovarlar guruhida yuqori o'sish sur'atlari yuqori texnologik ofis va telekommunikatsion asbob-uskunalar xissasiga to'g'ri keladi (12%). Umuman, 2000 yilda yuqori texnologik tarmoqlarda yaratilgan mahsulotlar jahon tovar eksportining 16 qismini yoki deyarli 1 trln. dollarni tashkil etgan. "Yuqori texnologiyalar" atamasi ilgari ITTKI xarajatlari yuqori sanoat tarmoqlariga nisbatan qo'llanilgan bo'lsa, hozirda bu agama kengroq talqin etiladi. Yuqori texnologiyalar zamonaviy iqtisodiyot tarmoqlarining texnologik bazasi sifatida amal qiladi. Shuning uchun yuqori texnologik Jahon qayta ishlash sanoati mahsulotlari eksport tarkibi, jamiga nisbatan foiz hisobida tarmoqlarga, odatda, mashinasozlikning quyidagi tarmoqlari kiritiladi:

- elektron-hisoblash texnikasini ishlab chiqarish. aviatsiya va aerokosmik texnika, sanoat robotlari va ishlab chiqarishni kompleks avtomatlashtirish vositalari, radioaloqa vositalari, radiolokatsiya va radionavigatsiya, murakkab uy-ro'zg'or buyumlari, asbobsozlik. Mazkur tarmoqlarga farmatsevtika sanoati, kimyo va atom sanoati kabilar kiradi. Yuqori texnologik mahsulotlar bozorida iqtisodiy jihatdan

¹⁰⁹ International Trade Statistics. WTO. Geneva, 2011 yil ma'lumotlari asosida hisoblangan.

taraqqiy etgan mamlakatlar yetakchi mavqega ega. AQSH, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Fransiya mazkur mahsulotlar bozorlarining 80% ini nazorat qilishadi. Bu sohaning ba'zi yo'nalishlar bo'yicha Janubiy Koreya, Malayziya, Singapur, Gonkong kabi yangi industrial mamlakatlar rivojlangan mamlakatlarga raqobatchilik qilmoqda.

XX asrning 90-yillarida yuqori texnologik mahsulotlar bozorining ba'zi turdagi mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi mavqega ega mamlakatlar ulushi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Bu holat jahon xizmatlar savdosida ham mamlakatlar o'rni taxminan yuqori texnologik mahsulotlar bozoridagi kabi ko'rinishga ega. 2010 yil ma'lumotlariga ko'ra jahon xizmatlar savdosining 36% yuqori texnologiyalar (kommunikatsion, informatsion va b.) bilan bog'liq.

Yuqori texnologik mahsulotlar bozorida yetakchilik qilayotgan mamlakatlar tajribasi texnologik liderlik bilan bog'liq qonuniyatlarni aniqlash imkonini beradi:

Birinchi qonunlar - ilm-fan va innovatsion yangiliklarning mamlakat raqobatbardoshligini oshirish hamda xavfsizligini ta'minlash instrumentlar va zamonaviy bilimlarga asoslangan yangi tipdagi jamiyatning bazaviy elementi sifatida baholanishi. Innovatsion tizim faoliyatini ta'minlash rivojlangan mamlakatlarning yuqori texnologik mahsulotlar bilan savdo qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa yalpi ichki mahsulotning 1,6% dan (Kanada) 3,7% gacha (Shvetsiya). Yangi bilimlar va texnologiyalarni yaratish uchun katta hajmdagi mablag'lar sarflashni taqozo etadi.¹¹⁰

Ikkinchi qonuniyat - korporativ tadqiqotlar va ishlanmalarning muhim iqtisodiy ahamiyatga egaligi. Kompaniyalarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining rivojlanishi ilmiy yangiliklar va yangi texnik imkoniyatlarni yaratadi. XX asrning oxirlarida rivojlangan mamlakatlarda innovatsion rivojlanishga sarflangan umummilliy xarajatlarning asosiy qismi tadbirkorlik sektori tomonidan moliyalashtirilgan.

Bu ko'rsatkich Fransiyada - 61, Buyuk Britaniyada — 65, Germaniyada - 68, Yaponiyada - 72, AQSHda - 74, Shvetsiyada - 75% ni

¹¹⁰ Obolenskiy V. *Texnologicheskoye sopernichestvo na mirovom rinke. / Mirovaya ekonomika i mejdunarodniye otnosheniya*, K«7,2003. S.4.

tashkil etgan. Korporativ tadqiqotlar asosan yuqori texnologik tarmoqlarda olib boriladi. XX asrning 90-yillarida AQSHda innovatsion rivojlanish xarajatlari hajmi bo'yicha xizmatlar sohasi, asosan informatsion texnologiyalar (23%), avtomobilsozlik (11%) va aerokosmik sanoat (1.0%), Yevropa Ittifoqida elektrotexnika (15%), avtomobilsozlik (13%) va xizmatlar (11%), Yaponida elektronika (18% dan yuqori) va elektrotexnika (11%) sohalari yetakchi mavqega ega bo'ldi.

Uchinchi qonuniyat - zamonaviy bilimlarni jamg'arish - kumulyativ jarayon hisoblanadi. Ilm-fan va maorifga sarflanayotgan mablag'lar barqaror va uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lsagina samara beradi. Mazkur sohani moliyalashtirish biron bosqichda to'xtab qolsa, uni keyinchalik ko'paytirish o'zini oqlamaydi. Davlatning ilmiy-texnik siyosatini moliyalashtirishdagi asosiy manba budget mablag'lari hisoblanadi. Mazkur manbadan ilmiy xarajatlar 15 dan 12 qismigacha moliyalashtiriladi. Tahlillar ko'rsatishicha, AQSH va Yaponiyada ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik xarajatlari YaIMga nisbatan o'rtacha 3,0% ini moliyalashtiradi.

XX asr oxiriga kelib jahon texnologik bozorlarining rivojlanish darajasi va dinamikasi mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatini belgilab beruvchi asosiy omil innovatsion sohaning ilmiy ishlab chiqarishga asoslangan tarmoqlari hamda kompaniyalari ekanligi yaqqol namoyon bo'la boshladi. Texnik taraqqiyot rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarishning miqyosi va strukturasinigina o'zgartirib qolmay, balki aholi turmush darajasi, kishilarning o'zaro va tashqi dunyoga bo'lgan munosabatlariga ham sezilarli ta'sir o'tkazdi.

Jahon bozorida texnologiyalar harakatini tartibga solish zaruriyati jahon xo'jaligining globalashuv jarayoni bilan bog'liq. Xalqaro texnologiyalar savdosini tartibga solish xalqaro va milliy darajada amalga oshiriladi. Ixtirolar, yangi sanoat mahsulotlari va tovar belgilari bilan bog'liq huquqlarni himoya qilish xalqaro tartibga solish predmet hisoblanadi. Bu sohadagi asosiy kelishuv sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij Konvensiyasi hujjatlarida aks ettirilgan. Parij Konvensiyasi o'z oldiga ixtirolar, yangi sanoat mahsulotlari, tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish masalalari bo'yicha imtiyozlar berishni maqsad qilib qo'ygan.

Konvensiyaning asosiy qoidalari quyidagilar:

- milliy rejim;

- konvension huquqlarga ustuvorlik berish;
- patent orqali berilgan huquqlarning buzilish holatlarining oldini olish.

Milliy rejim a'zo mamlakatlarning fuqarolari va firmalariga ham mulk huquqini himoya qilish imkonini beradi. Shuningdek, Parij ittifoqiga a'zo bo'lmagan mamlakatlar fuqarolariga ham himoya ta'minlanadi. Konvension huquqlarga ustuvorlik berish a'zo mamlakat tomonidan berilgan ariza asosida bir yil davomida mavjud ustuvorlikdan foydalanish imkonini beradi. Konvension huquqlarga ustuvorlik berish ixtirolarni mazkur mamlakatda ham patentlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Patent orqali berilgan huquqlarning buzilish holatlarining oldini olish qoidasiga muvofiq patent egasi mazkur ixtiro dan foydalanish yoki boshqalarga ixtironi qo'llashni man etishi mumkin. Xalqaro texnologiyalar savdosini tartibga solish bilan shug'ullanuvchi navbatdagi tashkilot Yevropa patent tashkiloti hisoblanadi (European Patent organization, YePT). YePT 1973 yilda imzolangan va 1977 yilda ratifikatsiya qilingan Yevropa patentlarini berish to'g'risidagi Konvensiya asosida tashkil etilgan. Yevropa patent tashkiloti Germaniyaning Myunxen shahrida, bo'limlari Gaagada (Gollandiya) va byurosi Vena (Avstriya) va Berlinda (Germaniya) joylashgan. YePTning asosiy maqsadlari quyidagilar:

- Yevropa patentlarini berish;
- Yevropa davlatlari o'rtasida ixtirolarni himoya qilish sohasida hamkorlikni kengaytirish;
- patentlarni berishning yagona tartibini joriy etish orqali patent himoyasini kuchaytirish.

YePT quyidagi tarkibga ega: Yevropa patent muassasasi; Ma'muriy kengash.

12.4. Xalqaro texnologiyalar savdosini tartibga solish usullari

YETT o'zaro kelishayotgan davlatlarning badallari va o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Patentni rasmiylashtirish jarayoni uch bosqichdan iborat: 1) Gaaga, Berlin: ariza berish, uni tekshirish, patentni izlash, ariza va patent natijalarini e'lon qilish; 2) Myunxen: ekspertiza — patentni berish yoki rad etish; 3) Myunxen: uchinchi

tomonning patent berishga qarshilik bildirishi, norozilik xatini berish, uni tekshirish va oxirgi qarorni chiqarish. YePT Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qiladi. YePT rivojlanayotgan mamlakatlarda patent tizimini shakllantirish va takomillashtirish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatadi. Jahon intellektual mulk tashkiloti (World Intellectual Property Organization (WIPO)) 1970 yilda tashkil etilgan. WIPO BMTning ixtisoslashgan tashkilotlari tizimiga kiradi. Shtab kvartirasi Jenevada (Shveysariya) joylashgan.

Intellektual mulk quyidagi ikki sohani qamrab oladi:

- sanoat mulki — asosan ixtirolar, tovar belgilari, sanoat namunalari va modellariga taalluqli;

- mualliflik huquqi - asosan adabiy, badiiy, musiqiy, fotografiya, kinematografiya va audiovizual asarlarga tegishli.

WTPO turli sohalarda tashkil etilgan ittifoqlar va shartnomalarni boshqarish bilan shug'ullanadi. Sanoat mulkini muhofaza etish sohasida: Sanoat mulkini muhofaza etish bo'yicha Parij Konvensiyasi, 1883; Madrid kelishuvi (tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi manbalar to'g'risidagi ma'lumotlarning yolg'onligiga qarshi kurash haqida), 1883; Madrid ittifoqi (tovar belgilarini xalqaro ro'yxatdan o'tkazish), 1891; Gaaga Ittifoqi (sanoat namunalari yoki modellarini xalqaro jamg'arish), 1925; Nissa ittifoqi (tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish uchun tovarlar va xizmatlarning xalqaro tasnifi), 1957; Lissabon Ittifoqi (tovarlarning kelib chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlarni himoya qilish va ularni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish), 1958; Lokarn Ittifoqi (sanoat namunalari yoki modellarini xalqaro tasnifi), 1968; Patent kooperatsiyasi to'g'risidagi shartnoma (ixtirolar bo'yicha ariza berish va ekspertizadan o'tkazish), 1970; Xalqaro patent tasnifi Ittifoqi, 1971; Vena ittifoqi (tovar belgilarini xalqaro ro'yxatdan o'tkazish), 1973; Budapesht Ittifoqi (mikroorganizmlarni patentlash uchun xalqaro tan olish jarayoni), 1977; Nayrobi shartnomasi (olimpiya simvollarini himoyalash to'g'risida), 1981; Mualliflik huquqi va u bilan bog'liq sohalarda: Bern ittifoqi (adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi), 1886; Rim Konvensiyasi (artistlar, fonogramma ishlab chiqaruvchilar va radio eshittirishlarini olib boruvchi tashkilotlar huquqlarini himoyalash to'g'risida), 1961; Jeneva Konvensiyasi (fonogrammalar ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini himoyalash to'g'risida), 1971; Bryussel

Konvensiyasi (sun'iy yo'ldoshlar orqali uzatiladigan dasturlarni tarqatish to'g'risida), 1974; Boshqa sohalarda: Filmlarni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida shartnoma (audiovizual asarlarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida), 1989.

WIPO ning maqsadi va vazifalari quyidagilardan iborat:

- davlatlararo va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik vositasida dunyoda intellektual mulk huquqini muhofaza etish;
- ittifoqlar o'rtasida intellektual mulk sohasida ma'muriy hamkorlikni kengaytirish;
- intellektual mulk sohasida milliy qonunchilikni takomillashtirish borasida yangi xalqaro shartnomalar tuzish;
- rivojlanayotgan mamlakatlarga texnik yordam ko'rsatish;
- axborotlar yig'ish, tarqatish va boshqalar.

WTPOga Parij yoki Bern ittifoqlariga, BMT yoki MAGATening ixtisoslashgan muassasalardan biriga a'zo bo'lgan har qanday davlat a'zo bo'lishi mumkin.

Yangi texnologiyalarni yaratishdan maqsad mazkur texnologiya asosida yaratilgan mahsulot bilan jahon bozoriga kirib borish va raqobatchilarni sindirish hisoblanadi. Xalqaro texnologiyalarni uzatishda boshqa ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati yo'lidagi singari to'siqlar mavjud. Jahon bozoridagi raqobat kurashida texnologiya muhim ahamiyatga egaligi tufayli xar bir mamlakat yangi texnologiyani mamlakatdan tashqariga chiqarishni taqiqlashi yoki chegara-lashi mumkin. Ko'pchilik mamlakatlar esa xorijiy raqobatni cheklash va ish o'rinlarini saqlab qolish maqsadida texnologiyalar importini cheklaydi. Shuningdek, milliy texnik standartlar ham xorijiy texnologiya bilan mos kelmasligi mumkin. Xalqaro texnologiyalarni uzatishni davlat tomonidan tartibga solish yoki nazorat qilishning quyidagi sabablari mavjud: Texnologik ustunlikni saqlab qolishga intilish.

Ilg'or texnologiyani mamlakatdan olib chiqib ketishni davlat tomonidan cheklash siyosati texnologik ustunlik nazariyasiga asoslanadi. U yoki bu sohada texnologik ustunlikka ega mamlakat boshqa mamlakatlar oldida texnologik sig'imkorligi yuqori mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha ustunlikka ega bo'ladi. Ammo texnologik ustunlik doimiy iqtisodiy ustunlikni ta'minlab bera olmaydi. Texnologik ustunlik kutilgan daromadni ta'minlab berar ekan ishchi kuchi, patentlar va litsenziyalarni saqlab turish, kashfiyotlarni xorijda patent-

lash uchun katta xarajatlarni talab etadi. Texnologik ustunlikka intilmayotgan mamlakatlar esa tayyor texnologiyani yoki yangi texnologiya yordamida ishlab chiqarilgan mahsulotni qalbakilashtirishi mumkin. Milliy havfsizlikni ta'minlash. Xalqaro texnologiyalarni uzatishni davlat tomonidan nazorat qilishdan ko'zlangan yana bir maqsad qurol-yarog' ishlab chiqarish bilan bog'liq va «ikki tomonlama» mo'ljallangan yuqori texnologiyalarning bir-biriga nisbatan dushmanlik siyosatini olib borayotgan mamlakatlarga yetib borishining oldini olish hisoblanadi. Misol sifatida, NATO doirasida XX asr 80-yillarining oxiriga qadar amalda bo'lgan texnologiyalarni sobiq sotsialistik mamlakatlarga eksport qilishni nazorat qiluvchi Koordinatsion qo'mitasi (KOKOM) faoliyatini keltirish mumkin. Xalqaro shartnomalarda belgilangan shartlarga rioya etish. Ko'p tomonlama kelishuvlarda ishtirok etayotgan mamlakatlar kimyoviy, biologik, bakteriologik qurollarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan texnologiyalar savdosi bo'yicha davlat nazorat tizimini joriy etishadi. Bu turdagi qurollarni ishlab chiqarish umuman ta'qiqlangan yoki bu faoliyat xalqaro miqyosda qattiq nazorat qilinadi. Xalqaro kelishuvlarga muvofiq tinchlik yo'liga xizmat qiluvchi materiallar, asbob-uskunalar yaratish uchun qo'llanuvchi, ammo ommaviy qirg'in qurollarini ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkin bo'lgan texnologiyalar va ilmiy-texnik axborotlarni chetga chiqarish davlat tomonidan nazorat qilinadi.

Xalqaro texnologiyalarni uzatishni tartibga solish mexanizmlari.

Davlat tomonidan texnologiyalarni olib kirish va chetga chiqarishni tartibga solish eksportni nazorat qiluvchi organlar, bojxona usullari va chegara nazorati ostida amalga oshiriladi. Ko'pchilik mamlakatlarda texnologiyalarni uzatishni bilvosita tartibga solish patentlar va savdo belgilarini davlat tomonidan ro'yxatga olish tizimi orqali olib boriladi. Ba'zi hollarda texnologik sig'imkorligi yuqori tovarlarni eksport qilish huquqini olishda hukumatning maxsus ruxsatnomasi talab etiladi.

Xalqaro texnologiyalarni uzatishni tartibga soluvchi qonunchilikning buzilishi davlat ahamiyatiga molik jinoyat deb baholanadi va qonunbuzarlar jinoiy javobgarlikka tortiladi. Ko'pchilik mamlakatlarda bu holat sodir etilganda xorijiy rezidentga nisbatan qat'iy

choralar ko‘riladi (bir umrlik qamoq jazosidan tortib o‘lim jazosigacha). Xorijiy texnologiyalarni import qiluvchi mamlakatlar texnologiyalarni olib kirishning qonuniyligini nazorat qiladi va jamiyat uchun xavfli texnologiya turlarining kirib kelishini ta‘qiqalaydi. Ko‘pincha mamlakatning umumiy texnologik rivojlanish darajasi ilg‘or texnologiyalarning mamlakatga kirib kelishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Mamlakatlar o‘rtasidagi ijtimoiy-madaniy va aholining ma‘lumotlilik borasidagi farqlarning mavjudligi kam taraqqiy etgan mamlakatlardagi ishchilarning yangi texnologiyalarni egallash va ishlab chiqarishda qo‘llash imkonini bermaydi. Bu esa texnologiyalarning xalqaro harakati yo‘lida jiddiy to‘sqinlik qilishi mumkin. Odatda, qurol-yarog‘, kimyoviy mahsulotlar, narkotiklar, spirtli ichimlik ishlab chiqarish bilan bog‘liq texnologiyalarni mamlakatga olib kirish davlat tomonidan nazorat qilinadi.

Asosiy tushunchalar

Texnologiyani xalqaro uzatish - tijorat yoki beg‘araz asosda ilmiy-texnika yutuqlarining davlatlararo harakati.

Neytral texnik taraqqiyot - bir vaqtning o‘zida ishchi kuchi va kapital omillari unumdorligining ortishini ta‘minlovchi texnologiyaga asoslangan taraqqiyot.

Mehnat omilini tejoychi texnik taraqqiyot - kapital unumdorligining mehnat unumdorligiga nisbatan yuqoriroq samara berishiga asoslangan taraqqiyot.

Kapital omilini tejoychi texnik taraqqiyot - mehnat unumdorligining kapital unumdorligiga nisbatan yuqoriroq samara berishiga asoslangan taraqqiyot.

Patent - hukumatning mutasaddi organlari tomonidan ixtirochiga beriladigan guvohnoma bo‘lib, u ixtirodan foydalanishda monopol huquqni beradi.

Litsenziya - texnologiya egasi (litsenziar) tomonidan manfaatdor tomonga (litsenziatga) patent bilan himoyalangan yoki himoyalangan texnologiyadan muayyan muddat va to‘lov evaziga foydalanish uchun beriladigan ruxsatnoma.

Kopirayt (taqdim etish huquqi) - adabiy, audio- va videoasar muallifining o‘z ishini ko‘rsatish va taqdim etish huquqi.

Tovar belgisi — muayyan tashkilot belgisi bo‘lib, undan tovar ishlab chiqaruvchini individuallashtirish uchun foydalaniladi.

Patent shartnomasi - xalqaro savdo bitimi bo‘lib, unga muvofiq patent egasi ixtirodan foydalanish huquqini xaridorga beradi.

Litsenziya shartnomasi - xalqaro savdo bitimi bo‘lib, unga muvofiq kashfiyot egasi texnologiyaga bo‘lgan egalik huquqini xaridorga muayyan chegara va shartlarda foydalanish uchun beradi.

“Nou-xau” - muayyan huquqqa erishish imkonini beruvchi texnik tajriba va ishlab chiqarish sirlarini taqdim etish.

Injiniring — xarid qilingan yoki ijaraga olingan mashina va uskunalarni montaj qilish hamda ishlatish uchun zarur bo‘lgan texnologik bilimlarni taqdim etish.

Patentli litsenziya - patentdan foydalanish huquqining “nou-xau”siz taqdim etilganligini tasdiqlovchi hujjat.

Patentsiz litsenziya - ixtironing patentsiz “nou-xau”dan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjat.

Istisnosiz litsenziya — litsenziyalarga shu texnologiya ushbu hududda joylashgan boshqa litsenziatlarga ham taqdim etish huquqini qoldiruvchi litsenziya.

Istisnoli litsenziya — litsenziatning texnologiyadan foydalanish monopoli huquqi mavjudligini va litsenziarning ushbu hududda patentlangan texnologiyalar hamda “nou-xau”lardan mustaqil foydalanish va ularni sotishni rad etganini nazarda tutuvchi litsenziya.

To‘liq litsenziya - shartnoma amal qilishi davrida litsenziarning patent yoki “nou-xau”dan to‘liq foydalanish huquqini va litsenziarning ulardan mustaqil foydalanishdan voz kechishini belgilovchi litsenziya.

Litsenzion to‘lov — litsenziat tomonidan shartnoma predmetidan foydalanganligi evaziga litsenziarlarga to‘lanadigan to‘lov.

Royalti - shartnomaning amal qilish muddati davrida xaridor daromadidan litsenziyadan foydalanishda oladigan foydasi hajmidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladigan ajratmalar.

Pausha to‘lovi - shartnomada qayd etilgan bir marta to‘lanadigan to‘lov bo‘lib, litsenziyadan foydalanish vaqti bilan bog‘liq bo‘lmay, ekspert baholash asosida oldindan belgilanadi.

Foydada qatnashish — litsenziya predmetidan foydalanish evaziga olingan litsenziat foydasining bir qismini litsenziarga ajratish.

Mulkda qatnashish — litsenziat tomonidan litsenziarga litsenziyadan foydalanganlik uchun o‘z korxonalari aksiyalarining bir qismini berishi.

Ishlab chiqarish franchayzingi — muayyan mahsulotni tayyorlash texnologiyasiga ega bo‘lgan firmaning mijoz firmaga mazkur mahsulotni muayyan hududda tayyorlash va sotish huquqini beradi.

Tovar franchayzingi - firmaning boshqa firmaga muayyan hududda yetakchi firmaning savdo markasidan foydalanish huquqini beradi.

Xalqaro texnik hamkorlik — mamlakatlarga qaytarib olish sharti bilan yoki beg‘araz asosda texnologik jarayonlar, mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish to‘g‘risida yordam ko‘rsatishdir.

Texnologik grantlar - rivojlangan mamlakatlar tomonidan texnologiyalar, texnologik sig‘imkorligi yuqori tovarlar yoki moliyaviy mablag‘larni ilg‘or texnologiyalarni sotib olish, personallarni o‘qitish va qayta tayyorlash uchun beg‘araz uzatish.

Texnik yordamni moliyalashtirish — texnik yordam olayotgan tomonning shartnomaga muvofiq tashkiliy vazifalarni bajarishi bilan birgalikda mazkur loyihani moliyalashtirishda ham ishtirok etishini nazarda tutadi.

Texnik yordam mexanizmlari. Loyihada qatnashayotgan mamlakatlar soniga qarab ikki va ko‘p tomonlama texnik yordam turlari birbiridan farqlanadi.

Ikki tomonlama texnik hamkorlik - donor mamlakat bilan texnik yordam olayotgan mamlakat hukumatlari o‘rtasidagi kelishuv bo‘yicha amalga oshiriladi,

Ko‘p tomonlama texnik hamkorlik — texnik yordam oluvchi mamlakatga bir necha mamlakatlar tomonidan qo‘shma loyihalar shaklida texnik yordam ko‘rsatish.

Nazorat savollari:

1. Qaysi hollarda texnologiya ishlab chiqarish omili sanalishi mumkin?
2. Texnologiyalarni xalqaro uzatish nima va u qanday shakllarda amalga oshiriladi?

3. Qaysi texnik taraqqiyot neytral, qaysi biri ishchi kuchini tejoyvchi va qaysi biri kapitalni tejoyvchi hisoblanadi?
4. Iqtisodiy o'sish va texnologik rivojlanish o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
5. Texnologiyalarning huquqiy himoya qilish mexanizmlari qanday va ular qanday shakllarda xalqaro uzatiladi?
6. Litsenzion kelishuvlarning iqtisodiy shartlari nimalarda aks etadi?
7. Xalqaro texnik yordamning qanday shakllari mavjud?
8. Xalqaro texnologiyalar bozorining rivojlanish tamoyillarini aniqlang.
9. Jahon texnologiyalar bozorining rivojlanishi qanday xususiyatlarga ega?
10. Yuqori texnologik mahsulotlar bozorida yetakchilik qilayotgan mamlakatlarning texnologik liderlari bilan bog'liq qonuniyatlarni aniqlang.
11. Texnologiyalar savdosini xalqaro tartibga solish bilan shug'ullanuvchi qaysi xalqaro tashkilotlarni bilasiz?
12. Texnologiyalarni uzatishni davlat tomonidan tartibga solish zaruriyati va sabablari nimada?

ADABIYOTLAR

I. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezidenti Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T: O‘zbekiston, 2010.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri), 2000.

3. O‘zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to‘g‘risida"gi Qonuni, 1998.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Xorijiy investorlar huquqlari himoyasi kafolatlari va choralari to‘g‘risida”gi Qonuni, 1998.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2000 y.

6. “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb yetishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi PF-3594-son farmoni.

7. “Eksport-import operatsiyalarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 martdagi PQ 26-son qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori. 16.07.2008

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Krizisga qarshi dasturga kiritilgan qo‘shimcha infratuzilma obyektlari bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № PQ-1073-son qarori. 17.03.2009.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet ellardagi mehnat faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 505-sonli qarori.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

11. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis

palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. - Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2016. – 56 b.

12. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr // Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2017. – 48 b.

13. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 4 yanvar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

14. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2017. – 488 b.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017 yil, 22 dekabr.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi. 2018 yil, 28 dekabr.

III. Asosiy adabiyotlar

20. Ishmuxamedov A.E., Yusupov A.S. Milliy va jahon iqtisodiyoti: darslik. – T., 2010 y. – 16-18 bb.

21. Jumayev N.X., Abduraxmonov O.Q. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablari va uni bartaraf etish muammolari. – T.: Akademnashr, 2010. – 160 b.

22. Мировая экономика: учебник / под ред. Б.М.Смитиенко. – М.: Высшее образование, Юрайт-Издат, 2009. – 581 с.

23. Фаминский И.П. Глобализация – новое качество мировой экономики: учеб. пособие. – М.: Магистр, 2009. – 397 с.

25. Isadjanov A.A. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi. – T.: JIDU, 2008, - 185 b.

26. Колесев В.П., Кулаков М.В. Международная экономика: учебник. – М.: INFRA-M, 2008.

27. Мировая экономика: прогноз до 2020 года / под ред. акад. А.А.Дынкина. – М.: Magistr, 2008.
28. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. – 196 с.
29. Богомолов О.Т. Мировая экономика в век глобализации: учебник. – М., 2007.
30. Устойчивое экономическое развитие в условиях глобализации и экономики знаний: концептуальные основы теории и практики управления / под ред. В.В.Попкова. Учебник. – М.: ЗАО «Экономика», 2007. – 295 с.
31. Ломакин В.К. Мировая экономика: учебник для студентов ВУЗов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 671 с.
32. Nazarova G.G. va boshqalar. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik. – Т.: RAM-S, 2007.
33. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения / Под ред. Л.Н.Красавинова. - 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2007. – 576 с.
34. Глобализация мирового хозяйства: учебное пособие / под ред. Осмовай М.Н., Бойченко А.В. – М.: ИНФРА-М, 2006. – 376 с.
35. Nazarova va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. – Т.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005. 224 b.
36. Денчев К. Феномен антиглобализма. - М.: Издательский дом ГУВШЕ. 2005.
37. Nazarova G.G., Xaydarov N.H. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar: o‘quv qo‘llanma. – Т.: TDIU, 2005. – 273 b.
38. Ливенцев Н. Международные экономические отношения: учебник. – М.: 2005.
39. Ishmuxamedov A.E. Iqtisodiy xavfsizlik. O‘quv qo‘llanma. – Т.: TDIU, 2004.
40. Alimov A., Hamidov I. O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. – Т., 2004.
41. Кузык Б.Н., Яковец Ю.В. Россия – 2050. Стратегия инновационного прорыва. – М. Экономика. 2004.
42. Акопова Е.С., Воронкова О.Н. Мировая экономика и международные экономические отношения. Учебное пособие. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2004.

43. Семёнов К.А. Международные экономические отношения. Учебник для ВУЗов. – М: ЮНИТИ – ДАНА, 2003.
44. Колосова Р.П., Артамонова М.В. и др. Глобализация экономики и занятость населения. Учебное пособие. – М., 2000.
45. Фишер Г. Глобализация мирохозяйственных связей: сущность, направления, перспективы. - М.: 2000.
46. Контуры инновационного развития мировой экономики: прогноз на 2000-2015 гг. / Под ред. А.А.Дынкина. – М.: Наука, 2000.
47. Иванов Н. Глобализация и проблемы оптимальной стратегии развития. // Мировая экономика и международные отношения. 2000. № 2.– С. 15.
48. Роцеско С. Глобализация: взаимодействия в рамках многообразия. Сборник научных докладов «Глобализация и крупные периферийные страны». – М. Международные отношения, 2003. – С.45.
49. Ляменков А.К. Тенденции развития международной торговли в условиях глобализации мирового хозяйства. В кн. Глобализация мирового хозяйства и место России. – М., 2000. – С. 161.
50. Филипп Р. Лейн и Джан-Мария Милези-Фиретти. Изучение глобальных дисбалансов // Финансы и развитие (МВФ). – 2006. – март. – С.38-41.
51. Soriel C. Immanuel Wallerstein's World System theory // Annals of the University of Oradea, Economic Science Series. – 2010. Vol. 19. P. 220–224.
52. Wallerstein I. The modern world-system. Vol. I: Capitalist agriculture and the origins of the European world-economy in the sixteenth century. – San Diego: Academic Press, 1974. — 440 p.
53. Валлерстайн И. Исторический капитализм. Капиталистическая цивилизация / Пер. с англ. М.: КМК, 2008. — 176 с.
54. Кирьянова Л.Г. Общество в контексте глобально-локальных отношений / Л.Г.Кирьянова. –Томск: Дельтаплан, 2007. 136 с.
55. Пономарева Е. Суверенитет в условиях глобализации// Свободная мысль. – М., 2007. – №11.

56. Смутс М.К. О «хорошем» управлении в международных отношениях// Международный журнал социальных наук. 1998. – №22.

57. Кузнецов В. Что такое глобализация? // Мировая экономика и международные отношения. – М., 1998. – №2, 3.

58. Бек У. Политическая динамика в глобальном обществе риска// Мировая экономика и международные отношения. – М., 2002. – №5.

59. Мировая экономика: Учебник для ВУЗов / Под ред. проф. Ю.А.Щербанина. М.: ЮНИТИ–ДАНА, 2004. С. 84-85.

60. Еремин А.В. Влияние процесса глобализации на формирование и трансформацию конкуренции. // Евроазиатский международный научно-аналитический журнал. Проблемы современной экономики, №3 (11), 2004. – С. 64-66.

61. Апухтина Н.Г. Человек в эпицентре глобальных проблем современности. –Челябинск, 1997. С.6.

62. Габдулхакова Р.В., Махов А.А. Глобальные проблемы современности: Учебное пособие. – Уфа: Изд-во УГНТУ, 2000.- 54 с.

63. Загладин В.В., Фролов И.Т. Глобальные проблемы современности: научный и социальный аспект. – М.: 1981.

64. Гладкий Ю. Глобалистика: трудный путь становления // Мировая экономика и международные отношения, 1994.- № 10.- С. 104-116.

65. Hodges R., Whitehouse D., Mohammed, Charlemagne and The Origins of Europe. – Oxford, 1983, pp. 4, 169-176.

66. В.Кропоткин, Экономические связи Восточной Европы в I тысячелетии нашей эры. –М.: 1967 г., с. 118-124; И.Спасский. Русская монетная система. Историко-нумизматический очерк. – М., 1960 г., - С. 23.

67. Кузнецов В.И. Что такое глобализация? // Мировая экономика и международные отношения, 1998, №2, с. 16.

68. Холопов А. Глобализация и макроэкономическое равновесие // Мировая экономика и международные отношения. – 2005. – №2. – С. 15–23.

69. Филатова А. С. Анализ основных рисков глобализации / А. С. Филатова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2014. — № 8.2 (67.2). — С. 57-59.

70. Громько А.А. Глобализация и глобальное управление: возможности и риски / Громько Ан. А. // Вестн. Моск. Ун-та. Сер. 25 Международные отношения и мировая политика. – 2013. - №3. – с.3 – 25.

71. Мартин, Г.П. Западная глобализации: атака на процветание и демократию: пер. с нем. / Г.П.Мартин, Х.Шуман. – М.: АЛЬПИНА, 2001. – С. 52–53.

72. Богомолов О.Т. Мировая экономика в век глобализации. Учебник. – М. 2007. С. 15.

IV. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar

73. Доклад о развитии человека 2009. ПРООН, 2009.

74. Потапов М. Мировой экономический кризис и Восточная Азия. //МЭ и МО. 2009, №12, с.19-25.

75. И.Абрамова. Денежные переводы мигрантов: роль в социально- экономическом развитии Африки. //МЭ и МО. 2009, №7.

76. Социально-демографические процессы в современном Узбекистане //Материалы Республиканской научно-практической конференции. – Т., 2009. – С. 126.

77. Трудовая миграция в Республике Узбекистан: Сборник статей /Отв ред. Абдуллаев Е.В. – Т., 2008.

78. Шишков Ю. Регионализация и глобализация мировой экономики: альтернатива или взаимодополнение? //МЭ и МО, 2008, № 8, с.7.

79. Центральная Азия и Кавказ. 2007. № 6. с. 43.

80. Василевский Э. Информационные технологии: масштабы и эффективность использования. //МЭ и МО, 2006, №5, с. 4.

81. Пороховский А.А. Новая экономика: американский вызов. //США – Канада: экономика, политика, культура. 2001, №6 – С.10.59. Статистическое обозрение Узбекистана. Т.: 2011.

82. UNCTAD World Investment Report -2009.

83. Economic and Social Survey of Asia and Pacific-2009. N.Y., ESCAP, 2009.

84. World Economic Situation and Prospects-2009. N.Y., UN, 2009.
85. Costanza Giovannelli. Trends in international migrant stock: The 2008 Revision. - United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division, Migration Section, Eighth Coordination Meeting On International Migration. - New York, 16-17 November 2009.
86. World Trade Report 2007.
87. UNIDO Industrial Statistical Database. Vienna. November 2007.
88. UNCTAD. Trade and Development Report. 2007.
89. VR Statistical Review of World Energy, June 2007.
90. UNIDO Industrial Development Report 2005. Vienna, 2005.
91. World Economic Outlook. IMF, September 2005.
92. Annual Report, WTO, 2003.
93. World Development Indicators. The World Bank, 2003.
94. World Economic Outlook, IMF, September. 2002.
95. S.Huttington. The Clash of Civilizations and the Remaking of the World Order. — N.Y., 1996.
96. Бродель Ф. Материальная цивилизация, экономика и капитализм. XV–XVIII вв. Т. 3. Время мира. М.: Прогресс, 1992. — 679 с.
97. Большой энциклопедический словарь. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Большая Российская энциклопедия; СПб.: Норинт, 1998. – С. 1233.
98. Rosenau J.N. Turbulence in World Politics. A Theory of Change and Continuity. – Princeton (N. J.): Princeton University Press, 1990. – 480 p.
99. [Mau1 H.W. World Politics in Turbulence // Internationale Politik und Gesellschaft Online. 2011, N.1. – P. 11–25. – \[http://library.fes.de/pdf-files/ipg/ipg-2011-1/2011-103_a_mau1.pdf\]\(http://library.fes.de/pdf-files/ipg/ipg-2011-1/2011-103_a_mau1.pdf\)](http://library.fes.de/pdf-files/ipg/ipg-2011-1/2011-103_a_mau1.pdf)
100. Rosenau J.N. Along the Domestic-Foreign Frontier: Exploring Governance in a Turbulent World. – Cambridge: Cambridge University Press, 1997. – P. 144–173.
101. Keyes R. The Post-Truth Era: Dishonesty and Deception in Contemporary Life. – New York: St. Martin's, 2004.

102. Fake news is «very real» word of the year for 2017 // The Guardian. 2017. – 2 November. – <https://www.theguardian.com/books/2017/nov/02/fake-news-is-very-real-word-of-the-year-for-2017>

103. UNCTAD, World Investment Report, 2002. Transnational Corporations and Export competitiveness. – New York and Geneva: United Nations, 2006. P. 3.

104. Трейвиш А. И. От Персеполиса до Франкфурта / А. И. Трейвиш // Независимая газета. Сценарии, 22.04.2008.

105. Wallerstein I., The Modern World-System. Capitalist Agriculture and the Origins of the European World-Economy in the Sixteenth Century. – New York, 1974, pp. 15-18.

106. Goubert P. L'ancien regime. Paris, 1969-1973, tome II, p. 198; Mandrou R. La France aux XVIIe et XVIIIe siecles. – Paris, 1987, p. 89.

107. Стриженко А.А. Глобализация мировой экономики: основные тенденции // Ползуновский альманах. – 2000. – №3.

108. Некипелов А. Глобализация и стратегия развития экономики России // Проблемы прогнозирования, 2001, №4. – С.7.

109. Нечай А. Глобализация мировой экономики и роль государства // Журнал международного права и международных отношений, 2010. – №4.

110. World Migrant Stock: The 2005 Revision Population Database (<http://esa.un.org/migration>)

111. Fiorentino R., Verdeja L., and Toqueboeuf Ch. The Changing Landscape of Regional Trade Agreements. 2006.

112. Джерри, Д., Джерри, Дж. (сост.) 1999. Большой толковый социологический словарь: в 2 т. Т. 2. М.: Вече.

113. Аверьянов, Ю. И. (сост.) 1993. Политология. Энциклопедический словарь. М.: Изд-во Моск. Коммерч. ун-та.

V. Internet saytlari

114. www.un.org – BMT sayti

115. www.un.org.esa – BMT statistikasi

116. www.worldbank.org – Jahon banki sayti

117. www.unctad.org – YUNKTAD sayti

118. www.wto.org – JST sayti

119. www.uza.uz – O‘zbekiston Respublikasi milliy axborot agentligi
120. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali
121. www.press-service.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati
122. www.pravo.vsem.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi yangiliklar
123. www.mfa.uz – O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. www.mfer.uz – O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar investitsiyalar va savdo vazirligi
124. www.aci.uz – O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi
125. www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi
126. www.mineconomy.uz – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi
127. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi
88. http://www.intereconomic.ru/str_21.php

MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| Kirish | 3 |
| 1-mavzu. “Global iqtisodiy rivojlanish” faniga kirish | 5 |
| 2-mavzu. Global iqtisodiyotning o‘zgaruvchan konturlari va drayverlari | 58 |
| 3-mavzu. Xalqaro savdo | 90 |
| 4-mavzu. To‘lov balansi | 117 |
| 5-mavzu. Global iqtisodiyotda g‘oliblar va mag‘lublar | 129 |
| 6-mavzu. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar | 143 |
| 7-mavzu. Xalqaro valyuta tizimi va siyosati | 164 |
| 8-mavzu. Globallashuv sharoitida ishchi kuchi migratsiyasi... | 183 |
| 9-mavzu. Globallashuv sharoitida transmilliy korporatsiyalar. | 226 |
| 10-mavzu. Jahon iqtisodiyotining tarmoqlari | 270 |
| 11-mavzu. Rivojlanayotgan bozorlar va moliyaviy inqirozning o‘sishi | 287 |
| 12-mavzu. Jahon iqtisodiyotining tarmoqlari: sanoatni avtomatlashtirish | 331 |
| Adabiyotlar | 354 |

MAMARAXIMOV BEKZOD ERKINOVICH

GLOBAL IQTISODIY RIVOJLANISH

**Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH
NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021**

| | |
|--------------------------------------|---------------------|
| Muharrir: | N.Ibragimova |
| Tex. muharrir: | M.Tursunov |
| Musavvir: | A.Shushunov |
| Musahhih: | L.Ibragimov |
| Kompyuterda sahifalovchi: | M.Zoyirova |

**E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35
№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2021.**

Bosishga ruxsat etildi 09.09.2021.

Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasini.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 23,5. Nashriyot bosma tabog'i 22,75.

Tiraji: 50. Buyurtma № 243

**«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI»
bosmaxonasida chop etildi.**

100174, Toshkent sh, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 7-uy.



ISBN 978-9943-7395-0-5

